

# ASR OSHGAN ASARLAR

---

## QYBEK NAVOIY

*Roman*



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2004

## **T a h r i r h a y ' a t i:**

Bobur ALIMOV (*hay'at raisi*), Said AHMAD, Ahror AHMEDOV (*hay'at raisi o'rinbosari*), Naim KARIMOV, Tohir MALIK, Murodjon MANSUR, Omon MUXTOR, Umarali NORMATOV, Anvar OBIDJONOV, Shuhrat RIZAYeV, Nosir FOZILOV, Shukur XOLMIRZAYeV, Islom ShOG'ULOMOV, Ibodulla SHOYMARDONOV, Barnobek EShPO'LATOV (*hay'at kotibi*), O'tkir HOSHIMOV.

O-38

### **Oybek.**

Navoiy. Roman. /«Asr oshgan asarlar» turkumi//  
Tahrir ha'yati: Bobur Alimov va boshq./. — T.: «Sharq»,  
2004.— 496 b.

**BBK 84(5U)I**

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati, 2004

*Navoiy she'riyati va Navoiy obrazi hamisha kuchli bir quyosh kabi ko'nglimni tortar edi. O'z asarlarimda shoir Navoiy obrazi yaratishga zo'r mayl, orzu, istagim bor edi. Lekin tarixga ko'z tashlasam, Navoiy gigant, buyuk bir siymo holda qarshimda turar edi. Yoshligimdan beri Navoiyning o'lmas, abadiy she'rlarini sevib o'qir edim, uning jozibali g'azallari borgan sari ko'nglimga singib bordi, shakl va mazmunlari yuragimni mast va maftun etdi.*

## **Birinchi bob**

### **I**

Bahor quyoshi ko'kning tiniq feruzasida Hirotning Gavharshod madrasasining haybatli gumbazi ustida porlar, gumbazning azamat peshtoqlarining naqshlari sho'ralarda jonli, havoiy bir chamanzor kabi turli-tuman olov ranglar chaqnatar, kabutarlar dam uchib, dam sirpanib qo'nib, gumbaz tevaragida quvonch bilan inoq o'ynashar edi. Bir tomoni xonaqoh, uch tomoni katakcha-hujralar bilan o'ralgan madrasaning keng, tekis, chorburchak sahnidan kecha shovdirab o'tgan yomg'ir ko'zga ilinar-ilinmas bug' bo'lib havo-ga ko'tarilmoqda edi. Tolibi ilmlarning aksari bukun hovliga chiqishgan. Ular yapaloq g'isht yotqizilgan yo'lkalarga bo'yralar solib dars tayyorlashadi. Ularning qay biri «Qofiya»<sup>1</sup>da, qay biri «Hoshiya»<sup>2</sup>da, qay biri «Shamsiya»<sup>3</sup>da. Mana bunda biri kitobni tizzasiga qo'yib katta sallali boshini uzluksiz chayqab, ko'zlarini chirt yumgan holda g'o'ng'illab «Arabiyot»<sup>4</sup>ni yodlaydi. Nariroqda uch mullabachcha bir bo'yra ustida o'tirib, mushkul bir masalani bahslashadi. Ulardan biri — sersoqol, rangpar va oriq — o'z mantiqining

<sup>1-3</sup> Madrasalarda o'qitiladigan darslik kitoblar.

<sup>4</sup> Arab tili qoidalari.

kuchini ko'rsatishga va «haqiqat mezoni»ni o'zicha ta'rif etishga astoydil tirishar, sheriklarining dalillarini rad etardi. Undan yoshroq, lekin o'jarlikda undan aslo qolishmaydigan sheriklari qichqirib, yangi-yangi dalillar, mulohazalarning tilsimli qo'rg'onini bir zumda so'z bilan yasab qo'yardilar. Ba'zan asl mavzu-bahs g'oyib bo'lar, ular bahs asnosida kelib chiqqan yangi nuqtalarga berilib, so'z changalzorining tikanli mushkilot bilan to'la sohalarida urina-urina, yana asli masalaga qaytishadi. Bahslashuvchilar ba'zan munozara alangasida o'zlarini unutib, bir-birlariga dag'al iboralar aytishar, ba'zan burgutday hurpayib, bir-birlariga chang solmoqqa tayyorlanganday qiziq bir vaziyatda bir zungina qotishardi. Bu hol madrasa dunyosida juda oddiy va tabiiy hodisa bo'lgani uchun ularning asabiy shovqiniga atrofdagilardan hech kim e'tibor qilmas edi.

Hujralar bo'm-bo'shdek ko'rinsa ham, xonaqohning pinjiga tiqilgan, quyoshga ters bir hujrada to'rt kishi g'uj bo'lib, odatdagicha, gurunglashib o'tirishar edi. Hujra tor, zaxkash. Eshikchani lang ochiq bo'lishiga, bahor quyoshida ko'z qamashtirib porlagan kunduzga qaramay, bu yerda nim qorong'ilik hukm surardi. Bu narsa yolg'iz bu hujraga xos sifat emas, albatta. Madrasa hujralari — tolibi ilmlar maskanlarining keng, bahavo bo'lishi go'yo odatga, an'anaga, butun zehniyatga zid bo'lgandek, Sharqda madrasa hujralari bir-biridan hech farq qilmaydi deyish mumkin... «Ilm igna bilan quduq qazish» degan qadimgi fikrga hujralarning andozasi yorqin bir misol bo'lsin, deb bir zamonlar me'moriy san'atda<sup>1</sup> tolibi ilmlar uchun shu andozani qabul qilgan bo'lsalar ehtimol...

Nim qorong'i, zaxkash hujrada ulfati chorning suhbatini uzilmas edi. Bulardan uchi tolibi ilm bo'lib, to'rtinchisi bu hujra sohibining mehmoni edi. Bularning ilm darajalari, yoshlari, fe'l-huyllari orasida katta tafovut, hatto ziddiyat bo'lishiga qaramay,

---

<sup>1</sup> Go'zal binolar qurish san'ati.

madrasaning eng qashshoqlari boʻlganlaridan, aksar vaqt toʻplanib, «ikki yarim — bir butun», deganday ovqat tadorikini birga koʻrishar edi. Bukun ham xuddi shu maqsadda yigʻilishib, dekcha qaynatish gʻamida bosh ogʻritishardi. Yosh jihatdan eng kattasi — hujra sohibi Aloiddin Mashhadiy boʻlib, chuvak yuzini dagʻal qora soqol bosgan, payvasta quyruq qoshli, har vaqt yarim yumuq xira koʻzli, past boʻyli, chamasi qirq yoshdagi kishi edi. U oʻn besh yildan buyon «Gavharshod» madrasasida, shu hujrada istiqomat qilar, bundan biron yoqqa qoʻzgʻalishi ham belgisiz edi. Aloiddin Mashhadiy oʻz zamonasining eng peshqadam mudarrislarida oʻn yillab dars olgan boʻlsa ham, biron ilmida oʻzini yorqin koʻrsata olmagan. Bir necha yildan buyon ilmlardan koʻngli sovib, darslarga koʻpincha qatnashmaydi ham. Lekin zamonaning bir koʻp odamlariga muyassar boʻlgan shoirlik baxti yoki baxtsizligi uni ham benasib qoldirmagan. U sheʼrning turli navlarida qalam yuritadi. Tunlarni uyqusiz kechirib, devon ham tartib qilgan; muammoʻda oʻzini yagona boʻlmasa-da, har holda eng chapdastlardan hisoblaydi. Ammo uning bu sohadagi mahorati ham xuddi devoni kabi hanuz sheʼr olamiga tanilgan emas, bu ahvolga u gʻoyat qaygʻuradi, dard uni ich-ichidan kemiradi. Umidsizlik, oʻksiz ruh uni bir zum ham tark etmaydi. Shuhrat, iltifot qidirgan shoir shohlarga boʻlmasa-da, beklarga, vazirlarga, hatto bulardan quyiroqdagilarga ham qasidalar yozib taqdim etadi. Savodsiz bekni «Jomi ul-ulum»<sup>2</sup>, «Xazinai maoniy»<sup>3</sup>, «Fuzalo va shuaro homiysi»<sup>4</sup> deb yuksaltiradi. Uning sultonlarga, hatto beklarga navkar boʻlib oʻtgan otabobosini oftob olamtob yaratilgandan beri davlati, iqboli zavol koʻrmagan oliy nasabli «saltanat spehri-ning xurshidi»<sup>5</sup> va hokazo puchak, lekin koʻz qa-

---

<sup>1</sup> Kichik sheʼr turi; shoirlar muammoda kishi ismini yashiradilar.

<sup>2</sup> Ilmlar yigʻindisi.

<sup>3</sup> Maʼnolar xazinasi.

<sup>4</sup> Shoirlar va fozillarni himoya qiluvchi.

<sup>5</sup> Podshohlik osmonining quyoshi.

mashtirgich yaltiroq soʻzlar bilan madh etmoqqa mohir. Aloiddin Mashhadiy asabiy, jizzaki, sezgir shaxs; arzimagan narsaga kishidan koʻngli qoladi. U kimdan ranjisa, oʻsha soatda bir hajv ila oʻz «dushman»ini soʻz balchigʻiga shunday bulgʻaydiki, oʻqirkan, eng chirkin hid burqib turadi.

Ikkinchi mullabachcha hirotlik oʻrta hol oilaga mansub Zayniddin, qaddi-qomati nozik, xushmuomala, xushsuhbat, havoyi tabiatli yigirma-yigirma bir yashar yigit edi. U toʻrt-besh yildan buyon tahsil koʻrib, baʼzi ilmlarda ancha ilgarilagan. Arab va fors tillarini yaxshi egallagan. Lekin havoyi tabiatli boʻlishi va hayotda ziynatni, xursandchilikni sevishi orqasida tahsilga uncha qunt qilmaydi. Koʻproq vaqtini sanʼatlarga bagʻishlaydi. Madrasa ahli orasida u oʻzining husnixati bilan mashhur. Bundan tashqari, yaxshi kuyalaydi, gʻijjakni goʻzal chaladi: keyingi vaqtlarda otasi bilan orasi buzilib qolgach, faqirlikka tushdi. Bu madrasada va oʻzga madrasalarda boʻlgan asilzoda, sohibi davlat<sup>1</sup> talabalarning va Hirotidagi bekdoda, vazirzodalarning kechki bazmlariga, yigʻinchoqlariga borib, kuyi, sozi bilan oʻltirishni qizitib, qornini toʻydirar edi.

Uchinchi talaba ikki yil burun Shahrisabzdan tahsil uchun kelgan doʻng peshonali, miqti gavdali, oʻtkir, yirik koʻzli oʻn sakkiz yashar Sultonmurod edi. Bu yigit Shahrisabzda mashhur sangtarosh ustaning oʻgʻli edi. Usta Samarqandda ish vaqtida katta bir bino tepasidan yiqilib oʻlganda, Sultonmurod uch yashar bola edi. Oʻqimishli, jonkash-jafokash onaning tarbiyasida ulgʻayib, dastlab oʻz shahrida, soʻngra Samarqandda tahsil koʻrib, nihoyat, qarindoshlarining yordami bilan Hirotga kelib, bu madrasaga joylashgan edi. Uning isteʼdodi madrasa ahligagina emas, balki Hirotning aksar olimlariga maʼlum. U barcha mavjud ilmlarni egallab, zamona olimlarining peshvosi, «saro-madi» boʻlishga tirishadi. Diniy ilmlardan tashqari,

---

<sup>1</sup> Boy, davlatmand.

riyoziyot<sup>1</sup>, ilmi nujum<sup>2</sup>, mantiq, adabiyot va hokazolarda keng, pishiq ma'lumot kasb etgan edi. U o'n to'rt yashar vaqtida Samarqandda bir domlasi unga shunday degan edi: «Qadim zamonda bir olim o'tgan ekan. U, agar rub'i maskun<sup>3</sup>dagi barcha olimlarning xotirlaridan barcha ulum va funun<sup>4</sup> banogoh ko'taril-sa, u ilmlarning hammasini asliday tirgizishga qodirman, der ekan. O'g'lim, sizda o'shanday zako va iste'dod ko'raman, sa'y-g'ayratni aslo qo'ldan bermangiz!» Ilmlarda ana shu afsonaviy olimning darajasiga ko'tarilish Sul-tonmurodning g'oyasi edi.

Bu yerda hammadan ajralib turgan shaxs — Aloiddin Mashhadiyning mehmoni samarqandlik To'g'onbek edi. U yo'g'on, chorpaxil gavdali, dakkam-duk-kam qizg'ish mo'ylabli; keng, qoramtir yuzining yonoqlari bo'rtgan; qisiq ko'zlari ayyorcha beqaror; kunlar isib ketgan bo'lsa ham, uning egnida qo'pol eski po'stin, boshida qunduzi qalin katta bo'rk... To'g'onbekning ota-bobolari Amir Temur davrida katta mansablar ishg'ol etganlar. Ularning orasidan mashhur askar boshliqlari, davlat xodimlari va dabdabali tarxon<sup>5</sup>lar chiqqan. Lekin, keyinchalik, Temur davlati parchalanib, shahzodalar orasida toj-taxt uchun urush, janjallar qizib ketgach, bu oilaning ovo-zasi asta so'na boshlagan: dadasi Feruzbek qaysi bir safarda dom-daraksiz g'oyib bo'ldi. Obro'li obo-g'alari<sup>6</sup>, tag'oyillari, amakilari ham birin-sirin mavqe-larini yo'qotdilar. Ba'zilar aka-uka, ota-bola sul-ton-larning o'zaro urushlarida qirildi, ba'zilar o'z dush-manlaridan xavfsirab yoki yangi baxt qidirib, uzoq ellarga ko'chib ketdi. O'n yetti yoshdan boshlab To'g'onbek Movarounnahrda, Xurosonda, Dashti Qipchoqda, Iroqda va, umuman, bir vaqtlar Amir Temurning qilichiga tobe bo'lgan bir ko'p mamlakat-

---

<sup>1</sup> Matematika.

<sup>2</sup> Astronomiya.

<sup>3</sup> Dunyo ma'nosida.

<sup>4</sup> Fanlar.

<sup>5</sup> Podshohdan alohida huquq va imtiyozlar olgan aslzoda.

<sup>6</sup> Qarindoshlari.

larda qaynoq siyosiy kurashlarga, uzluksiz qo'zg'olonlarga, fitnalarga boshi bilan sho'ng'idi. Baxt, shonshavkat qidirib, o'zini o'tga-cho'qqa urdi. Chig'atoy-o'zbek sultonlari, turkman beklarining ostonalarini yaladi. Har qaysisida bir muddat xizmat qildi: aldadi, aldandi; taladi, talandi. Nihoyat, bundan ikki oy ilgari, yigirma besh yoshida Hirotda yuzlandi. Uchrashuvning tasodifiy bo'lishiga qaramay, Aloiddin Mashhadiy bilan do'st tutunib, bu hujraga tiqilib oldi.

To'g'onbek chalasavod bo'lsa ham, ilm-fanning qadri-qiyamatini biladi. Talabalarning suhbat va munozaralariga diqqat bilan quloq soladi, lekin bu sohani o'zi uchun begona hisoblaydi. Ilm-tahsil — yuvosh, tinch, sabr-qanoatli odamlarning ishi, To'g'onbekning xayoli esa har vaqt jahongashtalik olamida parvoz etadi: u uchqur otda chaqmoqday yonib, janglarda qilichbozlik qilishni, o'q-yoy otishdagi kuchi va mahorati bilan barchani tong qoldirishni, qal'alarga bosqin yasashni, tog'day yuksalgan qo'rg'onlarga botir yigitlar bilan birga shotular<sup>1</sup> qo'yib, hoy-huy, arosat solishni, sahroyi xalqning qishlovlariga ot qo'yib, minglab qo'ylarni o'lja haydashni sevadi. To'g'onbek biron tumanga bek tayinlanib, atrofiga bir dastagina chopqinchi zabardast yigitlardan to'plab, hiylanayrang, aldash, do'q, bosqinchilik va hokazo yordami bilan o'zga beklarni, hokimlarni biror-biror ag'darish, nihoyat, poytaxtlardan shohlarni haydab, o'zi toj kiyish yoki qang'ib yurgan shahzodalardan bironta bo'sh-bayovini taxtga o'tqazib, butun hokimiyat jilovini o'z qo'lida tutish singari umidlarning yurakdagi alangasi bilan yashadi. Buning uchun kurashdi. Na qilsinki, bu umidlarni amalga oshira olmadi. Hatto bir necha da'fa bu qing'ir yurak boshqalarga sezilib qolayozdi. Uning boshi bilan birlikda bu telba umidlarni kesmoqqa ko'tarilgan qilichdan o'zini zo'r-bazo'r qutqarib, Hirotda bu madrasa kavagini in qilishga majbur bo'ldi. Lekin To'g'onbek hali bu umiddan

---

<sup>1</sup> Narvonlar.



qaytgan emas. Unda hali ishonch zo‘r: Temurning evara-chevaralari ko‘p; bular ham qo‘ziqorinday ko‘payib turadilar. Bola otaga, ota bolaga, aka ukaga, tog‘a jiyanga qarshi isyon ko‘tarishi bu mamlakatda bir odat bo‘lib qolgan. Bundan tashqari, katta-kichik shaharlarda, viloyatda beklar, hokimlar bor. Mol-mulkka, shon-shavkatga, hokimiyatga ularning ishtahalari hamisha karnay. Shu sababdan To‘g‘onbek qonli g‘avg‘olarining, ur-yiqitlarning uzoq davom etajagini anglaydi-da, faqat o‘ng‘ay fursat va sharoitni kutadi...

Vaqf mablag‘lari bilan kun kechiruvchi talabalarining ahvoli og‘ir. Qo‘llariga tekkan naqdlarni qish allaqachon yutib qo‘ygan. Endi haftada bir-ikki topqir qozon qaynatish ham mahol. Sotish uchun qo‘lga ilinarli hech nima yo‘q. Ovqat to‘g‘risida bosh qotirilar ekan, aksar vaqt To‘g‘onbek: «Bir ilojini topg‘aymiz, Hirotday shahri azimda bu qanday dag‘-dag‘a!» deb po‘ng‘irlardi-da, lapanglab chiqib ketar, ovqat uchun kerakli masalliqni tezda topib kelardi. Kissasining ko‘pdan buyon qup-quruqligini sezsalor ham, mablag‘ni qayerdan va qanday qilib topganligini undan surishtirmas edilar. Lekin bukun gap shu to‘g‘rida soatlab davom etsa ham, To‘g‘onbekdan sado chiqmadi. U fe‘li ayniganday, hujraning bir burchagiga tiqilib, qisiq ko‘zlarini bir nuqtaga yomon tikib o‘tirdi.

Chuchitilgan moy va qovurilgan go‘shning mazali hidi dimog‘larga urildi. Bir ko‘p hujralarda kunda ikki mahal laziz taomlar pishiriladi. U hujralarning egalari vaqfxo‘rlar emas. Ular yuksak oilalarning o‘g‘illari. Ular kechalari shirin suhbatlar tuzadilar. Do‘st-yorlar yig‘ilishib, chag‘ir<sup>1</sup> ichib, musiqiy va raqslar bilan tong ottiradilar...

Uzoq kengashdan so‘ng biron ma‘qul chora topilmagach, yog‘ochday qotgan, junsiz, taqir po‘stakda hujra to‘rida o‘tirgan Aloiddin Mashhadiy kichkina gavadasi bilan yengilgina qo‘zg‘alib, uzun pechi osilgan

---

<sup>1</sup> May.

katta sallali boshini chayqadi. So‘ng dardli bir uh tortib, dunyoning buqalamunligi haqida shikoyatlandi, ingichka tovush bilan cho‘zib o‘qidi:

*Uftod ast dar jahon bisyor,  
Betamiz arjimandu oqil xor<sup>1</sup>.*

Zayniddin sinovda ko‘p durust natija bergan taklifni, ya‘ni Hirotning saxovatli a‘yonlaridan<sup>2</sup> yoki eski shahzodalardan biriga qasida yozib, murojaat qilishni taklif etdi. Bu fikr hammaga ma‘qul tushsa ham, Aloiddinga yoqinqiramadi, chunki bu uning yolg‘iz o‘ziga xos ish bo‘lib, boshqalarni sherik qilishga tobi yo‘q edi. Kim biladi, ehtimol, Mashhadiyning silliq nazmi, rangli uslubi valine‘mat<sup>3</sup>ning ko‘nglini shunday asir qilarki, u aqcha bilan birga bir necha qo‘y va isqarlot<sup>4</sup> chakhmon ham in‘om qilib yuborar! Shu damgacha Mashhadiy hech bir boyondan, hech bir a‘yondan bunday iltifotga noil bo‘lmagan esa-da, xomtamalik orqasida shunday mulohazani xotiridan kechirdi...

Aloiddinni yumshatish uchun Zayniddin ingichka qoshlarini ma‘nodor chimirib, dedi:

— Agar qasida shoiri bo‘lsam edi, xoqon ibni xoqon Sulton Husayn Boyqaro hazratlariga bir bemisl qasida yozib, janobi oliydan shohona sarupolar olar edim, chunki ayni vaqti: ikki hafta muqaddam ul janobning muborak boshlariga humoyun qushi<sup>5</sup> qo‘ndi, ko‘ngillari barqaror bo‘ldi. Shuaro<sup>6</sup>ga saxovatning yetti darvozasini ochishlariga aminmen.

— Sulton hazratlarining o‘zlari ham otashnafas shoir emishlar,— dedi Sultonmurod,— ash‘or<sup>7</sup>ni go‘zal va ravon so‘ylarmishlar. Ma‘niyi xos<sup>8</sup>ning,

---

<sup>1</sup> M a ‘ n o s i: Aqlli, o‘qimishli odamlar xor-zor bo‘lib, johillarning aziz bo‘lgani dunyoda ko‘p ko‘rilgan hodisadir.

<sup>2</sup> Davlatda yuqori mavqeli, e‘tiborli odamlar.

<sup>3</sup> Himoya qiluvchi, xayri ehsonli kishi.

<sup>4</sup> Qimmatbaho mato.

<sup>5</sup> Podshohlik qushi.

<sup>6</sup> Shoirilarga.

<sup>7</sup> She‘rlar.

<sup>8</sup> Alohida, nodir, chuqur ma‘no.

nozik, rangin xayolning oshiqi bo'lgan tojdorning, albatta, shuaroga homiy bo'lishlariga aslo shubha qilmaymen...

Aloiddin bu so'zlarga e'tibor qilmaganday ko'rishga tirishsa ham, ichi yulindi. Zayniddinning so'zlarini kinoya deb tushundi. Sultonmurodning so'zlariga: «Yangi podshohning o'zi katta shoir, nozik zavq egasi. Sen unga qasida yozib ovora bo'lma!» degan ma'no berdi-da, boshini ichiga olib, sukut qildi.

Hali ham hurpayib o'tirgan To'g'onbek, odati bo'yicha, salmoqlanib:

— So'fi so'g'on yer, topilsa yo'g'on yer, deganday, endi podshohdan bir nima yulmoqchimisizlar! Tangriga sig'ininglar... Tojdorlarning o'ziga yarasha tashvishi bor: navkar saqlash kerak, qo'rg'on tuzatish kerak. Podshohlar madrasadan ko'ra, safar to'g'risida ko'proq o'ylashi kerak, — dedi.

— Husayn Boyqaro hazratlari ham shoir, ham ilm-parvar emishlar. Yaxshi ishlarga bel bog'lashlarini umid qilmoq mumkin,— dedi Zayniddin ishonch bilan.

— Sahroning bag'ri yomg'irga tashna bo'lganidek,— dedi Sultonmurod qo'llarini harakatga solib,— ko'hna Xurosonning eli adolat va fazilat quyoshiga tashnadir. Shoyad umidlarimiz behuda bo'lmas.

To'g'onbek dakkam-dukkam mo'ylabini yo'g'on barmoqlari bilan chintib, kinoyali kulib qo'ydi.

Aloiddin Mashhadiy yarim yumuq ko'zlarini, har vaqt ensasi qotganda qilganidek, butunlay yumib oldi.

Eshikda qari farrosh Hoji Solih paydo bo'ldi. U darveshnamo, kamtarin, xayolchan kishi edi.

— He, a'lam molata'lamun<sup>1</sup>, shundamisiz? — dedi Sultonmurodga va tabassum bilan davom etdi chol. — Chorsuv tomonga yo'lim tushgan edi, halvofurush do'stingiz sizning va mulla Zayniddinning bormoq-

---

<sup>1</sup> O'qimasdanoq ko'p bilim orttirgan, katta olim ma'nosida.

liqlarini o'tinib qoldilar. Yangi ash'or o'qib beradilarmi yoki o'zga mulohaza...

Sultonmurod suyunib Zayniddinga qaradi.

— Boramiz, albatta, — dedi Zayniddin o'rnidan qo'zg'alib, — shirin suhbat bilan dillarning g'uborini sovuramiz.

— Ajab Hirot ekan! — dedi boshini qimirlatib To'g'onbek. — Halvofurushi ham shoir, kabobpazi ham shoir... Boringiz, g'azalining toti bo'lmas, balki halvosining totli bo'lishida gumonim yo'q...

— Halvofurush mavlono Turobiy insoni komil odam, — dedi jahl bilan Zayniddin. — Istasangiz, sizni ham olib boramiz, o'zingiz xolis baho berursiz.

To'g'onbek, rozi bo'lgandek, jilmayib qo'ydi. Aloiddin Mashhadiy ko'zlarini sal ochib, yuzini ters o'girdi.

Ular peshin namozini o'qib bo'lib, madrasadan chiqishdi. Eski bo'lsa ham, top-toza, uzun, keng olacha to'n kiygan, boshlariga qordek oppoq salla o'ragan va madrasa ahliga munosib mutavoze'lik ham g'urur bilan ketayotgan ikki mullabachchanning o'rtasida qo'sqi po'stinli, katta bo'rkli, chorpaxil To'g'onbek, otda ko'p yurganidan, oyoqlarini kerib bosib, lapanglab borar edi. Odati bo'yicha, Zayniddin yo'l-yo'lakay bir-ikki yerga, ko'z ochib yumguncha kirib chiqishi kerakligini aytib, hamrohlarini sudradi. To'g'onbek norozilanib po'ng'illadi. Sultonmurod ma'nodor kulib qo'ydi. Zayniddin bilan yo'lga chiqilsa, manzilga horib-charchab borilar edi. Har ko'chada, har muyushda uning turli tabaqaga mansub do'stlari, tanishlari, hazilkashlari va hokazo uchrar; Zayniddin ularning biridan Hirotida ro'y berib, hali quloqqa chalinmagan, ko'pincha, qiziq bir voqeani, sirli bir mojaroni bilib olar; ikkinchisi bilan bir nafas hazil-mutoyiba qilar, biron latifa aytib, atrofidagilarni ko'zlari yoshlanguncha kuldirar; uchinchisi bilan biron masala ustida bahslashar... Oyoqda turib shoirning yangi g'azali yoki qasidasini, cholg'uvchining yangi maqomini tinglar; Hirotning ko'cha yigitlari bilan

ularning tilida, ruhida bir nafas hangomalashar; mudragan semiz qassobning qornini, xasis baqqolning pachaq tarozusini, havoni yangratib qichqirgan nonvoyning nonini bittadan bayt aytib, hajv etar... Shunday qilib, shaharning qarama-qarshi tomonlariga, masalan, shimoldagi Darvozai Mulkdan janubdagi Darvozai Feruzobodga chiqib qolganini kishi sezmay qolardi.

Sultonmurod tixirlik qilib, sug'urilib qochishni ko'zlagan To'g'onbekning qo'ltig'iga kirib, do'stining orqasidan shod va yengil odim otdi; qariyb bir haftadan buyon madrasadan chiqmay, nim qorong'i, zax hujrada muttasil kitob mutolaa qilganidan, iliq-yorqin havoda kezishga mayli kuchli edi.

Hirotda bahor... Har ikki yog'ida aksari bir qavatli, eski, yangi, ko'rimli, ko'rimsiz paxsa devorli uylar orasida boloxonali, rango-rang, guldor naqshlar bilan bezalgan imoratlar qatorlashgan toza ko'chalarda, odamlar g'uj qaynagan maydonlarda, zumurrad yashilga ko'milgan bog'larda, xiyobonlarda quyosh toshqini...

Zayniddin qiziq gaplar bilan hamrohlarini kuldirib borar, goho ulardan bir zungina ayrilib, qayerlarga bosh suqib, qandaydir tanishlari bilan so'zlashib, yana qaytar va hikoyasini davom ettirardi. Sultonmurod do'stini tabassum bilan tinglab, Hirotning bahorda toza husn bilan yashnagan ajoyib manzaralariga suqlanib qarar, shodlikdan hislarning sho'xligidan ko'ksi to'lib-toshardi. U Hirotni sevardi. Butun atrofi muazzam kungurador qo'rg'on bilan o'ralgan bu katta shaharda ulug' madrasalar, qo'sha-qo'sha adl, yuksak minoralarini tiniq zangori samoga uzatgan masjidlar, san'atning butun mo''jizalari bilan bezalgan boy saroylar ham bog'chalar, chamanzorlar o'rtasidagi yengil, havoii ko'shklar, koshonalar, ulug' odamlarning, aziz-avliyolarning hamisha ulug'vor sukunatga ko'milgan toza, chiroyli maqbara-mozorlari va hokazo ko'p edi. Sultonmurod bunday yerlarga takror-takror kelib, fikrlariga berilib tanho tentirashdan zavqlanardi. U bu shaharning tarixiga qiziqib, uning eski binolari,

maydonlari, bozorlari, ko'priklariga doir ma'lumotlarni eski qo'lyozmalardan, vasiqalardan, afsonalardan to'plamoqqa boshlagandi. Vasiqalar, afsonalar bu shaharni Iskandar Zulqarnayn bino qilganini so'ylar edilar... Bir yil-bir yarim yil ichida u go'zal, tarixiy binolar haqida o'nlab, Hirot haqida esa yuzlab baytlar, ruboiylar to'play bildi. Hirotning ulug'ligi, go'zalligi, ahamiyati haqida hamma qalamlar hamfikir edi:

*Hirot chashmu charog'i jamii buldon ast.*

*Jahon tan astu ba nisbat Hirot chun jon ast<sup>1</sup>.*

Hirotliklar o'z shaharlari bilan faxrlanar, uning tuprog'ini oltinga, bog'larini jannatga, suvlarini kavsarga o'xshatar edilar. Samarqandlik, bag'dodlik, misrlik, hindlik va xitoylik hamma sayyohlarga bu shahar manzur bo'lardi.

Zayniddin to'xtab, Hirotning darveshnamo mashhur naqqoshi bilan hangomalashib qoldi. Bu yer tepalik edi, bu yerdan shaharning ajoyib azamat inshooti — Qal'ai Ixtiyoriddin yaqqol ko'rinardi. Bu — qatqat tog' kabi yuksalgan, muazzam qulalari, kungirador qalin devorlari, tepa-tepa tuproq uyumlari bilan Hirot samosiga hokimlik qilgan qal'a edi. Mojarolar bilan to'la umrida katta qal'alarni ko'p ko'rgan, ularga jangda hujum qilgan To'g'onbek kichik, qiyg'och ko'zlarini qisib, qal'aga tikildi. Bu qal'aning xususiyatlari to'g'risida Sultonmurodga qiziq ma'lumot berdi. Keyin ular uzoqda, shaharning shimolida Darvozai Mulk bilan Darvozaiy Qipchoq o'rtasidagi jomining quyoshda chaqnagan yetti ulug' toqi, gumbazi to'g'risida so'zlashdilar. Zayniddin keldi. Pastda, turli tuman olomon bilan qaynagan katta guzarga ko'z tikdi. Uch katta ko'chaning kesishgan joyidagi guzarda zar yoqa to'n kiyib, bedov otlarni g'ijinglatgan mag'rur beklar, olifta bekozodalar, xitoyi shoyi to'nli, guldor mahsili davlatmandlar, eshak mingan juldur kiyimli dehqonlar, tirikchilik mashaqqati bilan zir

---

<sup>1</sup>Ma'nosi: Hirot dunyodagi hamma shaharlarning ko'zi va chirog'idir. Jahon bamisoli badan bo'lsa, Hirot unga nisbatan jondir.

yugurishgan xarob kosib-hunarmandlar, qandaydir bir jinoyatkorni sazoyi qilib ko'cha aylantirgan qahrli sipohilar — navkarlar, dag'al mallabo'z to'nli sokin, xayolchan, shovqin-suronga beparvo darveshlarni ko'rish mumkin edi. O'tkinchilarning yo'lini to'smoqchi, etaklariga yopishmoqchi bo'lgan gadoylar, shaharning boshqa guzarlariga qaraganda, bu yerda ko'proq edi. Zayniddin Sul-tonmurodning tirsagini turt-di.

— Anavi devqomat, — dedi u birini ko'rsatib, — Haydar pahlavon... Iroqdan kelgan Mufrid qalandardan Havzi mohiyon'da besh tayoq yeb, oyoq suyaklari bir xalta oshiqdak bo'linib ketgan edi. Shayx Husayn jarroh uning oyog'ini chuqurga ko'mib, qirq kunda tuzatgan... Gandiraklagan, hov ko'rdingmi, anav mast olifta umrida besh yuz ming bayt yozgan ulug' shoirning nabirasi... Bu ham shoir. Lekin g'azallarini o'z yonidan pul to'lab eshittiradi! Hov anav, baqqol yonidagi cho'qqi soqol, yelkasi chiqiq chol — usta Orif Buxoriy... U o'ttiz hunarda yagona: naqqoshlik va zargarlikdan to sartaroshlikkacha, kimyogarlik va muqovachilikdan to xodimlikkacha nodir odam. Anav qashqa yo'rg'ada jilpanglagan amaldor shahar dorug'a<sup>2</sup>sining amakibachchasi Shodi bedoddir. Soqolmo'yablaringni qirdirgan kunlaringda uning yoniga aslo yaqinlasha ko'rmanglar!

Sul-tonmurod bilan To'g'onbek qotib kulishdi. Keyin pastga tushib, olomon ichiga aralashib ketdilar. Ozgina yurgach, Bog'i Zog'onning bosh arki oldidan chiqdilar. Bu — podshohning saroyi edi va darvoza yonida beklar, katta mansabdorlar, qurolli sipohilar har vaqtdagidan ko'proq ko'rindi.

— Yo podshoh biron yerga chiqadi, yoki elchi kelishi kutiladi, — dedi Zayniddin to'xtab.

— Bejiz emas, odamlarning ko'zlari bejo... — dedi To'g'onbek hasad bilan arkka qarab.

— Kutamizmi? — Sul-tonmurodga qaradi Zaynid-

<sup>1</sup> Hirotda ko'pincha katta tomoshalar bo'ladigan maydon.

<sup>2</sup> Eski zamonda shahar yoki kent boshlig'i.

din.— Yur, yur! Oyoqda mador qolmadi, — zo‘rlab olib ketdi Sultonmurod.

Bozorning g‘ovur-g‘uvurli, turli-tuman olomon bilan to‘la Chorusiga yaqinlashgach, To‘g‘onbek biron to‘xtadi. Yo‘ldoshlarining iltimoslariga o‘jarlarcha quloq solmasdan, shu yerda ayrildi-da, bozor girdobi ichida g‘oyib bo‘ldi.

— Sahroyi mo‘g‘ul ash‘or tinglashdan qochdi! — dedi kulib Sultonmurod.

— Hechqisi yo‘q, — dedi qo‘lini siltab Zayniddin.— Bechora Aloiddinga biron nafaqa topib olib boradi balki.

Kichkina, xarob do‘konchada katta, to‘garak barkashlarga uyulgan xilma-xil halvolar orasida o‘tirgan mayin harakatli, kamtar, ko‘zlari sho‘x, qirq yoshlar chamasidagi shoir Turobiy do‘stlarini suyunib qarshi oldi. Go‘yo uzoq zamon ko‘rishmaganday, holahvol so‘rashdi, yor-birodarlarning, tanishlarning salomatliklari, mashg‘uliyatlari haqida ma‘lumot oldi. Bir necha qochirma gaplardan keyin boloxonaga taklif etdi.

Zayniddin ko‘cha tomonga qaragan darichani ochdi. Uy ichiga yorug‘ bilan birga xush yoqar ko‘klam shabadasi kirdi. Toqisiga novcharoq odamning boshi tegadigan eski boloxona guldor sholchalar, chiroyli jihozlar bilan bezalgan edi. Bu — yuragida ilhomi, hislari, shoirona xayollari jo‘sharkan, mehnat bilan kun ko‘ruvchi, halvo pishirib, ertadan kechgacha olomonga matoini maqtab qichqiruvchi, tirikchilikning zeriktirgich mashaqqatlariga qaramay, ruhida san‘at ishqini saqlab boruvchi kamtarin, olijanob bir shaxsning qabulxonasi edi. Aksar vaqt Hirotning olim va shoirlaridan ma‘lum bir guruhi bu yerga to‘planar, arab, eron, turkiy tillardagi muhim asarlar o‘qilar, qizg‘in suhbatlar, mushoaralar va munozaralar bo‘lib turardi.

Tokchalarga qalangan kitoblarning qariyb hammasi ularga tanish bo‘lgani uchun biron yangi asar bormikan, degan umid bilangina yalpi ko‘z yugurtirib, keyin daricha tagiga tiz cho‘kishdi.



Bozorchi olomonning shovqini, uzoqda, temirchilik va misgarlik qatorlarida yangragan «taraqaturuq»lar boshni aylantirar edi. Bir ozdan keyin shoir halvofurush tandurdan yangi uzilgan ikkita non va juda nafis ishlangan guldor mis laganchada kesma halvo olib chiqdi. Dasturxonchani yozib, nonlarni ushatdi, do'stlarini o'z odati bo'yicha, yemakka qistadi. Talabalar bug'lanib turgan nonni og'izda eriydigan halvoga qo'shib, birpasda yeb bitirishdi. Keyin shoirning halvo pishirishdagi san'atini madh etishdi.

— Og'zimizga qandu nabot soldingiz, — dedi Zayniddin bino qo'ygan siyrakkina miyiqqlarini artib.— Endi badialaringiz bilan ko'ngillarimizni zavqiyob qilsangiz...

— Sizlarga manzur bo'lgudek g'azallar yozilmasdi, — dedi shoir oq tusha boshlagan soqolini silab. — Ba'zi xomroq narsalar borki, ularni o'qimoq bilan bahramand bo'lmassizlar, deb o'ylaymen. Shirin suhbatlaringizga tashna bo'lganimdan chorlagan edim.

— Bu oqshom biz shundamiz, — dedi Sultonmurod qat'iyat bilan, — lutf etib, g'azallarni olingiz. Shuaro shahri bo'lgan Hirotda yashab, Aloiddinning ba'zi zo'raki narsalaridan boshqa, bir haftadan beri hech nima ko'rmadik...

Halvofurush ohistagina o'rnidan turdi. Tokchadagi qalin bir kitobni ochib, uning orasidan bir necha yaproq yap-yangi, shaldiroq qog'oz olib, Zayniddinga uzatdi. Zayniddin qog'ozlarni bir-bir ko'zdan kechirib, Sultonmurodning tizzasiga qo'ydi.

— G'azal o'qimoqda sen bilan tenglashurlik shaxs yetti iqlimda ham topilmas, desam, xato qilmasmen. Marhamat qil.

Sultonmurod she'rni go'zal o'qirdi. U o'qiganda, she'riyat otashidan mahrum oddiy misralar ham go'yo birdan yaltirab ketardi. Do'stining she'rlarida unga avvaldan belgili bo'lgan ba'zi umumiy nuqsonlarni yedirib ketish uchun ko'proq zavq va ruh bilan o'qishga tirishdi. G'azallarga aksar vaqt musiqiylik nuqtai

nazaridan qarab baholaydigan Zayniddin, zavqqa to'lgandek, so'zlarning ohangiga yarasha boshini asta tebratib o'tirdi. She'rlar tamom bo'lgach, yoppasiga yaxshi baho berdi, ayrim o'xshatishlar, kinoyalar ustida mulohaza yurguzib, ularda shoirga xos rang va xayol borligini ta'kidladi. Hirotning qaysi bir go'zali haqida yozilgan bir g'azalni sho'x ulfatchiliklarda musiqiy bilan kuylash uchun shoirdan so'rab oldi va qog'ozni to'rt buklab, katta sallasining bir chetiga qistirib qo'ydi.

Sultonmurod esa so'fiyona ruh bilan yozilgan bir g'azalnigina maqtadi, uning ayrim misralarini bu nav g'azallarning eng go'zal namunalarini bergan Hofiz Sheroziy va zamondoshi mavlono Jomiy kabi shoirlarning misralari bilan chog'ishtirdi. Bu munomabat bilan u turli zamonlarda o'qigan va kuchli xotirasida saqlangan o'nlab shoirlarning butun-butun g'azallarini, ruboiylarini birin-ketin o'qib, izohlab, falsafiy qimmatini haqida so'zlay boshladi. Nihoyat, Sultonmurod so'zini bitirgach, shoir shogirdning ishidan xabar olgani do'koniga tushib ketdi. Lekin she'r va shoirlar haqidagi so'z kesilmadi. Hirotning eski va yangi shoirlaridan bir ko'plarining asarlaridagi goh yaxshi, goh nuqson, lekin qiziq jihatlar ustida Zayniddin, go'yo maxsus ravishda tekshirgandek, juda maroqli narsalar gapirdi. Keyin ba'zi shoirlarning tirikchiliklari, fe'l-atvorlariga doir latifa yo'sinli hikoyalarni qatorlash-tirib tashladi. Mavlono Jomiy bilan mavlono Sog'ariy<sup>1</sup> o'rtasida bo'lgan hazil-mutoyibalarning eng qiziqclarini aytarkan, Sultonmurod ichaklari uzilguday xaxolab kuldi. U endi ichidan otilmoqqa tayyor qah-qahani qaytarishga intilib, do'stiga: «Bas, jonim, bas endi!» der va nafasini rostlar ekan, mavlono Turobiy kirdi.

— Do'konga tushib chiqaman, deb shaharni aylanib keldingiz shekilli? — dedi Zayniddin.

— Afsuski, bo'lmadingiz,— dedi Sultonmurod

---

<sup>1</sup> Abdurahmon Jomiy (1414—1492) — mashhur shoir. Navoiyning do'sti; Sog'ariy — XV asr shoirlaridan.

namlangan ko'zlarini artib,— Zayniddinning ajoyib so'zlaridan mahrum qoldingiz.

— Men, — dedi halvofurush yuzida quvonch bilan,— shunday bir inson haqida xabar keltirdimki, uning har bir so'zi bebaho gavhardir.

— Xo'sh? — deb tikilishdi ikki talaba birdan.

— Shahrimizga Alisher Navoiy qaytibdilar.

— Rostmi?

— Albatta, butun shahar yolg'on so'zlamas.

— Istiqbollariga chiqmoq kerak, — o'rnidan qo'zg'aldi Sultonmurod.

— Biz g'aflatda qolibmiz, manzillariga yetibdilar. — Qo'li bilan, o'tiring, ishoratini qilib, gapida davom etdi halvofurush. — Zayniddin, siz Alisherning suhbatlarida bo'lganmisiz?

— Bo'lmadim. Lekin bir necha daf'a madrasaga kelgan edilar. Ustodlarimiz bilan oralari yaqin edi.

— Kapalak gulzorda aylanganidek, — dedi halvofurush shoir, — ul janob ham to go'daklikdan boshlab arbobi ilm, fikr, she'r va san'at orasida kezadilar.

— Alisher Navoiyni kaminangiz ko'rgan emasmen,— dedi hayajonlanib Sultonmurod, — ammo Hirotga kelgan soatdan buyon jahonning u nodir siy-mosi to'g'risida yaxshi ta'riflar eshitdim. Ilm va fan daryosini ko'ngillariga jo qilmishlar. She'rlari haqida ta'rifga hojat yo'q. O'z so'zimizning gavharshunosini, o'z she'rimizning Firdavsiy va Nizomiysini ko'rmoqqa mushtoq edik. Alhamdulillah, ko'rurmiz. Marhamat qilib, u janobning hayotlari haqidagi ma'lumotlaringizni batafsil aytib beringiz, chunki fazilatlarini to'g'risida ko'p eshitdim. Ammo hayotlari haqida qariyb hech nima...

Shoir Turobiy boshini quyi solib, bir muddat o'ylab qoldi-da, ko'zlarini xayolchan suzib, gapira boshladi:

— Garchi Alisher janoblari bilan faqirning orasida munosabat va robita<sup>1</sup> unchalik barpo bo'lmagan esa-

---

<sup>1</sup> Aloqa.

da, har bir hirotlik kabi, u janobning hayotlariga doir ba'zi jihatlardan xabardormen. Alisher bu shahri azimda baland martabali, najib bir oilada tug'ilganlar. Bobolari, otalari avlodi Temurga benihoyat xizmatlar qilganlar... Ulum, fununning qadri qimmatini bilgan ota bir vaqtlar Abulqosim Bobur zamonida Sabzavor<sup>1</sup> hokimi edi, u kishi farzand arjimandiga go'daklikdan go'zal tarbiya, husn, axloq bergan. Alisher ham ilmning har bobida ulug' iste'dod ko'rsatgan. Hamma ilmlarga bepoyon muhabbat bog'lagan; yana bir nuqta shulki, Alisher va alhol toji davlat bo'lmish Sulton Husayn Boyqaro hazratlari go'daklikda do'st va ham-maktab ekanlar.

— Alisher, buni yaxshi bilamizki, bolalik yillarida ikki tilda badiialar ijod qilib, Zullisonayn<sup>2</sup> laqabi bilan shuhrat topdilar. Alisher marhum Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kirganlarida, g'olibo, o'n besh yoshda edilar. Shu davrda o'zbek va fors tillaridagi ash'orlari el orasida ham shuaro nazarida g'oyat maqbul va marg'ub edi. Forsiy ash'orda «Foniy», turkiy ash'orda «Navoiy» taxallus qo'llagan bu bola so'z dengizidan shunday durri gavharlar sochdikim, eng nodir qalamlar taajjubda qoldi. Yodimda bor, Hirotning barcha peshqadam shoirlari aksar vaqt yig'ilishlarda uning ajoyib matla<sup>3</sup>larini tatabbu<sup>4</sup> qilar edilar.

— Mavlono Lutfiy kabi, — deb so'zga aralashdi Sultonmurod, — ovozasi olamni tutgan keksa shoir hali go'dak Navoiyning o'z tilidagi bir bayti uchun o'zining uzoq umrida aytgan jamiki g'azallaridan voz kechishga tayyor ekanini bildirgan ekan. Bu rivoyatga ne deysiz?

— Shubhasiz, to'g'ri. Mavlono Lutfiyning o'zlari uning sehrli qalamining ta'rifini menga bir necha bor aytgan edilar, — deya javob berdi mavlono Turobiy.— Filhaqiqat, ona tilining asli tunganmas oltin kon-

---

<sup>1</sup> Xurosonda kichik bir shahar.

<sup>2</sup> Ikki tilli.

<sup>3</sup> G'azalning ilk bayti.

<sup>4</sup> Tekshirmoq.

larini yosh Navoiyning mo'jizali qalami kashf etdi. Alisherning turli ilmlardagi qudrat va iqtidorini siz o'z ustodlaringizdan, zamonaning ulug' olimlaridan so'rangiz. Alisher Hirotida, Mashhadda ko'p yil tahsil ko'rdi.

— Mudarris mavlono Fasihiddinning so'zlaricha, — dedi Sul-tonmurod, — Alisher inson fikrining barcha sohalarida keng ma'lumot sohibi emish. Tarix, falsafa, mantiqdan boshlab tirandozlik<sup>1</sup>ka, musiqiyga qadar hech bir sohani qoldirmagan emish.

— Alisher Navoiy go'zal xattotdir, — dedi faxrlanib Zayniddin. — Musiqiydagi mahorati uchun ijod etgan ba'zi maqomlari dalildir; u musiqiydan xabarsizlikni shoir uchun zo'r nuqson deb hisoblar emish.

— G'oyat to'g'ri talab, — dedi Sul-tonmurod, — shoir so'zning musiqiysiga, hatto fikrning musiqiysiga chuqur kirmog'i kerak. Xo'p, Alisher Navoiy Samarqandga rasmiy bir vazifa bilan safar qilganmi?

— Xayr, azbaroyi tahsil uchun, — dedi mavlono Turobiy.

— Tahsil uchun? — ishonqiramagan tovush bilan so'radi Sul-tonmurod va so'zida davom etdi. — Ulug'bek zamonida Samarqand, haqiqatan, urfon<sup>2</sup> xazinasi edi. Ul zamongi Samarqand qayda? Endi u muborak shaharda bir guruh johil shayxlar maskan qurib olgan. Ilm oftobi Samarqanddan Hirot samosiga hijrat etgan<sup>3</sup>, Samarqandning eng peshqadam olimlarini Hirotning har madrasasida o'nlab topmoq mumkin...

— Fikrimcha, — dedi Zayniddin mavlono Turobiyga, — bu to'g'ridagi xabarlar haqiqatdan uzoq bo'lsa kerak.

— Do'stlarim, andak sabr etinglar, — Zayniddinning so'zini kesdi mavlono Turobiy, — men sizga isbot qilay. Samarqandi firdavs monand<sup>4</sup>dan kelib turuvchi ba'zi qadrdonlar, tijorat yoki boshqa vazifa

---

<sup>1</sup> O'q otish.

<sup>2</sup> Bilimlar.

<sup>3</sup> Ko'chgan.

<sup>4</sup> Jannatga o'xshagan.

bilan u tomonlarga boruvchilar Alisherning ne mashg'ulotda ekanini kaminaga bir necha bor so'zlagan edilar. Alisher mashhur huquqshunos Xo'ja Fazlullo Abullaysda muttasil dars olar ekan. Shogird bilan ustodning oralari ko'p yaqin va samimiy ekan. Yana Samarqand hokimi va yaxshi shoir Ahmad Hojibek Alisher bilan do'stona munosabatda ekan. Hatto Alisher maishatining ba'zi tafsilotlarini ham eshitganmen. Shunday kunlar bo'lganki, Alisher mayda xarjlari uchun ham tangasiz qolgan. Uning insoniy g'ururi, tabiatining nozikligi Ahmad Hojibek kabi ulug' sarkarda do'stdan yordam so'ramoqqa yo'l qo'ymagan. Alisherning barcha yaqinlari bu gaplardan ogohlar. Nega to'g'ri bo'lmasin?

— Durust, — darrov so'zga kirishdi Zayniddin, — mabodo Alisherning o'zidan so'ralsa, u janob ham balki sizning kabi javob berar. Xo'ja Fazlullo Abullaysda dars olganiga ham ishonamiz. Ammo bu narsa voqeaning zohiridir<sup>1</sup>.

— Haqiqat nimada? — deb so'radi mavlono Turobiy.

— Ishonchli ba'zi zotlarning rivoyatiga ko'ra, Alisher bilan marhum podshoh Abusaid Mirzoning munosabati sovuq bo'lgan. Abusaid Mirzo Alisherning Hirotda yashamoqligini ma'qul ko'rgan emas. Shu jihatdan bundan uch yil muqaddam Alisher Hirotni tark etib, Samarqandga jo'namoqqa majbur bo'lgan. Endi podshoh bilan shoir orasidagi nizinging asl ma'nosiga kelsak, harholda, siyosiy bir tarzda bo'lishi shubhasiz. Andak sabr eting, do'stim, men sizga ba'zi voqealarni so'zlay: marhum Abusaid Mirzoning ashaddiy dushmani hozirgi taxt egasi Boyqaro hazratlari bo'lgani ma'lum. Bu hazrat bilan Alisherning oralarida ilgaridan do'stlik va yaqinlik mavjud edi. Bundan tashqari, Alisherning tag'oyilari Husayn Boyqaro hazratlarining yaqin odamlaridan bo'lganlar, uning taxt uchun kurashlarida yordam berganlar.

---

<sup>1</sup> Tashqari ko'rinishi, sirti.

Mana bu hollar Alisherga Abusaid Mirzoning gumon, shubha bilan qarashiga sabab bo'lishi g'oyat tabiiy emasmi?

Mavlonο Turobiy e'tiroz qilmadi. To'g'risi, e'tiroz uchun dalil topolmay, sukut bilan yerga qaradi. Bu bahsga chuqur diqqat va qiziqish bilan quloq solgan Sultonmurod ma'nodor qarash bilan dedi:

— Zayniddinning so'zlarida aql ko'proq ko'rinadi. Do'stim Zayniddin har kuni besh karra takrorlaydigan namozda xato qilishi mumkin, lekin, umuman, Hirot voqealarining ichini bilishda hech vaqt xato etmaydi.

Hammalari kulishdi. Bu vaqt aksari shoir bo'lgan yangi mehmonlar kelishdi, hammaning og'zida yolg'iz birgina so'z edi: Alisher!

## II

To'g'onbek uzoq vaqt bozor oralab yurdi. Nonvoyxonadagi nonlarning, oshpazlar qichqirib maqtab sotayotgan har nav taomlarning hidi uning dimog'iga guppa urib, so'lagini oqizar, och me'da ichdan kemi-rib, butun borlig'ini betoqat qilar edi. Nima qilsinki, yonida qora chaqa yo'q.

Bundan uch oy ilgari qong'ib-qong'ib bu shaharga kelganida, yigirma besh dinor<sup>1</sup> puli bor edi. Tejab-tergab xarajat qilish orqasida bu mablag'ni ancha cho'zdi. Mana endi qariyb ikki haftadan buyon tangasiz xunob... Va'dani quyuyq qilib ba'zi qassoblardan, oshpazlardan bir necha dinor qarzgа ham ilindi. Sotilgudek, narsadan unda sopi fil tishi va kumush bilan ishlangan bir xanjargina bor. Lekin To'g'onbek ochdan o'lishga rozi bo'lsa ham bu buyumdan ajralishni istamasdi. Birinchidan, u umuman tig'ga o'ch odam. Bir ko'p odamlar duoning, tumorning kuchiga qanday ishonsa, u ham tig'ning sehrli kuchiga shunday e'tiqod qiladi. Ikkinchidan, bu xanjar ota-bobo mero-si. Bu tig' uning shavkatli bobolariga baxt yo'ldoshi bo'lgan!

---

<sup>1</sup> Bir dinor taxminan yarim so'mga baravar.

To'g'onbek ovqat tadoriki uchun bozorda biron yumush qidirmadi. Mehnatga sira bosh bermas, har qanday mehnatni o'zining ortiqcha sezgir izzat-nafsi uchun haqorat, deb bilardi. Lekin u ot minib, qorli bo'ronlarda, dahshatli sellarda haftalarcha tentirab, tog'-dovon oshishni, yozning qizg'in oylarida bepoyon Osiyo cho'llarining jahannam yong'iniga, qum to'l-qinlariga chidash berib, och, suvsoq kezishni mashaqqat hisoblamas edi.

To'g'onbek shovqin-suronli Hirot bozorining turli tomonlarini sayr etib, Hind, Eron, Xitoy, Misr mol-lari qalashgan do'konlarga hirs bilan qaradi; chaqmoqday otlarda sersavlat beklar ucharkan, uning ko'zlarida havas, hasad yonib ketardi. Kechga yaqin aslahafurush bir cholning do'koni oldida to'xtadi. Zuvalasi pishiq, kichkinagina chol shirin so'z bilan qarshiladi:

— Nima kerak, ko'nglingni olay, bek yigit?

To'g'onbek indamadi, qo'pol po'stin tagidan belga taqilgan xanjarni olib, cholga uzatdi.

— Qariya, meni tanglikdan qutqaring. Boshim omon, yaxshiligingizni unutmaymen, o'z otam kabi yodlaymen.

Chol o'z ishiga mohir edi. Po'latni tanlashda mis-siz edi. Har qanday po'latning sifatini aniq tayinlashgina emas, hatto uning vatanini — Bag'doddami, Isfahondami, Samarqanddami ishlanganini darrov aytib bera olar edi.

Chol xanjarga bir zum qarab, ko'zlari allaqanday quvonib ketdi. Keyin To'g'onbekka boshdan-oyoq razm soldi, molni arzonga tushirish uchun sovuqqonlik, beparvolik bilan gapirdi:

— Bek, yigit, men sotuvchimen. Shunday buyumlarimning qadriga yetadigan xaridor qidiram, lekin g'oyat ilojisiz qolgan bo'lsang, u vaqt seni muhtojlik va zarurat panjasidan xalos etmoqqa tayyormen. Chunki umrimda masjid-madrasa soldirmadim. Aziz-avliyolar uchun maqbaralar bino qilmadim. Makkai mukarramaga borib, payg'ambarimiz bosgan tuproqlarni



ko'zimga surtmadim. Bas, ollohning dargohiga ne bilan borurmen?

— Qariya,— dedi To'g'onbek manglayini qashib,— sotish niyatida emasmen.

— Xo'sh, maqsading? — deya uzun, uchi ingichka soqolini tutamladi chol.

— Xanjar sizda garov bo'lib qolsin, — deb javob berdi To'g'onbek do'kon chetiga o'tirib. — Menga besh dinor bering, raso bir oydan keyin men sizga olti dinor keltirib, buyumni qaytib olamen. Agar taqdir nasib etmay, aqcha topolmay qolsam, u chog' savdosini qilg'aysiz. O'zingiz insof bilan baholarsiz...

Chol ko'zlarini quyuq qoshlari ichiga yashirib, bir nafas jim qoldi. Keyin taraddudlanib, dedi:

— Meni mushkul ahvolga solding, yigit, ne qil-sam?..

— Ilojsizlikdan qoshingizga keldim, — dedi yalin-qiragan tovush bilan To'g'onbek.— Men chaqaloq ekanmen, rahmatlik otam bu tig'ni beshigimga, yosti-g'im ostiga qo'yan ekan. Esimni tanigandan buyon hamisha yonimda.

— Yaxshi yigit, men bilamen. Bu bir parcha po'lat seni turli balolardan asragan; bu tig' sen uchun eng nodir xotiralar bilan bog'langan. Shuning uchun aziz tutasen. Ammo, o'ylamaki, men buni har bir xaridor-ga ro'kach qilg'aymen... Yo'q, sen kabi bir tig'parast yigitga beramen. U shundayki, yaxshi tig'ni dilrabo ma'shuqasidan afzal ko'radi, o'zi barlos bekszodalari-dan!

To'g'onbekning umidi kesildi. Qo'lini tig'ga uzat-di. Lekin chol bu qiymatli buyumni qo'ldan chiqarishni istamadi. Bir oydan so'ng balki arzon bahoga sotib olish umidi bilan, kissasini kavlarikan, dedi:

— Xo'p, o'g'lim, yigitning so'zini qaytarish erlar-ning ishi emas.

To'g'onbek besh dinorni olib belboqqa tugdi-da, xayrlashib, o'rnidan turdi. Ochlik andishasi boshidan ko'tarilsa ham, yuragining bir parchasi uzilgan kabi, chuqur qayg'u, og'riq, o'ksinish sezdi. Xanjarni qaytib

ola bilamenmi, yo'qmi, degan savol uning fikrini parmaladi. Xiyla vaqt yana sandiranglab yurdi. Keyin qo'lini siltab, oshxonaga kirdi, to'yib ovqatlandi. Shom qorong'isida madrasaga jo'nadi. Hirotning Feruzobod darvozasiga ketuvchi katta yo'lda sharobxonaga kirdi. Katta-kichik xumlarning orqasida pastak kursida o'tirgan xomsemiz, ko'zlari mast sharobchidan katta kosada obi angur so'rab, bir juft sham bilan yoritilgan katta xonaning bir burchagiga og'ir cho'kdi. Bu yerda bir talay odam bor edi. Ba'zilar tanho o'tirib, xayol surib ichadi. Ba'zilar to'p-to'p bo'lib ulfatchilik qilishadi, o'qtin-o'qtin qiyqirib qo'yishadi. Bir tomonda to'rt-besh mo'ysafid davra qurgan. Ulardan biri bo'g'iq zaif ovoz bilan forsiycha bir g'azalni xirgoyi qiladi. Boshqalarning savatday salalari kuyning ohangida asta-sekin chayqaladi. Shaharning mashhur «avbosh»<sup>1</sup> laridan bir to'pi bir-birlari bilan baslashganday kosalarni paydarpay sipqorishadi. Oyoqda bazo'r turgan bir shoir duduqlanib o'zini maqtash bilan ovora. O'zbek-fors tillaridan iborat qurama bir shovqin boshni gangitadi.

Xilini, ta'mini surishtirmay, duch kelgan sharobni ko'taraveradigan va qozoqlar qimiz ichgan singari juda ko'p ichadigan To'g'onbekka ikki kosa may hech kor qilmadi; chanqoq tuyaning labi suvga tegdi, xolos! U, odatda, ichishga kirishganda, tangani ayamasi edi. Ammo umrida birinchi marta u qoidani buzdi. O'zini zo'rlab bo'lsa ham orzusini o'ldirishga tirishdi. O'z jonidan ham aziz bo'lgan otameros tig' uchun olgan aqchani sovrmaslik uchun o'rnidan turdi. Lekin eshikka chiqish oldida tanish tovush eshitdi: «To'g'on! Itning bolasi!»

To'g'onbek qayrilib, mo'ysafidlar davrasi orqasida yolg'iz o'tirgan To'qli merganga ko'zi tushdi-da, go'yo Xizrga yo'liqqanday, mamnun bo'lsa ham, lekin botir yigitlarga xos ulug'vorlik va g'urur bilan ko'rishdi va uning yoniga chordona qurdi. To'g'onbek bu epchil,

---

<sup>1</sup> Bezori.

dov yigit bilan bir vaqtlar Badaxshon hokimida xizmat qilgan edi.

To'qli mergan qudratli yelkasini kerib, kulib qo'ydi: «Qani, manavini qadimgicha qilib bir sipqor-chi!» dedi-da, kosani To'g'onbekka tutdi va o'zi uchun boshqa chaqirdi. Kosalarni qadimgicha cho'qishtirib, eski qadrdonlar bir-birlarining hol-ahvollarini surishtirib ketishdi. To'g'onbek sarguzashtlarini va bu kungi hayotini salmoqlab so'zladi. To'qli mergan Iroqdan bir hafta burun kelib, Ixtiyoriddin qal'asida xizmatga kirganini bildirdi. U To'g'onbekni bo'limli — ishbilar yigit deb hisoblar edi.

Uning bunday safolatga tushib qolganiga achindi.

— Tole qushi o'z vaqti-soatida qo'lingga qo'nadi, fursat kelmasa, ming yoqqa boshingni ur, hech narsa chiqmaydi — dedi u o'rtog'iga tomon engashib. — Bilamen, sen lak-lak qo'shinga sarkarda bo'ladigan bo'limli yigitsen. Ammo, buni qulog'ingda tut, oshiqma: otilmagan sopqon ham boshga tegar... Hozir maishatni o'ylab yuraver!

— Ne deysan? — to'ng'illadi To'g'onbek, — masjidga so'fi, kulolga shogird tushaymi?

— Bu yerda bir valine'matim bor. Menga uzoq qarindosh... Bilasen, mening aslim hirotlik. U odam saxiylikda Hotamtoy. Davlatda e'tibori baland. Yigitlik haqqiga ont ichib aytamenki, u zot kecha men bilan uchrashib: «Mardona, dilovar bir yigit top, bizning xizmatimizda bo'lsin», deb edi. Men ham qal'aga uning harakati bilan kirdim. Istasang, shu soatning o'zida yuguramiz.

To'g'onbek kosani bo'shatib, dakkam-dukkam, dag'al miyqlarini po'stin yengi bilan artdi-da, qalin labini tishlab, o'ylab qoldi.

— Bilamen, g'ururing yo'l bermay turibdi! — dedi To'qli mergan koyinib. — Behuda. U odamning dargohida sen yolg'iz uning shavkati, dabdabasi uchun yashaysen. Tushudingmi?

To'g'onbek do'stiga tikildi. Uning yirik, chaqin ko'zlarida samimiyatdan o'zga bir andisha sezmagach,

roziligini bildirdi. Ular yana bir kosadan ichib, o'rinlaridan turdilar.

Ularni fonus ko'targan tetikkina bir chol darvozada qarshiladi. To'g'onbek diqqat bilan cholga tikilib, uning aft-boshidan qul ekanini payqadi. Chol ularni shirin so'zlik bilan ichkari oldi-da, qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Ko'p o'tmasdan, nariroqda eshik g'ijirladi va cholning ovozi eshitildi:

— Marhamat qilinglar!

To'g'onbek do'stining orqasidan xona ichiga kirib, to'rdada, qalin ko'rpacha ustida chordona qurib o'tirgan o'rta yoshli, ko'zlari mug'ombirona yongan, butun vaziyatida kibr-havo, asabiylik, o'zbilarmonlik jilvalangan odamga ko'zi tushdi. Bu — Shohruh<sup>1</sup> saltanatida katta mansablar ishg'ol etgan G'iyosiddin Pir Ahmad Havofiyning o'g'li Majididdin Muhammad edi. U Abusaid Mirzo davrida devon<sup>2</sup>da ishlovchi mayda vazifadorlardan edi. Hozir esa Husayn Boyqaroning jiyani «Mirzoyi kichik» — Muhammad Sultonning vazirchasi.

To'g'onbek salom berib, uning qo'l uchini siqdi. To'qli mergan o'tirgach, qo'sqi po'stinning etaklarini qayirib, tiz cho'kdi. Majididdin o'z oldida turgan katta mis shamdonni nariroqqa itarib qo'yib, To'g'onbekning dam po'stiniga, dam ko'zlariga razm soldi: qomatdor, dov yigit. To'qli mergan qo'ydek yuvosh, mutavoze o'tiribdi. Qo'sqi po'stin kiygan To'g'onbek g'ururning va qo'pol kuchning go'yo tim-soli, mujassami edi. Majididdin To'qli merganga ma'nodor qarab, jo'rttaga oddiy til bilan gapirdi: «Kechagi gapimga chin ishonib, qulog'ingga quyib olgan ekansen, mergan. Bu yigit senga otning qash-qasiday ma'lum? Korsoz<sup>3</sup> yigitga o'xshab ketadi. Nima qilamiz, qabul etmoqdan o'zga chora yo'q».

To'qli mergan To'g'onbekning ba'zi sifatlarini so'zlab, maqtashga boshlagan edi, To'g'onbek unga

<sup>1</sup> Temurning o'g'li.

<sup>2</sup> Bosh idora, mahkama.

<sup>3</sup> Ish biladigan.

xo'mrayib, tilini kesdi. Majididdinning muomalasi va so'zlari unga qattiq tekkan edi. U hurpayib oldi. Majididdin payqadi shekilli, tovushini, so'zning ravishini o'zgartirib, darrov gapirdi:

— Bizga xizmat qiling, inim, bizdan aslo yomonlik ko'rmaysiz.

— Ne yumush qilamen? — to'ng'illab so'radi To'g'onbek.

— Qih, qih, qih... — kuldi Majididdin, qora quyuq soqolini serkillatib. — Men sizga, inim, yigitga yarasur ishlarni buyuramen, amin bo'ling. Qadamingiz qutluq bo'lsa, martabangiz ulug'lanur...

— Oustingda bulutday ot, — gapga aralashdi To'qli mergan, — egning but. Dasturxon har vaqt muhayyo... Bilamen. Shundaymi, taqsir?

Majididdin iljayib, bosh qimirlatish bilan tasdiqladi. To'g'onbek ham qaddini rostlab, yengillanib oldida, erta bilan kelishga ijozat so'rab, do'sti bilan birga qo'zg'aldi.

## ***Ikkinchi bob***

### **I**

Sultonmurod dars uchun mudarris mavlono Fasihiddinning hujrasiga kirib, hayratda qoldi. Yap-yangi ko'k shohi to'n kiygan ustod yangi taqyaga sallani bejab o'ramoqda edi. Uning har vaqt muloyim, ochiq yuzi, oq ko'rkam soqoli, butun savlatdor gavdasi uning shoshilayotganini, quvonchini bildirar edi. Sultonmurod uning biron oliy dargohga otlanganini faraz qildi. Mudarris sallani o'rab bo'lib, to'ning silliq shohisini qo'llari bilan asta silab-silab qo'ydi-da, tabassum bilan Sultonmurodga murojaat etdi:

— Maxdum, bukun sizga ta'til. Alisher Navoiy janoblarini podshoh hazratlari muhrdorlik vazifasiga tayin etmishlar. Yoshlik zamonlarida janob Alisher bir necha vaqt menda ta'lim olmish edilar. Rutbai oliylari<sup>1</sup> bilan tabrik etmoq vazifamizdir.

---

<sup>1</sup> Yuqori mansablari.

Sultonmurod podshoh bilan Alisher Navoiy o'rtasida eski do'stlikni eshitgan bo'lsa ham, Hirotga kelishi bilan bunday yuqori vazifaga ko'tarilishini xayol qilmagan edi. Shoirlik qudratini uning qo'lma-qo'l yurgan she'rlaridan bilgan, olimligi va insoniy fazilatlarini haqida ayniqsa keyingi kunlarda hammaning og'zidan favqulodda qiziq, hayratbaxsh gaplar eshitgani bu shaxsning davlatda yuqori poyaga ko'tarilish xabari uni samimiy quvontirdi, ham shu bilan baravar, tunov kun halvofurushning boloxonasida Alisherning Hirotga qaytganini ilk eshitgan chog'da ko'nglida tug'ilgan kuchli orzu — shoirni ko'rish ishtiyoqi hozir uning butun borlig'ini qoplab oldi.

— Taqsir, demak, sizni ham tabrik qilmoq mumkin, — dedi Sultonmurod tavoze bilan, — chunki janob Alisher Navoiy bir vaqtlar sizning ma'rifat nuringizdan bahramand bo'lgan.

Mavlono Fasihiddinning ko'zlarida shodlik toshdi.

— Bu faqir shogirdingiz, — davom etdi Sultonmurod, — ko'ngilidagi bir muddaoni arz etmoq istaydi.

— Qanday muddao? — jiddiy tikildi Fasihiddin.

— Muddao shulki, — javob berdi Sultonmurod, — ulug' shoirning huzurlariga janobingizning soyasi kabi ergashib borsam, na dersiz?

Mavlono Fasihiddin ko'zlarini yerga tikib, ma'nodor sukut etdi. Shogird, uni taraddudga solganidan, allanechuk ko'ngli ranjidi.

Fasihiddin o'zining favqulodda iste'dodli shogirdini sevar, uning g'ayrati va bilimlarini maqtar edi. Lekin bu yosh yigitcha uchun har vaqt ortiqcha tashvish chekishga to'g'ri kelar edi. Sultonmurodga bir ikki soat dars bermoq uchun u, ba'zan, o'z uyida haftalab kitob ko'rar edi. Bu nodir iste'dodning orzularini yerda qoldirishga ko'ngli botinmas edi. Birdan ko'zlarini yerdan uzib, kulib qaradi.

— Xurosonning barcha ulug' zotlari bilan muloqot qilmoqqa siz uchun fursat kelgan. Balli, bizga hamroh bo'lingiz.

Mudarris va shogird madrasadan chiqdilar.

Alisher yashagan uyda tantanali ruh hukm surardi. Mulozimlar hurmatli mudarris bilan tanilmagan shogirdni to'rdagi katta uyga taklif etdilar. Qip-qizil gilamlar yongan devorlari, shipi naqshdor, tokchalari ganchdan ajoyib gullar bilan ishlangan katta uyda bir talay odam o'tirgan edi. Mavlono Fasihiddinni to'rga o'tqazdilar. Sultonmurod eshik tagiga tiz cho'kdi. Bu yerdagi odamlarning aksari Sultonmurodga tanish bo'lgan va turli ilmlarda nom chiqargan olimlar ham Hirotning oldingi shoirlari edi. Bulardan tashqari, bir necha yuqori mansabdorlar qimmatbaho to'n'larga o'ralib, ulug'vorlik bilan o'tirishar, darveshnamo, tashqi takalluflarga begona ba'zi shoirlarning qiliqlariga, atvorlariga g'ijinganday ko'rinardilar. Sultonmurod majlisdagilarning gapidan Alisherning hali saroyda ekanini fahmladi. Gangir-gungur suhbatga quloq solib o'tirdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, kimdir shoirning kelganidan xabar berdi. Sultonmurod darhol o'zini ayvonga oldi. Shu vaqtda uydagilarning aksari, shu jumladan mavlono Fasihiddin ham chiqdi. Hammaning ko'zi unda-munda daraxtlar o'sgan katta hovlida edi. Zar yoqa to'n kiygan, mag'rur bir necha saroy odamlari orasida Sultonmurod shoirmi, xuddi ilgari ko'rgandek, darrov tanib oldi, ko'zlari cheksiz quvonch bilan yonib ketdi. Shoirning boshida uchli ko'k taqyaga silliq o'ralgan ko'rkamgina salla. Egnida odmi shohi to'n, ustida yalang qo'ng'ir movut chakmon... Navoiy o'ttizdan oshmagan bo'lsa ham, yoshi ulug'lardek ko'rinardi. Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin gavdasi pishiq, barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqolli, xushbichim miyiq-lari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi, ma'naviy qudrat va yengil, go'zallashtiruvchi bir horg'inlik jilvalanadi. Qabariq-roq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi.

Navoiy, lablarining uchida, ko'zlarida jiddiy tabassum, odamlar bilan birin-ketin ko'risha boshladi.

Mavlono Fasihiddin shoir bilan ko'rishib, hayajon bilan samimiy tabriklagandan so'ng barmog'i bilan Sul-tonmurodga ishorat qildi. Sul-tonmurodning haya-jondan rangi bir oz oqardi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib, shoirga yaqin keldi. Bir oz enkayib, uning qo'lini siqdi-da, bir qadam orqaga tashlandi.

— Kaminaning shogirdlaridan, — dedi iftixor bilan Fasihiddin. — Nodir iste'dod. Zamonamizning Abu Ali ibn Sinosi bo'lishiga kaminada aslo shubha yo'q.

— Hurmatli ustodim kamina shogirdlari haqida g'oyat mubolag'a etdilar, — qo'llarini qovushtirgan holda kulgansimon dedi Sul-tonmurod. Navoiy do's-tona tabassum va iliqlik bilan Sul-tonmurodga muro-jaat etib, uning qayerlik ekani, qanday ilmlarni o'tgani va hokazo haqida surishtirdi. Sul-tonmurod haqiqatni yashirmadi. O'zi chuqur egallagan ilmlarni, bir qadar kamtarinlik bilan aytib berdi. Bu vaqtda atrofga to'plangan va Sul-tonmurodni taniydigan ba'zi mudar-riklar ham uning to'g'risida biron nima deyishdi.

— Himmat va g'ayratni aslo qo'ldan bermang, — dedi Navoiy suyunib. — El, ulus sizdek zotlarga g'oyat muhtojdir. Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib, yurt tuprog'iga chuqur tomir yoydirmog'imiz va undan mo'l hosil olmog'imiz kerak. Mana endi oshi-no bo'ldik. Umid qilamenki, bizni hamisha yo'qlab turursiz.

— Iltifotingiz uchun qalbidan tashakkur eta-men, — dedi Sul-tonmurod titroq ovoz bilan. — Sizning ma'rifat daryongizdan bahramand bo'lmoq qadar ulug' saodatni tasavvur etmoq imkonsizdir...

Navoiy Sul-tonmurodni birga olib, uyga kirdi, yuqoriroqqa o'tirishga taklif etsa ham, Sul-tonmurod uzr tilab, pastroqqa o'tirdi. Navoiyning qalbini tushunmagan ba'zi odamlarda hayrat sezilar edi. Ular, bu olacha to'nli, faqir, yosh mullabachchaga bu qadar diqqat va iltifotning nima keragi bor ekan, deb o'ylar edilar shekilli. Sul-tonmurod ba'zi ko'zlarda shu ma'noni ochiq sezarkan, uning tasavvurida, Navoiy-ning siymosi benihoyat yuksaldi, unga bo'lgan muhab-



bat uchun hech chegara yo‘q edi. Muhrdor shoir uy sohibi bo‘lganlikdanmi yoki kamtarlikdanmi, hammadan pastda o‘tirdi. U dastlab Hirotdagi turli madrasalarning ahvoli, talabalar va mudarrislarining tirikchiliklari, vaqf ishlari haqida gap ochdi. U kishilarning so‘zlariga diqqat bilan quloq soldi. Keyin so‘nggi yillarda Xurosonda vujudga kelgan katta-kichik ilmiy asarlar, devonlar to‘g‘risida mufassal ma‘lumot olishga tirishdi. Qandaydir nomsiz bir shoir tarafidan aytilgan bir ruboiy, bir bayt yoki bir muammo ustida so‘z ketgan taqdirda ham, Navoiy jiddiy surishtirdi. Hammaning qulfi dili ochilgandek, majlis qizib ketdi.

Sultonmurod, go‘yo Navoiyni ikkinchi qayta ko‘rish nasib bo‘lmasligiga ishonganday, undan ko‘zini uzmas edi. U Navoiyning siymosida kamtarlik bilan baravar kibrdan, manmanlikdan xoli bo‘lgan chin, ulug‘vor bir g‘urur, qo‘llarining harakatida, so‘zlarkan, lablarining qimirlashida, tabassumida, ovozida qandaydir mayinlik, noziklik, ingichka ohang sezar edi.

Mulozimlar dasturxon yozdilar. Mehmonlarga har nav shirinliklar, pista, bodom, quruq mevalar juda mo‘l-mo‘l tortildi. Keyin chiroyli chinni kosalarda sho‘rva, laganlarda et va yumshoq nonlar keltirildi.

Ziyofatdan keyin majlisning keksasi fотиha o‘qib, uy sohibini duo qildi, majlis muhrdor bilan xo‘shlashdi.

## II

Tokchada yongan shamning shu‘lasi va qiya ochiq darichadan tushgan oy nuri gilamlarning gullari ustida jivillab, xayoliy, mayin manzaralar, o‘yinlar yasar, o‘qtin-o‘qtin esgan shabada sham yolqinini lipillatar, pastgina kursi ustida ochiq turgan qalin, katta kitobning varaqlarini shildiratar va, tanburda shoir chalayotgan kuyning sehriga berilganday, jimgina tinar edi... Musiqani she‘rdan ayirmagan Navoiy go‘zal sadolar ilmini chuqur bilar va chuqur sevar edi. Shoir ko‘zlari

yarim yumuq holda zavq bilan chertar, qillar hayotning, ko'ngilning pinhon ohangini sadolarning fusunkor tili bilan sayratar edi...

Shoir yengil bir so'lish olib, tanburni tokchaga tirab qo'ydi. Barmog'idan noxunni chiqardi. Daricha yoniga o'tirdi. Hovlida shabada bilan o'ynashgan daraxtlarning yengil kuyidan boshqa savdo yo'q. Shoir o'yga toldi. Mana, u yana Hirotda, o'z uyida. Balki endi butun umr bu suyuqli shaharda muqim bo'lib qolar... Kim biladi, taqdirni xohishi, jilvasi yana qanday kutilmagan o'yinlar ko'rsatar ekan!

Bu yerda endi har bir narsa unga yaqin, mehribondek ko'rinardi. Ilgari bunday tuyulmas edi. Balki marhum ota va onaning ruhi, mehri bu narsalarda aksini qoldirgandir. Bir vaqt G'iyosiddin Kichkina<sup>1</sup> xuddi shu yerda, shu daricha ostida o'tirib, uni erkalatmasmidi? To'rt yashar vaqtida (shoir g'ira-shira bazo'r xotirlaydi), Mirzo Qosim Anvoriy<sup>2</sup>ning baytlarini biyron tili bilan o'qib berarkan, ota qanday quvonardi! Yaxshi odam edi u. Sodda, to'g'ri so'z, insofli, rahmdil odam... Marhuma ona-chi! U o'z o'rtoqlarining onalarini mehr va shafqatda hech vaqt o'z onasi bilan tenglashtirmas edi. Sodda, bolalari uchun kuyunchak, qo'ni-qo'shnilar, aqrabolar bilan hamisha xushmuomala ayol. Besh-olti yoshda maktabidan ozod bo'lib yugurib kelarkan, u darrov bag'riga bosar, sut, patir non va shirinliklar berardi. Maktabda muhtaram qari domla o'rgatgan saboqlarni yoddan o'qib berarkan, suyunar, o'g'lining kattakon mullo bo'lishini orzu qilardi.

Shohruh Mirzo vafotidan keyin, Xurosonda ro'y bergan siyosiy tartibsizliklar zamonida, bir ko'p oilalar bilan birga jonlarini hovuchlab Iroqqa qochishlari, yo'ldagi mashaqqatlar, tomoshalar, xursandchiliklar, Sharafiddin Yazdiy<sup>3</sup> bilan uchrashuv, ayniqsa safardan qaytishda kechasi otda mudroq bosib, yerga

---

<sup>1</sup> Navoiyning otasi.

<sup>2</sup> U zamonning katta shoirlaridan.

<sup>3</sup> Mashhur tarixchi. Navoiy olti yoshida bu kishi bilan uchrashgan.

yiqilib tushishi, ertalab uygʻonib qarasa, bepoyon, kimsasiz taqir sahroda yolgʻiz yotganligi, atrofda qongʻib, oʻt chimtib yurgan yuvosh otni tutib bazoʻr minib olish, yoʻl topolmaslik, qizgʻin choʻlda tashnalik, nihoyat, karvon qoʻngan yerga yetib kelganda, gʻamdan oʻlayozgan ota-onaning xursandchiligi va hokazo xotiralar bir-biriga ulanib, koʻz oldidan oʻtaverdi. Husayn Boyqaro bilan birga maktabda oʻqirkan, sakkiz-toʻqqiz yoshida Farididdin Attorning «Mantiqut-tayr»<sup>1</sup>ini mutolaa qilar, uning sirli, otashin fikrlariga berilib ketib, nihoyat, bora-bora oʻyin-kulgini, uyquni, taomni ham unutgani, bechora ota-ona bu ahvoldan qoʻrqib, noiloj, shu kitobni man etib, qoʻlidan tortib olib yashirganlari, kitobni boshdan-oyoq yod olgani uchun baribir takrorlay bergani... — shuning singari ajoyib, shirin, achchiq xotiralarni eslarkan, koʻksini qandaydir hislar toʻlqinidan boʻshatmoq uchun xoʻrsinib qoʻydi. Keyin ilk sheʼr mashqlari, ilk ijodning azobi va shirin hayajonlarini qaytadan yashatganday boʻldi. Ilm, sanʼatni sevgan otaning shoir oʻgʻil bilan quvonishi, yirik shoirlar bir ogʻizdan maqtab, tashviq etishlari, oʻylab-oʻylab, «Navoiy» va «Foniy» taxalluslarini topishi, keksa mavlono Lutfiy bilan uchrashuv va uning kutilmagan darajada baho berishi — ularni unutmoq mumkinmi?! Ishq bilan, hayajon bilan yurakka, miyaga naqshlangan voqealar, onlar...

Gʻariblik, musofirlik yillari... Mashhaddagi yetti-sakkiz yillik hayot — xarob baʼqalar<sup>2</sup>, sovuq, tor madrasa hujralarida kunduzlari quyoshga chiqib havo olmay, tunlari mijja qoqmay, muttasil kitob koʻrish... Kitoblar orqali asrlar bilan, ming yillar bilan, qadim faylasuflari, olimlari, shoirlari bilan suhbatlashish. Ustodlari, sheriklari, uchrashuvdagi ulugʻ odamlar suhbatlaridan bahramand boʻlgani yuzlarcha donishmandlar — to soʻnggi ustodi samarqandlik Xoʻja Fazlullo Abullaysga qadar hammasini esladi. Barcha-

<sup>1</sup> «Qushlar tili».

<sup>2</sup> Kambagʻal talabalar, musofirlar yashaydigan hujralar.

sidan mamnun edi. Fikran yana ular bilan gaplashmoqqa boshladi.

Tashqarida oyoq tovushi eshitildi. Shoir boshini birdan ko'tardi. Eshik «g'irch» etib ochildi-da, ruxsat so'rab, ukasi Darveshali kirdi. Bu, o'qimishli, tavozeli odam bo'lsa ham, bir ko'p jihatlari akasiga o'xshamasdi. Havoyi hayotga berilgan, beparvo, uquvsizroq edi. Navoiy uning nim mast suzilgan ko'zlariga qaradi, kinoya bilan jilmaydi.

— So'zlang, inim, yurtda qanday xabarlar bor?

— Shu kunlarda shi'iy va sunniy<sup>1</sup> g'avg'osidan o'zga muhim hodisani bilmaymen, — deb javob berdi Darveshali asta o'tirib. — Har yerda sunniylar norozilik bildirmoqdalar: «Podshoh shi'iy, masjidlarda imomlar shi'iy... Bunga bardosh etib bo'ladimi!» — deydilar.

— Taassufki, — dedi Navoiy g'ijinib, boshini tebratib, — bu ma'nosiz g'avg'o podshohning farmoni bilan ro'y berdi. Ulus orasiga tafriqa<sup>2</sup> solmoqdan o'zga ish yo'qmi, ajabo? Davlatning moliyasi ne holda, qo'shin ne ahvolda, madrasalarda tolibi imlar, olim va fozillarning tirikchiliklari qanday, har nav amaldorlar poytaxtda, tumanlarda, viloyatlarda xalqqa ne turda muomala qilurlar; dehqonning ro'zg'ori nechik, kosibning kori nechik — mana bu vazifalarni aql va idrok ko'zi bilan ko'rib, tadbir va salohiyat bilan hal qilmoq kerak edi. Inim, har qanday mazhab janjallaridan yuqori turmoq lozim. Yagona husni mutloq mavjuddir. Quyoshning nurida, dengizlarning jo'shqinida, tog'larning muazzam jussasida va yaproqlarning titrashida uning jamoli jilvasini ko'ramiz. Ko'ngilni uning ishq, yodi bilan to'ldirmoq kerak.

Darveshali shoir fikrining ildizlariga yetmoqqa tirishib: quyi solgan boshini asta chayqagan holda sukut etdi. U o'zi og'asiga va uning fikrlariga chuqur ehtirom bilan qarar edi.

---

<sup>1</sup> Islom dinida ikki oqim.

<sup>2</sup> Ajralish (muh.).

— Bu diniy nizolar ulg‘ayib ketmasa edi... — dedi nihoyat Darveshali.

— Xayr, biz bu dag‘dag‘alarni o‘rtadan ko‘tarishga harakat qilurimiz, — dedi Navoiy qat‘iy ohang bilan.— Garchi bu mazhablarning birini o‘zgasidan afzal ko‘rmasak ham, ulusning birligini e‘tiborga olurimiz. Inim, dunyoda kitob o‘qimoqdan, tafakkurdan, she‘r aytmoqdan o‘zga zavqbaxsh mashg‘ulot yo‘qdir. Tabiatim ko‘proq bu tomonga moyil edi. Sokin bir maskanda yashab, bu zavq daryosida suzmoqchi edim.

Lekin menga, ma‘lumingiz, davlatda vazifa berdilar... Yolg‘iz el va ulus manfaatini nazarga olib, mansabni qabul etdim. Bu muborak yurtda qilinadigan ishlar benihoyat ko‘pdir. Bu ishlarning har biriga elimiz asrlardan beri tashnadir. Masalan, bir kutubxona yaratmoq xayolim bor... Siz endi dorug‘ayi kutubxonai humoyun‘dirsiz, sizga taalluqli bo‘lganidan, aytib o‘tmoq istaymen.

— Har bir niyatingiz uchun qul kabi xizmat qilurmen, — dedi Darveshali qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib.

— Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, — shavq bilan davom etdi Navoiy, — butun el qoshida manzur va mo‘‘tabar bo‘lsin. Jamiki ulum va funundaki, azminai qadimdan<sup>2</sup> to shu damgacha odamzodning fikr gavhari ijod etmishdir va kitob suratiga chekilmishdir — barchasi bizning kutubxona xazinasini ziynatlasin. Faqirning xolis niyati shulki, bu yerda Xurosonning va o‘zga mamlakati islomning barcha ulamo, fuzalo, shuarosi kitoblardan istifoda qilg‘ay. Bu yerda falsafaning Suqrot, Aflotun va Arastulari, hikmat va riyoziyotning Fisog‘urslari<sup>3</sup>, ilmi tibning Abu Ali ibn Sinolari, ilmi hay‘atning<sup>4</sup> Ulug‘beklari, she‘rning Firdavsiy va Nizomiy Ganjaviylari — har qaysilari o‘z sohalarida osoyishta mashg‘ulotda bo‘lg‘aylar. Ilm-

---

<sup>1</sup> Podshoh kutubxonasining boshlig‘i.

<sup>2</sup> Eski zamonlardan.

<sup>3</sup> Qadim yunon olimlari.

<sup>4</sup> Astronomiya.

ning ravnaqiga harakat qilgʻaylar, fikrning yangi-yangi xazinalarini ixtiro etgaylar. Alar kashf etgan haqiqat quyoshlari yurtimiz samosini nurga toʻldirsa, maqsadimizga yetgan boʻlurmiz. Darveshali, koʻnglingiz har chogʻ el muhabbati bilan labo-lab toʻlsin, har ishga bel bogʻlar ekansiz, elning manfaat va zaruriyatini oʻzingiz uchun bir mezon, deb biling...

— Albatta, shunday boʻlmoq kerak, — dedi Darveshali, siyrakroq soqolini qashib qoʻyib, — elga xizmat qilgan kishining eʼtibori, qadri qiymati oshar...

Navoiy ukasiga maʼnodor tikildi.

— Yaxshilik bilan nom qoldirmoqning oʻzi ulugʻ mukofotdir, — dedi u keskin ravishda. — Hikmatingiz samosini hargiz bulut qoplamasin, inim.

Darveshali uyalganday, koʻzlarini yashirishga tirishdi. Keyin gapni kutubxonaga burdi. Birinchi galda bir imorati oliy qurmoq kerakligi haqida soʻzladi. Navoiy tokchadagi shanga qaradi, oʻrnidan qoʻzgʻalarkan, Darveshali: «Men... men...», deb dik etib turdi-da, shamdonni olib oʻrtaga qoʻydi va miqroz<sup>1</sup> bilan sham uchini avaylab kesdi. Shoir bir taxta shaldirama qogʻoz olib ochiq qalin kitob ustiga qoʻydi. Qalamni chiroyli, moʻʼjaz mis siyohdonga botirdi-da, qogʻoz ustida juda ehtiyot bilan asta yurita boshladi. Bir ozdan keyin Darveshali oldinga surildi, koʻzlarini katta ochib, qogʻozga, akasining dam toʻxtab, dam yengil harakat qilgan nozik qoʻllariga qarab turdi. Qogʻoz gʻalati chiziqlar bilan toʻla boshladi. Nihoyat, Navoiy qalamni qoʻydi, qaddini rostladi, ukasiga tabassum bilan boqdi.

— Mana bu ashkol<sup>2</sup>ga diqqat eting, — dedi u qogʻozni Darveshali tomon surib, — biz meʼmoriy sanʼatda sohibi vuquf<sup>3</sup> emasmiz. Bu sohaning ustodi komili, albatta, oʻz soʻzini aytar, lekin biz oʻylagan imorat, taxminan shu shaklda boʻlishi kerak.

---

<sup>1</sup> Qaychi (muh.).

<sup>2</sup> Shakllar.

<sup>3</sup> Maʼlumot, bilim sohibi.

<sup>4</sup> Binoning plani.

Qog'ozdagi shakl binoning tarhi<sup>4</sup> edi. Darveshali qiziqib tomosha qilarkan, bu muazzam bino butun tafsiloti bilan shoirning ko'z oldida gavalangandek, Navoiy uning ichki tuzilishi, tashqi ko'rinishi, naqshlari, bo'yoqlariga qadar tushuntirdi. Darveshalining har bir savoliga, go'yo shu qabildagi binoni biron joyda ko'rib maqbul topgan kabi, to'la javob berar edi. Keyin Darveshali bilan kitoblar yig'ish to'g'risida so'zlashdi. Qiymatli kitoblarning nusxalarini ko'paytirmoq uchun Hirotidagi eng yaxshi kotiblar va muqova ustalari haqida surishtirdi.

Hirot xo'rozlari kechani sukutini ikkinchi dapqir buzganda, Darveshali uyqu bosgan ko'zlarini uqalab, o'z xonasiga chiqdi. Shoir o'zini hali tetik va yengil sezar edi. Kechaning mayin sukunatiga sho'ng'ib, bir nafas xayol surdi, bir parcha toza qog'ozni olib, qalamni ushlagan holda o'yladi. So'zlar fikrning oltin ipiga terilib, qofiyalar bir-birini imlab, inoq qo'l berisha boshladilar. Qalam qog'ozning silliq betida yurib ketdi:

*Yillar tutubon shayx maqolotiga go'sh,  
Ne ko'ngluma zavq yetti, ne jonima jo'sh.  
Jonimga navo soldi-yu, ko'nglimg'a xurush,  
Bir jur'a bila mug'bachai bodafurush.*

Ruboiyni ichida o'qidi, yuzini tabassum qopladi. Siyoh qurigandan keyin, qog'ozni usti o'yma gulli charm juzdonga tiqib, arabcha qalin kitobni varaqlashga boshladi.

\* \* \*

Ertasi quyosh yoyilganda, eshikka chiqishi bilan, jussasi kichikroq bo'lsa ham, semiz, yuvosh, yo'rg'a jiyron otni xizmatkor tutdi. Shoir uzangiga oyoq qo'yib, o'zini egarga olishga ulgurmasdanoq ot asta yurib ketdi.

Bozor kuni bo'lganidan ko'chalarda qatnov zo'r edi. Ot, eshak mingan dehqonlar, qo'ng'iroqlarini jaranglatib salmoqlangan qator tuyalar, kalava to'la savatlarini boshlariga qo'ygan kampirlar, matolarini

qo'ltiqlagan to'quvchilar va hokazo qurama olomon bozor tomonga oqardi.

Shoir Xiyobon ko'chasini o'tib, Bog'i Zog'onning katta darvozasiga yetishi bilan bu yerda tartib kuzatib turgan navkarlar muhrdorga salom berib, darrov otning jilovini ushladilar. Shoir ularning yordamisiz otdan tushdi-da, Bog'i Zoqonga kirdi. — Bu turli qasrlar, ko'shklar va boshqa go'zal binolar va ajoyib xiyobonlarga boy g'oyat katta bog' edi. Daraxtlar oralab ketgan keng, toza va quyosh nurlari bilan olachalpoq yo'ldan borib, bir necha tanob joyni ishg'ol etgan katta gulzorga chiqdi. Bu yerga go'yo butun dunyoning gullari to'plangan edi. Turli-tuman rang va ziyo bilan quyoshda yashnagan bu chaman ko'zlarni qamashatirardi. Navoiy gulni, rangni juda sevar edi. Har kungidek, to'xtab, zavq bilan tomosha qildi. Keyin bu chamanzor qarshisidagi koshonaga — devorlari, ustunlari, eshiklari naqqoshlar qo'li bilan yasalgan naqsh gulzorini tovlantirgan binoga tomon yurdi. Oltin qubbachalar, o'ymakor gullar bilan bezangan eshikni ochib, kichikroq, lekin serhasham bir xonaga kirdi. Bu yerda uni do'sti Xo'ja Afzal qarshi oldi. Bu — past bo'yli, tiyrak ko'zli, xushmuomala, qariyb o'zi bilan tengdosh kishi edi. Xo'ja Afzal daftardorlik, hisob-kitob ishlariga juda mohir bo'lish bilan baravar, davlat ishlarida tadbirli, vijdonli bir mansabdor edi.

— Ko'zim sizda edi, marhamat qiling, — o'rnidan turib joy ko'rsatdi Xo'ja Afzal. — Hali devonda hech kim yo'q. G'olibo, xoqon hazratlari hanuz haram<sup>1</sup> doirasidan chiqmagan bo'lsalar kerak.

Navoiy o'tirib, do'stining shaxsiy ishlari haqida so'ragandan keyin, avvalgi suhbatlarda bo'lganidek, gap yana davlatga, xalqqa doir umumiy masalalar sohasiga ko'chdi. Navoiy adolatli davlatning asosiy sifatleri nimalardan iborat bo'lishi kerakligi, podshohning xalqqa va xalqning podshohga munosabati, vazirlardan va beklardan tortib, to eng kichik amal-

---

<sup>1</sup> Podshohning xotinlari va saroy xonimlari yashaydigan bino.



dorgacha har bir ish uchun qonun oldida mas'ul bo'lishi, xalqning tirikchiligini yaxshilamoq uchun lozim bo'lgan choralar va hokazo to'g'risida gapirdi. Butun bu masalalar ustida Xo'ja Afzal shoirning fikrini quvvatladi ham bu yaxshi niyatlarni hayotda ko'rmoqni orzu qildi.

— Xurosonda bir davr yaratmoq lozimki, — dedi Navoiy shavqlanib, — o'zga xalqlar ibrat ola bilsinlar. Tokaygacha insonlar vahshat sahosida qolurlar! Inson barcha maxluqotning tojidir. U sharafli, sof, go'zal yashamog'i kerak. Davlat arboblari aql va adolatni shior qilsalar, xalqni parvarish etsalar, hayotning zangini oltinga aylantirmoq mumkin.

— G'oyat go'zal fikr, g'oyat go'zal niyat, — ta'kidladi Xo'ja Afzal. — Lekin bu mamlakatda mansabdorlar toifasining xalqqa jabr-zulm qilmog'i bir odat va an'ana holiga kirib qolgan... Mana bu zo'r balo!

— Har yerda jabrning tig'ini sindirmoq zarur, — dedi Navoiy qat'iyat bilan. — Zolimlar bilan murosa qilmoq jinoyatdir. Mabodo o'zimiz sindira olmasak, podshohga arz etmog'imiz, uni aqlga, insofga da'vat qilmog'imiz kerak.

Mulozim kirib, Navoiyga podshoh uni yo'qlayotganini bildirdi. Shoir tashqari chiqib, o'ng yoqdagi qirq marmar ustunli qasrga tomon yurdi. Yeriga guldor chinnilar qoplangan dahlizda kafshini qoldirib, zarhal eshikni ochib, ichkari kirdi. To'rda, taxtda o'tirgan Husayn Boyqaroga uch marta bukilib, rasmiy ta'zimni bajo qilgach, ijozat so'rab o'tirdi. Husayn Boyqaro belidan yuqorisi kengayib borgan qabariq ko'krakli, keng yag'rinli, miqti gavdali edi. Yirik, qiyiq, o'tkir qarovchi ko'zlari iroda va ingichka hiyla bilan birga qandaydir beqarorlik, yengil va sho'x tabiatni ham ifodalar edi; boshida yirik gavharlar qadalgan qorako'l qalpoq, egnida yoqasi oltin gullar, qimmatbaho toshlar rang-barang porlagan qizil abrishim to'n. Enli kamarida oltin qubbachalar, yirik gavharlar, Badaxshonning asil la'li-yoqutlari olovlanar edi. Darichalari go'zal boqqa ochilgan katta, yorug' uy-

ning devorlari, shipi porlagan oltin-kumush bilan, san'atning mo'jizasi bo'lgan naqshlarning jonli gullari, yorqin va ohangdor bo'yoqlari bilan ko'zlarni beixtiyor ham uzoq vaqt o'ziga qadab qo'yardi. Yerdan chamanday gullagan ipak gilamlar, baland shiplardan osilgan oltin qandillar, tokchalardagi asil ajoyib xitoy idishlar, ziynat aqlni shoshirar edi.

Navoiy o'zini, har vaqt uchrashgandagidek, sarbastlik bilan tutib, podshohning kayfini so'radi. Husayn Boyqaro ham shoir bilan uchrashganda o'zini qadimgi do'stdek tutishga tirishar edi. U ba'zi viloyatlarga, tumanlarga hokim tayin etish, Abusaid Mirzoning o'g'li Sulton Mahmud bilan qanday munosabatda bo'lish va hokazo masalalar haqida shoir bilan fikr olishdi. Navoiy hokimlardan boshlab to mahalla qorovuliga qadar yolg'iz davlat manfaatini o'ylaydigan, xalq bilan yaxshi chiqishadigan insofli odamlardan tayin etishni hamisha bir qoida qilib olmoq zarurligini uqtirdi. Sulton Mahmud bilan do'stona munosabat bog'lamoq kerakligini, agar u Movarounnahr bilan qanoatlanmay, Xurosonni bosib olish uchun fitna qo'zg'ab, tig' ko'tarsa, omon bermaslik, kerakligini bayon qildi. Husayn Boyqaro bu fikrlarga sira e'tiroz qilmadi, bir nafas sukut qilib:

— Majiddin Muhammadni tanurmusiz? — deya birdan so'radi.

— Taniymen, — javob berdi Navoiy. — Ammo, fe'l-atvorini bilmaymen.

— Bag'oyat bo'lumli inson, — dedi Husayn Boyqaro boshini tebratib. — Mirzoyi Kichikka ixlos bilan xizmat qilmoqda. Bizga sadoqati, himmati baland, havasim keldi. Men uni parvonachi<sup>1</sup> qilib olsam, degan mulohazaga keldim.

— Agar sadoqati samimiy bo'lsa, — dedi Navoiy ikkilanib, — xoqon hazratlari sinagan bo'lsalar, u taqdirida kamina uchun e'tirozga o'rin qolmaydi...

---

<sup>1</sup> Xonlik zamonida yirik mansablardan. Parvonachi ko'pincha podshoh qoshida bo'lib, farmonlarni yozib turar, ishlar haqida podshohga ma'ruza qilar edi.

Husayn Boyqaro bu xususda qayta soʻzlamadi. Kimxob toʻshakning ostiga qoʻlini tiqib, buklangan qogʻozni oldi-da, kulib shoirga uzatdi. Navoiy ipakday mayin, qimmatbaho qogʻozni ochib, tabassum bilan podshohga qarab qoʻydi. Bu — Husayn Boyqaro yozgan gʻazal edi.

Husayn Boyqaroning yoshlikdan sheʼrga havasi kuchli edi. Bolalikdan Navoiy bilan birga oʻqirgan, forsiy, turkiy shoirlarni birga mutolaa qilishar, sheʼr haqida suhbatlashar, butun-butun qasidalarni, gʻazallarni yodlashar edi. Lekin yoshlikda ham fikri, xayoli koʻp vaqt toju saltanat orzu-armonlari bilan band boʻlgani uchun boʻlsa kerak, shoirlikka oz qunt qilar, baʼzan bironta gʻazal yozib qoʻyar edi.

Navoiy gʻazalni dastlab ichida oʻqidi. Keyin tovush chiqarib, chiroyli oʻqidi. Husayn Boyqaroning boshqa gʻazallari kabi, bu ham ravon, musiqiyli oshiqona gʻazal edi. Navoiy shu misralarni maqtadi:

*O'tka yoqqil sarvni, ul qaddi ra'no bo'lmasa,  
Yelga bergil gulni, ul ruxsori zebo bo'lmasa,  
Sarv birla gul tamoshosig'a maylim yo'q turur,  
Bog' aro ul sarvi gulruhdin tamoshho bo'lmasa!*

Bu misralarni tahlil etib, ularda shoirning oʻziga xos maʼno, xayol, rang borligini koʻrsatdi va, bironi bilan munozara qilayotgandek, qizgʻinlik bilan gapirdi: «Oʻz tilimiz naqadar toza, rangli va salohiyatli. Bu soʻz bilan har nechuk ruhni, maʼnoni ifoda etmoq mumkin. Men aminmenki, bizning lisonimiz<sup>1</sup> fikr gavharlarini, nazm ipiga terishda fors lisonidan koʻra koʻproq imkoniyatlarga molikdir. Bu gʻazallarni oʻqib, fors fusaholari<sup>2</sup> va oʻzimizning forsiyparastlarimiz ne deb ogʻiz ochishga jasorat qila olurlar!»

— Bu tilni sheʼrning sheri mudofaa qilar ekan, yana qaysi mard aksin isbot qilur! — dedi kulib Husayn Bayqaro. — Janoblari oʻz nodir asarlari bilan tilimizning husnini, quvvatini donishmand xalq qoshi-

<sup>1</sup> Tilimiz.

<sup>2</sup> Soʻzga chechan odamlar, goʻzal soʻzlovchilar.

da namoyon etdilar... Xotiringizdami, go‘daklik mavsumingizda tilimizni qanday muhabbat bilan tashviq etardingiz? U chog‘larda o‘z so‘zimizga muhabbatni menga siz talqin etgan edingiz. Bu muhabbat alhol dilimdadir.

Navoiy o‘zi haqida aytilgan bu haqqoniy so‘zlarni kamtarlik bilan, boshini quyi solib tingladi. Husayn Boyqaro o‘z g‘azalini jamiki shoirlarga tatabbu uchun berib, ulardan bunga javob yozishlarini so‘ramoqchi ekanligini so‘zladi.

— Faraz qilaylik, — dedi Navoiy kulib, — g‘azalni yuz shoir tatabbu etib, qalam sursalar, yuz g‘azal vujudga keladi. Bir tup gul yuz g‘uncha ochadi!

Eshik og‘a kirib, arkoni davlatning hozir bo‘lganini bildirgach, Husayn Boyqaro kirishga ijozat berdi. Beklar, vazirlar, ulug‘ mansabdorlar va podshohning har vaqtgi hamsuhbatlari, muqarrablar<sup>1</sup> kimxoblarga, xitoyi shohilarga belanib kirishdi. Har kim, o‘z darajasiga ko‘ra, har vaqt o‘tiradigan o‘rnida qaror topdi. Beklar begi Muzaffar barlos podshohga yaqin, eng yuqori o‘rinni ishg‘ol etdi. Husayn Boyqaro toj-taxt g‘avg‘osida tog‘, cho‘l oshib, o‘z raqiblari bilan kurashib yurgan pallalarda unga ko‘rsatgan xizmatlari uchun bu bekning g‘ururiga chek yo‘q, o‘zini go‘yo podshohga sherik kabi tutardi. Umuman, davlatning ustuni hisoblangan bu odamlarning aksari, qanday bo‘lmasin, biron qiziq sifati, fe‘li-huyi yo ishi bilan dong chiqargan edi. Muhammad burunduq barlos — qadim beklar naslidan, g‘oyat bilimli, sardor, ulug‘vor odam. Lekin ovga, qushga shunga o‘ch ediki, mabodo qushlaridan biri o‘lib qolsa, rosa motam tutar, bu o‘lgandan ko‘ra, falon o‘g‘lim o‘lsa bo‘lmasmidi, derdi. Zulun Arg‘un telbaroq, lekin ajoyib qilichboz, bahodir, yovqur bek edi. Har vaqt ikki qo‘l bilan shatranj o‘ynardi. Islim barlos — sodda, dilovar, ov va qush ilmining piri, o‘zining maxsus yoyini kuch bilan otib, o‘qni taxtadan o‘tkazar edi. Ana shunday baho-

---

<sup>1</sup>Yaqin do‘stlar (muh.).

dirona ishlarni ko'p bilardi. Mo'g'ulbek ishi — hamisha qimor! Badriddin shunday chaqqon edikim, yetti otning ustidan qatorasiga sakragan. Said Badriddin — butun harakati nozik, nafis edi, ajoyib raqs etardi. O'zi ixtiro etgan raqslari bor edi. Xo'ja Abdulla Marvoriy — har ilmdan bilardi. Ajoyib qonun'chalardi, she'r aytardi. Xatni chiroyli bitardi. She'rni favqulodda zavq va noziklik bilan tanlardi. Lekin ashaddiy fisq va fujurchi edi.

Tantana, hashamatni sevgan Husayn Boyqaro uyni to'ldirgan va ulug'vor ta'zim, vajohat bilan o'tirgan rang-barang olomonga faxrlanib qaradi. Keyin beklar bilan qo'shin to'g'risida bir oz suhbatlashdi. Viloyatlardan kelgan ba'zi xabarlar haqida vazirlardan ma'lumot oldi. Nima uchundir shayx ul-islom<sup>2</sup>dan shariatga doir bir masalani so'radi. U qiroat bilan va g'oyat salmoqlab so'zlar ekan, zohiran diqqat qilayotganday ko'rinsa ham, sabrsizlangani bilinib turardi. Keyin ov va qushchilik to'g'risida so'z ochdi. Islim barlos birdan jonlanib ketdi. Azamat gavdasini podshoh tomonga sal egib, qudratli qo'llari bilan dag'al, siyrak mo'ylabini bir silab qo'yib, qushlarning ravishraftori haqida qiziq ma'lumotlar bermoqqa boshladi. Muhammad burunduq barlos ham gapga aralashdi. Ov to'g'risida ertakka o'xshash qiziq gaplar asta-sekin hammaning diqqatini tortdi. Podshoh dam kulib, dam jiddiy o'y bilan quloq soldi. Nihoyat, Husayn Boyqaro katta va davomli ovga tayyorgarlik ko'rishni va umuman ovga doir jamiki ishlarni Islim barlosga topshirdida, qo'l ishorasi bilan o'ltirishni yopdi. Butun majlisni o'zining shohona ziyofatiga taklif etdi. Hamma o'rindan qo'zg'alib, ta'zim bajo keltirib turarkan, Husayn Boyqaro asta mag'rur yurib, boshqa xonaga o'tib ketdi.

---

<sup>1</sup> Maxsus musiqiy asbob.

<sup>2</sup> Diniy ishlarni boshqaruvchi yuqori mansabdor; ruhoniylar boshlig'i.

## *Uchinchi bob*

### I

Shom qarosida Majididdin xizmatdan uyga qaytdi. Ichkari hovlida uni o'n olti yashar cho'ri qiz Bo'ston, har vaqtdagiday, uyatchan bir ta'zim bilan qarshiladi. Bekasini hozirgina saroydan bir kanizak kelib, podshohning bosh xotini Beka Sultonbeginning ziyofatiga olib ketganligini bildirdi. Majididdin kunchi erlardan bo'lsa ham, lekin bu xabar uni juda quvontirdi: uning nomi va rutba'si saroy xonimlarining ham oliy diqqatini jalb etgan. Demak, bir kun emas-bir kun uning xotini malikani butun kanizaklari, nadimalari<sup>2</sup> bilan ham Hirotning yuksak oilalarining xonimlarini o'z uyiga chorlaydi. Ishqilib baxt otini qamchilab, kichik saroydan oliy saroyga ildam o'tib olish kerak!

Majididdin yasog'li uyga kirib, yostiqaqqa yonboshladi. Cho'ri qizga shamni tokchadan o'z oldiga olib qo'yirdi. Qorni to'q bo'lganidan, Bo'ston keltirgan bir lagan qovurdoqqa qiyo boqmay, sharbat so'radi. Bo'ston chiroyli ko'zachadan tiniq sharbatni guldor kosaga quyib, tavoze bilan tutdi. Biroq xo'jasining ko'zlarida allaqanday hayosiz orzuning yonganini sezib, sarosimalanib, tezgina eshikka chiqishga intildi.

— Bunda kel, hoy! O'tir. — Achchiqlanib qichqirdi Majididdin.

Ixtiyorsiz cho'ri qo'rqqanidan yaqinroq kelib, go'yo biron yumush kutganday, cho'qqayib o'tirdi. Chiroyli, ma'sum ko'zlarini yashirdi. U o'n ikki yoshida Badaxshonda sahroyi qaroqchilarning qo'liga asir tushib, turli azob-uqubatlar, mojarolar chig'irig'idan o'tib, nihoyat, bundan ikki yil burun, o'n to'rt yoshida, Majididdin cho'ri — «gung» qilib sotib olgan edi. Bo'stonni taqdir bir qarich yoshidan boshlab hayotning zolim panjasiga tashlagan, uqubatlar girdobida

<sup>1</sup> Martabasi, mavqei.

<sup>2</sup> Podshoh xotinigga ulfat bo'lgan ayollar.

suzdirgan bo'lsa ham, niholdek nozik, tuyg'un qizning erkin hayotga bo'lgan umidi so'nmagani edi. U o'z sofligini saqlashga tirishar edi. Bo'ston xo'jasi Majididdinni birinchi ko'rgan ondayoq undan badgumon bo'lgani edi. Yolg'iz uchrashishga to'g'ri kelgan paytlarda uning ko'zlariga qaray olmas edi.

Majididdin kosadagi sharbatni bo'shatib, soqol, miyiqalarini shohi ro'molcha bilan artdi-da, qizga termuldi. Faqat qizning kir, dag'al bo'z ko'ylagini ko'rib, ipaklarga, baxmallarga chulg'ansa, husniga yuz qatla husn qo'shiladi, deb o'yladi va ishqiy hangoma uchun fursatni juda qulay topgan bo'lsa ham, nasib etgan kun qizni hammomga yuborib, nafis kiyimlar kiydirib, undan keyin o'z og'ushiga olishga qaror etdi. Qo'lini uzatib, dastro'molini qizning yuziga yaqin bir silkida, uni cho'chitib yubordi.

— Gul qizim, men senga yaqinda ancha o'rtoqlar topamen, ne deysen?

Xo'jasining muomalasidan vujudini titroq bosgan cho'ri hech nima demay, hurkak ko'zlarini atrofga javdiratdi, xolos.

— Nega javob bermaysen? Men xuddi sen tengi sohibjamol qizlardan bir nechasini keltiramen. Ularning hammasiga sen boshchi bo'lursen. Yumushlaring ozayadi. Hammalaring Bog'i Eram qizlaridek yasanib yurasenlar...

Bu so'zlar qizning qo'rquv va andishasini kuchaytirdi. U boshini yana quyiroq egib, ko'zlarini yerdan uzmas, qanday qilib tashqariga qochishni bilmas edi. Uning baxtiga, shu asnoda ko'cha eshik birdan taqilladi. Bo'ston, qafasdan chiqqan qush kabi, tashqari otildi, kafshini poyma-poy ilib yugurdi. Birpasdan keyin dadil yurib kelib, Abulziyo degan kishining uchrashmoqchi ekanligini bildirdi. Majididdin ijirg'anib, asta tashqari chiqdi. Qorong'uda tanish ovozni eshitish bilan Majididdin ichdan quvondi, lekin tashqari ko'rinishda g'urur va savlatni quyulastirdi-da, butun Xurosonga dong'i ketgan boylardan Abulziyo bilan ko'rishdi va uyga boshlab kirdi.

Abulziyo qalin adras ko'rpachaga o'tirib, chuvak yuzini qoplagan qop-qora quyuq soqolini silab, fotiha o'qiganday bo'ldi.

— Zoti oliylariga podshoh hazratlarining iltifotlari baland emish, — dedi Abulziyo quyuq, payvasta qoshlarini chimirib. — Xudo nasib etsa, yaqin kunlarda yangi rutbai oliy bilan janoblarini tabrik qilurmiz.

— Qayerdan eshitdingiz? — bilmagan kishi bo'lib so'radi Majididdin.

— Podshoh hazratlari bir majlisda sizni yodlamishlar. U majlisda bo'lgan hamsuhbatlaridan eshitdim...

— Shunday xabarlar bor... Ehtimol, sodiq bandalariga inobatlarini ayamalar, — dedi Majididdin va mehmonning ishlari haqida so'radi.

Karvonlari Hindiston, Xitoy yo'llarida muttasil qatnab turuvchi bu savdogar, ishning rivoji va ko'rayotgan foydalaridan og'iz ochmadi, kamchiliklar ustida tilni bir qarich qiladigan, pashshani filga aylantiradigan hamma savdogarlar kabi, yolg'iz chatoqlari haqida gapirdi.

Majididdin Bo'stonni imlab, dasturxon yozishga buyurar ekan, mehmon qat'iyon rad etdi.

— Hozirgina shulon'da edik, — dedi u barmoqlaridagi gavhar ko'zli uzugini o'ynab, — bir masalaning hali uchun qoshingizga kelgan edim. Bilmadim, janoblari qanday qarar ekanlar...

— Bizning xolis niyatimiz, — dedi Majididdin qo'lini ko'ksiga qo'yib, — do'st-yorlarga hamisha xizmat qilmoqdir.

Abulziyoning torgina peshonasi burishdi. Bir ko'zini, odati bo'yicha, qisib, shamga bir nafas tikildi. So'ng Majididdin tomonga enkaydi.

— Xazinaning simu zarga ehtiyoji ne darajada?

Majididdin kulimsirab javob berdi:

— Shohlarnig xazinasini bamisoli bir daryo... Lekin bir farqi bor: suv ko'paysa, daryo toshadi. Ammo xazina javohirotda aslo to'ymaydi.

---

<sup>1</sup> Katta ziyofat.



— Bag‘oyat to‘g‘ri fikr, — dedi Abulziyo, — xususan, bizning podshohi islom kabi Hotamtoy sulton uchun xazina dosh bermaydi. Podshohning muborak tab‘lari hashamatga moyil ko‘rinadi. Har kun Jamshidi oso‘l bazmlar, ta‘rifidan tillar lol bo‘luvchi ziyofatlar tartib etmoqda emishlar. Kamina xazinaning barakatiga sa‘y-harakat qilsam, degan niyatda edim...

— Ne tariq bilan? — qiziqib so‘radi Majididdin.

— Janoblariga oftobday ravshanki, xazinaga mablag‘ el-ulusdan qatra-qatra tomib keladi. Birodaringizning xolis niyati shulki, xazinaga tangani biz qoplab-qanorlab ag‘darsak-da, so‘ng ulusdan bir-bir terib olsak...

— Angladim, angladim, — dedi Majididdin sabr-sizlanib, — tegishli amaldorlar tarafidan xalqdan yig‘ilgusi zakotlarni ma‘lum shart bilan hukumat ixtiyoridan sizning ixtiyoringizga o‘tkazilsa... Maqsadlari ushbumi?

— Balli, — javob berdi Abulziyo, — bu ishda janoblari vositachilik qilsalar, ish tezroq saranjom bo‘lar edi: janoblari shahzoda Mirzoyi Kichik orqali harakat etsalar ham mumkin. Yana bu jihatni o‘zingiz bilursiz.

Majididdin bir oz enkayib, ko‘zlarini yarim yumib o‘yladi. Tijorat ahli bilan aloqada bo‘lishning foydalarini yaqqol ko‘rdi. Bu vazifaning uddasidan chiqishiga ishonardi. Lekin, mushkul masala qarshisida qolgan kabi, jo‘rttaga ikkilanib, sukut qilib o‘tirdi.

— Podshoh hazratlarining qoshiga quruq kirmaysiz, — dedi Abulziyo dilgir bo‘lganday kuyunib, — katta tuhfa hozirlab qo‘yibmen... Siz janobning xizmatigingizga ham tayyormen.

Majididdin yana sir boy bermadi. Podshoh yoki ba‘zi vazirlar e‘tiroz qilmasmikan, degan mulohozada ekanini so‘zladi.

---

<sup>1</sup> Jamshidga o‘xshash. Afsonaviy qadim Eron shohi, dabdabani yaxshi ko‘rgan va tanti ekan.

— Men bu sohada hech tajriba ko‘rgan emasmen,— dedi Abulziyo,— shuning uchun hozircha yolg‘iz Hirot viloyati kifoya qiladi. Men bilamen, hozirgi kunda podshoh hazratlari uchun katta mablag‘ kerak.

— Xo‘p, jamiki mushkilotni o‘z zimmamga olayin,— dedi ayyorcha kulib Majididdin, — lekin bu xayrli ishga men o‘zim ham sherik bo‘layin. Mayli, kichik bir hissasi bo‘lsin...

Bunday taklifni aslo kutmagan Abulziyo torgina, burushuq peshonasini qashidi. Keyin allaqanday zo‘ra-ki kulgi bilan dedi:

— Sizning baxtingiz vazirlik mansabida. Devoni oliydadir. Sizga bu dardisar ishlarning ne hojati bor?

— Biz nima bo‘libmiz! Vazirlar, beklar orasida tijorat bilan shug‘ullanuvchilar ozmi?

— Xo‘p, bu shartni qabul qildik... — dedi noiloj Abulziyo.

Majididdin ishni juda qulay shart bilan olishga tirishajagini so‘zladi va yolg‘iz Abulziyo nomidan muzokara yuritib, o‘zi pinhon qolishi kerakligini uqtirdi. Abulziyo qo‘ltig‘idan og‘ir shohi xaltacha chiqardi-da, xalta og‘zini himarib, Majididdin oldiga sharaqlatib qo‘ydi. Shamda olovlangan oltin kabi, Majididdinning yuzi, ko‘zi shodlikdan uchqunlanib ketdi. Boyga minnatdorlik bildirib, xaltachani darrov yostiq tagiga tiqdi. Mehmon ketgandan keyin Majididdin xaltani ag‘dardi. Shamda chaqnab ko‘zlarni qamash-tirgan oltin tangalarni huzur qilib sanab, sandiqqa tashladi. Abulziyoning sovg‘alarini podshohga o‘zini-kidek peshkash qilish, hozirgi valine‘mati shahzoda Mirzoyi Kichik orqali ishni qulay saranjom qilish va hokazo to‘g‘risida o‘ylab, uyquusi qochdi.

## II

To‘g‘onbek bir haftadan buyon har kun xo‘jasining zotli otlaridan birini minib, Hirotida gasht qilib yuradi. Egnida yangi chakmon, boshida yangi qalpoq, kissasi tangasiz qolmaydi. U Majididdin xizmatiga kirgan kunning ertasiqayoq ota meros aziz xanjarni qay-

tarib oldi. Egnida yangi chakmon, boshida olifta qalpoq, kissasi tangasiz qolmaydi. Oqshom mo‘l, tekin ovqatni yegandan keyin sharobxonaga oshiqadi. Mayxo‘rlikda, kurashda, ot chopishda, o‘q uzishda shaharning dong chiqargan jahongashta yigitlari bilan do‘st tutunishga ham ulgurdi. Birinchi kunlarda xo‘jasi bilan oz uchrashardi. Keyin, To‘g‘onbek gap asnosida turli masalalar to‘g‘risida o‘z fikrini, qarashini bayon qila boshlagach, u tez-tez chaqiradigan, uzoq gaplashadigan bo‘ldi. To‘g‘onbek uchun bu dargohda aytarli yumush yo‘q edi. Ikki-uch oy ichida u nihoyati bir necha marta dalaga chiqib, Majididdinning otadan qolgan katta yerlaridagi dehqonchilik ishlarini nazorat qilib qaytdi.

Bir kun ertalab nonushtadan keyin To‘g‘onbek chiroyli turkman otni egarlab turarkan, mo‘ysafid qul — Nurbobo yaqin kelib, xo‘ja uni chaqirganini aytdi. To‘g‘onbek, go‘yo eshitmaganday, bir qancha vaqt otning u yon-bu yoniga o‘tib, pardozlab, so‘ng po‘ng‘illadi:

— Ish yorti qolmasin, qari shayton. Ol supurtkini, obdon tozala!

To‘g‘onbek eshikda kiyimlarini qoqib-suqib, Majididdinning xonasiga kirdi; tiz cho‘kib, kichik, ayyor ko‘zlarini xo‘jasiga tikdi.

— Yigit, bir xizmat bor... — dedi Majididdin vaqti chog‘lik bilan.

— Buyursinlar!

Majididdin butun Hirot viloyatining soliqlarini yig‘ish Abulziyo ixtiyoriga o‘tganligi va bu ishda uning o‘zi ham hissamand ekanligini, shu kunlarda favqulodda katta xarajatlar qilgani uchun aqchaga muhtojligini, iloji bo‘lsa bu kundan boshlab ba‘zi soliqlarni yig‘moqqa kirishmog‘i kerakligini so‘zsladi.

— Obdon yaxshi ish bo‘libdi-ku! — dedi To‘g‘onbek qo‘pol gavdasini xo‘jasi tomon surib. — Durust, muboshirlik<sup>1</sup> chakki ish emas. Lekin yo‘l-yo‘rig‘ini tushuntiring.

---

<sup>1</sup> Soliq yig‘uvchi amaldor.

Majididdin Xurosonda yer mulkining turli shakllari, ularning soliqlarga munosabati ham odatda yig'iladigan har nav soliqlar haqida uzoq va batafsil so'zlab tushuntirdi. Hozirgi paytda «qo'sh solig'i»ni yig'ish payti bo'lganidan, buni alohida tushuntirdi. Keyin o'z hissasiga tushgan tumanlarni sanab chiqdida, tokchadagi kitob orasidan muhrlar bosilgan bir taxta qog'oz chiqirib: «Mana bu sizning vasiqangiz, ehtiyot qilib saqlang», dedi. To'g'onbek vasiqani o'qimasdanoq buklab, kissasiga soldi-da, kulib: «Qani, oq yo'l tilang bizga!» deb xayrlashib, tashqari chiqdi. Nurbobo egarlab qo'ygan otni minib, jo'nab qoldi. Odati bo'yicha, otni qattiq haydab, kunning qizigan pallasida bir qishloqqa kirdi. Bu yerda ham, xuddi yov quvganday, qattiq yurdi; qo'nar manzil qidirib, ko'zlarini to'rt tarafga jovdiratib, nihoyat, bir chorbog' oldida otdan tushdi. Terdan badani kir ko'pik bilan qoplangan, harsillagan otni daraxtga qantarib, salqin chakalakka qarab yurdi. Qalin daraxtlar orasidan sharqirab oqqan ariq bo'yida charx yigirib o'tirgan kampirning tepasida to'xtadi.

— Horma, ena!

Kampir charxning «g'uv-g'uvi» va suvning sharqirashidan uning ovozi eshitmadi. To'g'onbek qamchi dastasi bilan uning suyakdan iborat yelkasini turtdi. Kampir bujmaygan, oriq yuzini o'girib, chuqur ko'zlarining xira oqini o'ynatdi-da dedi:

— Kel, bolam, nima tilaysen mendan?

— Tur, ayron olib chiq, — to'ng'illab buyurdi To'g'onbek.

Kampir bir parcha latta yopgan oq sochli boshini qimirlatib: «Xo'p, bolam», dedi. Ammo o'rnidan qo'zg'almasdan: «Dildor! Hoy, Dildor!» deb qichqirdi. Daraxtlar orqasidagi past, buzuq devor orqasidan qiz yugurib chiqdida, To'g'onbekni ko'rishi bilan uyalinqirab, asta-asta yurib, bir necha qadam narida to'xtadi. Dildor baland bo'yli, jussalikkina, butun andomi o'ziga kelishgan, tiniq oq yuzli, ingichka, nafis qoshli; ko'zlarining qora yulduzi yoshlik husni-

ning, kuchining jonli, fusunkor olovi bilan yongan o'n olti-o'n yetti yashar suluv qiz edi. To'g'onbek unga boshdan-oyoq razm solib: «Qizlarning sarasi ekan!» deb qo'ydi va yaqinda Hirotda bir o'ltirishda kitob o'qilarkan, hamma go'zal misralar orasida unga ko'proq maqbul bo'lgan bir bayt xotiriga keldi:

*Aningkim ol enginda meng' yaratti,  
Bo'yi birla sochini teng yaratti.*

To'g'onbek ichida: «Shoir go'yo bu suluv uchun ataylab aytgan!» dedi.

— Acha, nega chaqirdingiz? — so'radi Dildor qizarib.

— Bek og'angga ayron keltir, qizim.

Dildor indamasdan orqaga qayrilarkan, kampir uni «hay...» deb to'xtatdi, muloyimlanib dedi:

— Anov yerga,— qo'li bilan olma yog'ochlarini ko'rsatdi kampir,— joy sol! Hordiq chiqarasanmi, yigit?

Qizning orqasidan qarab qolgan To'g'onbek g'ayri shuuriy ravishda boshini qimirlatdi. Qiz hayal o'tmay, eski bir sholcha, toza ko'rpacha va yostiq olib chiqib, epchillik bilan joy hozirladi. Keyin katta zarang kosada ayron keltirib, yerga qaragan holda, To'g'onbekka tutdi-da, nariga borib, o'g'irda nimanidir tuymakka boshladi. To'g'onbek ayronni qatra qoldirmay shimirdi, dakkam-dukkam mo'ylovini artidi, og'ir so'lish oldi-da, qalpog'ini, qamchini tashlab, yostiqqa yonboshladi. Uning ko'zi qizda edi. Dildor o'g'irning sopini ko'tarib, vazmin urar ekan, bo'z ko'ylak ichida, yumaloq ko'kraklari serkillab ketar edi. Turli mamlakatlarni kezman, turli xalqlar, urug'-aymoqlar ichida bo'lgan va bir ko'p xonlar va hokimlarning dargohida yuzlarcha go'zallarga duch kelgan To'g'onbek Dildorday suluvni ko'rmagan edi. U atoqli bir bek yoki hokimning qiziga tantana-dabdaba bilan uylanish orzusida bo'lganidan Dildorga, ishq ermagi uchun soz ekan, deb qaradi.

---

<sup>1</sup> Xol.

Kampir charxini yig'ishtirib, bukchaygan holda yigitning oldiga keldi.

— Qaysi bekning navkarisen, qayerga borasen? — so'radi qiziqib.

— Men o'z boshimga o'zim hokim! — to'nglik bilan javob berdi To'g'onbek. — Erkaklaring bormi? Qayerda?

Bundaylarni o'z umrida ko'p ko'rgan kampir beparvo javob berdi:

— Birgina o'g'lim bor. Anov qizning dadasi. Dorug'amizning yeriga hasharga ketdi. O'z ekinlari boqimsiz-qaramsiz dalada yotibdi. Yurt og'asining parvoyiga kelmaydi. Xalqqa har xil yumushlar topib tura-di... Yumushing bormi o'g'limda?

— Yumushim — tanga. To'lasalaring bas!

Kampirning ko'zlari allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi.

— Zakotchimisen?

To'g'onbek boshi bilan tasdiqladi. Kampirning oyoq-qo'llari bo'shashganday, sholchaning bir chek-kasiga madorsiz cho'nqaydi.

— Bolam, — dedi yalingan tovush bilan u, — tang-ri martabangni ulug' qilsin, bizga rahmu shafqat et. Zakotga bergulik hech nimamiz yo'q. Bor-yo'g'imizni berib bo'lganmiz. O'la qolay, soliqlardan boshimiz chiqmay qoldi, hali «qo'sh puli», hali «sohib jam», hali «mirob», hali «sarona»<sup>1</sup> — sanay bersang odog'i yo'q...

To'g'onbek indamadi, dastro'moli bilan keng, ser-tuk ko'kragini yelpib, atrofga «chirt-chirt» tupuk otib o'tirdi. Sopiga kumush ishlangan qamchisini o'ynab, keyin kampirga qichqirdi:

— Sannama ko'p! Xudoy ayollarni so'zga yarat-gan-da.

— Arzi dodimni kimga aytayin, quloq sol, bo-lam! — muloyimlanib dedi kampir.

— Ko'p so'z eshakka yuk... Qozonni os. Mo'l qilib

---

<sup>1</sup> XV asrdagi soliqlar.

etni sol. Sharobing bo'lmasa, bo'za keltir. Tez bo'l, obdon ochiqdim.

— Biz et ko'rmaymiz, — dedi kampir, — mirzo yigit. Agar ubra yoki umoch desang, jonim bilan qilib berayin.

— Anov uloq-chi?— To'g'onbek uzoqda o't chimtib yurgan ori q echkini ko'rsatdi.

— Bolam, u qo'shnik... — Ishontirishga tirishdi kampir.

— Na zarari bor? Tuya ko'rdingmi — yo'q! — boqdi To'g'onbek.

Kampir boshini suyak yelkari orasiga olib, g'am-tashvish cho'kkan chuqur, xira ko'zlarini yerga tikib, sukut qildi. Daraxtdan «to'p» etib aqiqday bir olma uzilib, To'g'onbekning yoniga tushdi. To'g'onbek olmani olib, yassigina, beo'xshov burniga yaqin tutib iskadi va kulib, Dildorga murojaat etdi: «Sening nasibang, qo'limdan ol, o'g'onim<sup>1</sup> seni ham qo'limga shu olmaday uzib tushursin!»

Dildor o'g'irni tashlab, qayoqqadir qochdi. To'g'onbekning olma uzatgan qo'li havoda muallaq qotdi. Bir nafasdan so'ng zarda bilan olmani uloqtirdi. Uning kichik, qiyiq ko'zlari yomon yondi, dakkamdukkam miyiqli qalin lablari titrab ketdi. Kampir unga qo'rqa-pisa qaradi: «Achchig'lanma, bek yigit, o'zi uyatchan qiz... Men hozir senga bo'za olib kelaman. Qozon osib shiringina taom qilib beramen, bek yigit», — dedi-da, kalavlanib o'rnidan turdi.

— Yurtning vallamatini chaqir, — o'radan chiqqan ovozday to'ng'illadi To'g'onbek. — Shu bugun zakotni to'lamasalaring, tanga o'rniga jigarlaringni uzib olamen!

Kampir orqaga burilib, shivirlab ketdi: «Bu jallod jo'ji-bo'ji tuxumidan tarqalganga o'xshaydi. Amaldorlarga o'zing qirg'in yubor, tangrim!» Echki o'tlagan o'tloqqa yurdi. Uni bo'ri ko'zidan yashirishni o'yladi, lekin zakotchining jahlini battarroq avjlantirmaslik

---

<sup>1</sup> Tangrim.

uchun yana bu fikrdan qaytdi. Zakotchiga taom pishirmoq uchun qo'rg'onchaga qarab yurdi.

To'g'onbek daraxtlar orasidan ko'kning tiniq zangorisiga qarab, dam mudroq bosib, dam yana sergaklanib yotar edi. Qishloqning kajava qorinli, yupyumaloq oqsoqoli issiqdan harsillab-gursillab yetib keldi. Jahldan tushgan To'g'onbek bir necha so'z bilan maqsadini tushuntirdi. Oqsoqol zakotchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatib, garchi o'zi hech vaqt soliq to'lamasa ham, hamqishloqlarini haddan tashqari adolatsizliklardan qo'riqlashga imkoni bor qadar unnab ko'rar edi. To'g'onbekning aft-basharasidan va muomalasidan, bunga so'z uqtirish mumkin emasligiga ishongan bo'lsa ham, yotig'i bilan so'zlab, insofga da'vat qilishni foydasiz ko'rmadi.

— Mirzo yigit, — dedi u qo'li bilan peshonasidan terni sidirib, — yaqinda biz «ushr»ni batamom topshirib, ko'nglimizni bu anduhdin forig' qilgan edik. Siz talab qilg'on zakot uchun hali vaqt kelgani yo'qdir. Har qaysi zakotning o'z fasli bor. Bu ishlarining barchasi kaminaga besh barmoqday ayon. Shu jihatlarni andisha qilib ko'ring, mirzo yigit.

— Bo'limli so'zni ayting, vallahat! — qichqirdi To'g'onbek. — Biz o'z xo'jamizdan olgan farmonga qarab ish qilamiz.

— Shu kunda dehqon, nafsilamrda, yalang'och, mirzo yigit, — dedi oqsoqol. — Xirmonni ko'tarmaguncha undan bir nima so'rash mahol.

— Bilamen, ko'p yerlar tarxonlik'ka, vaqfga qarashli. Ular, albatta, zakotdan ozod. Dehqon yalang'och bo'lsa, biz kimdan yig'amiz! — qichqirdi xo'mrayib To'g'onbek.

Oqsoqol yelpinib, issiqdan harsillab, bir muddat sukut qildi. Keyin, go'yo o'z-o'ziga aytganday, sekin-gina dedi:

— Bevaqt talab qilinsa, biron g'avg'o ro'y bermasa edi, deb xavfsiraymen...

---

<sup>1</sup> Maxsus imtiyozli oqsuyaklarning yeri. Bu yerlar soliqdan ozod bo'lgan.



— Meni qo‘rqitgani keldingizmi, vallahat, — birdan o‘qrayib dedi To‘g‘onbek. — Xudoyga shukur, maydon ko‘rgan yigitmiz...

— Mirzo yigit, — dedi oqsoqol, — sizga uzoqdan ko‘zim tushgan hamon botir, dilovar yigitlardan ekanligingizga bovar qilgan edim. Bu jihatdan ko‘nglingiz forig‘ bo‘lsin. Inim, bizning tarafning fuqarosi andak qiziqqonli bo‘ladi. Ba‘zi amaldorlarning nomaqbul harakatlaridan shikoyat qilib, poytaxtga murojaat etmoq fikrida edilar. Tadbir va ehtiyot bilan qadam qo‘ysangiz, shoyad g‘avg‘o qo‘pmas, tangani ham sillqlik bilan olursiz...

To‘g‘onbek toqati toq bo‘lgandek, sakrab o‘rnidan turdi.

— Yuring, men o‘z tadbirim bilan tanga to‘play, siz tomosha qiling!

Oqsoqol harsillab o‘rnidan turdi. Daraxtzorda bukchayib, kalavlanib o‘tin terayotgan kampirga To‘g‘onbek otni xashakka qo‘yishni buyurdi, oqsoqolni imlab, oldiga soldi-da, qishloq oralab ketdi.

Dildor yugurib buvisining yoniga keldi: «Qaerga yo‘qoldi mo‘g‘ul-cho‘g‘ul o‘lgur?» deb so‘radi. Kampir qishloqdan zakot undirgali ketganini aytib, uning otini xashakka qo‘yishni buyurdi. Qiz qarq‘ab-qarq‘ab, otga yaqin keldi. Uning egar-jabduqlaridagi kumush gullarga suqlanib qaradi-da, keyin astagina jilovini chiqardi, otni yechib, no‘xtasidan yetakladi, uni o‘ti qalin, daraxt siyrak joyga eltib bog‘ladi. So‘ng kampirning yoniga qaytdi, unga qarashmoqchi bo‘ldi: onadan yosh qolgan yetim Dildor buvisining parvarishi bilan o‘sgan, unga onadek muhabbat qo‘ygan edi.

— Nima pishirmoqchisiz? — so‘radi Dildor.

— Betavfiqqa mo‘lgina qilib quymoq pishirsam, deyman...

— Behuda ovora bo‘lasiz, buvi, — dedi Dildor kuyunib. — It akilladi-qo‘ydi-da. Kambag‘alning qozoniga zormi u?

Kampir indamadi. Cho‘p-xasni qo‘ltiqqa olib, qo‘rg‘onchaga ketarkan, birdan to‘xtadi.

— Sen bu yerda aylanma, qizim, — chuqur ko‘zini tikib, xafsiragan tovush bilan dedi kampir, — echkini yetaklab, ko‘zdan uzoqda yur, uqdingmi?

Dildor gilosday qizil chiroyli lablariga yoyilgan tabassum bilan boshini silkidi-da, borib echkning ingichka bo‘yniga bir quloch yo‘g‘on arqon solib, sudrab ketdi. U quyoshda ola-chalpoq tovlangan sokin chakalaklarning oxiriga yetdi. Keng dalaga, quyoshda oltinlangan bug‘doyzorga yaqinlashdi. Echkini daraxtga bog‘lab, jildirab oqqan suvga mo‘jaz oyoqlarini solib, salqinda jimgina o‘tirdi. Zerikdi. Daraxtlarning ustidan onda-sonda qushlarning sadosi bir zumgina yangrar, yana og‘ir jimjitlik cho‘kardi. Dildor yonverida, o‘tlar orasida ko‘zga chalingan, qo‘lga bazo‘r ilinadigan gulchalarni qunt bilan terib ovunarkan, orqada shitirlagan tovush eshitildi-da, birdan boshini ko‘tarib, hurkak boqish bilan qaradi. Daraxtlar orqasidan Arslonqulni ko‘rdi. Ko‘zlari birdan nash‘a bilan yonib ketdi. Boshidagi ro‘molchasini tuzatdi, barmoqlari bilan chakka sochlarini to‘g‘riladi.

Arslonqul barvasta qomat, o‘mrovli, sodda, o‘n sakkiz yashar yigitcha edi. Uning mehnatda chiniqqan qoramtir yuzida, jonli, tiyrak, yirik ko‘zlarida bolalarcha ma‘sumlik jilvalanardi. U bu qishloqlik bo‘lib, bolalikdan poda boqqan, yerdorlarning xirmonini ko‘targan, qo‘sh haydagan. Uch-to‘rt yildan buyon hirotlik bir tarxonning shu atrofdagi yerlarida qarol bo‘lib ishlardi. Tabiat og‘ushida, mehnatda birga o‘sgan qiz va yigit bundan qariyb ikki yil burun bir-birlariga samimiy muhabbat bilan bog‘langan edilar. Kampir ham, Dildorning otasi ham bu sinalgan yigitni kuyov qilishga hech qanday taraddudsiz rozi bo‘lishgan edi. «Ezgulikning kechi yo‘q», degan gapga muvofiq, to‘y-tomosha uchun hali ma‘lum muddat tayin etmagandilar.

Arslonqul qudratli oyoqlarini uzatib, qizning yoniga og‘ir o‘tirdi. Yuzidan quyulgan terni artdi. Jomakorning yoqasini silkib, keng yalang‘och ko‘kragini yelpidi-da, Dildorga qarab kuldi.

— Echki boyaqishni panaga olganingiz yaxshi bo‘libdi: och bo‘ri yomon bo‘ladi.

Dildor:

— Kampirga yo‘liqingizmi? — deb so‘radi mayda gullarni ingichka pishiq o‘t bilan boylab, dasta qilib Arslonqulga ko‘rsatarkan.

— Uchrashdim, — javob berdi Arslonqul. — Lekin usiz ham ma‘lum.

— Ko‘rdingizmi battol o‘lgurni! Zakotchilar orasida tarig‘day insof bor odamni ko‘rmaganmen.

— Butun qishloqqa g‘alva solmoqda u, — javob berdi Arslonqul xafalanib. — Bu juda quturgan ekan...

— Agar zakotni bizdan ham undirmoqchi bo‘lsa, nima qilurmiz? Shamga ham pulimiz yo‘q... — tashvishlandi Dildor.

Arslonqul unga javoban dedi:

— Bu atrofda hali ko‘p izg‘iydi u. Muhlat olsak, bir amallab toparmiz. Zakotni endi to‘layapmizmi?!

Dildor yengillanib xo‘rsindi. Qizning dilini g‘ash qilgan tashvishni yo‘qotgani uchun Arslonqul ichdan quvondi. Qizga yaqin surildi. Uning ko‘rkam sochlari siladi. Dildor atrofga bir qarab olib, keyin erkalanib, yigitga suqildi. Arslonqul uning chiroyli boshini ko‘ksiga olib, hayajon bilan lablarini qizning o‘pish so‘ragan sezgir, aqiq rangli lablariga qo‘ndirdi...

Qiz yigitning ko‘ksidan boshini qutqarib, sochlari ni to‘g‘riladi-da, erka araz bilan nariroq o‘tirdi. Kulib Arslonqul ham nari surildi. Qiz chaqqonlik bilan yana uzoqlashdi. Keyin o‘z qiliqlariga o‘zlari kulib yuborishdi. Arslonqul tek o‘tirishni va‘da qilgach, Dildor uning yoniga keldi. Yigit o‘z ishlari to‘g‘risida gapirdi. Kuzda, ekinlar yig‘ilgandan so‘ng, xo‘jasidan haqini olib Hirortga tushajagini, o‘zi va Dildor uchun kiyimliklar olajagini so‘zladi. Dildor Hirot bozori va undagi qimmatbaho mollar to‘g‘risida kattalardan eshitganlarini so‘radi. Arslonqul uzoq bo‘lmagan azim shaharda nihoyati ikki martagina (bu ham juda qisqa muddat) bo‘lgan esada, bazzozlar sotadigan kashmir shollari, xitoy shohilari va hokazo haqida uzoq hikoya

qildi. Ularning dillari umid va shodlik bilan to‘lgan, turmushning qayg‘ularini, mashaqqat va dahmazalarini unutgan edilar.

Echkini shunda qoldirib, ovqatlanmoq uchun uyga jo‘nadilar. Arslonqul o‘n besh-yigirma qadam oldinroq yurib ketdi. Dildor uyga yaqinlashganda haligi yerda, sholcha ustida o‘tirgan To‘g‘onbekka, oqsoqolga va boshlarini egib, qaltirab turgan ba‘zi hamqishloqlariga ko‘zi tushdi-da, ularning qoshiga bormasdan, devor orqasiga o‘tib ketdi.

Arslonqul og‘ir yurib kelib, odamlardan bir oz narida — ariq bo‘yida cho‘nqaydi. Atrofdagi daraxtlarga bir necha sigir, buzoq, qo‘y bog‘langan edi. Bularni zakotchi zo‘rlab garovga olib kelganini fahmladi. Achchig‘i halqumiga tiqilib, o‘shshayib qoldi.

Ko‘p dehqonlar zolimni yumshatish uchun uylaridan har xil ovqatlar tayyorlab kelardilar. To‘g‘onbek oqsoqol bilan yozuv-chizuvga, sanoqqa berilib, dasturxonga qaramadi ham. Nihoyat, hisob-kitobni bitirgach, ovqatdan oz-moz totindi-da, birdan o‘rnidan turdi. Garov sigir, buzoqlarni oqsoqolga topshirdi va Foryon qishlog‘idan qaytguncha, boqimandalarini jamg‘arib qo‘yishni unga tayinladi. Keyin otini uzoq silab-siyapab, ardoqlab mindi-da, chang ko‘tarib, haydab ketdi. Yumaloq oqsoqol yoqasini ushlab, bosh chayqatdi ham odamlarga ko‘z oqini o‘ynatib, pixillab, dedi: «Duoyibad qilinglar, ilohi bu maxluq otdan yiqilib, bo‘yni uzilsin!»

Odamlar qo‘lni paxsa qilib, g‘azab bilan deyishdi: «Shikoyat qilmoq kerak podshohga, shikoyat!»

## ***To‘rtinchi bob***

### **I**

Bog‘i Zog‘onning bosh darvozasi oldidagi katta maydon harbiylar bilan to‘la. Har yoqdan to‘da-to‘da otliq sipohilar — navkarlar keladi. Otlar o‘ynoqlab kishnaydi, tug‘lar hilpiraydi. Quyoshda dubulg‘alar, sovutlar yaltiraydi. Beklarning kumush sopli qamchi-

lari, ot asboblaridagi kumush bezaklar, qilichlarning qinlaridagi oltin, feruza va zabarjad toshlar ko'z qamashtirib yonadi. Navkarlar orasida oppoq soqoli ko'ksiga tushgan, lekin yigitlarday tetik qarigan chol-lar, jang maydonidagi dahshatli suronlarni ko'ngilli bir o'yindek bilgan ham jang-jadal bilan suyagi qotgan mag'rur bahodirlar bilan birga tajribasiz, miyiqsiz, yosh-yosh yigitchalar ham bor... Tantanaga qaramay, Hirot har kungi hayot bilan yashaydi; Hirot bunday kunlarni ko'p ko'rgan! O'ynoqlagan otlarning oralari-da g'ivillab, bir-birlari bilan baqirib-chaqirishgan bolalar istisno qilinsa, kattalar: «Podshoh Muhammad Yodgor ustiga otlanibdi», degan xabarni eshitib: «Xudo oq yo'l bersin, yurtga tinchlik kerak», deb o'z tirikchiliklaridan qolmaydilar...

Mana, chorpaxil, mag'rur Islim barlos o'zi uchun yasatgan maxsus o'q-yoyni osgan holda katta suvori to'daning boshida chang ko'tarib, peshdor<sup>1</sup> askarlar sifatida ildam yo'lga tushdi.

Bog'i Zog'on darvozasidan Husayn Boyqaro ot o'ynatib chiqdi.

Tim qora, haybatli asov otining bezaklari oldida uning kiyimlarining boy ziynati unchalik taajjublanurlik emasdi. Temur avlodi orasida qilich chopishdagi mahorati bilan tanilgan Husayn Boyqaro kumush so'lug'ini chaynab tipirchilagan otni pishiq tutib, botirona bir tur bilan gerdaygan edi. Uning orqasida beklar, sardorlar, sulton xonadonining yaqin aqrabolari Xurosonning yuksak oilalariga mansub bo'lgan, saroyning husni, podshohning ziyofat va majlislari uchun hashamat, dabdaba berishgagina xizmat qiladigan duxoba qalpoqli, movut chakmonli, nozik ishlangan qimmatbaho kamarlar taqqan yosh nozanin yigitchalar to'p-to'p bo'lib, otlarini gijinglatib turardilar.

Bir dasta yasovullar oldin-ketin yugurib, havoda qamchilarini o'ynatib, podshohning yo'lga chiqqa-

---

<sup>1</sup> Oldinda boruvchi, ilg'or.

nidan darak berar, otliqlarni, eshak minganlarni egardan tushirar, piyodalarni ko‘chaning ikki tomoniga, devorlarga qapishtirar edilar. «Ha-hu» deguncha odamlarning yelkalariga, boshlariga, qamchi tushib qolar edi. Do‘kondorlar do‘konlari ichidan chiqib, viqor bilan qo‘llarini ko‘kraklariga qo‘yib, shohni kutardilar...

Gavharshodbegim madrasasining sirtida, yuksak peshtoq ostida tolibi ilmlar qalin bir guruh bo‘lib turishardi. Bular toj-taxt uchun Astrobod taraflarida isyon ko‘targan Yodgor Mirzoning kimligi, qaysi nasl va tarmoq bo‘yicha u Amir Temurga borib taqalishi ustida muzokara qilishar; tirik, o‘lik, nomdor, nomsiz, toj kiygan, toj kiymagan shahzodalarni tilga olishar edi. Sultonmurod bilan Zayniddin sho‘x hangoma va latifalar so‘ylab, ba‘zan hammani kuldirib turishar edi. Favqulodda vajohatli, bir ko‘zi g‘ilay yasovul qamchini qahr bilan silkib, chopib o‘tarkan, Zayniddin qichqirib yubordi:

*Hech kasro nazdi dud naguzoshti,  
In du shohi gov gar har doshti<sup>1</sup>.*

Do‘stlar bir zumgina lablarini tishlab, jim qoldilar, lekin yasovul kinoyani payqamay, uzoqlashib ketgach, mahkam yumilgan lablaridan birdan qahqaha toshdi. Sultonmurod do‘stining yelkasini qoqib dedi: «Sen bo‘lmasang edi, bu jabrkor hayotda kulgini mutlaq unutkan bo‘lur edik...»

Tantana bilan Husayn Boyqaro yaqin kelgach, hamma tolibi ilmlar qo‘l qovushtirib, egildilar. Sultonmurod boshini ko‘targanda, podshoh uzoqlashgan edi. Uning ko‘zi Navoiyga tushdi. Navoiy Xo‘ja Afzal va shoir Shayxim Suhayliy, Kamoliddin Husayn Kozargohiyalar bilan bir qatorda, otini bo‘shgina tutib, bu suron va tantanaga go‘yo loqayd, hamisha ko‘nglini to‘lqinlantirgan ilhomlarga, fikrlarga berilganday

---

<sup>1</sup> Agar ho‘kizning shoxlari eshakda bo‘lsa edi, u o‘z yoniga hech kimni yo‘latmas edi.

borar edi. Ko‘zlaridagi samimiy quvonch va muhabbat bilan qarshilagan talabalarga shoir tabassum bilan iltifot ko‘rsatib o‘tdi.

Ko‘chalarda hayot va harakat avvalgi iziga tushdi. Talabalar madrasaning tosh bag‘ri ichiga kirib, g‘oyib bo‘ldilar. Sultonmurod yana hujraga kirib mutolaaga berilishga mayl sezmedi. O‘ziga zarur bo‘lgan ba‘zi nodir kitoblarni qidirib topishi kerak edi. Nogihon uning yodiga ko‘pdan buyon uchrashmoqni istadigi mashhur kimyogar mavlono Abdulahad tushib qoldi. O‘ylab turmasdan, shaharning Darvozai Qipchoq tarafiga qarab ketdi.

Hirotning chetida qaysi bir avliyoning sag‘anasi bo‘lgan, zo‘r qayrag‘ochlar va qari chinorlar bilan qoplangan katta jimjit go‘riston ro‘baro‘sida, xarob bir uy oldida to‘xtadi. Bir vaqtlar o‘ymakorlik san‘atining go‘zal namunalaridan bo‘lgan, lekin hozirda zamonlarning asta, omonsiz yemiruvchi ta’siri ostida o‘z husn va tarovatini yo‘qotgan eshikni ohista taqillata boshladi. Ichkaridan hech qanday sado eshitilmaganidan qattiqroq urdi. O‘tkinchilardan biri o‘z qulog‘iga ishorat qilib, jilmayib, dedi: «Tosh bitgan! Ichkariga marhamat qila bering!» Uy sohibining karligini birdan eslab, kulib, qo‘ydi-da, ichkari kirdi. Egasi tashlab ketgan hovlidek, yovvoyi o‘tlar bilan qoplangan, og‘ir jimjitlik hukm surgan katta hovli o‘rtasida bir nafas to‘xtadi. Atrofga bir qarab, keyin tomida qaqqaygan quvurdan burqib tutun chiqayotgan, eski, lekin qo‘rg‘onday baland va mustahkam uyga qarab yurdi. Bir necha qadam qolganda, uying haybatiga yarashmagan kichkina eshik ochilib, sopol ko‘za ko‘targan bir kishi chiqdi. Uning katta, yumaloq boshida kir taqya, egnida har joyi kuygan, turli dog‘lar bilan yiltiragan eski jomakor; ko‘zlari yoshlangan, jiddiy, salobatli yuzida olov yallig‘i jilvalangan, ko‘rkam soqolining oqi kir sarg‘ish tus olgan. Ellik yoshlarda bo‘lgan bu ajoyib odam mashhur kimyogar va shoir Abdulahad edi. U yigirma yildan buyon tinmasdan yolg‘iz boshiga bu yerda kimyo ilmi bilan mashg‘ul

edi: turli moddalarni qizitar, eritar, qo'shar-ayirar, o'z ilmi hunarining chuqur tilsimlarida taajjublanarli sabr, matonat va g'ayrat bilan ishlar edi. Olov va har nav moddalarning ta'siri ostida ko'zlari zaiflashgan, quloqlari kar bo'lgan edi.

Begona yigitni ko'rish bilan kimyogar qotib qoldi. Uning butun qiyofati allanechuk yomon o'zgarib, chuqur noroziligini bildirar edi. Sultonmurod bunday odamlarning fe'lini yaxshi bilganligidan uning noroziligini tabiiy deb hisobladi, tez-tez yurib, kimyogar qarshisida to'xtab, samimiy ta'zim qildi. Kimyogar xira, namli ko'zlaridagi istehzo bilan unga boshdan-oyoq razm solib, dilgir bo'lganligini g'alati, chuqur xo'rsinish bilan ifoda etdi.

— Faqirning ostonasiga ne maqsad bilan qadam bosdingiz? — sekin, lekin norozilik ohangi bilan so'radi kimyogar.

Sultonmurod qaddini rosladi. O'jar olimning iltifotini qozonish uchun quvvayi nutqini ishga soldi. Tomoqlari qirilgunday, baland ovoz bilan dastlab kimyogarga madh-sano o'qidi, keyin o'zini tanitib, qanday maqsad bilan kelganini so'zladi.

— Mashg'ulotimga xalal berguvchilar bilan do'st tutunmaymen, — yana ayni dag'al ohang bilan dedi kimyogar.

— Taqsir, — dedi Sultonmurod ehtirom bilan, — biz shul toifadanmizki, ular ilm uchun chekilgan har qanday mashaqqat va mahrumiyatni hayotning ulug' ne'mati, deb bilurlar. Janoblari ilmi kimyoda zamonamizning Ja'fari'dirsiz. Sizing har bir so'zingiz biz kabi ilm gadolari uchun tilla va nuqradan afzaldir. Modomiki, tangri sizga benihoyat xazina baxsh etmish, bu kamina shogirdingiz saxovat yo'lini tutmoqligingizdan umidvordir.

Abdulahad kuyib siyraklashgan qoshlarini chimirib, indamasdan uzoqlashdi. Sultonmurod o'jar kimyogarning qabul qilishidan umidi so'nib, uning

---

<sup>1</sup> Qadim arab kimyogari.



orqasidan qarab qoldi. Olim hovlining o'rtasidagi chuqurga ko'zachadan qoramtir-chirkin suyuqlikni ag'dardi-da, yerga qaragan holda asta yurib keldi va boshini ko'tarmasdan, birdan qandaydir sirli tovush bilan so'radi:

— Niyating xolis, kimyoga muhabbating, haqiqatga imoning barqarormi?

— Ne til bilan arz etay? — xitob qildi Sultonmurod.

— Marhamat qil!

Sultonmurod haddan tashqari quvonib, olimning ketidan uyga kirdi. Bu «kimyoxona» masjidning xonaqosiday katta, chorxari uy edi. Is bosgan shipida ikki joyda shaffof qog'oz bilan qoplangan katta tuynuklar bo'lganidan xona ichi qorong'i emasdi. Tokchalarda, yerda har xil kattalikda va shaklda bo'lgan sopol ko'zalar, mis va temirdan har nav idishlar, g'alati shishalar, katta-kichik hovonchalar, har turli temir-ter-sak qalashib yotardi. «Kimyoxona»ning to'riga qator qurilgan baland-past o'choqlar oddiy o'choqlarga aslo o'xshamas edi. Bir o'choqda gurillab olov yonardi. Dekchaga o'xshash bir idishda nimadir burqib turadi...

Sultonmurod o'zini allaqanday bir tilsimot ichida sezdi. Kimyoning sirlarini tezroq fahmlashga orzusi qancha kuchli bo'lmasin, sirli amaliyotga qancha oshiqmasin, lekin bironta idishga, bironta moddaga qo'l tekkizishga botinmadi. Abdulahad esa go'yo uni butunlay unutganday, «churq» etmasdan, jiddiy timirskilanadi; goh olovga qaraydi, goh burqigan moddani temir asbob bilan kavlaydi, goh ularni qo'shadi-da, bir chekkaga olib qo'yadi. Goh chuqur o'ygabotib, keyin birdan harakatga kirib ketadi. Xovonchada nimanidir tuyadi.

Chamasi ikki soat shu tariqa sukutdan so'ng Abdulahad bir chekkada qaqqayib, uning har bir harakatini ko'zdan qochirmagan yigitning oldiga keldi. Kinoyasiz tabassum bilan unga qaradi.

— Ilmi kimyo, — dedi u shivirlaganday, — ilmi

xufyadir, asrori g‘ayb<sup>1</sup> ilmidirki, nomahramning nazari mushkilotning haliga mone bo‘lishi mumkin. Bu bobning ustod komili Ja‘fardan boshlab, bu zamonga qadar ozmuncha xaloyiq bu maqsad yo‘lida zahmat chekmagan!

— Muhtaram ustoz, — dedi Sultonmurod yalinib,— kaminaning niyati pokligiga zarra qadar shubha etmangiz. Bu qulbachchangizning murodi ma‘rifatdir. Bundan o‘zga hech bir andisha uning ko‘ngil oinasiga aslo soya solmagandir. Yana bir nuqtani ishorat etmoqni lozim bilamenki, dunyoda uch nimarsa uch nimarsasiz qoim bo‘lolmagay: mol — betijorat, davlat — besiyosat, ilm — bebahs... Taqdir, bahs asnosida fikrlarning zarbalaridan haqiqatning chaqmog‘i yong‘usidir...

Kimyogar bir qadar yumshaganday bo‘ldi. Ba‘zi ilmlar haqida suhbatlashgandan keyin Sultonmurodning bir ko‘p ilmlarda bag‘oyat komil ekanini sezdi. Uning zehning o‘tkirlikiga, ma‘lumotining kengligiga o‘z ichida taajjublandi. Bu nodir qobiliyatning o‘tinchini qaytarishni axloqqa munosib ko‘rmadi shekilli, nihoyat, o‘z ilmining sirlarini ocha boshladi. Dunyoni tashkil etgan mashhur to‘rt unsur<sup>2</sup> haqida qadim yunon va arab donishmandlarining fikrlarini tushuntirib, bu unsurlarning aslida vohid<sup>3</sup> ekanligini, qandaydir bir javhar mavjud bo‘lib, hamma jismlarning suratlari unga bog‘liq ekanini, ham yetti sayyora muvofiq tushadigan yetti modda mavjudligini, shu jumladan oltin — quyoshga, kumush — oyga, mis — Zuhra yulduziga... va hokazo mos kelishini bayon qildi. Kimyogarning so‘zi borgan sari sir pardasiga chuqurroq o‘rala boshladi. U barcha ma‘danlarni ikki guruhga ayirdi. Birinchi guruhni nuqsonli, illatli moddalar deb atadi. Bu ma‘danlarnig tabiatidagi illatni kimyo yo‘li bilan sug‘urib tashlab, ularni oliy darajaga ko‘tarish, ya‘ni, masalan, simobdan kumush, misdan

---

<sup>1</sup> Osmon sirlari.

<sup>2</sup> Suv, havo, tuproq va o‘t.

<sup>3</sup> Birlilik.

oltin yasamoq mumkinligini shavq va hayajon bilan soʻzlab ketdi. Bu fikrlar bilan Sultonmurod yaxshi tanish edi. Ammo kimyogar illatli moddalarni oliy darajaga koʻtarmoq uchun eksir degan bir nima kerakligini ham uni hosil qilmoq uchun nimalar qilish zarurligi toʻgʻrisida sir bilan toʻla maʼlumotni soatlarcha soʻzlagach, diqqat bilan tinglagan Sultonmurodning tinkasi quridi. Lekin oʻz ilmining sehriga berilgan ham misdan oltin yasash fikriga umrining gulini bagʻishlagan ajoyib olimning soʻzini kesishga botinmadi.

Nihoyat, qaysi bir oʻchoqdan keskin, noxush hid dimogʻiga urgach, kimyogar birdan qoʻzgʻalib, yugur-dida, moddalar ustida uzoq urinib qoldi. Sultonmurod bahsni yangilamaslikka tirishdi. Oqshom Abdulahad qumgʻon qaynatib, dasturxon yozdi.

Shu uyning oʻzida, miltillagan sham nurida ular dam kimyodan, dam ilmi badiʼdan gapirishib, non ham magiz bilan qorin toʻydirdilar.

Sultonmurod bu yerda bir qancha vaqt qolib, ustod bilan birga ishlab, eksirning siriga yaqindan voqif boʻlish niyatida ekanligini soʻzlagach, kimyogar uning bu talabini hech bir eʼtirozsiz qabul qildi.

Ikkinchi kun yosh olim katta shavq va ruhlanish bilan kimyoga berildi. Moddalar ustida ishlarkan, qoʻllarini va kiyimlarini kuydirdi. Moddalarning oʻzgarishi haqida Abdulahad bilan soatlarcha suhbatlashar, baʼzan talashar edi. Ishga qiziqqandan, tong otib, quyosh botganini sezmay qolardi. Shu tariqa oʻn besh kun bosim mashgʻul boʻldi. U kimyo yoʻli bilan misni oltinga aylantirish xayolidan uzoq boʻlgani uchun kasb etgan maʼlumotni keyincha oʻzi chuqurlashtirmoqqa yetarli hisobladi-da, nihoyat, kimyogar bilan ota-oʻgʻil kabi samimiy xayrlashdi.

Vaqt peshindan oqqan edi. Sultonmurod shahar ichiga kirib borgan sayin uchragan amaldorlarning, navkarlarning harakatlarida, odamlarning koʻzlarida, bolalarning yugurishlarida qandaydir oʻzgacha maʼno-

---

<sup>1</sup>Goʻzallik ilmi, sheʼr va sanʼat nazariyasi.

ni seza boshladi. Hayotda favqulodda bir hodisa ro'y berganiga ishondi. Ko'm-ko'k panjali qo'llarini keskin sollantirib, ildam ketayotgan bo'yoqchini to'xtatib, so'rashga tirishdi. Buyoqchi sabrsizlik bilan, dag'algina qilib: «Ey, mullam, ulusning dardi ko'p, qay birini aytayin!» dedi-da, yugurganicha ketaverdi. Sultonmurod hayajonlandi. Odamlar orqasidan ildam jo'nadi. Halloslab, rangi o'chib, Devonxonaga kelgach, bu yerda, maydonda qalin olomoni ko'rdi. Aksari shaharning har nav kosib-hunarmandlari ham atrofdan kelgan uzuq-yuluq kiyimli dehqonlar edi. Xalq qurolsiz edi, lekin ko'zlarida yongan g'azab, yuzlaridagi jiddiy qahrli ifoda uni portlashga tayyor dahshatli bir kuchga aylantirgan edi. Shaharlarning qamalini, kattakichik janglarni bir vaqtlar o'z ko'zi bilan ko'rgan Sultonmurod nogoh ichidan titrab ketdi. Olomon asabiy to'lg'andi. Havoda kuchli g'ulg'ula-suron to'lqinlanadi. Navkarlarning rangi o'chgan. Ular xavfsiraniib, ko'zlari ola-qaroq bo'lib, chetlanib yuradilar... Sultonmurod qo'rqinchli suvning sayoz yerlarini oldin sinab, keyin chuqur tomonlariga ehtiyot bilan borgan suzuvchi kabi, olomon orasiga asta-asta kirib bordi. Hamma amaldorlardan, soliqchilarning zulmidan, soliqlarning og'irligidan shikoyat qilardi. Xalq bir ko'p amaldorlarni barala haqorat qiladi, qarg'aydi.

— Xo'ja Abdullo, Xo'ja Qutbiddin, Nizomiddin Baxtiyorlar chiqsin qoshimizga! — qichqiradi yuzlar-cha ovoz...

Aftidan yuvosh ko'ringan bir mo'ysafid yig'i-sig'i bilan Sultonmurodga shikoyat qildi: «Podshoh musulmon, vazirlar musulmon. Lekin bunchalik jabrni kofir ham o'z eliga ravo ko'rmaydi. Yurtdan insof-adolat ko'tarilgan! Shariat xor! Xonavayron bo'ldik!» Sultonmurod titrak lablari bilan unga taskin berarkan, juldur kiyimli, qahrdan yuzlari tirishgan bir dehqon quloqlari ostida hayqirdi: «To'g'onbekni qo'limizga topshirmagunlaricha, bu yerdan ketmaymiz!»

— Qaysi To'g'onbek, birodar? — yelkasidan turtib so'radi Sultonmurod.

— Yangi tugʻilgan itlardan... Bilamiz, Toʻgʻonbek! — Sul-tonmurodga qaramasdan, toʻlqin ichida yoʻqoldi dehqon.

Sultonmurod qaynagan olomon ichida turtki yeb, bosilib, ezilib, uzoq yurdi. Haqorat, gʻazab alam bilan aytilgan uzuq-yuluq gaplardan bu gʻalayonning asli sababini uqib ola bildi: podshoh va bir koʻp vazirlar Hirotni tark etishi bilan zakot ishlarini idora qiluvchi Xoʻja Abdullo, Xoʻja Qutbiddin, Nizomiddin Baxtiyor va hokazo maʼmurlar, oʻz bilgilaricha, xalqqa yangi soliq soladilar. Xazina uchun emas, oʻz foydalari uchun yigʻmoqchi boʻlishgan soliqni vaqt gʻanimatda mumkin qadar tez undirishga jadal qiladilar. Buning uchun eng qattiq va chirkin choralar qoʻllaydilar. Bundan tashqari, ular fuqaroga har xil jabr-sitam koʻrsatib, uning haq-huquqlarini poymol etadilar.

Zamon olimlarining saromadi boʻlishgagina intilgan Sul-tonmurod shu vaqtgacha xalq tirikchiligidan uzoq yashar, uning dardlariga begona edi. Uning butun fikri ilmiy nazariyalar samosida, qalin kitoblarning changlari orasida, olimona munozaralarning soʻz maydonida parvoz qilardi. Xalq kim, u nima bilan tirikchilik qiladi, nima oʻylaydi, dardi nimada, oʻz mushkilotlarini qanday hal etadi — mana buning singari masalalarni aslo oʻylab koʻrmagan edi. Uning eʼtiqodicha, xalq ilmga begona insonlardan iborat bir guruh edi. U ilm orqasida raso inson boʻlish mumkinligiga ishonganidan, xalqni har yerda, har ishda jahlning qurboni, deb tushunar edi. Uning bu qarashlari, qanoatlari hozir xalq boʻroni ichida ost-ust boʻldi. Katta, favqulodda voqea qarshisida inson har narsani unutib, yolgʻiz shu voqeaning hayajoni, sezgisiga berilganidek, yosh olim ham butun vujudi bilan xalq fikriga, xalq dardiga qiziqdi. U dahshatli suron ichida, kuchli hayajonda boʻlishiga qaramay, isyonning sabablarini muhokama qildi va ichida shunday qarorga keldi: «Xoʻja Abdullo, Xoʻja Qutbiddin kabi oliy vazifador ham ilmdan bahramand zotlar oʻz nafslari,

xudkomliklari<sup>1</sup> uchun fuqaroga bu daraja zulm-sitam qilibdilar. Aslida, johillar ulardir. Filhaqiqat, insoni komil bo‘lmoq uchun ilmdan o‘zga yana bir ko‘p sifatlar kerak emish. Undog‘ zolimlarga har nechuk jazo ham ozdir!»

Xalq, kuchli yer bilan chayqalgan dengiz kabi, birdan qo‘zg‘aldi. Sultonmurod o‘zini chetga olmoqqa tirishsa ham, xalq to‘lqini uni surib ketdi. Devonxona eshigida dahshatli shovqin, ur-yiqit boshlandi. To‘lqin katta hayqiriq bilan ichkariga intildi. Keng daraxtzor sahnga yoyildi. Mahkamadagi xonalarga yuzlarcha toshlar g‘izillab uchdi. Odamlar shovqin bilan xonalarga yopirildilar. Darichadan Xo‘ja Abdullo o‘zini uloqtirib, daraxtzorlar ichiga yugurdi. Orqasidan toshlar g‘izilladi. Mana, u bir zum qotib boshini ushladi — oq salla qip-qizil qonga bo‘yaladi. Olomon hayqirib, chuvvos solarkan, yarador amaldor yiqila-qo‘pa daraxtlar orasida g‘oyib bo‘ldi. Olomon endi Xo‘ja Nizomiddin Baxtiyorni la‘natlab, to‘rt ko‘z bilan hamma yoqni qidira boshladi. Lekin to‘polonning boshlang‘ichidayoq uyga borishga qo‘rqib, qaysi bir madrasa orqali yo‘lni chap berib, qaergadir yashiringanini habardor odamlar bildirishgach, xalq yana chuvvos ko‘tarib la‘natladi.

Namoz asrga yaqin olomonning g‘azabi asta-asta sovuna boshlab, bir qismi tarqaldi. Isyonchilarning boshqa bir qismi yana qaysi bir amaldorning uyi oldida g‘avg‘o ko‘tarish uchun, zug‘um bilan bir yoqqa jo‘nadi. Tiqilinchdan, shovqindan ancha charchagan edi, olomon ichidan surilib chiqib, o‘z madrasasi tomon ketdi. Namozni tark qilmaslik uchun yo‘lda, bir masjidida asr namozini ado etib, shomdan keyin madrasaga keldi. Taassurotini so‘zlashga oshiqib, Zayniddin hujrasiga o‘zini urdi. Lekin do‘stini topmasdan, Aloiddin Mashhadiy hujrasiga o‘tdi. Shoir barmoqday shamning xira nurida, har vaqtdagi kabi, taqir po‘stakda o‘tirar, burchakda to‘ngakday og‘ir

---

<sup>1</sup>Yolg‘iz o‘z manfaatini ko‘zlovchi, o‘ziningina sevuvchi.

cho'kkan To'g'onbekka nimanidir miljinglar edi. O'choqda gurillab olov yonadi, qozonda et qaynaydi. To'g'onbekning yonida shishalarda may...

Salom-alik qilishgandan so'ng Sultonmurod hovliqib so'radi:

— Eshitdilaringmi?

— Nimani? — so'radi Aloiddin.

— Ajab voqealar bo'lmoqda, xalqning haqiqat talab qilgan ovozidan butun Hirot larzada... — shavq bilan dedi Sultonmurod.

— Eshitdik, — dedi Aloiddin qozonga telmurib. — Xalq emas, bir guruh hayvon na'ra tortmoqda!

Sultonmurod titrab ketdi. Bu ojiz banda bilan bahslashmoqni foydasiz bildi-da, u To'g'onbekni achitdi.

— Siz bir vazifada edingiz, — dedi u istehzoli kulib, — ammo uning na ekanini bizdan pinhon tutardingiz. Alhamdulillah, bukun bilib oldik... Maslahatim shulki, bukun shaboxun<sup>1</sup> urib, o'zga biron go'shaga chekiling!

— Ulusga ne yomonlik qilibmiz? — beparvolik bilan so'radi To'g'onbek.

— Ulus, — javob berdi Sultonmurod tanbehlovchi ovoz bilan. — Xo'ja Abdullo Xatibning boshini yordi. Sizing ismingizga la'nat toshlari otdi!

To'g'onbek garchi vaziyatini ozgina bo'lsin o'zgartirmagan bo'lsa ham, tili kesilib, vahm bir sukutga ketdi. Aloiddin titrab, yarim yumuq ko'zlari bilan Sultonmurodga o'qrayib qo'ydi.

— To'g'onbek o'zi bir tog', — dedi u jahl bilan, asabiy ravishda chiyillab. — Uning orqasida yana bir silsila tog'lar bor!..

— Ishonamen, lekin xalqning qudratiga, bo'roniga hech qanday tog' dosh kelolmas! — dedi-da, Sultonmurod keskin odimlar bilan chiqib ketdi.

---

<sup>1</sup> Tun panasida.

## ***Beshinchi bob***

### **I**

Husayn Boyqaro butun lashkarlari bilan Janushon va Isfaroin degan mavzelar o'rtasida chodir tikkan edi. Xuroson taxti uchun isyon ko'targan Mirzo Yodgor ham shu atroflarda kuch to'plagan edi.

U Temur avlodidan bo'lgan yosh shahzoda. Temurning ba'zi avlodlari kabi, u atak-chechak qilishdan boshlab harbiy san'atni egallashga intilgan, murti chiqmasdan turib, minglarcha yigitlarning tepasida ot surgan, siyosiy janjallarda suyagi qotgan, safarlarining zahmatidan, jang maydonlarining dahshatli suronidan zavqlanuvchi pishiq, puxta bir shahzoda emasdi. Mirzo Yodgor erka o'sgan, ziynatli hayotning lazzatiga, ishq, may, musiqiy olamining yoqimli, orombaxsh hislariga berilgan yigitcha edi. Toju taxt dag'dag'asi uni qiynamas, uzoq, mojarolar to'la, lekin shirin bir umid kabi ko'ngliga joylashgan... Uning ixtiyori uning beklari, jahongashta tarbiyachilari qo'lida bo'lganidan ular mirzoning nozik, xayolchan ko'nglini qonli mojaro, tantana va hokimiyat havaslari bilan yoqishga tirishadilar. Davlat ishlarida tadbirli ayol va, umuman, bilimdon, oqila hisoblangan ammasi Poyanda Sultonbegim ham uni Xuroson taxti uchun kurashga undaydi. Buning ustiga, u turkman sultoni Hasanbekdan katta ko'mak oladi. G'ururlangan shahzoda Jurjon hokimi amir Zohid Tarxiyning ustiga yurish qilib, uni qulaygina yengadi. Jurjonni qo'lga olib, poytaxt Hirotni bosish, toj kiyish umidi bilan urinadi...

O'zini kordon<sup>1</sup> hukmdor sifatida tanitishga intilgan Xusayn Boyqaro bir necha kundan bo'yon qat'iy jangga tayyorgarlik ko'rsa ham, lekin katta hujum boshlashga taraddud qilar edi. Dushmanning kutilmagan tungi bosqinlaridan bexavotir bo'lish uchun u o'z lashkargohining atrofida xandaq kavlatmasa ham,

---

<sup>1</sup> Ishbilarmon.



tevarakni qalin shox-shabba bilan mahkamlatdi, qorovullarni kuchaytirdi. Har kun deyarli Mirzo Yodgorning yigitlaridan bir guruhi kutilmagan vaqtda uzoqdan ko'rinish berib, bir soat-yarim soat o'q uzib, yana bir zumda g'oyib bo'lardi. Ba'zan har ikki tomonning ilg'or dastalari to'satdan uchrashib, katta suron bilan o'q uzishar, qilichlashardilar. Bunday qisqa-kichik, lekin shiddatli to'qinishlar natijasida har ikki tomon bir necha kesik kallani, iliqqina qonini oqizib, o'z qarorgohlariga olib qaytardilar...

Soddagina chodirda yolg'iz yashagan Navoiy dilgir, sertashvish edi. U deyarli har kuni o'nlab kesik boshlarni ko'rardi. Mardlik, yigitlik nomiga uzib keltirilgan bu boshlar kimni-ki? Qoni, eti, tirikchiligi, yeri, tili, tarixi bir bo'lgan bir xalq nima uchun ikki dushman guruhga bo'linib, bir-birining qonini to'kadi? Nima uchun butun bir xalqning azamat daraxti ildizlariga bolta uradilar? Bu yigitlik, qahramonlik, zafarmi, ajabo? Shoir qalbining yarasi bilan tarixni o'ylaydi. Yaqin tarixning o'ziyoq uning ko'ziga foje manzaralarni behisob qatorlashtiradi. Temurning ko'zlari abadiy yumilib, jahongirning jasadida yer bag'rini quchmasdan burunoq avlodlari orasida ro'y bergan qonli talashlar, janglarni yodlaydi. Toj-taxt uchun bo'lgan o'zaro urushlar soyasida mamlakatning parchalanishidan, obodonlikning yemirilishidan, xalqning behuda qirilishidan o'zga biron natija, biron ma'no ko'rmaydi. Kesila-kesila zaiflashgan daraxtda yashashga, o'sishga qobildek ko'ringan yagona yirik butoqqa bolta ko'taruvchi Mirzo Yodgorga g'azablanadi.

Mirzo Yodgor isyoni to'g'risida Hirotda xabar olinishi bilan Navoiy Husayn Boyqaroni ildam otlanishga undagan edi. Xurosonda Husayn Boyqaro xokimiyatining barqaror bo'lishini orzu qilishi u bilan go'daklik zamonlarda boshlangan do'stlik xotirasi uchungina emasdi, albatta. Navoiy Husayn Boyqaroda shoirlik, ilmparvarlik sifatlarini ko'rди. So'ngra Husayn Boyqaro harbiy san'atni durust bilar edi. Jang maydonlarida bir necha dapqir ro'y-rost urushib, bahodirlik

ko'rsatgan edi. Yurtda adolatli davlat, odil va ilmparvar hukmdor ko'rmoq orzusida bo'lgan Navoiy Husayn Boyqarodan ko'p narsa umid qilar edi.

Shoir soddagina chodirda zotan tinch yashagandek ko'rinsa ham, haqiqatda shovqin-suronsiz, katta g'ayrat bilan qo'shinni mahkamlashga harakat qilardi. O'ziga yaqin yigitlar orqali dushman kuchlarining vaziyati haqida, Mirzo Yodgorning qay turda harakat qilish maqsadida ekanligi va hokazo to'g'risida ma'lumotlar olishga tirishar edi. Bu bema'ni, behuda qon to'kishlarning tezroq to'xtatilishini sabrsizlik bilan kutardi. Nihoyat, qat'iy, hal qiluvchi kunlar keldi. Husayn Boyqaro kengash chaqirdi.

Tongga yaqin Sulton Husayn atrofi maxsus posbonlar bilan qo'riqlangan hashamatli shohi chodirdan chiqdi. Uzoqda, ko'kimtir tuman ichida mudragan tog'lar ustida siyrak yulduzlar xira ko'zlarini horg'in qisadi, dalaning salqin shamoli tinib, chodirning ipagini yengil mavjlantiradi. Yigitlar va barcha qo'shin uyg'oq. Ularning harakatlarida jiddiy ishga shoshmasdan tayyorlik ko'rish seziladi. Podshoh eng yaqin va ishbilarmon beklari bilan rusumoti jang<sup>1</sup> haqida so'zlashdi. Chingizning turli qit'alar, mamlakatlar ustida olov bo'roni va qon daryolari bilan kechgan davomli, dahshatli urushlarida asta-asta boyib, so'ngra Temurning yana shunday qonli, azamat safarlari va uning harbiy iste'dodi natijasida mukammallashgan rusumoti jangni yaxshi biluvchi beklar o'z mulohazalarini bildira boshladilar: Mirzo Yodgorga qilinajak hujumni qay yo'sinda olib borish, turli qismlarga kimlarni sardor tayinlash to'g'risida aniq takliflarni o'rtaga otdilar. Hozir har vaqtdagidan ko'ra sergak bo'lgan va fikrni yiqqan Husayn Boyqaro ularning chora-tadbirlarini ma'qulladi. O'tirganlarga ko'zlarini bir-bir tikib, qandaydir ichki shavq va yengillik bilan dedi:

— Endilikda so'z Osmon kitobida qoldi! Yoki xato qilurmenmi?

---

<sup>1</sup> Urush qoidalari, yo'llari.

Chorpaxil, beso‘naqay Islim barlos qalpoqli boshini og‘ir tebratdi-da, osmonni ko‘rmasa ham, qahrli ko‘zlarini yuqoriga — ipak chodirning ko‘rkam uqalari, rang-barang ipak shokilalari osilib turgan shipga tikdi va salmoqlanib, dedi:

— Albatta... Yulduzlar ne der ekanlar?..

— Munajjimni qoshimizga chorlaylik. Shoyad safarimizga tole yulduzining intizorligini bizga e‘lon qilsa, — dedi podshoh Navoiyga qarab.

— Munajjim aksini so‘zlasa, ul chog‘ hazratlari ne qilurlar? — tabassum bilan so‘radi Navoiy.

Husayn Boyqaro taraddudlanmadi.

— Tole soatini kutmoqdan o‘zga ilojimiz yo‘q. Toleimiz o‘z yulduzini egallagan kun biz ham otlarimizga minurmiz.

Beklar goh podshohga, goh Navoiyga qarab, jim o‘tirishardi.

— Podshoh hazratlari, — nazokat bilan murojaat etdi Navoiy, — bizning fikrimizcha, har bir ishda aqlni rahnamo qilmoq lozimdir. Zeroki, insonlar haq yo‘lini hamisha aqlning nuri bilan topmishlar. Har turli mushkilotlarni ham aql bilan hal etmishlar. Zafaringiz uchun barcha holat muhayyo ekan, yulduzlar bilan mashvarat<sup>1</sup>ni zarur, deb bilmasmen. Ma‘lumingizki, men harb kishisi emasmen, ammo har ikki tarafning kuchini, har ikki yoqdagi sharoitni uzoq mulohaza etdim. Taraddudga aslo hojat yo‘q. Tong chog‘i quyosh bayrog‘i bilan bir vaqtda zafar bayroqlaringizni ko‘tarishingiz kerak.

— Janoblariga maxfiy emaski, — yana ayni jiddiyat va ishonch bilan gapirdi Husayn Boyqaro, — jangning vaqti-soati tayin etilmagan taqdirda, zafar o‘z yuzini teskari o‘girur, har qadamda mushkilotlar kelib chiqur. Shu jihatdan jang arafasida munajjimlarning maslahati bilan ish ko‘rmoqni arbobi jang farz, deb bilurlar.

---

<sup>1</sup> Kengashmoq.

— Tarix ko'rsaturkim,— dedi Navoiy hammani bir-bir ko'zdan kechirib,— munajjimlar bilan bahamjihat bo'lgan ko'p safarlar benihoyat foje oqibatlar tug'dirmushdir. Munajjimlarning mulohazasida haqiqatdan ko'ra xurofot ziyodaroqdir. Yana takror aytamenki, tong bilan dushmanga shikast bermoq kerak.

Oz so'zlovchi, sodda bahodir Zulnun Arg'unbek yo'g'on barmoqlari bilan keng, qahrli yuzidagi dag'al soqolini qashib, muzokaradan zerikkanday, azamat gavdasini tikladi, keng ko'kragi bilan og'ir so'lish oldida, odati bo'yicha, zarda qilgan kabi, keskin gapirdi:

— Hazrat shoirning so'zida ma'ni ko'p... Ko'p topqir sinaganmiz, yulduzlarning tilida qaror yo'q.

Ko'p vaqt kulgisi yig'iga aylanadi!

Husayn Boyqaro ikkilanib, o'ylanib turarkan, Navoiy munajjim qanday vaqt tayinlamasin, hujumni kechiktirmaslik xususida dalillarni ilgari surdi. Navoiyning mulohazalarini muvofiq topishga majbur bo'lgan boshqa beklar ham podshohga dalda bera boshladilar. Ollo taoloning madadiga sig'inib, shu bugun dushmanga bosqin yasash kerakligini uqtirdilar. Majlis tarqaldi.

Mulozimlarning yordami bilan Husayn Boyqaro egniga sovut, boshiga dubulg'a kiydi. Qini oltin va rango-rang qimmatbaho toshlar bilan ishlangan, ajoyib nafis san'at namunasi bo'lgan qilichni taqdi. Yana shunday chiroyli sadog'ini, o'q-yoyini osdi. Qadamlarini tetik bosib, dabdaba bilan chodirdan chiqdi. Tong otishga picha qolgan... Uzoqda, ko'kimtir tuman ichida mudragan tog'lar ustida siyrak yulduzlar ko'zlarini horg'ingina qisadilar. Dashtning salqin shamoli tentirab, chodirning ipagini yengil mavjlantiradi. Yigitlar va barcha qo'shin ahli uyg'ongan. Nim qorong'ilik orasidan ularning harakatlarida jiddiy ishga oshig'ich ravishda tayyorlik ko'rayotganlari seziladi.

Maxsus mulozimlar egar-jabduqlari oltin, la'l, yoqutdan ishlangan o'ynoqi otni ehtiyot bilan yetaklab keltirdilar-da, podshohni qo'ltiqlab mindirdilar. Husayn Boyqaro atrofini qurshagan, tamom qurollan-

gan, bahaybat suvori beklari bilan qo'shin ichiga shamolday yengil uchdi. Bu yerda sergaklik va g'ayrat bilan qo'shin tartibotini kuzatib turdi. Jirong'or'ga Valibekni, Mirzoyi Kichik ham Islim barlosni sardor belgiladi. Birong'orga<sup>2</sup> amir Badriddinni sardor qildi. Qo'shin ichidan eng ish ko'rgan, qilich chopgan bahodirlarni saralab, hirovul<sup>3</sup> tuzib, buni Shayx Temurga, Zulnun Arg'unbekka topshirdi.

Quyosh chiqarkan, urush tartibotini olgan katta qo'shinning turli qismlari keng dalani qoplab, dushman bilan uchrashgali asta siljimoqda edi. Dubulg'alar, sovutlar, nayza-qalqonlar, oyboltalar quyosh bilan oltinlangan havoda porlaydi. Jangga o'rgangan otlar, sabrsizlanganday boshlarini silkib, kishnashib, yugurishga intilar edilar. Navkar va beklarning ko'zlari qahrli, yuzlari sovuq, jiddiy edi.

Husayn Boyqaro, u zamonning mashhur tarixchisining ta'biricha, «odam ko'nglidagi jon yanglig'» qo'shinning qalbida — g'o'lda<sup>4</sup> e'timodli sarkardalar, bahodir yigitlar bilan qurshalgan holda borar edi.

Qorovullar o'qday uchib kelib, Mirzo Yodgor oshig'ich ravishda o'z sipohlarini tartibga solib, qarshilik ko'rsatishga hozirlik ko'rayotganini bildirishdi. Husayn Boyqaro fursatni qo'ldan bermaslik uchun hujum boshlashga buyurdi. Karnay, surnay, nog'oralar havoni yangratdi. Uzoqda dushman qo'shini ko'zga chalinganda, birong'ordan Islim barlos, Valibek Mirzo Yodgorning jirong'origa zo'r so'ron bilan ot solishdi. Shayx Temur va Zulnun Arg'unbek qo'l ostidagi qism dushmanning orqasiga o'tishni mo'ljallab, yo'lni chap berib, yugurdi. Amir Badriddin o'z birong'ori bilan dushmanning birong'ori ustiga dadil yopirildi. Mirzo Yodgorning amir Ahmadali barlos sardorligi ostida bo'lgan qismlari Valibek va Islim barlos yigitlarini kuchli, muttasil o'q uzish bilan daf etishga urin-

---

<sup>1</sup> Qo'shinning o'ng tomoni.

<sup>2</sup> Qo'shinning so'l tomoni.

<sup>3</sup> Oldingi qism.

<sup>4</sup> Qo'shinning o'rta qismi.

di. Lekin qilichbozlikda mohir Valibek, hamisha jangda o'zini arslonsifat tutadigan Islim barlos urib-surib, dushmanni bosib kelaverdi. Suron avjga chiqdi. Amir Ahmadali barlos qattiq muqavimat<sup>1</sup> ko'rsatishga tirishib, yigitlariga dalda bersa ham, lekin yigitlari g'uj-g'uj siqilib, oldinga otilishga imirsilanib qoldilar. Oldingi qatordagilardan o'nlab suvori o'lib, ko'p otlar yiqilgandan so'ng buzilish, parishonlik kuchaya boshladi. Dushman yigitlari qilichlashishdan bosh tortib, zarbalardan o'zlarini olib qochishga urinib qoldilar... Buning ustiga, Mirzo Yodgorning qo'shinida bo'lgan mo'g'ullar fursatdan foydalanib, har vaqtdagi kabi, o'lja olishga, talovchilikka kirishdilar. Ular, dushman dan ko'ra, ko'proq o'z odamlarini urib, otdan yiqib, kiyim-boshini, qurollarini shilib ola boshladilar.

Mirzo Yodgorning birong'ori chang, to'zon, kuchli chuvvos ichida qattiq jang olib borar edi. Lekin qatorasiga yetti ot ustidan sakrab o'tganligi bilan dong chiqargan, chittakday yengil, chaqqon, qarchig'ayday olg'ir Amir Badriddin dushmanga bo'sh kelmas, kuchli hamlalar bilan dushmanni asta-asta tebratib, harakatdan mahrum qilishga tirishardi.

Nogihon, Mirzo Yodgorning g'o'lidan turkman otliqlari bo'ron dahshati va sur'ati bilan to'ppa-to'g'ri Husayn Boyqaro ustiga otilishdi. Bu tomondan qalin o'q yog'dirildi. Biroq g'izillab uchgan minglarcha o'q galalari turkman botirlarini to'xtatishdan ojiz qoldi. Turkmanlar qilich o'ynatib, o'q uzib, ustma-ust hamlalar bilan oldingi qismlarni bosa-bosa siljib kelar edilar. Bir to'da turkmanlar kutilmagan yoqdan Husayn Boyqaroga yaqinlashib qolgan edi. Podshoh atrofini qurshagan bahodir yigitlar goh qilich, goh nayza ishlatib, dushmanni uloqtirishga astoydil g'ayrat ko'rsatdilar. Odamlar yiqildi, qilichlar sindi, egasiz otlar, egarlari qiyshaygan, jilovlari oyoqlariga o'rashgan holda, ko'zlarini chaqchaytirib, parokanda kezardilar.

---

<sup>1</sup> Madad (muh.).

Husayn Boyqaro urushning oqibatidan tashvishlanar, g'azab bilan har yoqqa qarar, chang, to'zon ichida jangning ketishini kuzatishdan ham ojiz edi. Nihoyat, g'azabiga chidolmadi. Qilichini sug'urdi. Boshdan-oyoq sovut kiygan shoh o'zining xos botirlari bilan dushmanga hujumga otildi. Uning zo'r, haybatli oti qirg'in ichiga yorib kirdi. Husayn Boyqaro jang qilishni bilar edi. Jangda zarbaning shiddati bilan tadbirni juda mos ishlatar edi. Toj-taxtdag' dag'asida yillarcha olib borgan to'xtovsiz, davomli, katta-kichik urushlarda, to'qinishlarda, qilichbozlikdagi mahoratini ko'p daf'a ochiq namoyon qilgan edi. Hozir ham xavf-xatarni unutib, yaxshi, zabardast qilichlasha boshladi. Botirlar ham o'lgan-yitganiga qaramay, podshoh atrofida qattiq jonbozlik ko'rsatdilar. Bular dushmani orqaga tebratishga muvaffaq bo'lsalar ham, lekin butun holda, jangning oqibati bu yerda hal bo'lmadi. Mirzo Yodgorning o'ng va so'l qanotlari qattiq shikast yeb, butunlay bebosh-betartib qochishga yuz tutgan edi. Bu hodisa turkmanlarning ruhini tushirdi. Ular endi dushmanga yopishish emas, o'zlarini qirg'in ichidan mumkin qadar tez olib qochishga tirisha boshladilar. Boyqaroning zafar g'ururi bilan ruhlangan yigitlari dushmanni yanchib, dahshatli suron bilan uni ta'qib etdilar. Nafasni bo'g'adigan, ko'zlarni ko'r qiladigan chang-to'zon buluti havoni tutdi.

Husayn Boyqaro lashkari Mirzo Yodgorning parokanda yigitlarini bir necha farsang masofagacha shiddatli quvib, kechga tobo har xil o'ljalar, asirlar bilan qaytdi. Bir to'p asir, ko'proq askar boshliqlari, shu topdayoq o'ldirildi va karnay-surnaylar yangrab, g'alaba shodiyonasi jang qizg'ini hali so'nmagan to'zonli ko'kni titratdi.

## II

Shoir tevaragini Shirim qorovul boshliq maxsus posbonlar qo'riqlagan hashamatli ipak chodirga kirdi. Zarrin to'shakda o'tirgan Husayn Boyqaroga ko'zi tushishi bilan uning vaziyatini allanechuk boshqacha

sezib, hayratlandi-da, rasmiy ta'zimdan so'ng, podshohning ishorati bilan unga yaqin o'tirdi. E'timodli beklar, vazirlar yo'q. Muqovasi ajoyib go'zal yangi bir kitobni tizzasiga qo'yib, shoir Hasanali Jaloyir o'tirardi. Har xil bahona bilan podshoh qoshiga kirishga, u bilan suhbatlashishga tirishgan Majididdin Muhammad undan quyiroqda gerdayib, tiz cho'kkan. Bular-dan tashqari, vazifasi har vaqt podshoh huzurida hozir bo'lish ham uni zeriktirmaslik uchun har nav latifa va hikoyalar to'qishdan iborat bo'lgan ikki-uch hamsuhbat endi podshohning g'azabli ko'zlarini uchratmaslikka tirishar edi. Navoiy bunda anglashilmas bir sir ko'rmadi. Chunki vaziyatning og'irligini bilar edi. Mirzo Yodgor jangda qattiq mag'lub bo'lgan esa-da, Husayn Boyqaroning g'alaba shodliklari uzoq cho'zil-madi. Keyingi vaqtlarda har kun bir-biridan sovuq xabarlar eshitila boshlandi: «Mirzo Yodgor ko'p lashkar to'plagan emish, Amir Hasanbek unga muncha ming navkarni ko'makka yuborgan emish, Xurosonga hujum uchun Sulton Mahmud qo'shin bilan Amu yoqasida turgan emish...» Bundan tashqari, podshohga gina saqlaganidanmi yoki Mirzo Yodgor bilan zimdan til biriktirganidanmi, bir ko'p beklar va yigitlar o'rduoghdan<sup>1</sup> qocha boshlagan edi.

Navoiy g'amgin va g'azabli podshohga dadil qarab, hol-ahvol so'radi. Husayn Boyqaro Hirotdan chopar kelganini aytib, jig'ali boshini allaqanday ma'nodor silkib, ahvolning og'irligini ifodaladi. So'ng zarrin to'shak ostidan bir maktub chiqarib, shoirga uzatdi. Navoiy diqqat bilan qog'ozga ko'z yugurtib, keyin maktubni sekingina tizzasiga qo'ydi. Boshini quyi soldi, ikki qosh o'rtasi tugunchak bo'lib, yana qog'ozga tikildi. Voqeani butun ildizi bilan tasavvur etgach, maktubni bukib, yoniga, atlas ko'rpachaga qo'ydi-da, podshohga qaradi. Uning qarashida tahlika, sarosima yoki «ajab bo'libdi!» degan bir ma'no, bir his yo'q edi. Uning ko'zlari har vaqtgi ishonch va fikr-

---

<sup>1</sup> Qo'shin qo'ngan joy.



chanlikni saqlar edi. Podshoh o‘z hayajonini yashirolmay, achchiq shikoyat bilan dedi:

— Dorilsaltanatda<sup>1</sup> bir guruh razil avboshlar<sup>2</sup>ning fitnasini daf etmoq uchun ne chora buyursak ekan? Bu xususda umaro<sup>3</sup>mizning ra’yilarini bildik. Ma’qul va maqbul tadbirni shoyad siz janobdan eshitgaymiz...

Navoiy o‘ziga xos ulug‘vorlik, nazokat, muloyimlik bilan dedi:

— Podshoh hazratlari, mulki Xurosonning taqdiri va hayoti sizning qo‘lingizdadir. Sizning muborak xotiringiz bu alamangiz hodisa xususida ne fikr bayon qilur?

— Bu toju davlatni qilich bilan olibmiz, — bir nafas sukutdan so‘ng keskin gapirdi Husayn Boyqaro, — uni yana ayni qilich bilan poydor qilmoqqa harakat qilg‘umizdir.

Bu so‘zlar shoirni cho‘chitmadi. Dunyoning yarmi ustida qilich o‘ynatgan oqsoq jahongirning bu avlodi qilich tutishni yaxshi bilsa, qilich bilan faxrlanishni sevsam ham, lekin qilichdan ko‘ra mayga, jang maydonlaridan ko‘ra chaman bog‘larda tuzilgan sho‘x bazmlarga ko‘proq moyil edi. Shoir aqlli kengash bilan uni to‘g‘ri yo‘lga solib yuborish mumkinligiga ishonardi ham. Lekin arzimagan bir bahona goho uning g‘azabiga, olovni birdan gurillatgan shamolday ta’sir qilar edi. Navoiy vazminlik bilan murojaat etdi:

— Xoqon, yaralik ko‘ngillarning shifosi uchun siz hakimi hoziq<sup>4</sup> bo‘lmoqlig‘ingiz kerak. Kaminaning fikricha, bu yerda qilichning aslo hojati yo‘qdir!

Husayn Boyqaro, xayol surganday, chodir shipiga qarab qoldi. Hamsuhbatlar, yelkalaridan bir nima bosganday, past cho‘kib o‘tirdilar.

O‘rtadagi og‘ir jimjitlikni Majididdin Muhammad buzdi:

---

<sup>1</sup> Poyxtaxt ma’nosida.

<sup>2</sup> Bezorilar.

<sup>3</sup> Amirlar, beklar.

<sup>4</sup> Bilimdon, usta tabib.

— Darhaqiqat, — dedi u, gerdaygan bir turda Navoiyga qarab, — podshohi olam hazratlarining fikrlari aqli salim<sup>1</sup> mevasidir. Johil olomonni tarbiyalamoq uchun tigʻ, loaqal tayoq lozimdir. Olomon shafqat va marhamatning qadriga yetmas.

Navoiy titrab, kinoyali kuldi.

— Masala adolat va haqiqat masalasidir, — javob berdi Navoiy oʻzini tutishga tirishib. — Haqiqat olomon tarafidadir. Haq soʻzni aytgan ogʻizlarni tosh bilan qonatmoq emas, haqiqat tamalini qulatmoqqa koʻtarilgan qoʻllarni kesmoq zarur. Zakot yigʻmoq davlat ishidir, lekin bir necha badnafs, chirkin maxluqlar uchun boylik manbai emas! Bundan soʻng butun Xurosonda jamiki fuqaro tirikchiligini nazarda tutib, zakotni isloh etmoq kerak. Bu idorani shiraga oʻch chirkin pashshalardan tozalamoq zarur! Takror aytamanki, elning qahri, gʻazabi asoslidir. Uning ovoziga quloq solmoq, shikoyatlarini sabr-toqat bilan tinglamoq vazifamizdir.

Majiddiddinning rangi quv oʻchib, tili kesildi. Hamsuhbatlar yer ostidan bir-birlariga maʼnodor qarab olishdi.

— Ish siz degan haddan oʻtibdir! — keskin eʼtiroz qildi Husayn Boyqaro.— Bizning xizmatimizda boʻlgan zotlarni sangboʻronga tutmoqni saltanat tojiga otilgan haqorat, deb bilgumizdir. Ariza bilan shikoyat qilsinlar, nainki, poytaxtda gʻalva koʻtarmoq!..

— Bizga qolsa, aslo! — yashirin bir kinoya bilan kulimsirab gapirdi Navoiy. — Saltanat tojini, quyosh yangligʻ, samovot doirasida biling. Nainki Xoʻja Abdullo Xatibdek bir xomtama, ajdarnafsning boshiga tushgan toshni saltanatga nisbat berursiz. Bir zolimning boshi shikast topgani uchun el ustida tigʻ oʻynatmoq faqirning xotiriga andogʻ keladirkim, davlatingizda har nav darranda va gazandalarning quyrugʻini koʻtarur... Modomiki, xaloyiq qoʻlga tosh olibdir, uning koʻnglida dardi bordir. Bu dardni tahqiqlamoq, adl suvi bilan yuvmoq, davolamoq lozimdir.

---

<sup>1</sup>Sogʻlom aql.

Husayn Boyqaro sukut qildi. U taraddudda edi. So'ng qiyiq, tez o'ynaydigan ko'zlarini shoirga tikib, g'amgin holda dedi:

— Xo'ja Abdullodek ko'rnamakni jazoga tortg'u-mizdir, bunga zarra shubha qilmangiz. Ammo poytaxt osoyishtaligini buzgan ahli fitna va fasod ham jazodan xoli qolmasligi lozim... Loaqal siyosat yuzasidan bir nima jarimaga tortilsalar, istiqbolda bu kabi g'alayonlar takror bosh ko'tarmagay...

Navoiy yashirin, ichdan xo'rsindi. Podshohning bema'ni o'jarligini sindirish uchun jasur bir ohang bilan dedi:

— Shoho, xalqning molini, jonini bo'rilar ixtiyoriga topshirilsa, ular bu qonxo'r maxluqlar dastidan fig'on ko'tarsa, ularga quloq solmaslik adl-insofdan emas. Tahdid va siyosat emas, mehribonlik darkor. Xalq bilan bo'lg'usi muomalada qilichga emas, adl kuchiga suyanmoq, xalqni jabr-zulmdan qutqarmoq lozim. Zero, xalq shundog' bir daryoyi azimki, u toshsa, aning mavjidan na shohning qasri, na darveshning kulbasi qolur, u shundog' bir o'tki, uning bir uchquni tutashsa, na xashakni qo'yar, na falakni... Bas, yaxshilik qilmoq kerak: elning, yurtning baxti barqaror bo'lsa, saltanat ham bexatar bo'lur.

Shoirning mantiqi qarshisida podshoh har qanday e'tirozdan ozod qolgan edi. Lekin ba'zi beklar va kengashchilarning ra'yiga ters bo'lgan bir qarorni chiqarishga botinqiramas edi. Ikkinchi tomondan, Mirzo Yodgor kabi dushman bartaraf qilinmagan va uning tarafdorlari ko'payib turgan bir sharoitda davlatning yuragi bo'lgan Hirotdagi g'alayonni ildamlilik bilan tugatish zarur edi. Husayn Boyqaro yana bir qancha vaqt masalani muzokara qildi. Shoir o'z fikrida mustahkam ekaniga qanoat hosil qilgach, nihoyat, qat'iyyat bilan dedi:

— Mulohazalaringizni batamom qabul qildik. Bu nozik vazifaning uhdasini sizga havola etmoqchimiz. Inshoollo, siz kabi kordon va sohibi tadbir bir zot poytaxtimizda sukut va osoyishtalikni tez kunda barpo

qilur. Hozirdan safarga o'tlanmoqqa sizga ijozat berdik.

Navoiy el foydasi va davlat manfaati uchun bo'lgan bu vazifaga, o'z odati bo'yicha, e'tiroz qilmadi. Yengil ta'zim bilan o'z roziligini bildirib, tabassum qildi-da, sekingina dedi:

— Poytaxtdagi alamdiyda xaloyiq uchun bu faqir na sovg'a bilan borur? Elning jarohatlarini ne malham bilan davolar?

— Jumla olamga ma'lumki, men podshohmen, tabib emasmen! — hazil yo'sin javob berdi Husayn Boyqaro.

Navoiy hazil-mutoyibani sevguvchi, zavq bilan tinglab, chechanlik bilan chuqur javob berishga mohir bo'lsa ham, hozir kulibgina qo'ydi ham so'zini jiddiy davom ettirdi:

— Ko'ngilga shunday muqarrar bo'ldikim, doril-xalofat<sup>1</sup> fuqarosi qoshiga yetgach, faqir ularni hech narsa bilan quvontirmoqdan ojiz qolgaymen. Maqsadimizni ravshan qilib aytsak, bizni farmoni humo-yun<sup>2</sup> bilan sarafroz qilsangiz ekan.

— Mazmuni qanday bo'lmog'i kerak? — qiziqib so'radi podshoh.

— Shul mazmundakim, — dedi Navoiy, — farmoni oliyning har bir so'zi ko'ngillarga quyoshdek hayot bag'ishlagay. Har bir nuqtasida, qatorida, daryo pinhon bo'lgani kabi, sizning daryoyi adolatingiz jil-valangay. Yana ul farmonda shunday so'zlar bo'lmog'i kerakkim, ular zolim, munofiq amaldorlar, ulus molni g'asb etuvchilar<sup>3</sup> boshiga sangbo'ron bo'lib yog'ilgay.

Husayn Boyqaro indamasdan, ayyorcha kulib qo'ydi. Keyin yengillanib, Hirotda bajarilishi kerak bo'lgan boshqa ishlar to'g'risida so'zladi. Nihoyat, shoir ruxsat tilab, o'rnidan qo'zg'alar ekan, u dedi:

— Yo'l tadorikiga kirishing. Farmonni tezda muhayyo qilib, sizga topshirurmiz.

<sup>1</sup> Poytaxt ma'nosida.

<sup>2</sup> Podshoh farmoni.

<sup>3</sup> Bosib, zo'rlab oluvchi.

Navoiy asta-asta yurib, o'z chodiriga keldi. To'nini yechib, bir nafas istirohat qilmoqchi bo'ldi. Lekin u butun borlig'i bilan hozir Hirotda edi. Uning boshini turli fikrlar, rejalar qopladi.

Xizmatchi hammaga qaynatilgan yalpi qozondan taom keltirdi. Shoir ozgina et yeb, kosani chetga surdi. Sharbat o'rniga bir kosa sovuq ayron talab qildi. Keyin qip-qizil turkman gilami ustida sochilib yotgan shatranj donalarini yig'ishtirib, atrofdagi chodirlarda bo'lgan shatranj ustodlaridan birini chaqirishni istasa ham, lekin, odatdagicha, o'yinning zavqiga berilib, yo'lga kechikishdan qo'rqdi. Kitoblar taxlangan pastak kursida yotgan va kitoblar ichiga suqib qo'yilgan shaldiroq, oqsimon va rangli qog'ozlarni to'plab, tartibga solib, kichkina, har yoni o'ymakor tasvirlar bilan muzayyan fil tishi qutiga soldi. Bular safarda bitilgan, hali oqqa ko'chirilmagan g'azallar, muammolar, tuyuqlar edi.

Yo'l jabdug'i tayyor bo'ldi. Farmonni shoir ko'zdan kechirib, uning mazmunidan rozi bo'ldi. So'ng, uni naychaday buklab, ustini muhrlatib, sallasining bir chekkasiga qistirdi. Mulozimlar uning yuvosh, lekin jussasi juda kelishgan yo'rg'a qora bayir otini ko'ndalang qilishdi. Shoir bilan birga borishi tegish bo'lgan hamrohlar ham tayyor bo'ldi. Bularning orasida shoirning sadoqatli navkari Boboali — barvasta qomat, aqlli, boadab yigit ham bor edi. Navoiy duxoba ko'rpacha tashlangan egarga o'tirishi bilan ot boshini chiroyli silkib yurib ketdi. Uning orqasidan Boboali va bir necha saroy mulozimlari, mansabdorlar yo'lga tushdilar.

Shoir otda yurishni, sokin dala manzaralarini tomosha qilishni sevar, hatto ba'zan ot ustida ilhomga berilib, g'azallar to'qir edi. Uzoqdan, mayin, ko'kimtir tuman pardasida sokin jilvalangan tog'lar, havoda bir to'p ko'lanka kabi g'ira-shira ko'ringan daraxtzorlar, qumliklarning qizg'inidan oyog'i kuygan kabi zir yugurgan shamollar, mayda toshliqlar orasidan mildir-mildir qaynab chiqqan tiniq suvlar —

hamma narsa shoirning ko'nglini to'lqinlantirar, u hamma narsada ulug', lekin yashirin bir kuchning go'zal va azamat ohangini tuyganday bo'lar edi.

Navoiy obod joylardagi ekinlarga, mevazor bog'chalarga diqqat qildi. Adirlardagi podalarga, dahshatli qoyalar va cho'qqilar ustida sakrab, toshlar orasida o'tchimtib yurgan echkilarga suqlanib qaradi. Ko'chmanchi afg'on va boshqa qabilalarning chodirlariga, sahroyi, sodda hayotning xususiyatlariga razm soldi. Bu qabilalarning tillari, maishatlari, odatlari haqida hamrohlari bilan so'zlashdi.

Suv yoqasida gerdayib yotgan katta toshga tikilib, unda qandaydir tasvir izini fahmlab, otdan tushdi. Toshga boshdan-oyoq diqqat bilan boqib, zamonlarning nafasi bilan ancha o'chgan bu tasvirning qurolli jangchi ekanini aniqladi; hamrohlarini to'plab, bu tasvir Iskandar Zulqarnayn davridan qolgan bo'lishi ehtimol, degan mulohazani aytdi. Bu munosabatla tarixning va tarixiy asarlar, obidalarning ahamiyatini so'zladı. Zamonlarning abadiy jarayoni, unga nisbatan odam umrining chaqmoq singari bir on yonib o'chishi, hayotning ma'nosi va siri haqida bu tosh Navoiyning boshida fikrlar bo'ronini qo'zg'agan edi. Shoir bu yerdan ko'zlarida qandaydir g'am ko'lkasi bilan jo'nadi va ancha vaqtgacha hech nima so'zlamasdan, fikr ham kechinmalarining sehriga berilib bordi. Otlarga xashak berish, bir qadar hordiq chiqarish uchun rabotlardan<sup>1</sup> biriga qo'nilgan vaqtdagina uning ko'ngli yana ochildi. Hamrohlar bilan davra qurib o'tirar ekan, yo'llarning yomonligidan, rabotlarning xarobligidan shikoyat qildi. Yo'llarni yaxshilash, yangi rabotlar barpo qilish kerakligi haqida o'z orzularini bayon etdi. Ovqatdan keyin, ermak uchun, o'zining ham o'zga shoirlarning muammolaridan bir nechasini o'qib, yashirilgan ismlarni topishni so'radi. Biron soat kulgi yo'sun gaplar ham bo'ldi.

Navoiy Hirotga kirishi bilan uning maxsus farmon

---

<sup>1</sup> Yo'lovchilarning qo'nishi uchun qurilgan maxsus karvonsaroylar.

olib kelganligi butun shaharga yashindek tarqaldi. Hamma uni tezroq eshitish orzusi bilan yondi. Hirot, tishdan qaraganda, avvalgiday tinch, hamma o'z tirikchiligi bilan mashg'ul bo'lganday ko'rinso ham, lekin kosib-hunarmandlar, dehqonlar hali g'azabdan tushmagan edilar. G'alayon avvalgidanda dahshatliroq va keskinroq bir miqyos va shiddat bilan har lahza mavjlanishga tayyor edi.

Shoir devonga kelib tushdi. Voqeaning qanday ro'y berganligini mufassal o'rgandi. Xo'ja Abdullo ham boshqa ma'murlar tomonidan xalqqa solingan zakotni bekor qildi. Bu ishda aybdor mansabdorlarni mansabdan bo'shatdi. Keyin arz-dod qilg'ali eshikda to'plangan kambag'al aholini qabul qilishga kirishdi. Yoshmi, keksami, ayolmi, tojik, o'zbek — har kimning shikoyatini sabot-matonat bilan tingladi. Shikoyatchilarning hol-ahvollariga doir savollar berdi, ularni yupantirdi, da'volarini hal qildi. Shoirning qoshiga yig'lab kirganlar tabassum bilan, bukchayganlar adolat kuchi bilan ruhlanib, qadlarini rostlab chiqdilar.

Hirotning ulug' masjidi jomi'ning xonaqosi, qulochga sig'mas yo'g'on ustunli naqshkor ayvonlari, katta, tekis hovli sahni, jomi'ning uch tomonini o'ragan qator hujralarning tomlari, minoralar xalq bilan liq to'la edi. Muhtasib'larning qattiq tergovlariga qaramay, namozga beparvo bo'lgan Hirot chapanilari, yetim-avboshlari ham bugun dastorni boshlariga nari-beri chulg'ab, jomi'ga kelgan edilar.

Juma namozidan so'ng shoir asta, ulug'vor yurib, minbarga chiqdi. Hamma birdan «guv» etib o'rnidan turdi. Tiq etgan tovush yo'q. Hamma ko'zlar chuqur hayajon bilan bir nuqtaga tikilgan. Navoiy minbarda turib, bir tuyg'u, bir hayajon bilan jim qotgan xalqqa darddosh ko'zlarini yugurtirib chiqdi. Shoir bu qarashda o'ziga xos chuqur anglash qobiliyati bilan xalq dardlarining, ehtiyojlarining eng yashirin tomirlariga

---

<sup>1</sup> Diniy ishlar ma'muri.

qadar yetganday bo'ldi. Yuragining to qa'rida uyg'ongan hislarning ta'siri bilan ko'ksi qabarib, chuqur xo'rsindi. Farmonni ochdi, sezilar-sezilmas titragan qo'lida tutib, kuchanmasdan, ovozini odatdagidan balandroq qo'yib, asta-vazmin o'qidi. Birdan yalpi g'ovur-g'uvur ko'tarildi. Xalq o'z taassurotini, ko'ksida siqilgan his va fikrlarini ifoda etishga kirishdi: «Yo, adolat!» «Inshoollo», «Zolimlarga la'nat!», «Ofarin!» sadolari hamma yoqni tutdi.

Farmonning mazmuni bir zumda og'izdan-og'izga o'tib, orqadagilarga, hatto jomi' tomidagilarga ham yetgan edi. Shoir to'lqinlanib, o'z nomidan qisqa, ma'nodor, samimiy nutqini bitirgan hamon minglar-cha qo'llar — dehqonlarning g'adir-budur baquvvat qo'llari, bo'yoqchilarning ko'm-ko'k panjalari, bo'zchilar va boshqa hunarmandlarning ingichka suyakli barmoqlari havoga ko'tarildi. Navoiy haqiga aytilgan duo va tilaklar gumburlab, jomi'ning azamat peshtoqlarini yangratdi...

Odamlar quvonch bilan ko'chaga oqdi. Elning umumiy xursandchiligi bilan adolat so'zining kuchiga chuqurroq ishongan shoir hammadan keyin qolib, madrasalar va mullabachchalarning ahvoli to'g'risida shaharning ulug' olimlari, mudarrislari bilan suhbatlashdi-da, har qanday namoyishkorona harakatdan qochib, yolg'iz o'zi devonga qaytdi. Xalqqa jabr-sitam yetkazgan bir ko'p mansabdorlarni ro'yxatga olib, har birini o'z gunohi va jinoyatiga yarasha jazo va jarimaga tortmoqqa tayyorlandi.

Butun Hirot shoirning haqiqati bilan yashar edi.

Navoiy Husayn Boyqaro qarorgohiga qaytib, Hirotida tinchlik-osoyishtalik barpo qilganini bildirgach, podshoh oshig'ich ravishda poytaxtga otlandi. Lekin birinchi mag'lubiyatdan keyin yana ko'p quvvat to'plab, hatto Astrobodni ishg'ol etgan Mirzo Yodgor endi ko'zlarini Hirotga tikkan edi. Uning odamlaridan bir qismi Hirot tevaragida yashirin harakat qila boshlagan edi. Husayn Boyqaro tashvishda edi. Navoiy mumkin qadar ildam Hirotga yetishni, unda yangi



kuchlar yig'ib, dushmanning butun kirdikorlarini behuda qilishni maslahat bergach, Husayn Boyqaro lashkari bilan poytaxtga oshiqdi.

Voqealar barq sur'ati<sup>1</sup> bilan davom etdi.

Husayn Boyqaro tun-kun yo'l bosdi. Poytaxtga ikki-uch rabotlik masofa qolganda to'xtadi. U, odat bo'yicha, Hirot ulug'larining istiqbolga chiqishlarini, tantana bilan shaharga kirishni orzu qilar edi. Lekin poytaxt go'yo uning kelishidan butunlay xabarsizdek ko'rindi. Hirot kar va sovuq. Husayn Boyqaroning rangi o'chdi. Lashkar orasida duv-duv gap ketdi. Voqeani o'rganmoq uchun yuborilgan odamlar shumshayib qaytishdi; ular poytaxtga yo'l berk ekani ni, qal'aning beklari Mirzo Yodgor tarafiga o'tganliklarini bildirishdi. Lashkarda hayajon va sarosima yana kuchaydi.

Navoiy podshohning chodiriga kirdi. Rangsiz, g'amgin, bo'shashgan podshohga dalda berishga tishdi.

— Bu qanday xiyonat! — boshini dard bilan chayqab dedi Husayn Boyqaro. — Bevafo nonko'r maxluqlar mening yuzimga qal'ani yopdilar!

— Xiyonatkorlar o'z chuqurlariga o'zlari yiqilurlar, — dedi Navoiy ishonch bilan. — Jasoratni qo'ldan bermaslik kerak. To'g'ri, ish g'oyat mushkullashdi. Lekin umid, g'ayrat va imon bilan qadam qo'yilsa, maqsad yo'lidagi har qanday mushkilotni bartaraf qilmoq mumkin. Endi lashkarga yaxshi qaramoq kerak. Hozir mavjud navkarlardan ayrilmaslikka harakat qilingiz. Hamisha ular bilan birga bo'lingiz, lashkardan uzilgan hukmdorning holiga voy!

— Bundan so'nggi harakatlarimizni nechik tasavvur qilursiz? — so'radi Husayn Boyqaro o'ychan boqib.

— Hozir bu yerdan chekilmoq lozim, — javob berdi Navoiy ikkilanmasdan. — Poytaxtda sadoqatli odamlar ko'p. Ularning ko'magi bilan butun ahvolni

---

<sup>1</sup> Chaqmoqday tez.

o'rganursiz. Qulay fursat kelganda, qat'iy bir harakat bilan bu falokatlarni daf etmoq mumkin...

Husayn Boyqaro ko'zlarini bir oz yumib, xomush o'ygaga botdi. Dastro'moli bilan peshonasini artdi — bu dahshatli haqiqatning sovuq teri edi. Keyin xo'rsinib o'rnidan turdi-da, titroq ovoz bilan beklariga ildam o'tlanishga buyruq berdi. Butun lashkar bilan kechalab, kunduzlab yo'l bosib, Sartoq o'langi degan mavzega borib tushdi.

Bu asnoda Balx atrofida Sulton Mahmud Mirzo harakatining kengayib borganligi haqida xabarlar keldi. Husayn Boyqaro endi o'z mulkida ikki ofat — ikki yong'in o'rtasida qoldi. Endi u o'z tojiga chovut solgan ikki ofatning qo'llarini kesib tashlamog'i kerak! Lekin unda kuch, g'alabaga ishonch yo'q. U endi dushman bilan ochiq maydonda uchrashishdan qo'rqadi. Bir yerda qaror topishdan xavflanib, uyasiz qushday, sargardon kezmoqqa majbur. Sartoq o'langidan Soqilmon dashtiga o'tdi. Bu yerda bir guruh sipohlardan ayrilib, to'qqiz rabotlik yo'lni ildam bosib, Naratog'ga keldi. Mustahkam O'g'ruq qal'asini har ehtimolga qarshi o'z qo'lida saqlashni mo'ljalladi. Lekin, sal o'tmasdan, bu qal'aga ham e'timodi qolmadi. Nihoyat, Maymana qasabasi'ga o'zini urdi.

## ***Oltinchi bob***

Mirzo Yodgorning tarafdorlari juda ustalik bilan ish olib bordilar. Obro'li malikalardan bo'lgan Poyanda Sultonbegim Amir Farididdin barlos kabilarning o'rgatishi bilan Hirot tashqarisidagi o'z manzilidan shaharga kirdi. Poytaxtning e'tiborli odamlarini — sotqin beklar va amaldorlarni qo'lga olib, o'z birodarzasini to'satdan Xuroson podshosi, deb e'lon qildi. Poytaxt qo'rg'onlari ustida shodiyona chalindi. Xutbani ham Mirzo Yodgor nomiga o'qish-

---

<sup>1</sup> Kichik shahar.

ga buyurdi. Mirzo Yodgor Tus viloyatidan Hirotga jadal harakat qildi.

Podshohlardan yaxshilik ko'rmagan va ularning tez almashinib turishlariga odatlanib qolgan xalq ommasi bu voqealarga beparvo qaradi. Hirotning akobir va a'yonlari esa yangi podshohga yaxshi ko'rinib, undan yangi rutbalar, yangi suyurg'ollar<sup>1</sup> olish niyatida uni to'rt ko'z bilan kutdilar. Nihoyat, kimxob va shohlarga chulg'anib, bedov otlarga minib, Hirot dan bir tosh masofa narida Mirzo Yodgorni qarshilab oldilar. To'qqiz martadan bukilib, yosh podshohning etaklarini o'pdilar. Tantanali uchrashuv bilan kech bo'ldi. Oy Mushtariyda edi. Bu hodisa, Mirzo Yodgorning va uning ulug' odamlarining fikricha, xayrli soat bo'lganidan, podsho poytaxtga kirmasdan shu manzilda tunadi. Ertasi rasmiy tantana va dabdaba bilan poytaxtga kirib, Bog'i Zog'onda qaror topdi.

Mirzo Yodgor mamlakatni idora etish masalalarida mutloq hech nima tushunmas, bilishga, o'rganishga ham intilmas edi. Laqma shahzoda toj kiygandan keyin o'z oldidagi vazifalarini sira o'ylamadi; dushmani Husayn Boyqaro qayerda, nimalar bilan mashg'ul, nima qilmoqchi — bu to'g'rilarda aslo tashvishlanmadi. Bog'i Zog'on go'zal qizlarga to'ldi. Ichkilik bazmlari avj oldi.

Poyanda Sultonbegim davlat ishlarini boshqardi. Bu ayolning o'z birodarzodasi uchun jon kuydirishi ham, albatta, o'z shaxsiy e'tiborini va obro'sini ko'tarish umidi bilan bog'liq edi. U chindanda o'z g'oyasiga erishganday bo'ldi. U oqila va mudabbira<sup>2</sup> ayol sifatida dong chiqardi. Aloiddin va uning darajasida bo'lgan ba'zi shoirlar unga qasidalar bag'ishladilar. Biroq Poyanda Sultonbegim turkman sarkardalarining g'ururini, o'zboshimchaliklarini kesa olmadi. Aksincha, ular bilan murosaga majbur bo'ldi. Chunki harbiy kuch ularda edi. Mirzo Yodgorni saltanat tepasiga ular olib keldi va raqiblardan ular himoya qilishlari

---

<sup>1</sup> Podshoh tomonidan sovg'a qilingan yerlar.

<sup>2</sup> Tadbirli, ishbilarmon.

kerak edi ham. Turkman askar boshliqlari o'z mavqelarini suiiste'mol qila boshladilar. Hirot va uning tevaragida boshboshdoqliklar kuchaydi. Xalq qattiq siyiq ostida qoldi.

Hirotning boshiga tushgan bu hayajonli, vahim kunlarda Sultonmurod madrasadan qariyb chiqmadi. Muazzam qal'a kabi yuksalgan madrasaning tosh devorlari orasida, kichkina, nim qorong'i hujrada kechakunduz mutolaa bilan mashg'ul bo'ldi. Ba'zan do'sti Zayniddin yangi xabarlar topib kelarkan, yosh olim eshitib tutoqar, yurtning notinchligiga sabab bo'lgan fitnachilarni qarg'ar, ro'y berayotgan voqealarning oqibatlari haqida beixtiyor o'yg'a tolar, lekin unga voqealar, go'yo taqdir-qismat kabi daf etilmas bir kuch bo'lib ko'rinar, ularning girdobini orzu qilingan yo'lga burib yuborishga o'zini ojiz sezib, o'z dardida o'zi qovrilar, yana chang bosgan kitoblarga ko'milar edi.

Bir oqshom, Mirzo Yodgorning tantana bilan poytaxtga kirishining uchinchi kuni, Sultonmurod sham oldida g'amgin, tanho o'tirar edi. Yuksak toqili madrasaning devorlarida aksi sado bilan yangraydigan tovushlar tingan, ulug'vor bir jimjitlik hukm surar edi. Tolibi ilmlar yosh podshohning tantanasi uchun tashkil etilgan bayramga tomosha uchun jo'nagan edilar.

Aloiddin Mashhadiy yarim yumuq ko'zlari bilan turtinib kirdi. Sultonmurodni To'g'onbek qoshiga o'zi bilan birga borishga taklif etdi. Sultonmurod mashg'ulotlarini bahona qilib, uzr tiladi.

— Bu shaharda ifrot<sup>1</sup> kitob o'qimoq orqasida jinni bo'lganlarni ham ko'rganman,— dedi norozilanib Aloiddin,— aqlni ko'paytiramani, deb aqldan ozmoq kabi falokat bormi? Yuring, hamroh bo'ling.

— Kitoblar meni yupantirmoqda, — javob berdi Sultonmurod g'amgin, — bo'lmasa, yurtga kelgan falokatlarni ko'rib, jinni bo'lishim muqarrar edi.

— Qayg'urmoqqa o'rin yo'q, falak o'zi ko'hna buqalamundir. Hozirgi damni g'animat biling, uni

---

<sup>1</sup>Haddan ziyod (muh.).

xursandchilik bilan o'tkazmoqqa harakat qiling. To'g'onbek, albatta, bizning ko'nglimizni ochg'usidir. Bu kunlar uning tole guli xandon urgan...

— Qanday qilib? — qiziqsindi Sultonmurod.

— Xabaringiz yo'qmi? To'g'onbek Mirzo Yodgor zamonining qahramonlaridan! — g'urur bilan javob berdi Aloiddin Mashhadiy.

Sultonmurod kunning voqealarini yaxshi o'rganmoqchi bo'ldi. Ayniqsa, Navoiyning Husayn Boyqaro tarafdori ekaniga shubha qilmaganidan sobiq podshohning vaziyatini bilishga qiziqardi. U To'g'onbek bilan suhbatlashib, ma'lumot olmoqni qasd qildida, Aloiddin Mashhadiyni taajjublantirib, birdan o'rnidan turdi.

— Yuring, bir javlon urib qaytaylik!

Ko'chalar qorong'i, allaqanday huvillagan, qo'rquvli edi. Vaqt erta bo'lishiga qaramay, qatnovchilar siyrak... Faqat, otlq navkarlar qora bo'ronday har lahza uchib o'tadilar, burqigan chang-to'zon dimog'ni achitadi, nafasni bo'g'adi.

Aloiddin Mashhadiy turtigani uchun Sultonmurod juda sekin yurdi. Ularni eshikda chol qul Nurbobo qarshiladi. U To'g'onbekning kechadan buyon kelganini aytdi. Aloiddin Mashhadiy xo'rsinib, qorong'ida bir oz sukut qildi-da, Sultonmurodning e'tiroziga quloq solmasdan, mehmonxonani ochib berishni qilga buyurdi.

— Andak orom olaylik, shoyad bek yigitning o'zi ham kelib qolur, — dedi u Sultonmurodning qo'lidan tutib.

Nurbobo mehmonxonani ochdi-da, sham yoqib chiqib, ularni ichkari kirgizdi. Darichalarni ochdilar. Dimiqqan xonaga kechaniq salqini urdi. Sultonmurod kelganiga afsuslanib, qovog'ini solib oldi. Aloiddin Mashhadiy she'r va shoirlar haqida gapirdi. Navoiyning ona tilining boyligi, go'zalligi to'g'risidagi fikrlarini o'zicha rad etmoqqa tirishdi. Sultonmurod yana ko'proq asabiylandi. Ezma Aloiddinning tilini kesish uchun so'zlamogqa majbur bo'ldi. U hozirgi

zamonda forsiycha yozadigan shoirlarning o'ndan to'qqizi qofiyabozlar bo'lib, bir qismigina qadim ulug' shoirlarning ojiz taqlidchisi ekanini juda oson isbot qildi. Aloiddin Mashhadiy, o'z odaticha, bir necha achchiq-tiziq so'z aytib, ko'zlarini yumdi-da, jim bo'ldi. Nurbobo dasturxon yozib, meva-cheva qo'ygach, shoir bir oz ochildi. Tinmasdan pista va bodom chaqib, Bodg'is'ning havosini, tabiatini uzoq maqtadi. Dasturxon yig'ishtirilib Sultonmurod ketmoqqa qistarkan, darvozada otlarning dukuri eshitildi. Aloiddin Mashhadiy sevinib, Sultonmurodni yana cho'kka latdi. Bir ozdan keyin halloslab To'g'onbek kirib keldi. Ko'zlari mast yonardi. Mehmonlarni ko'rib sevindi. Nurboboga aytib, darrov taom va sharob keltirtirdi. Qadahlarni lim to'ldirib uzatdi, ichishga qistadi. Aloiddin Mashhadiy birinchi qadahdan xushchaqchaq bo'lib, gapni gapga qovushtirmay qo'ydi. Ikkinchi qadahni ichib, yonini kovladi. Poyanda Sultonbegimga atab yozgan uzun qasidasini chiqarib, o'qib berdida, davron nodirasi bo'lgan ayolga taqdim etmoqligi uchun To'g'onbekka topshirdi.

— Bu ayolning idrok va farosati to'g'risida ne fikr dasiz? — deb so'radi Sultonmurod To'g'onbekdan.

— Hamma uni aqlning xazinasi, deydi, — javob berdi To'g'onbek ayyorcha kulib. — Ajoyib husni bor. Lekin men hali unda aql nishonasini ko'rmadim!

Aloiddin Mashhadiy kuyunib e'tiroz etdi. Lekin To'g'onbek unga javob qaytarishni ham istamasdan, o'zga narsalar haqida so'zlab ketdi. Sultonmurod uning hozir qanday mansab ishg'ol qilganini va Husayn Boyqaroning ahvoli ham kuchlari qanday ekani haqida gap orasida so'radi. To'g'onbek o'z mansabi to'g'risida «Yosh podshohning yaqinlaridanmen», deb javob berdi. Husayn Boyqaroning ahvoli mushkulligini, har kun uning yigitlari to'da-to'da qochib kelib, Mirzo Yodgorning xizmatiga kirayotganini bildirdi, oxirda ta'kidlovchi tovush va harakat bilan dedi:

---

<sup>1</sup> Hirot viloyatida bir mavze. Bu yerda pista va bodom og'ochlari ko'p bo'lgan.

— Lekin Husayn Boyqaroning yonida Alisher Navoiy bor. Mirzo Yodgor bu shoirdan ko‘proq qo‘rqishi kerak!

— Bu qadar mubolag‘a! — ranjidi Aloiddin Mashhadiy. — U kishi g‘oyat yuvosh odam. Siz uni tanimaysiz.

— Yo‘q, Navoiy katta kuch: u siyosatni tubli biladi. Aqlga boy ham el-ulus orasida obro‘si baland. To‘g‘ri, men tanish emasmen. Balki undan qochibroq yurishga to‘g‘ri keladi. Ammo odamni ishi tanitadi. Bo‘zchining hunari to‘qigan bo‘zidan ko‘rinadi. Qasidangizning tuzi bo‘lmasa, hech kim sizni shoir demaydi.

Sultonmurod boshini qayta-qayta qimirlatib, uning fikrini tasdiqladi-da, dedi: «Umid qilurmizki, Navoiy tez kunda yurtni tahlika va ofatlardan qutqorur!»

To‘g‘onbek xo‘mrayib yerga qaradi.

— Yurt uchun hech qanday tahlika yo‘q, — dedi u salmoqlanib. — Mirzo Yodgorning tomirida ham Temur qoni bor. U o‘z haqqini da‘vo qildi!

Sultonmurod u bilan bahslashmoqni ortiqcha bildida, sukut qildi. To‘g‘onbek ko‘p ichdi. Unga iyarib Aloiddin ham, har vaqtdagidan ko‘ra, bir necha qadahni ortiqroq ko‘tarib, nihoyat, cho‘zilib, qotib qoldi. Sultonmurod xushkayf edi. Aloiddinni qoldirib o‘zi ketmoqchi bo‘lib, o‘rnidan turdi. To‘g‘onbek uni kuzatib, eshikka chiqdi. Katta, daraxtzor hovli oy nurida sokin uxlardi.

— Nurbobo, sham keltir! — qichqirdi To‘g‘onbek.

— Hojati yo‘q, — dedi Sultonmurod.

— Shoshilmang, hujrangizga borursiz. Oldin husn-ga sajda qilib chiqing!

Sultonmurod hech narsa tushunmadi, yelkasini qisib, To‘g‘onbekning orqasidan yurdi. Chol qul sham olib keldi. To‘g‘onbek daraxtlar orqasidagi qator uylardan birini ochdi: «Marhamat!»

Sultonmurod yopiq daricha oldida chuqur iztirob bilan boshini quyi solib, cho‘nqayib o‘tirgan qizni ko‘rdi. «Mukammal husn, mukammal husn», dedi

ichida Sul-tonmurod ham allanechuk uyalgansimon bir-ikki qadam orqaga tashlandi. To'g'onbek tokchadagi laganga ko'z tashlab, qizning tepasiga bordi:

— Dildorxon, — dedi u bir oz egilib, muloyimlik bilan, — nega ovqatni yemading? Boshqa keltirsinmi?

— Ovqat emish! Zahar ber, zahar! — qiz qaddini rostlab, alam bilan qichqirarkan, ko'zlari yondi, to'lg'in ko'kragi g'azab bilan mavjlandi.

Ko'zlarini quyi solib, qaltiragan qo'llarida sham tutib, jim qotgan chol g'amgin so'zladi:

— Olloga yolvor, qizim, yolg'iz undan najot so'ra!

To'g'onbek mag'rur yurib, Sul-tonmurodga yaqin keldi va qulog'iga shivirladi: «So'limmi? Ma'qulmi?» Sul-tonmurod indamadi. Beixtiyor ravishda qizga achinish va dard bilan qaradi-da, tashqari chiqdi. Birpasdan so'ng To'g'onbek ham chiqib, qo'lini uning yelkasiga qo'yib, iljaydi.

— Kim bu? — so'radi Sul-tonmurod o'ychan.

— Qishloqdan kecha olib qochgan edim, — javob berdi To'g'onbek. — G'oyat nozik husni bor...

— Shunday hodisalar mamlakat uchun ofat emasmi?

— Do'stim, qo'y bu gaplarni! Qiz olib qochish juda ko'ngilli narsa bo'ladi. Yarim kecha. Oydinda supada sochlarini to'zg'itib, shiringina uxlab yotibdi, nariroqda kampir buvisi xurрак otmoqda... Ikki yigit bilan oyoq uchida tepasiga keldim. Avval peshonasidan yengilgina bir o'pdim. Keyin og'zini bog'lab, ko'tarib, yugurdik. Bog'dan gul uzib qochgandek, devordan oson sakradik. Otga o'marib, jilovlarni qo'yib yubordik. Juda ko'ngilli ish. Ha, tongga yaqin Hirot yoqasida bir tanishning bog'iga qo'ndik, hali bu yerga olib keldik. Bunday ishlarning boshqacha kayfi bo'ladi...

— Nima maqsad bilan? Bu bechoraning holi nima bo'ladi? Ota-ona uchun bundan ortiq, bundan dahshatli qayg'u bo'lishi mumkinmi? — titrab gapirdi Sul-tonmurod.

— Ishq o'yinida ko'ngil bo'lishi kerak. Buni yaxshi bilamen, — sokin, jiddiy gapirdi To'g'onbek. —



Xohlamasa, qo'lini ham ushlaymaymen! Xo'jamiznikida yuraveradi. Lekin, aslida, saroylarni bezaydigan qiz.

— Yo'q, bechorani o'z oilasiga yuboringiz. Eng insoniy ish bu. Inson tez o'suvchi orzu-havaslariga o'yinchoq bo'lmasligi kerak, To'g'onbek!

— Xo'p, o'ylab ko'ramiz. Xayr endi... — To'g'onbek uzoqlashdi.

Sultonmurod qulflangan eshikka tikilib, bir mudat hushsizday qotdi. Keyin g'amgin, majolsizlangan holda asta yurib ketdi. Shahar jim uxlaydi. Uzoqda, oydin va sokin kechada Hirotning yetti toqili jomi'i yana ham muazzam, Ixtiyoriddin qal'asi yana ham bahaybat tuyular edi. Sultonmurod To'g'onbekka nafrat, olamdagi butun jabrkorlarga g'azab bilan to'lib, shuursiz holda yurdi. Hujrada sham yoqmasdan, nari-beri o'rin solib cho'zildi. Uyqusi qochdi. O'ngga, so'lga og'nadi: fikri, xayoli Dildorga uchardi. Siynasida shirin bir og'riq sezdi. Lablari qimirlab, bir necha marta shu baytni takrorladi:

*Chashm agar in astu abro' inu nozu ishva in,  
Alvido, ey aqlu donish, alvido, ey ilmu din'.*

### **Yettinchi bob**

Maymananing Chahor bog'ida Husayn Boyqaro dilgir yashaydi. Shohona ziyofatlar, dabdabali, suronli bazmlar qayoqda? Bog'ning bir chetida naqshlari eskirgan, kattagina chorxari uyda ko'pincha yolg'iz o'tiradi, g'azallar ham yozmaydi. Butun boshli saltanatdan ayrilgan hukmdor allaqanday go'zalning qalam qoshlari, ohu ko'zlari haqida oh chekadimi?! Toju taxt dag'dag'asi uning qoniga ona suti bilan kirgan. Uning kuchini, dardini bu kunlarda Husayn Boyqaro, hamma vaqtdagidan ko'ra, chuqurroq, o'tkirroq sezadi.

---

<sup>1</sup> M a' n o s i: Agar ko'z va qosh shunday bo'lsa, nozu ishva shunday bo'lsa, u vaqt aql-hush bilan, ilm va din bilan xayrlashmoq kerak (Kamol Xo'jandiy).

Sargardon podshohning orqasidan sudrala-sudrala intizomi buzilgan va kurash tushib, bir-birlari bilan yoqalashib, ermak qidirgan yigitlar va navkarlarning shovqinlari uzoqdan, bog'ning narigi burchagidan eshitilar edi. Husayn Boyqaro ichidan xo'rsinib, kimnidir sabrsizlik bilan kutar edi. Eshik og'osi kirdi.

— Keldilar. Kirishlariga ijozat berursizmi? — so'radi u bukilib.

Husayn Boyqaro boshini qimirlatib, tasdiqladi. Navoiy kirib, odatdagi ta'zimni bajo qilgach, podshoh shoshib-pishib o'rin ko'rsatdi-da, so'zlay boshladi:

— Xotirga bir fikr kelgan edi. Eng avval bu xilvatda sizning ra'yingizni ko'ngil orzu qildi. Bilamenki, bu dardisar voqealar sizni ko'proq tashvishga solmoqdadir.

— Iltifotingizdan ko'p mamnunmen. Hazratlaridan xushxabar eshitgali keldim, — dedi Navoiy.

Husayn Boyqaro, bu yerda o'zga kishi bo'lmasa ham, ovozini pasaytirib, o'zining voqeanavislari orqali deyarli har kun olib turgan ma'lumotlarini so'zladi. Mirzo Yodgorning shavkati mustahkam emasligini tasvirladi. Hirotidagi vaziyat to'g'risida Navoiy ham o'z eshitganlarini gapirib, so'radi:

— Ne qarorga keldingiz?

— Asli mushkilot shu qarorda... Bu xususni yaxshi mulohaza qilmoq darkor. — Boyqaro bir zum to'xtab, davom etdi. — Agar biz bu mavjud lashkarimiz bilan dorilxalofat ustiga yursak va hech kutilmagan onda barq sur'ati bilan Yodgorbekni bossak... Sizingcha, maqsudga yetgaymizmi?

Shoir javob berishga oshiqmadi. Ko'zlarini ma'nodor suzdi, ingichka hislarini ifodalagan bir tabassum birdan uning yuziga yoyildi. So'ng g'oyat jiddiy ohang bilan dedi:

— Bu andishani menga aytmasangiz yaxshiroq bo'lur edi!

Husayn Boyqaro fikrim ma'qul tushmadi shekilli, deb o'yladi-da, shosha-pisha so'radi:

— Nechun?

Navoiy birdan kulib yubordi.

— Yo‘q, bu fikrni sir tutmoq kerak, sir... — ta‘kidlab dedi u.

Husayn Boyqaro ham iljaydi, lekin boshini chayqab, e‘tiroz yo‘sunli gapirdi:

— Arbobi jang bilan kengashmaslikka choramiz yo‘q-ku!

— Albatta. Ulardan bemashvarat ish qilinmay, — dedi Navoiy. — Ammo bir xavfdan saqlanmoq zarur: sipohlaringiz orasidan qochib borg‘uvchilar bu harakatdan dushmanga xabar berurlar. Mirzo Yodgor ham uning umarosi, beklari g‘aflat uyqusidan ko‘z ochurlar. Bu yo‘lda g‘ayrat va himmatingiz aslo ozilmasun. Ammo barcha tadbirni pinhon tutmoq ma‘qul. Hirotida Miroxo‘r yashaydi. U bizga bu ish uchun muqarrar bir kunni tayin qilsin. Keyin, o‘z fursatida, arbobi jangni bir sirdan voqif qilursiz.

— Mulohazangizga zarracha gumonimiz yo‘qdir. Ma‘lum bo‘ldikim, siz janob bu xususda biz bilan hamfikrsiz?— Navoiyga tikildi Husayn Boyqaro.

— Zafaringiz uchun kamina qo‘ldan kelgani qadar jahdu jadal ko‘rsatgusidir. Tangrim yurtga, ulusga osoyishtalik va farog‘at baxsh etgay! — dedi Navoiy.

— Omin! — soqolini siladi Husayn Boyqaro.

Bu rejani amalga oshirish uchun bir necha vaqt yashirin tayyorliklar ko‘rildi. So‘ng, kutilmagan paytda, Maymanadan Murg‘ob daryosi tomoniga otlanildi. Tog‘kun degan mavzeda Husayn Boyqaro eski shon-shavkatini eslatadigan katta majlis tuzdi. Beklarga navozishlar<sup>1</sup> ko‘rsatib, so‘ngra o‘z niyatini o‘rtaga tashladi. Ayrim kishilar qat‘iy bir fikr bayon qilishga botinmay sukut qilsalar ham, lekin navkarlar orasida so‘zi o‘tkir, ishbilarmon ba‘zi beklar mamnuniyat bilan muzokara qildilar. Ziyofatdan keyin Husayn Boyqaro o‘z yigitlarining boshida ko‘rilmagan bir sur‘at bilan yo‘lga tushdi. Pilpoyon degan mavzeda unga Muhammad Arlot, Amir Sarbon va boshqa

---

<sup>1</sup> Nozik muomala, go‘zal iltifot.

bir necha e'tiborli kishilar qo'shildi. Boyqaro Murg'ob suvi bo'ylab, o'zining sakkiz yuz ellik suvorisi bilan kechalab ham yurib ketdi. U zamonning mashhur tarixchisining mubolag'akor ta'rifiga ko'ra, u otliqlarning har biri «Xoroshikof nayzasi uchi bilan oyning yuzidagi pardani ko'tarur edi!» Tongga yaqin bir manzilga qo'nilib, ozgina istirohatdan so'ng yana o'tlanib, Bobo Xokiy yo'li bilan harakat qilindi.

Bobo Xokiy degan mashhur darvesh shu atrofda bir tog'ning g'ori ichida yashar edi. U yoshligidan boshlab dunyodan etak silkib odamlardan uzoqda, vahshiy tosh maskanida ibodat bilan mashg'ul edi. Husayn Boyqaro uning avliyoligiga ishonganidan bunday og'ir kunlarda darveshga sig'inib, undan duo olishni lozim bildi. Faqat, Bobo Xokiy, o'z odati bo'yicha, qabul qilmasligi mumkin, degan shubha bilan kelar edi. Ammo bu shubha tamom o'ransiz bo'lib chiqdi. Podshohning daragini eshitib, umuman, odamlardan qochgan bu darvesh o'z xohishi bilan podshohni yo'lda qarshiladi.

Husayn Boyqaro otdan tushib, ta'zim qildi va yaqin kelib, uning etsiz, ingichka qo'lini o'pdi. Darvesh o'z maskaniga taklif qildi. Husayn Boyqaro har bir daqiqani o'ziga g'animat bilsa ham, lekin darveshning ra'yini qaytarishga botinmay, mamnuniyat bilan taklifni qabul etdi. Chamasi, sakson yoshlarga yetgan, chillakday oriq, ingichka va yelkasi tur-tib chiqqan Bobo Xokiy hali juda tetik edi. U atrofga cho'kib yotgan cho'ng, qo'pol, qirrali katta toshlar orasida, xuddi echkiday, soqolini selkillatib, ajoyib bir chaqqonlik bilan baland g'orga yo'l boshladi.

G'orning ustidan naq bosib tushayotganday vahimali qoyalar osilib turar edi. G'or ichi uch-to'rt bo'yra sahnga ega; g'adir-budur tosh devorlar isdan qop-qora edi. Yerda poxol ustiga solingan eski bir sholcha, buzoq terisidan taqir po'stak, bir chekkada paxtasi oqqan ko'rpa taxlog'li turardi.

Bu yer juda bahavo. G'irillab esgan salqin shamol g'or ichiga kirib, soqollarni hilpillatib o'tadi, katta

qoya orasidan ingichka kumush uqa kabi otilgan suvni mayda durlar singari sochib to'zg'itadi. Toshliqlar, qurib yotgan soylar, past-baland to'lqinlanib cho'zilgan tepalar, adirlar, mayin zangori parda ichida xira miltillagan uzoqliklar ko'zlarni beixtiyor tortar, allaqanday mubham va uyqudek shirin elituvchi hislar, kechinmalarni uyg'otar edi.

Podshoh darveshning ko'nglini olishga tirishdi. Uning taqir po'stagiga ixlos bilan o'tirdi. Butun borligi toju taxt g'avg'osi bilan kemirilgan, dunyoning sonsiz lazzatlari, ne'matlarining daryosini butun umr qamrashga intilgan Husayn Boyqaro shu topda o'zini darveshlikka soldi. Uzlat'da kechirilgan faqir hayotning pokligi, dunyo qayg'u-mashaqqatining shaytoniy bir manbadan tug'ilganligi, bu g'orning shoirona go'zalligi haqida gapirdi. Chol darvesh podshohning unga chindan ixlos qo'yganligini sezdi. Ulug' zot'ning yuksakligi to'g'risida o'zining beparvo harakati va kimga aytgani ma'lum bo'lmagan so'zlari bilan ta'kidlashga tirishdi. So'ngra bir parcha kir bo'zni podshoh oldiga yozib, bitta qattiqroq nonni ushatdi. Sirti olapes qovoq idishdan bir sopol tovoqqa quyuy qatiqni lim-lim quyib uzatdi. Podshohning orqasidan chiqqan va g'or ichiga kirmasdan chetroqda, toshga suyanib turgan ikkita xos mulozimga ham bir sopol piyolada galma-gal qatiq tutdi. Husayn Boyqaro tovoqni ko'tarib, qatiqni chinakam ishtaha, to'g'risi, samimiy niyat bilan «xo'r-xo'r» ichar ekan, darvesh g'or og'ziga cho'qqayib, javray boshladi:

— Bu maskanning ichi men gunohkor bandaning ko'ngli yanglig' qora bo'lsa ham, uni shahanshohlarining oltin qasrlaridan afzal ko'ramen. Bu yerda qushlar bilan hamrohmen, toshlar bilan dardkashmen. Yo, ollo! Jamoling tug'yoni bo'lgan bahor sellari sening shafqat daryoyingga meni sudramadi. Qishning bo'ronlari vujudimdagi zang bosgan zanjirlarni uzib, meni sening aslinga qaytarmadi... Yohu!

---

<sup>1</sup> Odamlardan uzoqda.

<sup>2</sup> Xudo.

Husayn Boyqaro qatiqni ichib bo'lib, soqol, miyqlarini artdi. Darvesh so'zdan to'xtagach, ta'zim bilan ketishga ijizat so'radi ham o'zi haqida duo qilishni o'tindi. Chol o'rnidan turib, qo'llarini yoyib, qiblagaga yuz o'girdi. Podshoh ham o'rnidan sapchib turdi-da, darveshning orqasidan qo'l qovushtirib, boshini quyi soldi.

Duodan so'ng darvesh podshohga andak to'xtalishga ishorat qildi, g'orning bir burchagiga qalangan shox-shabba orqasidan eski, uchi zanglagan bir nayzani olib, g'ordan tashqari chiqdi va uni nayzaboz, jangchilarday tutib, ko'zlarida g'azab yongan holda Hirot tomonga o'qtaldi, dushmanni sanchganday, uch marta havoni sanchdi-da, Husayn Boyqaro qo'lga tutqizdi. Podshoh juda mutaassir bo'ldi. Ko'zlariga quyilib kelgan yoshni bazo'r to'xtatib, cholning ingichka, suyak qo'llarini ko'zlariga surtdi.

Husayn Boyqaro mulozimlari bilan otini qattiq haydab, lashkarga yetdi. Ba'zi beklarga o'z taassurotni quvonch bilan so'zladi. Darveshning nayzasini, dunyoda eng muqaddas narsa kabi, qo'lida mahkam tutgani holda Hirotga yo'l soldi. Qo'nimsiz yurish bilan yarim kechada Hirotga yaqin Juzduq chashmasiga yetib, shunda to'xtadi. Bir parcha kentikli oy, jimjit mudragan xaroba qishloq uylarining qashshoqligini ko'rsatmoqchiday, xiragina nurlanadi. Goho uzoqlarda itlarning uvillashi eshutiladi.

Kun qoraygandan beri podshohning ko'ngli g'ash edi. Hozir esa o'z tojining dushman qo'lga o'tgan eng yirik duri — Hirot qarshisida, eng mas'ul paytda, unda shubha va taraddud kuchaydi: «Nima bo'ladi? Dushman g'aflatda bo'lmay, suron ko'tarib qarshilasa, yana sharmanda bo'lib qoladimi?!» Shuning singari qo'rqinch, ezuvchi fikrlar, bir zum bo'lsin, boshidan uchib yo'qolmadi. U hayajonlandi. Sipohilar bu yerda sovutlarini kiyib, jangga tayyor bo'la boshladilar.

Navoiy otda podshohga yaqin keldi. U juda ehtiyot bilan harakat qilish, oldindan ba'zi tadbirlar ko'rish, masalan, «til» tutmoq<sup>1</sup> uchun kishilar yubo-

rish kerakligini uqtirdi. U charchagan ko‘rinardi. Lekin ovozi ishonchli jaranglardi. Husayn Boyqaro shu onda Shirim qorovulni chaqirdi. Shirim ziyrak qorovul edi. Chaqqonlik va hiylada o‘zini Mehtarbod Yaldo‘dan aslo tuban hisoblamas edi. U yoniga ikki-uch chapdast yigitlarni olib, bir zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Sipohilar jangga tayyorlanib, yurishga amr kutar edilar. Go‘yo vaqt tez o‘tib, tong otib qoladiganday tuyulardi. Otlar charchoq, odamlar bezovta edi. Shirim qorovul chala mast bir kishini oldiga solib keldi. Bu — Mirzo Yodgorning odamlaridan bo‘lib chiqdi. Beklar sarosimada o‘zini yo‘qotayozgan bu odamdan ba‘zi muhim ma‘lumot olishga tirishishdi. Shirim qorovul: «Hirotda g‘aflatdan o‘zga bir xabar ola bilmadim» degach, Husayn Boyqaro yuz kishini ajratib, Muzaffar barlos, Ibrohim barlos, darvesh Arlotlarning qo‘l ostida Bog‘i Zog‘onning katta darvozasini ochishga yubordi. Yana til tutmoq uchun kishilar belgiladi. Hirot tomonidan hech qanday shovqin ko‘tarilmaganiga ishongach, o‘zi qolgan navkarlar bilan harakat etdi. Hiyobon ko‘chasini bosib, Imom Faxriy mozoriga yetganda, Sulton Xo‘ja O‘zbekni, uning o‘ziga qarashli jamoa yigitlari bilan Bog‘i Zog‘onning Gavharshodbegim madrasasiga yopishgan darvozasini o‘rashga yubordi. Boshqa darvozalarga ham dasta-dasta navkarlarni tayinladi. Uning yonida saksonga yaqin kishi qoldi. U Muzaffar barlos ish ko‘rayotgan darvozaga qarab yurdi. Yo‘lda uning dushman ichidagi sodiq kishisi Miroxo‘rdan darvoza buzilib, ichkari kirilganini eshitdi. Husayn Boyqaro yengillanib, ildam ot surdi, to‘ppa-to‘g‘ri Bog‘i Zog‘onga kirdi. Nim qorong‘ilikda daraxtlar, xiyobonlar orasida Husayn Boyqaro yigitlari tovush chiqarmasdan, dushman kuchlarini axtarishdi. Hech bir tomonda Mirzo Yodgor sipohilari, navkarlarining izi ko‘rinmas edi. Bu yerdan Husayn Boyqaro Bog‘i

---

<sup>1</sup> Dushmanning vaziyati haqida ma‘lumot olmoq uchun dushman odamlarini qo‘lga tushirmoq.

<sup>2</sup> Eski jangnomalarning qahramonlaridan; afsonaviy josus.

Shimolga — Mirzo Yodgorning xobgohi<sup>1</sup> bo'lgan boqqa o'tdi. Bu yerda to'satdan uyg'ongan ayrim navkarlar kutilmagan bosqindan es-hushlarini yo'qotib, qarshilik ko'rsatish, o'zlarini mudofaa etish emas, ish qo'ldan ketganiga tan berib, hatto «churq» etib ovoz ham chiqarmadilar.

Yigitlar soddadil shahzodani qidirar edilar. Mana, qo'rg'onday baland muazzam qasr. Uning yonida xirgoh<sup>2</sup>. Xirgoh bo'm-bo'sh... Husayn Boyqaro baland tepalikning ustidagi ko'shkning atrofini uzoqdan o'radi. Buning orqasidagi ko'shkda Mirzo Yodgor bo'lishini chamalar edi. Faqat u ko'shkka kirish uchun tepalikni oshib o'tish kerak edi. Hamma shunday qilish kerakligini anglaydi. Ehtimol, kutilmagan vaqtda yoqalangan dushman tepa panasida so'nggi qat'iy jangga tayyorlanib, katta kuch bilan pisib yotgandir! Nim qorong'ilikda qasrning, xo'mraygan tepaning mash'um jimjitligi yurakni titratardi...

Husayn Boyqaro sabrsizlanib, boshdan-oyoq sovut kiygan ba'zi sipohilarga tepaga ko'tarilib, ko'shkni bosishga farmon berdi. Lekin ularda na harakat, na sado! Keyin ular, go'yo farmonni tushunmagandek, bir-birlariga qarashib, imirsilandilar. Shu onda shoir otdan askarday keskin, chaqqon harakat bilan tushdida, jilovni o'z navkari Boboaliga tutqizdi. Podshohga yaqin kelib, dadil so'zladi: «Bizga ijozat beringiz!» Hech bir bek, hech bir navkar Navoiydan buni kutmagan edi. Ko'plar uyatdan boshlarini egib, bo'shashib, titray boshladilar. Lekin endi vaqt o'tgan, har kim qancha orzumand bo'lmasin, shu topda o'z mardonligini ko'rsatishdan ojiz edi...

Husayn Boyqaro bir daqiqa taradduddan so'ng atrofdagi yigitlarga o'qraygan ko'zlarini yuritdi-da, shoirga ijozat berdi. Navoiy qilichini qinidan sug'urdi (qilichning birinchi va so'nggi marta sug'urilishi edi!), dadillik bilan odim otib ketdi. Lekin, u tepaga ko'plar

---

<sup>1</sup> Yotoq uy.

<sup>2</sup> Chodir.



mo'ljallagan yo'ldan emas, boshqa yo'ldan chiqa boshladi. Shu vaqtda kimdir bir dasta shamni yoqib, baland ko'tardi. Hammaning ko'zi qilichini hassa kabi yerga qadab, tepaga ko'tarilayotgan shoirda edi. Uning ko'lankasi ko'zdan g'oyib bo'lar-bo'lmas, navkari Boboali orqadan qilich yalang'ochlab yugurdi. Dam o'tmay, o'nlab yigitlar qo'rg'onga hujum qilganday, shijoat va ildamlik bilan shoir chiqqan yo'ldan tepaga otilishdi.

Navoiy qilichni hassa kabi tutib, yotiq tepadan ildam pastga tushdi. To'ppa-to'g'ri ko'shkka qarab yugurdi. Shu onda ko'shk orqasidan bir necha qurolli navkar shoshqin va sarosima holda yugurib chiqdi, oldindagisi qahr bilan qichqirdi: «Kim? Hozir bo'!» va bir necha odam narida hamla uchun qilich ko'tardi. Navoiy qilichni ko'tarmasdan, lekin zarbaga tayyor holda sovuqqonlik bilan to'xtadi-da, buyuruvchi keskin tusda so'zladi: «Qilichlarni qinga joylangiz, shu lahzada taslim bo'lingiz!» Ikkinchi navkar yaqin kelib, bo'ynini cho'zib tikildi: «Siz kimsiz? Nega taslim bo'lamiz?» — so'radi u. Shoir zarda bilan: «Men — Alisher Navoiy!» deyishi bilan navkarlarning nafaslari ichlariga tushib qoldi. Navoiy keskin ravishda ularga orqa o'girib, ko'shkka otildi. Dahlizda, qorong'ida yo'l axtarib, katta xonaning eshigiga yetganda, orqadan Boboali hayajon bilan yetib keldi. Eshikni asta ochib, oldin-ketin ichkari kirishdi. Darichalar ochiq, katta xona o'rtasida yumshoq gilamlar, baxmal-kimxob ko'rpachalarda to'rt kishi turli tomonga qarab, turli vaziyatda dong qotib yotardi. Bularning ichida, naq daricha ostida, oppoq yostiqqa parishon sochlarini to'zg'itib, yosh ayol jimgina uxlardi. Navoiy engashib, yotganlarga qaradi-da, past tovush bilan buyurdi: «Tuting buni!» Boboalining oyoqlari ostida qadahlar, ko'zachalar sindi, u shahzodaning qo'llaridan siltab tortib turg'izarkan, boshlarini bir-birlariga tegizib, qarshi yoqqa oyoq uzatib yotgan ikki sipoh birdan cho'chib o'rinlaridan turishdi va uy ichi hayajonli, sarosimali shovqinga to'ldi. Yosh ayol «voy!»

deb sakrab, o'zini darichadan pastga otdi. Boboalining temir panjasida Mirzo Yodgor garang edi, hansirab, tuturuqsiz nimalardir so'zladi. Uyni, dahlizni yigitlar to'ldirdi. Navoiy Mirzo Yodgorga zaharxanda qildi va asirni olib chiqishga buyurdi-da, orqadan dedi:

Shoh mastu jahon xarobu dushman pasu pesh!<sup>1</sup>

Navoiy boshliq Boboali va bir dasta yigitlar Mirzo Yodgorni sudrashib, tepadan tushishdi-da, Husayn Boyqaroning oti oyog'i ostiga tashladilar. Shohona kiyimlari bilan tungi bazmda uchib qolgan shahzoda bazo'r ko'zini suzib, atrofga xushsiz jovdirab qaradi. Keyin boshiga yetgan baloni anglab, kalavlanib o'rnidan turdi, qo'llarini ko'ksiga qo'yib, qaltirab, o'z dushmaniga tikildi. Uning ko'zlarida ma'nosiz bir qo'rquv, ojiz bir yolvorish ifodalanar edi. Husayn Boyqaro otda turib, asiriga bir necha achchiq, tikanli so'zlar otdi-da, qo'li bilan navkarlarga «olib jo'nanglar», degan ishorat qildi.

Hirot qal'alardan, arklardan yangragan karnay, nog'ora sadolari bilan uyg'ondi. Mirzo Yodgorning boshi kesildi. Uning tarafdorlari jonlarini hovuchlab, in-iniga kirdi...

### ***Sakkizinchi bob***

Bir haftadan buyon ko'chaga mo'ralashga yuragi dov bermagan va podshoh bilan safardan qaytgan xo'jasiga ko'rinib, xatosini iqrar qilishga g'ururi yo'l qo'ymagan, yuzi shuvit To'g'onbek o'zining yasoqliq xonasida dilgir bo'lib o'tirar edi. Mirzo Yodgorning yarqiragan kunini birdan bulut bosishini xayolga keltirgan bo'lsa edi! «O'sma-surmali beaql satang!» deb u Poyanda Sultonbegimni so'kadi, voqealarga ko'z-quloq bo'lmagan turkman beklarini la'natlaydi. Bir kechada turkman sardorlarining boshlarini kesti-rib, Mirzo Yodgorga do'q qilib, o'zini bosh vazir

---

<sup>1</sup> M a' n o s i: Podshoh mast bo'lsa, dunyo xarob bo'ladi, orqa-o'ngni dushman qoplaydi.

etmoq to'g'risidagi rejani ildam amalga oshirolmagani uchun xunob bo'ladi. To'polon kuni, iliq-issig'ida To'qli mergan bilan Hirotdan qochmagani uchun qayg'uradi. Uzoq o'lkalarga bosh olib ketish ustida turli rejalar qursa ham, lekin Hirotdagi hayotdan ko'nglini uzolmaganidan, hamma rejalarda biron nuqson yoki mushkilot topishga tirishadi.

To'g'onbek dimiqqandek og'ir nafas olib, darichaning ikki tabaqasini ham keskin itarib yubordi. Xona ichiga quyoshning iliq, yorqin ipagi jimgina oqdi. To'g'onbek daricha orqali tashqariga «chirt» etib tupurdi-da soyaga razm solib, Dildordan xabar olish uchun qo'zg'oldi. Faqat shu onda eshik qiya ochildi. Nurboboning oppoq soqoli muloyim, har vaqtdagiday ma'yus yuzi ko'rindi. To'g'onbek boshi bilan «nima?» deb ishorat qildi. Chol yumshoq tovush bilan xo'janing chaqirayotganini so'zlab, g'oyib bo'ldi. To'g'onbek bir muddat xo'mrayib o'ylab qoldi. Keyin shuursiz ravishda lapanglab yurib ketdi.

Majididdin mehmonxonasida qabul qildi. To'g'onbek ehtirom bilan xo'jasining qo'lini siqib o'tirgan hamon Majididdin uning noma'qul harakatlarini yuziga sola boshladi. To'g'onbek ko'zlarini bir nuqtaga qattiq tikib, hurpayib tingladi. Xo'jasi uzukli barmoqlarini shiqirlatib, jim bo'lgach, To'g'onbek salmoqlanib dedi:

— Tilga olg'ulig bir nima qilganimiz ham yo'q edi. Hirotda xalq mubolag'aga chechan ekan-da!

— Xo'sh, Alisher qo'lidan qalay qutuldingiz? Avom sizdan ham shikoyat qilibdi. Ba'zi zotlar bu to'g'rida menga xabar yetkazdilar.

— Men janobingizning xizmatlarini chin ko'ngil bilan bajarishga g'ayrat ko'rsatdim. Odatim shu — ishning chalasini yomon ko'raman. Mablag'ni so'zsiz berganlarga, o'g'onim guvoh, tilimni qimirlatmadim. Ammo tixirlik ko'rsatuvchilarni, so'z kor qilmasa, qamchi bilan so'qdim. O'zingizga ma'lumki, xalq bilan bo'ladigan ishda busiz mumkin emas. Ammo, janoblarning xotirlari jam bo'lsinki, sizning nomin-

gizga dog‘ tushirganim yo‘q. Men Abdulziyoning odami bo‘lib ish qildim! Navoiy deganingiz olomon ne desa, shuni quloqqa ilib, bu yerda katta mashmasha ko‘tardi. Voy-bo‘y, shoir degan ham bundayin g‘ayratli, zabardast bo‘lar ekan! Men taajjub qilamen u odamga! Lekin bunday ishlarda men ham bo‘sh kelmaymen. Eski po‘stinimga o‘ralib, kecha-kunduz sharobxonada yotaverdim. To‘g‘onbekni topsinlar-chi!

Shoirlarga berilgan baho takabbur Majididdinga yoqib tushmadi. U yuzini sal teskari burib, noxush tovush bilan dedi:

— Navoiy xalq oldida o‘z obro‘-e‘tiborini baland poyaga chiqarmoq niyatida bo‘lgan. Bu bir siyosatki, uning asli mazmuni bizga belgilidir.

— Xalqparvarlikning tagida boshqa ma‘ni bor, demoqchisiz-da. Har holda, bejiz emas,— dedi To‘g‘onbek o‘z xo‘jasiga ayyorcha boqib.

— To‘g‘onbek, ulug‘likka intilsangiz, har qadamni ehtiyot bilan bosing, — o‘ylanib, ohista dedi Majididdin. — Sizdek bahodir yigitdan ayrilmoq ko‘ngilni dog‘da qoldiradi. Etagimni mahkam ushlangiz, sizni Pulisirot‘dan ham eson o‘tkazishga qodirmen. Lekin voqealar eskiguncha, ko‘p emas, bir-ikki oy viloyatlarda yurursiz. Suhbatlarda tilingizga ehtiyot bo‘lsangiz, bas.

To‘g‘onbek yengillanib, tashakkur bildirdi. Lekin bu iltifot uni to‘la qanoatlantirmagan edi. Chunki u faqat Navoiy «zulmi»dan najotga va‘da berdi. So‘ngra, bu voqea keyingi to‘polonlar manzarasida ancha eskidi. Ammo bunday gunohlar uchun jarima to‘lab qutulish mumkin edi. Lekin Mirzo Yodgor fitnasida ishtiroki boshqa narsa-da! To‘g‘onbek bir necha kungina yarqiragani uchun boshdan ayrilsin yoki yillab, ko‘rsichqondek, zindonning chirkin kavaklarida chirisin! Lekin bu andishani Majididdinga ochishga

---

<sup>1</sup> Dindorlarning e‘tiqodicha, qiyomat bo‘lganda do‘zax ustiga quriladigan qil ko‘prik.

botinmadi. «Bu odam Husayn Boyqaroning sodiq bandasi,— o‘yladi ichida u,— o‘z sadoqatini bildirmoq niyatida qo‘limdan tutib, jallodga topshirishi ham mumkin. Yoki katta marhamat qilsa, bir zum o‘tmay, meni ko‘chaga uloqtiradi: usta bo‘lsang, ofat daryosida suzib, sohilga salomat yetarsen, bo‘lmasa, qa‘riga botarsen!..»

To‘g‘onbek shu daqiqada bir ot, bir qamchi qilib, Iroqqami, Ozarbayjongami, yo uzoq Dashti Qipchoqami, Xitoygami jo‘nab qolishni yana xotirdan kechirdi. Lekin u Hirot havosining mazasiga tushunib qolganligidan biron katta ish chorlamasa, bu yerdan siljishni istamas edi. Qulog‘iga chatilgan bo‘lsa, balki o‘zi so‘z ochar, degan umid bilan sukut qildi. Ammo Majididdin zakotlar haqida surishtirib ketdi. To‘g‘onbek qancha mablag‘ tushganligi, qaysi tumanlarda qancha mablag‘ qolganligi va undirilgan tangalarni, uning buyrug‘iga muvofiq, Abdulziyoga topshirganligini shoshmasdan, uqdirib gapirdi. Majididdin kaftlarini ishqalab: «Ofarin! Sizday yetti yigitim bo‘lsa, yetti iqlimni zabt eta olardim! Inshoollo, kelgusida siz bilan bahamjihat yaxshi ishlar qilurmiz», degach, To‘g‘onbekning ko‘zlari charaqlab ketdi:

— Taqsir, — dedi u ko‘zlarini ayyorcha qisib, — bu beadab qulingizdan bir ayb sodir bo‘ldiki, aytmoqqa til ham bormaydi...

— Tunsiz kun yo‘q, dog‘siz lola yo‘q. Ne ekan? — dedi Majididdin.

— Odamlarning og‘zida shunday xabarlar tarqaldi-ki, go‘yo Sulton Husayn barcha lashkarlaridan mahrum bo‘lib, qo‘lga tushmaslik uchun bir dasta yigit bilan Hindiston tarafga qochibdi, butun umarosi, beklari Mirzo Yodgorga sadoqat bildiribdi... Men, soddadil, bunday guft-go‘larga ishonib, Mirzo Yodgor xizmatiga kirdim. Besh-o‘n kun ot chopib, hayyo-huy qildik. Oqibati chatoqroq bo‘lib chiqdi-da, — To‘g‘onbek yer ostidan Majididdinga ko‘z qirini tashladi. Uning ko‘zlarida g‘azab emas, chuqur tashvish sezdi.

— Yigit, bundan ortiq sharmandalik bo‘lurmi?! — dedi to‘nglik bilan titrab Majididdin.

— Taqsir, xato qildim. Lekin inoning, o‘g‘onim guvoh, bir lahza bo‘lsin sizni unutmadim... Ba‘zi mulohazalarim bor edi, tole yor bo‘lmadi, ne qilay?

Majididdin bu so‘zning ma‘nosini tez payqadi. Lekin qovog‘ini solib, jahl bilan gapirdi:

— Bu ne demak? Butun olam biladiki, men xoqonning sodiq bir iti! U janobi oliyga va uning ulug‘ xonadoniga o‘lgunimcha xizmat qilmoqni orzu qilamen. Siz bu so‘zni ikkinchi daf‘a zinhor-bazinhor og‘zinzizdan chiqarmang!

To‘g‘onbekning umidi kesildi. U bu kun yo erta qo‘sqi po‘stinni kiyib, uzoqlarga qochishdan boshqa iloj qolmadi, deb o‘yladi. Bir oz sukut qilib, mo‘ylabini yulib o‘tirdi. Keyin o‘rnidan qo‘zg‘alarkan, Majididdinning dilidagini qat‘iy bilish uchun, o‘z o‘ziga deganday, po‘ng‘illab qo‘ydi:

— Xurosondan non-nasibamiz uzilibdi-da!

— O‘tiring, qochmoqchisizmi? — kinoyali kulgi bilan tikildi Majididdin.

To‘g‘onbek yana og‘ir cho‘kdi.

— Otimning tuyog‘iga o‘g‘onim quvvat bersa, qo‘nimlik tinch joy toparmen.

— Bunday besaranjomlikka balki o‘rin yo‘qdir, — dedi Majididdin. — Shaharda Mirzo Yodgorni qo‘llab-qo‘ltiqlagan ulug‘ zotlar bor. U bilan ham-bazm, hamtabaq bo‘lganlar bor... Men sizga dedimku, hozircha el ko‘zidan chetroqda yuring. Har yerda podshohga sadoqatingizni mubolag‘a bilan bildiring. Keyinroq sizni bir mansabga tayin qilurmiz. Vazifangizni ixlos bilan bajarursiz. Yana nima kerak?!

To‘g‘onbek qulluq qildi. So‘ng o‘rnidan turib:

— Sizga kichkina sovg‘am bor edi, — dedi.

Majididdin uning qo‘yniga tikilib, dedi:

— Qani, chiqaring! Ha, xabaringiz bormi, Yodgor Mirzo vaqtida Bog‘i Zog‘ondan ko‘p nodir buyumlarni talab ketibdilar...

To'g'onbek iljayib: «Sovg'am o'zi yurib keladi!» dedi-da, tashqari chiqdi. Otxona oldidagi hujra eshigi yonida to'xtadi.

— Ha, qaydasen, cho'loq qarg'a? Kalitni ber! — qichqirdi u Nurboboga.

Nurbobo otxonadan chiqib, To'g'onbekka shubhali nazar tashlab, belbog'i orasidan kalitni olib berdi. To'g'onbek shoshib eshikni ochdi. Burchakda Dildorning ko'zlari g'azab bilan chaqnadi.

— Suluv qiz, tur endi, yarashamiz, — kulib, muloyim gapirdi To'g'onbek.

— Qoch, kelma yonimga, baloga yo'luqqur! — qichqirdi qiz o'rnidan sakrab turib.

— Achchig'lanma, jonim! — yalindi To'g'onbek.— Men senga qo'limni tekkizmadim. Har bir shirin so'zimga minglab qarg'ish eshitdim. Meni ko'rsang, ukkiday sapchiysan, pista-bodom berib kirgizsam, qo'ying qumolog'iday otib tashlaysen. Yur, endi bu zindondan qutqarayin seni...

To'g'onbek qizning qo'liga chovut soldi, sudradi. Turtib, eshikka chiqararkan, eshikda sham tutib turgan Nurboboning rahmi kelib, lekin yordam ko'rsatishga ilojisizligidan bo'g'ilib, qichqirdi:

— Qizning qo'lini sindirasan, bas-ey... Insof bilanda! — Keyin qizning yelkasiga qoqib, dedi: — Qo'rqma, qizim, hech qanday xavf-xatar yo'q.

— Otajon, ayting, — yig'lab yolvordi Dildor, — bu zolim meni qayga sudraydi? Sizdan ayrilmaymen. Otajon qo'rqamen.

— So'zimga inon, qizim! Inshoollo, senga hech qanday yomonlik qilinmas.

— Chiq! Men seni bu qorong'i qabrdan to'ppa-to'g'ri jannatga olib boramen, — To'g'onbek dam yalinib, dam do'q qilib, Dildorni yetaklab ketdi. Mehmonxona eshigida uning qulog'iga shivirladi:

— Hozir katta vazirga ko'rinasen. Yig'i-sig'ini qo'y! U janobning ko'ngli zarracha ranjidimi, boshing kesiladi, uqdingmi? Odob bilan salom ber!

Dildorning yuragi urishdan to'xtagan kabi, jim qotdi. To'g'onbek eshikni ochib, qizni, agar yurmasa, ostonaga ko'tarib olib qo'ygunday vaziyatda edi. Dildor g'ayrisuuuriy ravishda ichkariga otilib, uch-to'rt qadam bosib, yumshoq gilam ustida cho'qqaydi. To'g'onbek endi uning bilagini yumshoq ushlab turg'izdi-da, shamga yetakladi. Dildor butun borlig'ini bosgan titroqdan, qo'rquv va uyatdan mukka tushib yiqilishga hozir bo'lsa ham, «katta vazir»dan qo'rq-qanligidan, o'zini tutishga tirishdi.

Majididdin yostiqlan boshini ko'tarib, qaddini rosladi. Shamni balandroq ko'tarib, chiroyli bir lavhani tomosha qilgan kabi yoki nodir bir gavharni diqqat bilan ko'rgandek, ko'zlarini suzib, boshini dam ko'tarib, dam egib, qizning latif qomatiga razm soldi. So'ng To'g'onbekni imlab, shivirladi:

— Parilar gulshanining nodir guli ekan... Bahosi ham nodir bo'lsa kerak?

To'g'onbek kulib boshini chayqadi:

— Bahosi? — dedi shivirlab. — Qulingiz tangani qaydan olsin? Mirzo Yodgor bizning qo'limizni shunday uzun qilgan ediki, yurtning bir qizini emas, osmondan xudoning oyi, yulduzini uzib olishga ham yetar edi. — G'ururlanib dam qizga, dam Majididdinga boqardi To'g'onbek.

— Bu nav ishlarni bas qilmoq kerak, yigit! — dedi ko'zini qisib, soxta tanbehlovchi ovoz bilan Majididdin.

Dildor yalt etib Majididdinga qaradi. Uning ko'ksida qutulish umidi uyg'ondi. Ko'zlarida allaqanday ma'sum ishonch o'ti yonib ketdi. Samimiy yolvorish, hatto bola o'z otasiga qilgani kabi, shirin erkalanish bilan gapirdi Dildor:

— Siz ulusning ulkan odamisiz. Biz hammamiz sizning farzandlaringiz. Tangri sizni ikki dunyoda yorlaqasin. Meni o'z elimga yuboring. Yaxshiligingizni ko'nglimdan bir umr chiqarmaymen.

Dildorning ko'zlaridan yosh quyilib ketdi.

— Ixtiyoring bizda emas, — homuza tortib, muloymlik bilan dedi Majididdin. — Sen mana bu yigitga



qaramsen. Xo'sh, o'z elingda nima rohat ko'rding? Bizning oilada yashasang, baxtli bo'lursen. Har bir kunning yangi-yangi gullar bilan ziynatlanur. Aslo yig'lama.

Dildor piq-piq yig'lab, boshini quyi soldi. Majididdin qizni bekaga tortiq qilmoq uchun Nurboboga topshirishni buyurdi. To'g'onbek qizning bilagidan ushlagach, Dildor sapchib o'rnidan turdi. Bo'shashgan, jonsizlashgan oyoqlari bilan To'g'onbekning orqasidan chiqdi. Xursand, jonli Majididdin shoshib qo'zg'aldi. Zarvaraq uzun to'nni kiydi, boshiga katta sallani o'radida, saroyga jo'nadi.

Bog'i Zog'on har kungiday shohona dabdabasi bilan yashaydi. Xizmatkor ahli bu oliy dargohning tuzuki'ni buzmaslik uchun, shoshmasdan, ulug'vor jiddiyat bilan o'z ishlarini qiladi. Qilich, o'q-yoy taqqan, sadoqlariga o'q to'ldirgan yigitlar og'ir odim otib, u yoq-bu yoqqa yurib turadilar. Oq soqoli ko'ksini qoplagan kekxa darvozabon nayzasiga suyalib, o'zining yosh sherigiga eski janglar haqida tamshanib ertak so'zlaydi.

Majididdin Hindistondan kelgan yangi fillarni uzoqdan bir muddat tomosha etib, qirq ustunli qasrga tomon ketdi. Atrofi daraxtlar, gulzorlar bilan o'ralgan yengil ko'shkda Xurosonning mashhur bir olimi yosh shahzodalarga dars bermoqda. U boshdan-oyoq nafis xitoyi shohiga chulg'angan go'daklarni zeriktirmaslikka, ko'ngillarini siqmaslikka astoydil tirishsa ham, juda salmoqlanib so'zlagani uchunmi yoki ma'nosi anglashilmagan Qur'on so'zlarini qiroat bilan, qoidaga muvofiq uzoq takrorlatganidanmi, shahzodalar darsning tugashini sabrsizlik bilan kutadilar, daraxtlar orasida o'zlari kabi yasangan, xilma-xil mayin ranglar bilan yorqin tovlangan tovuylarga ham uzoqda, quyosh nurida toza qor ko'mmasi kabi ko'ringan oppoq g'ozlarga dam-badam qarab qo'ya-dilar.

Majididdin qirq ustunli qasrga yaqin kelib, podshohning va o'zga ulug'larning yo'qligini bildida, xiyoy

---

<sup>1</sup> Qonun-qoidasi (muh.).

bonlarda aylanib yurib, asta tepalikka ko'tarildi. Tepalikning orqasida, katta, kaftday tekis maydonda, qirq-ellik chog'li yosh-yosh yigitchalar — bekdodalar, Hirotning dongdor oilalarining erkalari bilan birga toj-taxtning valiahdi, Husayn Boyqaroning ilk xotini Beka Sultonbegimdan tug'ilgan to'ng'ich farzand Badiuzzamon o'q-yoy otishib, yarim o'yin, yarim jiddiy harbiy mashqlar bilan mashg'ul edi. Badiuzzamon o'n ikki-o'n uch yoshli, nozik gavdali, xushbichim, chiroyli bola edi. Uning egnida yarqiroq, oltin, kumush gulli shohi to'n, belida qimmatli toshlar yongan kamar; kamarga osilgan mo'jaz xanjarning qini rang-barang olov bilan ko'zni qamashtiradi. Shahzodaning boshidagi oq shohi sallaning uchida oltin bandli jig'a hilpiraydi. Peshonasi ustida sallaga mohirona qadalgan yirik gavhar. Oyoqlarida ixcham guldor etik... Badiuzzamon ko'pincha rasmiy o'tirishlarda otasi bilan muloqot qiladi. Uning o'z viloyati, xazinasi, beklari, yigitlari, shoirlari, hamsuhbatlari bor. U she'rni, musiqiyini sevadi, o'zi ham goh-goh biron parcha yozib qo'yadi. Tantanali ziyofatlar, bazmlar tuzadi. Mayning totini, zavqini ingichka anglaydi. Yoshligiga qaramasdan, shohona tantanalarni juda mohir tashkil qiladi. Chavgon o'yinini sevadi, ovga hirs bilan kirishadi. Betashvish, shohona hayotda, kayf-safodengizida u o'z umrining ulug' kunini, bobo-ajdodlarning rasmiga muvofiq, oq namat ustida o'tirib, toj kiyish kunini xayol etadi!

Majididdin iljayib, zavq bilan o'yinni tomosha qildi. Shahzodaning tevaragida aylanadigan ulug'larni — tarbiyachilarni esladi. Umuman, shahzodalar bilan aloqani mustahkamlash to'g'risida ancha o'yladida, tepalikdan pastga tushdi. Uzoqda, gulzor atrofida, har vaqtdagi hamsuhbatlari, yaqinlari va ba'zi beklar bilan kezib yurgan Husayn Boyqaroni ko'rish bilanoq hayajonlanib, rangi bir oz oqardi. Tez-tez yurib borib, o'n besh-yigirma qadam joyda ixlos bilan bukilib, ta'zim qildi. Keyin yana ta'zim bilan yaqin borib, Mirzoyi Kichikning unga go'yo salom aytganini bildir-

di. Kayfi chog' Husayn Boyqaro kulib: «Biz bilan birga bo'ling!» deb iltifot etdi. Majididdin boshqalarining istehzoli qarashlarini sezsa ham, yer o'pguday engashib, qulluq qildi.

Husayn Boyqaroning kayfi chog' edi. Shuning uchunmi beparvo yozilib yurdi. May ta'siri bilan allaqanday o'tkir yongan ko'zlarini atrofga tez yugurtib, odatdagicha, arzimagan biron narsadan ranjigani ni bildirmadi. Soyada quyoshning oltin halqalari jimjim o'ynagan xiyobon oralab, podshoh kabutarxona tomonga burildi. Raiyatning har biri podshohga xuddi shu topda yoqadigan biron gap topishga tirishar edi. Nuktali so'zlar, porloq, kutilmagan, ko'z qamashtiruvchi o'tkir tashbihlarga butunlay qobiliyatsizligini sezgan Majididdin boshqalarga haybarakallachi bo'lishga urinar, butun harakati, muomalasi bilan podshohga samimiyat va sadoqatini ifodalashga intilar edi.

Kabutarxonaga yopishgan hujradan ko'knori bashara, ko'zlariga surma qo'ygan, nozik chol chiqib, podshohga ikki bukilib, ta'zim qildi. Husayn Boyqaro mevali daraxtlar ostidagi supaning chetiga, kichkina ipak gilamga o'ltirdi. Chol katta zarang toboqda lim to'la tariq olib chiqib toza supurilgan keng sahnga sochdi. So'ng, kabutarxonaning uchta eshikchasini ochish bilan, yuzlarcha parranda «gurr» etib, o'zini donga urdi. Kabutarlarning ko'plarining oyoqlarida kumush halqachalar bor edi. Oq, chipor, ko'kimtir va hokazo tusli kabutarlar ochko'zlik bilan shoshib-pishib don terar ekan, Husayn Boyqaro bolalarday quvonib ketdi. Atrofdagilarning xushomad gaplariga endi quloq osmay, kabutarlari haqida yolg'iz o'zi so'zlamakka tirishdi. Ba'zan eski kabutarboz cholning qushlarning qiliqlariga doir so'zlariga quloq soldi. Bu chol unga qadrdon edi. Husayn Boyqaro bolalik chog'larida ataylab uning uyiga borib, kabutar sotib olardi.

Yerda don qolmagach, chol uzun yog'ochni havoda yengil silkib, g'alati ovoz bilan nimadir qiyqirib qo'ydi. Qushlar «parr» etib, osmonga ko'tarildi. Hu-

sayn Boyqaro endi beixtiyor o'rnidan turib ketdi. Yerdan don qidirgan bir necha qushni chapak chalib uchirdi. Ikki qo'li orqasida, osmonga tikilgan, keng ko'kragini qabartib, har tomonga aylandi. Hirotning tiniq, qizg'in samosida rang-barang tovlanib, sho'x uchishgan kabutarlarning ajoyib havoyi raqsidan ko'z uzmadi. Yarim hazil, yarim jiddiy ravishda o'zini «dorug'ai kabutarxonai humoyun»<sup>1</sup> degan unvon bilan ulug'lab yuruvchi ko'knori bashara nozik cholning yoniga borib, uning izohlarini tingladi. Ko'zi osmonga qadalgan, lekin lablari qimirladi: «Bu qushlar ko'nglimni o'z parvozlari yanglig' ko'tardilar!» Shu vaqtda atrofdagilardan kimdir baland ovoz bilan Fariddin Attorning «Mantiq ut-tayr»idan kabutarlar haqidagi bir baytni o'qidi. Bayt Husayn Boyqaroga juda ma'qul tushdi, boshini tebratib, baytni bir-ikki marta sekingina takrorladi. Qanotli raqqoslar osmon sahnasidan qaytib, o'z maskani atrofiga qo'narkan, podshoh, og'rigan bo'ynini uqalab, bu yerni tark etdi.

Ichkilar<sup>2</sup> ziyofat asbobi muhayyo ekanini bildirishdi. O'ltirish har kungi kabi, Bog'i Zog'onning eng katta, havodor va ziynatli binosida bo'ldi.

To'rdan, qat-qat zarrin to'shaklar ustida Husayn Boyqaro chordona qurdi. Uning atrofida hammasi bir xil kiyingan, yoshlari ham deyarlik teng, chiroyli yosh yigitchalar yarim doira tashkil etib o'tirdilar. Bular podshohning dabdabasi va majlisning ko'rki uchun xizmat qilardi. Husayn Boyqaroning o'ng va so'l tomonida xonadonga mansub bo'lgan ulug'lar va turli yoqlardan qochib kelib, bu dargohga sig'ingan ba'zi omadsiz shahzodalar, keyin beklar, ulug' mansabdorlar, hamsuhbatlar va hokazo — har kim o'z rutbasiga munosib o'rinni ishg'ol etdi. Mehmonlar orasida Hirotning olimlari, shoirlari va mashhur cholg'uchilari, hofizlari ham ko'pgina edi. Bunday odamlarning deyarlik hammasi shunday majlislarda ko'p qatnashib,

---

<sup>1</sup> Podshoh kabutarxonasining boshlig'i.

<sup>2</sup> Saroy yumushlarini bajaruvchi maxsus beklar.

majlisning odob va tartibini juda yaxshi bilganlaridan o'ltirish har vaqtgi ohangi va hashamati bilan boshlanib, asta-asta qizib bordi. Dastlab Husayn Boyqaro o'zining yangi g'azalini majlisga taqdim etdi. She'ri yaxshi o'qiydigan va juda ingichka tushunadigan mansabdor Xo'ja Abdullo Marvoriy o'qib berdi. G'azalni, tabiiy, hamma go'zal deb topdi. Hatto, forsiyparast shoirlar ham uni — o'zbek tilidagi g'azalni — eng nodir badialar darajasiga ko'tardilar. She'rga begona bo'lgan ba'zi bahodirlar g'azalning ayrim misralarini takrorlab, bir-birlari bilan muzokaraga kirishdilar. Husayn Boyqaro bu g'azalni o'rganib, unga javob yozishni hamma shoirlardan iltimos qildi. Keyin bir oz muddat shirin latifago'ylik boshlandi. Majlis tinmasdan qahqaha qildi. Xususan, mavlono Abdulvose degan mashhur hajviy latifachining so'z va harakatlari hammaning ichagini uzdi. Abdulvosedan keyin boshqa kuldiruvchilar yangi bir narsa bilan o'rta chiqishga botinmadilar. Tovonchilar<sup>1</sup> oyoq uchi bilan yurib chaqqonlik bilan dasturxon yozdilar. G'oz kabobi, qo'y eti, manti va hokazo xilma-xil taomlar ustma-ust va mo'l-mo'l tortildi. Husayn Boyqaroga maxsus tavonchi oltin toboqda alohida taom keltirdi. Soqiylar kumush patnuslarga oltin va yoqut qadahlarini terib, ta'zim bilan may tuta ketdilar. Dastlab oltin qadahni Husayn Boyqaro qo'lga olib, majlisga ishora etdi. Hamma qadahlar uning sharafi uchun sipqorildi.

Husayn Boyqaro davlat ishlarida Temurning «Tuzukoti»<sup>2</sup>ni oz eslasa ham, lekin bunday o'ltirishlarda ulug' bobosining an'anasiga sodiq edi. Ammo, taqlidga qancha urinmasin, zamon va muhit bu bobda ham katta o'zgarishlar kiritgan edi. Oqsoq jahongirning saroyidagi o'ltirishlarda sahroyi soddalik bilan favqulodda hashamat va dabdaba birlashgan edi. Shov-vozlilar butun-butun pishirilgan otlarni katta sufralarga solib, o'rta tog'dek qalab tashlar edi. So'ng bilak-

---

<sup>1</sup> Dasturxonchilar, ziyofatni boshqaruvchilar.

<sup>2</sup> Temurning davlat tashkiloti, idora va yo'l-yo'riqlari haqida asari.

larigacha charm qo‘lqop kiygan tavonchilar shunda, hammaning ko‘zi oldida, chapdastlik bilan otlarni parchalab, mehmonlarga ulashar edi. Har kim o‘z ulushidan bir qismini uyiga olib ketishga ham majbur edi. Suyaklarni talashib-tortishib chaynamoq ham odat hisoblanar edi. Yana har bir ziyofatda chog‘ir ichilavermas, chog‘ir bazmi siyrak bo‘lardi. Lekin bir ichishga kirishildimi, xuddi yaylovda yoz chog‘i qimixxo‘rlik qilinganday, katta kosalarda hadsiz ichilar edi. Aksari mo‘g‘ulcha kiyingan qo‘pol-so‘pol, bahaybat gavdali, qahrli, sodda bahodirlar chog‘irda mardlik, chidam va o‘ktamlilik talab qilardilar. Kimning kosasida bir tomchi qolsa, u to‘qqiz kosani ustma-ust, dam olmasdan ichar edi. Bordi-yu, oxirgi kosadan bir tomchini jildirish mumkin bo‘ldi — yana to‘qqiz kosa!

Husayn Boyqaro saroyidagi o‘ltirishlarda ham bir qatra qoldirmay sipqorish qattiq qoida hisoblansa-da, aksar vaqt bunga rioya qilinmaydi. Jazo esa ayrim kishilarga va majlisni ko‘proq qizitish uchungina qo‘llanadi...

Chog‘ir tillarga va harakatlarga sarbastlik berdi. Ba‘zi shoirlar o‘rinlaridan turib, podshoh sharafiga hozir mastlikda to‘qilgan yoki ataylab bu fursat uchun ilgari to‘qib qo‘ygan she‘rlarini o‘qib, qadahlarini tantanali ravishda ko‘tara boshladilar. G‘ijjak, tanbur, nay, ud, daf va hokazodan iborat musiqiy arab, fors, turk, o‘zbek maqomlarini yangratdi. Hofizlar kuyladi. Raqqoslar ajoyib kiyimlarda keng davralarda ucha boshladilar.

Kech kirishi bilan oltin shamdonlarga qirq chirog‘day shamlar o‘tqazilib yoqildi. Gilamlar, qadahlardagi la‘li may, devorlardagi nozik naqshlar rangbarang tovlanib yondi. Majlisning shavqi oshdi. Qattiq ichuvchilar soqiylarga bir lahza tinim bermay qo‘ydilar. Husayn Boyqaro ko‘p ichsa ham, hali xiyla tetik edi. Majlis kayfini avjga indirish uchun chog‘irga ko‘proq undasa-da, lekin zimdan har kimning harakatini, ro‘y-ravishini ta‘qib qilib o‘tirar edi.

U, odati bo‘yicha, shovqinsiz, toza havoda bir

nafas tinim olish uchun o'rnidan qo'zg'aldi va orqadagi eshikdan shunday tez chiqdiki, dastlab ko'p kishilar sezmay ham qoldilar. Majididdin xuddi shu fursatni kutib turganday, quyidagi eshikdan lip etib tashqariga otildi. Daraxtlar orasidan tushgan ola chalpoq oydinlikda to'rt tomonga alanglab kezdi-da, birdan Husayn Boyqaroga yo'liqdi. Majididdin xokisorlik bilan unga yaqin kelib, qulluq qildi-da, bir lahza unga vaqt berishni o'tindi. Husayn Boyqaro beparvolik bilan: «Yuring, arzingizni tinglaymiz!» dedi-da, kichkina bir xonaga tomon boshladi. Shu vaqtda o'n qadamcha narida, qayrag'och orqasidan ikki bahaybat ko'lanka chiqib keldi. Majididdin seskanib, yurishini ham, to'xtashini ham bilmay qoldi. Ular podshohning qo'riqchisi, ikki omonsiz quli — Bo'dana, Do'lana edi. Ular podshoh qaerda bo'lmasin, hamisha uning atrofida, kechalari ayniqsa yaqinda hozir turishar, lekin bahaybat gavdalarini qandaydir chaqqonlik bilan odamlar ko'zidan yashira bilishar edi. «Bo'dana bilan Do'lananing yetti bobosi jallod, yetti enasi yalmog'iz o'tgan», deb ta'rif qiluvchilar haqli edilar. Ular vahshiy kuchning jonli timsolimusjassami bo'lib, yolg'iz ismlarini eshitishgina kishilarni zir titratardi. Podshoh sirli, qonli ishlarni ular orqali bajarardi.

Husayn Boyqaro Majididdinga qarab, kinoyali kulib qo'ydi. Bo'dana va Do'lana, ko'lankaday, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldilar. Podshoh havolanib, asta yurib, kichkina, bezakli xonaga kirdi. Oyoqlari hali ham qaltiragan Majididdin podshohdan ruxsat tilamasdanoq uning qarshisiga tiz cho'kdi. Hozir Husayn Boyqaroning kayfi ancha kuchaygan edi. U ko'zlarini mastcha suzib, parishonlik bilan gapira boshladi. Dam davlat ishlaridan, dam shaxsiy orzularidan so'zladi. Ba'zi yaqinlaridan pardali shikoyat qildi. Ba'zi beklarni asossiz maqtadi. Podshohning, garchi mastlik vaqtida bo'lsa-da, u bilan ochiq suhbat qilishi Majididdinni tetikladi. «Temirni qizig'ida bos», degan maqolga amal qilib, unga madh-sano o'qishga

boshladi. U qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib: «Oliy ostonangizning eng vafodor itimen!» degan gaplarni ko‘p takrorladi. Husayn Boyqaro: «Vafodor insonlar mendan hamisha yaxshilik ko‘rurlar. Nonko‘rlarning holiga voy!» dedi. Majididdin, go‘yo mehr-muhabbati ko‘ksida toshganday, o‘rnidan turib, qulluq bilan murojaat etdi:

— Ulug‘ xohon, bu xokisor qulingizning bir tortig‘i bor... Umid qilamenki, qabul etib, bandangizning ko‘nglini yerdan samovotga ko‘tarursiz...

— Sovg‘a bermoq ham, sovg‘a qabul etmoq ham bag‘oyat savob ish, — kulib dedi Husayn Boyqaro.

— Husn bog‘ining bir toza gulini, — deb boshladi sirli ovoz bilan Majididdin, — taqdir shamoli bizga keltirgan edi. Uning ta‘rifidan bu qulingiz ojiz. U parivashga ko‘zim tushishi bilan xoqonimga munosib ko‘rdim.

— Menga bir mamlakat baxsh etilgandan ortig‘roq mamnunmen, — mast ko‘zlaridagi xursandlik, orzu bilan dedi Husayn Boyqaro.

— Qulingizning kichik sovg‘asi... — kamtarinlik bilan bo‘yin egdi Majididdin.

— Men hech mubolag‘a qilmadim. Hofiz Sheroziyning g‘azali mashhuri xotiringizda emasmi?

— Yo‘q, podshohi olam!

Husayn Boyqaro boshini asta tebratib o‘qidi:

*Agar on turki sherziy ba dast orad dili moro,  
Ba xoli hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo<sup>1</sup>.*

— Ha, yodinga tushdi, — dedi quvonib Majididdin, — bu xususda shoir bilan ulug‘ jaddingiz<sup>2</sup> xoqon Temur sohibqiron hazratlari oralarida bo‘lgan hikoyani ham eshitganmen.

— Bu voqea el orasida mashhur-ku.

Husayn Boyqaro «sovg‘a»ni haramga qay yo‘sinda yuborish to‘g‘risida bir necha og‘iz gapirib, o‘rnidan

---

<sup>1</sup> M a ‘ n o s i: Agar u sherozlik turk go‘zali ko‘nglimni olsa, uning birgina qora xoli uchun Samarqand va Buxoroni bag‘ishlar edim.

<sup>2</sup> Bobongiz.



turdi, eshikka chiqarkan, bir zum to‘xtab, dedi: «Mirzoyi Kichikdan sizni men so‘rab olurmen».

— Taxtingiz oyog‘i ostida xizmat qilmoq bilan emas, balki oddiy navkaringiz bo‘lmoq bilan ham faxrlanurmen, — dedi Majididdin.

Ular kirganlarida, bazm juda qizigan edi. Podshohning orqasidan g‘urur bilan kirgan Majididdin avvalgi o‘rniga o‘ltirdi. Barloslar, bir ko‘p beklar, mansabdorlar bir-birlariga ma‘nodor imo bilan qarashib olishdi. Bazm va ziyofat tongga qadar davom etdi. Majididdin uyqusizlikdan va maydan qisilgan ko‘zlarini uqalab, horg‘in odim bosib, uyga qaytarkan, jomening yuksak minoralaridan muazzinning ovozi yangradi. Darvozai mulkka boruvchi katta yo‘lda darvozadan ilk kirgan dehqonlar, bog‘bonlar otlarga, eshaklarga ortilgan yoki boshlariga qo‘yilgan katta savatlardagi uzum va boshqa mevalar bilan bozorga ildam jo‘nardilar.

Majididdin uyga kelib, hali yuz betini yuvmagan xotinini mehmonxonaga chaqirdi, podshohning haramiga bukun uzatiladigan Dildorni yuvintirib-tarantirib, eng asil kiyimlar kiydirib, oltin-kumush bezaklar taqdirishni buyurdi-da, chala yechinib, yota qoldi. Choshgoh vaqtida uni xushxabar uyg‘otdi: Majididdin oliy farmon bilan parvonachi tayin etilgan edi.

## ***To‘qqizinchi bob***

### **I**

Ko‘pdan kutilgan qor to‘rt enlik yog‘ib, uncha qat-tiq bo‘lmagan izg‘irin orqasida ikki kundan buyon erinmasdan daraxtlarni, tomlarni oqartirgan edi. Ko‘chalarning balchig‘i qatqaloqlangan. Bolalar, qarg‘alar tansiq qorni g‘animat bilib, sho‘xlik qilib o‘ynaydilar. Kattalar o‘z do‘stlariga, yaqin tanishlariga, xesh-aqrabolariga qorxat yozib, o‘ziga xos nash‘a-zavq bag‘ishlovchi qishki ziyofatlarga yura boshlaganlar.

Navoiy qorxat yozib, unda qishning shoirona tasvi-

rini, qish manzarasi orqasida ko'ngilga kelgan kechinmalarni sho'x, rangli uslub bilan bejab, bir do'stiga, qish hangomasi sifatida yuborgan edi.

*Tuzulgay yor ila bazmi visoli,  
Vale ag'yordin<sup>1</sup> ul bo'lsa xoli.*

*Soqiyo, day<sup>2</sup> shiddatidan aqlu hush betob erur,  
Chorasi jomi bullurin ichra la'li nob<sup>3</sup> erur.  
Xusho bazm aro o'tu, may bo'lsa day,  
May andoqki o'tu, o't andoqki may.*

Serzavq, oqsuyak Hirot bu oltin misralarda ifodalangan ruh va kayf bilan yashamoqda edi.

Qorxat munosabati ila do'sti uni bugun ziyofatga chaqirgan, lekin u ishga berilib, o't va may kabi qizg'in, nash'ali bo'lishi kerak bo'lgan ulfatchilikni ham unutdi. Shoir el-ulus ishidan qutulgan damlarda bekor o'tirmas edi. Yo o'qir, yo yozar, yo xattotlikda mashq qilar, yo musiqiyda yangi kuylar yaratishga urin-ar, hatto ba'zi vaqtlarda rasm solish fikrini buyoqlar ila ifodalash bilan mashg'ul bo'lar edi. Tafakkur, amal, harakat uning mangu hamrohlari edi. U «bir soatlik tafakkur bir yillik toatdan afzal» degan dasturni ko'p vaqt takrorlashni sevardi.

Darichalari yopiq va jihozlari zavq ham ichki bir ohang bilan saranjom topgan xonaning o'rtasida manqal to'la qip-qizil cho'g' yolqinlanadi. Darichalarning tepasidagi rangli oynalarda qish quyoshi o'ynaydi. Navoiy manqalga yaqin o'tirib, kitob ustiga qo'yilgan yengil, shaldiroq haftrang qog'ozni tizzasida tutib, ijodga berildi.

Ijod dardini tug'uliq dardi bilan qiyos etadilar. Ijod dardi — qalbning qa'rida uyg'onib, butun vujudni larzaga solgan og'riq Navoiy uchun eng shirin lazzat, ona allasi kabi yupantiruvchi, quyosh kabi hayot va quvonch bag'ishlovchi bir kuch edi. Shuning uchun u

---

<sup>1</sup> Boshqalar, begonalar.

<sup>2</sup> Qish.

<sup>3</sup> Qizil may.

samimiy, tabiiy bir shavq bilan yengil yoza olar edi. U chinakam soʻz sehrbozi! U har qanday oʻjar fikrni, ruhning eng ingichka, eng tutqich bermas jilvalarini, yurakdagi hislarning mavjlarini soʻz orqali yorqin tajassumlantirar, qatrada daryolarni mavjlantirar, uchqunda quyoshlarni aylantirar, ishqdan hayot yasar, oddiy hayotdan esa ulugʻ, tiyran afsonalar toʻqur... U minglarcha yilgi madaniyatni, asrlarning fikr boyligini qamragan shoir edi. Uning sheʼriy dahosi arab, eron va turkiy xalqlarning sanʼat xazinasiga, fikr zamini-ga chuqur ildiz otib, uning abadiy kuchidan gullagan edi.

U turli shoirlarning turli-tuman asarlaridan oʻn minglarcha baytni yod bilar edi. U uch-toʻrt yoshdan boshlab jiddiy goʻzal sheʼrlarni yodlagan. Sakkiz-toʻqqizda butun-butun ilmiy, falsafiy, sheʼriy asarlarni oʻzini unutajak ravishda zavqqa berilib mutolaa etgan. Bir qarich bolalikda keksa shoirlar bilan sheʼr haqida munozara qilgan!

Qalam ravon yugurardi. Soʻzlar sheʼrning oltin ipiga erkin teriladi. Misralarda soʻzlar gavhar kabi yonadi, yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi. Shoir oʻz ota-bobosi tilining sodda va toza goʻzalligini chuqur sezib quvonadi. Mana, misralar qogʻoz betini toʻldirdi. Ona tilida sheʼrning yangi bir guldastasini bogʻladi. Shoir qalamni chetga qoʻyib, ichida oʻqidi:

*Ochmagʻay erding jamoli olam aro koshki,  
Solmagʻay erding bori olamda gʻavgʻo koshki.*

*Chun jamoling jilvasi olamga soldi rustaxe,  
Qilmagʻay erdi koʻzum oni tamosho koshki.*

*Boʻlmagʻay erdi koʻzum oʻtluq yuzung koʻrgan zamon,  
Ishqing oʻti shu lasi koʻnglumda paydo koshki.*

*Aylagach ishqing balosi zor koʻnglumni hazin.  
Qilmagʻay erdi meni mahzungʻa parvo koshki.*

*Tushmagʻay erdi firebomiz lufing bilmayin,  
Notavon koʻnglumgʻa vaslingdan tamanno koshki.*

*Lutf ila ko'nglumni vaslingdan tama'kor aylabon.  
Qilmag'ay erding yana zulm oshkoro koshki.*

*Bevafolig' onglagach, ishqingni ko'nglim tark etib,  
Qilmag'ay erdi o'zin olamda rasvo koshki.*

*Emdikim devonayu rasvoyi olam bo'lmisham,  
Vasl-chun mumkin yo'q o'lturg'ay bu savdo koshki.*

*Ey Navoiy, bevafodur yor, bas, ne foyda,  
Necha kim desang aga yoxud magar, yo koshki.*

Shoir g'azalni kitob orasiga soldi. Yengillanib, o'rnidan turdi-da, qalam va dovotni tokchaga olib qo'ydi. Tokchalardagi chiroyli xitoy idishlarga, fil tishidan ishlangan ajoyib, mo'jaz qutichalarga razm soldi. U chiroyli narsalarni ingichka san'at namunalari bo'lgan buyumlarni sevar edi. U o'yladi: «Xurosonda san'atning turli boblarida ajoyib mohir san'atkorlar bor. Hunarmandlar o'rtasida ajoyib iste'dodli, serdiqqat, serzavq odamlar juda ko'p. Nima uchun, masalan, xitoyi chinnilarni, xitoyi shohilarni, Kashmir shollarini Hirotda yaratmoq mumkin bo'lmasin! Ularni san'at va hunarning oliy poyalariga tashviq etmoq kerak, ular uchun kerakli asboblarni topmoq kerak!» Navoiy yaqinda, hunarmandlarning bir bayramida, ular tomonidan yasalib, xalqni taajjubda qoldirgan g'alati buyumlarni esladi. Uzoq o'lkalardan nodir matolar sifatida keltiriladigan ko'p narsalarni sekin-sekin Hirotning o'zida yasamoq mumkinligiga ishonadi.

Sovuqdan badani jimirlashdi. Manqal oldiga o'tirdi. Ustini yupqa kul bosa boshlagan cho'g'ni mis kurakcha bilan yengilgina titib, qo'llarini tutdi. Yana shoirona xayolga, tafakkurga berildi. «Bir soatlik tafakkur bir yillik toatdan afzal!» U o'z ona tilining qudratini, go'zalligini namoyishlantira bilajak katta dostonlar yaratmoqni orzu qilardi. Uning xayoli afsonalarning go'zal bog'lariga sayr etdi. Nega bu bog'chalarining oltin darvozalari uning xalqi uchun yopiq?! Arablardan, eronliklardan uning xalqining qay yeri

kam?! Yo‘q, u o‘z xalqi uchun she‘rning o‘lmas gulzorlarini yaratishi kerak!

Eshik asta ochildi, yaqinda shoirga xizmatga kirgan Shayx Bahlul paydo bo‘ldi. Bu — ancha tahsil ko‘rgan, har vaqt mutavoze, yuvosh tabiatli, kamtarin yigit edi. Shayx Bahlul o‘z xo‘jasining fazlu kamolotini taqdirlab, unga xizmat qilishni o‘zi uchun bir sharaf, deb hisoblar edi.

— Buyuring, ne demoqchisiz? — parishonlik bilan so‘radi Navoiy.

— Tarabxonada sulton hazratlari sizni yo‘qlamishlar, — javob berdi Shayx Bahlul.

Navoiy bir muddat boshini quyi solib, sukut etdi. Keyin ranjiganlikni ifodalovchi tovush bilan: «Aytng, tez yetib borurmen», dedi. Shayx Bahlul boshini qimirlatib, «xo‘b» deb chiqdi. Shoir uzilgan xayollariga yana bir muddat berildi. Keyin shohi to‘n ustidan og‘ir bo‘lmagan qunduz pochali po‘stinni kiydi. Ko‘cha eshigi oldida otga minib, saroyga jo‘nadi.

Tarabxonada saroy mulozimlari uni, har vaqtdagi kabi, hurmat bilan qarshiladilar. Tarabxonada — katta bog‘chalarnig o‘rtasiga solingan kichikroq, lekin juda kelishgan ikki oshyonli, bu yerni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Zahiriddin Muhammad Boburning ta‘biricha, shiringina imorat edi. Buni Abulqosim Bobur bino qilgan edi.

Shoir ikkinchi qabatga chiqdi. To‘rt tarafda naqshlari nafis to‘rt hujra; bularning o‘rtasida katta bir xona. Husayn Boyqaro Navoiyni shu katta uyda qabul etdi. Bu uyning to‘rt tomonidagi devorlarda Abu Said Mirzo o‘zining janglari va safarlarining tasvirini ishlatirgan edi. Navoiy, odatdagicha, rasmiy ta‘zim va hol-ahvol so‘rashlardan keyin ko‘zlarini beixtiyor ravishda devordagi rasmlarga tikdi. Ot gijinglatgan, o‘q uzayotgan, qalqon tutib o‘zini zarbadan saqlashga intilgan dushmanga qilich ko‘targan bahodirlar, boshi kesik, qonga bo‘yalgan gavdalar, qal‘aga hujum eta-

---

<sup>1</sup> Hirotda bir saroyning nomi.

yotgan askarlar va hokazo jang manzaralariga diqqat qildi. Bir ko'p suratlarning aftlarida jonlilik, harakatlarda tabiiylik ko'rmadi. Rasm san'atining hali orqada ekaniga ichdan taassuf qildi. Husayn Boyqaro ham bir muddat rasmlarga qarab, marhum rassom haqida eshitgan ba'zi bir qiziq gaplarni aytdi-da, keyin hukumat ishlaridagi nuqsonlar to'g'risida shikoyat qildi. Navoiy bu munosabat bilan mamlakatni idora etish haqidagi o'zining mulohaza va orzu-armonlarini so'zlab, podshohga to'g'ri yo'l ko'rsatmoqqa tirishdi. U mamlakatning kelajagi, davlatning barqaror bo'lishi uchun ziroatga, turli hunarlarga katta ahamiyat berish zarurligini mufassal tushuntirdi. Yurtda ilm, she'r va o'zga san'at odamlarining maishatini yaxshilash uchun ularga hamisha homiylik qilish kerakligini ayniqsa ta'kidladi. Podshoh yolg'iz poytaxtning emas, butun viloyatlarning ishlaridan har kun xabardor bo'lib turishi, hamma mansabdorlarining vazifalarini taftish etishi zarurligini bayon qildi. Hatto podshoh har kunning qaysi pallasida qaysi ishlar bilan mashg'ul bo'lishi kerakligiga qadar ko'rsatib berdi. Husayn Boyqaro diqqat bilan tingladi. Lekin oxirda bu fikrlar haqida biron so'z aytmadi. Sirti qorako'l, qalin, chiroyli qunduzli telpagini bir oz ko'tarib qo'ydidan, kulib, shoirni chaqirishdan maqsadi nima ekanini so'zladi — amir sifatida devonda vazifa olib borishni taklif etdi.

— Bu mushkul masalani yana o'rtaga qo'ydingiz,— dedi Navoiy tashvishlanib. — Bu xususda kami-ning e'tirozi hazratlariga belgulik edi-ku.

Husayn Boyqaro norozilanib, qoshlarini chimirdi:

— Bu e'tirozingizni muhokama qildik. Ammo dalillaringizni haqiqatdan uzoq ko'rdik. Saltanatimizning siz kabi nodir shaxsini amirlik rutbai olisi bilan sarafroz qilmaguncha, ko'nglimiz qaror topmas. Inshoollo, bu tadbirimiz yaxshi samaralar berur.

— Shohona marhamatingiz uchun rahmat, — dedi Navoiy qat'iyat bilan, — iloji bo'lsa, meni har qanday rasmiy mansablardan ozod etsangiz... Amirlik rutbasi va devonda muhr bosmoqlik, garchi sharafli bo'lsa

ham, ko'ngil erkinlikka ko'proq moyildir. Men davlatga, el-ulusga xolis ko'ngil bilan xizmat qilmoqni orzu qilurmen. Bu xususda qilgan e'tirozlarim, balki zohiran ma'nosizdek ko'ringandir. Lekin chuqurroq andisha qilinsa, uning ma'nosi ravshanlashurki, bunga imonim komildir. Darhaqiqat, amirlik rutbasini qabul qilsam, ba'zi ulug' zotlarning ko'ngli ranjur. Orada behuda so'z ko'payur. Do'stlik o'rniga nifoq vujudga kelur. Inson ruhi o'jizliklardan xoli emas...

Husayn Boyqaro qo'li bilan masala hal, degan ishoratni qildi.

— Bizki bu ishni orzu qilibmiz, har ne e'tirozni rad qilurmiz, — dedi u tabassum bilan. — Shunday farmon berurmizki, amirlardan hech biri majlislarda sizdan oldin o'ltirmagay. Ammo Mir Muzaffar barlos bilan orangizda do'slik va mehr-oqibat barpo ekan, ijizat bersangiz, muhr bosmoqlikda sizdan yolg'iz u amirgina oldin bo'lsin.

— Ko'ngilning orzusi hozirgi rutbada yolg'on maqrabi sulton bo'lib, kuch va iqtidorimizga yarasha elga foydali xizmat qilmoq edi, — Navoiy boshini quyi soldi.

— Endi ish sayyoralarda qoldi, — kulib dedi podsho. — Falak donishmandi<sup>1</sup> iqbol soatini tayin qilgach, u vaqt muhr bosursiz.

Navoiy yangi e'tirozlar, yangi dalillar keltirishga tirishdi. Husayn Boyqaro o'jarlik qilib, hatto eshitgusi ham kelmadi. Navoiy, nihoyat, o'z orzusiga qarshi ko'rsatilgan marhamat uchun podshoga tashakkur bildirishga majbur bo'ldi. Husayn Boyqaro uni bukunga chog'ir majlisiga taklif etdi.

Shoir Tarabxonaning pastki qabatiga tushdi. Bunday xonalarning birida Muhammad Sayid pahlavon, vazir Xo'ja Ato, Xo'ja Abdullo Marvoriy va hokazolar o'ltirishardi. Hammalari o'rinlaridan turib, shoirni samimiy qarshiladilar. Xo'ja Ato muloyim, kamtarin kishi edi. O'z vazifalarini shov-shuvsiz, yaxshi bajarar-

---

<sup>1</sup> Munajjim, demoqchi.

di. Har bir ishda u yuvoshgina o‘z maslahatini beradi. Muhammad Sayid saroy pahlavonlarining eng zo‘ri va mohiri edi. U keng yag‘rinli, quloch ko‘krakli, butun dov jussasidan quvvat barq urardi. Husayn Boyqaro unga «pahlavoni olam» degan laqab bergan. Hech bir Xuroson pahlavoni, chet ellardan pahlavonlik dag‘dag‘asi bilan kelib turadigan zo‘rlardan birontasi hali uning yonboshini yerga tegizgan emas. Lekin Navoiyning qalin do‘stlaridan bo‘lgan bu shaxsning fazilati bundagina emasdi. Muhammad Sayid ayni zamonda turli ilmlar sohasida uncha-muncha olimlarga so‘z bermasdi. Musiqiyin chiroyli chalar, yangi kuylar to‘qirdi. Goho-goho uning qudratli qo‘llari qalam ushlab, chiroyli g‘azallar, ruboiylar yaratardi. Pahlavonning bu xislatlarini uzoqda eshitganlar ishonmas, lekin yaqindan tanuvchilar uning qobiliyatlarini ehtirom qilardilar.

Navoiy ularning qatoriga o‘tirdi. Jonli suhbat boshlanib ketdi. Pahlavon qalin lablari bilan so‘zni asta o‘lchab kesib, gushtgirlik ilmi<sup>1</sup> haqida qiziq ma‘lumotlar berdi. Hozir o‘zining o‘n sakkiz yashar jiyani-ni vaqtincha madrasadan olib, ilk bahorda chetdan kelishi kutilgan mashhur pahlavonlar bilan kurashga solmoq uchun uni tayyorlayotgani, qanday usullar qo‘layotgani to‘g‘risida gapirdi. Keyin so‘z she‘r, musiqiy, darveshlik falsafasi va hokazoga o‘tdi. Xo‘ja Afzal kirib, Navoiyni podshohning yangi qarori bilan tabrik-ladi. Pahlavon va boshqalar Navoiyning amir bo‘lgani haqidagi xabarni katta quvonch bilan qarshiladilar. Bu gapning darrov tarqalganiga Navoiy taajjublanib qoldi. Pahlavon dag‘al, baquvvat soqolli keng yuzidagi samimiy tabassum va hayajon bilan dedi:

— Bu—ko‘hna Xuroson tarixining oltin sahifasidir!

— El baxtining tug‘ilgan kuni, — dedi Xo‘ja Afzal.

Har kim o‘z quvonch ham orzularini bildirib turarkan, Majididdin, Nizomulmulk, Amir Mo‘g‘ul va bir ko‘p beklar va ayonlar kirishdi. Ular shoir bilan,

---

<sup>1</sup> Pahlavonlik, badan tarbiyasi haqidagi ilm.



go‘yo hech nimadan xabarsiz kabi, ko‘rishdilar. Lekin ko‘zlarining ma‘nosi, tashvishli yuzlari bo‘shashgan harakatlari voqeadan ularning ogoh ekaniga guvohlik berardi. Parvonachi Majididdin hozir, hamma vaqtdagidan ko‘ra, ortiqroq kekkayishga tirishardi. Qimorboz Amir Mo‘g‘ul parvonachiga qarab, mast ko‘zlarini ma‘nodor qisib qo‘ydi. Majididdin ham unga imo bilan javob berdi. Ba‘zi bir barlos beklar og‘ir va xomush boqardilar. Har vaqt yasanib-tusanib, tovusday tovlanib yuradigan, sersavlat, ayyor Nizomulmulkkina o‘zini Navoiyga sirdosh ko‘rsatishga tirishdi, unga yaqin kelib, shivirlab tabrikladi. Shoir kinoya bilan kuldi-da, hammaga eshittirib, dedi: «Fikrimcha, rutbalarning, mansablarning past-balandi yo‘q. El xizmatida hamma rutbalar sharaflidir. Yurt uchun hatto navkarlikni ham iftixor bilan bo‘ynimga olar edim!» Nizomulmulkning ko‘zlari atrofga ayyorcha jovdiradi. Yirik yoqut ko‘zli uzuklar taqqan barmoqlari bilan ko‘rkam soqolini silab, boshini vazmin chayqadi:

— Albatta, shunday bo‘lmog‘i kerak!

Ko‘p o‘tmasdan, mulozimlar kelib, chog‘ir bazmiga taklif etdilar. Hamma «gurr» etib qo‘zg‘aldi.

## II

Uchinchi kun Navoiyning uyida katta tantana bo‘ldi. To‘rdagi katta oq uyda odam ko‘p, xizmatkorlar o‘z yumushlarini iftixor bilan bajaradilar. Uy sohibi — shoir, o‘z odaticha, bir nafas qo‘nmaydi. Keluvchilarni ochiq yuz bilan kutib oladi. Dam sekingina oshxonaga kirib, oshpazlar ishini ko‘zdan kechirib chiqadi, uni-buni o‘rgatadi, eslatadi. Dam hujralarga bosh suqib, tayyorlanayotgan halvo va har nav shirinliklarni surishtiradi; yaxshiroq va mo‘lroq tayyorlashni uqtiradi. O‘z uyida xalq tuplangan vaqtlarda u aksari shunday kuyunchaklik ko‘rsatar, qo‘ldan kelgancha mehmondo‘stlik qilishga, iltifoti, muomalasi bilan har kimning ko‘nglini ko‘tarishga tirishar edi.

Yasog‘liq katta oq uyda beklar, yuqori mansabdorlar, dongdor shoirlar, Hirot, Iroq, Ozarboyjon olimlari o‘tirishar edi. Odam ko‘p bo‘lganidan suhbat umumiy mavzuga ko‘chmagan; har kim o‘z atrofidagi odamlar bilan dilkashlik qilar edi. To‘rda bosh bek Muzaffar barlos bilan Muhammad Burunduq barlos va Jahongir barlos jang ham ov — qush haqida so‘zlashardi. Naoviyning yordami bilan moddiy ahvoli yaxshilanib, endi ilm dunyosiga ancha tanilgan Sultonmurod bir Iroq olimi bilan arab tilida sekin suhbatlashardi. Dovdirab qolgan, kichkina keksa munajjim bilan dov gavdali Muhammad Sayid pahlavon juda inoq gaplashardi. Podshohning bu qari munajjimi baxt va falokat, yaxshilik va yomonlik, omad va omadsizlik — hammasining vaqt-soatini yulduzlarnig sirli va tekin maslahati bilan, mashaqqat chekmasdan, tez tayinlab, belgilab berardi. Ulug‘bek o‘z tekshirishlari bilan, Navoiyning ta‘biricha, osmonni pastga tushirgan, ya‘ni sayyoralarning harakat qonunlarini insonlarga tanitgan bo‘lsa, bu chol osmonning cheksiz uzoqligiga yana benihoyat uzoqlik qo‘shib, uni qalin sir pardasiga chulg‘agan edi. Kambag‘al bo‘z ishtonini qay soatda bichishi, qay soatda kiyishi kerak? Podshoh oltin taxtga qay kun, qay soatda o‘tirishi kerak, sevikli qizga qay soatda muhabbatnoma yozmoq kerak? Dushmanni o‘ldirmoq uchun qay soatda zahar tayyorlamoq kerak? Chol bularning hammasiga yulduzlarning javobini olib beradi. Saroyda katta tantanali ishlar eskidan buyon munajjimlarning ko‘rsatgan vaqtida bajarilishi bir an‘ana bo‘lib qolganidan, bu kun Navoiyning amir sifatida muhr bosish kun va soatini ham u tayinlagan edi.

— Bizning ilmimizda tangrining har kuni uchun bir yulduz podshoh, bir yuluz vazir bo‘lur, — dedi ko‘rsatkich barmog‘i bilan ta‘kidlab munajjim. — Bukun koinotda Shams<sup>1</sup> — podshoh, Qamar<sup>2</sup> vazirdir.

---

<sup>1</sup> Quyosh.

<sup>2</sup> Oy.

Asli mohiyatiga diqqat etingiz, barcha shuhratli ishlarning kuni ushbudir. Alisher Navoiy janoblarining muhr bosmoqlik soatiga Zuhrani<sup>1</sup> tayin qildim. Jamiki yaxshi ishlarning soati budir. Zuhra bukun avjda, ya'ni yettinchi osmondadir. Uning surati ham asosiy maqsadga, Alisherning tabiatiga xo'b muvofiq tushadi. Zeroki, Zuhraning surati qo'liga chang va kamoncha ko'targan parivash o'yinchi qizdirki, husnga, san'atga, iqbolning xursandchiligiga ishoratdir.

Pahlavon Muhammad Sayid kulib, yana cholni gapga solmoqchi ekan, saroyda maxsus mulozimlar yetib kelishdi. Ular amirlarga xos bo'lgan «jubbaiy tillodo'zi va kulohi navro'zi»<sup>2</sup>ni Navoiyga taqdim etishdi. Navoiy bo'g'chani yechib, loqayd va kamtarona tabassum bilan amirlik kiyimini kiydi. Do'stlar quvonch bilan samimiy tabriklay boshladilar; yolg'iz barlos beklari, Majididdin va ularning ko'lankasida yuradigan ba'zi mansabdorlarga ko'zlaridagi hasad tuyg'usini yashirishga tirishib, qandaydir rasmiy, muham so'zlar bilan cheklandilar. Saroydan kelganlardan biri qog'ozni dastlab boshidan yuqori ko'tarib, keyin ta'zim bilan Navoiyga topshirdi; bu — «Abulg'ozni Sulton Husayn Boyqaro so'zimiz». deb boshlangan va viloyat hokimlariga yuborilishi kerak bo'lgan rasmiy bir yorlig' edi. Yangi amir bu tantanali majlisda birinchi martaba o'z muhrini bosishi kerak edi.

Hamma jim, lekin hayajonli. Barcha ko'zlar — turli ma'no va hislarni ifodalagan ko'zlar — boshini bir oz quyi solib, qandaydir parishondek, qisilgandek o'tirgan Navoiyda edi. Beklarning, mansabdorlarning ko'zlari, qo'yo kimdir ishora qilgandek, bir onda uchrashib qoldi. U ko'zlar, bir-birining vahimasidan cho'chigandek, darrov ajralishdi. Bir vaqtlar ko'rsatgan xizmatlari uchun podshoh qoshida o'zini o'ta erka, juda kuchli sezgan, hatto ko'p ishlarda unga bo'ysunishga tixirlik etadigan mag'rur Muzaffar bar-

---

<sup>1</sup> Zuhra yulduzi.

<sup>2</sup> U zamonda amirlargina kiyadigan maxsus to'n va bosh kiyimi.

losning ham rangi o'chdi. «Ajabo, bu shoir muhrni barcha amirlardan yuqori bosadimi?» degan andisha uning borlig'ini kemirmoqda ekani butun vaziyatidan barq urib turar edi. Majididdin uning ko'zini duch keltirib, labini juda ma'nodor burib qo'ydi.

Har bir amir, bek o'z muhrini davlatda o'z darajasiga yarasha ma'lum o'ringa bosishi kerak edi. Navoiy yorliqqa o'z muhrini bosishi bilan hamma tikilib turgan ko'zlar bir zumda allaqanday katta ochilib ketdi. Hamma favqulodda hayrat va hayajon ichida qoldi. Tillar go'yo so'zlashdan ojiz edi. Hamma bir-biriga qaraydi, xolos. Navoiy o'z muhrini yorliqning shunday bir joyiga bosgan ediki, hech bir amir Navoiy muhridan pastga muhr bosishga imkon topolmas edi!<sup>1</sup> Shoirning yuksak ruhi, kamtarinligi, olijanoblighi qarshisida Majididdin, barcha beklar, mag'rur mansabdorlarning boshlari, og'ir yuk ostida qolgan kabi, uzoq vaqt egildi. Ular sarosimali ko'zlarini qayerga yashirishni bilmay qoldilar.

Shoirlardan mavlono Atoullo ham mashhur olim mavlono Burhoniddin bu muhim voqea munosabati bilan yozgan tarixlarini o'qib berdilar. Ulardan so'ng o'nlab shoirlar Navoiyga bag'ishlangan qasidalarini baland ruh va hayajon bilan o'qidilar, bu sharaflari tarihiy kunda shoirni tabriklash uchun do'stlari, yaqinlari, sodda xalq vakillari paydar-pay kelib turishdi. Katta, quvonchli, ruhli ziyofatdan so'ng majlis tarqaldi.

## ***O'ninchi bob***

### **I**

Juma namozidan keyin Gavharshodbegim madrasasi suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Madrasa ahlining aksari kezib kelish uchun shaharga yoki yor-biroduklariningikiga ketgan. Sultonmurod hujrada yolg'iz

---

<sup>1</sup> Navoiy dastlab muhr bosgan joy go'yo tabarruk bo'lib qolgan. Bundan keyin amir bo'lganlar o'z muhrilarini xuddi Navoiy bosgan joyga bosishni o'zlariga uchun sharaf deb bilganlar.

o'ltirar edi. U endi Xurosonning mashhur olimlari bilan uchrashadi, ilmiy munoazaralarda qatnashadi. O'z iste'dodi, bilimlarining chuqurligi bilan kundan-kun kengroq taniladi. Navoiy bilan tez ko'rishib tura-di. Garchi undan dars olgani bir ko'p yosh tolibi ilm-lar uning etagiga yopishsalar ham, lekin biron madrasada mudarris sifatida dars bermoqqa boshla-magan edi. U mudarrislik vazifasini orzu qilsa-da, Hirot-da olimlar ko'pligidan, ularning orasida raqobat, hatto ochiqdan-ochiq dushmanlik bo'lganidan, Sul-tonmurod orzuni amalga oshirishga oshiqmas, o'ttiz yillab, qirq yillab darsgo'ylik etib, dong chiqargan va qisman o'zining muallimlari bo'lgan ulug' chollar bilan kurashmoqqa jasorat qilmasdi. Hirotning barcha kambag'al talabalariga homiylik qilgan Navoiy, unga alohida iltifot va yordam ko'rsatganidan, muhtojlik-dan butunlay qutulgan edi.

Bukun jimjit madrasada, kichkina hujrada uning qayg'usi ko'ksiga sig'mas edi. Uning butun vujudini to suyaklariga qadar Dildorning hasrati zirqiratib og'ritar edi. Bir kecha, bir necha daqiqagina ko'rgani u asira qizning ishq'i kundan-kun kuchli, kundan-kun betoqat bir dard, bir olov, bir ofat kabi uning yuragida yonar-di. Sul-tonmurod u qizni abadiyan qo'ldan ketganligi-ga ishonadi. Lekin uning ko'ngli aql va mantiq so'ziga quloq osmaydi. Ishq dardini totli may kabi simirish-dan go'yo lazzatlanadi, ba'zan hasratdan bo'g'ilib, majolsizlanadi. Unutish uchun hujraga qamalib, kecha-kunduz kitob mutolaa qiladi. O'nlab kitobni hazm qilgandan so'ng, yana o'z ishqining alamli, tuganmas dostoniga beriladi...

Bukun ham ertadan buyon dilgirlikdan o'zini ovutish uchun bir necha marta kitoblarga murojaat etdi. Sho'x, yengil g'azallardan boshlab, eng bosh qotiruvchi og'ir masalalarga doir asarlarni varaqladi. Lekin bir ozdan keyin yana tashladi, birdan qalam va qog'oz olib, Dildorga xat yoza boshladi. Alamli so'zlar qog'ozdan qog'ozga toshdi. Sodda qishloq qiziga yozilgan muhabbatnomani turli shoirlardan o'nlab

go‘zal baytlar, ishqqa doir o‘nlab chuqur ma‘noli ruboiylarning gavharlari bilan bezadi. Bir oz yengil tortdi. Keyin nomani o‘qidi. Ko‘zlaridan qaynoq yoshlar tomchiladi: «Nima foydasi bor? Bu so‘zlar uning qulog‘iga aslo yetishmaydi! Hukmdor gulni g‘ijimladi, keyin biror xushomadgo‘y mansabdorning yoki sodiq navkarning quchog‘iga uloqtirdi!» Bir dasta qog‘ozni — har bir nuqtasida qalbinnig qoni uchqunlangan maktubni tokchaga tashladi-da, holsizlanib, yostiqqa bosh qo‘ydi.

Eshikdan kuylab, shodlik bilan Zayniddin kirdi. Uning ko‘zlari shira kayf bilan suzilardi.

— Assalom, hazrati olim!

— Kel, jonimning gulshani! — yengillanib, boshini ko‘tarib o‘tirdi Sultonmurod.

Zayniddin o‘z do‘stiga diqqat bilan ko‘z tikib, uning qarshisiga — po‘stakka o‘tirdi. U bir haftadan buyon har kun goh shoirlar, goh xattotlar, goh o‘zga Xuroson xalqi bilan turli majlislarda vaqt kechirib, yor-oshnolaridan xabar olgani bukun yo‘lakay madrasaga kirgan edi. U endi darslari bilan juda siyrak mashg‘ul bo‘lib, xattotlik san‘atida mahoratini oshirishga tirishar, musiqiy bilan ko‘proq shug‘ullanar edi. Lekin chiroyli yozilgan kitoblarni qadrllovchi kishilar ko‘p bo‘lgan Hirotda yaxshi xattotlar ham oz emasdi. Zayniddin bu san‘atda katta iste‘dod ko‘rsata boshlagan bo‘lsa ham, lekin raqqosday sho‘x, qushday yengil bo‘lganidan bir necha kunda qilin bir devonni g‘alatsiz va go‘zal bitadigan devkor, chidamli xattotlar orasida obro‘ ham tanga qozonish og‘ir edi. Zayniddin ba‘zan tanish shoirlarning devonlarini yozar, ba‘zan kitobfurushlarning buyurtmasi bo‘yicha terma kitoblarni yozib berardi.

— Betobmuse? — tashvishlanib so‘radi Zayniddin.

— Yo‘q, faqat g‘aribmen... — javob berdi zo‘raki kulgi bilan Sultonmurod.

— Do‘stim, sening dilingda hasrat va firoq bor, — dedi Zayniddin kuyunib, — ko‘pdan buyon sezamen.

O‘z tiling bilan e’tirof etishingni kutib, so‘ramagan edim. Ichingdagi olov bukun yuzlaringda alangalanmoqdadir. Yashirmoq behuda!

Sultonmurod ko‘zlarini yarim yumib, asta xo‘rsindi. U dardini ochmoqqa qo‘rqqanday taraddudlanardi. Zayniddin do‘stlikni o‘rtaga solib, shikoyatlanib, qistagach, u qaddini bir oz ko‘tarib, tokchadan haligi xatni olib, do‘stining qo‘liga tutqazdi.

— Tuzalmas dardimning g‘oyat rangsiz ta‘rifidir bu, — dedi u boshini quyi solib.

Zayniddin sakkiz varaq qog‘ozga yozilgan xatni diqqat bilan ichida o‘qiy boshladi. Asta-asta qo‘llari qaltiradi, yuzlariga g‘am toshdi. Xatni bitirgandan keyin, hayajon va achinish bilan do‘stiga qaradi. U go‘yo behush edi.

— Bu qanday xokisorlik! — koyinib gapirdi Zayniddin. — Nega bu dardni u vaqtda menga ochmading?

— Taqdirning temir panjasini yoqamdan, ajrata bilarmiding? — dedi bir on sukutdan keyin Sultonmurod.

— Mumkin edi, — qat‘iyat bilan javob berdi Zayniddin, — men u sahro go‘zalining bo‘ynidan zulm domini<sup>1</sup> uzib tashlamoqqa qodir edim. To‘g‘onbek u vaqtlarda og‘ir vaziyatda qolgan edi. Men u johilni har maqomga yo‘rg‘alata olar edim.

— Hayhot! — xitob qildi dard bilan Sultonmurod. — Muhabbatimning guli o‘z rang va ziyosini il-dizlari bilan hasrat manбайдan olgan ekan! Qayg‘u kosasi butun umrga yetgulikdir!

— Bu maktub oshiqqlarning muqaddas kitobchasi bo‘libdi, — dedi Zayniddin qog‘ozlarga tikilib, — Yubormoq niyatidamisen?

— Iloji yo‘q, ham befoyda! — javob berdi Sultonmurod.

Bu fikrni Zayniddin ham boshini qimirlatib tasdiqladi. Yana uni koyidi, g‘azablandi, keyin har ikki do‘st uzoq jim qolishdi. Bu og‘ir va hazin sukunat edi.

---

<sup>1</sup> Zulm bog‘ichini, tuzog‘ini.

Nihoyat, Sul-tonmurod Hirot voqealari haqida gapirishni so'radi. Har xil yangi va qiziq voqealar, fuqaro orasidami, yuqori oqsuyaklar muhitidami, qayerda bo'lmasin, tezda Zayniddinning qulog'iga yetar edi. Bu voqealarni u juda ustalik bilan hikoya qilib berardi. Sul-tonmurodni ko'pincha olimlar, shoirlar muhitidagi yangiliklar qiziqtirishini bilsa ham, Zayniddin uni yupantirmoq uchun bu gal jo'rttaga mayda va qiziq hodisalarni aytmogga qaror qildi.

— Rub'i maskunda<sup>1</sup> Hirotdek shahri azim yo'q, deb behuda aytmaydilar, — dedi u har vaqtdagidek sho'x uslub bilan so'zlamogga tirishib. — Chunki bir hafta ichida ro'y bergan eng nodir hodisalarni naql etmogga umrim ham yetishmas... Xo'b, daryodan bir qatra deganlaridek, biron nima aytmak mumkin. Shu kunlarda shahrimizda bir eshak paydo bo'ldi. Uning ta'rifida ba'zi shoirlarimiz ruboyilar ham bitibdilar. Ne balo eshak! Shamoldan tez, suvdan silliq yuguradi. Yem-xashak o'rniga kishmish berilsa, xo'r ketmas aslo, deydilar. Uning bahosi hozir ming tangaga chiqibdi. Men hanuz ko'rmadim, ammo guvohlar bisyor...

— Demak, bu eshakning sohibi Hazrat Isodan ko'ra xiyla baxtli ekan!<sup>2</sup> — dedi Sul-tonmurod.

— Balli! — boshini qimirlatib, davom etdi Zayniddin. — Tunov kun Badiuzzamon Mirzo o'z chortoqi<sup>3</sup>da ruhafzo bir majlis tartib bermishdir. Jahonning nodiraiy davronlari sho'x suhbat qurmishlarki, unday majlis jahon yaratilgandan buyon na mag'ribda, na mashriqda hech bir shahzodaga muyassar bo'l-magandir. Ahli nag'madan ustod Qulmuhammad Udiy, Shayx Noiy hozir ekan. Shayx nayda dilpazir bir

---

<sup>1</sup> DUNYO MA'NOSIDA.

<sup>2</sup> Sul-tonmurod bu yerda mashhur hikmatli so'zga ishora qiladi:

Ilohi qoraysin falakning yuzi.  
Jafo birla juftu, vafo birla toq,  
Isodek kishiga berib bir eshak,  
Eshakdek kishiga berur ming buroq!

<sup>3</sup> Bino, ko'shk.



maqomni g'oyat go'zal chalibdi. Ustod Qulmuhammad bu maqomni g'ijjakda chalmoqqa harakat qilibdi. Ammo silliq chiqmabdi. Qulmuhammad debdiki, g'ijjak buzuqdir. Shayx Noiy darhol g'ijjakni ustod qo'lidan olib, u maqomni shunday mahorat bilan chalibdiki, majlis ahli zavqdan faryod ko'taribdi.

— Shayxning nayidan osmondagi yulduzlar erib, qatra-qatra to'kular, nainki odamzod bolasi! — dedi yengillanib Sul-tonmurod. — Ammo ustod Qulmuhammadning ham mahorati balanddir. U musiqiyda ijodchidir. Axir g'ijjakka uch qilni kim taqdi? Navoiy janoblarining zavqlari, musiqiydagi bilimlari soyasida ular hali ko'p ajoyib narsalar ixtiro qilurlar...

— Bu to'g'rida bahsga hojat yo'q, — dedi Zaynidin.

— So'zlay ber, so'zlaring saboday ko'nglim g'unchalarini ochmoqda!

— Taniysenmi Mirzo Pirimni? — so'radi Zaynidin.

— Husnda yagona derlar, ammo ko'rmadim, — javob berdi Sul-tonmurod.

— Husndan tashqari, uning yana ko'p fazilat-lari bor. Qonun<sup>1</sup> chalmoqda hech ustod uning yovug'iga yo'lolmas. Mirzo Pirim shul darajada xushshbat yigitki, bir daf'a suhbatida bo'lgan odam o'zga bilan suhbatni orzu qilmas. Qara, bu yigitni marhum podshoh Abusayid Mirzoning xotinlaridan Ruqiyabegim o'z xizmatiga olgan ekan. Ruqiyabegim og'izda biron tishi, sochida biron tola qorasi qolmagan a'juba kampir... Boxusus, bu kampir sho'x bazmlar yasab, may va musiqiy olamida yashaydi. Pardasiz she'rlar ham ayta-di. Derlarki, uning majlisidan erkaklar ham sharman-da bo'lib chiqarlar. Ruqiyabegim Mirzo Pirmga oshiqi beqaror bo'libdi. O'ziga yuz turlik zeb-oro berib, muzdan olov yondirmoqqa urinibdi. Yigitlik husni va ko'ngil g'ururini har nimadan yuqori qo'ygan Mirzo Pirim u a'jubaning noz-ishvasidan nafratlanur.

---

<sup>1</sup> Musiqa asbobi (muh.).

U makkoraning panjasiga tushmaslik maqsadida Mirzo Pirim Hirotidan qochur, Balx, Astrobod, Nishopur tomonlarida musofir bo'lib yashar... Achchig'langan Ruqiyabegim kishilar yuborib, bechora yigitni shu kunlarda Hirotga keltiribdi. U der emishki, mening uch yuz ming tangamni Mirzo Pirim behuda sarf qilibdi... Bu tuhmatdan yigitning ahvoli bisyor tang. Oqibati ne bo'lur, bilmaymen.

— Astag'firullo! — yoqasini ushladi Sultonmurod.

Zayniddin Ruqiyabegim haqida bir shoir to'qigan ruboiyni o'qib berdi. Ruboiy shunday behayo, bepar-da va Ruqiyabegimning sifatiga shunday mos ediki, Sultonmurod beixtiyor qahqaha urib, kulib yubordi. Zayniddin ham kulgidan namlangan ko'zlarini dast-ro'mol bilan artib, darichadan tashqariga qaradi. Havo bulutligidan vaqtni tayin qilolmay, Sultonmuroddan so'radi.

— Umid qilgan edimki, bukun men bilan bo'lursen, deb, — norozilik bilan dedi Sultonmurod. — So'zla, yana ne gaplar bor? — Sultonmurod do'stining qo'lidan ushlab, o'tqazib qo'ydi.

— Xo'b, yana bir nafas o'tirayin. Lekin men qayga borsam, menga hamroh bo'lursen.

Sultonmurod, ko'ramiz, deganday yelkasini qisdi.

Zayniddin do'stining qistovi bilan yana ko'p hangomalar, latifalar so'zlab, nihoyat, o'rnidan turdi.

— Tez bo'l, isqarlot jomani kiygil, dastorni o'ragil!

— Qayerga? — qo'zg'algusi kelmay so'radi Sultonmurod.

— Umr bo'yi ko'ksingda yig'ilgan g'ussalarni yo'qotmoqchi bo'lsang, yura ber.

— Sho'x, suronli suhbatlarga ko'ngil moyil emas. Sen bir nafas dilimga quvvat berding, kifoya.

— Sening Dildor go'zaling o'zgalarga dildorlik ko'rsatmoqda. Taqdirga tan ber, — dedi u qo'llari bilan tanbehlab, — sen uni unut! Men seni, istasang, Hirotning pari qizlari bilan tanishtiramen. O'n gulni hidlab, birini uzasen!

— Koshki uni unutmoq mumkin bo‘lsa! — dard bilan dedi Sultonmurod. — Dildor go‘zallar samosining oftobidir!

— U oftobni bulutlar qoplagan!

Sultonmurodning ko‘zlariga yana g‘am toshdi. Zayniddin unga so‘z kor qilmasligini bilib, qo‘lidan tortdi.

— Sen hali Hirotning xursandchiliklaridan xabarsizdinsen,— dedi u kuyunib.— Keksalar aytadiki, zamonamizdagi Hirot hayoti Amir Temur va Ulug‘bek Mirzo davridagi Samarqand hayotiga o‘xshamoqda... Yur, men seni fohishalar bazmiga emas, ajoyib bir jamiyatga olib borurmen: shatranj ustodlari bilan tanishtirurmen.

Sultonmurod o‘rnidan turib, yaqinda bir mulozim orqali Navoiy yuborgan yangi, qimmatbaho shohi to‘n-ni kiydi. Qoziqqa ilingan sallani olib, boshiga o‘rar-kan, dedi:

— Bir vaqtlar Samarqandda hatto shayx ul-islom o‘z ziyofatlariga parivash ayol sozandalarni taklif etar, may ichar, shatranj o‘ynar ekan. Samarqandda tahsilda ekanmen, u vaqtiki hayot to‘g‘risida ajib hikoyalar eshitmishdim.

Madrasa yonidagi maydonda qalin olomon Hirotning mashhur devonasi — mavlono Darvesh Shamrezni qurshagan. Sochlari o‘sib yelkasiga tushgan, ko‘zlari yoniq, juldur kiyimli devonaning shuhrati baland edi. Uni ko‘plar karomat sohibi, aziz odam, deb hurmat qilsalar, boshqalar uning go‘zal latifalari, hikmatli so‘zlari, o‘tkir hajvlari uchun sevar edilar. Devona baland ovoz bilan chiroyli g‘azallar o‘qir, axloqiy fikrlar so‘ylar, ayni zamonda birdan o‘tkir latifa, hazilga o‘tib, hatto beadab so‘zlarni ochiq gapirib, xalqni qattiq kuldirar edi. Sultonmurod bilan Zayniddin devonani qurshagan odamlar orqasida bir qancha vaqt turib, so‘ngra jo‘nadilar. Ular Kozargoh<sup>1</sup>ning katta yo‘liga, Chashmai Mohiyonga boradigan yo‘lga tushishdi. Yo‘lning har ikki tomonida bir-biriga tutash

<sup>1</sup> Hirotida bir mavzening nomi.

bog'chalar, kichik-kichik ekin maydonlari, mevazorlar, chamanlar bor edi. Bularning oralarida, yaproqlari to'kilgan daraxtlar o'rtasida ikki qabatli, chiroyli naqshkor yengil ko'shklar, beklarning, davlatmandlarning mustahkam serhasham imoratlari, fuqaroning past-baland, eski-tuski paxsa uylari ko'rinar, yo'lda qatnovchilar ko'p edi. Sharobxonalarda shovqin; o'zbek, fors qo'shiqlari yangrardi. Bir farsax keladigan Kozargoh yo'lining yarmidan o'tganda, Zayniddin so'l yoqdagi mahalla ko'chasiga qayrildi. Har ikki tomonida oddiy bir qabatli fuqaro uylari cho'zilgan qing'ir ko'chaning boshida aroba sig'adigan katta, bo'yoqli darvozaga kirishdi va adil tizilgan sarvarlar bo'ylab qish mavsumida ham ko'zga latif ko'ringan katta bog'ni o'tishdi. G'ishtdan yasalgan, devorlari naqshli, bir qabatli yangi binoga yetganda, davlatmandlarga xos ravishda, puxta va asil kiyimlar kiygan yosh yigitcha kibrli tabassum bilan chiqib, qarshi oldi. Bu — shaharning katta mulkdorining o'g'li edi. Hirot bozorida aksar do'konlarning egasi bo'lgan otasi qaysi bir vaqtda, qandaydir bir shahzodani chorlaganda, dasturxonga turli-turli halvolardan ming toboq qo'yib, shahzodani taajjublantirgani bilan ko'proq mashhur bo'lgan edi. Bu kungi o'ltirishni uning o'g'li — shatranj havaskori tuzgan edi. Darichalari keng bog'chaga qaragan xonadan boyvachcha kibrli tabassum bilan chiqdi-da, ba'zi o'ltirishlarda uchrashib, suhbatlari yoqib qolgan Zayniddin bilan takallufsiz ko'rishdi. Mag'rur boyvachcha Sul-tonmurodni tamom iltifotsiz qoldirmasin, degan andisha bilan va ayni vaqtda o'z e'tiborini oshirish uchun Zayniddin o'z do'stini tavsiya qildi ham uning olimligini ustalik bilan maqtab ketdi. Sul-tonmurod boyvachcha bilan beparvo ko'rishar ekan, ayni zamonda qizarib, Zayniddin-ning maqtovlarini hazilga aylantirishga tirishdi. Boyvachcha endi xush muomila bilan xona ichiga boshladi.

Xitoy asboblari, Eron va Hindiston ipaklik mollari va nodir jihozlar bilan boy bezalgan xonada odam

ko'p edi. Bular orasida Hirotning hali tanilmagan bir necha yosh shoirlari, ipak va zarbof to'nli bekdodlar, davlatmand oilalarga mansub olifta yigitlar ham bir ko'p shatranj ustodlari va havaskorlar o'tirishardi. Goh podshohning yangi soldirayotgan saroyi Bog'i Jahonoro haqida, goh Navoiyning yangi bir g'azali va unga Xo'ja Abdullo Marvoriy tomonidan yaratilgan kuy haqida, goh Islim barlosning shatranj o'ynagan vaqtidagi qiliqlari to'g'risida so'z borardi. Nihoyat, sabrsizlik bilan kutilgan vaqt yetdi. O'rta chor burchak shol ro'mol yozildi, uning ustiga shatranj taxtasi va bir childirma ham bir ixcham chiroyli xanjar qo'yildi. Atoqli ustodlardan mavlono Xo'ja bilan Amir Xalil beparvolik bilan chordona qurib, fil tishidan ishlangan shatranj donalarini taxtaga tera boshladilar. Ularning ikkisi ham o'rta yoshli bo'lishlariga qaramay, o'spirin, sho'x, tannoz yigitlarday olifta kiyingan edilar. Odamlar keng davra bilan o'yinchilarni qurshadi. Sultonmurod Zayniddinning tizzasini turtib, taajjublangan ko'zlari bilan xanjarga va childirmaga ishorat qildi. Zayniddin tabassum bilan uning qulog'iga shivirladi:

— O'yin vaqtida ustodlarga luqma tashlay ko'rma! Sultonmurodning taajjubi yana ortdi.

— O'rgatuvchilarga garchi xanjar urmasalar ham, lekin qattiq ranjiydilar... — ta'kidlab shivirladi Zayniddin.

— Childirma-chi? Bayon qilsang-chi! — yana turti Sultonmurod.

— Sabr qil, ko'rursen...

O'yinning boshlang'ichi aytarli qiziq bo'lmasa-da, ustodlar o'ynagani uchun hamma ko'zlar shatranj taxtasiga qadalgan edi. Lekin o'yin tez qizib ketdi. Amir Xalil hujumga o'tdi. Hayajondan tomoshabinlarning rangi o'chib, ko'zlari yona boshladi. Mana, Amir Xalil o'z raqibini chuqur taraddudga solib, shoshirib qo'ygach, sezilar-sezilmas tabassum bilan atrofga mag'rur ko'z yugurtdi-da, birdan xush ovoz bilan shatranj o'yinining naq hozirgi holatiga doir bir bayt o'qidi.

Tomoshabinlarning hayajoni yana kuchaydi. Payvasta qoshlarining o'rtasi tugunchak yasagan mavlono Xo'ja og'ir vaziyatdan qutulish uchun yagona to'g'ri yo'lni topdi. Butun fikri bilan o'yinni ta'qib etib turgan Sultonmurod do'stiga ma'nodor qarab, o'yinchiga qoyil qolganini bildirdi. Mavlono Xo'ja o'yinning shu darajasini va qutulishni mohir tasvirlagan bir baytni o'qidi. Buni birinchi martaba eshitganlar zavqlanib, bir-birlariga pichirlab, baytni takrorlamoqqa, yodlamoqqa tirishdilar. Amir Xalil qovog'ini solib, o'z yurishini o'ylab turarkan, mavlono Xo'ja o'rnidan irg'ib turdi. Childirmani chalib, katta uyni yangratib yubordi. Odamlar o'zlarini orqaga tashlab, davrani kengaytirdilar. Mavlono Xo'ja o'zi childirma chalib, ayni vaqtda shunday chiroyli raqs etdiki, o'ltirganlar beixtiyor qichqirishib yuborishdi. U o'tkir kinoyali, ma'noli va boshqa odam tomonidan takrorlanishi imkonsiz bo'lgan harakatlar qilib, o'rniga o'tirdi. O'yin keskinlashib ketdi. Har ikki ustod shatranj haqidagi baytlar, ruboiylarni mo'lroq socha boshladilar. Bir donani ortiq olgani endi raqsdan boshqa, shatranjga oid bir necha bayt aytar edi.

Ular yolg'iz shatranjdagi mahoratinigina ko'rsatish uchun emas, balki shatranjga doir ko'proq she'r bilanliklarini ko'rsatish va uni o'z o'rnida ayta olish uchun ham kurashar edilar. Tomoshabinlarning-da aksari o'yindan ko'ra ko'proq shu tomonga berilgan va shuning uchun yig'ilgan edi. Mana, Amir Xalilning qo'li balandlangan vaqtda u childirma chalib, she'r aytib, mavlono Xo'ja qarshisiga o'tirdi. Shunday kinoyali harakatlar ko'rsatdiki, odamlarning kulgidan ichaklari uzilayozdi. Nihoyat, o'yin durang bilan tugadi. Ustodlar samimiy tabassum bilan bir-birlarining qo'llarini siqib, o'rinlaridan turishdi. Hamma ularni qizg'in tabrikladi.

Ovqatdan keyin odamlar birin-sirin tarqala boshlar ekan, Sultonmurod o'rnidan turdi. Uy sohibi va bu yerdagi ba'zi do'stlari yonida qolgan Zayniddin bilan xayrlashib jo'nadi. Qosh qorayganda, madrasa eshigi-

da xomush o'tirarkan, uning qoshiga sodda, qishloqi yigit keldi. Bu Arslonqul edi.

— Taqsir, To'g'onbek deganni taniysizmi? — tortinchoqlik bilan sekingina so'radi Arslonqul.

Sultonmurod «taniymen», dedi-da, yana shubhalanib, so'radi: «Men uni tanishimni qayerdan bildingiz?»

— Shu madrasada ba'zi tanishlari bor edi, deb aytdi odamlar. U hozir qayerda?

— Maqsadingiz nima? To'g'onbekni nima qilasiz? — o'rnidan turib, qiziqish bilan so'radi Sultonmurod.

Arslonqul:

— E, taqsir qissamiz juda uzun... — dedi.

Sultonmurodning qiziqishi ortdi. «Uzun qissa»ni tinglamoqqa vaqti ham musoida berar edi. Yigitni boshlab o'z hujrasiga olib keldi. Tokchadan chaqmoqtoshni topib, urina-urina sham yoqdi. Dam unga, dam qalin kitoblarga qaragan Arslonqulga kulib, dedi:

— Qulog'imiz sizda, boshlayvering.

Arslonqul dastlab o'z qishlog'i, tirikchiligi, sevgisi to'g'risida so'zlab, birdan Dildor nomini tilga olishi bilan Sultonmurodning rangi bo'z oqarib, ichdan titroq bosdi. Arslonqul o'z dardi bilan qovrilib, yerga qarab so'zlagani uchun olimdagi bu o'zgarishni sezmedi. Mirzo Yodgor voqeasi zamonlarida bir kechada noma'lum odamlar tomonidan olib qochilgan yori haqida gapirar ekan, Sultonmurod uning butun azamat gavdasida qayg'u barq urganini fahmladi. Keyin Arslonqul Dildorni To'g'onbek olib qochganini eshitib, uni qidirib Hirotga kelgani, bu yerda topolmay, ba'zi odamlarning gumonicha, qidirib Astrobodga borgani, undan Balxga o'tgani, yo'llarda chekkan mashaqqatlari haqida so'zladi-da, «uf» tortib, boshini ko'tardi.

— Taqsir, tobingiz qochdimi shu topda? — so'radi Sultonmurodga tikilib.

Bu savol qarshisida Sultonmurod qattiq sarosimada qoldi. Boshini egdi. Tomog'ini bo'g'gan dard bilan, qaltirab, javob berdi:

— To‘g‘ri aytasiz, xastamen...

Arslonqul bir nafas sukut etdi-da, o‘rnidan qo‘z-g‘alarkan, so‘radi:

— To‘g‘onbekning qayerda ekanini bilmaysiz shekilli?

— O‘tiring, o‘tiring, so‘zlashamiz. To‘g‘onbekni nima qilasiz?

— Men u itni topib, qiz qayda, tirikmi, o‘likmi, yoki biron o‘zga yurtga sotib yuborganmi — bilmoq tilaymen. Qilgan yomonligi uchun mendan yolg‘iz yomonlik ko‘radi, albatta.

— To‘g‘onbek ko‘p oylardan buyon izsiz yo‘qolgan edi, — dedi o‘zini tutishga tirishib Sultonmurod. — Yaqinda yana shahrimizda ko‘rinib qoldi. U davlatning ulug‘ odamlari bilan juda inoq. Bilmadim, undan o‘ch olmoqdan bir manfaat chiqarmikan?.. Lekin suygan qizing uning qo‘lida emas.

— Yaxshi bilasizmi? — so‘radi ko‘z yoshlari bilan Arslonqul.

— Bilamen.

— Qizning holi nima bo‘lganidan xabaringiz yo‘qmi?

Sultonmurod, go‘yo boshi yorilib ketayotgan kabi, qo‘llari bilan peshonasini mahkam siqdi. Xiyla vaqt sukut etib, o‘yladi. Nihoyat, garchi achchiq bo‘lsa ham, haqiqatni bildirmoqqa qaror qildi:

— Qiz podshohga tortiq qilingan... — dedi u ichdan xo‘rsinib.

Arslonqulning tusida qon asari qolmadi. Ko‘zlari allaqanday tutunlanib ketdi.

— Ey, sho‘r peshonam! — dedi u titroq, hazin ovoz bilan. — Dildordan hamishalik ayrilibmen-da... Bilamen, eshitganmen, chiroyli qizlarni tortiq qilib, podshohdan katta amal oladilar! Xayr, vaqti-soati kalganda, To‘g‘onbek bilan hisoblasharmiz?

Sultonmurod g‘amg‘in bir ohang bilan so‘zlab, Arslonqulga taskin berishga tirishdi, jabr-zulmni qarg‘adi.

Arslonqul ketmoq uchun o‘rnidan turdi, Sultonmurod uni eshikkacha kuzatib, dedi:



— Endi oshna bo‘ldik, yo‘qlab tursang, minnatdor bo‘lurmen.

Arslonqul tashakkur bildirib, qorong‘ilikda yo‘qoldi. Sul-tonmurod sham oldida tiz cho‘kib, butunlay hushsiz holda, kechinmalariga botdi, boshi aylanib, ko‘z oldi qorong‘ilashdi. «Bu begona yigit qayerdan paydo bo‘ldi? Kim uchrashtirdi? Nega u uning Dildorini sevadi? — hozir ro‘y bergan butun voqea allaqanday tush, xayol, talvasa bo‘lib ko‘rindi...

Qo‘shni hujra sohibi kirib, unga murojaat etganda, garanglanib telba ko‘zlarini uzoq tikib qoldi. U, Navoiyning xodimlaridan biri namoz asrda kelib, uni taklif etib ketganligini va u, oz qolsa, unutayozganini bildirib, tezroq jo‘nashga undadi-da, chiqib ketdi. Sul-tonmurod o‘z ahvolining parishonligidan qo‘rqib, borishga ikkilandi. Lekin Navoiy da‘vatini yerda qoldirmoqni gunoh va adabsizlik hisoblab ham uning suh-bati bilan ko‘nglini yupantirmoq umidida hujradan chiqdi-da, qorong‘ida loy-poyga qaramasdan, ildam yurib ketdi.

Shoirning odatda suhbat quradigan xonasiga kirganda, gap chortang edi. Sul-tonmurod kechikkani uchun uzr so‘rab, hamma bilan ko‘rishdi. Navoiy unga o‘z yonidan joy berdi. Har xil taomlar, shirinliklar, yaxshi asralgan anor, olma, noklar bilan to‘la dasturxonga taklif etdi. Majlisda butun Xuroson va o‘zga mamlakatlarga dong‘i ketgan bir necha ulug‘ olimlar ham ko‘p vaqt shoir bilan birga bo‘ladigan shoir Shayxim Suhayliy, shoir Hofiz Yoriy, Hiloliy, darvesh tabiatli qari Hasan Ardasher va Navoiy xizmatida bo‘lgan fazilatli ba’zi mulozimlar bor edi.

Uyning oltin halli shamsa’si, devorlardagi rangorang naqshlar katta shamdonlarda qo‘sha-qo‘sha yong-an marmar shamlarning nurida ochilib, yashnab, she’r kabi, musiqiy kabi, hislarni, zavqlarni qanoat-lantirar edi.

---

<sup>1</sup> Uyning shipiga quyosh shaklida tushirilgan naqsh.

Majlis ahlining aksari uch tilda — o‘zbekcha, forsha, arabcha — qay biri qulay kelsa, bab-baravar, bemalol so‘zlashardilar. Olimlarning deyarli hammasi, o‘z ilmlaridan tashqari, yana bir ko‘p ilmlarni chuqur bilardi. Ularning orasida ilm bilan san‘atni birlashtirganlar, masalan, go‘zal raqs etuvchilar, musiqiyda kuylar yaratganlar, ingichka, mohir naqqoshlar ham bor edi.

Navoiy, o‘z odatiga muvofiq, mehmonlardan quyiroqda o‘tirdi. U sokin, kamtarin, muomilada nozik, lekin ulug‘ sifat; butun olimlar uning ma‘lumotining jamiki ilmlarda juda chuqur ekaniga qoyil bo‘lsalar, har yerda tasdiqlasalar ham, Navoiy ma‘lumotfurushlik etmas, ilm sohasida ko‘proq o‘z nuqsonlaridan gapiradi. U har kimning fikrini sabr va diqqat bilan tinglaydi.

Biron masalada kishi xato gapirsa, kinoya, piching qilmasdan, ko‘pincha: «Kaminaning nazarida, bu nuqtani shunday izohlamoq mumkin», deb xatoni to‘g‘rilamoqqa kirishadi.

Suhbat har yoqlama, mazmundor, maroqli davom etdi. Suqrotning axloqqa doir ta‘limoti, uning insoniy fazilatlari, Arastuning asarlari, «Anosir arbaa»<sup>1</sup>, Ibn Sinoning tibga doir nazariyalari, Ulug‘bekning «Zich»i, fiqh masalalari va hokazo ustida jonli tortishuvlar, fikr olishuvlar bo‘ldi.

Sultonmurod shunday majlislardan chiqqan vaqtda uchragan do‘stlariga, kulib, ko‘pincha taassurotini shunday bayon qilardi: «Falsafa va ilm ul-mantiqdan boshlab to tush ta‘biri va ilmi romga qadar<sup>2</sup> — har bobda bag‘oyat mufid<sup>3</sup> munozara bo‘ldi».

Majlisga yangi mehmonlar keldi. Bular mavlono Shahobiddin bilan shoir mavlono Binoiy edi. Mavlono Shahobiddin — Xuroson olimlari orasida ilmdan eng benasibi, lekin eng mutakabbiri. U ilm dunyosiga yolg‘iz shallaqilik bilan kirgan. Binoiy iste‘dodli shoir, lekin tili achchiq, o‘jar.

<sup>1</sup> «To‘rt unsur».

<sup>2</sup> Folbinlik.

<sup>3</sup> Foydali.

Mavlono Shahobiddin yarqiroq to'nini halpillatib, yuqoriga o'tdi. Go'yo shogirdlarning o'ltirishiga kirib qolgan domladay, kekkayib o'tirdi. Past bo'yli, kichik, lekin miqti gavdali, botiq ko'zlari besaranjom o'ynagan, pahmoqsoqol, pala-partish kiyingan mavlono Binoiy lablaridagi istehzoli kulgi bilan hammaga bir qarab qo'ydi-da, soxta bir kamtarlik bilan kichik qaddini bir oz bukib ko'rishdi va quyiga, to'g'ri kelgan joyga o'tira qoldi. Navoiy hammaga ko'rsatgan xush muomalasi bilan uni mehmon qilishga tirishdi. Binoiy ham xiyla vaqtgacha umumiy gapga quloq solmasdan, saralab-saralab taom yemoq bilan ovora bo'ldi. Mavlono Shahobiddin, aksincha, dasturxonga qiyo boqmasdi. Go'yo masalani oxirda yolg'iz o'zi yechib berishga ishongan odamday, «churq» etmasdan, donishmand bir tur bilan munozaraga quloq soldi. Lekin majlis yangi-yangi masalalarga o'tdi. Mavlono Shahobiddin labini ham qimirlata olmadi.

Shoirilar ilmi badi' haqida so'z ochdilar. Kimdir mavlono Lutfiyning sho'x-o'ynoq musiqiyli bir g'azalidan ba'zi baytlarini o'qib, maqtay boshladi. Boshqa biri Navoiyning butun Hirot kuylaydigan bir g'azalini va uning kuyini maqtadi. Mavlono Shahobiddin bu so'zlardan zerikkandek, og'zini katta ochib, homuza tortdi.

— Bilmadik, turkiy she'rning istiqboli ne bo'lur ekan? — dedi u endi oq tusha boshlagan ko'rkam soqolini serkillatib, kulib. — Har holda ba'zi shuaroning bu boradagi harakatlarida oz ma'no ko'rumen... Sopalak tosh bilan Badaxshon la'li va aqiqi boshqaboshqa narsadir.

— Xayr, taqsir! — murojaat etdi unga darvesh tabiatli Hasan Ardasher. — Turkiyning balog'at va kamoloti mavlono Lutfiyning, xususan Alisher janoblarining g'azaliyotida oftob kabi namoyon bo'ldi. Bu yangi sozning sehrli sadolari forsiygo'ylarni, filhaqiqat, hayratga solmoqdadir. Zavq va idrok sohibi bu haqiqatni aslo inkor qila olmag'ay.

— Firdavsiy ham Nizomiylarning zaboni asli zoti-

da ilhom va she'r uchun yaratilmishki, bu haqiqatga butun tarix guvohdir, butun jahon unga qoyildir. Bu da'vo hech vaqt isbot talab qilmas, — dedi kekkayib mavlono Shahobiddin.

Mavlono Binoiyning botiq ko'zlarida kinoya, nash'a yonib ketdi. U beo'xshov o'ralgan, katta sallali boshini ko'tardi.

— Ulug' zotlar, — dedi u so'zini chertib. — hammalaringiz Chorsu orqasidagi bizning chapdast temirchilar ko'chasidan o'tgansizlar, ularning «taraq-turug'i» quloqlarga mix qoqqandan battar azob berur. O'zbek g'azallarini tinglaganda ham ayni azobni his eturmen!

Binoiy o'zbek tili va she'ri haqida so'z borganda, hamisha shu ravishda gapiradigan bo'lgani uchun ham odamlar undan yana dag'alroq, behayoroq gap kutganlaridan, ahamiyatsiz kulibgina qo'yishdi. Umu-man, butun Xuroson, Movarounnahr olimlari va shoirlari kabi, majlisdagilarning ham o'ndan to'qqizi forsiyparastlar edi. Ular uchun o'zbek tili go'yo qalamga yot edi. Fors tilining go'zalligi, boyligi, shirinligi haqida e'tiqod ularning qonlariga singib ketganda. Hatto Navoiy g'azallarini har qanday ulug' fors shoirinikidan yuqori qo'yadigan va Navoiyning sozida o'z ona tilining jonli, qudratli musiqiysini tuygan Sultonmurod ham qo'lga har vaqt qalam olarkan, beixtiyor ravishda fors yoki arab tiliga murojaat etardi.

Yaqindagina Hirotga kelib, hali Navoiy asarlari bilan yaxshi tanish bo'lmagan olim mullo Modar Zoda'y mullo Usmon, hamma ko'zlardan o'ziga «ofarin!» qidirib jovdiragan mavlono Binoiyga jirkanib qaradi-da, Navoiyga murojaat qildi:

— Alisher janoblari, siz zullisonaynsiz, siz uchun «Foniy»mi, «Navoiy»mi dilbardir?

— Haq so'zni aytsak, — dedi Navoiy jiddiy, lekin ingichka tabassum bilan, — biz uchun o'z tilimiz dilbardir, demak, «Navoiy» dilbardir.

— Ne uchun? — shoshilib so'radi mullo Modar Zoda'y mullo Usmon.

— «Foniy» go‘zal, «Foniy!» — qichqirib qo‘ydi mavlono Binoiy og‘zidan ovqatini sachratib.

Navoiy o‘tkir istehzo bilan mavlono Binoiyga bir qarab qo‘ydi-da, so‘zida davom etdi:

— Biz fors tilining qudrat va ahamiyatini, u tildagi asarlarning husni va salobatini hech vaqt inkor etmadik. To go‘daklikdan boshlab fors tilida ham qalam surmoqdamiz. Ammo tilimizning afzalligi biz uchun ulug‘ haqiqatdir. Biz go‘daklikda bu haqiqatning ishqini ko‘nglimizga jo qilganmiz, o‘lganimizgacha bu ishqni saqlaymiz! Shaharlarni, qishloqlarni, sahro va tog‘larni to‘ldirgan el-ulusimiz, urug‘-aymog‘imiz bor, uning o‘z zavqi, fahmi-idroki bor. Biz elimizning zavqini, tabiatini nazarda tutib, uning o‘z tilida qalam suraylikki, uning ko‘ngli fikr gullari bilan to‘lsin. Turkona soz bilan tarannum etaylikki, elning yuragi mavjga kelsin. So‘z gulshanida o‘zga ellar qatorida bizning elimiz ham bahramand bo‘lsin. Fors ash‘ori elimizning zavqi uchun begonaroqdir. Endi otalarimiz, bobolarimiz, enalarimiz tiliga nazar solsak, uning forsdan bag‘oyat baland darajada ekani bir haqiqatdir. Qadim shuarosi bu tilni tatabbu etmabdur. Tilimizda daqoyiq<sup>1</sup> ko‘p. Ammo bu kungacha hech kishi uning haqiqatiga nazar tashlamabdur. Afsuski, yulduzlardan yorug‘roq gavharlari yashirin qolib, balki unutilish darajasiga yetibdur. Elimizning shoir yigitlari oson yo‘lni ko‘zlab, yolg‘iz fors tili bilan tarannum etdilar. Tilimizda nozik ma‘nolarni, ruhning butun jilvalarini ifoda qilg‘uvchi so‘zlar va shakllar shunday ko‘pdirki, forsiyda ularning biri ham topilmas, forsiygo‘ylar fasohat da‘vosi bilan qanchalik lof urmasinlar, bizning tilning vus‘ati<sup>2</sup>, husni zanginligi<sup>3</sup> oldida so‘z aytishdan ojiz qolurlar.

Navoiy katta faxr bilan, ruhlanish va dard bilan so‘zlashadi. Gapini bitirgandan so‘ng ham ko‘p kishilar, so‘zning davomini kutgan kabi, undan ko‘z uzmay,

---

<sup>1</sup> Ingichka ma‘nolar.

<sup>2</sup> Kengligi.

<sup>3</sup> Boyligi.

mahliyo bo‘lib turdilar. Forsiyparastlarning nafaslari ichlariga tushib ketdi. Hatto tili hamisha qayrog‘lik bo‘ladigan mavlono Binoiy naq labida tutib turgan yangi bir askiyani aytishga botinmay qoldi. Forsiyparastlar fors tilining shirinligini xuddi shu tilda bolalikdayoq ajoyib she‘rlar aytgan Navoiyga madh etadilarmi?!

Darveshona xayolchan, sokin, yumshoq Hasan Ardasher Navoiyning fikrlarini quvvatladi. Keyin Sul-tonmurod o‘zbek tilidagi she‘rlarning rang, ma‘no va xayol ingichkaligi va hokazo jihatdan ulug‘ fors shoirlarining asarlaridan tuban emasligi haqida gapirib, bir necha namunalarda isbot etmoqqa tirishdi.

— Bukungi fors she‘rlarining, — dedi Sul-tonmurod oxirda, — ulug‘ ustodi mavlono Jomiy hazratlarining muborak ko‘ngillarini o‘zbek she‘ri asir etmoqdadir. U janobning fikrlari, zavqlari, iltifotlari tilimizning g‘alabasidir!

Majlisni munoqishachilik<sup>1</sup>dan qutqarib, do‘stona ruhlantirish uchun Navoiy juda ustalik bilan suhbat mavzuini o‘zgartib yubordi.

U soxta bir qalandar haqida juda mazmunli, maroqli bir hikoyacha aytib berdi. Navoiy behisob ko‘p hikoyalar bilar edi. Kundalik hayot voqealaridan ajoyib latifalar, ibratli hikoyalar to‘qiy berardi ham ularni shunday jonli, shunday iliq aytib berar edikim, har kim zo‘r maroq bilan tinglar edi.

Mudarris mavlono Fasihiddin so‘fiyona, ma‘nodor bir hikoyacha so‘yladi. Tib olimi esa Ibn Sino to‘g‘risidagi afsonalardan birini aytdi. Sul-tonmurod Iskandar Zulqarnayn to‘g‘risida latifa so‘yladi. Bu — Navoiyga juda maqbul bo‘ldi. Bir-biridan rangdor latifalar, hikoyalar yog‘ildi. Latifa latifaga, qahqaha qahqahaga ulandi.

Naq yarim kechada odamlar uy-uylariga tarqalarkan, Navoiy Sul-tonmurodni to‘xtatdi.

---

<sup>1</sup> Bahslashuv, mubohasa qiluv.

— Men sizga biron madrasada dars aytmoqlikni taklif qilurmen, ne deysiz?

Sultonmurod javob berishga qiynalib qoldi.

— Hali vaqti kelmagandir... — dedi ikkilanib.

— Hirotning eng peshqadam va iste'dodli tolibi ilmlari sizdan dars olmoqni orzu qiladilar.

— Siz lozim bilsangiz, u taqdirda e'tirozim yo'q, — dedi yerga qarab Sultonmurod.

— Xo'b, bu yaxshi ish bo'ldi, — dedi quvonib Navoiy. — Ikki-uch kun mobaynida tayin qilurmiz. Yolg'iz aytar so'zim shuki, vazifangizga tamom ixlos bilan kirishgaysiz, shogirdlaringizning ko'ngliga ma'rifat ishqini solg'aysiz, mol-davlat uchun ilmingizni sotmangiz. Inson uchun ko'ngilning softligi, boyligi kerak. Gulning to'ni qirq parcha bo'lsa ham, u guldir! Ilmni xalqqa beringiz, tatabbu va tafakkur bilan ilmni kengaytirmoqqa harakat qilingiz! Ilm ko'mig'liq xazina emas, jonli daraxtdir, o'smog'i, gullamog'i, meva bermog'i kerak!

— Bu kamina ham yolg'iz shu orzular bilan yashaydi, — dedi Sultonmurod hayajonlanib.

— Xayr, ko'rishguncha!

Sultonmurod qorong'i tunda, qanotlanganday, madrasaga uchdi.

## II

Navoiy ertalabki namozdan keyin ba'zi yaqinlari bilan birga nonushta qildi. Uning turli yumushlarini, topshiriqlarini bajaruvchi mulozimlarni qabul etib, ularga kengash berdi-da, Bog'i Zog'onga jo'nadi. Qishki Bog'i Zog'on bulutlar orasida mo'ralagan quyoshning sovuq nurlarida chamanzorlarining, xi-yobonlarining so'nik, hazin husni va katta hovuzlarining yupqa ko'kimtir muz oynasi bilan ko'zlarni beixtiyor tortar edi. Navoiy chil ustunli koshonaga kelib, zarbof to'nli mag'rur eshik og'oga podshoh huzuriga kirmoq istagini bildirdi. Eshik og'o bir zumda ko'zdan g'oyib bo'lib, ancha kuttirib chiqdida, katta to'garak dahlizga qaragan zarhal eshiklardan biriga ishorat

qildi. Bu — devorlari guldor to‘q qizil shohi bilan qoplangan kichikroq, chorburchak xona edi. Navoiy qat-qat zarrin to‘shaklar ustida suvsar po‘stin kiyib o‘tirgan Husayn Boyqaroga rasmiy ta‘zim qilib o‘tirdi. Bir necha kundan buyon uchrashmagani uchun bu vaqt orasida qilgan muhim mamlakat ishlari haqida batafsil ma‘lumot berdi. Husayn Boyqaro Iroqdagi siyosiy ahvollar haqida gapirdi. Navoiy bu o‘lkaga hushyor odamlardan yuborib, ular orqali butun vaziyatdan ogoh bo‘lib turish mumkinligini bayon qildi. Bu taklif Husayn Boyqaroga ma‘qul tushdi. Keyin u yaqinda vafot etgan Hirot qozisining o‘rniga kishi tayinlash to‘g‘risida kengashdi. Navoiy bu mansabning xalq ishida muhim ahamiyatini bilardi. Shuning uchun u shariatni chuqur bilgan ham xalq orasida yaxshilik bilan nom chiqargan bir necha olimlarning ismlarini o‘rtaga soldi.

— Bu mansab sohibi, — dedi Navoiy kulib, — oqni qaro demasin, poraxo‘r bo‘lmasin, hatto o‘z o‘g‘lidan gunoh sodir bo‘lsa, uni qonun-qoidaga tamom muvofiq jazolaguvchi bo‘lsin!

Husayn Boyqaro bu tavsiya etilgan kishilardan birini ham surishtirmadi-da, «yana o‘ylab ko‘rurmiz», dedi.

Navoiy vazirlar to‘g‘risida so‘z ochdi. Kirishdan maqsadi ham, zotan, shu edi. Davlat ishlarini tartibga solmoq uchun ishbilarmon vazirlarga ehtiyoj bor edi. Mavjud ikki vazir — Xo‘ja Ato ham Abdulxoliq — devondagi ishlarni boshqarib, ulgurmas edilar. Navoiy Xo‘ja Afzalni bu mansabga loyiq bilardi, ko‘pdan buyon podshohga uni bir yoqli qilmoqchi bo‘ldi.

— Nizomulmulk Havofiy bu oliy mansabga bag‘oyat muvofiq emasmi? — sinovchi ko‘zlari bilan Navoiyga tikildi Husayn Boyqaro.

— Bu mansabga hech kim Xo‘ja Afzal qadar munosib tushmas!

— U taqdirda ham ikkisini ham vazirlik unvoni bilan sarafroz qilurmiz, — qat‘iy qilib dedi podshoh. — Nizomulmulkning ulug‘ fazilatlari menga yaxshi ayondir.



Navoiy uchun e'tirozga yo'l qolmagan edi. Shu vaqtda parvonachi Majididdin qog'oz, qalam, davot ko'targan uch-to'rt munshilar<sup>1</sup> bilan kirdi. Bular Boyqaroning turli ishlari haqida buyruqlarini yoki maktublarini yozib olishlari kerak edi. Navoiy ruxsat so'rab, tashqari chiqdi.

Majididdin o'z munshilari bilan ikki soat qadar podshoh huzurida ishladi. Yorliqlar, maktublar qalamga olingandan keyin munshilarga ijozat berildi. Majididdin podshohga vafodor it singari qarab, murojaat etdi:

— Oftobi olam, shahar qozisi mansabi uchun muborak ko'zingiz qaysi baxtiyorga tushdi?

— Hanuz hech kishiga.

— Bu faqir qulingiz xoqon hazratlarining behisht oso<sup>2</sup> poytaxtlarining sharafiga munosib bir donishmandni taklif etmoq istaydi.

— Kim ekan? — qiziqib so'radi Husayn Boyqaro.

— Xuroson olimlarining saromadi mavlono Shahobiddin, — javob berdi parvonachi.

Husayn Boyqaro taajjulanib, qoshlarini ma'nodor chimirdi.

— Xurosonning ulug' olimlarini yaxshi bilurmen, ammo Shahobiddin degan zot xotirimda yo'q.

— Balki xotiri shariflaridan chiqqandir, — dedi Majididdin, — so'ngra mavlono Shahobiddin g'oyat kamtarin va xokisordir.

Husayn Boyqaro orqasidagi darichadan boqqa bir qarab, ko'zlarini yumib, sukut qildi. Majididdin o'z do'stini maqtab ketdi. Olimlar orasida johilligi bilan tanilgan mavlono Shahobiddinni «zamonaning Aflotuni», deb ta'rifladi. Bir vaqtlar Abu Said Mirzo davrida o'n ming dinorlik vaqf mulkini yeb qo'yib, sharmanda bo'lgan eski qallobni «insof, adolat, vijdonning timsoli, mujassami», deb ko'rsatdi. Agar podshoh, uning so'zlaridan zarra qadar gumonsirasa, bu odam to'g'risida Amir Mo'g'ulning va Muzaffar bar-

---

<sup>1</sup> Kotiblar.

<sup>2</sup> Jannatga o'xshash.

los, Muhammad Burundiq barloslarning ra'yini bilish mumkinligini alohida ta'kidladi. Husayn Boyqaro ko'zlarini ochdi. Mavlono Shahobiddinning nasabi haqida so'radi. Uning bobolari o'rtasida dongdor a'yonlar ko'p o'tganidan, Majididdin bu to'g'rida lof urishni zarur bilmadi. Husayn Boyqaro juda qiziqdi. Agar barloslar ham muvofiq topsalar, uni qozi tayin etmoqni va'da berdi-da, parvonachini birga olib, ham-suhbatlari bilan bo'ladigan har kungi chog'ir bazmiga oshiqdi.

Alisher Navoiy devonxonaga keldi. Bir-biriga yopishgan qator keng xonalarda devonboshilar va turli darajadagi amaldorlar o'zaro gap sotib, vazifalarini xushyoqmaslik bilan bajarardilar. Har xonada beshlab, o'nlab munshilar, navisandalar sovuqdan qo'llarini puflab-puflab, engashib, yozuv yozadilar. Har biri ma'lum vazifani olib boruvchi devonbeklardan ko'pining o'rni bo'sh turardi. Navoiy qovog'ini soldi: «Albatta, sharobxo'rlik bilan mashg'ullar, betavfiqlar!» — qarg'adi ichida. U har bir arkoni davlat<sup>1</sup> har kun devonda hozir bo'lib, fuqaro ishi bilan shug'ullanishi va bukun bitadigan ishni ertaga qoldirmasligini podshohga qancha daf'a tushuntirdi! «Taftish yo'q, tergov yo'q, shuning uchun mas'uliyat ham yo'q!» dedi ichida.

Dastlab tuman va kentlarga doir ishlarni ko'zdan kechirdi. Ariza va shikoyatlarni tegishli mahkamalar va ularning boshliqlariga topshirib, ildam hal etishni talab qildi. Oddiy xalqdan va har nav yumush ham talab bilan kelgan amaldorlardan ko'p kishini qabul etdi. Keyin sadr'lardan bir nechasini yig'ib, vaqf ishlarining ahvoli haqida ma'lumot oldi ham vaqf mulklarini ta'mir etish va ortiqcha mablag'larni yangi inshootlar uchun sarf etish to'g'risida uzoq suhbatlashdi. Peshindan keyin, uyiga qaytish oldida, Sultonmurodni esladi. Shayx ul-islomga xat yozib, yosh olimni Shohrux madrasasiga mudarris tayinla-

---

<sup>1</sup> Davlat arboblari.

<sup>2</sup> Vaqf va diniy ishlarni boshqaruvchi ma'murlar.

moqni, agar maosh masalasini hal qilishda mushkilot chekilsa, maoshni o'z mablag'idan to'lashga rozi ekanini bildirdi-da, mulozimdan berib yubordi.

Uyga qaytganda ham bir muddat tinim olishga imkon topmadi. Turli tabaqaga mansub o'nlab kishi unga murojaat etdi. Har qaysisining o'ziga yarasha shikoyati, talabi, o'tinchi bor.

Oqshom yemog'idan so'ng sham oldida o'tirdi, qog'oz, qalam olib, ilhomiga berildi. Bir g'azal, bir tuyuq yozdi, tuyuqdan xursand bo'ldi. Bunda ona tili boyligining va imkoniyatining bir jilvasini ko'rdi. Vaqt butunlay sezilmasdan o'tdi, qo'rada xizmatkorlarning yurishlari, tovushlari tindi. Daricha orqali Hirot xo'rozlarining ikkinchi qatla qichqirgan sadolari uning quloqlariga tuyuldi. Yechindi, shamni pufladi, xizmatkor to'shab qo'ygan o'ringa kirdi...

Ertalab Mirak Naqqosh keldi. Navoiy Binafshabog'dagi yozgi ko'shka naqsh ishlatish to'g'risida gaplashmoq uchun chaqirtirgan edi. Mirak Naqqosh Hirotidagi yuzlarcha naqqoshlar orasida eng oldingilaridan edi. Hirotida ba'zi imoratlarning g'oyat nafis naqshlari uning ijodi edi. Unda qidiruvchi fikr bor edi. U boshqa sohalarda ham g'alati narsalar ixtiro etishga urinardi.

Mirak Naqqosh, gap orasida, o'zining favqulodda iste'dodga ega bo'lgan bir shogirdini eslatib o'tdi, uning naqqoshlikdan ko'ra rasmga ko'ngli moyilligi ham ajoyib rasmlar ishlay boshlaganini ustodning samimiy g'ururi bilan aytgach, Navoiy juda qiziqdi. Boshqa gaplarni yig'ishtirib, uni surishtira boshladi.

— Bizning Kamoliddin Behzod hirotlik yetim bola edi,— dedi Mirak Naqqosh,— rahmim keldi. Mening san'atimdan o'zga shogirdlarim qatorida bahramand bo'lsa, yetim bola uchun tirikchilik yo'li ochilur, degan andisha bilan uni shogirdlikka oldim. Zehni behad baland, qo'li oltin ekan. San'atda juda tez ilgarihilab ketdi.

— Yuring, maxdum, bizni olib boring, — o'rnidan qo'zg'aldi Navoiy. — Shogirdingiz bilan bizni ta-

nishtiring. Tasvir san'atining haqiqiy ustodlari bizda yo'q demoq mumkin!

Mirak Naqqosh Navoiyning san'at ahliga bo'lgan chuqur muhabbatini, g'amxo'rligini bilsa-da, hayron bo'lib, o'jarlik ham san'atkorlarga xos g'ururni ifodalagan ko'zlarini katta ochib, shoirga qaradi. Navoiy norozilanib so'radi:

— Deganlaringiz chin so'zmi?

— Janoblari kaminani yolg'onchi deb eshitganmidilar?

— Unday bo'lsa, ne uchun taraddudlanursiz?

Mirak Naqqosh uchi uzun taqyasini yuqori surib, boshini qashidi.

— Xo'b, tanishtirmoqqa tayyormen, — dedi u kulib, — lekin janoblarini ovora qilmoqqa hojat yo'q. Kamoliddin Behzodni men o'zim keltururmen. Sizni ziyorat qilmoq uning uchun ulug' baxtdir.

Navoiy bukun kechga yaqin uni olib kelishni iltimos qildi. Keyin Binafshabog' ko'shkining naqshi haqida so'zlashdi.

Navoiy devonga borib, har kungi vazifasini bajardi. Xo'ja Afzalni oliy farmon bilan tabrikladi, lekin undan mavlono Shahobiddinning shahar qozisi qilib tayinlanganini eshitdi. Kutilmagan xabar uni qattiq g'azablantirdi. Bu voqeaning tagini surishtirishga ham toqati qolmadi. Devondan chiqdi. Otga minib, Husayn Boyqaro qurdirayotgan Bog'i Jahon orodagi saroylar, ko'shklarning ichki bezaklarini tomosha qildi. Namozasrga yaqin uyga qaytganda, Mirak Naqqosh o'z shogirdi bilan kutib o'tirardi. Navoiy Kamoliddin Behzod bilan ulug' og'odek samimiy mehribonlik bilan ko'rishdi. Yosh rassom uzun bo'yli, ingichka gavdasiga noziklik bilan pishiqlik go'zal birikkan, o'n besh-o'n olti yashar o'spirincha edi. Uning fikr, ilhom balqib turgan qora ko'zlarida uyatchanlik va toza, ulug' ruhga xos qandaydir ma'sumlik jilvalanardi. Naqqoshning olacha to'nli shogirdi dongdor shoir ham davlatning ulug' odami qarshisi-da qizardi.

Navoiy ularni o‘z xonasiga olib kirdi. Mirak Naqqosh eskigina juzdonini ochib, shogirdining ayrim, maxsus qog‘ozlarga solingan rasmlarini shoirga bir-bir taqdim eta boshladi. Navoiy birinchi varaqni qo‘lga olib, bir lahza diqqat bilan tikildi-da, Mirak Naqqoshga ma‘nodor qarab qo‘ydi. Ko‘zlarini suzib, yana tikildi. Ko‘zlarini uzoq vaqt uzmad. Mirak Naqqoshning ta‘rificha, qo‘li oltin bolaning chizgani jivir-jivir gullar, barglar, chiziqlar nozikligi, jonliligi, bemisl she‘riyati bilan go‘yo uning ko‘zlarini, ruhini sehrlagan edi. Bo‘yoqlarning nafis ohangi, tong chog‘i toza zangori ufqlarga taram-taram yugurgan nurlardagi kabi, benihoyat nozik tovlanar edi! Navoiy orom va hayajon bilan chuqur nafas oldi. Ikkinchi rasmni ko‘rdi. Ayni ruh, lekin yana boyroq, yana nafisroq... Mana, ov tasviri. Ohular go‘yo qog‘ozdan sakrab o‘ynoqlab ketayotganday tuyuladi. Bunda har bir nuqta ko‘z kabi jonli. Navoiy o‘nga yaqin rasmni benihoyat to‘la zavq bilan tomosha qildi.

Kamoliddin Behzod ichki bir hayajon bilan boshini quyi solib o‘tirar, ba‘zan bir zumgina Navoiyga ko‘z qirini tashlab qo‘yardi. Mirak Naqqosh aksari uning o‘z ko‘zi oldida yaratilgan bu rasmlarni go‘yo ilk daf‘a ko‘rgandek, zavqlanib tomosha qilar, Navoiy bilan fikr olishuvga tirishar edi. Nihoyat, shoir ko‘zlarida yongan quvonch bilan yosh rassomni tabrikladi:

— Bu ko‘hna jahon, — dedi u shavq bilan, — sizningdek san‘atkorni hanuz ko‘rmagan edi. Qalamingizning husni har qanday ta‘rifdan benihoyat balanddir. Bu kamolotni yana oliylashtirmoq yo‘lida samimiy harakat qilingiz.

Kamoliddin Behzodning yuzi allaqanday yorug‘lanib ketdi, titrak lablar bilan dedi:

— Ulug‘ iltifotingiz uchun ne til bilan tashakkur etmoqni bilmaymen, bu tasvirlar shogirdbachchangizning mashqlaridir, qalamim ustodlarning ta‘limiga g‘oyat muhtojdir.

— Ta‘lim olmoqdan hech vaqt yuz o‘girmangiz! — dedi Navoiy.

Shoir namozshomdan keyin Mirak Naqqoshni va uning ajoyib shogirdini ziyofat qildi. Ovqat ustida Hirotdagi o'zga rassomlar haqida so'zlashdilar. Dasturxon yig'ishtirilgandan so'ng Navoiy yana Behzod rasmlarini sham nurida qaray boshladi. Har bir chizig'iga, bo'yoqlarning eng ingichka tovlanishlariga qadar qattiq diqqat qildi. Rasm san'atini chuqur tushungan va chuqur zavq sohibi odamlar ko'ra oladigan ba'zi nuqsonlarni Behzodga ko'rsatdi. Uning qalami-ning qudrati va shu davrgacha hech ko'rilmagan nafosati nimada ekanini izoh qilishga tirishdi. Behzod Navoiyni yolg'iz shoir deb bilardi. Rasm haqidagi fikrlarining to'g'riligi uni juda taajjublantirdi. Shoirning har bir so'zini tag-tugi bilan uqib olishga intildi.

Vaqt alla-palla bo'lganda, naqqosh bilan yosh rassom jo'narkan, Navoiy Behzodga qalin oshna bo'lganini bildirdi va har vaqt kelib uni quvontirishini iltimos qildi. Keyin hovlidan Mirak Naqqoshni bir nafasga chaqirib, dahlizda shivirladi:

— Ertaga, albatta, mening qoshimga keling!

— Xo'sh! — dedi naqqosh.

— Bu favqulodda iste'dod nimaga muhtoj, uni tarbiyalamoq uchun nimalar qilmoqligingiz kerak — bularni batafsil muhokama qilurmiz, — dedi Navoiy.

— G'oyat ma'qul fikr, kechga, albatta, kelurmen.— Quvonch bilan hovliga otildi Mirak Naqqosh.

## ***O'n birinchi bob***

### **I**

Haram doirasi bukun shovqin-suronsiz edi. Podshohning bir-biriga yaqin, lekin ayrim-ayrim saroylarda yashagan xotinlari shoh xonadoniga mansub bir shahzodaning to'yiga ketishgan edi. Aksar qizlar — kanizaklar sultonning sevikli xotini Xadichabegimni kuzatib borgani uchun Bog'i Safidda agar oqsochlar hisobga olinmasa, yigirma choqli ayol qolgan edi.

Bahorning gullagan chog'i... Baland va dilbarqomat sarv og'ochlari ko'rkam mevazorlar, turli-tuman gullar bilan yashnagan keng chamanzorlar ichida katta-kichik ko'shklar allaqanday xayoliy manzara yasaydi. Quyoshda ko'shklarning naqshlari, xuddi jonli chamanlar bilan raqobat qilishganday, havoni rangli shu'lalar mavji bilan to'ldiradi. Uzoqdan, shabada yengil titratgan daraxtlar orasidan boqqan kishi ko'shk devorlarini gulzorning davomi, deb o'ylaydi...

O'zini kasallikka solib, Xadichabeginning bu kungi tantanali chiqishidan qolgan Dildor ikki oshyonlik yengil binonig pastki qabatidagi xonada, ochiq darichaning oldida tanho o'tirardi. Yuragi siqilganday, qandaydir dardli noz va firoq tuyg'ulari bilan kerishdi.

Podshohga xushomadgo'y Majididdin parvonachi tomonidan bir vaqtlar saroyga tortiq etilgan Dildor hashamatli, bezakli hayotda, ertaklardagina eshitgan ziyofatlar, bazmlar, hangomalar orasida yotsiranib, o'ksinib, bir zum ham ochilmay yashar edi.

Shunday ayollar bo'ladiki, ular ishqni e'tiqod kabi muqaddas tutadilar. Bu ayollar ko'ngilning ezgu orzusi uchun faqir yigitning xarob kulbasini shohona saroylardan ortiq ko'radilar. Uvada kiyimli sodda cho'ponni shahzodalarga alishmaydilar. Ular butun borliqlari bilan bir maqsadga intiladilar. Agar maqsad muyassar bo'lmasa, uning dardini butun umr o'zlariga hamshira qiladilar. Dildor shundaylardan edi. Bezak, may, musiqiy, fahsh, g'iybat mavjlari bilan qaynagan hayot uning ko'nglidagi toza sevgini bo'g'magan edi.

Majididdinning dargohidan Dildorni saroyning maxsus xodimalari bir oqshom olib kelib, go'zal, yasog'li bir xonaga kirgizishdi. Dildor uyning hashamatidan, atrofini o'ragan o'z tengi bir to'da qizlarning muomalasidan cho'chidi: «Bir cho'riga shuncha dahmaza! Yo'q, bunda boshqa bir sir bo'lmasin tag'in...» Majididdinning uyidagilar Dildorni eng qiymatbaho kiyimlarga chulg'ab uzatgan bo'lsalar ham, bu yerda

qizlar uni yechintirib, yangi sarupolar kiydirdilar. Boshiga kashmiri sholni g'alati — satangcha qilib o'radilar. Bilaklariga oltin halqalar, barmoqlariga olov toshli uzuklar taqdilar. Keyin uni qat-qat shohi ko'rpachalarga o'tqazib, oldiga dasturxon yozdilar. Ketma-ket tortilgan turli taomlardan, shirinliklardan Dildor, go'yo o'lim hukmini kutganlardek, bo'g'ilib, og'ziga tariqcha ham solmadi.

Qizlar bir-birlari bilan pichirlashib dasturxonni yig'ib chiqib ketganda, vaqt alla-palla bo'lgan edi. Birdan eshik ochilib, bir ayol kirdi. Dildor cho'chib, yalt etib qaradi. Ayol oltmish yoshlarda bo'lgan, chuvak yuzi, torgina peshonasi chuqur ajin bilan qoplangan, lekin o'rta yoshli tannoz xotinlarday yasangan-tusangan edi. Dildor hali qizlar o'zaro gaplashganda, qandaydir qo'rquv va ehtirom bilan: «Gulchehrabim o'zlari shunday buyurdilar» yoki sirli tovush bilan sekingina: «Gulchehrabim chaqiradilar», deb yodlagan ayollari shu bo'lsa kerak, deb tusmol bilan ixtiyorsiz ravishda o'rnidan turdi. Kampir yaqin kelib, tajribali qarash bilan qizni boshdan-oyoq nazardan o'tkardi. Uning kashmiri ro'molini qo'l uchi bilan tuzatib qo'ydi.

— Otingiz nima? — so'radi kampir soxta muloyimlik bilan.

— Dildor, — yerga qarab, sekin javob berdi qiz.

— Daladanmisiz? — o'zgargan tovush bilan so'radi kampir.

— Ha,

— Otingiz yaxshigina, ammo husningizcha ko'rkam emas, — kulib dedi kampir. — Endi birov otingizni so'rasa, Dildorxonbegim deyingiz. O'tiring, jonim.

Dildor bilan kampir qarshima-qarshi o'tirishdi. Kampir unga yurish-turish, kiyinish va saroydagi tartiblar haqida so'zladi. Podshohning huzuriga kirganda o'zini qanday tutish va unga muomalada zinhor-bazinhor noziklik ko'rsatib, hazratning muborak ko'ngillarini ochish to'g'risida ko'p narsa o'rgatishga



tirishdi. Dildor og‘iz ochmadi. Ko‘ksi siqilib, allanechuk essizday o‘tirdi. Kampir tashqaridan bir qizni chaqirib, o‘rin soldirdi. Keyin chiqib ketish oldida uqtirdi: «Qizim, tinchgina uxlang, hech nimadan xavflanmang, atrofingiz to‘la odam; biron yumushingiz bo‘lsa, eshikdagi qulni chaqirursiz».

Bu kechani Dildor mijja qoqmay o‘tkazdi. Ertalab qizlar kirdi. Dildordan hol-ahvol so‘rashdi, uning rangiga qarab: «Yotinqiragansiz, keyincha o‘rganib qolasiz. Biz ham boshimizdan o‘tkazganmiz», deyishdi. Nonushtadan keyin Dildorni qo‘yarda-qo‘ymay, bog‘chaga olib chiqishdi. Na muattar chamanzorlar, na muhtasham ko‘shklar, na kumushlangan hovuzlar, na chiroyli qafaslardagi qushlar — hech nima uni qiziqitirmadi. Chuvillashgan qizlar orasida ozgina kezib, o‘z xonasiga kirdi-da, qamalib oldi. U har dam mash‘um bir soatni kutar, ichidan titroq bosar edi.

Uchinchi kun kechasi Gulchehrabibi kirdi. Uning sochlarini yuvdirib, gul suvi bilan pardozlab, yengil yupqa shohi ko‘ylak kiydirdi. Dildor qayg‘uda yonib, tashqaridagi har bir oyoq tovushidan butun vujudini titroq bosib, yarim kechagacha yig‘lab o‘tirdi. Qaynoq yoshlar bilan yuzlari yondi. Lekin yarim kechada kampir, o‘z-o‘ziga so‘zlaganday: «Sulton hazratlarining kayflari baland ekan, oyoqda ham turolmaydilar», deb ming‘irladi-da, yotib uxlashga buyurdi. Dildor har oqshomni iztirob bilan qarshiladi. Ammo uni podshoh to‘shagiga yetaklash kampirga muyassar bo‘lmadi. Bir hafta o‘tgach, Husayn Boyqaroning birdan ovga jo‘naganligi xabari tarqaldi. Bu orada Dildorning husnini qizlardan eshitgan Xadichabegim uni o‘z qoshiga chaqirtirdi. Dildorni ko‘rish bilan malika uni o‘zining xos kanizaklari qatoriga qo‘shdi. Xadichabegim podshohning sevikli, e‘tiborli xotini edi. U juda hiylakor, zimdan ishlovchi edi. Vazirlar, beklar bilan til biriktirib, siyosatda o‘z ra‘yini o‘tkazishga, podshohni o‘z qo‘lida o‘ynatishga tirishar edi. Xadichabegim hali husni so‘lmagan nozu ishvali ayol bo‘lsa-da, yosh, husndor qizlarnig podshohga uchrashuvidan qo‘rqar

edi. Chunki bir vaqtlar uning o'zi ham faqatgina go'zal saroy xonimi edi. Mana, nozu ishvasi bilan, ko'proq makru hiylasi bilan, podshohning suyukli xotini bo'lib oldi. Boshqalar bu poyaga ko'tarila olmaydimi?

Shu kechadan boshlab Dildor butun borlig'ini dahshatli kecha kabi qoplab olgan vahmdan qutuldi. Durust, uning e'tibori pasaydi, endi unga qizlar xizmat qilmaydi, uning o'zi boshqa kanizaklar qatorida Xadichabegimning xizmatlarini lom-mim demay bajaradi. U endi avvalgiday, alohida xonada emas, bir ko'p kanizaklar bilan birga ortiqcha bezaksiz xonada yashaydi.

U shunday taqdirga benihoyat sevindi.

Dildorning yagona orzusi, yagona maqsadi Arslonqulga erishmoq edi. Ammo, na qilsinki, bu daroghdan qochish mumkin emas. Podshohning nikohida bo'lgan xotinlari posbonlar, haram og'alari bilan uncha hisoblashmay, ko'pincha ularni qo'lga olib, sarbast yashaydilar. Ammo haramdagi kanizaklarning har qadami, ko'zlarining har jilvasi qattiq nazorat ostida...

Suyukli yigit qayerda, mehribon achasining holi nima bo'ldi — Dildor hech nima bilmaydi. O'z to'dasi ichidagi g'arib, ko'ngli yarali qizlar bilan hasratlashadi. Pana-panada ko'z yoshlarini yum-yum quyib, ikkinchi yilni o'tkazadi.

Dildor qolgan sheriklaridan birontasini uchratib, hasratlashish uchun tashqari chiqdi. Shovqin-suronsiz saroyda zerikkandan bo'lsa kerak, odatda tund, kavgap, dag'al, zaharli axta qul daraxt orqasidan paydo bo'ldi-da, Dildorning ro'baro'siga kelib to'xtadi; xunuk jilmayib, gapga tutishga tirishdi. Quloqlariga halqa osilgan bu axta qul yoshi qirqdan oshmagan bo'lsa ham, yuzi qarimsiq burushgan, yelkasi turtib chiqqan, ayanchli bir maxluq edi. Uning xira ko'zlari, bu yerda xotinlarga poyloqchilik qilgan baxtsiz boshqa bir ko'p axta qullarniki kabi, hamisha ilojsiz g'azab bilan yonar edi. Bu qullarning yuzlarida, ko'zlarida,

bir lahza bo‘lsin, shodlik uchquni yonmas, ularning butun vaziyatida, harakatlarida ichki mash‘um bir siniqlikning g‘ami ochiq sezilar edi. Bu ayanchli badbaxt odamlar saroyning tutqun qizlarining boshiga bitgan balo edi. Ularning hammasi — xoh yosh, xoh qari — firibgar, g‘iybatchi, zolim; «muhabbat», «erkinlik» so‘zlarining, hayotiy mayllarning dushmani edi...

Dildor bulardan har vaqt nafratlangani uchun miljinglagan axta qulga quloq solmasdan o‘tib ketdi. Achchiqlangan qul lapanglab, Dildorning yo‘lini to‘sdi:

— Haddingizdan oshmang, oyim, hamma siringizni bilamen. Piq-piq yig‘laysiz, hayitda kiyimsiz qolgan qizday o‘ksinasiz, qo‘lingizni chakkangizga tirab, «uh» tortasiz. Mana, hozir bu daricha oldida nimalarni o‘yladingiz? Ko‘zimdan qochib qutulolmaysiz.

— Jo‘na, bir nafas tinch qo‘y! — jerkib dedi Dildor.

— Ko‘chadan ishq axtarasiz, bilamen...

Dildor bu tuhmatchi bilan g‘idi-bidi qilishni istamasdan, burnini jahl bilan jiyirdi-da, ketaverdi. Hovuz bo‘yidagi supadan qizlar ovozini eshitdi. Gulzor bo‘ylab yurdi. «Kel, yuraging qonga to‘lmadimi?» deb kanizaklar qarshiladi.

Bu yerda Xadichabegimning eng e‘timodli kanizagi — Davlatbaxt, ikkita turkman go‘zali — Xumor va Asalxon ham eronlik nafis ayol — Zulfizar o‘tirishar edi. Davlatbaxt Xadichabegimning ba‘zi bir maxfiy yumushlarini bajarish uchun bu yerda qolgan edi. Turkman qizlari Husayn Boyqaroning Opoqbegim degan xotining kanizaklari bo‘lib, qo‘shni binoda turganlari uchun bu tomonlarga ko‘pincha chiqib turishardi. Ipaklarga chulg‘angan kanizaklar, birinchi qarashda beparvo-beg‘am, taqdirlariga tan bergan kabi ko‘rinsalar-da, tuslarida qandaydir siqilganlik, ko‘zlarida doimiy bir malol, harakatlarida horg‘inlik tuyular edi. Yuraklarida tug‘ilgan ehtiros qiynog‘i, qoniqmagani orzularning alami ularning yosh, yorqin husniga

ko'lanka tashlagan edi. Bo'sh vaqtlarda ular ko'pincha ishqdan, eski va hozir ertak qahramoni kabi tuyulgan yordan, mard sipohilardan so'zlashar, kechalarni mungli xo'rsinishlar bilan o'tkazar edi.

— Yana kim to'g'risida pichir-pichir?! — norozilanib qichqirdi Dildor.

— O'tir, bilib olasan, — dedi Xumor.

Dildor Eron go'zali Zulfizarning yoniga o'tirdi. So'z podshohning ba'zi xotinlarinnig yashirin muhabbati, ba'zi g'unchachilar<sup>1</sup> bilan begimlarning orasida bo'lgan mojarolar, Zubayda og'acha degan bir g'unchachining homilador bo'lganligi va shunga o'xshash haramning ichki, oddiy hayoti ustida borar edi. Dildor yuzini ters burdi.

— Qo'yinglar, bu behuda gaplardan nima foyda! Uh, yuragim shunday siqilib ketdiki...

— Yurakning dardini dardlashish bosadi, quloq sol! — dedi Davlatbaxt qalam bilan chizgandek nozik qoshlarini o'ynatib.

— Yo'q, Davlatbaxt opa, eng yaxshisi, bir oz cholg'u chalaylik.

— Bu taklifga men ham tarafdormen, — dedi shahlo ko'zini suzib, turkman go'zali Xumor.

Dildor yugurib borib, Davlatbaxtning xonasidan g'ijjak, tanbur, daf keltirdi. Davlatbaxt tanburni, noziknihol, g'amgin, xayolchan Asalxon dafni, Zulfizar g'ijjakni oldi. Asboblarni asta-sekin chertib, sozlab turilarkan, haligi qul xo'mrayib o'taverdi. Davlatbaxt uni soxta tabassum bilan imladi, qulog'iga bir nima shivirlagach, u yumshadi, uchlari asta tebranib turgan sarv og'ochlarining tagiga borib o'tirdida, mudray boshladi.

— Navoiy janoblarining yangi bir g'azalini eshitdim. Oh, ko'nglimga yoqqanidan faryod qilayozdim,— tanburning quloqlarini burab, chertib turib dedi Davlatbaxt,— so'zini bilsaydim, sizga aytib berardim.

---

<sup>1</sup> Podshoh nikohida bo'lmagan saroy xonimlari.

— Qayerda eshitdingiz? — qiziqib so‘radi Dildor.

— Tunov kun Xadichabeginning xos ziyofatlarida xizmat qildim. U yerda Hirotning eng usta sozchilari, eng sho‘x bekszodalari bor ediki, ularning bir boqishlariga umrbod qul bo‘lib, xizmat qilmoqqa rozi edim. Majlisda juda shirin kuylar aytili. Ammo Navoiy janoblarining g‘azali ko‘nglimni uzib oldi-da... G‘azal shunday boshlanadi, shoshmanglar.

Davlatbaxt qalam qoshlarining uchlarini bir-biriga tegizib o‘yladi, sekin-sekin, mayin tovush bilan o‘qidi:

*Din ofati bir mug‘bachaiy mohliqodur,  
Mayxorayu bebok.  
Kim ishqidan oning vatanim dayri fanodur,  
Sarmastu yaqom chok...*

Davlatbaxt chiroyli, yirik ko‘zlarini xayolchan suzib, jim bo‘ldi. Dildor: «Yana u yog‘i?» deb qistadi. Davlatbaxt silliq, qora sochli boshini afsus bilan tebratdi. Qizlar so‘z durlarining uzilganiga qayg‘urishdi. Keyin g‘azalning shu boshlang‘ichini esda qoldirish uchun har biri o‘z holiga takrorlamoqqa boshladi. Dildor Davlatbaxtga yalindi:

— «Ko‘rgali husningni» bo‘lsin!

— Yo‘q, Hofiz Sheroziydan o‘qiymiz. Navoiyning g‘azallariga muncha ishqingiz tushmasa! — o‘zini bilimdon ko‘rsatib, kekkayib gapirdi Zulfizar.

— Yolg‘iz menga emas, Navoiy butun elimizga yoqadi, — dedi achchiqlanib Dildor. — Nega desangiz, Navoiyning so‘zlariga tushunamiz. Har bir so‘zi ko‘nglimizga o‘tdek yopishadi. Siz degan shoirlarning hammasi nuqul tojiki yozishgan.

O‘qimishli, she‘rni anglaydigan Davlatbaxt tabasum bilan Dildorning fikrini tasdiqladi.

— To‘g‘ri, men forsiycha she‘rlarni ancha o‘qiganmen ham sevamen. Ammo Navoiy janoblari o‘zga olam... Hazrat Jomiydan ham afzal ko‘ramen.

Musiqiy mayin tovlanishlar, mavjlar bilan yangrab, yuksala bordi. Tanbur chalgan Davlatbaxt max-

mur ko‘zlarini mubham bir nuqtaga tikkan holda, bulbul ovoziday toza, iliq ovoz bilan sayrab ketdi:

*Ko‘rgali husningni zoru muftalo bo‘ldim sango,  
Ne balolig‘ kun edikim, oshno bo‘ldim sango...*

Boshlar sehrli sadolar ta’siri bilan asta chayqaldi. Xino qoni bilan bezalgan barmoqlar daf’da o‘ynarkan, Dildor ko‘zlarini dardchil suzib, beixtiyor ravishda kuyga qo‘shildi.

Musiqiy va kuyga atrofdan yig‘ilgan qizlar bir-birlarini asta turtib, Dildorga ishorat qilib: «Balo ekan-ku», deb shivirlashar edi. Kuy bitgandan so‘ng ular Dildorni quchoqlashib tabriklashdi. Chunki Dildor o‘z holicha pana-panada qo‘shiq aytib yursa ham, lekin qo‘shiqchi qizlar bilan ko‘pchilik orasida aytishmas edi.

Qo‘shiqchilarnig adadi borgan sari ortdi. Turkiy, forsiy eng mashhur g‘azallar birin-ketin aytilmoqqa boshlandi. Lekin bosh haram og‘osi birdan paydo bo‘lib, quvonchli, yorqin kunni to‘satdan bulut bosgan kabi qizlarning serzavq samimiy ulfatchiligini buzdi.

— Bas, bas! Hadlaringdan oshdilaring, adabsizlar!— bo‘yin tomirlarini qabartirib, zug‘um bilan chi-yilladi haram og‘asi. Bu keksa badjahl quldan hamma qizlar zir titrar edi. Yolg‘iz kanizaklar, ismsiz g‘unchachilargina emas, balki erka, suyukli g‘unchachilar, hatto podshohning xotinlari ham u bilan hisoblashmoqqa majbur bo‘lib qolardilar.

Qizlar musiqiy asboblarni quchoqlab, qo‘rqa-pisa, «g‘ing» demasdan, har yoqqa taralar ekan chol qichqirdi:

— Xadichabegimni kutib olmoqqa tayyorlaninglar!

Davlatbaxt jonsarak bo‘lib, hamma qizlarni to‘pladi va har qaysisiga ayrim yumushlarni buyurdi.

Xadichabegim, har vaqtdagi kabi, tantana bilan kirib keldi. Uning egnida oltin gullar ishlangan to‘q qizil xitoyi shoyidan juda uzun va keng ko‘ylak bo‘lib,

<sup>1</sup> Musiqi asbobi (muh.).

etaklarini bir necha qizlar barmoq uchlari bilan tutib kelar edilar. Boshida ko'kimtir shohidan sallacha — dakana, bu dakana va favqulodda uzun ko'ylak Xadichabegimning bo'yi-qomatini baland ko'rsatardi. Dakanaga turli katta-kichiklikda va bir-birlarining ranglarini, tovlanishlarini ajoyib suratda yorqin ochadigan qimmatbaho toshlar — yoqut, la'li zabarjadlar, yirik durlar va gavharlar juda mohirona qadalgan. Dakananing uchida oltin bandli, ko'rkam, yengil jig'a hilpirar edi. Xadichabegimning yuzi upa-elik bilan shunday mo'l belangan ediki, asli tusini ayirish mumkin emasdi.

Haramdagi barcha ayollar, salom bergan kelinlar kabi, engashib qarshiladilar. Xadichabegim, hech kimni payqamagan kabi, mag'rur va beparvo ko'rindi. U o'z orqasida ergashtirib kelgan va deyarli bir xilda kiyingan yuzlarcha go'zal kaniz qizlar va ro'dapo qullar bilan ohista yurib, bog'ning o'rtasidagi koshona uyga kirdi.

Oqshomdan so'ng Xadichabegimning ziyofati boshlandi. To'rda, ipak to'shaklardan iborat balandlikda Xadichabegim o'tirdi. Uning orqasida bir to'da qizlar oyoqda turishardi. O'ng va so'l tomonida podshoh xonadoniga mansub bo'lgan e'tiborli ayollar... Bulardan pastroqda beklarning, vazirlarning xotinlari ham Hirotning ulug', mashhur oilalaridan kelgan go'zallar o'tirishardi. Devorlariga oltindan naqshgullar ishlangan, turli ipak jihozlar yonib-yashnab turgan bu katta uyning hashamat va bezagi yolg'iz birinchi marta ko'rganlarnigina emas, balki yuzlarcha marta tomosha qilganlarni-da, ancha vaqtgacha hayratga soladi, chunki bu yerda har vaqt yangi-yangi, aqlga sig'maydigan bezaklarni uchratish mumkin. Bukun hammaning ko'zini o'ziga qadagan narsa Xadichabegim yonidagi xontaxtada katta kumush barkash ustiga o'tqazilgan ajoyib daraxt edi. Balandligi, chamasi, uch gaz, tanasining yo'g'onligi odam boldiriday bo'lgan bu daraxt tamom oltindan ishlangan edi. Kumush barkashdan o'sib chiqqan oltin

daraxt har yoqqa shoxlar, yo'g'on-ingichka novdalar otgandi. Uning yaproqlari ko'k zabarjaddan, novdalarining uchlarida sarg'ish durdan, yoqutdan o'ntacha yirik, yumaloq va porloq mevalari bor edi. Oltin daraxtning butoqlarida kichkina, chiroyli qushchalar qo'nib turadi. Qushchalar oyoqlaridan tumshuqlariga qadar rang-barang qimmatbaho toshlardan xuddi jonliday ishlangan. Ba'zi qushchalarning qanotlari yozilgan — ular go'yo uchib tushmoqchiday... Ba'zilari esa tumshuqlari bilan porloq mevalarni cho'qib turadi.

Dasturxonchi qizlar xilma-xil ovqatlar va shirinliklar bilan dasturxonni yashnatib yubordi. Dildor, Xumor va Asalxon soqiylik qilishdi. Ular qopqoqlariga yirik dur yoki olovday yongan la'l, jo'mraklari uchiga yoqut yoki zabarjad qadalgan, feruzalar bilan bezalgan kichkina ko'zchalardan oltin piyolalarga may quyib, kumush laganlarga teradilar. Dastlab Xadichabegimning qoshiga borib, uch marta bukilib, ta'zim bilan qadahni tutadilar. So'ng orqaga burilmasdan, asta-asta qaytadilar. Boshqalarga esa bukilmasdan, nozik ta'zim bilan qadah tutadilar.

Xadichabegim xiyla ko'proq ichib, ba'zi yengilliklar qila boshlagach, saroydagi tadbirli kekxa ayollar o'zaro imo bilan kengashib, mayni to'xtatishdi. Diqqatni chalg'itish uchun cholg'uchilarga, raqqosalarga ishorat qilishdi. Hirotning mashhur sozandalari ishga tushdi. Bularning orasida endi badani, husni yetib to'lishgan qizlar, tishi tushgan satanglar bor edi. G'ijjak, tanbur, chang, ud, nay, daf va hokazo yangradi. Qo'shiqchi ayollar turkiy, forsiy g'azallarni ayollarga xos mayinlik va noz bilan kuylashdi. Saroyning raqqosalari guruh-guruh bo'lib — har guruh ayrim kiyimda — turkona, hind, arab, eron raqslarini bajararkan, bazm avjiga mindi. Chapaklar inoq qarsiladi. Ba'zi ayollar go'zallarning sho'x raqslari va kuchli may ta'siri ostida yengiltaklik qilib, xushomadlar qila boshlashdi. Mast qahqahalar uyni to'ldirdi. Pardozi bilan qizartilgan yuzlarni may yana kuchliroq



olovlantirdi. Surmali ko‘zlarning qora shu‘lasi yana yorqinroq yondi.

O‘yinchilar noz va ehtiros bilan maqomga shox tashlab, xinadan guldor barmoqlarini dudoqlari bilan yengil tishlab, dastlab Xadichabegim qarshisida ko‘zlarini suzar, qoshlarini uchirar, yumaloq ko‘kraklarini dirillatardilar-da, so‘ng yana katta uy sahnida, ipak gilamlarda uchardilar.

O‘yinchilarning ikkinchi guruhi atlas ko‘ylaklarini hilpillatib, gir aylangandan so‘ng ta‘zim bilan o‘rtadan chiqdi. Ko‘zlar sabrsizlik bilan yangi o‘yinchilarni kutarkan, Xadichabegimning ishorati bilan bir necha bo‘g‘cha keltirilib, uning yoniga qo‘yildi. Bu har nav ayol saruposi — Xadichabegimning in‘omi edi. Cholg‘uchilar, qo‘shiqchilar va Xadichabegimga yoqib qolgan ba‘zi ayollar sarupolarni bukula-bukula qabul qildilar. Bazm kutilmagan vaqtda tamom bo‘ldi. «Xadichabegim charchabdilar», «Xadichabegimning boshlari og‘ribdi», degan gaplar bir zumda quloqdan-quloqqa o‘tib, majlis ahli o‘rnidan turdi. Xadichabegim e‘tiborli ayollarga mehmonnavozlik yo‘sinida yoqimli bir necha so‘z aytdi va umumga: «Xush qolinglar», deb eshikka qarab ulug‘vor yurdi. Hovlida dasta-dasta shamlarni baland ko‘targan xodimalar malikaning ikki tomoniga o‘tdi. Kanizaklar, mehmonlar qiy-chuv bilan xobgohga qadar uzatib, tarqalishdi.

Xobgohda Xadichabegimni qizlar yechintirib, kechalik kiyimlarini kiydirishdi. U par yostiqa yonboshlagach, Dildor darrov uning oyoqlarini uqalay boshladi.

— Bas endi, ketinglar! Davlatbaxt, sen qol! — buyurdi Xadichabegim.

Qizlar orqalari bilan yurib, eshikka kelganda bukilib chiqishdi.

Davlatbaxt malikaning ishorati bilan eshik va darichalarni berkitdi-da, unga yaqin o‘tirdi.

— Hech nima eshitdingmi? — shipga qarab so‘radi Xadichabegim.

Davlatbaxt shivirlab dedi:

— Hazrat podshohning ko'ngillarini yangi bir g'unchachi asir etibdi. Har kun u bilan emishlar...

— Qayerdan eshitding? — boshini ko'tarib, jiddiy so'radi Xadichabegim.

— Xonzodabegimlarnikida...

— Podshohning baxtiga, Xurosonda go'zallar ko'p, ne qilamiz? — dedi xo'rsinib Xadichabegim. — Xo'b, mening to'g'rimda u yerda hech nima demadilarmi?

— Sizni aybladilar, ba'zi vazirlarni qo'lga olgan emishsiz...

Xadichabegim labini tishladi-da, xavfsiranib, dedi:

— Ochiqroq gapir, qaysi vazirlarni tilga olishdi. Men ular bilan nima qilgan emishman?

— Yaxshi uqib ololmadim, juda til uchida so'zlashadilar.

— Men hamma vaqt senga aytaman-ku, — dedi Xadichabegim achchig'lanib, — dushmanlar orasiga kirganda o'zingni g'aflatga sol, lekin esu hushingni to'pla, deb...

Davlatbaxt, ezilganday, boshini quyi soldi, ro'molining shokilasini himarib, jim o'tiraverdi. Xadichabegim boshini yana yostiqqa tashladi.

— Mirzo bu kecha qayerda bo'ladi?

— Popoog'achanikida...

— Buni to'g'ri iskabsen, — kuldi Xadichabegim. — Endi chiqib ket, men bir oz orom olay. Sen uxlama, bu kecha yumushlaring bor, men yo'qatgan onda hozir bo'!

## ***O'n ikkinchi bob***

### **I**

Binafshabog' ko'klam nurida cho'miladi. Hindi-kush tog'laridan esib, Hirot viloyatiga salqin nafas yoyib o'tuvchi shamollar sarvzorlarda izg'iydi. Hamma yoq gul. Binafshalar mayin ranglari, nozik boqishlari bilan ko'zlarni beixtiyor mast etadi. Da-

raxtlarga chirmashgan aymoqi gullar yorqin havoda yangi qorday uchqunlanadi. Yam-yashil chimdan uqa tutgan va uchlari og‘ochliklar qo‘yniga kirib yo‘qolgan toza yo‘llar bo‘ylab gulsafsarlar yashnaydi.

Navoiy bog‘chada tanho kezar edi. U bir oz charchagan. Har kungidek, bukun ham bir talay kishilarni qabul qilib, endigina bo‘shagan edi. Olimlar, shoirlar, mansabdorlar, dehqonlar, faqir talabalar, musofirlar, navkarlar — hammasi yordam, najot uchun yo bo‘lmasa dalda olish, yoki dardlarini ochib, ko‘ngilni bo‘shatish uchun murojaat qilgan.

Shoir ola chalpoq yo‘lda, ko‘lanka bilan quyoshning ajoyib shoirona o‘yini bilan to‘lgan yo‘lda, astasekin yurib, ochiq sahnga chiqdi. Bu yerda mashhur bog‘bon Darvesh hoji shaftolu, olihirot ko‘chatlarini o‘tqazmoqda edi.

— Hormang, mavlono Darvesh!

— Assalom, marhamat qiling, taqdir, — ishdan qo‘l uzmay dedi Darvesh hoji.

— Kayflari nechik?

— Alhamdulillah, soyayi davlatingizda hech narsadan tashvishimiz yo‘q.

Mehnatni, hammadan ko‘ra mehnatda mohirlikni sevgan shoir zamon bog‘bonlarining ustodi hisoblangan Darvesh hojining — kichkinagina, jikkak, harakati tez cho‘qqi soqol cholning ishiga diqqat bilan qarab turdi. Uning yasagan payvandlarini bir-bir ko‘zdan kechirdi. Ba’zi maslahatlar xotirga kelsa ham, lekin bog‘bonning fe‘lini yaxshi bilganlikdan aytishga botinmadi-da, o‘zicha yer ostidan kulib qo‘ya qoldi. Darvesh hoji hech kimning fikri bilan kelisholmaydigan o‘jar, kajbahs edi.

Bir vaqtlar bu bog‘bon Navoiyning «Fig‘oniya» bog‘chasida ishlaganda, Jomiy ora-sira kelar va ko‘chatlarni qayerga va qanday o‘tqazish to‘g‘risida o‘z ra‘yini so‘ylar, Darvesh hoji esa ulug‘ shoir va piring hec bir so‘ziga unamas, u bilan janjallashar ekan. Keyin Navoiy bu voqeani eshitib, juda zavqlangan. Jomiy ham kula-kula ko‘p yerda hikoya qilgan.

Navoiyning soʻzlashga botinmay turganini sezdi shekilli, Darvesh hojining oʻzi gap ochdi. Odati boʻyicha, uzuq-yuluq soʻzlar bilan payvandlarni tushuntirdi-da, keyin, birdan uni unutganday, ishga berilib ketdi. Navoiy qaytib, gulzor oldidagi supaga solingan ipak gilamga oʻtirdi. Daraxtlar orasidan tushgan quyoshning oltin halqalari gilamda oʻynaydi. Olma, noklarning gulbarglari yerga, gilamga, shoirning ipak toʻniga, qor parchalari kabi erinchak yogʻadi. Tovuslar koʻrkam dumlarini yelpigʻich kabi yoyib, asta magʻrur yurishadi.

Sohib Doro<sup>1</sup> bir quchoq kitob bilan paydo boʻldi. Beoʻxshovgina oʻralgan katta sallali, sertavoze, kamtarin, oʻqimishli bu mulozim kitoblarni avaylab, Navoiy oldiga qoʻydi. Bular eng yaxshi kotiblarga berilib koʻchirtirilgan turli mavzulardagi katta-kichik asarlar edi. Shoir bu kitoblarning mazmunini yaxshi bilgani uchun, koʻproq shakliga diqqat qildi. Guldor charm muqovalarning husni va pishiqligini yaxshilab koʻrib, asta varaqlab, kitobning qalamini, oltin bilan yongan chiziqlarni, yozuvni ihota qilgan rasmlarni tomosha qildi. Har sahifa, jonli chamanzor kabi, koʻzni quvontiradi, baʼzi kitoblar Behzodning bemisl ingichka, sehrkor boʻyoqlari bilan ziynatlangan edi. Navoiy Behzod sanʼati haqida hayajonlanib gapirdi. Sohob Doro ham toʻlib-toshib yosh rassomga boʻlgan muhabbatini soʻzladi.

Gulzor oralab yosh yigitcha Haydar kelib chiqdi. Bu Navoiyning marhum togʻasining oʻgʻli edi. Shoir unga oʻgʻlidek boqardi. Qimmatbaho ipaklik kiyimlarni beparvolik bilan kiygan, mast koʻzlari beqaror yongan Haydar shoir bilan har vaqtdagiday, ehtirom ila, lekin betakalluf koʻrishdi-da, kitoblarni shoshib-pishib koʻzdan kechira boshladi. Navoiy yuragi gʻuborsiz, rind tabiatli yigitchaga kulib qarab turdi-da, soʻradi:

— Bu ishlar toʻgʻrisida ne fikr bayon qilursiz?

---

<sup>1</sup> Navoiyning yaqin xodimlaridan biri. Oʻqimishli va shoir edi.

Haydap kitoblarni taxlab, Sohib Doroga topshirdida, bir zum o'ylab, javob berdi:

— Behzod hamma narsani jonlantiradi. Uning san'ati mo'jizadir. Ammo bu kitoblarni bitgan xattotlar nuqsondan xoli emaslar. Xattotlarnig sultoni Sultonali qachon Mashhaddan keladi? Bu kunlarda uning qalami shunday g'avg'o ko'tardiki, Hirotda qayerga borsangiz Sultonali haqida eshitasiz.

Sohib Doro Hirotda ham Sultonali qadar go'zal hattotlar borligini so'zladi, lekin Haydar bilan bahslashishni istamaganidan, kitoblarni qo'ltiqlab, tezgina jo'nab qoldi. Navoiy Sultonalining Hirotda chaqirilganini bildirdi. Yozuv san'atida Sultonalining iste'dodi va uning ustodi Azhar Hirotiy haqida shoir qiziq ma'lumot berdi. Keyin Haydarning mashg'ulotlari to'g'risida so'radi. Musiqiyda bilimlarini chuqurlatishni uqtirdi. Haydar o'zining yangi g'azallarini yoddan o'qib berdi. Navoiyga uning sho'x oshiqona g'azallari maqbul bo'ldi. Lekin katta shoir bo'lish uchun ilm kerakligini, shuning uchun ko'p vaqtni mutolaaga berish zarurligini so'zladi. Haydar birdan askarlik orzusida bo'lganini aytib, kengash so'radi. Navoiy uning orzusini uning qarorsizligi natijasi deb tushunganidan, dastlab qovog'ini solib, sukut qildi. Lekin Haydar butun ko'ngli askarlik ishq bilan to'la ekani ni isbot etmoqqa tirishdi:

— Ota-bobolarim,— dedi u shavqlanib,— she'r va musiqiy bilan qilich va yoyni g'oyat go'zal jo'r qilganlar. Men ham bu yo'lni tanladim. Ajabo, mumkin emasmi?

— Nega mumkin bo'lmasin? — dedi Navoiy jiddiy tikilib. — Jang maydoni yigitlarga husn bag'ishlaydi. Yigit uchun mardlik, qahramonlikdan o'zga ulug'roq, oliyroq bir fazilat bormi? Yurt va davlat uchun o't va suv kechib, zafar bayroqlarimizni, quyosh bayrog'i kabi, baland ko'taruvchi olijanob bahodirlar kerak. Lekin inson har bir hunarga, har bir mashg'ulotga xolis niyat bilan, samimiyat va ishq bilan kirishmog'i lozim. Ishq bo'lmasa, kishi hech bir ishda muvaf-

faqiyat ko'ra olmas. Agar yuragingizda jangovarlik ishqining mavjlarini sezsangiz, askar bo'lingiz, men sizni faqat tabriklaymen.

Haydar quvondi. Qilichboz, mard yigitlar haqida shavq bilan gapirib turarkan, bir necha mulozimlar kelib qolishdi. Haydar ularga qarab, vaziyatlaridan ularning vaqtlari tig'iz ekanini sezdi-da, so'zini chala-chulpa tugatib, xayrlashib katta bog' ichida g'oyib bo'ldi.

Mulozimlar Navoiyning ota-bobosidan qolgan yerlaridagi dehqonchilik ishlarini boshqaruvchilar edi. Shoir ular bilan qo'sh va ekinlar haqida, dehqonlarning tirikchiligi va narx-navo haqida uzoq ham batafsil gapirishdi. Omborlarda qolgan o'tgan yilgi g'allaning bir qismini qo'shinga va bir qismini beva-bechoralarga ulashib bermoq istagini so'zlab, bu ishga tezda tay-yorgarlik ko'rishni buyurdi. Shoir bir nafas orom olmoq uchun toza, bahavo bir xonaga kirdi.

Peshindan keyin supaga mehmonlar keldi. Bularning ko'pi uning har vaqtgi hamsuhbatlari — olimlar, shoirlar, musiqiychilar edi. Ba'zilar bu uch sohani ajoyib ravishda birlashtirgan edilar. Har holda mehmonlar orasida g'alati, maroqli odamlar bor edi. Mana, to'rda o'tirib, bir so'zlab, o'n kulgan savlatli olim Mir Mirtoz. U yoshlikdan boshlab turli ilmlar bilan mashg'ul. U kecha tong otguncha, kunduz oqshom bo'lguncha mutolaa qiladi. Biron kishi bilan masala talashgunday bo'lsa, o'zini ham, vaqtni ham unutib, yetmaguncha qo'ymaydi. Buning ustiga, u shatranjga shunday o'chki, biron o'yinchi duch kelsa, haddi bo'lsin qochishga! Ikki o'yinchi yo'liqsa, biri bilan o'ynarkan, ikkinchisining etagini mahkam ushlab o'tiradi: «O'ynab ket» O'qtin-o'qtin she'r ham to'qib qo'yadi. Uning yonida o'tirgan o'rta yoshli, qotma, ko'zlari sho'x olim ozarboyjonlik Xo'ja G'iyosiddin Dehdorning ajoyib xislatlarini ba'zilar to'qqizga, ba'zilar o'n ikkiga olib boradilar. G'iyosiddin Dehdor har qaysi fanda qizg'in va maroqli suhbatlashadi. Juda ta'sirli ovoz bilan ashula aytadi. Qissaxonlikka boshlaganda, hayratdan hammaning

og'zi ochiladi. Har nav taom tayyorlashda har qanday mohir oshpazni yo'lda qo'yadi. Yana u mislsiz taqlidchi. Bir vaqtlar, Navoiyga ilk mehmon bo'lgan kuni, u o'z qobiliyatlarini bir-bir ko'rsatib, nihoyat, bir chekkada turishgan qul bilan cho'rini taqlid qilganda, butun majlis ahli kula-kula dumalashgan ediki, bu voqea o'sha kuniyoq butun Hirotga ovoza bo'lgandi. Shoir Sadir kotib hamisha mast-alast edi — na harakatida, na so'zida tabiiylik bor! Shoir Mavlono Ayoziy o'z she'rini majlisga o'qib berishdan avval uni shunday mubolag'a bilan maqtar ediki, she'rning opochiq nuqsonlarini ham tanqid etmoqqa kishi iloj topolmay qolardi.

Navoiy supadan pastga tushib, jamoani tabassum bilan qarshi oldi; mehmonlarni yuqori o'tqazib, o'zi quyiroqqa chordona qurdi-da Shayx Husayn jarrohga murojaat etdi:

— G'oyat nozik amaliyotlar<sup>1</sup> qilmishsiz, bizni ham ogoh etingiz.

Tund, kamgap, keksa jarroh quyuyq qoshlari ostidan qattiq qarovchi ko'zlari bilan majlisga bir qarab olib, boshqalarning ham diqqati unda ekanini payqagach, «Tilga olurga arzirlik bir nima yo'q», dedi-da, har bir so'zni o'lganday ohista tushuntira boshladi. U saroy pahlavonlaridan biriga raqiblari xanjar bilan o'n sakkiz joydan shikast berganliklari, hamma jarohatlarni shifolashning imkonini qulaygina topib, lekin yirtilgan ichaklarni tikishdagi mushkilotlarni, qo'llagan yangi usulni so'zlab berdi.

— Bemorning ahvoli nechik? — so'radi achinib Navoiy.

— Tobora yaxshilanmoqda, — javob berdi ishonch bilan tabib.

— Butun Hirot xasta pahlavonning tezda sog'ayishini, Havzi Mohiyonda o'z raqiblari bilan bel ushlab, ularni mag'lub qilishini zo'r ishtiyoq bilan kutmoqdadir, — dedi shoir Hofiz Yoriy.

---

<sup>1</sup> Operatsiyalar.

Umuman, tib ilmi va jarrohlarning san'ati haqida juda maroqli suhbat boshlandi. Shayx Husaynning ham marhum va tirik bir ko'p boshqa jarrohlarning eng nodir amaliyotlari to'g'risida ertakdek qiziq voqealar so'zlandi.

So'z she'rga ko'chdi. Shoir mavlono Hiloliy yangi g'azalini o'qidi. Ingichka zavqni ifodalagan bir qarash, bir tur bilan tinglagan Navoiy suyunib baho berdi: «Siz she'rda hilol emas, to'lin oy bo'libsiz endi!» Bu so'z majlisga ma'qul tushdi. «Rost aytildi, xo'b aytildi», deb kulishdilar.

Shoirlarning ichi qizidi; rangli qog'ozlarga zargar diqqati bilan chiroyli bitilgan g'azallar, muammolar, tuyuqlarga so'nggi, qat'iy bahoni har kim Navoiydan kutardi. Shoir chuqur sezgani kabi so'zning, fikrning eng nozik jilvalarini, xayolning eng nozik ranglarini, o'yinlarini xos ma'ni, xos xayol nuqtai nazaridan asarning badiiy salmoqligini tayinlar, vaznda, qofiyada, tarkibda va hokazodagi eng yashirin xatolarni, eng juz'iy nuqsonlarni ham darrov ilg'ar, muloyim tabasum bilan astagina ishorat qilardi.

Mavlono Ayoziy ko'zidan soqoliga qadar toshgan g'urur bilan qo'lida bir parcha qog'ozni ushlab, sabr-sizlanib turarkan, Navoiy so'radi:

— Maxdum, ne sovg'a bilan keldingiz?

O'tirganlar iljayib shoirga tikilishdi. Mavlono Ayoziy qog'ozni buklab, tizzasiga qo'ydi-da, odatdagicha, o'z g'azalining badiiy xususiyatlari haqida shoshmasdan gapira boshladi.

— Bizga ham biron so'z qoldirasizmi? — kulib murojaat etdi Navoiy.

— Andak sabr qilingiz, — dedi mavlono Ayoziy, — zero, bu sharhlarni g'oyat lozim, deb bilurmiz.

— Biz shuaro majlisidamizmi yoki bozorchorlar orasidamizmi? — e'tiroz qildi hazilkashlardan biri.

— Mavlono Ayoziy bo'lg'usi hujumlarga qarshi ulug' sad<sup>1</sup> yasamoqdalar, g'olibo! — dedi cholg'uchilardan biri.

<sup>1</sup> Mustahkam devor, qo'rg'on, qal'a.



— Mavlono Ayoziy, o‘z odatlaricha, sadni qum ustiga chekmoqdalar, — kinoya bilan dedi Navoiy.

Mavlono Ayoziy, baribir, tafsiliy izoh berdi. Keyin qaddini rostlab, baland ingichka tovush bilan o‘qidi. She‘rning hech bir misrai xatodan xoli emasdi. Tinglovchilar birvarakay: «Barakallo!» deb qichqirdilar. Shoir bu kinoyani madh deb tushundi shekilli, majlisga faxr bilan qarab qo‘ydi. Navoiy uning ojjizligiga achindi. Sezdirmay xo‘rsindi. Adabiy suhbat serzavqlik bilan davom etdi. Hofiz Yoriy, Osifiy, Shayxim Suhayliy va boshqalar o‘z she‘r va qasidalarini o‘qidilar.

Dasturxon yoyildi. Kosalar, piyolalar, qadahlarining gullari, bahor chamanlariday, boy, nafis, rangin edi. Ikki-uch ayoqdan may ichildi. Qizil gul bargiday toza may ko‘zlarga nash‘a, suhbatga qizg‘in jonlilik berdi. Ustod Qulmuhammad, Shayx Noiy va bu musiqiy ustodlarining tarbiyasida o‘sgan bir dasta cholg‘uchilar gulzorlarni, iliq oltin havoni sehrli sadolarga to‘ldirdilar. Yana chiroyli, xipcha bel ko‘zachalardan may «biq-biq» quyilib, qadahlarni limillatdi. Mayparast sho‘x shoirlar mayga, ulfatchilikka doir baytlar to‘qib, mayni she‘r bilan, xursandchilik bilan sipqordilar. Serzavq chol olimlar, mudarrislar endi shoirlarining mayga, uzumga doir eng go‘zal baytlarini, ruboiylarini qo‘sha-qo‘sha aytib ichdilar. O‘lmas Xayyomning she‘r gulzorida terilmagan bir gul qolmadi.

Hazil-mutoyiba boshlandi. Hamma mehmonlar kabi, Navoiy ham ko‘p ichdi, toshib-toshib kuldi. O‘ziga qaratilgan hazillarga so‘zning o‘tkir, porloq tig‘lari bilan hozirjavoblik qilib turdi. Xo‘ja G‘iyosiddin o‘zining nodir iste‘dodlarini ko‘rsatdi. U, sho‘x yigitchaday, ajoyib noz va silliqlik bilan raqs etdi, forsiy, turkiy kuylar kuyladi. Nihoyat, Hirotdagi ba‘zi mashhur zotlarni shunday go‘zal taqlid qildiki, o‘ltirganlar o‘rinlaridan qo‘zg‘alolmay qoldilar.

Mehmonlar tarqaldi. Ular ketidan Xo‘ja-Afzal, Darveshali, yana shoirga yaqin bir necha mansabdorlar kirib kelishdi. Navoiy ularni yengil, bahavo

ko'shka, naqshlari ufqqa og'ayotgan quyoshning nurlarida rangli olovlar bilan chaqnagan, har ikki tomoni ochiq oshyonga olib chiqdi. Do'stlarning holahvolini so'radi, hali tarqalgan o'tirishdagi ba'zi hangomalarni so'zlab, ularni kuldirdi. Keyin panjaraga suyalib o'ltirdi-da, ko'zlarini uzoqlarga, shabadada yengil to'qinlanib, kechki shu'lalarga cho'milgan bog'larga, og'ochliklarga tikdi. Zangori osmonda otuyoq shaklida yoyilgan momiq bulutlar sokin suzardi... Shoir birdan boshini keskin burib, Xo'ja Afzalga qaradi:

— Parishonlik... Kechiringiz, g'olibo, biron nima so'zlamoq istaysiz?..

— Janoblarni ba'zi ishlardan ogohlantirmoq niyatida edik, garchi men aminmenki, barcha sirlar bizdan ko'ra sizga ko'proq ayondir, — dedi Xo'ja Afzal Navoiy tomon enkayib.

— Vaqtida ogohlantirmoq — do'stlarning ishi, — dedi Navoiy sergaklanib.

Xo'ja Afzal Majididdin Muhammad parvonachi o'z do'sti qimorboz Amir Mo'g'ulni Astrobod hokimi etib tayinlashga jon kuydirayotgani, vazir Nizomulmulkning kirdikorlari, qozi Shahobiddinning va shahar dorug'a'sining iflos ishlari to'g'risida so'zladi, oxirida podshohning atrofini nobop, mansabparst odamlar o'rab olganini uqtirdi.

— Podshohning yon bag'rini bir to'da telba itlar qurshagan, desangiz yana to'g'riroq bo'lar edi, — dedi xafalanib Navoiy. — Ulardan tunlarda fahsh, fisqu fujur va anvo ahmoqliklar sodir bo'lur. Kunduzlari shahar, kent kezib, elni talaydilar. Podshoh u itlar orasida o'zini qoplon gumon qilib, ularning kirdikorlariga sherik bo'lmoqdadir!

Bu so'zlardan cho'chib ketgandek, hamma yerga qarab, sukut qildi. Bir muddatdan keyin Darveshali sukunatni buzdi.

— Podshoh hazratlari g'aflatdalar.., — dedi u tekis peshonasini uqalab.

<sup>1</sup> Shahar boshlig'i.

— Gʻaflatdan uygʻotishga, adolat va haqiqat yoʻliga yetaklashga yana gʻayrat qilurmiz! — dedi ishonch bilan Navoiy.

— Alisher janoblari,— murojaat etdi yosh bir devon mulozimi,— sizning koʻnglingiz oftobdek sofdir. Lekin dushmanlar podshohga yorugʻ yulduzlarni qora, pok niyatlarni chirkin qilib koʻrsatmoqchilar.

— Har yerda fitna-fasod tuxumini sepmoqdalar! — gapga aralashdi qari, koʻzi zaif mansabdor.

— Bizning elda bir yaxshi maqol bor, — dedi Navoiy tabassum bilan. — It hurar, karvon oʻtar!

Darveshali birdan boshini koʻtardi, moʻylabini tishladi. U oʻz ogʻosidan bunday yumshoqlikni emas, keskin choralarga tayyorlikni, hayajonli bir nutqni kutgan edi. Hislarini yashirolmasdan, titrab gapirdi u:

— Sizga hasad qiladilar. Sizni koʻrolmaydilar. Majididdin parvonachi har qadamda sizga tosh otadi!

Xoʻja Afzal katta, ipak sallali boshini silkib tasdiqladi. Navoiy Darveshaliga kinoya bilan qattiq tikildi.

— Inim, bu toifaning niyatlaridan biz bexabarmizmi? — dedi u jiddiy ham qizishib. — Majididdin Muhammad kim? Undan badtarinlar ham bor. Yuz ming tanga maoshni oz bilib, har burchakda sasib yuruvchilar bor. Vatanni taqsimlamoq orzusida boʻlgan xoinlarni ham bilurmiz. Ularni, albatta, yoʻqotmoq kerak. Lekin bu ishda mardona va toʻgʻri boʻlmoq zarur. Oʻzgalar egri boʻlsalar, biz ularga ergashmaylik. Chaqmoq qancha balandda chaqnamasin, egri boʻlgani uchun, albatta, yerning qaʻriga borur. Shamki, toʻgʻri, adildir — kuysa ham boshdan-oyoq nur boʻlib kuyur.

— Maydonni dushmanlarga taslim etmoq yaxshi emas, demoqchi edim, — dedi qizarib Darveshali.

— Bagʻoyat toʻgʻri mulohaza, — qoʻl harakati bilan tasdiqlab dedi Navoiy. — Biroq buni shaxsiy adovat-larga aylantirmaylik, har bir masalaning holiga toʻgʻri, xolis niyat bilan kirishmoq lozim.

— Albatta! — dedi bir necha kishi birdan.

— Biz yurt ko'kidan zulmning qora bulutlarini quvmog'imiz kerak, — davom etdi Navoiy. — Kimdan xalqqa jabr-zulm sodir bo'lsa, u bizning beomon dushmanimiz bo'lg'usidir. Alhamdulillah, zulm tig'ini, qo'limdan kelgancha, ushatmoqqa bel bog'laganmen. Bu muqaddas ishda hammamiz yakdil, yaktan bo'lmoqligimiz, o'z manfaatlarimizni emas, yolg'iz xalq foydasini nazarda tutmoqligimiz kerak. Kamina uchun bu — haqiqatlarning haqiqatidir.

## II

Navoiy har kun devonda va o'zga doiralarda dushmanlarning yangi-yangi kirdikorlarini mushohada qila boshladi. Devonda va o'zga doiralarda unga ham uning ishlariga qarshi chuqur tomir yoygan fitnalar kundan-kun ravshanroq sezildi. Shirin so'z, nazokat, nozik muomalalarning guldastasidan zahar anqir edi. Majididdin parvonachining boshi kibr bilan kun sayin ko'tarildi. Nizomulmulk fitna urug'ini uzoqni mo'ljalab, juda maxfiy sepmoqda. Ular muhim davlat ishlarini Navoiy ishtirokisiz hal etishga tirishadilar. Bir vaqtlar jinoyatlari uchun Navoiy mansabdan quvgan amaldorlar yana yuqori poyalarga intiladilar.

Dushmanlarning davlat va xalq manfaatiga ziyonli har bir chora va tadbirlariga Navoiy o'z nafratini bildirdi. Lekin dushmanlar u bilan hisoblashmoqqa majbur bo'lsalar ham, uning zarbasi ostida qayta-qayta singan qurollarini yig'ishtirmadilar.

Bir kun, zakot masalasida Majididdin bilan kuchli to'qnashuvdan keyin Navoiy Husayn Boyqaroga murojaat etdi. Podshoh uni, aksar vaqtdagi kabi, lutfkorlik bilan qabul qildi. Shoir uning nomidan qilina-yotgan mash'um ishlarni to'la tushuntirdi, yarani avj oldirmasdan kesib tashlash xususida kengash berdi. Husayn Boyqaro shoirni diqqat bilan tingladi. Lekin allakimlar bilandir hisoblashmoq lozim ekani, allakimningdir ko'nglini ranjitmaslik haqida dudmal gaplar bilan chegaralandi-da, o'rnidan turib, shoirni

chog'ir bazmiga taklif etdi. Navoiy uzr so'radi va quruqqina xayrlashdi. Saroydan chiqib, otni Xiyobon-boshiga haydadi. Sa'diddin Koshg'ariyning qalin daraxtlar bilan qoplangan, salqin shamollarga maskan bo'lgan sokin mozori oldida otdan tushdi. Eshikni itarish bilan ichkaridan tanish xizmatkor yugurib chiqib, jilovni tutdi. Navoiy tashqari hovlining to'ridagi ikki darichali pastgina, ko'rimsizgina uyga kirdi. Oltmish yoshlarga kirgan, lekin hali tetik chol Navoiyning e'tiroziga qaramay o'rnidan turdi, atrofida uyum-uyum qalashib yotgan kitoblarni oralab o'tib, donishmand ko'zlarida barq urgan shodlik bilan juda samimiy, mehribon ko'rishdi. Bu — mavlono Abdurahmon Jomiy edi. U minglab odamlar ixlos qo'ygan dongdor shayx, she'ri, ilmiy asarlari bilan ovozasi o'z yurtidan uzoqlarga ketgan ulug' shoir, olim va mutafakkir... Butun mamlakatning olimlari, shoirlari, akobir a'yonlarigina emas, balki podshoh va shahzodalar o'zlarini unga yaqin tutishga tirishadilar, ixlos bilan unga ta'zim qiladilar. Lekin bu chol g'oyat sodda va kamtar. Uning burushqoq maxsisidan boshlab oddiy sallasiga qadar darveshona edi. Jomiyning zohiriy soddalik va kamtarinligida buyuk ma'naviy kuch ravshan sezilardi. Lekin uning dong'ini eshitib, zarrin to'nlarga o'ralgan, sersavlat, serhasham bir shaxsni o'z tasavvurida yaratgan ba'zi odamlarning haqiqiy Jomiy bilan ilk uchrashganlarida, qo'pol matodan tikilgan darveshona libosli bir keksani ko'rib: «Bu — hazrat Jomiyning xizmatkorlaridan bo'lsa kerak», deb o'ylab, keyin juda o'ng'aysiz holga tushib, qizarganliklari nodir voqealardan emasdi.

Jomiy mehmonni yumshoq po'stakka o'tqazdi. O'zi avvalgi o'ringa, kitoblar orasiga o'tirdi.

— Janoblarini ko'rmoqqa bukun ko'ngil, filhaqiqat, mushtoq edi, — dedi chol qisqagina oq soqolini silab qo'yib.

— Mening ko'nglim har soat bu maskanga tolpinadi. Ne qilaylikki, mashaqqatlardan qutulmoqqa imkon yo'q, — dedi Navoiy.

— Uzringizni tangri ham qabul qilur, nainki, biz kabi zarrai xok! Elga xolisanlillo xizmat qilmoq insoni komilning ishidir. Bu nav zahmat-mashaqqatlar aslida farog'atdir.

Navoiy davlatda ro'y berayotgan tartibsizliklardan, haqsizliklardan ranjiganini qisqa bayon qildi.

— Sizning elga muhabbatingizning toza gullarini ko'rmoqdamiz, — dedi Jomiy yumshoq ohang bilan. — Emdi el, ulusga farovonlik mevalarini ko'rmoq nasib bo'lsin. Har nav mushkilot bo'lsa, podshohga aytmoq lozim.

Bu ikki shoir, yosh farqiga qaramay, tarixning egiz farzandlari edi. Shaxsiyatlaridagi ma'naviy kuchlarning boyligi ularni uzilmas, tebranmas do'stlik bilan bog'lagan. Navoiy o'z otasi tengli Jomiyni daryoyi ilmi, porloq she'ri, olijanob, sof qalbi uchun yoshlikdan ixlos bilan sevadi, ustod kabi hurmat qiladi. Jomiy ham Navoiyni ayni fazilatlar uchun sevadi. Asrlarcha shoirlar quruq tikanzor deb bilgan turkiy tilda ajoyib chamanzorlar ko'ra olgan va ulardan xirmon-xirmon toza, yorqin guldastalar yasagan va maqsad yo'lining toshliqlarida temir iroda bilan odim otgan ham ko'p turli qobiliyatlarni o'z shaxsida g'oyat ko'rkam jam qilgan bu ikki tilli shoirga tan beradi. Shunday zamondosh bilan do'stligi uchun faxrlanadi.

Odatdagicha samimiy, jonli, iliq suhbat boshlanib ketdi. Navoiy ko'pincha bu yerda tasavvuf falsafasiga<sup>1</sup> doir masalalar ustida so'zlashardi. Jomiy bu falsafani eng chuqur biluvchilardangina emas, balki o'z hayotini bu falsafaga muvofiq qurgan yirik namoyandalardan edi. Lekin shoirlarning falsafiy suhbatlari ertakday jonli, rangdor oqardi.

Navoiy tarixda mashhur shayxlarning hayotlari, fikrlari, maslaklari va ularga doir afsonalar haqida asar yozishni Jomiyga taklif etdi. Jomiy bunday orzu uning diliga ko'pdan buyon jo bo'lganini, Navoiyning ilhomi va yordami orqasida bir kitob vujudga keltirish

---

<sup>1</sup> So'filik, darveshlik falsafasi.

mumkinligini bayon qildi. Navoiy suyundi. Asar tugagach, forsiychadan, albatta, o'zbekchaga tarjima qildirajagini so'zladi. Kitob haqida uzoq so'zlashdilar. Navoiy darichaning ro'baro'sida, hovlida o'sgan yosh, baland chinorga qaradi. Kech bo'lib qolgan. Ketmoqqa ijozat tiladi. Jomiy tepasidagi tokchaga qo'l uzatib, qalingina kitobni oldi. Uning ichiga qo'yilgan ayrim, ensiz kesik qog'ozlardan birini chiqardi-da, kulimsirab, dedi:

— Mir, siz ko'ngil daryoyingizdan bir durri bebaho chiqaribsiz, xalq orasida bisyor shuhratga sazovor bo'libdi. Uni biz ham tatabbu etdik va bu uslubda bir nima yozmoqqa harakat qildik. Ko'ring, shoyad maqbul bo'lg'ay, — qog'ozni Navoiyga uzatdi.

Navoiy ko'zlarini Jomiyning chiroyli yozuvlari ustida yugurtdi. Bu — Navoiyning «Ochmag'ay erding jamoli olam oro koshki» misrasi bilan boshlangan g'azalining ayni vazn, qofiya, radif bilan Jomiy tomonidan yozilgan forsiy namunasi edi:

*Diydame diydori on dildori ra'no koshki,  
Diyda ravshan kardame az xoki on po koshki.*

Navoiy g'azalni shavq bilan tovush chiqarib o'qidi. Cholning o'siq qoshlari tagidan qaragan, har vaqtdagi kabi, sokin, ishonchli, dono ko'zlariga tikildi.

— Bizning g'azalimiz el orasida bir qadar shuhrat tutgani haqida rivoyatlar bor, — dedi Navoiy kamtarinlik bilan.— Sizning xolis durri gavhardan chizilmish bu badiangizning shuhrati jahonni tutishi muhaqqaqdir.

Jomiyning ko'zlarida, soqollarida samimiy, oqko'ngil tabassum toshdi.

— Bir nusxa ko'chirib olmoqqa ijozat berursiz. — Navoiy ko'zlari bilan qalam, dovot qidira boshladi.

— Zahmat chekmangiz, — qo'li bilan yengil ishorat qilib dedi Jomiy, — bu nusxani siz uchun maxsus ko'chirib qo'ygan edim.

— U holda tuhfangizning qiymati biz uchun behisob ortdi.

Navoiy qog'ozni avaylab taxladi-da, kissasiga soldi va xo'shlashdi. Jomiy uni tashqi eshikka qadar kuza-tib qo'ydi.

Xuftondan keyin Binafsha bog'ning sufasida Hirotning eng dongdor me'morlari, binokorlari, sangtaroshlari, naqqoshlaridan iborat qirq-ellik ustod yig'ildi. Bularning aksari maxsus maktab ko'rmagan bo'lsalarda, asrlarning tajribasini mukammal o'zlashtirgan, ijodchi fikrga ega ajoyib ustalar edi. Shoir ularga Injil' yoqasida qurmoqqa qaror qilgan oliy imoratlari to'g'risida so'zladi va ustodlar bilan yarim kechaga qadar kengashdi.

## ***O'n uchinchi bob***

### **I**

Majididdin o'zining podshohdan tilab olgan yeridagi yangi bog'chasida, ilk gullari endigina ochilgan, ko'shklarining naqshlari hali qurimagan, daraxtlari yosh, lekin havodor yerda ziyofat berardi. Haftalab ichishga odatlangan mayxo'r beklar va mansabdorlar ko'p ichib, qizarib, lekin hushyor suhbatlashar edilar. Yolg'iz kaltakesakdek rangsiz, qonsiz mavlono Shahobiddinning kayfi joyida edi. U mehmonlarning qay biri bilan hazil-mutoyiba qilishni bilmasdan, mashhur qiziqchi Abduvosening bukun taklif etilganidan shikoyatlandi. Majididdin parvonachi ko'zlarini ayyorcha qisdi.

— Janob qozi, bukun biz Abdulvoseni qasddan da'vat etmadik, andak muzokaralarimiz bor...

— O'zingiz ham mutoyiba, latifa ustodlaridansizku, boshlayvering, — dedi Amir Mo'g'ul.

— Yo'q, janoblar, men arkoni davlat va amirlar bilan hazillashmoqni ilal'abad<sup>2</sup> tark etdim, — qo'lini silkib, dedi Shahobiddin.

---

<sup>1</sup> Hirotida kichik bir nahr.

<sup>2</sup> Mangulik, hamishalik.



— Sababini bilamiz, — dedi kinoya bilan kulib Majididdin. — Alisher ta'ziringizni beribdi-da.

— Bu jihatdan biz bexabarmiz, ne voqea? — qulog'ini dikkaytirdi olifta kiyingan, yoshi ulug' bo'lsada, bachkana qiliqli mansabdor Xo'ja Xatib.

— Bir majlisda Alisherning menga qaratgan mutoyibasiga shul onda javob bergan edim, bag'oyat xafa bo'libdilar, — qix-qix kulib gapirdi Shahobiddin.

— Menga duch kelgan qulunday, bir o'q bilan o'maribsizda shoirni! — kerilib dedi ovchi beklardan biri.

Majididdin «muzokara»ga yo'l tabiiy ravishda ochilganiga suyundi. Hammaning diqqatini jalb etmoqqa tirishib, falokatdan xabar berayotgan singari, tovushini pasaytirib, gapirdi:

— Shukur qiling, taqdir! Hozirgi mavqeingizni, bu majlislarni o'zingiz uchun ollo taoloning ulug' nemati, deb biling, janob qozi! Alisherning dast panjasi zarbini hali totmabsiz. Bihisht kabi shahrimizdan sizni haydab yuborsa, qo'lingizdan ne kelur edi?

— Sadag'ang bo'lay, mendan ne gunoh sodir bo'ldi? Ollo taolo bunday qora kunni hech bandasi-ning boshiga solmasin! — ko'zlarini katta ochib dedi Shahobiddin.

Majididdin xaxolab, kaftlarini bir-biriga urdi.

— Xuroson shoirlarining saromadi mavlono Binoiyning taqdiri ne bo'ldi? Yurtdan haydalmadimi?

— Mavlono Binoiy sayohat uchun ketdi, — dedi bir chekkada shatranj o'ynayotganlardan biri.

— Behuda gap! Siz bexabarsiz... — o'yinchiga xo'mraydi parvonachi.

— Mavlono Binoiy Alisherning tarbiyasi soyasida nom va shuhratga erishdi. Binobarin, har yerda o'z ustozini masxaralashdan zavqlandi. Hirotidan jo'nashda ham eshagi uchun «to'qumi Alisher» degan bir baloni ixtiro etib, butun Hirotga suron soldi. Men Alisherga nima yomonlik qildim, xo'sh? Yolg'iz uning ona tilida she'r aytishini yoqtirmaymen, xolos! — dedi bo'g'ilib Shahobiddin.

— Mavlono Binoiyning ham oʻzga aybi yoʻq, — gapga aralashdi Xoʻja Xatib. — Binoiyning eʼtiqodicha, turkiyda sheʼr soʻylamoq — behuda harakat. Shuning uchun ularni mazax qiladi.

Mavlono Shahobiddin achchigʻiga chidolmagandek, piyolani shoshib sipqordi, uzun soqolini qoʻli bilan artdi.

— Balli, biz ham shu fikrni maʼqullaymiz, — koʻkimtir sallali boshini gʻurur bilan chayqab dedi mavlono Shahobiddin. — Firdavsiy, Nizomiy, Shayx Saʼdiy, Hofiz Sheroziy kabi sheʼr samosining oftoblari jahonni nurga toʻldirsalar, bizning turkigoʻylarning qora chirogʻi oʻz kulbalarini ham yoritmoqdan ojidir. Eronki, sheʼrning va ilmning xazinasidir, uning lisonini ollo taolo ilhom chashmasi bilan sugʻoribdir, bas, u lisonda yozmoq kerak...

Doimiy ichkilik va qimor bilan kechirilgan turlarning horgʻinligi yuzida ochiq koʻringan Amir Moʻgʻul mast, qiyiq koʻzlarini Shahobiddinga tikdi va qoʻlini choʻzib, u bilan guldor piyolalarni choʻqishtirdi.

— Fikringiz toʻgʻri, — dedi u hansirab, — yoʻq, men bu masalaga eʼtibor bermaymen. Mayli, bulbullar qatorida turumtoylar ham sayray bersinlar. Bularni ham tinglovchilar, suyuvchilar bor.

— Eshitishimcha, Navoiy sozining ovozasi bir yoqdan Qozonga, ikkinchi yoqdan Xoʻtan va Koshgʻargacha yetibdi, — qistirib qoʻydi beklardan biri.

Amir Moʻgʻul soʻzni kesgan bekka yer ostidan yomon tikilib, mayni suvday sipqordi-da, davom etdi:

— Meni tashvishga solgan boshqa bir jihat bor. Hamma balo shundaki, Xuroson davlatini Navoiy oʻz qoʻliga oldi. Jamiki ishlarga, jamiki mansablarga ip solib qoʻydi u. Axir ota-bobolari sohibqiron Temurga va uning avlodlariga qul yangligʻ xizmat qilgan baʼzi beklarda bukun ixtiyor qolmadi. Maʼlumki, davlatning tiragi beklardir. Ular oʻz vazifalarida hamisha hur va mustaqil boʻlganlar. Navoiy davlatda qadim rusum va

qoidalarni yakson qilmoqda. Shaharlarning, viloyatlarning hokimlari hisob-kitobni qo'ltiqlab, bo'zchining mokisiday Hirotga qatnab turishlari lozim emish. Xalq, adolat, qonun degan shiorlar pardasi ostida Navoiy, bilmadim, yana nimalar o'ylab chiqarar ekan!

Amir Mo'g'ul ko'pchilikka ta'sir ko'rsatdi. Shatranj o'ynovchilar ham o'yinni tezroq tugatish uchun sabrsizlanib qoldilar. Majididdin parvonachi qo'sha-qo'sha qimmatbaho uzukli barmoqlarini yengilgina qisirlatib, ustodona tur bilan majlisga qaradi, hammaning diqqatini jalb etgach, qizishib gapirdi:

— Navoiyning xalq va adolat haqidagi mulohazalari har bir tajribakor, korsoz davlat arbobi uchun quruq safsatadan o'zga gap emas. Xalq bir podadir. Podani yo'lga solmoq uchun cho'ponga yolg'izgina mustahkam gavron kerak. Navoiy qosh qo'yamen, deb ko'z chiqarmoqchi. Masalan, Navoiy ba'zi muhtaram qozilarimizni, amaldorlarimizni xalqqa jabrsitam qilishda ayblagan ediki, butun mamlakatda xalq hushyorlanib qoldi. Amaldorlar, hatto viloyat hokimlari ustidan har kun benihoyat ko'p shikoyatlar yog'ila boshladi. Bu siyosat emas, hamoqatdir. Ne qilaylikki, xoqonimizning muborak ko'zlarini bu haqiqatlarga hanuz ocholmadik.

— Podshohimizga achinamen, — dedi boshini qayg'uli tebratib Xo'ja Xatib. — Alisher Navoiy el va ulusga o'zini yaxshi ko'rsatur, mamlakat uning guruhi qo'lida o'yinchoq bo'lur. Bir vaqt besabab mening boshimga tosh yog'dirgan johil olomoni zanjirband qilinmasa, u yana dahshatli voqealarni qo'zg'ar. Navoiyning adolat, qonun shiorining orqasi — zulmat!

— Zulmat! Zulmat! — tupurigini sachratib, g'azab bilan qichqirdi mavlono Shahobiddin. — Haq so'zni dedingiz, janob Xatib, dalil va isbot darkormi? Xotir shariflari uchun bir dalil: kamina o'z aziz umrining gulini, fikrining javharini sarf etib, bir asar vujudga keltirdimki, nafsilamrda bu kabi kitob na arab, na fors va na hind lisonida misoli yo'qdir. Men bu asarda

Qur'oni karim oyatlarini va suralarini bag'oyat oson topmoq yo'llarini ko'rsatdimki, har bir musulmon uchun behad foydalidir. Bovujud sa'y-g'ayratimga nazar solmadilar. Madrasalarning eshiklari kamina uchun yopiq. Navoiy atrofida jam bo'lgan ham madrasalarimizda dars aytgan mudarrislar ilmiy hay'at, riyoziyot va mantiq kabi dinimizga rahna soluvchi, musulmonlarning pok e'tiqodida shubha tug'diruvchi ilm ahllaridirlar. Qani dinu diyonat? Qani adolat?

— Bu gaplarni el orasida ro'y-rost so'zlamog kerak, janob qozi! — dedi Majididdin.

Majididdin soqiya — juda yaxshi kiyingan, nozik, chiroyli yigitchaga — ishorat qildi. Go'zal qadahlarda lolarang sharob ketma-ket quyildi. Mastlik dillarning qulfini ochdi. Xazinadan tuman-tuman oltin-kumush oluvchi beklar, mansabdorlar butun-butun shaharlarga, butun-butun viloyatlarga ega bo'lish to'g'risidagi xayollarini cherta boshladilar.

Ulfatchilik eng qizigan paytda lapanglab mag'rur To'g'onbek kirib keldi — egnida zarrin yoqali ko'k shohi chakmon, boshida mo'g'ulcha qalpoq, belida rang-barang toshlar qadalgan serbar kamar, qo'lida kumush bandli qamchi... U Xadichabegimdan tug'ilgan va podshohning sevikli o'g'li Muzaffar Mirzoning — hali yosh shahzodaning — xos yigitlari qatoriga Majididdinning yordami bilan kirib olishga muvaffaq bo'lgan edi.

Mast beklar To'g'onbekning taqir sipqorilgan qadahidan ataylab bir qatra qoldiq tomdirishga tirishdilar. Qadim odatlarning xotirasi uchun unga to'qqiz marta qadah tutishga jazm qilishdi. Eski odatlarning ezguligiga chuqur ishongan To'g'onbek e'tiroz qilmadi. Yolg'iz kinoyali iljayish bilan to'ng po'ng'illadi: «Bobolarning arvochini shu angishvona bilan yupantiramanmi?» To'g'onbekning angishvona degani katta qadah edi. Beklar, qadimning bo'limli yigiti, deb uning yelkasini qoqdilar. U uchun kattaroq xitoyi bordoq keltirildi. Xipcha belli soqiy qatorlagan

ko'zchalardan lim-lim quya boshladi. To'g'onbek cho'kka tushib oldi. U chanqovdan og'ilni buzib chiqib, duch kelgan ariqni ochko'zlik bilan simirgan buqachaday, katta yutumlar bilan ichaverdi. Har gal bo'shatganda, bordoqni to'nkaradi, bir tomchi silqimaydi. Odamlar mast ko'zlarini suzib, qiziqib qaraydilar. May bordoqning chetidan toshib tushmasa, qichqirishadi: «Quy, quy! Jayhunni ham quritadi bu!» To'g'onbek to'qqizinchi bordoqni sipqorib, to'nkardi. Dakkam-dukkam qizg'ish mo'ylabini artib, tishlari orasidan uzoqqa, gulzorga «chirt» etib tupurdi-da, bemalol chordona qurdi.

— Chingizxondek jahongirlarga sarkardalikka loyiq yigit-da! — Xo'ja Xatib To'g'onbekni ko'rsatdi.

Chog'ir majlisi yana qizidi. Mavlono Shahobiddin uchib qolib, o'likday cho'zildi. To'g'onbek bir qadar tilga kirdi. Muzaffar Mirzo boshliq yuz yigit bilan ovga chiqib, o'n kun yaxshi ov qilganligi, yosh shahzoda o'q otishda ancha malaka orttirganligi va hokazolar to'g'risida gapirdi. Ovchilik ham qushlar haqida ba'zi beklar bilan tortishdi. Nihoyat, majlisning haliberi tugamasligini sezib, ko'z qiri bilan Majididdinni imladi-da, mehmonlardan uzoqlashdi.

Bog'chada, yosh daraxtlar orasida jimgina ishlab yurgan qul — Nurboboga yo'liqdi. U bilan dastlab, mehribon o'g'il ota bilan ko'rishgan kabi, samimiy hol-ahvol so'rashdi. Ammo, bir zum o'tmasdan, mayning ta'sirida ortiqcha gerdayib, shilqimlik bilan hazil-huzulga o'tdi. Cholning mayin, ko'rkam oq soqollarini tutamladi: «Bu nima? Bundan supurgi yasab, «Alisher supurgisi» deb nom qo'ysang bo'lmaydimi?» Cholning burishgan yuzlari g'azabdan titradi. To'g'onbek shovqin soldi: «Hozir Hirotda kimki bir narsa ishlasa, albatta, «Alisheriy» deb nomlaydi, tushunasenmi, qarib quyulmagan kalla!»

Nurbobo undan o'zini bazo'r qutqardi. Qoshlarini jahl va kinoya bilan chimirdi-da aqlli chollarga xos ishonch bilan dedi: «Alisher Navoiyga qarshi tillaringni muncha qayray berdilaring? U janob senlarning

arpalarini xom o'rdimi?» To'g'onbek bir qo'li bilan cholning belini qamrab olib, kichkina bolani ko'tar-gandek, yengil ko'tardi: «Kuchukbachchaday dumalatib, ezg'ilar edim-ku, biroq ana shu supurging-ni hurmat qilamen!» — cholni sekingina yerga qo'ydi. Nurboboning rangi o'chdi, sodda ko'zlariga qayg'u toshdi. U o'zining suyak qo'llarini To'g'onbekning yelkasiga qo'yib, dard bilan gapirdi:

— Bek yigit, bu qadar oshib-toshmoqlikning ne foydasi bor? Bu dunyoning zavq-safosiga nodon odam beriladi. Qadaming ostiga qara, minglarcha ko'zlar termiladi! Sen ularni ko'rmaysen, ammo ko'ngilning ko'zi ularni juda ravshan ko'radi... Bilamen, sening es-hushing mansabda, arg'umoqda... Biz kabi xokisor, o'jiz va notavonlarni ko'z uchiga ilmaysen. Biroq, bilib qo'yki, ikkimiz bir joyga boramiz, nasibamiz bir par-cha sovuq tuproq! Tirikmiz — farqimiz bor, men qul, sen ulug' poyali ozod yigit. Ammo yer qo'ynida ikkimiz yon-yonga yoturmiz. Ehe, men ne-ne pod-shohlarni ko'rmadim, Shohrux Mirzo, Abulqosim Bobir Mirzo, Abusaid Mirzo — hammasi yo'lga ravo-na bo'ldi. Tez kunda men ham borurmen. Shohning ham, qulning ham so'nggi yo'li — bir!

Nurbobo alamdanda, mehnatdan qovjiragan, burushiq yuzida yumalagan ko'z yoshlarini eski cho-ponning etagi bilan artib, o'z ishiga, yosh mevali og'ochlarning tagini chopishga kirishdi.

— Qariya, — dedi gerdayib To'g'onbek, — o'giting ma'noli... Biroq umr qisqa ekan, yashaganingga yarasha dunyoning changini chiqarib ket!

— Changda o'zing bo'g'ilishing ham mumkin! — qaramasdan, astagina dedi chol.

To'g'onbek uzoqda, daraxtlar oralab kelayotgan Majididdinning qorasini payqab, u tomonga tez-tez odim otdi.

— Xo'sh, yana ne gaplar bor? — bir qo'li bilan ol-ma og'ochiga suyanib, kalovlanib so'radi Majididdin.

— Xadichabegim bugun oqshom siz bilan so'zlash-moq istaydilar, — shivirladi To'g'onbek.

Majididdinning ko‘zlari katta ochilib, hushyorlanib ketdi.

— O‘zlari sha... sha... shaxsan aytdilarmi? — duduqlandi u, — ham qayerda ko‘rishamiz?

— Bosh kanizaklari aytdi. Muzaffar Mirzoning yangi saroyida. — Majididdinning yuzi kulgidan bema’ni yoyilib ketdi. To‘g‘onbek yer ostidan sobiq xo‘jasiga qaradi:

— Malikamizga bizni ham tanittirib qo‘yursiz...

— So‘zning ravishiga qaraymiz, inim.

## II

Xuftondan keyin parvonachi shahzodaning yangi saroyiga keldi. Biron gumon qoldirmaslik uchun, u qarshi olgan mulozimlarga, shahzodalarni ko‘rib, haqqiga duo o‘qimoq niyatida kelganini bayon qildi. Mulozimlar qo‘llari bilan uzoqqa ishorat etdilar. Majididdin uzoqda kechaning qora ko‘miriga yong‘in tushgandek, havoda yuzlarcha mash‘allarning lovillaganini ko‘rdi: «O, shahzodam ajoyib o‘yin bilan mashg‘ul ekanlar. Naqadar go‘zal manzara!» — boshini og‘ir tebratib, zavqlanganini bildirdi parvonachi.

— Shahzoda har kun yangi o‘yin, yangi tomosha ixtiro qiladilar! — mash‘allarga tikilgan holda dedi bir mulozim.

Majididdin saroy atrofida bir oz aylanib, bosh kanizak bilan uchrashishga muvaffaq bo‘ldi. Kanizak bir necha daqiqadan so‘ng qaytib kelib, qorong‘i, kimsasiz yo‘l bilan olib ketdi. Majididdin hamma darichalaridan yorug‘ tushgan ikki qavatli binoga keldi. Zinadan ikkinchi qavatga ko‘tarildi. Ikkita qopqora cho‘ri xotin o‘tirgan dahlizdan o‘tib, juda serhasham, go‘zal, kichikroq bir xonaga kirdi. To‘rdagi ochiq daricha yonida, qat-qat shohi ko‘rpachalarda, yostiqqa yonboshlagan ayolga ko‘zi tushishi bilan ikki bukilib ta‘zim qildi. Keyin ayoldan ruxsat olib, yana ta‘zim bilan quyiroq tiz cho‘kdi. Kanizak shamdonlardagi shamlarning uchini to‘g‘rilab, orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Xadichabegimning bezaklari, pardozi parvonachining ko'zlarini beixtiyor tortar edi. U hadiksirab, boshini quyi solishga tirishdi.

— Mahd ulyo<sup>1</sup> begimning sihatlari yaxshi, muborak ko'ngillari shodmi? — murojaat etdi Majididdin.

— Tangriga shukur, — uzun barmoqlari bilan chakka sochlari tuzatib, dedi Xadichabegim. — Men sizni bemahal ovora qildim.

— O, mahd ulyoning huzurlariga hamma oyoq bilan kelganda, bu qulingiz boshi bilan yurib kelmoqni o'zi uchun ulug' baxt va sharaf bilur.

Xadichabegim yurt uchun qayg'uradigan bir malika ekanini ko'rsatishni sevardi. Odati bo'yicha, mamlakat ahvoli haqida so'radi. Majididdin adolatda yagona bo'lgan ulug' podshohning va Xadichabegim kabi oqila malikaning davrida butun mamlakatda farovonlik hukmron ekanini tumtaroqli so'zlar bilan maqtab ketdi va joyi kelganda, bu yo'lda o'zining xizmatlarini ham ustalik bilan qistirib o'tdi. Xadichabegim dam bezaklari va sochlari bilan mashg'ul bo'lib, dam darichadan qorong'i, sokin bog'chaga qarab, parihonlik bilan tingladi.

— Sizga ko'proq e'timod qilganim uchun ba'zi ishlar xususida kengashmoq istagan edim, — iltifot va iliqlik bilan dedi Xadichabegim.

— Ko'rsatgan ulug' marhamatingizga minnatdorchilik bildirmoq uchun bu qulingiz so'z topmoqdan ojizdir!

— O'g'limiz Muzaffar Mirzo o'sib, tangriga shukurlar bo'lsin, kundan-kun es-hushini tanimoqda, — nimanidir o'ylab sukut qildi malika.

— O, Xuroson tojining bebaho gavhari yosh shahzodamizga tangri taolo Xizr umrini, Sulaymon taxtini bersin.

Xadichabegimning upa-elik bilan tovlangan yuziga birdan tabassum yugurdi.

— Ma'lumki, onaning ko'nglida o'z farzandining

---

<sup>1</sup> Xadichabegimning unvoni.



baxtidan oʻzga hech qanday quvonch va rohat boʻlmas, — dedi u soxta muloyimlik bilan. — Tangri umr bersa, Muzaffar Mirzo tezda ulgʻayadi. Uning dilini baland orzular toʻldiradi, qoʻshin surishga oʻtlanadi. Shunday emasmi?

Xadichabegimning maqsadi parvonachi uchun endi juda ravshan boʻlgan edi. U kulib, dedi:

— Shoh bolasiga yurt va sipoh, darvesh bolasiga masjidu xonaqoh kerak!

— Sizdan yashirgʻulik sirimiz yoʻq, — dedi malika boʻyalgan ingichka qoshlarini oʻynatib, — oʻgʻlimning iqboli uchun shu zamondan boshlab toʻgʻri yoʻllar hozirlamoq darkor. Bilamen, har qaysi shahzodaning oʻz koʻnglida orzu-armoni bor. Eʼtiborli odamlardan murabbiylari bor. Badiuzzamon valiahd... Ulugʻ mirzo<sup>1</sup> hazratlarining xotirlari bunday andishalardan uzoq: bas, oʻgʻlim uchun ayol boshimga oʻzim qaygʻurmasam boʻlmas ekan... Fikrim ravshan boʻlgandir sizga? — makrli koʻzlarini tikdi Xadichabegim.

— Oftobday ravshan... Soʻzlaringiz asli mantiqning durdonalaridirki, malikamning nodir aqlu zakosi ham baland idrokiga guvohdir.

— Xoʻsh, nima fikr berursiz?

— Bu qulingizning fikrimi? — tabassum qildi parvonachi, keyin donishmandona bir tur bilan davom etdi. — Avvalo, shuni aytmoqligim kerakki, mahd ulyo begimning raʼyilariga batamom qoʻshilurmen. Muzaffar Mirzoning baxti uchun hozirdan boshlab tadbirlar koʻrmoq zarur. Nechunkim, taqdirning buqalamunliklari benihoyatdir! Ammo bu xususda oshiqmoq, har kinga sir bermoq — tangri koʻrsatmasin — yomon oqibatlarga sabab boʻlur. Pinhon ishlamoq, har bir qadamni kengash bilan qoʻymoq lozim. Muzaffar Mirzoning tevaragidagi beklarning, yigitlarning shahzodaga sadoqatlaridan zarracha shubha qilinmasin. Toʻgʻonbek kabi gʻoyat ish koʻrgan,

---

<sup>1</sup> Podshoh.

bahodir yigitlari bor. Yana shunday puxta, chorasoz odamlardan bir nechasini shahzoda o'z xizmatlariga olurlar.

— Siz o'zingiz ham shahzodaga yo'l-yo'ruq ko'rsatib tursangiz...

Majididdin shunday taklifni kutib turgan edi. Qars ikki qo'ldan chiqadi. Va'daga va'da olmoq kerak.

— Podshoh hazratlariga men faqir qanday qul bo'lsam, shahzodamga ham shu yo'sinda qulmen, — dedi parvonachi qo'lini ko'ksiga qo'yib. — Xoqonimiz nazarlarida shahzodamning e'tiborlarini har vajah bilan ilgari sururmen. Ammo, haqiqatni aytganda, bu yo'lda mening g'ayrat va harakatim davlatdagi vaziyatimga, mansabim poyasiga bog'liqdir...

— To'g'ri, aytursiz, — javob berdi ma'nodor iljayib malika. — Bu jihatni o'ylarmiz, bundan keyin sodiq odamlar orqali har nav ishlar to'g'risida bir-birimizni ogohlantirib tursak, yaxshi bo'lar edi. Boshqa so'zim yo'q...

Majididdin qulluq qildi.

### ***O'n to'rtinchi bob***

Binafsha bog'ning bir chetida, qalin daraxtlarning quyuq, orombaxsh ko'lkasida Shayx Bahlul<sup>1</sup> bugungi ovqat uchun tayyorgarlik ko'rish bilan mashg'ul edi. U, o'z qaramog'iga berilgan yumushchilarga har xil ishlar buyurar, lekin harakatlarida esa qandaydir asabiylik, ko'zlarida qayg'u ko'lankasi sezilar edi. Nariroqda, ariq bo'yida sholcha ustida o'tirgan Sohib Doroni ham ko'rmagandek, yumushdan keyin sarv og'ochiga suyalib, xomush qoldi. Ortiqcha xushchaq-chaqlikni yoqtirmasa ham, lekin har vaqt sokin va yuvosh, kayfiyati joyida bo'luvchi bu qadrdon mulozimning bukungi vaziyati Sohib Doroni taajjublantirdi.

— Bunda keling, inim, bir nafas suxanvorlik qilaylik, — murojaat etdi Shayx Bahlulga Sohib Doro.

---

<sup>1</sup>Navoiyning qadrdon mulozimlaridan.

Shayx Bahlul istamaganday, yalqovlanib o'rnidan turdi.

— Holingizda tag'ayyur ko'ramen, o'tiring, — joy ko'rsatdi Sohib Doro va davom etdi. — Ko'nglingizda ne anduh bo'lsa, bayon eting.

Shayx Bahlul sholchanning bir chetiga o'tirdi-da, birdan kulimsiradi.

— Mavlono, ishoning, ko'nglimda zarra qadar dard yo'q, — dedi Shayx Bahlul, — garchi bo'lganda ham, aytmoqlik nonko'rlik bo'lur edi.

— Nonko'rlik? — qiziqib so'radi Sohib Doro. — Mir hazratlari bilan orangizda biron so'z o'tgan deb gumon qilurmen. Endi so'zlamogga majbursiz!

— Karomatingiz bag'oyat to'g'ri. Oqshom Mir devondan qaytdilar,— kulimsirab gapira boshladi Shayx Bahlul,— xosxona ichiga kirdilar. Bir daqiqadan so'ng meni chaqirdilar. Mirning nomlariga kelgan bir dasta maktub, ariza va talabnomalarni yig'ishtirib, huzurlariga kirdim. Mir kursi ustiga ishorat qilib, dedilarki: «Oling!» Men, filhaqiqat, dovdirab qoldim, kursi ustida sham, davot-qalam va bir kosa suv turur edi. Qay birini olay! Noiloj so'radim: «Qaysi nimarsani olmoqqa buyurdilar». Bovar qilasizmi, Mir hazratlari g'azab bilan boqib: «Barakallo fahmingizga! Shuncha yil xizmatimizda bo'lsangiz ham, hanuz tartibni bil-maysiz. Sizga belgulidirki, sham sabohga qadar qoshimda yong'usi, davot-qalamning zarurligini izohlashga hojat yo'q. Demak, bu yerda qay narsa luzumsiz?» dedilar. Men darhol suv to'la kosani ko'tarib tashqari chiqdim.

Sohib Doro tizzasini urib, zavq bilan qah-qahlab kuldi.

— Kulgi nima? Bu bilan faqirning jarohatiga yana tuz sepursiz, — ranjib dedi Shayx Bahlul.

— Astag'furullo! Xo'b, zinhor kulmaymen, yana nelar bo'ldi? — ro'molchasi bilan ko'zlarini artib, so'radi Sohib Doro.

— Hammadan faje shulki, ertalab Mir o'zlari uzr tiladilar, men xijolatdan boshimni ko'tarib ololmadim.

— Bahlul, bundan xotiringiz behuda tashvish tortibdur, — dedi Sohib Doro. — Mir bilan uning dono mulozimi orasida bo'lmish bu voqea endi butun Hirot, balki Xurosonga tarqalur, har yerda Mir Alisher nomi yod etilsa, suxandonlar ajoyib rangdor uslub bilan bu nuqtani ham so'zlab berurlar, majlis ahlining ko'nglillari ochilur. Da'vomning isboti uchun sizga bir misol keltirurmen: bir vaqtlar Mir hazratlari Bog'i Fig'onda bir ulug' ziyofat bergan edilar. Poytaxtning bir ko'p shuaro va fuzalosi, akobirlari hozir edilar. Anvoi taomlar tortildi, dasturxon yig'ishtirilishi bilan Mir eshikka chiqib, qayg'adur g'oyib bo'ldilar. Majlis ahli, suhbatga Mirning vaqtlari yo'q shekilli, degan gumon bilan o'rinlaridan turib, tarqalib ketishdi. Shul asnoda Mir kelib, mendan so'radilar: «Mehmonlar qaerda?» Men izoh berdim. Mir nogo-hon g'azablanib, mendan ranjidilar va qoshlarini chimirib, dedilar: «Alisherning uyi oshpazning do'konxonasimidirki, hariflar kelib, osh yeb, jo'nay berurlar!» Bu nuqtani men bir ikki yor-do'stga aytgan edim, bovar qiling, barq sur'ati bilan Hirotning qulog'iga yetibdi... Yaqubbek<sup>1</sup>ning huzuridan kelganlarning axborotiga ko'ra, bu voqea u yerda ham tillardan tillarga ko'chib, majlislarda so'ylanarmish va bisyor-bisyor xursandchiliklarga sabab bo'lurmish.

— So'zlaringiz haqiqat, — dedi Shayx Bahlul. — Shoir haqidagi har bir ma'lumot yurtida zavq bilan tinglanur, lekin... befahm bo'lib yodlanurmen.

— Yo'q, xato qilursiz, — e'tiroz etdi Sohib Doro, — bu voqeani: «Mening aql va farosatda yagona mulozimi bor ekan», deb boshlagaylar har yerda; zeroki, xalq Mirga har vaqt ulug' nodir nimarsalarni ravo ko'radi.

— Alalxusus, el-ulus, — ovozini pasaytirib, maxfiy so'zlaganday, dedi Shayx Bahlul, — o'zgalar orasida shunday zotlar borki, ular shoirdan nuqson axtaradilar. Andak narsa sezsalur, falakning to'qqizinchi tabaqasiga ko'tarishdan lazzatlanurlar. Ammo ulus boshqa...

<sup>1</sup> Iroq hokimi.

— Ulus Navoiyda o‘zining yagona umidini ko‘radi, — qayd etdi Sohib Doru.

— Balli, maxdum, — davom etdi so‘zida Shayx Bahlul, — xabaringiz bo‘lg‘ay, bultur Mirning tishlari og‘rib, yog‘liq bog‘lagan edilar. Oz fursatda butun Hirot ayollari jag‘lari orqali shohi parcha o‘rab, «Yog‘liqi Alisheriy» nom qo‘ytilar. Shoirning tish og‘rig‘i — ayollar uchun husn vositasiga aylandi!

— Bas, Mirdan nechun ranjidingiz? — tabassum qilib so‘radi Sohib Doru.

— Yo‘q, men o‘z-o‘zimga ranjidim, — yumshalib, uyalganday yerga qarab gapirdi Shayx Bahlul. — Mir Alisherni ayblashga hech yo‘l bilan haqqimiz yo‘qdir. Zero, ul janobning boshlarida tuman-tuman ishlar borki, toqqa ortilsa, tog‘ ham bardosh berolmas edi. Bu sharoitda ul janobning ko‘zlari ba‘zan g‘azab bilan uchqunlansa, ba‘zan muomalalari dag‘allansa, bu aslo ajablanurlik hol emas. Bu jihatlarni kamina fahmlaydi, albatta.

— Maxdum, buni avvaldan fahmlamoq kerak edi. Siz qosh-qovog‘ingizni go‘dakona osiltirdingiz, — piching bilan dedi Sohib Doru.

— Inson ko‘ngli har nav zaifliklardan xoli emas emish.

Shayx Bahlul bog‘ ichidan chiqib kelayotgan bog‘bon bilan muomala qilmoq uchun ketdi. Sohib Doru sholchada yonboshladi. Yonginasidan sharqirab oqib, gulzorlar bo‘ylab, uzoqda havoning iliq oltinida nafis uyquga tolgan sarvzorlar qo‘ynida kumush uqa kabi tovlanib-tovlanib g‘oyib bo‘lgan suvga telmurdi. Sevib o‘qiydigan g‘azallar yodiga beixtiyor quyilib keldi.

*Nomasi qo‘ynimda, baskim, iztirob aylar ko‘ngul,  
O‘pkali chiqmoqqa go‘yokim shitob aylar ko‘ngul.*

Uchinchi misraning ilk so‘zlarini boshlar ekan, nogahon orqaga qayrilishga majbur bo‘ldi: «Assalom alaykum!» — qo‘l qovushtirgan, begona, sodda bir yigitga ko‘zlarini ma‘nodor qisib, bir zum tikildida, so‘ng oyoqlarini yig‘di.

— Ne xizmat?

Yigit allanechuk qizarib, yerga qaradi, so'ng birdan dadillanib gapirdi:

— Taqsir, meni bu dargohga mavlono Sultonmurod yubordilar, u kishini tanisangiz kerak.

— O, ul janobni tanurmiz, — tasdiqladi Sohob Doro. — Ne maqsad bilan? Mengami yoki Mir hazratlaringami?

Yigit ichki bir qarshilik bilan kurashganday, peshonasini qashib, javob berdi:

— Shul dargohda biron yumush topib berurlar, deb yuborgan edilar. Navoiy hazratlariga arz qilsak, shoyad...

— Hojati yo'q, maqsadni angladik, — yigitning so'zini kesdi Sohob Doro. — Bir daqiqa sabr eting.

Yigit ariq bo'yiga cho'qqayib, ulkan bog'ning jonli latofatidan ko'zlarini uzgusi kelmaganday, tikilib qoldi. Sohob Doro soqolini qashib, erinchaklik bilan o'rnidan turdi. Olmaning shoxiga ilib qo'ygan chakmonini shoshmasdan kiydi, oppoq katta sallasini diqqat bilan boshiga o'rab, yigitga dedi:

— Yuring, biz ikovlon Injil yoqasini sayr etib kelaylik. U yerlarda bo'lganmisiz?

— Ta'rifini eshitdik-ku, ammo ko'rganimiz yo'q.

— Hirotki bir olamdir, aning ichida Navoiy yangi bir olam barpo qilmoqdalar... Ha, kechirgaysiz, otinigiz nima? Sultonmurodning yaqinlaridan bo'lursiz?..

— Otim Arslonqul. Janobi mudarris bilan tanishligimiz bor...

Injil bo'yiga yetgach, umumiy inshoot suroni va olomon orasida Arslonqul anqayib, o'z hamrohini ko'zdan qochirdi, bir qancha vaqt u yoq-bu yoqqa termulib, so'ng katta ishning qizg'in to'lqiniga beixtiyor berilib, yura ketdi. Daryo bo'ylab katta masofada ish girdobi qaynar edi. Bir necha yuz odam terlagan, pishgan, hansiragan holda muttasil harakatda: yuk tashigan aravalarning gumburlashi, tuyalarning allaqanday qaysarlik va zarda bilan baqirishi, og'irkarvon fillarning haybatli lapanglashi, ishboshilarning keskin

qichqirishlari Arslonqulni ancha esankiratdi. U sangtaroshlarning oldida, sehrlangandek, beixtiyor to'xtadi. Bu yerda ustalar murabba<sup>1</sup> va mustatil<sup>2</sup> shaklda ham turli kattalikda bo'lgan toshlar ustida hayratbaxsh bir qunt va diqqat bilan kuymalanmakda edilar. Ba'zilar mukkayib, toshlarning g'adir-budir betini oynaday silliqlab yarqirratish bilan mashg'ul. Bir guruh ustalar silliqlangan, qirrali palaxsa marmarlarga ajoyib, jivir-jivir gullar yasamoqdalar. Ustalarning asboblari ostida marmar betida asta-asta ochilgan o'yma gullarning jonliligi Arslonqulni tang qoldirdi: «Olamda zargarlikdek xunob ish bo'lmas, derdim, bularniki yana ser mashaqqat ekan-ku!» deb o'ylar edi yigit.

Allaqaydan fillarda katta toshlar tashilib turadi, filbonlarning hayqirig'i ostida azamat yigitlar yukni tushirib, burunlari yerga tekkunday, bukchayib tashiydilar. Bir tomonda og'och ustalari qizg'in ishda: poytesha, bolta, arralarning sadolari ajoyib bir ohang bilan havoda yangraydi.

Arslonqul chumoliday to'xtovsiz o'rmalagan odamlar orasida, har tomonga alanglab, har qadamda hunar va san'atning mo'jizalariga yo'liqaroq, tentib ketdi-da, solinayotgan madrasaning peshtoqi qarshisida Sohib Doroni zarrin yoqa to'n kiygan, yoshgina olifta yigit bilan qizg'in suhbat qilayotganini ko'rib, ulardan nariroqda to'xtadi. Madrasaning qudratli, yuksak peshtoqi ustida ishlayotgan sallali, qalpoqli ustalarning dorbozday chaqqonligiga hayron bo'lib tikildi. Ularning ichida oppoq soqolli, bukchaygan chollar ham bor edi. Biroq bu chollar ham havozalar ustida, kuchli, qadami tetik yoshlar singari, qaltis harakatlarni beparvo bajarar edilar. Ko'rkam darvozaning yonlari sathiga, ko'cha yoqning azamat devorlariga yuzlarcha naqqoshlar yopishib ishlashadi. Quyoshda naqshlarning rango-rang olovi ko'zlarni qamashtirarli yonadi, porlaydi. Arslonqul bu chuvvos

<sup>1</sup> To'rt burchakli (muh.).

<sup>2</sup> Uzunchoq, cho'ziq (muh.).

ichida tasodifan yo'liqib qolgan Sohib Droni yana yo'qotib qo'ymaslik uchun uning yaqiniga borib turdi. Biroq Sohib Doro olifta yigit bilan shunday berilib bahslashar ediki, Arslonqulni sezmedi. Arslonqul ularning gapiga bir lahza quloq solib, kinoyali tabassum bilan yuzini ters o'girdi:

«Yana g'azal! Yana muammo. Ah, Hirot, Hirot! Qayon boqsang, shoirni ko'rasan. Har yerda — machitda, madrasada, bozorda, oshpaxonada — g'azalxonlik va g'azal janjali! Shubha yo'qki, bularning ikkovi ham shoir!» — o'yladi ichida Arslonqul.

Nihoyat, olifta shoir bahsga tob bermagandek, Soh ib Doro bilan sovuqqina xayrlashgan hamon, Arslonqul bir yo'talib, Soh ib Doro qarshisiga o'tdi.

— Taqsir, men sizdan adashib, xiyla qidirdim, — dedi qo'l qovushtirib.

— E, inim, bu yerlarda adashmasdan iloj yo'q, — dedi kulib Soh ib Doro. — Qani, mundaroq yuring.

Arslonqul Soh ib Doro orqasidan yurib, yakka daraxt ostida o'tkir ko'zlari bilan bir guruh ishchilarning har bir harakatini zimdan qamrab turgan o'rta yoshli, yag'rinli bir kishining oldiga keldi.

— Sarkor, bu inimni sizga topshiramen, — Arslonqulni ko'rsatib, dedi Soh ib Doro, — ishlatursiz va el qatori haq to'larsiz.

Sarkor atrofga alanglagan ko'zlarini bir nafasgina yigitga qadadi.

— O'mrovli yigit ko'rinasen, ammo dangasalik qilsang, yelkangni qashib qo'yamen, u zamon holingga voy.

— Qashitmasmiz, og'a, — jiddiy dedi Arslonqul.

— Xo'b, belni mahkam bog'la, ishga tush, — sarkor yuqoriga — g'isht tashuvchilar tomoniga qo'l uchi bilan ishorat qildi.

Arslonqul bir uyum g'ishtni orqalab, unchalik egilmay, yotiq havozada ildam va shaxdam qadam bosib, yuqorilar ekan, pastdan bir-ikki kishi baqirdi:

— Hay, bo'z bola, zo'ri behuda miyon meshikanad, asta-asta yur!



Arslonqul sarkorning o‘qraygan ko‘zidan qo‘rqan kabi, pastdagilarning ma‘qul kengashini nazar-pisand qilmasdan, garchi yuqorilashgan sari ko‘proq egilishga majbur bo‘lsa ham, yana g‘izillab ketaverdi. G‘ishtni peshtoqda ag‘darib, qush boqishi bilan pastga va atrofga qaradi. Quyosh nurlarida cho‘milgan Hirot bog‘larining zangori ufqlarda singib yo‘qolgan yashil to‘lqinlari yigit ko‘nglining dard chigillarini yechgan-day, bir damda u ruhiy yengillik sezdi. Uning ochiq, qudratli ko‘kragi bu yerda, balandlikda shamolning yoqimli silashi bilan qabarganday bo‘ldi. Chiqayotganlar bilan quyi tushuvchilar orasida hech kimga xalaqit bermasdan chaqqonlik bilan pastga yugurdi yana.

Peshindan keyin hamma inshootlarda ish to‘xtadi. Odamlar terlarini artib, jomakorlarini qoqib, Injil bo‘ylab, har yer-har yerda katta davra qura boshlashdi. Arslonqul Injilning nim loyqa suvlarida bet-qo‘lini yuvib, o‘z to‘dasiga keldi, daraxtlar ostiga solingan bo‘yrada chordona qurdi. Charchagan odamlar asta yelpinib, o‘zbekcha, forsha, Arslonqul tushunmaydigan yana ba‘zi til va shevalarda asta-sekin gaplashar, qirq-ellik qadam narida, atrofida odamlar uymalashgan, bug‘lari havoga burqigan katta qozon tomonga qarab-qarab qo‘yar edilar.

Qovog‘i ochilmagan sarkor davraga bir ko‘z yugurtirib, oshpazga: «Boshlang», deb qichqirdi. Dasturxonchi chol, kishi boshiga dastlab bittadan yumshoq sedanali non ulashdi. Keyin guldor sopol tovoqlarda mastava tortildi.

Arslonqul, o‘z odaticha, ovqatni deyarli hammadan oldin yeb bitirdi-da, hamkorlari bilan hali non-qatiq bo‘lmagani uchun, ularni kutmasdan o‘rnidan turdi.

Hamma inshootlarda shovqin-suron tindi. Yolg‘iz sho‘x bolalargina dam olayotgan tuyalar, fillar atrofida g‘ivirlab, hayvonlarga tegajaklik qiladilar. Undabunda chet kishilar binolarni tomosha qilib tentiraydilar.

Arslonqul hali ishlagan joyiga keldi. U yoq-bu yoqni aylanib, havoza bo'yicha yuqori chiqqanini o'zi ham sezmay qoldi. Shunday azamat gumbazni, bolalar xombopish yasayotganday, bosh qotirmasdan, taraddudlanmasdan, hay-huy bilan, ishonch bilan barpo qilayotgan ustalarning mahoratiga taajjublandi. So'ng gumbaz atrofiga o'rnatilgan havoza yog'ochiga suyalib, uzoqlarga ko'z tikdi. Eski madrasalar, shamday adil yuksalgan minoralar, shahzodalarning naqshlari rang-barang olov bilan yongan go'zal ko'shklari, azamat qo'rg'onlarning kunguralari, yashilliklar orasida, diqqat bilan qaragan sari birin-sirin gavdalanadi. Bularning ko'plarini Arslonqul yaqindan ko'rgan bo'lsa ham, lekin oradagi masofa ularga allaqanday iliq husn bag'ishlab, yana ko'proq jolibi diqqat qilgan edi. Arslonqulning ko'zlariga, nogahon, uzoqda, sarv yog'ochlari bilan band katta soha ochildi: «Ha, bu Bog'i Jahon oro emasmi? Naq o'zi... Ana, xiyobonlar», dedi o'z-o'ziga Arslonqul. Boshini yog'ochga tirab, o'zini yo'qotgan kishiday, uzoq tikildi: «Kim biladi, Dildorim balki shunda yashar. U hozir yasanib-tusanib, pariday shu hiyobon salqinida kezib yurar. Podshohning garchi yuzinchi xotini bo'lsayam meni batamom unutib yuborgandir, balki!» Yigitning ko'kragini qayg'u to'lqini qopladi. U chuqur xo'rsindi. Keyin, o'z-o'zini ovutmoqchi bo'lganday, birdan kuyladi:

*Ko'zing qarosi balo,  
Netay, men unga shaydo!  
Arz-holimni yetkur,  
Chamandan esgan sabo!*

*Borib ayting, to'rg'aylar,  
Bu g'arib kimni poylar?  
Mendek kuyganmi Majnun  
Shuncha yil, shuncha oylar?*

*Chertma, jo'ram, torimni,  
Elga yoyma zorimni,  
Tushda ham ko'rolmayman  
Hirotdagi yorimni!*

Arslonqul qalpog'ini qo'liga olib, «Qo'y-e!..» deb, biron ishdan umidni kesganlar singari, qo'lini silkidi-da, ikki-uch qadam qo'yib, allanechuk xijolat bilan birdan to'xtadi; qarshisida bir guruh kishi unga tikilib turar edi. Bularning ichida boyagi ustalardan boshqa yana ikki-uch notanish shaxs bor edi. Bu notanishlardan biri — yaxshi kiyingan, ulug'vor, hammaning diqqatini o'ziga tortgan odam — ingichka tabassum bilan dedi:

— Nega qo'shiqni bas qilding, yaxshi yigit? Biz yana tinglamoqchi edik. So'zimiz haqiqatmi? — ustalarga qaradi u.

Qo'lida katta qog'ozga solingan bino tarhini ushlab turgan qari usta boshi bilan tasdiqlab, salmoqlab so'zladi:

— Balli, dard bilan so'ylading qo'shiqni, inim.

— Albatta, biz qo'shiqdagi samimiy dardning cho'g'i bilan zavqiyob bo'ldik. Zotan, qo'shiqning asli joni ko'ngilning dardidir, — dedi yana haligi odam.

Arslonqul, bunday muomaladan so'ng o'zini tutib oldi-da, qo'lini qovushtirib so'zladi:

— Taqsir, kamina qulingiz hofiz emas. Meni uyaltirmanglar, anchayin, o'zimizcha g'ing'illab qo'yamiz ba'zida...

— Yo'q, qo'shiqni bahuzur aytib ishlayver, toki hamma bahramand bo'lsin, — dedi haligi kishi.

Arslonqul g'isht, tosh tashib chiqayotganlarga ko'zi tushib, ish boshlanganidan ogohlendi. «Kechirgaysizlar!» deb pastga yugurdi. Yuqoriga g'isht ko'tarib chiqqanda, Arslonqul kuchli taajjubda qoldi: haligi odam qimmatbaho to'nning etaklarini beliga qistirib, yeng uchlarini shimargan holda astoydil ishlamoqda — ustalarga g'isht, ganch uzatmoqda edi. Yigit ko'z uchini qisib unga tikildi-da, yelkasini qisdi: «Katta amaldorlarga o'xshaydi-ku, ammo fe'li boshqacha ekan. Qani, shu ishlashda birpas tob berarmikan!»

Arslonqul har gal unga zimdan bir qarab qo'yar edi. Ammo uning ishida sustlashish emas, aksincha, terlagan yuzida borgan sari ishga muhabbat, qiziqish

sezdi. Nihoyat, Arslonqul chidamadi-da, o‘zi bilan yonma-yon tushib boruvchi bittasini turtdi va qo‘li bilan yuqoriga ishorat qildi.

— Ul janob kim bo‘ladi? Juda berilib ishlayaptida. Yo bizga o‘xshash sarkordan qo‘rqadimi? Xo-xo-xo.

— Voy, gumroh, tanimaysanmi hali! — deb qadamini sekinlatdi u.

— Yo‘q, kim?

— Navoiy hazratlari-yu! Ko‘pincha kelib, shunday g‘ayrat bilan ishlaydilar.

Arslonqul cho‘chib to‘xtadi: «Navoiy!» dedi u o‘z-o‘ziga va orqaga qayrilib, allaqanday toshqin mehr bilan ko‘zlarini yuqoriga qadadi...

## ***O‘n beshinchi bob***

### **I**

Devonning qatorasiga solingan ziynatli xonalari-ning biri yonida qurama xalqdan anchagina to‘plan-gan edi. Katta, tekis, chorburchak sahnni chol qoro-vul qunt bilan, chang ko‘tarmasdan supurardi. Uning soqoli taralib tekislangan, lekin rangi kunduzning mashaqqatlarini xayol bilan beparvo kechirish uchun har kuni ertalab «chize» taryok iste‘mol qilib, ustidan ko‘proq shirinlik yeguvchi chollarning rangi kabi, sarg‘ish, qonsiz edi. U supurgining dastasiga suyalib, odamlarga yer ostidan ko‘z tashladi. Qandaydir bir tanishini ko‘rib, yaqin keldi. U taajjublanib, dedi:

— Ha, bizning dargohga bosh suqubsan, tinchlik-mi? — so‘radi chol.

— Dardsiz, g‘alvasiz odam bu yerda nima qiladi? Mirga ikki og‘iz arzi hol qilg‘ali keldim.

— Hay, ishing o‘ngidan kelsin! — Chol birin-sirin yangidan kelayotganlarni ko‘zdan kechirib, dedi: — Tavba, Alisher janoblari bir haftadan buyon Childux-taron<sup>1</sup>da edilar, u yerda yangi rabot bino qilmoqdalar.

---

<sup>1</sup> Hirotga yaqin bir mavze.

Hirotda bukun tunda qaytdilar. Xo'sh, xaloyiqni kim ogohlantirdi?

— Ehtimol, o'zlari tushimizda bashorat bergandirlar, — kulib dedi bir dehqon.

— Ajab emas... Chunki Navoiyning dili bilan xalqning dili hamisha payvanddir, — dedi ishonch bilan ko'm-ko'k qo'lli bo'yoqchi.

Shu vaqtda kimdir, burunaki otgandek, qayta-qayta apshurdi.

— Haqqast rost! — bo'yoqchiga qaradi chol qorovul va jiddiy dedi: — Bu zamonda Navoiy janobla-ridek pok odam hargiz topilmas, — u ishiga kirishdi.

Odamlar o'zaro shivirlashib, Navoiyning ishlari, hayoti, sifatlari haqida so'zlasharkan, amirlarga xos jubbaviy tillodo'zini kiygan shoir hovlida paydo bo'ldi. Hamma qo'l qovushtirib ta'zim qildi. Navoiy xalqning salomiga javob qaytarib, tezgina yurib, katta xonaga kirdi. Odamlar eshik oldini o'rab, kissalaridan, salalari orasidan qog'ozlarini qidira boshladilar. Yondosh xonalarning biridan yosh, mag'rur kotib chiqdida «Sabr! Sabr!» dedi xalqqa qarab, keyin Navoiy kirgan xonaga qarab yurdi.

— Bu kun xalq juda ko'p, — dedi yosh kotib salom bergandan keyin, — barchasini qabul qila bilurmusiz?

— Anglamadim, ne demak istaysiz?

— Agar vaqtlari musoida qilmasa, bir qism xaloyiqqa boshqa kun kelmoqni taklif etsam, degan fikr xotirimga keldi.

— Barakallo g'ayratingizga! — istehzo bilan xitob qildi Navoiy. — Bizda shunday odatni biron vaqt ko'rganmidingiz?

Yosh kotib ko'zlarini yerga qadadi, bir nafasda ham oqardi, ham qizardi.

— Siz hali yosh yigitsiz, — dedi Navoiy endi muloyim, lekin jiddiy, — mansab poyasida balki yuqorilashursiz. Shu so'z xotiringizga naqshlanib qolsinki, elga bu yo'sinda muomala va xizmat qilmoq oqillarning ishi emas.

Kotib boshini bazo‘r ko‘tardi. UZR tilab, chiqmoqchi bo‘ldi. Navoiy uni to‘xtatdi. Yordamchilari yetib kelguncha, bu yerda o‘tirib, unga qarashmog‘ini so‘radi. Kotib bir oz tetiklandi. Quyida, yozuv ashyolari turgan pastgina kursi oldida tiz cho‘kdi.

Dastlab juldur kiyimli, kir qalpog‘ini ko‘ziga qadar tushirgan, o‘rta yashar dala kishisi qo‘l qovushtirib kirdi-da, salovot bosib, dovdirab qoldi.

— O‘tiring, muddaongizni so‘ylang, — dedi Navoiy xushmuomalalik bilan.

Dehqon eshik oldida cho‘qqaydi, qalpog‘ini sal ko‘tardi.

— Boshimga bir falokat tushib, Isfizordan keldim... — dedi-da, birdan so‘radi: — Hammasini aytaymi, uzun gap?

— So‘ylang, — kulib javob berdi Navoiy.

— Bisotimda birgina otim bo‘lardi. Yomon emas, korimizga yarab turardi. Bir kun, ne bo‘ldi-yu qishlog‘imizga bir otliq sipohi kirib keldi. Orqasida xushsurat bir bola... Men otimni sug‘orib, yuvib turgan edim. Qarshimda to‘xtadi. «Otingni egarlab ber, manov inimni mindirib olayin, tez orada Hirot dan qaytamen, shunda tashlab ketamen», dedi. Men yalindim: «Bek yigit, ayni ish chog‘i, iloji yo‘q. Boshqalardan so‘rab ko‘ring, topilmasa, shunday ketavering, bu arg‘umog‘ingiz bilan Daryoyi Sho‘r‘gacha yetasiz». «Yo‘q, — dedi. — Ovda yurib, otim ko‘p urindi. Barcha Hirot meni taniydi. Qozizodalardanmen», — dedi. Hukumatga ot-ulov bermoq eskidan bir taomil. Otni egarlab, jilovini unga tutqizdim... xullas, ikki oydan buyon u qozizoda qurg‘ur dan domdarak yo‘q. O‘n kun burun eshakka minib, Hirotga keldim. Kirmagan ko‘cham, so‘ramagan odamim qolmadi. Topish qayda! Bu yetmaganday, yana bir falokat oyog‘imdan chaldi: uch kun burun eshagimni o‘g‘ir latib qo‘ydim. Mahkamalarga kirsam, arzimni tinglamadilar. Sizga sig‘inib keldim, taqsir.

---

<sup>1</sup> Kaspiy dengizi.

Dehqon og'ir xo'rsindi. Navoiy asta tebrandi.

— Birodar, sizga bir balo yo'liqibdi, mayli, kim bo'lmasin, qozizodami, sipohimi — u bir ofat... Bu yanglig' ovchilar ko'p, ularning o'zlari ovchining itiga arzimaydilar. Ismini bilmaysizmi?

— Aytdi, Tojiddin...

Navoiy kotibga qarab, Qilichbekni chaqirishni buyurdi. Keyin kulib, dehqonga murojaat etdi:

— Otingiz topilur. Chin ismini yashirgan bo'lsa, qiyofatini aytursiz. Ammo eshakni oqtarmoqdan foyda chiqmasa kerak. Qaysi sho'razorda, qaysi og'ilda! Faqat eshakni yo'qotganingizni bizga isbot qila olasizmi?

— O, nahotki bu qulingiz yolg'on so'zlasa! Karvon saroyda yuz kishi desangiz ham guvohlikka o'tur.

— U holda eshakning bahosini biz to'laymiz, — dedi Navoiy. — Lekin bundan keyin ehtiyot bo'lmoq kerak. Elning bir so'zi bor: o'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma!

Dehqon, Navoiyning so'zlarini aqlga sig'dirmagan-day, dovdirab qoldi.

— Qanday gap? Kim to'laydi? Siz? Yo'q, jabrini o'zim ko'taray, — qo'lini ko'ksiga qo'ydi u.

Baland bo'yli, keng yag'rinli, qirg'iy burun yigit — Qilichbek kirdi. Navoiy bir necha so'zda dehqonning muddaosini tushuntirdi. Keyin buyruq yo'sinda dedi: «Bu dardkashni qoniqtirmaguncha, hargiz orom olma, jahannam ostida bo'lsa ham, u zolimni top va jazosini ber!»

Qilichbek dehqonni yupantirdi:

— U odam bizga otning qashqasiday ma'lum. Yuring biz bilan.

Navoiy ularni to'xtatdi. Eshakning bahosini so'radi. Keyin o'zining xususiy mulozimlariga uchrashib, dehqonga pul olib berishni Qilichbekka yukladi. Dehqon shodlik va hayajon bilan to'la, qulluq qila-qila chiqdi.

Aksari dehqon, kosib-hunarmandlardan iborat bo'lgan xalq birin-ketin kiraverdi. Har kimning o'z hurdi-holiga yarasha bir dardi, yarasi, mashaqqati, ta-

labi, da'vosi bor. Navoiy har qaysisining so'zlariga bardosh bilan quloq soldi. Arizalarini kotibga o'qitib, diqqat bilan tingladi. Uning o'tkir fikri chigallarni oson hal qilar, chin da'vo bilan tuhmatni, haqiqat bilan yolg'onni tez ayirar edi.

Peshindan so'ng xalq siyraklandi. Navoiy bir necha mulozimlarni to'plab, turli yozuv-chizuv ishlari bilan shug'ullantirdi. Amallari kichik bo'lgan bu mulozimlar Navoiy huzurida to'la qunt bilan jiddiy ishlasalar ham, o'zlarini sərbast tutardilar. Dongdor vazir va shoir ish orasida hatto ular bilan hazilkashlik qilishdan-da tortinmas edi.

Ish oxirida shoshib-pishib mavlono Alishoh kirdi. U Hirotda eng oldingi cholg'uchilardan edi.

— Marhamat qiling, ishlaringiz ne holda? — do'stona iltifot bilan qarshiladi Navoiy.

— Soyayi davlatingizda kayfimiz chog', ishlarimiz yaxshi... — dedi mavlono Alishoh. — Faqirning ko'nglida bir iltimosi borki, xotirlariga malol kelmasa, aytmoqqa ijozat bersalar...

— Aytavering, sozingiz tinglagan kabi, quloqlarimiz sizda, — dedi Navoiy.

— Janoblarining iltifotlaridan umidimiz shulki, vaqf mutasaddilariga buyursalar, toki ular menga olti oylik maoshimni birdan bergaylar. — Navoiy bir vaqtlar u bilan ilk daf'a uchrashganda, uning musiqiydagi iste'dodini qadrlab, unga o'z vaqflaridan maosh tayinlagan edi.

— Ne sababdan? — so'radi qiziqib Navoiy.

— Vaqf mulozimlariga har oy murojaat etib, ularning boshlarini qotirmasam...

Navoiy yerga qaradi, sukut qildi. Sabog'ich qalamni qitirlatib, xat yozayotgan mulozimlar boshlarini sekin ko'tarib, dam shoirga, dam musiqiychiga boqardilar. Birdan Navoiyning yuziga ma'nodor, kinoyali tabassum yoyildi.

— Maxdum, umrimizdan olti kun qoldimi, qolmadimi — bizga ma'lum emas, — dedi u noxushlik bilan. — Siz nima sababdan bunday amonat hayotga



bu qadar e'timod qilib, kelgusi olti oyning maoshini birdan talab qilasiz?

— Siz farmon bering, men pullarni olay, — avvalgiday dadil gapirdi mavlono Alishoh. — Agar men o'lib qolsam, u pullarni kafanimga va ko'mmak uchun boshqa kerakli narsalarga sarf qilurlar.

— O'ligi ham bir balo, tirigi ham bir balo, degan siz ekansiz-da! — dedi Navoiy jiddiy va noxush.

Mulozimlar kulgidan o'zlarini to'xtata olmadilar. Musiqiychi qizarib-bo'zarib yerga qaradi-da, so'ng o'zi ham kulib yubordi.

Navoiy o'rnidan turdi, mavlono Alishohning yelkasi qo'lini qo'ydi. Muloyimlik bilan dedi: «Ne qilaylikki, sizda katta iste'dod bor. Biz uni hurmat qilurimiz. Talabingizni qabul etdik». Musiqiychi tashakkur etdi. Navoiy vaqf boshliqlariga bir parcha qog'oz yozib berdi.

Shoir uyga qaytmoq uchun tashqariga chiqarkan, Muhammad Said Pahlavon bilan qarshilashdi.

— Ne maqsad bilan? — so'radi ko'risharkan, Navoiy.

— Bog'i Safidda shuaro majlisi bor. Hammaning ko'zi yo'lingizda. O'zga andishalari bo'lmasa, bir kirib o'tsalar, umumni qvontirurlar.

— Modomiki, siz kelibsiz, e'tirozga o'rin qolmaydir.

Shoir bilan Pahlavonni eshikda navkarlar otga mindirdilar. Har vaqtdagi kabi turli olomonning shovqin-suroni bilan qaynagan Chorsudan va Hirotning katta bozorlaridan bo'lgan Bozori mulkdan o'tib, g'isht bilan to'shalgan katta yo'l bo'ylab bir chaqirim qadar yo'l bosgach, baland devorlari orqali Bog'i Safidning qalin daraxtzorlari ko'rindi.

Navoiyni mavlono Hofiz Yoriy, Shayxim Suhayliy, Hiloliy, Osifiy boshliq bir guruh shoirlar eshikda kutib oldilar. Uchlari bir-birlariga chalkashib ketgan azamat daraxtlarning yashil devorlari bo'ylab borarkan, har yerda guruh-guruh shoirlar duch kelib, hol-ahvol so'rashdi. O'nlab yangi g'azallar, qit'alar eshitdi. Kat-

ta supraga o'tirgan hamon asarlar o'qib berishni shoirlaridin iltimos qildi.

Bu yerda, qalin daraxtlarning ko'lankasida, supalarda yuzdan ortiq shoir to'plangan edi. Oralarida mavlono Gadoiy kabi g'oyat keksa, sersavlat chollar, hali soqol-miyiqlari sabz urmagan o'spirinlar ham bor. Shoirlar orasida katta mansabdorlar bo'lganidek, tahsil ko'rayotgan faqir talabalar ham biron kasb-hunar bilan — misgarlik, jomado'zlik, kissado'zlik, kulollik yoki mavlono Tohiriy singari kavshdo'zlik bilan mashg'ul bo'luvchilar ham anchagina. Bu yerda katta iste'dodi, ilmi, shuhrati darajasida kamtar, olijanob shoirlar bo'lganidek, Firdavsiy, Nizomiylarni nazarpisand qilmaydigan ifrot maqtanchoqlar ham bor. Bu yerda mavlono Simiy singari bir kunda ming bayt aytib, uni chiroyli ko'chiradigan ajoyib epchil va tez to'quvchi shoirlar bor; bu yerda haddan tashqari mutolaa orqasida aqli ayniganlar bo'lganidek, benihoyat ichkilik yuzidan barbod bo'lib, mavlono Muhammad kabi bosh yalang, oyoq yalang tentirovchilar ham bor.

Aksari shunday yig'ilishlarda qasidachilar, g'azalchilar, muammo ustodlari o'z asarlarini yoki o'zgalarning yangi asarlarini o'qishar, bahslashar edilar. Ba'zi baxtiyor shoirlar benihoyat madh-sanoga sazovor bo'lar, ba'zilar yer qa'riga kirar edi. Bu yerda do'stlar bir-birlarini maqtarkan, xayollar mubolag'aning qanotlarida uchadi. Dushmanlar bir-birlarini hajv qilganda, so'zning zaharini ayamaydilar. Bu yerda shoirlar bir-birlariga g'azallar, hatto butun-butun devonlar hadya qilishadi. Yaxshi bir g'azal va mohirlik bilan ishlangan bir muammo yoki yangi bir rang va jilva bilan bezangan bir bayt qo'ldin-qo'lga o'tadi, yod olinadi, ko'chirilib, sallalarning uchiga qistiriladi.

Asarlarining Navoiyga maqbul bo'lishiga ishongan shoirlar dadillik bilan, hatto ochiq g'urur bilan aruzning musiqiysini jaranglatib o'qir edilar. Aksar g'azallar, soxta bezaklar kabi, tashqi porloqlik bilan ko'zni olardi.

Shuncha shoirlardan nahotki birontasining sozida ona tili yangramasa! Aksariyat shoirlarning she'r ipiga dur va gavhar deb terganlari Navoiy uchun munchoq-day qiymatsiz, ilon po'stiday sovuq yaltiroqli ko'rinar edi: «Bizning iste'dodli mirzolarimiz eng o'ng'ay yo'lni tanlaganlar. Ozgina mashaqqat cheksalar edi o'z tillarida qancha sof, asl so'z gavharlarini topgan bo'lur edilar», o'yladi ichida Navoiy.

Navoiyning fikrini bilish uchun ba'zi shoirlar g'azallarini, shogird o'z ustodiga birinchi qalam mashqini taqdim etgan kabi, kamtarona uzatdilar. Navoiy fikrlarini ko'zlariga to'plagan kabi, diqqat bilan o'qib chiqdi. Uning uchun she'rda hammadan avval xos va chuqur ma'no, xos xayol, xos rang asosiy mezonlardan edi. Lekin hozir o'qigan va eshitgan she'rlarida eng oz ko'ringan narsa ham shular edi. U bir g'azalda qofiya xatosiga ishorat etdi. Bunga shoirlar so'zsiz qo'shildilar. Boshqa bir g'azalda o'xshatishning g'ayritabiiyligini ko'rsatdi. Biroq bu tanqid boshqalarga unchalik haqli ko'rinmadi. Hatto ba'zilar bu o'xshatishni favqulodda rangli va ziynatli topdilar. Navoiy ola chalpoq oftobdan nariroq surildi, qo'li bilan yelpinib, kulimsiradi-da, qalam va siyohdon berishlarini iltimos qildi. Shoirlar chuqur maroq bilan Navoiyga qarab, sukut etdilar. Diqqat qilgan kishi ba'zi bir gerdaygan shoirlarning yuzida kinoyaning juda ingichka izlarini seza olar edi. Navoiy sabog'ich qalamni bir marta siyohga botirib, qog'oz ustida bir lahza yurgizdi-da, g'azalni shoirga uzatdi. Shoir oldin ichida o'qidi, keyin yalt etib, atrofdagilarga qaradi-da, baland ovoz bilan o'qidi. Qog'ozni cho'zilgan qo'llarning biriga tutqizib, hayajon bilan Navoiyga murojaat qildi:

— Kamina shunday o'ylaydiki, mening tashbihimda bir kurtak bor ekan. Siz janobning nafasingiz, bahor shabadasiday, undan bir g'uncha ochtirdi ham uning gul kosasini rang va nur bilan to'ldirdi...

Qog'oz qo'ldan-qo'lga o'tdi. Qani kim e'tiroz qila oladi! Supaning narigi burchida o'tirgan bir kekxa

shoir qog'ozni ko'zlariga yaqin tutib, yonidagi o'spirin shoirga berdi va boshini unga moyil qilib pichirladi:

— Alisher Navoiy sehrli qalami bilan bir turtib, kavakdan jonli ko'z yasaydi!

— Ko'plar chaqin toshdan uchqun chiqarolmagan-da, bu turkiyo'g'y yaxdan alanga hosil qiladi, — javob berdi o'spirin nazokat bilan.

Nogoh daraxtlar orasida, — may bilan kayfi chog' bir to'da sho'x ulfatlar o'tirgan joydan — musiqiy sadolari oqdi. Nay, chang, udning sehrli ohangiga hofizlar mavlono Lutfiyning g'azali bilan jo'r bo'larkan, Navoiy boshini quyi soldi, ko'zlari zavqdan asta yumildi, mavlono Lutfiy qanday go'zal! G'azal-dan sahroyi tilning sodda latofati, quyuq, toza ranglari, siyqalanmagan ma'nolari yurakka cho'g'day yopisha qoladi!

Musiqiyning so'ng mavjlari quyuq yashillik qo'y-nida sekingina titrab, tina boshlarkan, Navoiy boshini ko'tardi. Boshqa joyda, o'zi tanho bo'lsa edi: «Mug'anniy<sup>1</sup> kel, chert, turkona soz!» deb qichqirardi balki.

Boshqa supada bir to'da shoirlar davra qurib, mavlono Xusraviyning g'azallarini tinglar edilar. Navoiy kelib, odamlar orqasidan tinglay boshladi. Mavlono Xusraviyning ko'zlari zaif edi. U qo'lidagi qog'ozga qaramasdan, yoddan o'qimoqda edi. G'azal ham shaklan, ham mazmunan eski andozalarning namunasi. Ko'zi zaif shoir boshqa masnaviyni boshladi. Ilk misra «guzor» degan so'z bilan bitdi. Ikkinchi misraga o'tganda, Navoiy yuzaki she'rning uslub va ma'nosiga kirib, qofiyani — «xazor»ni aytib qo'ydi, «roy» so'ziga «kunoy»ni qofiya keltirdi. Qiziqib o'qiyotgan mavlono Xusraviy payqamadi. Odamlar piq-piq kulib, Navoiyga qarashdi. Navoiy tabassum bilan «jim!» degandek labini qisdi. «Sipohi bud»ga «bamo-hiy bud»ni, «saf basta»ga «taraf basta»ni, «har saf»ga «bar kaf»ni qofiya qildi. Nihoyat, mavlono Xusraviy birdan o'qishdan to'xtadi. Qisiq ko'zlarini hayrat bilan

---

<sup>1</sup> Cholg'uchi.

atrofga yugurtdi: «Kim bu?» dedi u asabiylanib. Shoirlar kulib: «Bu odamni tanurmusiz, ko'rganmusiz?» deb so'rashdi.

— Xayr, tanimaymen, — dedi alanglab mavlono Xusraviy, — ammo faqirning xotiridadirki, bir vaqt men Pul Palon'da g'azal o'qiganimda ham shul kishi ayni yo'sinda hamma qofiyalarni oldindan aytib bergan edi!

Shoirlar birdan qattiq kulib yuborishdi. Navoiy ham uzoq kuldi. So'ngra mavlono Xusraviyning yoniga o'tirib, hol-ahvol so'rashdi. Hazildan har ikkisi xursand bo'lishgan edi. Mavlono Xusraviy o'z masnaviysini o'qib bitirdi-da, Navoiyning fikrini so'radi. Navoiy uning ba'zi misralarini maqtab, shoirning ko'nglini ko'tarishga tirishdi.

Bu yerda hali she'r olamiga tanilmagan bir necha o'spirin shoirlar o'zlarini tanishtirdilar. Navoiy dastavval ularning ma'lumotlari bilan qiziqsindi. Musiqiydan bexabar bo'lganlari uchun ba'zilariga til tegizdi. Tahsil ko'rayotgan faqir shoirlar bilan xususiy ravishda, ayri-ayri so'zlashib, ularga moddiy yordam berishni va'da qildi.

Kechga yaqin saroydan kishi kelib, podshoh yo'qlaganini bildirdi.

Uchlari g'urub<sup>2</sup> alangasi bilan oltinlangan sarvzorlar orasida shoir va Pahlavon, bog'ning kechki latofatini tomosha qilib, asta, jim borishar edi.

Chiroyli qafaslarda qumrilar mungli-mungli huhular, erkin qushlar daraxtlarning quyuq yashili ichidan jonli naylarini tinlikka quyardi. Katta hovuzlardagi suvlarda ko'lankalar va shu'lalar jim-jim o'ynashadi, goh ko'lankalar yonib ketadi, goh shu'lalarni ko'lankalar yutadi. Qirg'oqdagi baxmal gullar, o'z husnlarini yaxshi tomosha qilmoqchiday, ko'rkam, sergul novdalarini hovuz oynasiga egganlar. Bog'i Jahon oro — shoirlar she'rlarda tarannum etgan go'zal bog'!

<sup>1</sup> Hirotda bir mavze.

<sup>2</sup> Kun botishi.

Ular bosh qasrning oldidagi katta gulzorga yetgan vaqtda uzoqdan, bog'ning narigi burchidan bir gala kabutarlar havoga ko'tarildi. Navoiy to'xtab, Pahlavonga tabassum qildi: Ajab mashg'ulot: Muhammad Said qudratli qo'llarini beliga qo'yib, baquvvat kallasi-ni orqaga bir oz tashlab, ko'kka qaradida, kuldi: «Tarki odat amri mahol, deydilar-ku». Bir nafasda birin-ketin yana to'rt gala havoga parvoz qildi. Har galada yuzlarcha kabutar... Kun bo'yi qamoqda yotib, dilgir bo'lgan o'yinchi qushlar samoning bepoyon sahnida sho'x-sho'x raqs eta boshladilar.

Podshoh hozir kabutarbozlik bilan mashg'ul bo'lgani uchun ular katta xiyobon ichiga kirib, asta kezisharkan, qarshi yoqdan Badiuzzamon to'rt-besh yashar o'g'li Mo'min Mirzoni yetaklab chiqib keldi. Har vaqtdagi kabi nozik kiyingan, chiroyli, xushmuomala Badiuzzamon o'g'lining qo'lini qo'yib yuborib, Navoiyga ta'zim qildi. Pahlavonga ham iltifot ko'rsatdi. Navoiy, yosh, otasidek yaxshi kiyingan, chiroyli, tuyg'un ko'zli Mo'min Mirzoning boshini siladi va go'daklarga yoqadigan ohangda u bilan u-bu to'g'risida so'zlamogga kirishdi. Keyin Badiuzamonning kayfi, mashg'uloti haqida so'radi. Xiyobonda asta yurishdi. Mo'min Mirzo guldor etigi bilan oldinda pildirab chopardi. Mana, u ko'k shohi to'ni ustidan yelkasiga osilgan o'yinchoq kumush yoyni osongina chiqardi. Bobosining dam pastlanib, dam balandlanib, yuksak daraxtlarning uchlariga bir zum qo'nib, yana samoga keskin qanot qoqqan kabutarlariga yoyni mer-ganlarcha tortib o'qtaldi. Kattalar ko'z uchlari bilan bir-birlariga bir lahza boqib, ma'nodor iljayishdi.

— Bizga yuborgan kitoblaringizni oldik, — dedi Navoiyga Badiuzzamon.— Iltifotingiz uchun tashak-  
kur. Sizning ash'oringiz va Jomiy hazratlarining asar-lari mutolaasidan ko'nglimiz safoga to'ldi.

— Inson ruhi uchun haqiqiy zavq mutolaadir, — dedi Navoiy qiziqib. — Ammo yolg'iz ash'or o'qimoq kifoya qilmas. Tarix! Tarixlarni ko'zdan kechirmadin-gizmi?

— Ko‘ngil ash‘orga ko‘proq moyil bo‘ldi. Fursat bo‘lsa, tarixni ham boshlag‘umdir,— javob berdi Badiuzzamon.

— Men sizga tarixga oid kitoblarni qasddan ko‘p yuborgan edim. Balki xabaringiz bordir, otangiz podshoh hazratlariga ham hamma vaqt tarix o‘qimoqni tavsiya qilamen. Davlatning butun mas‘uliyati sizlarning zimmangizdadir. Obodonlik yoki inqiroz sizlarning tadbir va harakatingizga bog‘liqdir. Shuning uchun siz tarix oynasiga qarab turmog‘ingiz kerak. Qaysi davrlarda qaysi sabablar bilan yurtlar obod bo‘lgan, ellar shod-xurramlik ko‘rgan ham qaysi zamonlarda va ne sabablardan mamlakatlar halok bo‘lgan — bularni o‘rganmoq darkor. Aql va adolatning yorug‘ kunduzini, zulm va jaholatning qora tunini hech bir ilm tarix kabi ravshan ko‘rsata olmagan. Ulug‘ bobongiz Temurxon tarixni shunday yaxshi bilur ekanlarki, u zamonning ibn Xoldun kabi eng peshqadam muarrixlari‘ni hayratda qoldirganlari to‘g‘risida ma‘lumotlar bor.

Umuman, ilmlarning, xususan tarixning foydasi haqida yoshlikdan boshlab Navoiyning nasihatlarini ko‘p marta eshitgan Badiuzzamon diqqat bilan tingladi, tarixga qiziqishini nazokat bilan so‘zladi. Pahlavon Muhammad Said Temurning olimlar bilan ba‘zi masalalarda tortishganligi to‘g‘risida latifa yo‘sunli bir-ikki qiziq voqeani aytdi.

Havoda so‘ng shu‘lalar so‘nar, ko‘lkalar quyulasharkan, ular qasrga kirishdi. Katta zalda beklar, vazirlar ham o‘zga ulug‘ mansabdorlardan iborat qalin guruh o‘tirar edi. Badiuzzamon o‘g‘li bilan yuqoriga o‘tib, podshohga xos o‘rinning o‘ng yog‘ida o‘tirdi. Navoiy quyiroqqa, Muhammad Said bilan yon-yonga tiz cho‘kdi. Bu yerda, aftida hammani o‘z og‘ziga qaratgan parvonachi Majididdin endi birdan sukut etmoqqa majbur bo‘ldiki, bu hol uning yuzida asabiy bir notinchlik uyg‘otgan edi. Vazirona ulug‘vor, ser-

---

<sup>1</sup> Tarixchilar

savlat, serhasham va ayyor Nizomulmulk buni payqadi. Bo'yalganday qora, ko'rkam soqoliga tabassum yugurdi. U beklar o'rtasida va umuman saroy doirasida ro'y beradigan fitnalarni miridan-sirigacha bilib borar, hozircha har yo'l bilan o'zini podshohga yaxshi ko'rsatishga va kurashuvchi guruhlardan eng kuchlisiga tayanishga tirishar edi.

— Janoblari foydali so'z boshlagan edilar, — dedi u Majididdinga, o'zini g'afolatga solib, — davom ettir-salar, yaxshi bo'lardi. Chunki Alisher Navoiy hazratlariga ham aloqador so'z edi.

Ba'zi mansabdorlar, hojati yo'q, deganday parvonachiga imo qilishdi. Amir Mo'g'ulning qosh-qovog'i solindi, Nizomulmulkka yer ostidan o'qraydi. Parvonachi esa Badiuzzamon huzurida bahs ochishni istamas edi. Biroq, Nizomulmulkni o'zining ashaddiy dushmanlaridan, deb bilganidan, uning so'zi jizzaki parvonachining qitiq patiga o'tkir nishtardek tegdi. Titrog'ini yashirolmasdan, Nizomulmulkka murojaat etdi:

— Muzokaraga o'rin bormi? Masala har bir aqli salim sohibiga g'oyat ravshandir.

— Kaminaga aloqador so'z bo'lsa, eshitmoqni orzu qilar edim, — dedi Navoiy sokin va jiddiy ham so'zlashga qistaganday parvonachiga tikildi.

Majididdin o'ng'aysizlandi. Ko'zlari taraddud bilan jovdiradi. Dimiqqanday yelpinib, darichaga moyil bo'ldi. Keyin rangi o'chib, titrab gapirdi.

— Podshoh a'zam hazratlarining davlatlari va adolatlari soyasida navkarlarining maoshlari hech bir davrda misli ko'rinmagan darajada yuqori bo'lishi lozim edi.

Afsuski, ularning shikoyat sadolari, kundan-kun avjga minmoqdadir. Albatta, bu xususni sizning dono ko'zlaringiz bizdan ko'ra ming qatla yaxshiroq ko'ra olur. Lekin adolat to'g'risida gap ko'paygan bir zamonda bechora navkarlar jabr ko'rmasinlar, deymiz.



Navoiyning ko‘zlari kinoyali ma’no bilan qisildi. Tekis soqol va miyiqqlari ham allaqanday istehzoli tabassum bilan qimirlab ketdi.

— Davlat uchun qo‘shinning ne darajada kerakli ekanini biz ham bilurmiz, — majlisga qarab gapirdi Navoiy. — O‘z qo‘shiniga ota singari g‘amxo‘rlik qilmagan har bir podshoh, garchi u qahramonlik maydonida Rustam bo‘lsin, oxirida pushaymon bo‘lur. Shuning uchun qo‘shin ahvolidan dastavval o‘z boshliqlari hamisha ogoh bo‘lib, ularni kerakli anjom bilan ta‘min qilmoqlari zarurdir. Ammo, navkarlar ham bu iltifotga yarashguday, davlatga sadoqatli bo‘lishlari shart. Afsus, ming afsuski, navkarlarning aksari yashnagan ekinzorlarni qurituvchi chigirtkaga aylanganlarki, bu qabih harakatlarga adolatli davlatda aslo yo‘l qo‘yilmas.

— Xazinadan yetarlik oltin, kumush olmagandan keyin ularning qo‘llari noiloj el moliga uzatilur! — yasama kuyunchaklik bilan dedi Majididdin.

— El moliga uzatilgan qo‘llarni kesmoq kerak, — qat’iy va keskin so‘zladi Navoiy. — Agar navkarlar, amaldorlar chigirtkaga aylansalar, tez kunda el gadoy to‘rbasini bo‘yniga osur, bir misqol kumushsiz xazinda sichqonlar bazm qurur.

— Shikoyatlarga bir nav javob bermoq kerakmi, yo‘qmi? — po‘ng‘illadi Amir Mo‘g‘ul.

— «To‘qlik — sho‘xlik», degani bir gap bor, — dedi Navoiy o‘z haqiqatiga ishongan tovush bilan. — Ba‘zan ortiqcha to‘qlik va bekorchilik yangi orzular, havaslar tug‘dirur. Siz yigitlaringizga kengash beringki, ular ifrot may ichmasinlar, aysh-ishratga ifrot sho‘ng‘imasinlar. Xitoyi shohidan to‘n kiymasa, ko‘ngli ranjiydigan navkarlardan davlat ne xizmatni umid qila olur? Yigitlarning vazifasi jang ishida mahorat kasb etmoq, halol va mardona yashamoqdirki, buni hanuz ko‘rmadik.

Amir Mug‘ul qizarib, yerga qaradi. Uning lab-lunji juda bema’ni osilgan edi. Majididdin oqarib ketdi, uning o‘siq qoshlari asabiy chimirildi. Navoiy gapir-

ganda, u Badiuzzamonga zimdan ko‘z yugurtirib, shahzodaning yuzida shoirning fikrini ma‘qullagan bir ma‘no sezgan edi, bu narsa uning tilini kesdi. Oradagi og‘ir jimlikni Valibek buzdi. U barcha beklar va askar boshliqlari ichida vazifasiga sadoqatli, sodda ko‘ngilligi bilan ayrilib turardi. U o‘z yigitlariga yaxshi qarar, hamisha ular bilan birga yashar, bir qozondan ovqatlanar edi. Badjahl, to‘g‘ri so‘z Valibek, odati bo‘yicha, keskin va kuchanib gapirdi:

— Otalarimiz to‘g‘ri so‘zga jonlarini bag‘ishlar ekanlar. Ne sababdandir, zamonamizda qadimning bu xo‘b odatiga oz rioya qilurlar. Shuning singari, yigitlarimiz ham qadimning shonli bahodirlaridan namuna olmoqqa intilmaydilar. Mening nazarimda, Alisher janoblari garchi arbobi jang‘dan bo‘lmasalar ham, bu tomonni yaxshi mulohaza qilurlar — yigitlardan yigitlik talab eturlar. Alisher janoblarining tadbirlari orqasida yigitlar hech nimadan muhtojlik sezmaydilar. Shuning uchun bu to‘g‘rida bo‘lgan muhohasalarning asli sababiga, to‘g‘risi, fahmim yetmay qoldi.

Valibekdan keyin vazir Xo‘ja Afzal so‘zlab, Majiddinni uzib-uzib oldi. Parvonachi endi tilyog‘lamalikka ko‘chdi. U qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, Alisher Navoiyning bu sohadagi g‘ayrat va himmati yana ham samaraliroq bo‘lmog‘ini orzu qilganligi haqida gapirdi.

Yangi tayinlangan eshik og‘asi Boboali podshohning kelayotganini ishorat etgach, hamma o‘rnidan turdi. Husayn Boyqaro dadil va mag‘rur yurib kirib, to‘rdagi qalin zarbof to‘shaklarga o‘tirdi. Uning orqasidan bir necha beklari va xos yigitlari bilan o‘n ikki yashar shahzoda — suyukli o‘g‘il Muzaffar Mirzo lalayibgina kirdi-da, otasining so‘l yog‘ida o‘tirdi. Shu asnoda diqqat bilan qaragan kishi Badiuzzamonning yuzida allaqanday hisning ko‘lkasi bir zungina jilvalanganini seza olar edi. Husayn Boyqaro — shirakayf. Beklarga odatdagicha iltifot etdi. Ammo Alisher Navoiy bilan muomalasi iliq, samimiy bo‘ldi.

---

<sup>1</sup> Harbiy kishilar.

Shoirning rasmiy vazifalari haqidagina emas, xususiy ishlari to'g'risida ham so'zlashdi. Majididdin bilan Amir Mo'g'ulning ko'zlari ma'nodor uchrashishdi. Nizomulmulk donishmandlarcha bir tur va savlat bilan yo'talib qo'ydi. Navoiyga ko'rsatilgan iltifot ba'zi beklarga ham podshohning bir ko'p muqarriblari'gada yoqinqiramagan edi. Saroy ahlining, mansabdorlarning ruhini chuqur sinagan Navoiy ancha siqildi.

Husayn Boyqaro nabirasi Mo'min Mirzoni tizzasiga oldi. Peshonasidan yengilgina o'pdi. Bolaning mo'jaz kumush yoyini, belida kamarga taqilgan o'yinchoq xanjarchasini tomosha qildi, uni so'zga solishga tirishdi. Bola yana otasi Badiuzzamon oldiga kelib, aqlli ko'zlarini majlisga jovdiratib, jim o'tirdi.

Husayn Boyqaro Muhammad Said Pahlavondan kelajakdagi katta kurashlarga tayyorlik to'g'risida so'radi. Chet o'lkalardan keluvchi pahlavonlar oldida yuzi shuvit bo'lmaslik uchun Hirot zo'rlarini hozirdan boshlab mashq qildirish kerakligini ta'kidladi. Mast qilingan fil bilan kurashgan Molon pahlavonning ajoyib quvvatini majlisdagilarga shavq bilan ta'riflab berdi. Keyin Hirotga kelayotgan misrlik mashhur kimyogarni qanday kutib olish kerakligi haqida ba'zi kishilarga kengash berdi, misdan oltin yasamoq mumkinligiga ishonganini, kimyogar olimning sirli tajribalarini o'zi mushohada qilajagini so'zladi. Bu mavzu ustida odamlar bir-birlari bilan qiziqib muzokara qildilar. Nihoyat, Husayn Boyqaro o'z kutubxonasi-ning boshlig'ini — dorug'ayi kutubxonai humoyunni talab qilib, yangi kitoblarni keltirishni buyurdi. Kutubxona boshlig'i Darveshali dasta-dasta kitoblarni qo'ltiqlab keltirib, uning yoniga taxladi. Husayn Boyqaro kunduzi bir marta ko'zdan kechirgan kitoblarni bir-bir olib, majlisdagilarga uzatdi. Turli qalinlikda, bir-biridan go'zal, nafis kitoblarda mashhaddan kelgan mashhur xattot Sultonali, rassom Behzod, muqova ustasi — mavlono Sheralining mo'jizali

---

<sup>1</sup> Podshohga yaqin odamlar, uning hamsuhbatlari.

san'ati ajoyib, porloq, juda nodir ravishda tajassumlangan edi. Oltin va kumush mo'l ishlatilgan bu kitoblarning har bir sahifasi har qancha oltinga arzir edi. Bular uch mo'jiza — muqovachi, rassom va xattot san'atining mo'jizalaridan birikkan ajoyib, nodir ijod asarlari edi. Go'zal kitoblarni ko'p ko'rgan va o'zi ham qimmatbaho asarlar xazinasiga ega bo'lgan Navoiy bu mukammal san'at qarshisida hayratda qoldi. O'zi tarbiya qilgan san'atkorlarning bu daraja mahorat kasb etganiga yig'lagunday ichdan suyundi. Hatto ingichka san'atlarga qiziqsinmagan, ularga chiroyli, lekin keraksiz bezak, deb qaragan ba'zi jang arboblari ham chuqur qiziqsinish bilan tomosha qildilar. Mayin sahifalarni dag'al barmoqlari bilan juda avaylab varaqladilar. Hamma Behzod va Sultonaning hayoti va shaxsiyatlari bilan qiziq boshladi. Muzaffar Mirzoning beklari va o'ktam yigitlari bilan birga kelib, hali kabutarxona oldida podshohga ilk marta ko'rinish bergan To'g'onbek hozir ulug'lar qatorida majlisda chordona qurgan edi. U ham bir kitobga uzoqdan ko'z tashlab, gapirib qo'ydi: «Qo'ling dard ko'rmagur, obdon g'alati ish yasabdi!»

Kitoblar ko'rikdan o'tgach, Husayn Boyqaro ahli majlisni ziyofatga taklif etdi.

Bog' o'rtasida, yozlik o'ltirishlar uchun xos bo'lgan, atrofi ochiq ko'shkda katta ziyofat boshlandi. Taomlari, sharoblari, cholg'uchilari, hofizlari, raqqoslari va suron-hangomalari bilan bu bazm odatdagidan ko'p farq qilar edi. Mana, she'r aytuv boshlandi. Shoir qo'lga qadahni olib, majlis o'rtasida shu onda yangi narsa to'qishi kerak. Ilhomining kuchiga yarasha taqdirlanadi. Yo dahshatli sukutdan o'tira qoladi yoki olqishlarga sazovor bo'lib, ko'ksi qabaradi. Mana, kutmagan vaqtda, Muhammad Said o'rnidan turishga majbur. U xiyla mast. Uning gavdasi oldida har qanday dovyigit, azamat eman og'ochining yonida o'sgan kichkina daraxtday, ko'rimsiz bo'lib qolardi. Hovzi Mohiyonning katta maydonida yetti iqlimning pahlavonlari bilan kurash tushib, orqasi yerga tegma-

gan va ajoyib iste'dodli bu odam bir on qizarib, taradudlandi-da, alanga bilan to'lgandek yongan qadahni qudratli qo'lida baland ko'tarib, podshoh tomonga qaradi va jimlikda ovozi kuchli gurulladi:

*Guftamash dar olami ishqī tu kori man g'am ast,  
Guft: xandon zeri lab g'am nest — kori olam ast.<sup>1</sup>*

Pahlavon qadahni sipqirarkan, majlis ahli suron bilan uni tabrikladi. Birdan suron tindi. Husayn Boyqaro gapirdi:

— Pahlavoni olamga ming oltin in'om qildik. Buyuring, qo'limiz sizga intizor!

Muhammad Said podshohning qo'lidan qadahni olib, uning sog'lig'iga ichdi. O'ttirish yana xushchaqchaq davom etdi. Navoiy o'z do'sti Muhammad Saidga yonidan joy berib, uning g'alabasini qizg'in tabrikladi.

Bazm avjiga minib, mast qiyqiriqlar kuchayganda, Navoiy charchaganlikni bahona qilib, majlisni tark etdi. Eshikda kutgan ikki navkari bilan uyga jo'nadi.

Yorug' oydin, shamolsiz iliq kecha. Hirot uxlaydi. Unda-munda mast qiyqiriqlar va posbonlarning yarimta-yurimta ovozlari eshilib qoladi, unda-munda hovlilardan jafokash ayollarning chig'iriy va charxlarining yaknasaq sadolari tungi jimjitlikda mung bilan uchadi. Tomlari, devorlari xarob, qing'ir, o'nqir-cho'nqir ko'chaga — hunarmandlar mahallasiga qayrilish bilan oldinroqda ketayotgan Navoiyning oti quloqlarini chimirib, chetlanib tislendi, o'n qadamcha narida uzala tushib, odam gavdasi tuproqqa qorishib yotar edi. Navkarlardan biri chaqqonlik bilan otdan yerga tushdi, jilovni sherigiga tutqizdi-da, gavda ustiga egilib qaradi.

— Pichoqlanibdi. Voy-bo'y, hamma yog'i qon, — dedi navkar.

Navoiy otdan tushmakka harakat qilarkan, navkar uni to'xtatdi:

---

<sup>1</sup> M a ' n o s i : Men unga: sening ishqing olamida mening ishim g'amdan iboratdir, dedim. U esa miyig'ida kulib: g'am emas, olam ishidir, dedi.

— Behuda ovora bo‘lmangiz, taqdir. Jon asari yo‘q,  
— gavnani avaylab chetga surib, davom etdi so‘zida  
navkar. — Taniyman bu bechorani...

— Kim? — so‘radi Navoiy hayajonlanib.

— Mir Halim bo‘zchining qizi. Ajab xushro‘y  
edi, — javob berdi achinib navkar.

— Bulbulday ovozi bor edi, cholg‘uda ham mo-  
hir,— boshini tebratib dedi ikkinchi navkar.

Navoiy devor ostida tuproqqa cho‘zilgan jasaddan  
ko‘zlarini uzmay, xo‘rsinib so‘radi:

— Bu fojia kimdan ro‘y berishini ehtimol qilursiz?

Navkar barmoqlariga tekkan qonni oydinda xira  
yiltiragan devorga surtdi-da, xo‘rsinib javob berdi:

— Hirotning bir necha bekdodalari ham ba‘zi  
amaldorlar bu qizga go‘yo oshiq edilar, talashar edilar.  
Ammo, bilishimcha, qiz pokiza edi. O‘ylaymanki,  
biriga ko‘ngli bo‘lsa, boshqalari gina saqlagan. Oxirda,  
mana, raqiblar qo‘lida qurbon bo‘lgan.

— Hirotida yomonlar ko‘p, taqdir,— jasaddan ko‘zi-  
ni uzmay gapirdi otdagi navkar.— Husndor qizlarga  
tinchlik bermaydilar.

— Ne uchun bu to‘g‘rida hech nima aytmading-  
lar?— dedi Navoiy o‘qrayib.

Shoirning tovushi shunday qahrli ediki, navkarlar  
qo‘rqanlaridan duduqlanib qoldilar. Navoiy ularning  
poyma-poy javobining oxirini kutmay, qat‘iy buyurdi:

— Sizlar bu yerda qolinglar. Biringiz bu sho‘rlik-  
ning ota-onasiga yotig‘i bilan xabar qilinglar, durust-  
mi? Dardli tovush bilan, lekin qat‘iy buyurdi Na-  
voiy.— Keyin yuzboshiga aytib, jinoyatkorlarni to-  
pinglar va to‘g‘ri zindonga tashlanglar. Erta bilan siz-  
dan batafsil so‘raymen...

Navoiy otni sekin haydab ketdi.

Xo‘jasini kutib o‘tirgan sodiq mulozim Shayx  
Bahlul ot dukurini eshitishi bilan sham yoqdi.  
Ko‘shkada, pastak xontaxta oldida joy hozirladi.  
Navoiy juda g‘amgin, ezilgan ko‘rinardi. Shayx Bahlul  
bir og‘iz so‘z aytishga botinmay, jimgina chiqib ketdi.

Navoiy ustki to‘nni yechdi, sallani qoziqqa ilib,

yengil taqya kiydi-da, ochiq darichaga yaqin, sham oldida o'tirdi. Darichadan bog'chaga qaradi. Yo'lda qo'qqisdan uchragan hodisa uning ko'nglini bulutday qoplagan edi. Bu manzarani xotirdan silishga tirishdi.

Oyning katta oltin gardishi daraxtlar orasidan unga tomon yumalanganday... Adl sarvlarning nozanin qomatlaridan nur mavjlanib oqardi. Gullarning ko'rkam tojlari shunday yashnagan ediki, hatto ularning yerga tushgan soyalari ham jonliday sehrli, go'zal tuyulardi. Bu tanho go'zal kecha, haligi qonli ro'yo shoirning fikrida uzoq, eski bir xotirani jonlantirdi. Yuragining to'q'rida bir hasrat olovlanib, butun fikrini, butun borlig'ini kuydirib qovjiratganday bo'ldi. Shunday latif bir kechada, kichkina, lekin parilar maskaniday xayoliy go'zallik, tinlik bilan to'la bir bog'chada husnning, odob va aqlning, nozning, eng shoirona hislarning mukammal tajassumi, timsoli bo'lgan bir qiz bilan birga kechirilgan, faqat yashin kabi yonib, abadiyatning qo'yniga singgan daqiqalar... U qizning nayday mayin ovozi, lablarning qizil, toza g'unchasi bag'ishlagan bo'salar... Qani u dilbar? Qani u, she'rning, ilhomning tunganmas nur-chashmasi? Hayhot, uni qaydan topsin! Quyundek sahrolarda yugursin, sarv oyining bulutlaridek o'kirib, ko'z yoshlaridan sellar oqizsin — uning iziga yetishmas. Uning izlariga shoir yana bir qatla ko'zlarini sursa edi, ko'zlarida butun umr nash'a yonardi. Yo'q, u gulni rahmsiz qo'llar uzgan. Koshki shoirning hayoti uzilsa edi! Uning izlari bu dunyodan o'chgan. Abadiyan alvido, sevgi! Buyuk sirga, afsonaga aylangan muhabbat, alvido!

Bulbul yangradi. U, go'yo bir shoxini daricha tepasidan yotiq cho'zib, barglari, novdalari bilan darichaga tabiiy bezak bo'lib tushgan bir daraxtda sayragandek tuyuldi. Navoiy o'zini yo'qotgan kabi, uzoq vaqt dard bilan jim, sokin o'tirdi. So'ng og'ir so'lish oldi. Bir tomonga qiyshaygan shamni to'g'rila-di. Xontaxta ustidagi qog'ozlarni xomush varaqladi. So'nggi sahifaga ko'z tashladi: Farhod tog' qazishda!

Oltin davot ichidan qalamni oldi. Siyohga ozgina suv tomizdi. Qalam erkin va dadil yurdi. Farhodning qoyalarni o'pirgan afsonaviy teshasi kabi, fikr toshlarini yaxlit kesib, misralarga joylab-qalab ketdi. Xayol shoirni o'z qanotlarida ertaklar olamiga uchirdi. O'zini unutib yozdi, dardga to'lib-toshib yozdi. Mana, Farhodning «Nahr ul-hayot»<sup>1</sup>i bitdi. Ertaga Farhod suv quyadi. Go'zal o'rtoqlari bilan Shirin tomoshaga keladi. Minglarcha xalq karnay-surnay yangratib, tantana va suron bilan guvillab oqqan suv bo'ylab ajoyib bayram yasaydi. Bu manzara — hayot g'alabasi shoirni yengillatdi. Uning yuzida, soqqollarida dono tabassum yugurdi. Shamni o'chirganda, atrof oqarib, havoda tong shabadasi g'irillar edi.

## II

Bazmchilar may va raqs girdobiga raso sho'ng'igan paytda Majididdin Amir Mo'g'ulni, To'g'onbekni, Xo'ja Abdullo Xatib, mavlono Shahobiddin va boshqa hamfikrlarini imlab, Bog'i Jahon orodagi bo'sh xonalardan biriga olib keldi. Hammaning kayfi taraqqi bo'lsa ham, Majididdin hushyor edi. U sirli tovush bilan gapirib, hammani gilamga o'tqazdi, eshiklarni berkitdi. Bu yerga qanday maqsad bilan yig'ilganliklarini payqagach, odamlar es-hushlarini yig'ishga tirishdilar.

— Alisherga podshoh hazratlari ne yo'sinda muomala qildilar! Yuragim qinidan chiqayozdi, — g'oldiradi Amir Mo'g'ul mastlarcha chayqalib.

— Endi bildimki, podshohga so'z uqtirish imkonsiz ekan. Shuncha shikoyatlarimiz yelga uchdi... — dedi norozi bir barlos begi, qo'li bilan peshonasini siqib tebranib.

— Modomiki, biz ulug' vazifani o'z oldimizga qo'yibmiz, uni ijro qilmoq xususida oramizda ahdu paymon bor, ishni oxiriga yetkazmoqligimiz shart, — dedi Majididdin va irodasiga qarshi ovozini balandla-

<sup>1</sup> Hayot daryosi.



tib, davom etdi. — Podshohga sadoqatimiz barcha olamga ayon. Binobarin, hech qanday taraddudga o‘rin qolmaydi. Biz shu zamongacha podshohning qulog‘iga juz‘iy shikoyatlarni yetkazdik. Lekin e‘tibor qilmadilar. Har holda, bizning so‘zlarimizni unutmagan bo‘lsalar kerak, deb o‘ylaymiz. Chunki xoqonimiz aksar ishlarda uzoq mulohazalarga borib, g‘oyat pihon tadbirlar ko‘radilar. Endi aslo noumid bo‘lmay, yana jasurlik bilan tadbirlar ko‘rmoq kerak.

— To‘g‘ri, — dakkam-dukkam mo‘ylabini burab dedi To‘g‘onbek, — dushmanning qo‘rg‘oni juda metin ekan. Uni o‘piradigan choralar ko‘rilishi kerak.

Mavlono Shahobiddin «Balli!» deb uning yelkasini silab qo‘ydi. Amir Mo‘g‘ul qo‘llari bilan hammaga ishorat qildi. Qalin lablarini osiltirib, bir nafas jim qoldi, keyin taklifini unutgan kabi, so‘z topolmasdan qiynaldi-da, duduqlanib, Majididdinga murojaat etdi:

— So‘zlang, ne... ne...

— Ahdimiz ipini qilich ham kesolmaydi. Davlatning ravnaqi bizning qilichimizga bog‘liq, — o‘zicha valdiradi bir bek.

— Sizlar zamonning Subutoy<sup>1</sup> bahodirlarisiz. Davlat sizlarning qo‘lingizda bo‘lishi kerak, — quturtirdi Xo‘ja Abdullo Xatib.

Majididdin so‘zni qisqa qilishga urindi.

— Modomiki, yakdil bo‘lmoqqa hammalaringiz rozidirsiz, mening bu mulohazamga qanday ra‘yi bildirursizlar?

— Aytigingiz, — dedi saroyning ichki mansabdorlaridan fitnachi bir chol.

— Xoqonimizga imzosiz bir maktub yozsak... Alisher va uning odamlari haqida jamiki mulohazalarimizni bayon qilsak...

— Aslo e‘tiroz qilmasmiz, xo‘b fikr bu, — birdan qichqirib yubordi Amir Mo‘g‘ul.

Ba‘zilar maktubni podshohga topshirmoq qiyin bo‘ladi, deb ikkilanishgan edi Majididdin qat‘iy ishon-tirib, dedi:

<sup>1</sup> Chingizxonning ulug‘ askarboshilaridan biri.

— Saroyda bizning shunday qo‘llarimiz mavjudki, ular maktubni podshohning muborak ko‘zlariga eltib tururlar, ammo o‘zlari pinhon qolurlar. Bu g‘oyat oson. Birodarlarim, bu vazifani kaminaga topshirsangizlar, inshoollo, ado qilurmen.

Hech kim e‘tiroz qilmadi. Maktubning ayrim nuqtalari haqida ba‘zilar o‘z fikrlarini bildirdilar, keyin tashqari chiqib, bog‘ning turli yoqlaridan yurib birin-sirin bazmga ketdilar. Majididdin yolg‘iz qoldi, eshiklarni berkitdi, sham oldida terlab-pishib maktub yozmoqqa boshladi.

### III

Yarim kechada Husayn Boyqaro haramga kirdi... Hirotning yetukli oilalaridan bo‘lib, sultonga taqdim etilgan go‘zal qiz bilan birga kechani o‘tkazdi. Qiyom pallada boshi shishib, o‘rnidan turdi. Uning yolg‘iz o‘ziga xos hammomchada epchil xodim uni yuvintirdi, xodimlik hunarining butun qoidalariga muvofiq, badanini obdon uqalab, keyin qunt bilan kiyintirdi. Husayn Boyqaro yengillanib, koshonaga kirdi. Maxsus satanglar yuvintirib, tarantirib, sho‘x xitoyi shohilarga chulg‘agan uzun bo‘yli, xipcha belli, ingichka, qayrilma qoshlarini kuydirilgan bodom bilan o‘xshatib bezagan, qirg‘iz qovoq, go‘zal xonim bilan nonushta qildi. Yangi muhitda, begona odamlar orasida, noma‘lum taqdirning sharpasidan ichki bir qo‘rquv, vahim, ko‘ngil g‘ashligi sezib, kechani essiz-hushsiz o‘tkazgan yosh ayol, saroy xonimlarining kutuvi, tashviqi bilan endi unga, soxta bo‘lsa-da, noz-ishva, nazokat bilan muomala etishga tirishardi. Husayn Boyqaroga uning suzik ko‘zlari, qirra, adil, xushbichim burni, harakatlardagi tabiiy nafislik yoqqan edi. Oqshom yana u bilan birga bo‘lish to‘g‘risida bir qancha shirin so‘z aytib, tashqari chiqarkan, dahlizda uni Gulchehrabibi ikki bukilib, qarshi oldi. Tishi tushgan, sochi oqargan bo‘lsa-da, ko‘ksiga bir shoda marjon osgan bu eski satang kampir tunda podshoh yosh go‘zalning qo‘yniga kirguncha, har nav tayyorliklar ko‘rib, so‘ng

mijja qoqmay, hukmdorning ehtimol tutilgan amriga hozir-nozir bo'lib, egasini qo'riqlagan aqlli it kabi, eshikdan siljimagan edi. Husayn Boyqaro to'xtadi, kampirga iljayib, kissasiga qo'l tiqdi. Bir siqim oltin tanga olarkan, bir qog'oz ham ilashib chiqdi. Pulni kampirning ochko'z kaftiga to'kdi.

— Xizmating maqtovga loyiq, ena.

— Bu xokisor cho'ringizning yagona orzusi, — dedi kampir pulni yeng ichiga jaranglatib to'kib, — o'z podshohining ko'nglini ochuvchi toza gullar izlamoqdir.

Husayn Boyqaro Bog'i Jahon oroning salqin yo'l-larida keta turib, ipakday mayin, yupqa qog'ozni yoydi. Boshlang'ich besh-o'n satriga ko'z yugurtib, birdan to'xtadi. Qovog'ini solib, atrofga nazar tashladi. Yigirma qadam narida daraxtlar orasida o'zining doimiy qo'riqchilari Bo'dana bilan Do'lananing bahaybat gavdalarini ko'rdi. Yana bir necha satr o'qib, rangi oqardi; qog'ozni qaytadan buklab, ildam yurib ketdi. O'zining taxti turgan tillakori xonaga emas, unga yopishgan, devorlari chinni, kichik xonaga kirdi. Qalin to'shak ustida nomani oxirigacha o'qidi: titrak qo'llari bilan qog'ozni g'ijimlab, kissasiga soldi: «Mening haqimda Alisherdek odam shunday badniyat va badxohish bo'lsin! — o'yladi labini tishlab u.— Bu qadar noshinosliq'qa odamzod chidagaymi? Men zolim, men bir guruh telba mastlar orasi-da gumroh tojdor, el-ulusni talovchi badkirdor emishmen... Yaxshi gap! Mening o'rninga Badiuzzamonni taxtga o'tqizar emish, ko'ramiz! Men hali o'z tojdavlatimni hech bir o'g'limga bermoq istamaymen. Nahotki, buni Alisher anglamasin? Men shu vaqtgacha ko'p yaqinlarimdan Alisher xususida shikoyatlar eshitgan edimki, ular buning oldida daryodan tomchi ekan; biroq bu xatni uning dushmanlari yozgan, albatta; binobarin, mubolag'adan aslo xoli emas. Lekin qaysi yo'l bilan bu imzosiz noma mening kissamga tushdi?

---

<sup>1</sup> Yaxshilikning qadriga yetmaslik.

Ajab! — hayrat bilan boshini tebratdi podshoh. — Buni ulug‘lar qalamga olgan va kichiklar Kamak Kayyoniy<sup>1</sup> mahorati bilan ichimga kirganlar... Bu yomon emas, albatta: bu harakatda ulug‘larning ham, kichiklarning ham menga sadoqatlaridan nishona bor...» Husayn Boyqaro katta, yumshoq yostiqa yonboshlab, tinkasi quriganday, ancha vaqtgacha asabiy-lanib o‘yladi. Keyin mudrab ketdi. Nomadagi ayrim jumlalar boshini parmaladi. Birdan ko‘zlarini ochib, guldor darichani tiqirlatdi. Bir zumda eshik og‘asi Boboali hozir bo‘lib, podshohga ta‘zim qildi.

— Mirqobil otliqni tanurmusiz?

— Albatta, tanurmen... — javob berdi Boboali.

— Bukun ko‘rinmadimi?

— Saboh<sup>2</sup> darvoza yonida ko‘rgan edim.

— Uni ildam topib, bizga yuboring.

— Boshim bilan.

Ko‘p o‘tmasdan, eshikni asta itarib, oyoq uchida Mirqobil kirdi. U uzun, oriq, o‘ynoqi ko‘zli, ko‘rinishida o‘z soyasidan hurkadigandek yigit edi. U yergacha egilib, qo‘li ko‘ksida, tikka qotdi. Husayn Boyqaro unga qaramasdan, dedi:

— Sen shu damgacha kimning soyasi bo‘lsang, undan kechursen.

— Kechurmen, — ta‘zim qildi Mirqobil.

— Shu daqiqadan e‘tiboran sen Alisher Navoiyga hamqadam bo‘lursen! — davom etdi Husayn Boyqaro o‘shshayib. — Alisherning uyida hech bir majlis, hech bir ziyofat sensiz o‘tmasin. Alisher o‘z do‘stlari, mehmonlari, yaqinlari orasida ne so‘zlasa, fikringga jo qilursen va barchasini menga yetkuzib turursen. Bilki, joning mening qo‘limdadir!

— Bu faqir qulbachchangiz farmoningizni sidqi dil bilan ijro qilur va bir og‘iz so‘zni faromush qilmasdan, sizning muborak xotiringizga yetkazur, — dedi Mirqobil titrak tovush bilan.

— Xo‘p, jo‘na endi! — qo‘lini silkidi podshoh.

<sup>1</sup> Afsonaviy g‘oyat mohir josus.

<sup>2</sup> Erta bilan.

## IV

Navoiy erta bilan ozgina qaymoq yeb, odatdagi-cha, Binafshabog‘ga chiqdi-da, bahavo supada o‘tirdi. Qadrdon mulozimlaridan Sohib Doro dasta-dasta maktublarni olib keldi. Shoir qog‘ozlarni birin-ketin ochib, diqqat bilan o‘qishga boshladi. Xatlarning ko‘pi uzoq shaharlardan, mamlakatlardan tog‘u cho‘llar, daryolar oshib kelgan edi. Tanish va notanish olimlar, shoirlar va she‘r havaskorlari unga o‘z hurmat, muhabbatlarini g‘oyibona izhor etib, uning yangi asarlariga mushtoq ekanliklarini bildirar edilar. Navoiy eng yaxshi kotiblarga buyurib, g‘azallardan mumkin qadar ko‘proq kitoblar tuzishni Sohib Dorodan o‘tindi. Keyin shoir qalamni qo‘lga olib, «Farhod va Shirin»ga berildi. Lekin endi bir betgina yozganda, binokorlar, naqqoshlar va sangtaroshlar kelib, atrofini qurshab olishdi. Ular madrasa, xonaqoh, hammom va boshqa inshootlar to‘g‘risida shoir bilan kengashmoqqa oshiqardilar. Navoiy binolar uchun lozim bo‘lgan marmar va ranglarning miqdori va sifati, eshiklarning shakli, peshtoqlarga yozilgusi bitiklar haqida qunt bilan uzoq suhbatlashdi. Ustalar, san‘atkorlar yo‘l-yo‘riq olib, mamnun holda jo‘nagach, betini chang bosgan, ko‘zlari qovjiroq horg‘in navkar keldi.

— Xo‘sh, tungi voqeani tahqiq qildingizmi? Nega bu qadar kechikdingiz? — so‘radi Navoiy navkarni yoniga o‘tqazib.

— Taqsir, bir nafas orom olmadik. Yeldik, yugurdik. — Qurigan lablarini yalab, oftobda kuyib qoraygan jiddiy yuzidan terlarini artib gapirdi navkar. — Nihoyat, ishning tubini aniqladik. Lekin kuchimiz shunga yetdi, xolos.

— Xo‘sh, qotillar kim ekan? Qizni ne sababdan o‘ldiribdilar?

— Tunda janoblariga aytgan taxminim to‘g‘ri chiqdi, — javob berdi navkar. — Bechora bo‘zchining qizida zarracha gunoh yo‘q. U bir chiroyli, yosh naychi yigitni suyar ekan. Kecha bir o‘rtog‘ining to‘yidan

kelayotganda, uni ko'pdan buyon yo'ldan ozdirmoq niyatida yurgan ikki yigit yo'liqadi. Qizning yo'lini to'sib, zo'r bilan majlisga olib ketmoqchi bo'ladilar. Qiz unamaydi. Shu vaqtda mast yigit achchig'lanib, xanjar uradi. Aftidan, bu yigitlar bilan naychi o'rtasida bir xusumat ham bo'lsa kerak.

— Qotillar kimlar ekan? — qovog'ini solib, sabrsizlik bilan so'radi Navoiy.

— Ulug' zotlardan ekan,— dedi navkar boshini og'ir tebratib.— Biri-parvonachi Majididdin janob-larining yaqin aqrabolaridan, yana biri — shahzodamiz Muzaffar Mirzo hazratlarining xos yigiti Muhammad Ali Tarxonning kichik o'g'li ekan. Ularni qamatmoq uchun biz to shahar dorug'asiga qadar bordik. Dorug'a bizni zindonga tashlamoqchi bo'ldi. Hozir qotillar Pulimolonda Amir Shujoiddin barlosning bog'ida sharob ichib, aysh-ishrat qilib o'tirishibdi, taqsir.

Navoiy navkarga orom olish uchun ruxsat etdi-da, tezda kiyinib, piyoda devonga — bosh mahkamaga jo'nadi. Havo dim, bo'g'iq edi, yer o'tga tushgan temirday qizg'in edi. Odamlar changli ko'chalarda, issiqdan harsillab, o'zlarini ayronga urar edilar. «Tiq» etgan shamol yo'q. Barglari shalpaygan, to'zon bosgan daraxtlar jimgina mudraydi.

Navoiy terlab-pishib, yo'lakay dorug'a mahkamasi-ga kirdi. Oddiy mayda ma'murlar yelpinib, homuza tortib, o'zaro gap sotishardi. Navoiy kirishi bilan birdan o'rinlaridan turib, go'yo uning buyruqlarini kutganday, qo'l qovushtirdilar. Shoir dorug'ani ko'rmoq istagini bildirdi. Uning hozirgina bir yoqqa chiqib ketganini bilgach, tungi fojiani tahqiqlash uchun mulozimlar bilan suhbat qurdi. Ular bergan barcha ma'lumot navkarning so'zlariga asosan muvofiq tushdi. Mahkamadan Navoiy to'g'ri bosh devonga ketdi. Devonning katta va salqin bir xonasida ipak gilamlar ustida Majididdin parvonachi, Nizomulmulk, Amir Mo'g'ul, To'g'onbek, yana bir qancha ulug' mansabdorlar vazifalarini bitirib, sekin va ulug'vorona suhbatlashmoqda edilar. Navoiy, hamma vaqtkiday,

tavoze va nazokat bilan salomlasharkan, uning hayajonli, ter quygan yuzini ko'rib, hamma allaqanday o'ng'aysizlik sezdi.

— Marhamat, amir janoblari, — soxta tavoze va kamtarlik bilan murojaat etdi Majididdin. — Kun shunday yonib turgan pallada kelibdilar...

— Hechqisi yo'q, — sokinlik bilan dedi Navoiy. — Bir muhim ishni bajarmoq niyatida keldim.

— Ya'ni? Bizni ham ogoh qilg'aylar shoyad, — zo'raki tabassum bilan dedi Majididdin.

— Kamina o'ylaymenki, bunda hozir bo'lmish zotlar bu ishdan xabardor bo'lmoqlari lozim. Menda mavjud ba'zi ma'lumotlarga muvofiq, bo'zchining qizini o'ldiruvchilarni qamamoq xususida bu yerda ba'zi mulohazalar va mushkilotlar bor emish. Men bu hodisaning sabablarini bilmoqni istar edim.

— Filhaqiqat, bu g'oyat nozik bir masaladir, — o'z so'ziga boshqalarning ham qo'shilishini istagandek, hammaning ko'ziga bir-bir tikilib, dedi Majididdin. — Asli mushkilot shundaki, bu masalada shahzoda Muzaffar Mirzoning ra'yi va orzulariga qarshi bir nima qilmoq imkonsizdir.

— Shahzodadan o'zga yana kimning yuz xotirini andisha qilinmoqchi? — so'radi Navoiy.

Majididdin birdan qizarib-bo'zarib, ko'zlarini yashirish uchun boshini quyi soldi.

— O'zga mulohazalarning ahamiyati yo'qdir, — sarosimalanib, javob berdi Majididdin.

— Alhamdulillah, bizning mamlakatda hukumat mavjud, — dedi Navoiy, hammaga nazar tashlab. — Hukmdor mavjud, qonun va huquq mavjud. Har kimki bir jinoyat qilibdi, tahqiqlangandan keyin o'z qilmishiga yarasha jazoga tortilmog'i kerak. Aks holda, mamlakatni idora etmoq aslo mumkin bo'lmas. Bu qabih ishlarga hech kim uchun alohida huquq va qonun bo'lmog'i mumkin emas.

— Har holda, Muzaffar Mirzo hazratlarining ray'ilarini bilmoq, ruxsat olmoq zarur, — dedi dabdabador ohangda Nizomulmulk.

— Shahzodamiz g'oyat xafa bo'lurlar. Men ularning fikrini bilurmen, — dedi To'g'onbek yuzini ters o'girib.

Navoiy unga jirkanib qarab qo'ydi-da, Nizomulmulkka dedi:

— Gunohsiz odamlarning qonini to'kuvchi jinoyatkorlarni o'z qo'llari bilan bo'g'moq shahzodaning vazifasidir. Agar Muzaffar Mirzo yosh bo'lganidan bu jihatni anglay olmasa, unga o'rgatmoq lozim. Jinoyatkorlarni himoya qilmoqdan ulug'roq jinoyat yo'qdir!

Hozir bo'lganlarning nafasleri ichlariga tushib ketdi. Shoirning dushmanlari uning qahrli ko'zlariga, g'azabdan titragan yuziga boqishga botinoldilar. Ulug' mansabdorlardan ba'zilar Navoiyning fikriga qo'shilgandek bo'ldilar. Majididdin titrab-qaqshab yana gapga aralashdi, baland ovoz bilan dedi:

— Agar bu voqeani yaxshilab tekshirilsa, yolg'iz mastlik natijasida ro'y berganligi ayon bo'lur. Mana shunday tasodifiy bir ish uchun mamlakatning e'tiborli yigitlarini zindonga tashlamoqda ma'no bormi?

— E'tiborli yigitlar! — zaharxanda bilan xitob etdi Navoiy. — Qo'llarini qonga botirgan yirtqichlarga qanday hurmat bo'lmog'i mumkin?!. Do'stim, — murojaat etdi Navoiy kotiblardan biriga, — jinoyatkorlarni shu soatda qamamoq to'g'risida shahar dorug'asiga bir farmon yozingiz!

Yosh kotib astoydil qulluq qildi-da, darhol farmon yozib, ichida diqqat bilan o'qib chiqdi va shoirga taqdim etdi. Navoiydan tashqari, Nizomulmulk, yana ikki bek imzo chekib, muhrlarini bosdilar.

Shoir farmonni kissaga solib, eshik tomon dadil yurdi.



## O'n oltinchi bob

### I

Kechki kuz fasli Hirotning erinchak qishi hali o'zini sezdirgan emas. O'qtin-o'qtin yomg'ir quyib, sharillagan suvlar tarnovlarni qo'porib tushiradi. Rub'iy maskunda yagona bo'lgan poytaxt ko'chalarida piyodalar uchun yurish balchiqda ancha qiyinlashadi. Biroq osmon yana tezda feruzalanib, quyosh hatto bahorgiday qizdira boshlaydi. Bog'chada daraxtlar oltinrang bilan tovlanar edi, barglar birin-sirin jimgina, yalqovgina to'kilar, nam yerni o'par edi.

Navoiy kuzning so'lgin nafosati bilan nafas olgan xiyobonlarni oralab, tabiat va hayotdagi o'zgarishlar ustida fikr qilib, kechinmalar, hislarga to'lib yurarkan, navkar kelib, safar uchun otni tayyorlab qo'yganini bildirdi. Shoir go'yo Marvga — podshoh qoshiga jo'nash kerakligini endi eshitganday ikkilanib: «Hozir borurmen», dedi-da, yana avvalgicha sekin ketdi. Bog'bonlar va boshqa xizmatchilar bilan so'zlashdi, ularning umaloq-dumaloq bolalarining boshlarini siladi, keyin kissasidan oltin va kumush chiqarib, hamмага yo'loyoq ulashdi. Bolalarning shodligi, ayniqsa, benihoyat bo'ldi. Ular sakrashib, chuvillashib, tangalarni dam kaftlariga mahkam qisib, dam bir-birlariga ko'z-ko'z qilishardi. Kattalar o'z xo'jalariga «oq yo'l» tilab, ko'zlarida yongan samimiy chuqur mehr bilan vidolashdilar.

Navoiy uyga qaytib, qalin chakman va bo'rk kiydi. Sohib Doro va Shayx Bahlulni chaqirib, qilinajak yumushlarni tayinladi, o'zi orqasidan yo'lga chiqib, unga hamrohlik qiluvchilarning yuki va hokazo haqida surishtirdi. Hovliga chiqishi bilan uni kuzatishga kelayotgan bir guruh do'stlari, yaqinlarini ko'rdi. Bularning ichida Osifiy, Shayxim Suhayliy, Mir Mirtoz, Atullo, mavlono Zamoniy, mavlono Xo'ja Fasihiddin, Sultonmurod, Pahlavon Muhammad Said va hokazolar bor edi. Do'stlar uning atrofini qursharkan, jonga yaqin bu odamlardan ajralayotganiga

ichida achindi. Bir necha daqiqa oyoqqa turib so'zlashdi. So'zi, harakati, g'amxo'rliги bilan har birining ko'nglini olishga tirishdi. Yozayotgan ilmiy asarlari tez orada tugasa, bir nusxadan Marvga berib yuborishlarini Mir Mirtoz va Sultonmuroddan o'tindi. Do'stlarning iltifoti, sevgisi uning ham ruhini yengillatdi. Keyin otga chaqqonlik bilan minib, kuzatuvchilarning qorasi o'chguncha orqaga bir necha bor qaradi. Ammo shahardan chiqish bilan to'ppa-to'g'ri Marv yo'liga emas, Sa'diddin Koshg'ariyning marqadi<sup>1</sup> tomon otni burdi.

Jomiy uni, har vaqtdagi singari, shavq bilan qarshiladi. Navoiy o'tirgan hamon ulug' chol muloyim tabassum qilib, o'ziga xos mayinlik bilan dedi:

— Endi ko'zlarimizni Marv yo'liga intizor qilar-musiz?

— Ne qilaylik, ketmoqdan o'zga choramiz yo'q. Janob oliylari bu ishdan xabardor edilarmi?

— Kecha bir necha shahzoda va bekdodalar qoshimizda edilar, ulardan eshitdim, — javob berdi Jomiy, keyin qat'iy ravishda dedi: — Amri podshoh, itoat etmoq bir vazifadir!

— Ko'ngilning, aqlning sərbastligi, ularning vazifalariga itoat yana ham muqaddasroqdir.

Podshohning zaifliklaridan, Majididdin va beklarining, saroy doiralari Navoiyga qarshi tuhmat va ig'volaridan yaxshi xabardor bo'lgan Jomiy, bu ahvoldan chuqur mutaassir bo'lar, ulug' shoir va nodir insonning pok vijdoniga tosh otgan jirkanch qo'llardan nafratlanar edi. Biroq, xalq va davlat manfaatlari uchun, qo'pol kuchlarni, zulm va jabrni tizginlash uchun Navoiyning iqtidoriga, yorqin zakosiga, u boshlagan ishning chuqur ma'nosiga ishonar, shuning uchun davlat ishlaridan Navoiyning butunlay etak silkish orzusini maqbul ko'rmas edi.

— Ra'iyatning baxt va saodatiga xizmat qilmoq —

---

<sup>1</sup> Qabri (muh.).

xudo yo'liga xizmat bilan barobardir, — dedi Jomiy yana har vaqtdagi ishonch bilan.

— Faqir ham shu fikrning telba bandasidir, — dedi cholga Navoiy, qo'lini ko'ksiga qo'yib. — Shu narsa muhaqqaqki, podshoh xizmatidagi inson gung va shol bo'lishi kerak ekan. Qabohatlarga ko'z yummoq talab qilinar ekan. Sirni fosh etmoqchi bo'lgan til kesilarki, bu hol hammadan mushkuldir. Men bundan mushkulroq bir nimani tasavvur qila olmog'umdir.

Jomiy bir qancha vaqt sukut qildi. Saroydagi fisq-fujurni va podshohning ma'nau pasaya borganini ko'z oldiga keltirdi. Shu muhitda Navoiyning bo'g'ilishi, vijdon azobidan qovrilishi g'oyat tabiiy ekanini yana chuqurroq his etdi. Lekin u so'fiyona tabiatining butun e'tiqodi bilan haqiqatning ustun chiqishiga ishonar edi.

— Inshoollo, haqiqat dushmanlarini, zulmkorlarni mag'lub qilursiz. Biz ham bu yo'lning mudofaasiga hamisha tayyor tururmiz.

Ayniqsa, keyingi jumlaning Jomiy zo'r imon bilan ta'kidlab aytdi. Navoiy butun qish Marvda qolish ehtimolini, xususan keyingi vaqtlarda ko'ngilning sukut va xilvatga bo'lgan ishtiyoqini, saroy odamlari bilan muomaladan charchaganligini so'zlad. Ovozasi olamni tutgan bu ulug' odamning bu faqirona, sokin hayoti, yuksak ma'naviy rang va ziyo bilan to'la muhiti Navoiyni qalbdan asir qilar, dunyoning qaydi-quydidan ozod, ma'naviy zavqlarga ko'ngli tolpinar edi; u tabiatan darveshsifat edi. Bu xislat uning ko'nglida ba'zan kuchli chayqalishlar yasar, lekin bu uni darvesh kulbasiga sudramas edi, xalq va jamiyatga nisbatan o'zining insoniy burchiga, odamlarning baxtiga, adolat, insonlik nuri bilan sug'orilgan go'zallikka undar edi. Uning qalbida hayot guli o'zining butun toza rangi, ziyosi va butun jonli, to'laqonli nash'asi bilan ko'rkam ochilib ketar edi. Jomiy o'z do'stidagi bu fazilatni chuqur anglar va bu hurmat va sevgiga sazovor, deb bilar edi.

Alisher Navoiy yo'lga ruxsat so'rarkan, chol

«andak tavaqquf»<sup>1</sup>, degan ishorat qildi-da, tevaragida qalashib yotgan kitoblar orasini timirskilab, muqovasiz, lekin kitob shaklida tikilgan bir dasta qog'ozni uzatdi. Navoiy shu yerda varaqladi: «Bahrul abror!» Ayrim joylariga ko'z yugurtirib, bildiki, bu — Xusrav Hindiyning «Daryoyi abror»iga javoban qalamga olingan... Darrov chol shoirga yalt etib qaradi. Uning yuzida g'ururli, lekin kishiga qattiq tegmaydigan, iliq bir tabassum ko'rdi. Navoiy bundan avvalgi bir suhbatni birdan xotirlab, yana ko'zlarini kitobchaga yashirdi: u go'yo uyalgandek bo'ldi. Bir-ikki hafta ilgari shu xonada, Jomiy bilan suhbat asnosida, Xusrav Hindiyning ijodi ustida so'z borgan edi. Navoiy Xusravning sohir qalamini g'oyat samimiy va qizg'in maqtadi. Ayniqsa uning «Daryoyi abror»ini yuqori qo'ydi. Dalil uchun shoirning bu asar haqidagi o'z so'zlarini keltirdi. Xusrav shunday der ekan: «Agarda, qachon bo'lmasin, zamonlar o'zgarib, mening barcha nazmim dunyoda izsiz yo'qolib ketsayu, yolg'izgina bir qasidam — «Daryoyi abror» qola bilsa, shuning o'zi kifoya: buni o'qigan odam mening she'rdagi qudrat va iqtidorimni bilib oladi!» Jomiy Navoiyning bu haqdagi fikrini tinglab, sukut qilgan edi. Bu asarni yuzaga keltirgan u sukutning ma'nosini Navoiy endi angladi: «Jomiy huzurida Xusravni bu daraja ifrot maqtamoq xato ekan!» deb o'yladi ichida. Ammo Navoiyning yuziga birdan tabassum yugurdi: xatosi yangi, istanilgan bir asarning yaratilishiga picha xizmat qilibdi-ku! Bu asar bilan cholni tabriklab, benihoyat xursand bo'lganini arz qildi.

— Fursatingiz bo'lsa, o'qirsiz va fikrlaringizni biz faqirga yozarsiz. Biz uchun siz janobning zavqingiz hukmi oliy va mukofotdir, — dedi Jomiy.

Navoiy kitobni avaylab, qo'ltig'iga tiqdi. Jomiy uni eshikka qadar kuzatib, do'stona xayrlashib qoldi.

Dala yo'lining ikki tomonida cheksiz bog'chalar, bo'stonliklar cho'zilgan. Yo'l ustiga enkaygan daraxt

---

<sup>1</sup> M a' n o s i: Bir oz to'xtang.

shoxlari ba'zan shoirning bo'rkini yumdalaydi. Barglarning oltin gilamlarida qo'ylar, echkilar gala-lashib yuradi. Hosili yig'ib-terib olingan bo'stonliklar-da unda-bunda qorotqi — qo'riqchilar qaqqayadi. Gala-gala qushlar kezadi. Qishloqlar, odamlar siyrak-lasha boradi. Yo'l poyonsiz cho'lga yuz uradi. Uzoqda tog'larga tushgan yangi qor chaqnaydi. Ufqlarda xiralanib so'ngan cho'lning mavjli qatlamlarini quyosh nuri chayqaltiradi. Unda-bunda bulutlarning yaxlit ko'lkalari o'rmalaydi. Sovuq shamol dimoqqa cho'l-ning yupun-chiriyotgan o'simliklarining hidini uradi. Kalxat lapanglab, havoda katta doiralar chizib, butun hafsala bilan kichik qushchani ta'qib etadi.

Shoir qo'ynidan kitobchani oldi. Ko'zlar yaltiroq qog'ozga, misralarning quyosh nuri bilan jilvalangan qora saflariga qadaldi. Shamol varaqlarga keskin urilib, shaldiratib, o'qishga xalaqit berishiga qaramas-dan, Navoiy kitobchadan ko'z uzmadi. Bu mutolaa unga juda zavqli tuyuldi. Otning changsiz, yumshoq yo'lda tekis yo'rg'asi muazzam tabiatning, she'rning musiqiysi bilan hamohang bo'lgandek... Ayrim go'zal baytlarni qaytalab o'qidi. Tugatarikan, kitobni yana qo'y-niga soldi, lekin u deyarli yod bo'lib qolgan edi. «Yax-shi asar. «Daryoyi abrор» kabi rangin, xo'b asar! Xus-ravga javoban yozilmish bu asarga men ham javob bermog'im kerak!» — o'yladi ichida. Cho'lning azamat sukunatida bokira manzaralarning husniga berilib borarkan, xayoli yangi asarning to'qilmasi bilan ovora edi.

Shoir nogoh pichirladi:

*Otashin la'leki toji xusravonro zavar ast,  
Ahkare bahri xayoli xom puxtan bar sar ast'.*

Bu — «Tuhfat ul-afkor»ning matlai — ilk bayti edi. Bu — shoirning kayfiyatiga, ruhining mohiyatiga, imoniga eng mos tushgan bayt — uni quvontirdi. Ot boshini silkib, o'qtin-o'qtin pishqirib, adirlardan,

---

<sup>1</sup> M a' n o s i : «Podshohlarning tojiga ziynat uchun taqiladigan porloq, yonib turgan la'l haqiqatda esa podshoh boshidagi xom fikrlarni, xayollarni pishiruvchi cho'g'dir».

dovonlardan osharkan, shoirning xayoli ham asarning ayrim cho‘qqilarini egallab uchardi.

O‘rgangan ot cho‘lda rabotning qalin, baland devorlari oldida asta to‘xtadi. Shoir yerga tushdi. Qarshi olgan saroybonga otni tutqizdi-da, qaddini rostladi. Etaklarini qoqdi. Rabot ichida qo‘ngan yo‘lchilar — karvon ahli, otlar va tevalar anchagina edi. Shoirni taniganlar darrov kelib, ta‘zim, hurmat bilan hol so‘rashdi. Ovqat tayyorlashga urindilar. Navoiy bo‘sh xonalardan biriga kirdi, uvushgan oyoqlarini uzatib, bir oz hordiq chiqarib yotdi. Keyin qalamdavot talab qilib, Jomiya xat yozdi. Uning yangi asarini yuqori taqdirledi, yana uning ulug‘ qalbidan yangi-yangi she‘r gavharlari kutishini arz qildi. Nihoyat, maktub oxirida, Marvga yetguncha yo‘lakay o‘zi ham bir asar yozishga qaror qilganini va buning ilk baytini qayd etdi. Bu xususda o‘z fikrini bildirishni Jomiydan o‘tindi, keyin qog‘ozni yaxshilab bukledi, uni Hirotga ketuvchilardan berib yubormoq uchun rabotning shov-shuvli qo‘rasiga chiqdi...

## II

Do‘stlar Navoiyni kuzatib, uning oltin barglar bilan qoplangan bog‘ida, xuddi o‘z yerlarida sayr etgandek, ancha vaqt kezishdi, turli mavzularda, talashuv-tortishuvsiz, jonli, dilkash suhbat qilishdi. Faqat Mir Mirtoz boshliq bir necha ashaddiy shart-ranjchilar yoqimli oftobga gilam yozdirib, o‘yin boshlar ekanlar, Sultonmurod o‘yinga qiziqib, talabalarini kuttirib qoldirishdan qo‘rqdi-da, hech kimga sezdirmasdan, bog‘ni tark etib, Shohrux madrasasiga ildam jo‘nadi. Yoshlari o‘n olti bilan o‘ttiz orasida bo‘lgan o‘n to‘rtta doimiy shogirdlarini, ilmdagi darajalariga muvofiq, kichik guruhlarga bo‘lib, peshinga qadar diniy va dunyoviy ilmlardan dars berdi. Keyin hujrasiga kirib, kitoblar orasida yumshoq po‘stakka o‘tirib, insondagi bilimlarning mohiyati va ularning manbai haqida o‘ylab ketdi. Tunov kun Navoiy bilan bo‘lgan qizg‘in suhbatda shoirning bu haqda o‘rtaga

otgan mulohazalarini chuqur tahlil qildi; eski faylasuflarning nazariyalari bilan solishtirdi. Yozmoqchi bo'lgan kitobida bu masalalarni mumkin qadar keng oydinlatishga qaror berdi.

Kunjut sepilgan non bilan sarig' mag'izni chaynab, fikrlariga berilib, o'zicha kimlar bilandir xayolan bahslasharkan, Zayniddin kirib keldi. Do'stini keyingi vaqtlarda siyrak ko'radigan bo'lgani uchun juda sog'ingan Sultonmurod cheksiz quvonch bilan quchoqlab, o'z yoniga o'tqazdi. Sultonmurod Shohrux madrasasiga mudarris tayin etilgan vaqtda Zayniddin o'zini xattotlik, musiqiy va shatranjga butunlay bag'ishlagan edi. Haqiqatan, bu uch sohada u zamonning oldingi kishilari qatoriga o'ta boshlagandi. Bundan tashqari, u toshlarga o'yma naqshlar solish, bitiklar yozish san'atida ham mahorat kasb etgandi. Shuncha mashg'ulotga qaramay, Zayniddin sho'x, yengil hayot va ajoyib mojarolar uchun vaqt topar, ko'rinishda go'yo bekorchidek yashar edi.

Do'stona hazil va ginaxonlikdan so'ng ular birpasda talay voqealar to'g'risida so'zlashib olishdi, Nihoyat, Zayniddin tashqi ko'rinishda tamom beparvo olimning soqol bosgan yuziga tikildi-da, boshini chayqadi.

— Seni ishq ofati ich-ichingdan yondirmoqda... Ishq dardi eskigan sari o'tkirlashadi.

— Yanglishasen, men ishq dardini yengmoqqa qodirmen, — g'amgin so'zladı Sultonmurod.

— Yashirish mumkin emas! Navoiy janoblari yozda «Farhod va Shirin»dan bir bobni o'qib berganlarida sen bor eding, shekilli. Mana bu misralarni xotirla:

*Yopar fonus birla shu 'lasin sha'm,  
Ko'rarlar pardadin ul shu 'lani ja'm,  
Ko'z ichra maxfiy o'lmas ashq qoni,  
Bo'lurmi shisha may ichra nihoni?*

— Oh, o'zbek she'rining so'lmas gullari! — xo'rsindi Sultonmurod.

— Endi g'am yema, do'stim, baxtingning kalidini

topdim, — dedi kulib Zayniddin. — Xohlasang, tez kunda seni ishq chamanzoriga olib kiraman.

— Har ishga qodirsan, do'stim! — kinoya bilan kulib qoshlarini chimirdi Sultonmurod.

— Quloq sol! — achchiqlandi Zayniddin. — Dildor Xadichabegimning oddiy kanizaklaridan biri ekan! Umuman, saroy qizlari bilan aloqa bog'lamoq mushkul emasmish!

— Nimalar deysen? — rangi bo'z oqarib, titrak tovush bilan qichqirdi Sultonmurod.

— Mening bir sho'x o'rtog'im bor. Nechundir saroy qizlari bilan tanishmoqni orzu qilgan u. Hirotda bir a'juba kampir folbin bor. Unga Xadichabegimning ixlosi behad ekan. Yana bu kampirning folbinlikdan o'zga nayranglari ko'p. Masalan, burnining ikki katagidan, hatto ikki qulog'idan ikki xil ovoz chiqararmish! Xo'p, mana bu kampir yordami bilan u bir qizga bog'lanadi. Ilgari xat bilan so'zlashsalar, hozir goho-goho bir necha daqiqa bir-birovlarining yelkalariga qo'llarini tashlaydilar. Men kecha bular orqali Dildorning taqdirini yaxshi bilib oldim. Nima deysen? Xohlasang, folbinni qo'lga olamiz: gap-so'z ulg'aymaydi... Xat yozib, ishqingni Dildorga ochasen, ko'rishmoq mumkin bo'lur. Keyin boshqa tadbirlar ko'urmiz.

Sultonmurod titrak qo'llarini chakkasiga tirab, hushsiz kabi tingladi. Uning yuzini iztirob mavji qoplagan edi. Olim keskin ravishda birdan boshini chayqadi.

— Arslonqul? Men u bechora oshiq yigitning bah-tini qay vijdon bilan poymol qilamen? Uning yuragi yolg'iz Dildor yodi bilan tepadi. Men qanday qilib uning yarasiga, yolg'iz ishq dardi bilan tirik ko'ngilning yarasiga xanjar uramen?

— Arslonqul hali ham shundami? — bo'shshib so'radi Zayniddin.

Sultonmurod ko'zlaridan quyilib kelgan qaynoq yoshlarni artib, nafasini bo'g'gan yig'i bilan dedi:

— Shu yerga bechora oshiq...



## *O'n yettinchi bob*

Injil bo'yida avvalgi suron, qaynoq harakat tingan. Madrasa, xonaqoh, shifoxona, hammom va boshqa katta binolar azamat peshtoqlari, gumbazlari bilan samoga tikkaygan. Endi yuzlarcha naqqoshlar, sangtaroshlar, duradgorlar va boshqa san'at, hunar ustodlari binolarning tashqi, ichki bezaklari ustida diqqat va hafsala bilan ishlab, o'z ijodlarining hali dunyoga bilinmagan sirlarini ochmoqda edilar. Yuzlarcha gulchilik mutaxassisleri, dongdor bog'bonlar har bir binoning atrofini tabiatning nafis san'ati — go'zal bog'chalar, xiyobonlar, gulzorlar bilan qurshamoq uchun, shoirning nozik zavqi va boy xayoli chizib bergan rejalarni mukammal bajarish niyatida, shoshmasdan joy hozirlamoqdalar.

Arslonqul endi hamma binolarni, o'zining besh barmog'iday yaxshi bilar, har birining ma'no va ahamiyatini, xuddi umumiy rejani Navoiy bilan birga tuzib chiqqanday, tushunar edi. Odamlar undan: «Nima ish bilan mashg'ulsiz?» deb so'rasalar, aksar vaqt: «Gunohga botgan Hirotda bir uchmoh quryapimiz!» degan javobni qaytarishni sevar edi. U bir oydan buyon xonaqohning ichki xonalarini bezayotgan naqqoshlar bilan ishlar edi — ustalarga mustahkam havozalar qurib berar, kerakli buyumlarni tayyorlab berib turardi. Musofirlarning qo'nishi, olimlar va shoirlarning tinch yashab ishlashi uchun mo'ljallangan bu binoga Arslonqul ko'proq mehr qo'ygan. Bitgan uylarni har vaqt uzoq tomosha qilar, zavqlanar, devorlarda rangin gullar orasiga benihoyat ustalik bilan yozilgan bitiklarni o'qittirib, ma'nosiga yetishga va yodlab olishga tirishar edi. Bu yerdagi naqqoshlarning tepasida mashhur Mirak Naqqosh turardi. Devorlarda bo'yoqlardan ajoyib, sehrli manzaralar yaratuvchi bu ustodni Arslonqul hammadan ortiq sevar, hurmat qilar edi. Ammo Mirak Naqqoshning tabiati g'alati. Ba'zan ishga butunlay kelmas, ba'zan ish eng qizigan paytda bir zumda ko'zdan g'oyib bo'lar, qayoqlargadir

tentirab ketar, shunday vaqtlarda Arslonqul rosa xunob bo‘lib, qudratli qo‘llarini paxsa qilib so‘zlardi: «Mana bu dast panjada Mirakning hunari bo‘lsa edi, bu yerlarga uning qadamini bostirmas edim!»

Panjshanba kuni hamma naqqoshlar ishni barvaqt yig‘ishtirdilar. Bir uyning bezaklarini chala qoldirganlari uchun Arslonqul ichidan norozi bo‘ldi. Lab-lunjni osiltirib, jomakorini asta qoqdi, tozaladi-da, uygga jo‘nadi.

Sodda yigit bir vaqtlar o‘z sevgilisini qidirib Hirotga kelgach, begona muhitda bir yil qadar nafasi ichida, sargardon kezgan, so‘ng noumid bo‘lib qishloqqa qaytgan edi. Ammo o‘zi tug‘ilib o‘sgan, har burchagi bir chog‘lar unga shirin tuyulgan qishloq endi zindondan og‘ir, bo‘g‘uvchi ko‘rindi. Eski xo‘jasi qo‘lida bir yil qadar ishlagach, ishq uni yana shaharga sudradi. Shaharda befarzand kampir xolasi va keksa pochchasi-dan mehribonchilik ko‘rdi. Bir zamonlar kulolchilikda hunari bilan ot chiqargan yetmish yashar pochchasi ko‘pdan ish kuchini yig‘ishtirgan. Undan o‘n yosh kichik bo‘lgan xolasi chevar — jomado‘z edi.

Arslonqul mustahkam bir chorchari uy va uning qatorida bir ayvonli tekis, toza hovliga kirdi. Chol ayvonning burchagida, chuqur sukutda, boshini ikki oriq yelkasi ichiga olib, tasbeh o‘girar, kampir yengini shimarib, kechki ovqat uchun xamirdan zuvala kesish bilan band edi. Yigit ayvon chetiga o‘tirdi. Bu hovliga yopishgan qo‘shnikidan ancha charxlarning quloqni yirtadigan «g‘uv-g‘uv»i — yoqimsiz tovush eshitalardi. Arslonqul jerkinib dedi:

— Bu bo‘zchivachchalardan qayoqqa qochib qutulamiz?

— Chirog‘im, tirikchilik qilmasinlarmi? Nima, endi eshitingmi? — oq sochlari silliq taralgan, yoshiga qaraganda, hali yuzi toza bo‘lgan kampir gapirib qo‘ydi.

— Har biri o‘z kulbasida yigirsin!

— Yig‘ilib yigirganda zerikishmaydi. Bir-biriga qiziqib devdek ishlashadi,— kampir Arslonqulni o‘qlo-

g'ining uchi bilan turtib, dedi. — Manga qara, shum taka!

Yigit qayrilib, uning kichkina, siyrak, sertashvish ko'zlariga tikildi.

— Sen bir bahona bilan ularning yoniga chiq yo devordan qara, — chaqqon qo'llari bilan xamirni uzib, labidagi tabassum bilan davom etdi kampir: — Bukun ikkita yangi qiz bor — oy uzilib yerga tushgan, ana qoshu ana ko'z! Har qanday bekozodaga arziydigan qizlar.

— Bu ta'rifning menga hojati yo'q! — teskari burildi yigit.

— Sen tanlasang, bas, ertagayoq sovchilikka boraman.

— Ming marta dedim-ku, toq utamen, deb...

— Behuda xayol bilan o'zingni aldama. O'sha biyobon qiziga muncha ko'ngil qo'ygan ekansen! Tur o'rningdan! — qat'iy buyurdi kampir.

Arslonqul og'ir cho'kib, jim o'tira berdi. Kampir qistayvergach, g'amgin dedi:

— Kishi bir marta sevadi...

— Loaqal ko'z uchi bilan bir qara. Agar yigit bo'lsang, yuragingda gardday cho'g' bo'lsa, u vaqt oyog'imga yiqilarsen, unashtir, deb yalinarsen...

Arslonqul jahl bilan o'rnidan turdi. Azamat gavdasini egib, g'amgin yurib bordi, ikki faqir hovlini ayirgan, tepasi nuragan past devorga suyaldi. Qo'shnining qarshidagi katta, eski ayvonida bu xonadonning bijildoq bekasi va uning ikkita do'ndiqqina qizi, yana shu atrofdagi qo'ni-qo'shnilarning to'rttabeshta popukday qizlari orasida Arslonqul xolasi ta'riflagan go'zallarni qidirdi. Bo'z ko'ylakli, olacha nimchali qizlar katta ayvonni to'ldirib, tinimsiz charx yigirishar, qo'lni ishdan olmasdan chag'ir-chug'ur so'zlashar, kulishar edi. Har qizning oldida savat-savat paxta, ish o'ralgan semiz duglar qalashib yotadi. Begona go'zallardan biri yaqqol ko'rindi. Uning oppoq to'lagina yuzi, kulib turgan aqiq lablari, chakkalariga jingalaklanib tushgan tim qora sochlari, ip yigirgan

sari mayin mavjlangan to'lg'un ko'kragi chindan jozibador edi. Ustun orqasida o'tirgan ikkinchi go'zalni Arslonqul ko'rolmadi.

Chol hovliga tushib, tahorat qildi. Namozdigar uchun ko'chaga chiqa turib, Arslonqulga quyuq qoshlari orasidan qaradi, ko'rkam oq soqolini silkitib, boshini tebratdi; yuzidagi jiddiy, chuqur burushliqlarni tabassum to'ldirdi. Buni payqagan Arslonqul ko'zlarini ayyorcha qisib, imlab qichqirdi:

— Pochcha, qani, gulzorga marhamat qiling!

Chol hassasini do'qillatib Arslonqulning yoniga keldi.

— Umrning kuzidamiz, chiroq! Qalay, o'zing gullardan birini tanladingmi? — dakkam-dukkan tishlarini ochib, kulib so'radi chol.

Arslonqul birdan ichidan xo'rsindi, qo'llarini umidsiz silkidi.

— Xolang sho'rlikni ranjitasen. U boyaqish umrida bir marta to'y-tomosha ko'rmoqchi-da...

— Yuragimda motam bor, qariya.

— Chakki qilasen, befoyda, — ovozini pasaytirib, davom etdi chol. — Men yoshlik chog'mda bunday ishlarda bamisoli lochin edim, chiroq. Boshqalar gul tepasida bulbul bo'lib xonish qilsalar, men uzardim, qochardim... Yana qanday zamon, degil! Taxtda Shohrux Mirzo o'tirar edi — g'oyat shariatparvar, g'oyat taqvodor podshoh edi. Hozirchi Husayn Boyqaro darvozani katta ochib qo'yibdi-ku.

Arslonqul indamadi. Chol: «Yigit ko'ngli — podshoh. Zo'rlamayman, bo'tam!» dedi-da, uzoqlashdi.

Birin-sirin charxlarning ovozi o'chdi. Qizlar, maktabdan ozod bo'lib, ko'chaga otilgan bolalardek, chuvvos bilan o'rinlaridan turdilar; iplarini, duglarini xaltachalarga shosha-pisha joylab, hovliga tushdilar. Bir gala sho'x, shod, yetilgan qizlar, qaysilari saqich chaynaydi, qaysi birlari chang chaladi. Arslonqul ularni qisiltirmaslik uchun orqaga chekildi. Shu topda qizlarning gurillagan ashulasi havoni yangratib, shodlantirib yubordi:

*Ohkim, volamen ul sarvi xiromondin judo,  
Ko'zlarim giryondur ul gulbarga xandondin judo,  
Benavodur jon dag'i ul huri rizvondin judo,  
Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,  
Aylamas to'ti takallum shakkaristondin judo.*

*Vahki, bag'rim to'kti ko'zlar yo'ldan pargola ko'p,  
Ko'z ham ul gul hajridin yog'durdi gulgun jola ko'p,  
Za'f etibmen qonlig' ashkim, baski to'kti lola ko'p,  
Dema hijronimda chekmaysen fig'onu nola ko'p,  
Jism aylarmu fig'on, bo'lg'on nafas jondin judo?*

*Qilg'ali mahrum jomi vaslidin jonon meni,  
Talxi kom etmish tiriklik bodasidin jon meni,  
Har zamone o'tturur g'am zahidin hijron meni,  
Hajr o'lumdin talx emish, mundin so'ng, ey davron, meni,  
Aylagil jondin judo, qilguncha jonondin judo.*

*Bag'rima, ey xori hijron, har zamon sonchilmag'il,  
Ey ko'ngul, yuz davr yetsa, ko'zga g'ayrin ilmag'il,  
Ming balo yuzlansa, ey jon, yordin ayrilmag'il,  
Bo'lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmagil  
Yorni mendin judo yoxud meni ondin judo.*

Kampir dasturxon yozdi. Guldor sopol tovoqlarda umoch keltirdi ham o'tirmasdanoq so'radi:

— Qalay, deganim to'g'ri ekanmi? Oymo'ma — oy kulcha qizlar-a?

— Parizod desangiz ham ishonamen, — xomush javob berdi yigit.

— Tilingdan aylanay, bu qizlarni qo'ldan chiqarish boshga qo'ngan baxt qushini uchirish bilan barobar. Bu — nonko'rlik bo'ladi. Qay biriga ko'ngling ko'proq moyil bo'ldi? Tuxumday oppoqqina, silliqqinasigami yoki bug'doy rang, nozik niholigami? To'g'risini ayt-sam, o'zim ham ikkilanib qoldim. Ko'nglim dam unga, dam bunga og'adi... O'zing tanla!

Arslonqul qoshiqni qo'yib, xolaning og'ziga xomush tikilib qoldi.

— Ha, nega bo'zrayapsan? Gapir, ko'nglim tin-chisin, — so'zlashga undadi kampir.

— Xolajon, har bir ishda sabr-bardosh kerak,— xa-fa qilmaslik uchun yumshoq javob berdi Arslonqul. — O‘ylashaylik, erta-indin ularni birov ilib qochmas...

— Ah, o‘g‘lonim olamning sabr-bardoshini senga yig‘ib bergan ekan! — o‘pkalagan kampir bundan so‘ng «churq» etib og‘iz ochmadi.

Ertalab Arslonqul yangi etigini, bundan ikki oy burun Navoiy binokor ustalarni, mardikorlarni chor-lab ziyofat qilganida, boshqa bir ko‘p kishilar qatorida kiydirgan yo‘l-yo‘l shohi to‘nini birinchi marta kiydi-da, ko‘chaga chiqdi. Ba‘zi og‘aynilarini qidirmoqchi bo‘ldi, lekin yana aynadi: ular, albatta, sharobxonaga sudraydilar!

Limun mavzeidan boshlangan uzun, katta, safo-baxsh Hirot xiyoboni bo‘ylab qurilgan — bitgan, chala ko‘shklar, ikki qabatli, lekin yengil, kichik imoratlar, meva bog‘chalarini tomosha qilib, yo‘llarda uchishgan oltin barg gilamlari ustida asta kezdi. Keyin Shohrux madrasasiga jo‘nadi — Sultonmurodni ikki haftadan buyon ko‘rmagan edi.

Har vaqtdagi nim qorong‘iligi bulutli kunda yana quyuqlashgan hujrada, kitoblar orasida Sultonmurod-ni bemordek cho‘zilib yotgan holda ko‘rdi.

— Baxayr, ne bo‘ldi, taqsir? — tiz cho‘kib, haya-  
jon bilan so‘radi Arslonqul.

Sultonmurodning ko‘zlari ich-ichiga botgan, rangi dardli, oqargan edi. U boshini ko‘tarib, tirsagini yos-tiqqa tirab o‘tirdi. Ikki-uch kundan buyon xasta ekanini, bukun harorati pasayib, ruhi yengillashganini so‘zladi.

— Tabib keltiraymi? — samimiy achinib so‘radi Arslonqul.

— Yo‘q, qaratdim, durustmen. Sizga juda intizor edim, — deb javob berdi Sultonmurod. — Kecha, oqshomga yaqin, bir boladan yo‘qlatdim, bordi-mi?

— Yo‘q, taqsir. Kecha, aksiga, uyga barvaqt juna-gan edim, — deb javob berdi Arslonqul. — Ne yumushingiz bo‘lsa, ayting, bajarurmen, — o‘zini ayb-dor sezgan kishining tovushi va vaziyati bilan dedi u.

Sultonmurodning o'chuk yuziga dardli tabassum yugurdi.

— Sizning yoringiz to'g'risida g'oyat to'g'ri ma'lumot oldim,— boshini rost ko'tarib gapirdi Sultonmurod. — U Xadichabegimning xos kanizaklaridan ekan. Podshohga ro'baro' kelmagan emish.

Arslonqulning ko'zlarida dard alangalanib ketdi.

— Taqsirim, qaysi muborak og'izdan bu so'zlarni eshitdingiz! — titrak lablar bilan so'radi Arslonqul. — Ikki dunyoda qulingiz bo'lay, taqsirim, ayting, to'g'rimi? Qanday qilib? Jahonni ko'zlarimga shu zumda yorug'ladingiz, taqsir, bu qanday gap?

Sultonmurod, tabiiy, o'z sevgisini ustalik bilan yashirdi. Bir vaqt uning mojarosini, bir ertak singari Zaynidninga aytib bergach, do'sti qiziqib, surishtirib, shunday xabar keltirganini bayon qildi.

— Do'stingiz saroyda xizmat qilurmi? — so'radi Arslonqul.

— Yo'q, — javob berdi Sultonmurod, — lekin istasa, har qanday sirni kovlab topadigan odam... Ishonavering.

— Xo'b, saroy, haram, biz bechoralar uchun saddi Iskandar<sup>1</sup>-ku. Nima qilish kerak? — ilojsizlik dardi bilan bo'shashib dedi Arslonqul.

— To'g'ri, yo'lingizda saddi Iskandar bor, — boshi bilan tasdiqladi Sultonmurod. — Lekin shu vaqtgacha yo'lingiz simsiyoh tun edi. Endi uzoqda umid shami yondi... Inshoollo, g'ayratingiz samarasiz qolmas. Ishni dastavval nimadan boshlashni o'yladim: siz dilnavoz yoringiz bilan munosabat bog'lab, unga o'z dardlaringizning, sog'inchingizning kuchini bildirishingiz ham qizning yurak orzularini bilishingiz kerak. Qarshi emasmisiz?

— Ayni haqiqat. Dildor ko'nglining tozaligi, asilligi xususida zarra gumonim yo'q. Ammo, orada ko'p yillar o'tdi. Yana kim biladi, qanday xayollari bor? — dedi-da, yerga qaradi Arslonqul.

---

<sup>1</sup> Iskandar Zulqarnayn qurdirgan afsonaviy muazzam qo'rg'on.

— Do'stim bilan kengashdim. Qanday yo'l bilan munosabat bog'lamoqqa ham bir chora topdik.

Arslonqul sergaklanib, ko'zlarini olimga tikdi. Sul-tonmurod folchi kampir haqida gapirdi, uni qanday qilib qo'lga olish to'g'risida uqtirdi-da, nihoyat, dedi:

— U makkora kampir, tabiiy, insonlikdan mahrum, ochko'z bir maxluqdir. Ishonamenki, ancha dinor talab qilur. Agar tangangiz bo'lmasa, tortinmasdan aytavering, bir iloj qilib topurmiz.

— Ish oqchaga bog'liq bo'lsa, o'zimni garov qo'y-sam ham topurmen. Bu to'g'rida hech tashvishlan-mang!

Arslonqul hozirdan boshlab folchi kampirning iziga tushmoqqa shoshib qo'zg'alarkan, Sul-tonmurod juda ehtiyot bilan ish ko'rishni ta'kid-ladi. Qiya ochiq darichada Arslonqulning madrasa sahnida uchib ketayotgan azamat gavdasini ko'rdi-da, birdan chuqur «uh» tortdi. Shu sodda yigitning yuragini zaharlagan qahrli, mudhish hayotni qarg'adi. Ko'ksida ishqning muqaddas, toza alangasini yillardan buyon saqlab kel-gan bu olijanob, faqir yigitga baxt tiladi. Lekin shu onda u o'z ko'ksida eski dardning kuchli chayqalgani-ni sezdi. Biroq bu hasad emasdi. Bu chin, samimiy ishq og'rig'i edi. Dildorning nafis husni, xuddi kecha-gina ko'rgandek, olimning ko'z oldida gavdalandi. Olim o'zini ovutish uchun tokchaga qo'l uzatib, qalin bir kitobni olib, parishon, dardchil varaqladi.

### ***O'n sakkizinchi bob***

Dildor cho'chib uyg'onganda, darichalarning tirqi-shidan tong yorug'ligi sizg'ir edi. To'shaklarda qator yotgan sheriklari — kanizaklar bir-birilariga suqilishib, jimgina uxlashardi.

— Turinglar, hay yetim qo'zilar. Taltaymanglar — so'kishga-qarg'ishga botasenlar! — yostiqdan boshini ko'tarib qichqirdi Dildor.

Ikkita qiz ko'zlarini arang ochib, yana g'ingshinib yumishdi. Dildor homuza tortib, kerishib o'rnidan



turdi. Odaticha, tez va yengil kiyinib, eshikni ochdi. Nam va sovuq shamol mavji uni birdan quchib, seskantirdi.

Elakda elangan un kabi, mayda qor siypalab yog'ardi. Bog'chalar, chamanzorlar oqargan, sarvlarining nozik qomatlari kumush parlangan. Tansiq qor! Yana qish. Qancha marta bu yerda ilk qorni qarshilardi! — Dildorning esida ham yo'q. U, har vaqtdagi kabi, dardli xayollarga berilib, unda-bunda iz tushgan qorda yurib ketdi. Kafsh ichini to'ldirgan qorni ham sezmagandek bo'ldi. Qarg'alar, quzg'unlar shaxdam tovush bilar qag'illashib uchishar, uzoqda nazoratchi qullarning ko'lankalari izg'ir edi. Madorini qish uzganday suzilib oqayotgan ariq bo'yida Dildor cho'qqayib, apir-shapir yuvindi. Ho'l barmoqlari bilan sochlarini tarab-tekislab, xonaga qaytarkan, uzoqdan Davlatbaxtning allaqanday hayajonli tovushini eshitdi:

— Dildor, yugur, bu tomon yugur.

— Ha, nima gap? Yana kalamush tutdingizmi?

— Sho'rimiz quridi, yugur, — bo'g'ilib qichqirdi Davlatbaxt.

Dildor qorga to'lgan kafshini tushirib, kiyib, Davlatbaxt yashaydigan xonaga yugurdi. Eshikda Davlatbaxt shaq-shaq titrar, tusida tus qolmagan edi.

— Nimadan qo'rqdingiz, egachijon? — Davlatbaxtga yopishdi hovliqib Dildor.

— Gulsanamga bir qara, — yerga to'shalgan yolg'iz to'shakni ko'rsatdi u.

Dildor uyning to'riga o'tib, to'shakka engashdi — ko'zlari dahshatli olayib: «Voy!» deb qichqirdi.

Davlatbaxt darichani ochdi. Qish tongining sovuq so'nik nuri turkman qizi Gulsanamning o'lik yuzida aks etdi.

— O'rtoqjonim, gulim, nima qilding? Nega bizni tashlab ketding?

Dildor suyukli o'rtog'ini, sirdoshini, darddoshini quchoqlab, ho'ng-ho'ng yig'ladi. Davlatbaxt ham o'lik qizning boshiga cho'qqayib, titrab, yig'i aralash

soʻzladi: «Bugun men bu uyda tunamagan edim. Hozir kirib «tur», deb qichqiramen, qichqiramen, «gʻiq» etmaydi. Yaqin kelib qaradim, turtdim, qotib yotibdi! Zahar ichgan, zahar... Koʻrmaysenmi, koʻkari ketibdi! Men oʻlay, nega seni yolgʻiz qoldirdim, nega siringdan xabarsiz qoldim!»

— Oh, Davlatbaxt, goʻyo koʻngillarimizdagi dardan, yaradan bexabardek soʻzlaysiz, — koʻz yoshlarini yum-yum quyib gapirdi Dildor. — Ota-onadan, oʻz yurtidan judo boʻlishlik, tutqunlik, koʻksingdagi muhabbatni, orzularini koʻmib, qari qiz boʻlib, soʻlib sargʻayish osonmi? Oh, Gulsanamim, oʻrtoqjonim, mehribonginam! Bilamen, oʻzingga hamisha oʻlim kutarding, lekin bizlarni tashlab ketganing yomon boʻldi. — Dildor yuzini doʻstining sovuq, koʻkargan yuziga surib yigʻladi.

Birpasda uy ichi kanizaklar bilan toʻldi. Hammaning koʻzida yosh qaynaydi, hamma titraydi. Chunki, bu oʻlim bechora asiralarning siynalarida choʻkib yotgan qaygʻularni birdan va behad kuchli toʻlqinlatib yuborgan edi.

Gulchehrabibi ham yetib kelib qoldi. U endi xiyla munkillab qolgan. Kampir dahshatli bir sovuqqonlik bilan murdaga qaradi. Labini burib, xoʻmrayib, teskari oʻgirildi. Qizlar, garchi tovushsiz yigʻlasalar-da, u bobillab berdi:

— Bas, tovushlaring oʻchsin... Xadichabegim notinch boʻlmasinlar. Chiqlaring, yumushlaringni qillaring! Biz oʻzimiz saranjomlab, tangri buyurgan joyga eltib qoʻyormiz.

Kanizaklar kampirdan qayta-qayta qargʻish eshitgandan soʻng, boʻyinlaridan birov sudrab tortgandek, noiloj tashqari chiqishdi.

Peshin vaqtida Gulsanamning tobutini olib joʻnadilar. Marhumaning hamma oʻrtoqlari uch kun qora roʻmol oʻrab, motam tutishdi.

Dildor oʻrtogʻining oʻlimiga hammadan chuqurroq qaygʻurdi. Har kun oqshom sham yoqib, Qurʻondan oʻzi bilgan bittagina surani oʻqir, marhumaning arvo-

higa bag'ishlar edi. Bir qancha kun ko'zidan uyqu qochdi, fikri, xayoli do'stining qismatida edi. Ko'pincha vahim, qorong'i o'ylar uning borlig'ini qoplay boshladi. Ba'zan bu o'ylarning dahshatidan cho'chib, yuragi go'yo qotib qolardi. Sekin-sekin dahshatli xayollarga ko'nika boshladi. O'lim bilan hayot orasidagi qora o'pqon oddiy va yaqin narsa kabi sezila bordi. Lekin bu voqeadan ikki hafta o'tar-o'tmas, Dildorning yuragida to'satdan, hech kutmagan damda, hayot orzusi, umidi qo'zg'aldi...

Bir kun Xadichabegimning katta ziyofatida yugurayugura horigan Dildor o'z xonasida yolg'iz dam olib o'tirar ekan, darichadan folbin kampirning yuzi, vahimali tushdagi chirkin basharalar kabi, ko'rinib qoldi.

— Dildor degan senmi? — enkayib, shilpiq ko'zlarini tikib so'radi kampir.

— Ha, men. Endi ko'rdingizmi meni? — beparvo javob berdi Dildor.

Bir zumdan so'ng folbin eshikdan kirdi-da, Dildorning yoniga cho'qqaydi:

— Qo'l uchingni ber, men rom ochamen.

Dildor bu quv kampirning marhamatiga hayron qoldi. Chunki har foli uchun Xadichabegimdan bo'g'cha-bo'g'cha sarupolar olgan bu makkora cho'rilarining jon-dil bilan yalinishlariga qaramay, ularga fol ko'rmasdi: «Har so'zimning bahosi — bir dinor!» deb hammaning tilini kesardi. Dildor saroyning baland mavqeli xonimlarining bittasi sovg'a yo'sinda bergan bir ko'ylak badaliga bundan ikki-uch yil burun bir marta fol ochtirgan edi.

U ko'zlarini jovdiratib, beixtiyor qo'lini uzatdi.

Kampir har vaqt fol ochganda, hurpayib, yolg'iz shilpiq ko'zlari bilan kishiga qattiq tikilib, valdirar edi. Hozir esa qizning qo'lini ushlarkan, kulgidan lablari bir zum yoyilib ketdi.

— Shu qizimning xudo bergan bir suygani bor ekan, — atrofga alanglab, juda sekin gapirdi kampir, — kuch-quvvatda Rustamday ekan. Ammo Maj-

nun singari, o‘z Laylosini axtarib, bu shahri azimda sargardon ekan.

— Nimalar deypsiz, buvi? — rangi o‘chib so‘radi Dildor.

— Shoshma, sen Arslonqul deganni taniysanmi?

Dildor entikib, qo‘lini tortib oldi, tusi o‘chib, qaltirab ketdi.

— Esingni yig‘, nima bo‘ldi? — xirillab shivirladi kampir.

— So‘zlaringiz hammasi rost-ku! — hovliqib dedi Dildor.

— Ha, men hamisha to‘g‘ri topurmen. Muakkillarim hamma sirlardan xabar berishadi! — ishonch bilan dedi kampir.

— Yo‘q, buvi, siz Arslonqulni taniysiz. Bu fol emas!

— Hay, sekin gapir! — ko‘z olaytirdi kampir.

— Ayting, buvijon, qachon ko‘rdingiz Arslonqulni? Qayerda, nima dedi? Sog‘mi? Oh, sho‘rlik yigit! — Dildor hayajondan hamma narsani unutilib, kampirni quchoqlamoqchi bo‘ldi.

— Jinni bo‘ldingmi? Qayerdasen?

Kampir achchiq bilan siltab tashladi qizni, keyin darichani qiya yopdi-da, Arslonqul uning uyiga qidirib kelganligi, Dildorga arz-holini yetkazishini o‘tinib yig‘laganligi, Quduqboshi degan mahallada, xolasinikida Dildordan ayrilgandan beri yashab turganligi va hakazo haqida shivirladi.

— Buvijon, agar menda dunyoning xazinasini bo‘lsa edi, sizdan ayamasi edim, — yig‘lab dedi Dildor. — Yana nimalar dedi? Sihat qanday? Acham balki o‘lgandir? Otam to‘g‘risida hech nima demadimi? Xat bermadimi sizga?

— Xat? Til zindonga sudraydi, xat dorga eltadi! Unaqa narsalarni ushlabdan hazar qilamen. Yig‘lama, azalning qalami senlarning sevgilaringni ayrim daftarlarga bitgan ekan. Hammasi olloning ishi! Men ham dunyodan toq o‘tdim! Xayr, bo‘tam.

Kampir o‘rnidan turdi.

— Shoshmang, buvijon,— Dildor uning kosov qo‘lini ushlab oldi. — Ichimda dardim behad ko‘p, bir uchini sizga ochay, Arslonqulga yetkizing, — yalindi qiz.

Vahimaga tushgan kampir ko‘zlarini atrofga o‘yna-tib, jahl bilan shivirladi:

— Bas, bas, hamma darding menga ravshan, umrimda bir savob ish qilayin, deb bu jafoni bo‘ynimga oldim. Zinhor bировga og‘iz ochma! — darrov eshikdan chiqdi u.

O‘z yorining o‘lik-tirigidan xabarsiz bo‘lgan va undan mangu ayrilganiga ishonib, endi hayot bilan vidolashuvga jazm eta boshlagan Dildorning o‘y va xayollari ost-ust bo‘lib ketdi. Shu tobda u go‘yo qayta dunyoga ko‘z ochdi. Kampirning keltirgan xabari, xuddi narigi dunyodan kelgan kabi sirli ko‘rindi. Ochko‘z, yalmog‘izday xunuk, chirkin folchi endi, uning nazarida, payg‘ambarning qizi va qiyomatda ayollarni jannatga boshlab kiruvchi Bibi Fotimadek ulug‘ sifat, mehribon bo‘lib tuyuldi. Dildor yurak urishini, haya-jonini bosolmasdan, boshini yostiqqa qo‘yib, o‘yladi: «Unutmabdi qadrdonim, u bilan yashash, birga jafo chekish qadar zo‘r baxt bormi? Shuncha yillardan beri shu shaharda, yon bag‘rimda yashar ekan, oh, zolim falak, nega biz shuncha uzoqmiz? Qanday qilib kampirga yo‘liqqan ekan? Endi nima qiladi? Meni qutqarish uchun astoydil harakat qiladi, albatta. Lekin yana soddalik bilan, alamiga, dardiga chidayolmasdan, qaltis harakat qilib, o‘z jonini tahlikaga solmasa edi!» Bu fikr uning butun borlig‘ini, dahshatli og‘riq kabi, qoplab oldi. Birdan hovliqib, o‘rnidan sachradi.

Qiz har kun kampirning qadamiga intizor bo‘ldi. O‘z yigitidan har on sabrsizlik bilan yangi xabarlar kutdi. Lekin kampirdan darak yo‘q. Kunlar yildan uzoq tuyuladi. Qanot bog‘lasa-da, o‘z yoriga uchib bora qolsa! Dam shodlikdan bolalarcha quvonadi, dam qo‘rqinch o‘ylarga botib, yuragi o‘ynab ketadi... O‘ninchi kun haramda kampir paydo bo‘ldi. Dildor quvonch bilan uni hovlida qarshi oldi. Atrofdan

odamlar ko'p bo'lganidan, ko'z uchi bilan folchini daraxtzorga imladi. Biroq, folchi kinoya bilan labini burib, to'ppa-to'g'ri Xadichabegimning ko'shki tomon yo'rg'aladi. Dildor ma'yuslansa ham, faqat umidsizlanmadi: «Kampirning shunday qiliqlari ko'p bo'ladi. Balki, hadiksirar» — o'yladi ichida. Pana joyda uchratib, so'zlashmoq maqsadida uning yo'lini poyladi. Biron soatdan keyin uzoqda kampirning qorasini ko'rib, tez-tez yurib bordi. Biron joyga taklif etmoqqa botinmay, sekingina so'radi:

— Buvijon, uni ko'rdingizmi? Nima dedi?

— Ko'rdim, niyati yomon ekan... Oralaringda gap tashib baloga qolish uchun esimni yeganim yo'q, — tikanday botadigan bir tovush bilan javob berdi kampir keta turib.

— Buvijon, yomon niyati nima ekan? Tangri yara-laqasin, ayting! — yana butun samimiyati bilan yalindi qiz.

— So'rama! Toshdan sado chiqar, mendan chiqmas! — qiyo boqmay, ketdi-qoldi folchi.

Dildorning hushi uchib, turgan yerida qotdi. Orqadan kelayotgan bir to'da cho'rilarning tovushidan esini yig'ib oldi va o'yladi: «Niyati yomon... Nima demoqchi kampir? Arslonqul yo men bilan ko'rishmakni so'ragandir, yo bu yerdan meni olib qochish to'g'risida gapirgandir... Bu narsa kampirning o'takasini yorgan. Axir, «xat» degan so'zni eshitib, tunov kun joni chiqib ketgandi-ku». Dildor Arslonqul to'g'risida tashvish tortdi. «Menga yetishamen, deb zindonda chirimasin yana!» — u uzoqlashgan folchining orqasidan yugurdi.

— Buvijon,— shivirladi u,— uni ko'rsangiz, ayting, hech qanday yomon niyatda bo'lmasin, tinch yursin.

Folchi tirjaydi, «xo'p» deganday boshini sal qimir-latdi.

Shu kundan boshlab Dildor «yomon niyat»ni o'zi amalga oshirmoqqa urindi: «Yo o'lim, yoki yorga qovushmoq!» — bu fikr unga hokim bo'ldi. Tunlari mijja qoqmay, turli reja va yo'llar axtardi.

O'ylay-o'ylay, o'zicha eng qulay chora topadi. Biroq bir zumdan keyin yana bundan voz kechadi. Chunki qulay deb bilgan bu rejada qo'rqinchli mushkulot paydo bo'ladi. Nihoyat, o'ylashdan xunob bo'lib, bir qarorni mahkam ushladi.

Beshinchi kun qoq yarim kechada, burkanib, o'zini uyquga solib yotgan Dildor ko'rpadan boshini chiqardi. O'n ikki qizning barchasi dang qotib uxlab yotardi. Xurakdan boshqa, na urinish, na xo'rsinish sezdi. Qorong'ida jimgina kiyimlarini kiydi. Oqshom o'rin solganda, yostiqlarning tagiga suqib qo'ygan xanjarni oldi. Buni u bir vaqtlar erkaklarga berilgan bir ziyofatdan keyin xonani yig'ishtirayotgan vaqtda topib olib, vazirzodalar, bekdodalardan biri tushirib qoldirgandir, deb qandaydir bir niyat bilan hech kimga ko'rsatmay, yashirin saqlagan edi.

Turtinib eshikka borarkan, yuragi uzilganday, birdan to'xtadi, devorga suyaldi. U ko'p yillar birga yashagan, birga yig'lagan jonajon o'rtoqlaridan ayriladi! Ular bilan birga kechgan hayotning butun sahifalari uning ko'z oldidan bir-bir o'taverdi. Bu sahifalar yurak qoni bilan yozilgandek, yaqin edi. Dildor o'z siridan deyarli hamma o'rtoqlarini voqif qilishi mumkin edi. Ularga ishonardi. Faqat o'rtoqlari uni xatarli yo'ldan qaytarishlari ham aniq edi. Lekin shu vaqtda: «Nega, hech bo'lmasa, birontasini, ozgina bo'lsin, ogohlantirmadim?» — afsuslandi Dildor. — Koshki hozir sham yoqib, hammasining yuzidan bir-bir o'pib chiqsa! Tomog'ini bo'g'gan bir dard bilan pichirladi: «Xayr, darddoshlarim, o'rtoqlarim! Agar o'lsam, goh-goh meni yodlanglar! Tirik bo'lsam, men sizlarni hech vaqt unutmaymen. Tangrim sizlarga uzun umr bersin, yorug' kunlarni nasib etsin!» Dildor qaynab toshgan ko'z yoshlarini yeng uchi bilan artib, tashqari chiqdi. Kecha tim qorong'i va izg'irinli edi. Usti qotgan loy yo'llarda ildam yurib, daraxtzorlar, xiyobonlar oralab ketdi. Qorong'ilik ichidan dahshatli qo'llar unga yopishayotganday tuyulib, ko'zlari sergak jovdirar, yurak kuchli urar, oyoqlari, qo'llari titrar edi.

Kichik darvozaga yaqinlashganda, chiyillagan tovush eshitdi: «Kimsan?» Bu eng zolim, itfe'l qul edi. Shuning uchun kanizaklar uni o'zaro «Qopog'on» deb nomlar edilar. Dildor cho'chib, orqaga tislandi. Keyin o'zini tutib oldi, xanjarni yeng ichiga yashirib, dalil gapirdi:

— Men, men, Olloyor! — yugurib, qulning pinjiga tiqildi.

— Tun o'rtasida? Bu yoqqa qara! — Olloyor xira fonusga qizning yuziga tutdi.

Dildor jo'rttaga hayajonini kuchaytirib, zo'raki hansirab gapirdi:

— Och eshikni, tabib mavlono Abdulhayga kishi yubor!

— A! Ne deydi o'zi? Tushuntir.

— Xadichabegim birdan xasta bo'lib qoldilar. Voy, o'lay ahvollari juda og'ir. Tillari so'zlashdan qoldi.

— Davlatbaxt qani? Nega u kelmadi? — qopib gapirdi Olloyor.

— Ah, nega ahvolni tushunmaysen! Sho'rlik Davlatbaxt bemor bilan ovora. Eshik orqasida posbon bormi? Buyur unga!

Olloyor nimadir po'ng'illab, darvoza tomon yurdi. Belidan kalidni olib, katta cho'ng qulfga soldi. Darvozaning bir qanotini qiya ochib, asabiy qichqirdi:

— Mizrob, hay Mizrob!

Qul ostonadan tashqariga bir qadam qo'ydi. Yana Mizrobni chaqirdi. Dildor ostonaga chiqib, qo'lini orqasiga olib, darvozaga suyaldi.

— Posbon bo'lmay o'lib ket, har kecha mast... — vaysadi Olloyor.

Dildorning kutgani bu edi.

— Tezroq uni topib jo'nat! Buncha beg'amsen, — jo'rttaga qistadi Dildor.

— Kir, qorangni o'chir!

Olloyor qizni ichkari itarib, darvozani yopmoqchi bo'ldi.

Dildor fursatni qo'ldan qochirmaslikka tirishdi — Olloyorning ustiga birdan otildi-da, xanjar urdi. Uning



ko'kragini mo'ljallagan bo'lsa ham, lekin hayajondan, tajribasizlikdan, xanjar qulning yelkasiga tegdi. Olloyor fonusni uloqtirib, baqirdi. Dildor butun kuchi bilan qochdi. Orqadan baqirib-chaqirib Olloyor quvdi. Ellik qadamcha narida Olloyor Dildorning sochidan ushlab qoldi. Qiz orqaga qayrilib, uning duch kelgan a'zosiga shoshib-pishib, lekin g'azab bilan uch-to'rt marta tig' urdi. Olloyor dahshatli chinqirish bilan yerga yumaladi. Dildor xanjarni qo'lda mahkam siqib, o'qday uchdi. Atrofdan «hoy, tut!» kabi qisqa, kesik sadolar eshitila boshladi. Tomog'i qaqragan, g'azabli, essiz-hushsiz Dildor bor kuchi bilan yugurdi. Ancha masofa bosgandan so'ng qorong'ida pastgina devorga birdan urildi. Devordan chaqqon sakradi. Quyuq daraxtzor orasiga kirarkan, orqada hansiragan, pishqirgan kimdir devordan yumaladi va quvdi. Dildor qutulishga iloj yo'qligini sezdi. G'azabi toshdi. Xanjarni ko'tarib, quvlovchiga hamla qildi. Lekin, gurziday mushtning zarbasi bilan shu onda yerga mukka yiqildi.

## ***O'n to'qqizinchi bob***

### **I**

Bog'i Zog'onning zarhal xonalaridan birida To'g'onbek suvsar po'stinga o'ralib, yosh shahzodasi Muzaffar Mirzo bilan nonushta qilib o'tirardi. Shahzodaga yaqinligi orqasida uning obro'si kun sayin oshardi. Husayn Boyqaro unga beklaridek iltifot ko'rsatardi. Endi davlatda eng katta mansabdorlar u bilan hisoblashmoqqa majburlar. To'g'onbek shahzodadan suyurg'ol<sup>1</sup> tariqida katta yerlar olgan. Hirotning dongdor davlatmand oilalaridan Abulziyoning go'zal qiziga uylangan. Uning eshigida qo'sha-qo'sha navkarlar, uy ichida o'nlab cho'rilar xizmat qiladi. U Muzaffar Mirzo ismidan har xiyonatga bosh urib, har jinoyatni oqlaydi. To'g'onbek shahzoda xizmatida bo'lgan

---

<sup>1</sup> Xonlar tomonidan sovg'a qilinadigan yer.

nasldor, obro'li beklarni, mulozimlarni chetlatib, tun-kun shahzodaga chegarasiz hokimiyatga intilgan quv, mug'ombir ruhining ehtiroslarini talqin etadi. Fikrlarini, rejalarini sodda so'zlar, sodda, yorqin misollar bilan, bola anglaydigan ravishda, yaqqol ko'rsata bilganidan Muzaffar Mirzo uni qiziqib tinglardi. Har ishda makr va firibgarlikning kuchiga ishongan Xadichabegim To'g'onbek bilan birinchi uchrashish-dayoq o'z o'g'lining kelajagi uchun uning katta foyda yetkazishini umid qilgan edi.

Anvoyi halvolar, quritilgan mevalar, tustovuq, kaklik kaboblari, qaymoqlar to'la dasturxon ustida To'g'onbek aql o'rgatishni davom ettirdi. U Badiuz-zamon, Faridun Husayn, Abdulmuhsin Mirzo, Muhammad Husayn Mirzo, Abu Ma'sum Mirzo va hokazo shahzodalarning — Muzaffarning o'gay aka-ukalarining yashirin niyatlari, orttirayotgan xususiy xazinolari to'g'risida so'zladi. Podshohning suyukli o'g'li bo'lganidan, Muzaffar Mirzo har jihatdan ulardan ustunlikka tirishmog'i kerakligini uqtirdi. Nihoyat, aka-ukalarining har bir siridan ogohlanib turishi uchun ular ichiga josuslar tayinlashni taklif etdi. Bu fikr Muzaffar Mirzoga moydek yoqib tushdi.

Bola sirli ishlarni sevardi. Qo'lidagi chiroyli mo'jaz oltin qadahni kattalardek g'urur va zavq bilan sipqorib, mastlikdan suzuk ko'zlarini To'g'onbekka tikdi-da, bachkana kerilish bilan dedi: «Men siz bilan birga shunday ishlarni orzu qilamenki, To'g'onbek janoblari, u ishlar dunyoda hech bir tojdorga muassar bo'lmagandir...»

— Balli, shahzodam,— dedi To'g'onbek mug'ombirlarcha iljayib, — ulug' niyatlar sari g'ayrat kamari-ni mahkamroq bog'lang.

Ular josus tayinlash masalasiga yana qaytishdi. Bu «nozik ish»ni tashkil etmoqni To'g'onbek o'z zim-masiga oldi.

Xizmatchi dasturxonni yig'ishtirgandan so'ng shah-zodaning yigitlaridan biri kirdi. Bu qo'shiqchi, o'yin-chi, askiyachi, yarim shoir, yarim jangchi edi. Ziyofat

va bazmlarga doir yumushlarni aksar vaqt u bajarardi. Yigit bu kungi umumiy ziyofat uchun kimlar chaqirishi va nimalar hozirlanishi to'g'risida so'radi. To'g'onbek mehmonlarni, cholg'uchi va o'yinchilarni, ovqat va ichkiliklarni birpasda sanab berdi. Yigit qo'zg'ola turib, yana o'tirdi, olifta mo'ylabini silab, kulimsirab, dedi:

— Bu kecha Xadichabeqimning saroylarida ajab voqea ro'y beribdi, eshitdilarmi?

— Qanday? — To'g'onbek bilan shahzoda ayni vaqtda so'rashdi.

— Bir kanizak, — davom etdi so'zida yigit, — tun yarmida qochibdi, bir qulni xanjar bilan g'oyat qattiq yaralabdi.

— Zabardast ekan-da! Xo'sh, tutibdilarmi? — so'radi Muzaffar Mirzo.

— Tutibdilar.

— Hozir qayerda?

— Ola qo'rg'on<sup>1</sup> — javob berdi yigit.

— Ismini bildingizmi? — so'radi peshonasini qashib To'g'onbek.

— G'olibo, Dildor, dedilar...

Muzaffar Mirzo qo'lini siltab, voqega ahamiyat bermaganini bildirdi-da, muallimdan imlo-insho<sup>2</sup> darsi olmoq uchun qo'shni xonalardan biriga chiqib ketdi. To'g'onbek yigitni yumushga jo'natib, tanho o'yladi. So'roqda bir chog'lar. Yodgor Mirzo tartibsizligi zamonida, qizning To'g'onbek tomonidan olib qochilgani tahqiqlansa, gap chuvalashi mumkinligini mulo-haza qildi — ko'ngli g'ash bo'ldi. Aksiga, Majididdin ham Hirotda emas. Qizning izini tezroq o'chirib, xavf-sizlanishga qaror qildi. Kunduzi serbar bo'rkn mahkam bostirib kiyib, tashqariga yugurdi. Otni minib, orqasidan uch suvori navkarni ergashtirib, Ixtiyoriddin qal'asi tomon qattiq yeldi. Qorovulxona oldida otdan tushgan hamon yoniga Zayniddin keldi.

---

<sup>1</sup> Ixtiyoriddin qal'asidan Ola qo'rg'on deb ham yuritganlar.

<sup>2</sup> Yozuv darsi.

— Bu yerlarda nima qilib yuribsiz, mullo? — kekkayib, til uchida so‘radi To‘g‘onbek.

— Bugun bir aqrabomiz jahannamga tushibdi, — javob berdi Zayniddin soxta tavoze bilan. — O‘ylaymenki, bek janoblarning ham boshida shunga o‘xshash bir dag‘dag‘a bordir.

To‘g‘onbek bu so‘zlardagi kinoyani tushundi, lekin o‘zini bilmaslikka soldi.

— Unday to‘qimachilikka berilmang, mirzo yigit!— dedi-da, otni navkarlarga tutqazib, g‘izillab qorovulxonaga kirdi.

Zayniddin uzoq cho‘zilgan bir o‘ltirishdan tong qorong‘isida chiqib, tanish bir sipohidan voqeani eshitgan edi. «Yana Arslonqulning go‘zali bo‘lmasin», degan bir shubha bilan bu yerga yugurdi. Shubhasi haqiqat bo‘lib chiqdi. Qizdan dastlabki so‘roqni Erali jallodning o‘g‘li Pirmat Kalla so‘raganini, qiz hech kimning ismini aytmasdan, o‘zini shoyon hayrat bir jasurlik bilan tutganini eshitdi.

Zayniddin sovuqdan qaltirasa ham, To‘g‘onbekning chiqishini kutdi. Chunki uning xuddi shu voqea munosabati bilan kelganligiga shak qilmasdi. Ko‘p o‘tmasdan, g‘olibona yurish bilan To‘g‘onbek ichkaridan chiqdi. Zayniddinga istehzo aralash kulib ham qo‘ydi. Zayniddin ichida o‘yladi: «Ha, it, haqiqatni bulg‘amoqchi bo‘lding! Yo‘q, shoir to‘g‘ri aytgan: «Daryo palid menashavad az dahani sak»<sup>1</sup>.

Keyin To‘g‘onbekka yaqinlashdi.

— Tungi voqeaning oqibati ne bo‘lur ekan, bek? — so‘radi Zayniddin qiziqqan chet odamday.

— Men qaydan bilay? O‘zga dardim yo‘qmi? — teskari qarab, to‘ng javob berdi To‘g‘onbek.

Zayniddin keskin burilib, madrasaga yugurdi.

Hujrada Sultonmurod bilan Arslonqul nima to‘g‘risidadir qizg‘in gaplashmoqda edilar.

— Kel, do‘stim, mushkul masalada bizga yo‘l ko‘rsat, — suyunib yonidan joy ko‘rsatdi Sultonmurod.

---

<sup>1</sup> M a’ n o s i : «Itning og‘zi tekkan bilan daryo suvi iflos bo‘lmaydi».

— Qanday masala?

— Axir, Dildorni qutqarmoq kerak! — javob berdi Sul-tonmurod.

— To‘g‘ri, juda ildam qutqarmoq kerak. Faqat, bilasizmi, qayerdan?

— Qayerdan emas, qanday qilib, deng!.. — qalpo-g‘ini ko‘tarib umidvor ko‘zlari bilan Zayniddinga ti-kilib dedi Arslonqul.

— Nima? G‘olibo, g‘aflatda ekansizlar. Qiz bir zin-dondan ikkinchi zindonga tushdi!

Arslonqul bilan Sul-tonmurodning nafas-lari ichiga tushib, ko‘zlarini olaytirishdi...

Zayniddin butun voqeani aytib berdi. Hujrani chuqur jimjitlik bosdi. Arslonqulning ko‘zlaridan tom-chilar yumaladi. Sul-tonmurod to‘satdan qo‘zg‘oldi.

— Filhaqiqat, bu qiz olam nodirasi ekan! — butun gavdasini qamragan hayajon bilan gapirdi u. — Birodarlar, har qaysimiz bir vazifaga bel bog‘laylik. Dildorning jonini o‘z jonimizday saqlaymiz. Zaynid-din, sen To‘g‘onbekning kirdikoridan durust xabarlar topmoqqa harakat et! Arslonqul, siz qo‘rg‘on tevaragi-dan uzoqlashmang, lekin, g‘oyat hushyor bo‘ling! Men... men ne qilay? Afsuski, vazir Xo‘ja Afzal janoblari kecha Marvga jo‘nagan edilar. Xo‘b, men insofli beklardan, Hirotning e‘tiborli zotlaridan ko‘mak so‘raymen...

Sul-tonmurodga hech kim e‘tiroz qilmadi. Oq-shom, agar tinchlik bo‘lsa, Zayniddinning uyida uchrashmoqqa til biriktirib, hujrani tark etishdi.

Arslonqul dev qadamlar bilan yurib, Qal‘ai Ixti-yoriddinga keldi. Ustma-ust yuksalgan tog‘ cho‘qqilari kabi baland, muazzam qal‘a... Baland kungurali, qalin, metin devorlari, azamat qulalari<sup>1</sup>, tuproq qo‘rg‘onlari bilan samoga yuksalgan qahrli, og‘ir inshoot... Zindon bu yerda edi. Arslonqul qal‘a bilan uning shimolida bo‘lgan ot bozori maydoni o‘rtasida g‘amgin qatnab turdi. Uning peshonasi temir chambar

---

<sup>1</sup> Cho‘qqilari (muh.).

kiyganday og'ir edi. Uning ko'zida qo'rqinch manzalar jonlandi. Bu yerda jallod boltasi ostida kallasi cho'rt kesilgan, qo'llari qirqilgan yoki dorga osilib, bir nafas tipirchilab, alifday cho'zilgan odamlarni ko'p marta ko'rgan edi. Yuragini dahshat qopladi. «Bordiyu, Dildorni olib chiqib ossalar yoki bo'yniga tig' qo'yish uchun chuqur oldiga yotqizsalar — u nima qiladi? Xotinlardek chapak chalib yig'lasinmi? Quruq qo'l bilan jallodlarga hujumdan nima foyda chiqadi?» — o'yladi ichida. Keyin bir on ikkilanmasdan, uyga chopdi.

Xolasi bozorga ketgan ekan. Hovlida tanho, g'ivirlab yurgan cholning orqasidan borib, yelkasini astagina qoqdi.

— Pochcha, bir qilich to'g'risida gapirardingiz, ko'rsating menga.

— A, qilich? Hirotni yov bosmoqchimi? — o'siq qoshlari orasiga ko'milgan ko'zlarini katta ochib, so'radi chol.

— Yo'q, tinchlik... Ammo zarur, — shoshirdi Arslonqul.

Chol xona ichiga kirib, katta sandiqni ko'rsatdi. Kalidni topmagach, yigit sandiqning halqasidan ushlab, kuch bilan tortib, ochdi. Har xil kiyim-kechaklar ostidan qilichni oldi-da, qinidan sug'urib, diqqat bilan qaradi.

— Ey, bo'tam, nimasiga qaraysen! — dedi chol. — Isfihon po'lati... Otam rahmatlik Amir Temurning bahodirlaridan edi. Bu tig' qancha-qancha mamlakatlarni ko'rgan, qancha xalqlarning boshida o'ynagan... Hindiston, Dashti Qipchoq, Arab, Eron, Qofqoz va Diyori Rum...<sup>1</sup> — yana ko'p iqlimlarni ko'rgan bu tig'. Sohirqiron Temurning zamonida yashagan bo'lsam edi, umrim kulolchilik bilan o'tarmidi? Xitoyning bir viloyatiga hokim bo'larmidim?.. Vo darig'!

— Yaxshi qilich! — salmoqlab, tig'ni yana qiniga tiqdi Arslonqul ham uzun choponi ichidan taqib oldi.

---

<sup>1</sup> Kichik Osiyo, Anato'li.

So'ngra lattaga o'ralgan bir pichoqni baland tokchadan olib, etigining qo'njiga suqib qo'ydi.

— Ha, Ya'juj-Ma'jujga qarshi otlanyapsanmi? Belda qilich, qo'njda pichoq? Ammo tig'ni, bo'tam, haq yo'lga ishlat, nohaq qon to'kma! — Arslonqulning yo'lini to'sib gapirdi chol.

— Pochcha, Husayn Boyqaro zamonida yomonlar ko'paygan. Bu qilich balki butun umrida birinchi marta zumlga qarshi ishlatilar!

Chol o'ylanib: «So'zlaring badaxshon toshidek toza va asil, bo'tam, xalqqa jabr bo'ladigan ishdan hazar qil!», — dedi.

Arslonqul ko'chaga chiqib, boshini qashib o'yladi-da, ba'zi do'st-yorlariga yo'liqmoq uchun Injil yoqasiga, jangu jadaldan zavqlanadigan olov yigitlardan, o'rtoqlaridan bir guruhini ko'makka chaqirgani jo'nadi.

Xufton vaqtida Arslonqul Zayniddinning eshigini tiqirlatdi. Qorong'ida bir ayol eshikni ochib, darichasidan sham nuri sizg'ib turgan bir xonaga kirishni taklif etdi. Xona ichida hech kim yo'q edi. Gilam ustida qalamdonlar, qalamlar, har xil shakldagi siyohdonlar, bitilgan va bitilmagan juz-juz qog'ozlar yotar, qoziqda tanbur va g'ijjak osig'liq... Arslonqul bir chekkaga o'tirdi, qalpog'inini yoniga qo'yib, ko'zlarini yumib, horg'in, g'amli o'yladi. «Bu bechoralarni ishdan qo'ydim, kitobdan ayirdim. Biri Rum mamlakatidan kelgan Chalabiy degan katta olimni yenggan donishmand bo'lsa, biri katta bitikchi... Men kabi begona, savodsiz odamga shunchalik mehribonlik qiladilar. Bunday oq ko'ngil, haqparast odamlar bo'lmaganda edi, dunyo hamisha qorong'ilik ostida qolgan bo'lar edi. Ular tashvishda, men bu yerda o'tirayin!» — o'yladi ichida Arslonqul ham zindon tomonga jo'namoqchi bo'ldi. Biroq, shu asnoda hovlida guring eshitildi. Arslonqul irg'ib turib, ikki do'stni qarshiladi.

— Xo'sh, kun bo'yi nimalar bildingiz? — charchoq holda o'tirarkan, Arslonqulning chopon ichidagi qilichini sezib, taajjub bilan so'radi Sultonmurod.

— Hech nima bilmadim. Tishdan qarasang, tinchlikka o'xshaydi.

— To'g'ri, hozircha osoyishtalik... Endi nima qilmoqni ma'qul topursiz?— yozuv ashyolarini yig'ishtirib, so'radi Zayniddin.

— Bu kecha qilmoqchi bo'lgan andak yumushimiz bor, agar sizlar maqbul topsangizlar.

— So'zlang, kengashurmiz, — qiziqib dedi Sultonmurod.

— Tunda zindonga hujum yarasak, — jiddiy gapirdi Arslonqul. — Posbonlarni, jallodlarni kesib, gunohsiz tutqunni ozod qilsak...

— Yaxshi jasorat, ammo kuch qani? Oson ish emas, axir, — dedi sabrsizlanib Zayniddin.

— Mendan boshqa besh azamat bor, — javob berdi Arslonqul. — Bari — jang-jadaldan zavqlanadigan olov yigitlar. Ular Hirotda orttirgan yaxshi o'rtoqlarimdan. Hozir zindon tevaragida aylanib yuribdilar. Ijizat bersangiz, fursat poylab, bir qirg'in solamiz. Biz bu xususda o'zaro yaktak, yakdilmiz.

Zayniddin va Sultonmurod sukut etib, bir-birlariga uzoq tikilishdi.

— Bu mardona harakatga qanday qaraysen? — so'radi, nihoyat, Sultonmurod.

— Men, rostini aytayin: Arslonqul va uning do'stlaridan bunday bahodirlik kutmagan edim. Jasoratlariga ofarin o'qimoq kerak. Ammo, garchi bu yo'lni qanchalik haqli topmayin, ziddiga so'zlamogga majburmen.

— Ne sababdan? Bajara olmog'umizmi? — uning so'zini kesdi Arslonqul.

— Mushkul ish! — davom etdi so'zida Zayniddin, chiroyli qoshlarini jiddiy chimirib. — Ulardan o'nlab kishi qirilur, balki silardan har bir kishi tirik qolmas. Natija? Balki — hech!

Arslonqul azamat gavdasini egib, og'ir sukutga botdi.

— Menimcha, inim, — Arslonqulga murojaat etdi Sultonmurod, — bu qaroringizni oxirgi navbatda,



ya'ni tamom ilojsiz qolgan bir paytda tadbiq etmog'i-miz kerak. U vaqt bunday yigitlik ajoyib bir ma'noga ega bo'lur. Ammo hozircha luzumi yo'q. Chunki biz ba'zi ulug' mansabdorlar bilan so'zlashdik. Ulardan yaxshi va'dalar oldik. Ahvol qiyin bo'lsa ham, Dildorga beriladigan jazo orqaga surildi. Ishni eskitmoqqa yana harakat qilurmiz.

— O'lim jazosi xavfi yo'qmi? — titrak tovush bilan so'radi Arslonqul.

— Aytish qiyin. Chunki To'g'onbek kabi zolim yirtqich bor, — javob berdi Sultonmurod.

— Dildor nima jinoyat qilibdiki, o'lim jazosiga buyururlar! — qat'iy, ishonch bilan dedi Zayniddin. — Inshoollo, mamlakatda To'g'onbek kabilarni mas'uliyatga tortuvchilar ham bor...

— Ahvol shunday ekan, men Marvga — Alisher Navoiy qoshiga boramen, — qaddini rostlab gapirdi Arslonqul. — Butun yurak dardimni shoirga ochamen. Bu o'y hali xotirimga kelgan edi, lekin fursat yo'qligidan, ahvol tangligidan dog'da edim. Modomiki, o'lim xavfi yo'q, albatta, borurmen.

— Mana bu fikringizga jonlar tasadduq, — qichqirdi Sultonmurod. — Zotan, bu xayol menda ham bor edi. Lekin hali pishmagan edi. Alisher zulmga qarshi zamonning sheri, haq va adolatning tig'idir!

Sultonmurod Zayniddinning roziligini istadi. Uchovlari bu to'g'rida qizg'in suhbatlashdi. Zayniddin ham bu fikrni ma'qul ko'rdi. Arslonqul, go'yo yelkasidan tog' ag'darilganday, jonlanib ketdi. Xuddi hozir yo'lga tushmoqchiday, qalpog'ini ham bostirib kiyib oldi. Lekin baquvvat, yugurik ot topish kerak edi. Arslonqul va Sultonmurodda siyqa tanga ham yo'q; ular o'z pullarini biriktirib, folbinning og'ziga urgan edilar. Nihoyat, Sultonmurod o'zida xususiy suratda dars oluvchi davlatmand bir shogirdidan ot tilamoqqa qaror qildi-da shoshib jo'nadi. Zayniddin Arslonqulni birga olib, uning o'rtoqlari bilan tanishmoq, kerak bo'lganda foydalanmoq niyatida Ixtiyoriddin qal'asiga ketdi.

Tongda shahar darvozalari ochilarkan, Hirotdan ilk chiqqan kishi o'ynoq bedov otli. Arslonqul bo'ldi. Bechora oshiq rabotlarda oz qo'ndi. Devday yugurgan, qurbon qidirgan qonli yirtqichday uvullagan sahro bo'ronlarida, tunlarda ham tanho yo'l bosdi. Rabotlarga qo'narkan, yo'lga chiqish oldida xolasidan olgan bir necha tangani otning yem-xashagiga xarjlab, o'zi och o'tirdi. Rabotlarda dam olgan yo'lchilarning hangomasi uning qulog'iga kirmas, hamma vaqt yuragi hovliqardi: «Balki hozir Dildorni osayotgandirlar, yo bo'lmasa uni qiynamoqdadirlar, yo bo'lmasa, azamat sheriklari zindonga bosqin yasashga majbur bo'lib, bari qirildimi?» Vahim xayollar yigitni, qora girdob kabi, tungi sahroning dahshati kabi o'rab olardi.

To'rtinchi kun oqshom uzoqdan Marvning qo'rg'onlari ko'zga chalindi. Arslonqulni, nechundir, umidsizlik, jasoratsizlik egallab oldi. Yuragi qattiq urdi. Dalaga keng yoyilgan qarorgoh chodirlariga yetgach, bu kayfiyat yana kuchaydi. U bo'shashib otdan tushdi. Zaryoqa to'nli, qimmatbaho kamarli, suvsar bo'rkli mag'rur mansabdorlar, qilichlarini osiltirib, o'q-yoylarini yelkadan o'tkazib, piyoda, otliq kezgan qahrli sipohilar bilan qaynagan muhit va ulug' shoir bilan uchrashish zaruriyati uni dovdiratdi. Unga rasmiy chopar kabi qaragan navkarlarning ko'magi bilan Alisherning chodiriga keldi. Kirish oldida bir daqiqa ikkilanib, xo'rsinib oldi. Doimiy yashash uchun qishbop etilib qurilgan katta, baland, qalin chodirning to'rida, qandillarda yongan shamning nurida engashib yozuv yozgan shoirga qo'l qovushtirib salom berdi. Alisher boshini ko'tarib, diqqat bilan yigitga tikildi.

— Kel, inim, esonmisen? — qalamni qo'yib, qo'lini cho'zdi shoir.

Arslonqul ehtirom bilan uning qo'lini qisdi. Shoir ko'rsatgan joydan ko'ra quyiroqqa tiz cho'kdi. Navoiy o'z yaqinlariga qilgan iltifot bilan gapira boshladi;

— Bu tomonlarda ne qilib yuribsen? Hirotidan qachon chiqqan eding? So‘yla, bizning Injil labidagi ishlarimiz ilgari bormoqdami?

Arslonqul dadillandi. Navoiyning binolaridagi ishlar to‘g‘risida tafsilli so‘zladi. Mirak Naqqoshdan chizi shikoyat ham qilib qo‘ydi. Navoiy zavqlanib kuldi, yiltiragan keng peshonasini ingichka barmoqlari bilan siladi, yana so‘zlashga qistadi. Savollar berdi. Arslonqulning sof yuragini, to‘g‘riligini, sodda xalq donoligini, tabiiy aqlini ifodalovchi do‘lvor so‘zlarini ko‘proq eshitgusi keldi. Arslonqul o‘z maqsadini tezroq bayon qilishga oshiqardi. Nihoyat, o‘z dardining ifodasiga yo‘l ochdi:

— Taqsir, men Mirak Naqqosh bilan Injil bo‘yida g‘ijillashib ishlamoqni orzu qilardim, lekin boshimga bir falokat tushib, ostonangizga bosh urib keldim.

— Ne falokat? — darrov qiziqdi Navoiy.

Arslonqul qudratli gavdasini bir oz egdi. Yuzidagi dard, tovushidagi hayajon bilan butun voqeani — boshdan-oxirigacha aytib berdi. Hech nimani, hatto folbin voq easini ham yashirmadi. Oxirda: «Umidim yolg‘iz sizda. Elga ko‘rsatgan marhamatingizni bu bechoradan ayamagaysiz», dedi-da, Sul-tonmurod yozib bergan xatni qo‘ynidan olib, shoirga uzatdi. Navoiy uni shamga tutib o‘qidi, olimning ahvolini so‘radi. Sul-tonmurod bilan uning o‘rtasidagi samimi-yatni eshitib, xursand bo‘ldi. Keyin Dildor bilan yigitning ilk sevishgan zamonlari, qishloqlari va turmush-lariga doir bir ko‘p narsalarni bilishga qiziqsindi. Arslonqul, endi o‘z qadrdonlari bilan suhbatlashgan-day, tortinmasdan so‘zlashdi. Navoiy ishqda vafo va sadoqat, tozalik to‘g‘risida chiroyli, ma‘nodor so‘zlar aytdi. Arslonqul uni ichki bir huzur bilan tinglab, har bir so‘zini fikrga jo qilishga tirishdi. Navoiy so‘zni bitirgach, Arslonqul uning og‘zidan umidbaxsh so‘z eshitmoq orzusi bilan yonib:

— Taqsir, zindonda yotgan u baxti qaroga najot yo‘li bormi? Yoinki... — so‘zni oxiriga yetkazolmay, sukut qilib, yerga qaradi Arslonqul.

— Sabr et, yigit, — javob berdi Navoiy jiddiy, — agar mamlakatda jabr-zulm benihoyat avj olmasa edi, ishqingiz qaro kiymas edi. Oila qo‘ynidan qizni o‘g‘irlab, cho‘ri qilmoqqa kimning haddi bo‘lur edi?! Modomiki, bizni yo‘qlab kelibsen, dardingga davo topmoqqa urinurmiz. Balki podshohga arz eturmiz. Chunki yor dilnavozing o‘z jasoratida bir nima ortiqcha ish qilibdi. Zotan, bu yomon emas. Ishqda fido-korlik ulug‘ fazilat, yoringning qilmishi ishq, vijdon va aql oldida g‘oyat maqbul, shoyon taajjub ishdir. U To‘g‘onbek kabi qora maxluqlarning irodasiga sof, hur vijdonlar aslo itoat etmasliklarini g‘oyat go‘zal isbot etibdi. Ammo qonunan oqlamoq uchun bir oz o‘ylamoq kerak.

Arslonqul suyunib, hayajon bilan o‘rnidan turdi, tashqari chiqmoqqa ijozat tiladi.

— Xo‘b, istirohat qil, senga ovqat bersinlar!

Yigit qorong‘ida otlar orasida turtinib, o‘z jiyroni-ni topdi. Silab-siypab xashakka qo‘ydi. Keyin har yerda gulxan yoqib, to‘p-to‘p o‘tirgan navkarlarning tungi hangomalariga aralashib ketdi. Ular bilan birga katta ishtaha bilan shovla, et yedi. Suyaklarni baquv-vat tishlari bilan obdon mujidi. Vaqt alla-palla bo‘lib, qarorgohda shovqin-suron tinganda, navkarlarning chodiriga kirib, choponiga o‘raldi-da, uxladi.

Ertalab, nonushtadan keyin uzoq vaqt ot bilan ovora bo‘ldi — sug‘ordi, mo‘l xashak soldi, qashlab supurdi. Choshgoh pallada uni Navoiy chaqirayot-ganini bildirdilar. Qadamlarini unda-munda tashlab, ichki hayajon bilan chodirga kirdi. Navoiy xuddi kechagi joyida, ko‘kimtir shohi choponga o‘ralib o‘tirar edi. Yonida g‘ijjak va tanbur turardi.

— Muroding hosil bo‘ldi, yigit! — quvonch bilan xabar berdi Navoiy.— Mana bu farmonni shamolday tez eltib, qal‘a begiga topshirusen. Asira yoringga tez qovush. Bizdan ham salom ayt!— keyingi so‘zlarni shoir ko‘zlarida toshgan samimiy tabassum bilan so‘zladi.

Arslonqul xatni juda ehtiyot bilan qo‘yniga joyladi. Ko‘zlariga yosh to‘lib, suyunchidan titrab, samimiy, sodda so‘zlar bilan shoirga minnatdorchilik bildirdi.

— Biz o‘z vazifamizni bajardik. Sizning quvonch-laringiz men uchun ulug‘ mukofotdir, — dedi Navoiy yigitni kuzatib.

Arslonqul otga yugurdi. Epchillik bilan egar-jab-duqni to‘g‘riladi. Minish oldida, yo‘lda otni boqish uchun yem to‘g‘risida tashvishlandi. Pul oz qolgan. Navkarlar, otboqarlarga «otang yaxshi, onang yaxshi» qilib, bitta qopchaga arpa solib oldi-da, jiyronni dingillatib, shaxdam jo‘nab qoldi.

## II

Arslonqul Hirotdan chiqqandan keyin Sultonmu-rod va Zayniddin yana ko‘proq mas‘uliyat sezib, tashvishlari ortdi. Tun-kun quloqlari tikkaygan, ko‘n-gillari g‘ash bo‘ldi. Arslonqulning sheriklari tun-kun zindon tevaragida, juvozkashning otiday, aylanib yur-dilar. Amaldorlarning so‘ziga, va‘dasiga qattiq ishonib bo‘lmas edi. Uchinchi kundan boshlab hayajon va tahlika kuchaydi. Hirotda har xil mish-mishlar tar-qaldi: «Qochqin cho‘rini og‘zidanmi, yo boshqa joyi-dan dam qo‘yib shishirar emishlar! Dorga osib, terisi-ni shilar emishlar! Yotqizib, qoq belidan g‘o‘laday arralarmishlar!» — bir-biridan vahim qiynoqlar to‘g‘ri-sida so‘zlaydilar. Bularga sovuqqonlik bilan qaramoq jinoyat bo‘lar edi. Chunki bu mish-mishlar orasida To‘g‘onbekning qonli, qora ko‘lankasi ko‘rinar edi.

Zayniddin, To‘g‘onbek qoshiga borib, uni insofga chaqirishga do‘stini qistadi. Sultonmurod bu taklifni eshitgusi ham kelmadi.

— Qo‘y, do‘stim, betini ko‘rmoqqa toqatim yo‘q. Uning quloqlari, go‘yo qo‘rg‘oshin quyilganday, haqiqat so‘zlariga tamom kardir.

— Bilamen, o‘zim ham undan nafrat qilamen, — dedi Zayniddin. — Ne qilaylikki, zaruriyat... Unga murojaat etmoqqa, hatto yalinmoqqa majburmiz. Sen unga bor, eski tanishlikni o‘rtaga sol. Xotirimdadirki,

bir vaqtlar seni hurmat qilar edi. Esingdami, nima derdi: «Sultonmurod podshohlardan ham afzal. Chunki olamning xazinasi uning boshiga jamlangan...» Shunday demasmidi?

— U vaqtlarda rasvo, razil bir qochqin edi. Endi qara!— Sultonmurod ko‘zlarini ko‘kka ma‘nodor tikdi.

— Bilasenmi, Navoiyning yaxshi bir bayti bor, ma‘nosi shunday: «Yomonlardan yaxshilik kutmoq hayvon shoxida gul unmagini orzu qilmoq bilan barobardir!»

Zayniddin ortiq qistamadi. Hirotning yuqori doiralriga yaqin bo‘lgan ba‘zi tanishlari bilan uchrashmoq uchun ketdi. Har yerda qo‘rqinchli mish-mishlar eshitdi. Yana Sultonmurod qoshiga keldi.

— Xadichabegim Dildorning harakatidan g‘oyat qahrlangan emish, — dedi u hafalanib.

— Demakki, ish yomon, — rangi o‘chib shivirladi Sultonmurod. — U ayolning yuziga toshgan bulut bo‘ron va chaqmoqsiz o‘tmaydi!

Zayniddin boshi bilan tasdiqladi. Sultonmurod «uh» tortib, indamasdan bir yoqqa ildam jo‘nadi. Shaharning shimolida, eski shahzodalardan qolgan chiroyli bir qasrning eshigi oldida olimni ikki navkar qarshiladi:

— Xizmat?

— To‘g‘onbek janoblariga xabar beringiz, Sultonmurod uchrashmoqni orzu qilur.

Navkarlarning biri, yoqinqiramagandek, imirsilanib, ichkariga kirib ketdi-da, ko‘p o‘tmasdan, paydo bo‘ldi, boshi bilan imladi. Sultonmurod katta bog‘ orqali o‘tib, qator serhasham uylarning qay biriga kirishini bilmasdan, ancha ovora bo‘ldi: «Ey buzug‘ falak! Baxt ko‘r bo‘lmasa edi, shu eshakning boshiga qo‘nurmidi?» — o‘yladi ichida u. Keyin qulog‘iga halqa osgan bir qulning ko‘rsatishi bilan qalin sarvzorlar orasidagi yo‘lning boshida, marmar zinali, ayrim, katta xonaga kirdi. Bu uy qimmatbaho jihozlarga juda boy edi, qalin ko‘rpachalarda To‘g‘onbek bilan mavlono Shahobiddin, yana kekkaygan bir

necha mansabdorlar o'tirardi. Aloiddin Mashhadiy yarim yumuq ko'zlariga qog'ozni yaqin tutib, To'g'onbekni kuldirish uchun yozgan hajvlarini o'qib turardi. Sultonmurodni To'g'onbek ochiq yuz bilan qabul qildi. Yangi mehmonni ko'rib hurpaygan shoirning yana bir hajvini eshitib, gavdasini silkib qattiq kuldi. Keyin u o'zini go'yo yurtning homiysi, hayotning har tomoni bilan qiziqqan, bilimdon bir sarkarda kabi tutishga tirishib, madrasalar ahvolidan so'z ochdi. Sultonmurod nozik kinoyaviy tabassum bilan ba'zi ma'lumotlar berdi-da, o'zining nima maqsad bilan kelganini aytdi. To'g'onbek iyagidagi qizg'ish, siyrak dag'al soqolini qashib, sukut etdi. Keyin yaxday sovuq, sun'iy «qih-qih» qilib kuldi.

— U qochqin cho'riga homiylik qilib netasiz? — dedi u qoshlarini kinoya bilan kerib. — Uylanmoqchimisiz? Qo'ying, men sizga ko'kragi handalakday dirkillagan suluv qizni topib beramen.

— Bek, men sizning huzuringizga uylanish qayg'usida kelmadim, — g'azabdan qichqirib gapirdi Sultonmurod. — Men hozir o'zgalarning baxti va sevgisi uchun g'amxo'rlik qilurmen. Kishilarni baxtli ko'rmakning o'zi ham baxtdir.

Tug'onbek yostiqqa yonboshlab, oltin halli shipga qaradi. Aloiddin Mashhadiy, mavlono Shahobiddindan o'zga mansabdorlar To'g'onbekning olimga aytgan so'zlaridan o'ng'aysizlanib, yerga qarashdi. Mavlono Shahobiddin bangilarnikidek sariq, qonsiz yuzini bosgan ochiq kinoya va noxushlik bilan dedi:

— Yurtning ulug'lari bor. Ishni ularga qo'yib bermoq kerak. Bizda birovdan jinoyat sodir bo'ldimi, darrov oqlovchilar, adolat haqida lof uruvchilar paydo bo'ladi.

— To'g'ri, yurtning ulug'lari bor, — dedi Sultonmurod asabiylanib, — lekin zulm ham zo'r, o'zbo-shimchalik ham zo'r. Davlatda oliy poyaga minganlar ichida johillar ham bor. Biz haqiqat yuziga tushgan qora dog'ni shilmoq niyatida kelgan edik.

— Birodar, — qaddini rostlab, yumshoq gapirishga tirishdi To'g'onbek, — jinoyatchiga jazo bermoqni xudo ham, payg'ambar ham buyuradi. Masalani shayxul-islom hal qilur.

— Qizga hech kim jinoyat ag'dara bilmas. Sof, asil ruhli jasur qizga lutf, marhamat ko'rsatmoq lozim!

— Barakallo! Bu gaplar qaysi kitobdan? — xitob qildi Shahobiddin.

— Haqiqiy kitoblarning barchasida bu mazmun bordir! — javob berdi Sultonmurod.

— Men sizga o'gut o'rgatgudek bilgich emasmen, — gapirdi qovog'ini solib To'g'onbek. — Biroq, shu narsa muhaqqaqki, qorani oqlamoq hech bir podshohning yosa'siga sig'maydi!

Sultonmurod kelganiga afsuslandi. G'azabini bazo'r bosib, o'yladi: qizni Mirzo Yodgor zamonida kim tomonidan olib qochilgani haqida til tegizmakni mo'ljalladi. Lekin, To'g'onbekni quturtirishning oqibati qalay bo'lar ekan, deb ikkilanib qoldi. Shu vaqtda bir to'da mast, olifta yigitlar va Hirotning mashhur qimorbozlari kirib keldi. Sultonmurod til uchi-da sovuqqina xayrlashib, eshikka otildi. Hayajondan, bog'chada tekis yo'lni qo'yib, daraxtlar orasida, bilqil-lama nam yerda, kafshini loyga botirib yugurarkan, orqadan tovush eshitdi: «Mavlono Sultonmurod!» Olim qayrildi. Uy zinasida To'g'onbekni ko'rib, qaytdi.

— Do'stim, bizdan ko'nglingiz qoldi-a? — iljaydi To'g'onbek.

— Men sizni fazilatga da'vat qilgan edim, afsus!

— Men xalq oldida sizning iltimosingizga shunday javob bermoqqa majbur bo'ldim. Tushudingizmi? Garchi bu ishga mening daxlim yo'q bo'lsa ham, so'zingizni yerda qoldirmaslikka tirishurmen.

Sultonmurod ko'zlarini katta ochib, endi ochiq yuzli To'g'onbekka tikildi.

— Ko'nglingiz tinch bo'lsin! — ishontirib so'yladi To'g'onbek.

---

<sup>1</sup> Qonun ma'nosida.



Sultonmurod tashakkur bildirib, xayrlashdi-da, suyunib, madrasaga keldi. Hujrada Zayniddinni avvalgidan ham g'amgin ko'rdi.

— Xotiring jam bo'lsin, do'stim, baloning oldini oldik.

— Haqiqatmi? — ishonqiramay so'radi Zayniddin.

Sultonmurod bemalol o'tirib, orada o'tgan hamma gapni aytib berdi. Dastlab allaqanday gumonlarga borgan Zayniddin, keyin — ayniqsa Sultonmurodning ishonch ta'siri bilan — taskin topdi. Bu oqshom ular hatto Arslonqulning qurolli sheriklarini tarqatib yuborib, tinch uxlashdi.

Ertasi qiyom chog'ida ikki do'st ko'chaga chiqishdi. Sahnoblik rastasiga kirib, yangi kitoblar bilan tanishishdi. Bu yerda hamma vaqt uchraydigan ba'zi olimlar, shoirlar, xattotlar bilan gaplashib, turli mavzularda suhbatlashishdi, talashishdi. Keyin o'zlarining bir necha kundan buyon o'rganib qolgan joylariga, Ixtiyoriddin qal'asi tomonga beixtiyor borishdi. Atrofiga qalin odam to'plab, qiziq latifalar bilan hammani qah-qah kuldirayotgan mashhur devona — mavlono Darvesh Shamrezni bir oz tinglashdi. So'ng kabobpazning do'koniga kirib, ovqatlanib, o'tgan-ketganni tomosha qilib o'tirishdi. Zayniddin o'tkinchilardan — otliq, piyoda, yosh-qari bir ko'p qiziq shaxslarning tarixlarini so'zlab, har vaqtdagi kabi, do'stini zeriktirmaslikka tirishdi...

Ular peshin namozini shu yerdagi masjidida ado etib chiqqanlarida, uzoqda qalin olomoni ko'rdilar. Gumonsirab bir-birlariga qaradilar-da, u tomon yugurdilar: qorovulxona eshigida To'g'onbek qaqqaygan... «Nima gap?» — rangi o'chib, Zayniddinga qaradi Sultonmurod. U jahl bilan labini burib, ko'zdan yo'qoldi. Bir necha daqiqadan so'ng qaytib, Sultonmurodning qo'lini turtdi-da chetga imladi.

— Bilasenmi, — dedi u labi-labiga tegmay, — ish tamom... To'g'onbek Muzaffar Mirzo nomidan farmon yozib, uning yigitlariga topshiribdi. Hozir hukmni ijro qilarmishlar.

Sultonmurod shaq-shaq titrab ketdi: «Ha, it To'g'on, g'aflatda qoldirding bizni!» dedi-da, peshonasiga urdi. So'ng, birdan g'azabli hayajondan o'zini yo'qotgandek, To'g'onbek tomonga otildi. Zayniddin uni chaqqonlik bilan quchoqlab oldi.

— Do'stim, esingni yedingmi? Endigi harakat befoyda! — dedi u orqaga surib.

— Tangri haqqi, meni qo'yib yubor! — qichqirdi Sultonmurod. — U itning basharasiga butun xaloyiq oldida bir tarsaki uray! Mayli, qo'lidan kelsa, meni ham dorga ossin!

— Behuda gaplarni qo'y! — yalindi Zayniddin. Bir kun undan o'xshatib o'chimizni olurmiz.

Odam borgan sari qalinlashdi. Har kim o'z bilganicha, to'qib-bichadi: osarmishlar, kesarmishlar! Ko'plar achinadi: «Gunohi nima ekan? Bechora qiz qafasdan qutulmoqchi bo'libdi, xolos!»

To'g'onbek ichkari kirib ketdi. Posbonlar ko'paydi. Muzaffar Mirzoning xos yigitlari paydo bo'ldi. Ular dahshat bilan qichqirib, urib, odamlarni chetga sura boshladilar.

— Nima qilmoq kerak? U bizni ahmoq qilib ma'sum qizni ko'z oldimizda qurbon etadimi? Bu qanday razolat? — qichqirdi Sultonmurod.

— Vaqt yo'q, shu choqda kimga borib arz etasen? To'g'onbekdan yordam so'raymizmi? Qasos uchun bukun-erta To'g'onbekning kallasini oldirurmen!

Navkarlar odamlarni surib, qonli ish uchun joy hoziray boshladilar. Jallodning ham manhus siymosi ko'rinib qoldi.

— Arslonqul! — qattiq qichqirdi Sultonmurod va uzoqda yelib kelayotgan jiyron otga yugurdi.

— Tinchlikmi? — otni to'xtatmasdan so'radi baqirib Arslonqul.

— Tinch... Siz ne keltirdingiz? To'xta!

Arslonqul otdan sakradi. Qo'ltig'idan qog'ozni chiqarib, Sultonmurodga tutqizdi: «Qal'a begiga!» Sultonmurodning yelkasi orqali Zayniddin ham qog'ozga

tikildi. So‘ng uchovlari oldin-ketin qal’a boshlig‘iga chopishdi.

Sultonmurod keng yelkali, ko‘zlari allaqanday harakatsiz, shop mo‘ylov yigitga qog‘ozni ochiq viqor va g‘urur bilan topshirdi. Qal’a begi yo‘g‘on, dag‘al barmoqlari bilan qog‘ozni ochib, qimir etmay tikilib qoldi. Nihoyat, qichqirib gapirdi:

— O‘limdan ham, zindondan ham qutuldi! — keyin navkarlarga buyurdi. — Olib chiqinglar!

— Ayt, bu bitik nima? Kimdan u? — qal’a begiga yaqinlashib, g‘uldiradi To‘g‘onbek.

— Alisher Navoiydan... Mana, hamma beklarning muhri bosilgan. Itoat qilamen! — sovuq javob berdi qal’a begi.

— Haqiqat hamisha ustun, u hamisha g‘olib chiqur!— keskin ravishda gapirdi To‘g‘onbekka Sultonmurod.

To‘g‘onbekning yuzi jahl va g‘azabdan allaqanday yomon tirishdi. Bo‘rkini qo‘liga olib, indamasdan lapanglab chiqib ketdi.

Navkarlar oyoq-qo‘llari zanjirband Dildorni olib kirdilar. Uning yuzi xastalarnikiday sarg‘aygan, faqat jasur boqqan ko‘zlarigina jovdirar, yonar edi. U, majolsizlangandek, devorga suyaldi. Arslonqul yugurib borib, uning peshonasini siladida, darrov zanjirlarni yecha boshladi.

— Meni qayerga olib boradilar? Siz nima qilib yuribsiz bu yerda? — parishon so‘radi Dildor.

— Qutulding, jonim, butunlay qutulding! Dadil bo‘l!— yig‘lamsiragan tovush bilan mayin dedi Arslonqul.

— Ishonish qiyin, rostmi? — ko‘zlarini katta ochib, go‘yo savoliga hammadan javob olmoqchidek, atrofdagilarga bir-bir qaradi Dildor.

To‘rt-besh qadam narida turgan Sultonmurod hayajonli edi. U, Dildorning betiga qarashga botinolmagan kabi, boshini quyi solgan edi.

Ular ko‘chaga chiqqanda, olomon suyunch va suron bilan qarshiladi. Kimdir qattiq qichqir-

di: «Marvdan Navoiy Hirotidagi baloga changal soldi!»

— To‘g‘ri!

— Umlari uzun bo‘lsin! — gurilladi olomon.

Olomondan uzoqlashgach, Arslonqul to‘xtab, do‘stlarini uyga taklif etdi. Sultonmurod charchaganligini bahona qildi-da, uzr tiladi va ular bilan birga borishni Zayniddindan o‘tindi. Do‘sti rozi bo‘ldi. Dildor Sultonmurodga tikilib-tikilib qaradi, ko‘ziga tanish, qayerdadir ko‘rgan, lekin xotirlay olmaydi...

— Siz ham biz bilan birga bo‘lingiz, quvonchli bu... — dedi u va uyalgansimon kulib, yerga qaradi.

— Rahmat, singlim, — titrab gapirdi Sultonmurod, — to‘ylaringga borurmen... Baxtlaring quyoshdek porloq bo‘lsin, xayr!

Sultonmurod, go‘yo suyunch qanotida uchayotgan do‘stlarini xayolchan ko‘zlari bilan ancha joygacha kuzatib, so‘ng asta yurib, hujrasiga keldi. Yuragida bo‘ronlar sekin-sekin tindi. Muhabbat bilan to‘la ikki yurakning qovushmog‘i, baxti, nash‘asi, bulutdan so‘ng chiqqan quyoshdek, olimning butun ma‘naviyotini, ichini yoritib yubordi.

## ***Yigirmanchi bob***

### **I**

Quyoshning yallig‘i kun sari havoda ko‘proq sezila boshladi. Yuzni tikanlab o‘tadigan izg‘irinlar o‘rniga endi badanga orom beruvchi, ruhni tebratuvchi shabadalar izg‘idi. Savr oyining bulutlari havoda o‘kirib, sellar quyib o‘tdi. Yomg‘irlardan keyin samoning zangori tiniqligi ko‘zlarni qamashtirdi. Po‘rsillab qabargan sahro yashil jingalaklar bilan qoplendi. Bular go‘yo ko‘z oldingda daqiqa sayin o‘sadi, shamolda to‘lqinlanuvchi qalin maysazorga, o‘tloqqa aylanadi. Bahor qarargoh hayotiga boshqa rang va ohang bag‘ishlaydi. Dalaga yoyilgan otlarning kishnashlari,

yigitlarning qo‘shiq-lari quloqlarda endi boshqacha yangraydi. Dalada yoshlar chavgon o‘ynaydilar, ham-maning chakkasida lola yonadi. Sipohilar, navkarlar etak-etak lola terib chodirlarini bezaydilar.

Navoiy kunduzlari aksar vaqt chodirning bir tomonini ko‘tarib qo‘yadi-da, quyoshda balqib yotgan yashil dalani, uzoq tepa va adirlarni tomosha qilib o‘tiradi. G‘azallar to‘qiydi. Shatranj ustalarini chaqirib, taqyasini yoniga olib qo‘yib, o‘yinga beriladi.

Husayn Boyqaro bahor sayillari tuzdirdi. Atrofdan eng urishqoq qo‘chqorlar toptirib, katta tomoshalar ko‘rsatdi. Kurashlar bo‘ldi. Bir necha bor qimizxo‘rlik majlis-lari tuzdi. Nihoyat, birdan u poytaxtga ko‘chish-ga qaror qilganini bildirdi. Hamma safarga tayyorlana boshladi.

Navoiyning qoshiga navkarlar keldi.

— Ijzat bersangiz, chodirni yig‘ishtirurmiz.

— Bu qadar tez! — noxushlanib dedi Navoiy.

— Erta safar.

— Lekin ko‘chish daragini eshitgandan buyon bir mushkulotni hal qilishdan o‘jizmen, — dedi Navoiy o‘ylanib.

— Qanday mushkulot? — navkarlar atrofini qurshab, ko‘zlarini shoirga tikishdi.

— Ana! — Navoiy kulimsirab, chodirning bir burchagini ko‘rsatdi.

Chodir burchagida odam bo‘yi balandlikda, bir parcha xas-xus ustida ko‘zlarini mo‘ltillatib musicha yotar edi. Navkarlar hech narsa tushunmasdan, bir-birlariga qarashdi.

— Chodir yig‘ishtirilsa, u bechoraga ozor yetar. Bundan qo‘rqamen, — dedi Navoiy.

Navkarlar kulishdi. Bittasi dadillik bilan e‘tiroz qildi:

— Taqsir, qanotli-quyruqli maxluq, uchadi-ketadi.

— Tuxumlariga ham qanot bog‘lab uchira olursiz-mi? — qattiqroq gapirdi Navoiy. — Chaqiring Xo‘ja Hasanni!

Kulimsiragan ko'zli, hamisha mutavoze, kichkinagina Xo'ja Hasan kirdi. Navoiy musichani ko'rsatib, uqtirdi:

— Chodirni yig'ishtirmaymiz. Musicha bola ochib, uchurma qilib, bu inni tark etguncha, sen shu yerda qol. Chodirga ham, qushga ham qorovullik et. Keyin chodirni yig'ishtirib, Hirotga qaytursen. Bu xizimating uchun senga yaxshi haq to'larmen...

— Aytganingizdek qilurmen. Musichaga ozor yetkizmasmen.

Navkarlar boshlarini quyi solib, asta chiqib ketishdi. Erta bilan Navoiyning chodiridan boshqa hamma chodirlar yig'ishtirilgan edi. Suron va tantana bilan sahrolarni to'ldirib, butun qarorgoh ko'chdi.

Hirotga kelgach, ikkinchi kun shoir bir to'p do'stlari, yaqinlari bilan Injil yoqasiga bordi. Uning imoratlaridan bu yerda katta, ajoyib bir mahalla paydo bo'lgan edi. Binolarning hammasi naqshlari bilan yorqin havoda yonib, bir-birlarining husnini, azamatligini oshirar edilar. Navoiy dastlab madrasaga kirdi. Talabalar o'tirib dars olishi uchun yasalgan to'rtta katta tosh supani ko'zdan kechirdi. G'isht terilgan chor burchak sahning to'rt tarafida qator solingan hujralarning — talaba yotoqlarining har biriga kirib, diqqat bilan qaradi. Kitob terish uchun devorlarda yasalgan tokchalardan, taom pishirish uchun har bir hujraga qurilgan kichkina o'choqlardan tortib eshiklarning halqasi, qulfigacha tekshirdi. Madrasadan xonaqohga o'tdi. Bu — madrasaning qarshisida juda hashamatli bino edi. Olimlar va shoirlarning yashashi, ishlashi uchun mo'ljallangan bu binoni me'moriy, rasm, naqqoshlik san'atlarining eng go'zal namunasi qilmoqni avvaldan xayol qilardi. Naqqoshlar va o'zga ustalar bilan birga yurib, ichki-tashqi bezaklarning uslubiga, bitiklarga ingichka zavq va nazar ham qunt bilan qaradi. San'atkorlarning ishidan mamnun bo'ldi. So'ngra katta kutubxona, kasalxona, hammom va uzga binolarni sayr qildi.

Har bir binoning atrofidagi alohida bog'chalar, gulzorlarni kezdi. Yaqinda o'tqazilgan daraxtchalar

nozik novdalari, siyrak, mayin barglari bilan halitdan ko'zlarni quvontirar edi. Gulzorlarda gullarning ilk g'unchalari xanda sochmoqda edi. Shoir bir to'da bog'bonlar, gulchilar orasida Arslonqulni uchratdi. Yigitning, Dildorning holini, kayfini, maishatlarini so'radi. Arslonqul, har bir savolga sevinchdan to'lib-toshib javob berdi. Navoiy do'stlariga Dildorning jasoratini maqtadi.

Oqshom o'z xonasida bir ko'p do'stlari, yaqinlari, mulozimlari bilan, binolarning «rasm kushodi»<sup>1</sup>ni o'tkazish haqida kengash qildi. Tajribali mulozimlar qancha ot, qo'y va qancha qoramol so'yilishi, qancha meva-cheva va hokazo kerakligi ham qanday tartib bilan o'tkazish to'g'risida ma'qul fikrlarni o'rta qatnashdilar. Navoiy shu kundan boshlab tayyorlik ko'rishga ruxsat berdi.

Jum'a kuni Injil yoqalari ajoyib katta yig'ilishni ko'rdi. Bu yerda a'yonlar, akobirlar, ulamolar, shoirlar, san'atkorlar, turli hunar-kasb vakillari, xullas, vazirlardan tortib Hirot yetimlarigacha qurama xalq hozir bo'ldi. O'nlab bahaybat qozonlarda taomlar tayyorlandi. Qanor-qanor pista-bodom va minglarcha quyum halvolar mehmonlar oldiga to'kildi. Ziyofatdan keyin xalq guruh-guruh bo'lib, binolarni tomosha qildi.

Madrasa va xonaqoh binolaridan iborat bir dasta binoga «Ixlosiya», kasalxona va hammom «Shifo'iya», kutubxona ham buning qanotida, shoir o'zi, do'stlari, mulozimlari yashashi uchun soldirgan imoratlarga «Unsiya» deb nom qo'yildi.

San'atning uchta muazzam va ko'rkam guldastasi bo'lgan bu binolarning ta'rifi xalq tilidan tushmadi. Ularning dong'i qo'shiqlarda, qasidalarda yangradi, jonli so'zning qanotlarida uzoq yurtlarga shamolday uchdi.

Bu binolarni ilm va madaniyat o'chog'iga, ijodiy fikr manbaiga aylantirmoq yana ko'p g'ayrat talab

---

<sup>1</sup> Ochilish marosimi.

qildi. Shoir «Ixlosiya» madrasasiga zamonning eng oldingi olimlarini — «Xazinai ulum va funun»<sup>1</sup>larni mudarris tayinladi. Bular orasida Sul-tonmurod ilmi mantiq ham riyoziyot mudarrisi boʻlib kirdi. «Shifoiya» da xastalarni davolamoq uchun Xurosonning eng yaxshi tabiblarini jalb etdi. Bu yerda tib ilmi-dan dars etmak uchun buyuk tabib mavlono Gʻiyosiddin Muhammadni belgiladi. Olimlarning foydalanishi uchun kutubxonani hamma qimmatli asarlar bilan toʻldirishga kirishdi. Oʻnlab kotiblar qimmatli, nodir kitoblarni bu kutubxona uchun koʻchirmoqqa boshladilar.

Madaniy muassasalarni boshqarish uchun har xizmat, har vazifaga alohida kishilar belgilandi. Oʻz mulklaridan keladigan daromadning bir qismini doimiy vaqf tariqida bu muassasalarga bagʻishladi.

Yillar oʻtdi. Shoir qalamining ovozi choʻllar, togʻlar, dengizlarni oshdi. Uning gʻazallaridan terma kitoblar karvonlarning qimmatli xazinasi boʻlib, uzoq oʻlkalarga, turli qavmlar, qabilalar, xalqlar orasiga yetdi.

Navoiy unga qadar oʻz xalqining hech bir shoiriga bajarish nasib boʻlmagan bir vazifani — sheʼr togʻining yorgʻin choʻqqisiga chiqishni xayol qilar edi. Bu — oʻz ona tilida «Xamsa» yaratish edi. Adabiy mubohasalar asnosida Eron xalqining oʻlmas adabiy xazinalari — «Shohnoma»lar, — «Xamsa»lar allaqanday gʻurur ham cheksiz muhabbat bilan yodlanarkan, Navoiy bir qarich yoshidan har vaqt oʻksinar edi: «Nega xalqim shunday xazinalardan benasib boʻlsin! Xalqimning chuqur idroki bor, toza zavqi bor gʻururi, anʼanasi bor. Oʻlanlarda, laparlarda jaranglagan goʻzal tili bor...» — oʻylar edi ichida. Shoir qirq yoshida umri-ning buyuk gʻoyasi, eng kuchli orzusini doʻsti mavlono Jomiyga ochdi. Navoiy ilhomining qudratini, hatto uning ilk gʻazallaridan tuyib, faxr bilan unga oʻxshatmalar yozgan Jomiy bu istakni tabrikladi.

---

<sup>1</sup> Ilm va fanlarning xazinasi yoki katta olimlar maʼnosida.



Navoiy sokin ijodiy hayot orzusi bilan yondi. Rasmiy davlat vazifalaridan qariyb bo'shadi. Fikr va g'ayrat toshqinini «Xamsa»ga ag'darmoqqa jazm qildi. Biroq xalq ishidan, kurashlar bilan to'la qaynoq hayotdan chetda tura bilarmidi? Mamlakat hayotining to'liqlinlari uni kun sayin kuchliroq tortib ketadi. «Bosh qashig'ali vaqt yo'q!» Dehqonchilik qilib, hosilni kambag'al oilalarga, yetim-yesirlarga tarqatish, cho'llarda rabotlar qurdirish, taqir yerlarga suv chiqarib obod etish, xalqning arz-dodini tinglash, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ilm va san'at ahliga rahbarlik qilish kabi ishlarning hammasi vaqt va kuchni qamraydi. Bunga qaramasdan, Navoiy «Xamsa» ustida ajoyib, favqulodda bir chidam va g'ayrat bilan qalam yuritdi. Navoiyning boshida tarixning fikr daryolari to'liqlanadi. Zamonning eng jonli, eng o'tkir, muhim masalalari qalamga hujum qilib keladi. Ular haqida o'ylash, saralash, ularning ildiziga yetish, so'ng she'rning yolqinli tiliga ko'chirish kerak!

«Xamsa» — go'yo ustma-ust qo'yilgan besh tog'... Har poyasi butun bir umrni qamraydi. Navoiy azamat hamlalar bilan hammasi bo'lib ikki-uch yil ichida bu besh tog'ning cho'qqisiga chiqdi.

## ***Yigirma birinchi bob***

### **I**

Qiyom chog'i edi. Yarqiroq, uzun, keng shohi to'n kiygan va kattagina oppoq sallani bukun, nima uchundir, qunt bilan o'ragan Sultonmurod "Ixlosiya" madrasasidan chiqdi-da, Injil yoqasida quyoshda cho'milgan go'zal, ko'rkam, xushhavo bog'larda har kungidek keza boshladi. Tangadek quyosh tushmagan, toza, salqin yo'llarda olim o'z fikrlariga berilishni sevardi. Ariqlarda suvlar bog'lardan gulzorlarga, gulzorlardan xiyobonlarga o'tib, sharqirab, sho'x oqardi. Sarvzorlarda kimdir hazin nay chaladi. O'qtin-o'qtin naq bosh ustida, quyuq barglar orasida qush sadosi

yangrab ketadi. Xiyobonda qandaydir musofir darvesh Xo'ja Hofiz Sheroziyning bir g'azalini g'oyat ta'sirli o'qimoqda...

Sultonmurod ancha vaqt kezib, katta yo'lga chiqarkan, uzoqdan eshagini yetaklab, yo'lni adashtirgandek, har yoqqa alanglagan kishini ko'rdi. Uning harakatlari, butun siymosi tanish tuyuldi. Nariroq borib, diqqat bilan tikildi: shoir mavlono Binoiy. Tez-tez yurib, u bilan quyuq ko'rishdi.

— Safardan qachon qaytdilar? — so'radi Sultonmurod.

— Bukun qaytdim, — javob berdi eshagiga suyalib mavlono Binoiy va quyoshda mavjlangan yashil bog'larga tikilib dedi: — Hov, biz bilgan xaroba Injil sohillari qani?

— Navoiy janoblarining qo'llari taqir yerlardan chamanlar yaratadi!— dedi Sultonmurod so'zni chertib.

— Bu g'oyat xushhavo, latif manzil bo'libdi, — dedi Binoiy oftobda qoraygan kichkina yuzidagi dag'al soqollarini qashib. — Ammo Navoiyning «Xamsa»si bunday latif bo'lmasa kerak!

— Nega?— istehzo bilan kulib so'radi Sultonmurod.

— She'rning onasi — til. O'zbeklarning tilida na rang, na ohang bor. Bu ikki nimarsasiz she'r yaratmoq imkonsizdir.

— Xato qilursiz, Binoiy! — jiddiy gapirdi Sultonmurod. Binoiyning soyaga tortib. — Navoiyning «Xamsa»si she'rning mislsiz go'zal asari bo'lib chiqdi. Endi forsiyparastlar abadiy gung bo'lishga majburlar. Bizning tilimiz Navoiyning sozida shunday ulug' qudrat va muazzam ohang bilan yangradiki, chin so'zni aytsam, hammamiz chuqur xayratda qoldik. Navoiyning «Xamsa»si hozir yolg'iz Xuroson va Turkistondagina emas, Hindistonda, Qofqozda, Chin-Mochinda sayr etmoqdadir. U o'z sayohatida yetti iqlim yerlarini bosishga aslo shubha qilmaymen.

Mavlono Binoiy olimga zimdan xo'mrayib qaradi. Kirgina olacha yaktagining etagi bilan yuzidan terini artdi.

— Navoiy janoblarning uylariga bizni boshlarmisiz? — eshagini cho‘p bilan urib yurgizdi Binoiy.

— Marhamat qiling, yaqin, — yo‘l boshladi Sultonmurod.

Yo‘lda so‘z yana «Xamsa»ga ko‘chdi. Sultonmurod «Xamsa»ni shavq va hayajon bilan maqtadi. Jomiyning Navoiy «Xamsa»sini maqtagan go‘zal misralarini o‘qib berdi. Binoiy noiloj hazilga o‘tdi. Lekin bunda ham Sultonmurod bo‘sh kelmadi. Uning so‘zlari tikanini fikrning tig‘i bilan kesib, to‘mtoqladi. Shunday qilib, ular «Unsiya»ga yetganlarini sezmay qoldilar.

Navoiy «Unsiya»dagi ko‘p xonalarning birida — katta, salqin chorxari uyda, qariyb har vaqt birga bo‘ladigan do‘stlari, yaqinlari bilan bosh yalang shatranj o‘ynab o‘tirar edi. Mavlono Binoiy kirishi bilan o‘rnidan turdi-da, do‘stona ko‘rishib, o‘z yoniga o‘tqizdi. Uzoq safardan qaytgan shoirning holini, kayfini so‘radi. Ko‘p o‘tmasdan, dasturxon yoyildi. Gangir-gungur suhbat boshlandi. Mavlono Binoiy o‘z sayohatidan olgan taassurotlarini juda maroqli ravishda aytib berdi. Bir necha qo‘pol latifalar so‘zlab, majlisni yaxshi kuldirdi. Gap orasida Navoiy unga murojaat qilib, dedi:

— Iroqda, Yaqubbekning qoshida bo‘libsiz. Uning fazilatlaridan so‘zlang bizga.

— Yaqubbekning bir yaxshi fazilati shundaki, dedi Binoiy ayyor tabassum bilan, — u hech vaqt og‘ziga turkiy so‘zni olmas ekan!

Majlis birdan sovuq sukutga botdi. Shoirlardan Shayxim Suhayliy, Hiloliy, Hofiz Yoriy, Pir Muammoiy va boshqalar iztirob bilan qisilib, yerga qaradilar. Sohib Doro g‘azabiga chidolmasdan, eshikka chiqib ketdi. Yolg‘iz ikki kishi beparvo qoldi: Binoiy bemalol ovqatni tushirardi; Navoiyda o‘z kuchiga, o‘z haqiqatiga ishongan kishining qat‘iy sokinligi barq urardi.

— Bizning tilimiz gavhardir, — dedi Navoiy ta‘kidlovchi bir ohang bilan. — Yaqubbek gavharni najosatga otmas, albatta.

Mavlono Binoiyning ko'zlari allanechuk olayib ketdi. U o'zining najosat bilan tenglanishini kutmagan edi. O'ch olish uchun yana qo'pol hazillar yog'dirdi. Keyin jiddiy bahslashuvga tirishib ko'rdi. Lekin fors tilining go'zalligi, ustunligi haqidagi uning butun dalillari, isbotlari, urinishlari Navoiy mantiqining mustahkam toshlariga urilib, qumday sochilib ketar edi.

Sultonmurod og'ir — vosi' so'yladi. Tillarning umumiy tarixini, o'zgarishlarini, mazmunini vuquf bilan gapirdi. Arabcha, forsha, hindcha, o'zbekcha va boshqa tillarning ayrim ma'xazlariga turli-turli misollar keltirdi. Tillarning ohanglariga tushib, Sultonmurod yorqin va chuqur ma'noga ega bo'lgan gaplar so'yladi va natijada Binoiyga e'tiroz qildi. Uni majlis tasdiqladi.

— Barakalla, rahmat,— dedi Binoiy qulluq qilib,— zavq bilan eshitdim, pishiq narsalar aytdingiz. Lekin masala o'zi nimada? Nimaga chor bozorga solasizlar? Men o'lib ketdim-ku...

Ammo do'ng'illab Sohib Doro kirib keldi va Binoiyga qarab dedi:

— Bas-e! Gap bitdi, qani, tanburni eshitaylik!

— Hazilni bilmagan kal fozil! — dedi Binoiy. — Sen o'tir yoki jo'na: qayoqqa — ola toqqa!

Majlis bir oz kuldi, Sohib Doro qizarib bir chekkaga o'tirdi.

— Belgulikki, mening tabiatimda bir oz mazaxga, hazilga tomon moyillik bor, — dedi Binoiy. — Hazil qilish mumkin emasmi? Holbuki, piching, hazil, latifa, askiya — tirik, xushbo'y narsadir. Aksari shoirlar mazaxga, hazilga va shuning kabi narsalarga juda o'ch. Ma'nodor hazil, latifa va hokazo — yorqin bir guldurki, hidlasang, maza qilasan. Alisher janoblariga unda-munda bir ozgina tikan tashlash mening odatimdir. Janob Navoiy meni uzib-uzib oladiki, chidab yotolmaymen, toqatim toq bo'lur... Ammo piching va hazil gaplar o'tadi-ketadi, suv kabi. Lekin odamgarchilik va mehr-shafqat lozimligi unutilmas narsadir.

Butun majlis yengillik sezdi. Sohib Doro va bosh-

qalar zavqlanib: «Yomg'ir tomdi — yo'q bo'ldi!» dedilar.

— Ehe, qayoqqa qochish kerak, — dedi Binoiy, — hazilni, kulguni mahv etsak!

Navoiy kulib dedi:

— E tavba, xalq bor, biz bor, siz bor, hazil davom etur! Lekin e'tirozlar, ehtiroslar, tortishuvlar hech vaqt biron janjalga aylangan emas: ora-sira ranjish, ehtimol, bo'lgandir.

Navoiy va Binoiy do'st edilar. Lekin yangi mehmon kelishi bilan mubohasa birdan kesildi. Bu — rassom Behzod edi. Iste'dodi umum tomonidan favqulodda baland taqdirlangan, umumiy sevgiga sazovor bo'lgan dongdor san'atkor endi soqol-mo'ylabli, yetilgan er edi. Butun majlis uni samimiy quvonch bilan qarshi oldi. Navoiy uni yuqoriga o'tqazib, nodir mehribonchilik ko'rsatishga tirishdi. Behzod katta juzdonini ochib, bir rasm chiqardi-da, tavoze va kamtarlik bilan Navoiyga taqdim etdi:

— Shogirdingizning kichkina bir asarini qabul etib, uni baxtiyor qilursiz, — dedi rassom nazokat va hurmat bilan egilib.

Bu rasm Navoiy qurdirayotgan binolardan bir ko'rinish edi. Navoiy hayajon bilan berilib rasmga tikildi: madrasa qurilishida ishning qaynoq payti butun jonliligi bilan ko'z oldingda yashnaydi. Ustaboshilar, toshchilar, mardikorlar, aravalar va fillar, tanish siymolarning o'zlariga xos tur va harakatlari — hammasi bir yaproq qog'ozda yaqqol, to'g'ri, go'zal naqsh etilgan. Navoiy benihoyat quvonganini bildirib, tashakkur aytdi. Hamma boshlar rasm ustiga yopirildi.

Mehmonlar kechga tomon tarqalishdi. Alisher Binoiy olib qoldi. Quyosh ufqda alangada edi. «Unsiya» ajoyib edi. Bir nafas kezgali chiqdilar.

— Bog' chindan go'zal! — atrofga qarab dedi Binoiy. — Chiroyli manzara! Anav unda — gird, anav — ot bozori.

— Anav yoqda, ko'rdingizmi, suv? — uzoqqa qarab dedi Navoiy. — Bu suvni ustalik bilan mirob-

larimiz sekin-sekin keltirdilar. Suv — serob, xalq ichadi, sugʻoradi...

Binoiy «Unsiya»ga, suvning kelishiga va umuman inshootlarga hayron qoldi. Navoiy chapga burildi. Binoiy ikkisi yonma-yon borar edilar.

Tovuslar yoniga chiqib, birpas hangomalashib ketishdi. Bogʻaro aylanib-aylanib, shaftolizorga kirishdi.

— Marhamat, xonaga kiring! — qoʻlini koʻtardi Navoiy. — Ilhom manbai va xushhavo!..

Binoiy bir uy va ayvon qarshisiga chiqib qoldi:

— Oh, shiringina joy! — uyga va shaftolizorga sevgi bilan qarab dedi Binoiy. — Tashakkur! Endi men gʻazallarga kirishay...

Navoiy koʻk maysadan asta ketdi.

## II

Majididdin parvonachi har kun ertalab Bogʻi Jahon oroga kelar, dastlabki yumushi saroydagi oʻzining «quloq»laridan yangi voqealar, gʻiybatlar, fitnalar haqida maʼlumot olishdan iborat boʻlardi. Bukun u saroy makkorlarining oqsoqoli hisoblangan Pir Hoji Bakovulni uchratdi. U Navoiy tarafdorlari deb nom olgan baʼzi mansabdorlar toʻgʻrisida podshoh xususiy bir majlisida shikoyatlanganini, goʻyo tasodifan topilgan bir xazinadan darak bergan kabi, sirli ovoz bilan shivirladi. Majididdin unga yangi topshiriq berib, oliy devon tomon qayrildi.

Devonda uni, har kungidek, ikki muhim vazir — Xoʻja Afzal va Nizomulmulk qarshiladi. Bu ikki vazirning koʻksilarida bir-birlariga nisbatan gʻazab va nafrat bir on boʻlsin tinmasa-da, lekin ular muomala-da qadrdonlardek edilar. Majididdin ularning har ikkovini ham yomon koʻrardi. Xoʻja Afzalni Navoiyning oʻng qoʻli, deb hisoblar, Nizomulmulkni esa har on uni chaqmoqqa hozir turgan ilon, deb, bilardi.

Rasmiy taʼzim va salomdan soʻng, suv bilan olovday dushmanlar, soʻzlasha boshladilar. Ularning soʻzlari, har vaqtdagi singari, ilk totishda shiringina tuyulib, taxiri soʻngroq bilinadigan doriday edi.

Husayn Boyqaro kirib, qalin zar to'shakka o'tirdi. Uning ko'zlarida, ertaroq qarimsigan yuzining chiziqdarida ifrot ichkilik bilan uyqusiz kechirilgan tunning izlari ravshan ko'rinar edi. U viloyatlarga doir ba'zi farmonlar yozishni parvonachiga buyurib, mazmunini bir necha og'iz chalkash-chulkash so'z bilan aytib berdi. Majididdin shu yerda yozmoqqa kirishdi. Husayn Boyqaro ko'zlarini horg'in suzib, vazirlarga murojaat etdi:

— Bizga ikki tuman oqcha hozirlangiz!

Xo'ja Afzal yalt etib, Nizomulmulkka qaradi. Sersavlat, serviqor vazir boshini quyi solib, sukut qildi. Xo'ja Afzal o'ng'aysizlandi, qisildi. Xazinada mablag' kecha deyarli tugagan edi. Hashamat va dabdabaga berilgan saroy xazinani yutib turardi. Xo'ja Afzal haqiqiy ahvolni bayon qilishga botinolmay, qizarib, sukut etmoqqa majbur bo'ldi.

— Ne sababdan tillaringiz qimirlamaydi? — har ikkala vazirga o'shshaydi Husayn Boyqaro.

Xo'ja Afzal talab qilingan miqdorda oqcha hozircha yo'qligini, agar fursat berilsa, chora ko'rish mumkinligini so'zlad. Husayn Boyqaroning tusi o'chdi, ko'zlarida g'azab yiltirab ketdi.

— Xuroson hukmdorining xazinasida ikki tuman oqcha topilmasin! — dedi u yuzini vazirlardan ters o'girib.

Devonni dahshatli, ezuvchi bir jimjitlik to'ldirdi. Parvonachi yozishdan to'xtab, g'olib xo'rozday bo'ynini cho'zdi-da, podshohga ma'nodor boqdi, taas-suflangandek boshini asta, og'ir tebratib qo'ydi.

Vazirlar oqcha topishni endi va'da qilishga botinolmadilar. Endi qancha mablag' tayyorla — behuda! Podshohning g'azabi ostida o'tirish og'ir edi. Vazirlar ruxsat tilab, aybdorlardek enkayib, ezilib, tashqari chiqdilar. Majididdin yashnab-yonib ketdi, Husayn Boyqaro tadbirsiz boshliqlardan shikoyat qildi. Parvonachi ko'p yillardan buyon ko'ksida saqlab yurgan orzulari uchun eng qulay fursat kelganligini angladi. Podshohning keyingi vaqtlarda unga bo'lgan alohi-

da iltifoti uni jasoratlantirdi. Majididdin kuyib-pishib o'z yuragidagi ginalarini bo'shata boshladi. Davlat ishlaridagi hamma nuqsonlarni Navoiy va uning odamlari ustiga ag'dardi, yangi kamchiliklar to'qib chiqardi. Navoiyning qurilish ishlari xazinani quritganini isbot qilmoqqa urindi. Podshoh diqqat bilan tinglar edi. Nihoyat, jang maydonida ahvol tang bo'lgan paytda o'z ishtiroki bilan muqarrar zafar va'da etgan bahodirning ishonich va g'ururi bilan dedi:

— Olampanoh, davlatingizda xazinani aqlga sig'mas bir darajada simu zar bilan to'ldirmoq mumkin... Men, masalan, ikki tuman emas, ikki ming tumanni bag'oyat osonlik bilan yig'ib bermoqqa va'da qila olurmen.

— Ishonmoq mumkinmi? — so'radi podshoh yengillanib.

— Shubha qilmoqqa o'rin yo'q, — javob berdi Majididdin qat'iy. — Ammo buning uchun, xoqonim, bu kamina qullariga davlatda tegishli mavqe, huquq va iqtidor bermoqlari shart.

Husayn Boyqaro qaddini rostlab, ko'zlarini bir nuqtaga tikdi. Oqara boshlagan soqolini silab, o'yga toldi.

U Majididdinni o'zining eng ishonchli odamlaridan hisoblar, uning idora ishlarida qobiliyatiga ishonardi ham. Xadichabegim ham ko'pdan buyon har munosabat bilan uni maqtar edi. Majididdin ko'p yillardan beri oliy mavqeiga intilganini, bir ko'p beklar ham a'yonlar uning tarafida ekanini yaxshi fahmlardi. Lekin parvonachi har vaqt Navoiyning siyosat, tadbirlariga ochiq va yashirin norozilik bayon qilishda davom etgani uchun davlatni boshqarishda uning ishtirokiga, mavqeiga chegara qo'yishga majbur bo'lgan edi. Endi ahvol boshqa. Navoiyga bo'lgan eski e'timod ko'pdan beri shubha va gumon bilan to'la. Navoiy uni jabr-zulmda ayblaydi. Uning mamlakatdagi tadbir va siyosatini yoqtirmaydi. Mamlakatning «gullari» bo'lgan oqsuyaklar, davlatmandlar bilan emas, qora xalq bilan hamnafas bo'lishga undaydi. Uning xato, nuqsonlarini barala fosh etadi. Shuning



uchun u Navoiyning dilida bir nima bor, degan fikrga kelgan edi.

Ayniqsa, osonlik bilan ikki ming tuman oqcha topishga qat'iy va'da bergan parvonachining siymosi uning nazarida ulg'aydi. Lekin parvonachini hokimiyat tepasiga keltirish qaroriga Navoiy, albatta, qarshilik ko'rsatadi. Nima qilish kerak? Husayn Boyqaro horg'in ko'zlarini yumib o'yladi. Ko'pdan buyon uning qulog'ini tinchitmagan bir ko'p a'yonlarning, yuksak mansabdorlarning, hatto barlos beklardan ba'zilarining talablarini qondirishga jazm etdi.

— Majididdin Muhammad, — murojaat etdi u parvonachiga, — siz saltanatda eng oliy poyani ishg'ol etursiz. Ulug' vazifangiz uchun zarur choralarni shu ondan boshlab ko'rmoqqa bel bog'langiz.

Majididdin parvonachi qayta-qayta qulluq qilib, podshohning haqiga duo o'qidi.

Ertasi Husayn Boyqaro Navoiyni yo'qlatib, yolg'iz qabul qildi.

— Janoblarini qoshimga chaqirishdan maqsad, — dedi Husayn Boyqaro sovuq va rasmiy tur bilan, — xotiringa kelgan bir mulohazani bildirmoq edi. — Bir zum sukutdan so'ng davom etdi u. — Janoblarini yangi bir vazifaga tayinlamoq fikriga keldim. Bu vazifani mumkin qadar tez va ham sidqidil bilan qabul qilmoqlariga ishonurmen.

— Ne vazifa ekan? — so'radi Navoiy noxush xabardan gumonsiragan bir turda.

— Biz sizni Astrobodga hokim qildik. Safarga tayyorlanmoqlari kerak!

Qat'iyat bilan aytilgan va aslo kutilmagan bu xabar Navoiyga juda g'alati ta'sir qildi. Ko'zlariga qayg'u cho'kdi. Qoshlarining o'rtasidagi tugunchak qavardi. Podshohning bunday favqulodda qarorga kelishiga nima majbur qilganini o'yladi.

— Bu qaroringizning asli ma'nosidan kaminani ogohlantiringiz. Men buning idrokidan ojizmen... — podshohga, go'yo uning butun sirini uqib olmoqchiday, diqqat bilan tikildi Navoiy.

Husayn Boyqaro dastavval taraddudlanib, el-ulusning manfaatini nazarda tutganini soʻzladi. Nihoyat, shoirni bu bilan qanoatlantirish mumkin boʻlganidan, qandaydir oʻzga maqsadlari borligi haqida juda tumanli, pardavor qilib mingʻilladi.

— Dilni ochmoq kerak edi,— dedi Navoiy istehzoli, titrak tabassum bilan. — Ammo menga maqsadingiz, fonus ichidagi oʻt kabi, ravshan koʻrinadi. Siz meni poytaxtdan yiroqlatib, xato qilmasam, baʼzi zotlarga yoʻl ochmoq tilaysiz. Bilmadim, bu tadbir qanchalik toʻgʻridir... Agar davlatga xayrli natija bersa, barchadan burun kamina quvonur. Qoʻrqamenki, noxush oqibatlariga eltmasa, deb...

Husayn Boyqaroning yuzi bir zum asabiy titrab ketdi. U oʻngʻaysizlandi. Chunki uning sirli parda ostida silliqqina amalga oshirmoqchi boʻlgan tadbiri, sovun koʻpigidek, bir zumdayoq yorilib ketdi. Husayn Boyqaro baʼzi davlat arboblarning allaqanday xohishlari ham xazinani toʻldirmoq uchun qandaydir oʻzga choralar koʻrish kerakligi haqida ishorat qildi.

— Baland himmatli, bahodir beklaringiz boʻlgani kabi, davlat daraxtining gullarini balo quyunidek sovurmoqchi boʻlgan maxluqlar ham yoʻq emas. Ularning har biri shaharlarga, viloyatlarga koʻz tikur, dillari elga, davlatga sadoqat, muhabbat bilan emas, oltin-kumush dardi bilan ogʻrigan. Kiyimlari, idish-tovoqlari oltin-kumush boʻlishiga qanoat qilmaydilar; etiklarining nagʻali ham oltindan boʻlsa!.. Xazina davlat uchun, badandagi qon kabi, zarurdir. Ammo, bir yoqdan, toʻplamoq, ikkinchi yoqdan, sovurmoq bilan xazina tuzib boʻlmas. Hotamtoylikni bilib qilmoq lozim. Yomgʻurni qurib qaqshagan boqqa emas, eltib toqqa quygan bulutni saxiy, deyilmas. Dastavval xazinani el manfaati uchun toʻkmak kerak. Ziroatni, hunar va sanʼatlarni rivojlantirmoq, tijoratga eʼtibor bermoq kerak. U vaqt, masalan, halol mehnat qilgan dehqonning ombori hosilga toʻlgani kabi, xazinangiz ham zarga toʻlur. Oʻzga choralar bilan xazina boyitmoq oqilona harakat emasligi har kim uchun ravshan.

Husayn Boyqaro sokin, lekin beparvo tingladi. Keyin, beli og'riganday, ikki qo'li bilan kamar ustidan belini qisib, asta o'rnidan turdi. Navoiy ham qo'z-g'aldi.

— Men sizni Astrobodga yubormoqni munosib ko'rdim,— dedi podshoh ovozini balandroq qo'yib. — Har qanday bahona topsangiz ham, qarorimdan voz kechmasmen.

— Meni Hirotdan quvmangiz, yolg'iz qalam va daftarlarim bilan yashamoqqa ijozat beringiz. Hech qanday rasmiy vazifaga xohishim yo'qligini hazratlariga ko'p daf'a arz etgan edim. Shoyad unutmagan bo'lsalar...

— Hargiz iloji yo'q! — boshini chayqab dedi Husayn Boyqaro.

— Xo'b, men har qanday jabr tog'ini ko'tarmoqqa hozirmen, — dedi Navoiy keskin va dadil, — lekin ichi qora zotlar yaxshi bilsinlarki, men qayerda bo'lmayin, haqiqatni qo'riqlarmen.

Husayn Boyqaro bir muddat jim qoldi. So'ng, sovuqqina xayrlashib, yondosh xonaga o'tib ketdi. Navoiy hayajonlanib, dahlizga chiqdi. Sobiq navkari, bukungi eshik og'a Boboali uni qarshiladi.

— Taqsir, qanday falokatlar ro'y bermoqda? — shivirlab dedi u g'amgin, umidsiz bir holda. — Nahotki Majididdin parvonachidek makkor odam mamlakatda hokimiyat jilovini qo'lga olsa va podshohdan so'ng hammamiz unga bo'yin egsak!

Navoiy qomatdor Boboalining keng yelkasiga qo'lini qo'ydi-da, mehribonchilik bilan unga tasalli berdi, maqsad yo'lidan toymaslikni uqtirdi. Qirq ustunli ochiq zalga — ayvonga o'tdi. Bu yerda aksari uning ochiq va yashirin dushmanlaridan iborat bir guruh mansabdorlar turardilar. Bir ko'plarining ko'zlarida yangi yuqori poyalarga ko'tarilish umidi ochiq jilvalanardi. Navoiy, har vaqtdagi kabi, sokin va dadil boqdi. Haqiqatga ishonchdan tug'ilgan kuch uning siymosiga asl va ma'nodor bir tetiklik bag'ishlagandi. Dushmanlar allanechuk o'ng'aysizlanib, soxta

tavoze ko'rsatishga tirishdilar. Shoir ichdan nafratlan-  
di. Mana, xonalarning biridan parvonachi lop etib  
chiqib qoldi. U katta sallali boshini kibr bilan orqaga  
tashlagan, o'shshaygan edi. Navoiyni ko'rgan hamon  
o'ng'aysizlanib, shuursiz ravishda vaziyatini o'zgartdi.  
Lekin istehzoli tabassum bilan uning yoniga keldi-da,  
o'zining g'aflatga solib, dedi:

— Xoqonning huzurlarida muhim kengash bor,  
ishtirok etmaydilar mi?

— Yo'q, — javob berdi Navoiy.

— Zoti oliylarining kayflari qalay?

— Ko'nglim hamisha kayfchog'liqqa moyil...  
Ammo xursandligim hozir avjiga chiqdi.

— Sabab? — Majididdin bo'shshagan ovoz bilan  
so'radi va yalt etib, do'stlariga qarab qo'ydi.

Navoiy unga kulimsirab, qoshlarini kinoyali  
chimirib qaradi. Uning xotiriga bir shoirning bayti  
keldi:

*Gar turo dar bihisht jo boshad,  
Digaron do'zax ixtiyor kunand'*

Lekin Navoiy ichida o'ylaganini boshqacharoq  
qilib aytdi:

— Xursandligim shu vajhdanki, bu yerda ba'zi  
nobop zotlarning basharalarini ko'rmak qayg'usidan  
tangrim meni tez kunda qutqarur!

Majididdinning rangi oqardi, u besaranjom, o'jiz  
dovdiragan ko'zlarini qayoqqa yashirishni bilmay  
qoldi. Uning do'stlari ham «churq» etmay, orqaga  
chekinishdi. Navoiy vazminlik bilan zinapoyaga qa-  
dam tashladi.

Shoir uyga kelgach, uni bir to'da miroblar, ish-  
boshilar, mulozimlar qurshab oldilar. Ular Chashmai  
Mohiyon bilan Mashhad o'rtasidagi taqir yerlarga suv  
chiqarish uchun belgilangan kishilar edi. Navoiy o'z  
mablag'lari bilan bu ishni bajarishga bel bog'lab, bu

---

<sup>1</sup> M a' n o s i: Sen jannatga tushadigan bo'lsang, boshqalar do'zaxni afzal  
ko'radilar.

kun ularni kengashga chaqirgan edi. Aksari sodda xalq odamlaridan bo'lgan suv mutaxassislari o'z fikrlarini aytishga oshiqdilar. Navoiy noqulay vaziyatda qoldi. Bu katta ishni amalga oshirish uchun o'zi ko'z bo'lib turishi zarur edi. Holbuki, u erta-indin Astrobodga haydalihi kerak! Kelajakda taqdir yana qanday kutilmagan jilvalar ko'rsatadi — butunlay noma'lum... Har nima bo'lmasin, kengashni o'tkazishga qaror qildi. Ammo ishni bir oz keyinroq boshlamoqqa majbur bo'lganini aytdi-da, suvchilarni xonalardan biriga olib kirib, dasturxon tortdi; ovqat ustida ular bilan suhbatlashdi. Miroblar g'oyat qiziqib, fikr bayon qila boshladilar. Bir-birlari bilan bahslashdilar. Ariqning eni, chuqurligi, zaminning tuzilishiga muvofiq o'zgarishi, chetlarini mustahkamlash haqida va qancha odam, qancha asbob-uskuna, ot-ulov va hokazo haqida qizg'in muzokara bo'ldi. Ilgari ham suv ishi bilan qiziqib, bu sohada ancha ma'lumot orttirgan shoir har bir fikrni, har bir taklifni diqqat bilan tingladi. O'rtada talashuvga sabab bo'lgan ba'zi masalalarda u o'z fikrini so'zlab, miroblarni taajjublantirdi. Nihoyat, kengash oxirida dedi:

— Aziz birodarlar, maslahatlaringiz uchun g'oyat minnatdormen. Yurtning obodonligi uchun zarur bo'lgan bu kori xayrni, albatta, amalga oshirurmiz. Lekin hozircha andak orqaga surishga majbur bo'lib qoldik. Ne qilaylik, ba'zan yaxshi orzularimizning yo'lida to'g'onlar uchrar.

— Janoblari bizni qistagan edilar-ku, — shoirga murojaat etdi soddadil bir mirob.

— To'g'ri, bu ishga havasimiz baland edi, — javob berdi Navoiy kulishga tirishib, — lekin, kutilmaganda, boshimizga bir tashvish tushdi. Bundan qutulsak, keyin...

— Ezgulikning kechi yo'q, degan gap bor, — dedi yirik gavdali ulug'sifat bir keksa mirob. — Alisher janoblarining aziz boshlari omon bo'lsa, elimizga daryo-daryo muhabbatlari oqur.

— Chin so'z! Chin so'z! — dedi ko'p kishilar.

Navoiy kengashga qatnashuvchilarning ba'zilariga to'n kiydirdi, qolganlariga pul hadya qildi. Hamma xursand bo'lib jo'nadi. Lekin katta orzu amalga oshmagani uchun Navoiy qattiq qayg'urdi. Uzoq vaqt uydan chiqmasdan, biron ishga qo'li bormay, tanho, dilgir o'tirdi. Kechga yaqin Xo'ja Afzal keldi. U g'amgin, sarosima, parishon edi. Husayn Boyqaroning farmoni bilan Majididdin bosh vazir tayin etilib, unga mu'tamad ul-saltanat va mu'imtan ul-mamlakat<sup>1</sup> degan katta unvon berilganini bildirdi. Navoiy o'z do'stiga taskin berib, hodisani oxiriga qadar tetiklik bilan kuzatishga undadi.

Oqshomdan so'ng shoirning do'stlari, yaqinlari kelishdi. Hammaning ko'ngli g'ash, xotiri parishon edi, hamma podshohning qarorini ma'nosiz topib, yurtning samosiga qora bulutlar yopirilishini oldindan sezar, bezovta bo'lardi. Ko'plar gap orasida podshohni kinoyali so'zlar pardasi ostida qattiq haqorat qilar. Majididdinni masxaralardi.

Navoiy xafaligini, tashvishini, ichki kechinmalarini bildirmaslikka tirishsa ham, odamlar uning siymosidan, ko'zlaridan, harakatlaridan dard va o'ksinish tuyardi. Qizg'in talashuvsiz, hazil-mutoibasiz, kulgisiz suhbatdan keyin do'stlar tarqalmoq uchun qo'zg'aldi. Navoiy bilan xayrlasharkan, hammaning ko'zi jiq-jiq yoshga to'lgan, bo'yni bukik edi.

## ***Yigirma ikkinchi bob***

Vaqt xuftondan oshgan. Chog'irdan, qimordan ko'zlar yonar edi. Shamda cho'g'day yarqiragan uyum-uyum oltinni o'yin bo'roni jaranglatib, davra ichida surib yurardi. Amir Mo'g'ulning baxti endi yeng shimargan edi.

Astrobodda bu hokimdan yolg'iz qimorbozlar xursand edilar. Ular deyarli har oqshom Amir Mo'g'ulning huzuriga xalta-xalta oltin va kumush bilan

---

<sup>1</sup> Podshohlik va mamlakatning ishonchli odami — tayanchi.

kelib, qimorning olovida ruhlarini po‘latday toblab, tong chog‘ida, mudroq bosgan ko‘zlarini qisib uylariga tarqalardilar. Amir Mo‘g‘ul o‘zga ishlarda qalloblik, zo‘ravonlik, chatoqlikni afzal ko‘rsa-da, biroq qimorda taomil va qoidani, farz kabi hurmat qilar, yutqizmagan zamonlarida hatto mardlik ham ko‘rsatib qo‘yar edi. Uning baxti endigina yeng shimarib oltin xirmonini yig‘arkan, orqadan kichik mulozim chaqirdi. Amir Mo‘g‘ul jahl bilan qayirilib, o‘qraydi: «Yo‘qol, dardi harina!» Mulozim eshik orqasidan qichqirdi: «Hirot dan chopar!» Astrobod hokimi pinjiga tiqilib, qo‘li qichib o‘tirgan bir yordamchisiga o‘z galini berib, eshikka chiqdi. Charchab hansiragan chopar maktubni topshirdi. Amir Mo‘g‘ul boshqa bir xonaga kirdi, maktubni shamga yaqin tutib, mast ko‘zlarini sabrsizlik bilan yugurtirarkan, yuziga birdan sevinch yugurdi. Ayniqsa, xatning oxirida Majiddiddinning muhrida yozilgan unvonga zavqlandi. Qog‘ozni taxlab, kissasiga tiqdida, o‘zicha shivirlab qo‘ydi: «Soz ish bo‘libdi. Majiddiddin — noib ussulton!»<sup>1</sup> Xatda Majiddiddin ro‘y bergan voqealarni yozib, uni podshoh qoshiga yetib kelishga taklif qilgan edi. Hammadan Alisher Navoyning majburan Astrobodga, uning o‘rniga yuborilganligini aqlga sig‘dirolmadi: «Xurosonning yulduzi deyilgan Navoiy bu pastkash, dilgir shaharda qon yutsin! Ne bo‘lmasin a‘lo ish bo‘libdi. Hirot bizniki, davlat bizniki!»

Amir Mo‘g‘ul qimorbozlar yoniga chiqdi. Maktubning mazmunini o‘ylab, ro‘y bergan hodisalarning ma‘nosi haqida turli xayollarga berilib, ancha vaqt-gacha o‘yinga aralashmay o‘tirdi. Faqat uning qo‘lini o‘ynagan bangi qimorboz tirriqlik qilib, sharmanda bo‘lgach, uni turtib chiqarib, o‘yinga sho‘ng‘idi.

Ertasi, kuchli bosh og‘rig‘iga qaramay, Amir Mo‘g‘ul ko‘chish harakatiga tushdi. Orttirgan mol-mulkini tuyalarga yuklab, Hirotga jo‘natdi. Bir-ikki kundan so‘ng xotin, bola-chaqasini olib, Alisherni kutmasdan, o‘zi ham podshoh qoshiga jo‘nab qoldi.

<sup>1</sup> Podshohning yordamchisi.

Navoiyning kelish xabari astrobodliklarning yuragida cheksiz quvonch uyg'otdi. Hamma bu xabarni bir-biriga yetkazish bilan faxrlanadi. Bozorlarda, oilalarda, hunarmandlarning do'konlarida hamma hayajon bilan bu xabarni muzokara qiladi «Bachchataloq mast tuyadan qutuldik, inshoollo!» deb chollar xudoga shukur etadi. Shaharning shoirlari Navoiyga taqdim etmoq uchun qasidalar, madhiyalar yozishga kirishib, qofiya dag'dag'asi bilan og'riydilar. Biroq ayrim o'ychan odamlar fikrlarini siyosatning changalzoriga haydab: «Alisher Navoiyning shahrimizga kelishi bejiz emas. Buning bir siri, bir hikmati bor!» degan xulosa chiqaradilar.

Mana, to'rt ko'z bilan kutilgan kun... Xalq Astrobodning uzoq-yaqin, katta-kichik yo'llaridan, jin ko'chalaridan oqib, zo'r to'lqinga quyiladiki, bu to'lqinning bir uchi shahar darvozasidan oshib, dalaga yoyilgan...

Uzoqdan otliqlarning — Alisher va uning hamrohlarining qorasi ko'rinishi bilan xalq katta his va hayajonning sehri ostida, dastlab bir muddat jim qotdi. Shaharning mansabdorlari, olim va shoirlari ilgari yurib, hamrohlari bilan kelayotgan Navoiyga qulluq qilishdi va shaharga kelishi bilan tabriklashdi.

Navoiyni borgan sari xalq to'lqini chuqurroq o'rab oldi. Chuvvos tabriklar, duolar... Bolalar otlarning oyoqlari ostida g'ivillashadi, tomlardan, daraxtlardan qichqirishadi. Hofizlar Navoiy g'azallarini kuylashadi. Ayollar tilab olgan o'g'ilchalarini baland ko'tarib: «Ilohim, Navoiydek ulug' bo'lgil!» deb o'pib, bag'rilariga bosadilar. Shodlikdan, hayajondan ko'zlari beixtiyor yoshlanadi.

Navoiy tabassumli ko'zlari bilan atrofga boqib, bir qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda boshini kamtar, yengil qimirlatish bilan xalqning tabrigiga samimiy javob berib bordi va oldindan hozirlangan manzilga kelib tushdi. Bu yerda shaharning mashhur kishilarini — olimlarni, xalq vakillarini qabul etdi.



Ikkinchi kundan boshlab Navoiy rasmiy vazifasini bajarishga kirishdi. Viloyatning hamma mahkamalari va ularni boshqaruvchilar bilan tanishdi. Ba'zi eski xirfa amaldorlarning kirdikorlarini o'rgandi. Ular xaspo'shlar uchun qancha urinmasinlar, biroq ko'z bog'lama chilikni Navoiy oldida o'tkaza olishdan o'jiz qoldilar. Bu viloyatning na vaqfida, na madrasasida, na solig'ida, na qozixonasida Navoiy ma'qul bir jihatni ko'rdi. Ilk tanishish bilan chuqur taassuflandi: «Borakallo, bu yerdagi ishlardan aql hurkadi!».

Yurtni boshqarishda avvalgi qunt va g'ayrat bilan ishga yopishdi. Hirotida qo'llagan tartib va qoidalarni amalga oshira boshladi.

Uning ishlari xalqni quvontirdi. Ajoyib hokim haqida xalq qo'shiqlar to'qidi. Har kishi uning qoshiga kelib, arz-dodini mehribon homiysiga aytgan kabi, unga so'zladi. Navoiy bo'sh vaqtlarida bu yerning olimlari, shoirlari va boshqa san'at ahli bilan suhbat qildi. Ularni o'z sohalarida kamolga yetishga undadi.

Poytaxtdan do'stlari, yaqinlari maktublar yubora boshladilar. Maktublarning har so'zi ayriliq dardi, shoirga bo'lgan chuqur muhabbat yolqini bilan yonardi. Pahlavon Muhammad Saidning misralarida Pahlavonning qudratli qalbi o'ksizlanib ingrardi:

*O Mir, tu piri mo ba irshodi tuyyom,  
Doim ba duogo'iyu bo yodi tuyyom.  
In shahr ba tu xushastu mo botu xushem,  
Mardumi xarobi Astrobodi tuyyom<sup>1</sup>.*

Xurosonning eng uzoq burchaklaridan salom va tabriklar yog'ildi. Bu — podshohga va uni qurshagan fitnachilarga toza yuraklarning, aqllarning javobi edi.

---

<sup>1</sup> M a ' n o s i: Ey Mir, sen primizsen, biz sening irshoding bilan harakat qilmoqdamiz.

Doimo ishimiz seni yodlash va seni duo qilishdan iboratdir.

Bu shahar sen bilan xush ko'rinadi, biz esa sen bilan ko'nglimizni xush etamiz. Biz o'lganimiz holda sening Astrobodning xarobi bo'lurmiz.

Navoiy shiringina, zavq bilan yasogʻliq uyda tanho ishlar edi. Uning tevaragida gilam ustida juz-juz qogʻozlar, toza charmdan yasalib, chiroyli oʻyma gullar ishlangan juzdon, uyum-uyum daftarlar qalashib yotardi. Baʼzilarini chang qoplagan, baʼzilarining chetlari titilgan, dogʻ-dugʻ tushgan... Bu uning gʻazallari edi. Gʻazallarning bir qismi ayrim, kichkina devonlarga toʻplanib, keng tarqalgan boʻlsa ham, hammasi bir kitobda, maʼlum tartibda terilmagan edi. Astrobodda Navoiy, koʻpdan buyon xayolini band etib, lekin tinch vaqt topolmaganidan orqaga tashlab kelayotgani orzuga — katta devon tuzishga kirishdi.

U gʻazallarni umrining poyalariga qarab — bolalik, yigitlik, oʻrta yoshlik, nihoyat, qarilik kabi toʻrt faslga boʻlishni maʼqul koʻrdi va qogʻozlarni bir-bir koʻzdan kechirib, ayira boshladi. Gʻazallar behad koʻp, ular dan butun yashalgan umrning qaytmas nafasi gurulaydi. Hammasining bir tarixi bor, maskani bor. Mana, Mashhadda tashlandiq hujrada xasta-gʻarib yasharkan, oʻn olti, oʻn yetti yoshlarida yozgan gʻazallar... Mana bu Samarqandga kelgan kunlarda. Xoʻja Fazullo Abdullaysning xonaqosidagi hujrada aytgan misralar. Mana, koʻngilning toza, sirli hayajonlari bilan koʻksi toʻlib, maktabdan qaytish bilan bir burchakka tanho tiqilib aytgan ilk gʻazallar. Bularni mehribon onasiga oʻqib bergandi, u qanday suyungan, bagʻriga bosib, qanday oʻpgan edi; Bu boʻsaning mehrini shoir goʻyo oʻz yuzida shu damda tuyganday boʻldi.

Otasi Gʻiyosiddin Kichkina bu oʻychan, xayolchan oʻgʻilchani ilk mashqlarini oʻqib, hayajon bilan uni quchoqlamaganmidi? Sovgʻalar keltirmaganmidi? Bu gʻazallar yillarning qaʼridan jonli iliq xayollarni, xotiralarni uygʻotdi. Navoiyning koʻz oldidan oʻzining bolaligi oʻtdi. U kichkina Alisherni koʻrdi. Ancha vaqt xayollar, xotiralar sehdida qoldi. Yuragida hasrat qaynab ketdi. Bu — umr tongini sogʻinish edi, chaqaloq onasining qoʻlida turib, toʻlin oyga qoʻl uzatgani kabi, behuda, lekin maʼnodor hasrat edi...

Shoir boshqa bir daftarni ko'zdan kechirdi. Mana bu bayt uning butun borlig'ini egallab oldi:

*Orazin yopg'och ko'zimdin sochilur har lahza yosh,  
Bo'yla kim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.*

O'qirkan, shoir o'z umrida eng hayajonli, baxtli onlarini butun nash'asi bilan qayta boshdan his etdi. Butun umrida chuqur hurmat va sevgi bilan yodlaydigan ulug' shoirning go'zal, ulug'vor siymosini ravshan tasavvur qildi. Bu — marhum mavlono Lutfiy edi. Navoiy shu topda xotiralar girdobiga botdi. U hozir bola Alisherga aylandi. Mana u ko'pdan buyon qilgan kuchli orzuning kutilmagan vaqtda bir qistovi bilan o'rnidan turdida, ko'chaga otildi. Hirot har kungi dardi, nash'asi, mashaqqati bilan yashaydi... O'z tengi bolalar ko'chalarda, tomlarda gala-gala o'ynab yurishadi; kimi yong'oq o'ynaydi, kimi yoydan o'q uzadi. Alisher — bola esa, shaharning Bog'ishamol tarafiga ildam yurib, serhasham bir eshik oldida to'xtaydi. Bir nafas ikkilanib, har on sayin tobora kuchaygan to'lqinlanish, uyalish bilan ichkari kiradi. Katta, daraxtzor hovlida hassaga suyalib, asta-asta yurgan mo'ysafidga — zamonning ulug' shoiri mavlono Lutfiyga ko'zi tushishi bilan uzoqdan salom beradi va yugurib, o'zini bir onda cholning yonida ko'radi va unga bolalik ko'zlarining toza samimiyati bilan tikiladi. Keksa shoir o'siq qoshlarining ostidan hali ham mayin xayolchanlikni ifodalagan ko'zlari bilan bolaga qarab, kimligini so'raydi. Alisher o'zini tanitadi va muddaosi-ni uyalibgina bayon qiladi.

— Barakallo, G'iyosiddin Kichkinaning o'g'li! — deydi kulib mavlono Lutfiy. — Biz faqirni ko'rgali, mamnun qilgali kelibsen. Munda yur, sen kabi aqlli va boadab o'g'lonning suhbatini bilan dilimni ochay, ash'oringni ham mutolaa qilay.

Alisher Lutfiy orqasidan mehmonxonaga kiradi. Bir ko'p tokchalarga kitoblar qalashgan. Qolganlarida har xil mis, chinni asboblari terilgan. Lutfiy hassani dahlizda qoldirib, qalin ko'rpachaga o'tiradi. Alisher

tavoze bilan quyiga o'tiradi. Lutfiy bir necha g'azal-  
larini past tovush, mayin ohang bilan yoddan o'qidi.

— Bularni hali eshitmagandirsən? — kuldi chol.

— Ash'oringizning aksarini yod bilurmen, ammo  
bularni eshitmabdurmen.

— To'g'ri. Men bularni yaqinda qalamga olmish-  
men. Xo'p, endi sen o'qi, men tinglaymen.

Alisher iymanadi. Asli muddaosi o'z she'rlarini  
cholning muhokamasiga havola qilish bo'lsa ham, shu  
topda, nechundir, buni orqaga surgusi keladi. Lutfiy  
yana qistaydi:

— Hirotda shunday shoirlar borki, ular ko'cha va  
bozorlarda o'tkunchilarni to'xtatib, o'z g'azallarini  
o'qib beradilar... — qih-qih kulib gapiradi Lutfiy.

Alisher titrak ovoz bilan, Lutfiyga qaramay, birin-  
ketin o'qiy boshlaydi. Har g'azaldan so'ng, Lutfiyning  
ma'qullagan xitoblarini eshitib, ko'zlari sevinch bilan  
jovdirab ketadi. Yuzi qizarib, terlaganini sezadi. Ni-  
hoyat, Lutfiy birdan: «Ofarin, o'g'il!» deb nido qiladi,  
qo'lini cho'zib, uning boshini silaydi-da, zavq bilan  
boshini tebratib, Alisherning baytini sekin-sekin tak-  
rorlaydi:

*Orazin yopg'och ko'zimdin sochilur har lahza yosh,  
Bo'yla kim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.*

Alisher, kamtarlik qilib, she'ning qusurini ko'rsa-  
tishni so'raydi. Lutfiy, xuddi o'z tengi va ehtiromga  
sazovor bir zotga e'tiqodini uqtirgan kabi, jo'shib  
gapiradi: «Qasam tangrigakim, agar imkon bo'lsa edi,  
men o'zimning forsiy va turkiyda aytgan o'n ikki ming  
baytimni shu g'azalga olmaslar edim ham ayni za-  
monda o'zimni ulug' maqsadga erishgan, deb hisoblar  
edim!»

Bu favqulodda yuqori maqtovdan Navoiy xijolat  
tortadi. «Mubolag'a etdingiz», deb qo'shilmaganini  
bildiradi. Keyin turkiy va forsiy tillarning xususiyat-  
lari, turkiyda bo'lgan go'zal she'r namunalari haqida  
so'zlashadilar. Uzoq suhbatdan keyin Lutfiy yosh  
shoirni duo qilib, endi u bilan oshna bo'lganini, har

vaqt uni ko‘rmakka orzumand bo‘lajagini uqtirib, uzatib qoladi.

Navoiy bolalik davrining bu go‘zal, quvonchli xotirasiga ancha vaqt berilib, marhum ustod bilan qayta so‘zlashganday, bir muddat g‘amgin o‘tirdi. Keyin yana boshqa qog‘ozlarni qo‘lga oldi. G‘azallar sonsiz-sanoqsiz. Har biri uning umrining o‘tmish sahifalarini butun iliqligi, jonliligi bilan gavdalandiradi. Chang bosgan, xiralangan misralardan hayotining yorqin durlari yulduzlanadi.

Eshik ochildi. Shoir boshini ko‘tarmasdan, ko‘z uchini tashladi.

— Marhamat, Sabuhiy!

— Janoblari mashg‘ul ekanlar, ko‘ngillariga malol kelmasa... — ikkilanib dedi Haydar.

— O‘tiring. Bu ishlarni suhbat paytida ham qilmoq mumkin, — dedi Navoiy va Haydarning avzoyiga tikilib, noxushlik bilan davom etdi. — Astrobodning sharobxonalarini biror kun tark etdingizmi? Filhaqiqat, nodir yigitsiz: ham shoir, ham askar, ham sharobxo‘r. Hayotda muqarrarlik lozim. Bu — yolg‘iz sa‘iy-g‘ayrat bilan muyassar bo‘lur. Umr gulini behuda yelga bermoqdan ne foyda? Xayr, biz ko‘p so‘zladik, hanuz tinglamadingiz. So‘z gavharini yelga sovurganimizdan biz ham pushaymonmiz.

Bekzodalardek yaxshi, lekin diqqatsiz kiyingan, parishonhol Haydar, o‘z odatiga muvofiq, valine‘matining so‘zlarini e‘tirozsiz tingladi, asl turkman gilamiga chordana qurib, mast ko‘zlarini qog‘ozlar ustida yugurtirarkan, ochiq ko‘ngllilik bilan gapirdi:

— Yurakdagi anduhni may bilan yuvmoq kerak. Bu yerlarning hasratiga sharobxonalarining suroni davodir. Rub‘i maskunning yagona go‘zal va obod shahri Hirot dan quvilgandan so‘ng, tundan kunduzga, kunduzdan tunga sharob bilan kirish qoldi, xolos.

— Hirotga jo‘namoqligingiz uchun katta monelik bo‘lmasa kerak, — kuldi Navoiy bir zungina yigitga nazar tashlab.

— Siz bo‘lmasangiz, jannat ham zeriktiradi. Do‘stlardan paydar-pay maktub olmoqdamen. Hammaning so‘zi shu: «Yetim Hirotda g‘arib yashaymiz!» Shunga chidamaymenki,— dedi Haydar ovozi bilan balandlatib,— Iskandar Zulqarnaynning zamonidan boshlab hech kim siz qadar bezamagan bu shahri azim bukun do‘stlarimiz uchun do‘zaxga, bir guruh makkor xoinlar uchun jannatga aylandi!

— Haq har vaqt o‘z yerida qaror topur,— dedi Navoiy ishdan qo‘l uzmasdan.— Modomiki, taqdir quyunini bizni bu yerlarga keltirib tashlabdi, bas, sabr-bar-dosh lozim. Vatanning nobod viloyatini, mohir bog‘bon kabi, mehnat va hafsala bilan gullatmog‘imiz kerak. Yurt g‘amiga beparvolikdan hazar qiling, yigit!

Haydar bir necha vaqt mast ko‘zlarini suzib, xayolga berildi, keyin Navoiyning ruxsati bilan qog‘ozlarni tita boshladi. G‘azallarning aksari unga tanish, ko‘plarini u qalamdan to‘kilgan kunniyoq ko‘chirgan yoki mashhur xattotlar ko‘chirib, ayrim, kichik devonlar tuzarkan, o‘qigan. Lekin hozir parishon varaqlardagi ko‘chirilmagan eski g‘azallar, eski sharob kabi, uning ruhini kuchli mast qila boshladi. Goh ichida o‘qidi, goh shavqqa to‘lib, shoirning diqqatini chalg‘itish andishasini ham unutilib, qichqirib o‘qidi.

— Janob Mir, — dedi Haydar, keyingi g‘azallardan birini o‘qib, — men hayronmen, nainki bu qarilik mevasi bo‘lib, «Favoid ul-kibar»<sup>1</sup>ga kirs!

— Ne bo‘libdi?

— Axir bu g‘azalda tomirlarida yosh qon qaynagan, qilichday, yigitning hissi, shavqi, nash‘asi yang-raydi! Yana o‘zingiz, adashmasam, endi qirq yettiga kirdingiz.

Navoiy kuldi, boshini allaqanday dard bilan qimir-latib, dedi:

— O‘g‘lim, umr quyoshi og‘di, sur‘ati tom<sup>2</sup> bilan oqshom ko‘muriga yugurmoqda... So‘ngra, umrni

---

<sup>1</sup> «Qarilikdagi foydali fikrlar» Navoiy g‘azallar kitobining to‘rtinchi qismini shunday nomlagan va qarilikda yozgan she‘rlarini bu qismga kiritgan.

<sup>2</sup> Ildamlilik bilan.

to'rt faslga bo'lib, yozilmish narsalarni shunga muvofiq tartiblashni hazrat Jomiy ham g'oyat maqbul ko'rgan edilar.

— Kamina bu xususda o'z fikrida qoladi. Qari emassiz, baxtimizga aslo qarimang.

Navoiy umrining ko'zga tashlanadigan ayrim davrlari haqidagina emas, hatto yillari haqida ham ajoyib fikrlar so'zlar edi. Ayniqsa, yigitlik va qarilik haqida so'zlashni sevar, umrning bahori va kuzi to'g'risidagi hikoyalari shunday jonli, yorqin, nodir fikrlar, ko'rishlar, suratlar bilan to'la bo'lur ediki, tinglovchilar «keti uzilmasa ekan», deb hayajonlanib quloq solardilar. Bu gal Navoiy «Xamsa»dan bir baytni o'qish bilan chegaralandi:

*Soqol oqi o'lumg'a peshrovdur.  
Tiriklik sabzasi uzra qirovdur.*

Keyin: «Ma'qulmi, yana qanday e'tiroz qilasiz?» degandek, Haydarga qarab qo'ydi. Haydar shoirning oqi anchagina ko'paygan soqoliga qarab, sukut qildi. Navoiy yana bir oz ishlab, orqasiga o'girilib, daricha orqali hovliga boqdi, vaqtni tayinlagach, dasta-dasta qog'ozlarni tartib bilan bir chekkaga olib qo'ydi-da, tizzalarini uqaladi. Keyin Haydarga murojaat qilib: «So'zlang, ne xabarlar bor?» dedi. Haydar: «Bu yerlarda tilga olishga loyiq nima bo'lar edi?» deganday, qo'llarini silkdi-da, shaharda eshitgan yoki ko'rgan ba'zi voqealarni parishonlik bilan aytib bera boshladi. So'z orasida u bir vaqtlar o'lib ketgan qandaydir astrobodlik nomsiz bir shoir haqida ba'zi gaplarni aytdi. Navoiy, odaticha, qiziqib: «Xo'sh, qani, batafsil gapiring», deb Haydar tomonga engashdi. Haydar yana vaziyatini o'zgartmasdan: «Xiylagina g'azali va muammosi bor ekan. Muammoda qobiliya»ti yaxshi edi, deydilar, ammo shoir faqirlikdan va azbaroyi kamtarinlikdan, tirikligida asarlarini yig'ishtirmabdi. Ni maiki, yaratgan bo'lsa, hammasi parokanda, har kimning qo'lida qolib ketibdi», dedi.

— O'g'lim, bu yurtida ne-ne iste'dodlar, quyosh

tegmagan novda kabi, kamol topmasdan so'lib, sarg'aygan! — g'azab aralash, qaltiroq lablari bilan gapirdi Navoiy. — Madrasalarning har bir hujrasida, har bir baq'ada o'z umrini ilmga, she'rga fido qilgan ajoyib mard, pokiza insonlarni topish mumkin. O'g'lim, siz bizga bir xizmat qiling. So'ngan yulduzlardan birini tarix uchun tirgizing. Haligi marhum shoirning hayotini o'rganing, uning qalam mahsulini, qayda va kimda bo'lmasin, yig'ishtiring va iste'dodli, nomusli bir kotibga berib, bir kitob tuzdiring. Jam'iki xarojatlarni biz o'z zimmamizga olurmiz. Ertadan boshlab bu ishga bel bog'lang!

Haydar taklifni qabul qildi. Keyin g'ijjakni olib, Navoiydan so'radi. Navoiy ko'zini qisdi. Haydar o'zi sevadigan bir-ikki maqomni chaldi. Navoiy ko'zlarini yumib, sehrli sadolar uning ruhini tebratganday, boshini yumshoq, mayin chayqab o'tirdi.

Shayx Bahlul shoshib kirib: «Hirotdan mehmon», dedi.

— Kim? — birdan jonlanib so'radi Navoiy.

— Mavlono Xo'ja Afzal janoblari.

Navoiy sapchib o'rnidan turib, hovliga yugurdi. Orqasidan Haydar ham chiqdi.

Ular hovlining o'rtasida ko'rishdilar. Xo'ja Afzal, bo'ronli dengizda sohilga salomat yetgan kishidek, hayajonli va quvonchli edi. Lekin, shuning bilan barobar, uning butun vaziyatida qochqinning parishonligi, ishonchsizligi sezilib turardi. Quchoqlashib ko'rishgandan so'ng, yasog'liq, naqshli boshqa bir xonaga kirdilar. Ko'rpachalarga o'tirgandan keyin Xo'ja Afzal yana qayta-qayta Navoyining holini va kayfiyatini so'radi. Navoiy odatda uzoq safar qilgan kishidan so'raladigan savollar — yo'l mashaqqati, sayohat tasodiflari va hokazo haqida so'zlashdi. Dasturxonchi katta chorsi shohi dasturxon yozib, uning betini tanurdan endi uzilgan, bug'lanib turgan singak nonlar, har xil halvo, novvotlar va quruq mevalar bilan to'ldirib tashladi. Ovqat tanovul qilinarkan, suhbat jiddiylashib, so'zning kalavasi chuvalanmasdan



sug'urila berdi. Xo'ja Afzal Navoiy poytaxtni tark qilgandan so'ng ro'y bergan voqealarni bir-bir ayta boshladi. Podshoh aysh-ishratga, fisq-fujurga bo'lgan tamoyilini avjga mindirgan. Burchak-burchakda, kavak-kavakda ilonday to'lg'anib, yuraklariga yig'ilgan qora g'azabni qanday bo'shatishning evini topmagan har xil fitnachilar birdan bosh ko'targanlar. Devonda va butun mahkamalarda xiyonat, rishvat<sup>1</sup> zo'raygan. Davlat jilovini qo'lga olgan Majididdin butun yaxshiliklarga ajdahoday olov va zahar purkamoqda. U o'zini podshohning noibi hisoblaydi. Navoiyning do'stlari, yaqinlarigina emas, hatto uning shoirligini maqtaganlar, adolatiga tan beruvchilar, xayrixohlik ko'rsatuvchilar ham Majididdinning omonsiz gurzisi ostida qolganlar. Majididdin xazinaga mablag' to'plash niqobi ostida xalqni talab, yalang'ochlamoqda. Bosh vazirga hamqur bo'lgan ba'zi beklar va har xil amaldorlar bir yorliq bilan katta yerlar olib, bog'lar, oromgohlar bino qilib, tantanali ziyofatlarda, majlislarda haftalab mayxo'rlik qiladilar, qimor o'ynaydilar. Bunday qabih, harom uyalarga bolalarni, qizlarni keltirib, ularni fahsh, fisq-fijurning sassiq tutuni bilan bo'g'adilar. Hozir ota-onalar tekisroq bolalarni ko'chaga chiqarmay, kecha-kunduz uylariga qamab qo'yadilar.

— Janob Mir,— dedi, nihoyat, xo'rsinib Xo'ja Afzal. — Hirotdagi mash'o'm hodisalarni aytishdan til ham cho'chiydi. Oxiri baxayr bo'lsin! Men ollo taologa hazor-hazor shukur qilamenki, yorug' yuzingizni ko'rish yana menga nasib bo'ldi. Meni mansabdan haydaganlaridan keyin jonimga qasd qildilar. Anvoyi makr-hiyla bilan kunlarimni zaharladilar. Ammo o'z qudrati bilan menga jon baxsh etgan tangri yana u jonni asrab qoldi.

Navoiy dasturxonning uchini barmoqlari bilan himarib, sukut qildi. Uning ko'zlarida vatan qayg'usi yonar edi. Hozir u Hirotda qaynagan to'lqinlarga tash-

---

<sup>1</sup> Poraxo'rlik.

lanib, taqdirning ajoyib o'yini orqasida salomat qolgan qadrdon do'stining bergan ma'lumotlarini ko'krakni siqqan g'azab va ruhni qizg'in temirday kuydirgan alam bilan bir-bir o'ylab, ma'lum xulosalar chiqarish bilan mashg'ul edi.

— Do'stim,— dedi boshini ko'tarib shoir,— siz degan alamangiz<sup>1</sup> manzaralarni men quloqqa chatilgan ba'zi xabarlarga suyanib, taxminan tasavvur qilar edim. Lekin davlat odamlarining razolat balchig'iga bu qadar botib ketishlarini xayolinga keltirmasdim. Yer surib, ekin ekmoq uchun dehqon bo'lish kerak. Cho'chqalar tumshuqlari bilan ekinzorlarni o'piradilar, xolos! Biz bu ahvolga hech qachon tomoshabin bo'lib turmaymiz. Yurtning qorong'i kechasida aql mash'alini yana baland ko'tarurmiz.

— Biron manfaati tegarmukin? — umidsizlarcha dedi Xo'ja Afzal.

— To'g'ri, ba'zi ma'luqlar nurdan zulmatni ortiq bilarlar. Masalan, ko'rshapalak uchun hayot tun kirishi bilan boshlanur. Afsuski, jahonning husni va ko'rki bo'lgan insonlar orasida zamonimizda shunday ziyo dushmanlari ko'pdir. Aqlning tantanasi ularni, kuchli sel yer yuzidagi ahlatlarni surgandek, hayot maydonidan adamga<sup>2</sup> sudrar. Binobarin, biz qayerda bo'lmaylik, yurt uchun aqlning muqaddas olovini qo'riqlaymiz. Biz misoli temirchimiz. Zulmning kishanlarini aqlning o'txonasida eritib, undan hayot uchun kerakli asboblar yasarmiz. Do'stim, metin e'tiqod kerak!

Xo'ja Afzal hech nima deyishni bilmay qoldi. U Hirotida ko'rgan uqubatlari soyasida hayotdan bezgandek edi. Yana qayta boshdan Navoiy boshliq o'z do'stlari bilan sobiq vazifalarni bajarishni tasavvur qilolmasdi. U quvg'indi Navoiyni ham shu kayfiyatda deb o'ylar edi. Lekin hozir Navoiyning chuqur ishonch va qat'iyat bilan aytgan so'zlari uni qattiq taajublantirdi. U ichida: «Qamoqdagi sherning g'ayrati

---

<sup>1</sup> Qayg'uli, yoqimsiz.

<sup>2</sup> Yo'qlik, o'lim.

erkinlikdagidan ko‘ra hadsiz oshibdi!» deb qo‘yida, keyin Astrobod ishlari haqida so‘radi. Navoiy bu viloyatning kam-ko‘stlari, xalqning eng zarur ehtiyojlari to‘g‘risida qisqa so‘zlab berdi va, nihoyat, kulib dedi:

— Bu yerning hokimlari, lo‘lining chirmandasi yorilsaya, gardishi maymunga o‘yinchoq bo‘ladi, degan mazmunda bema‘ni, johilona ishlar bilan mashg‘ul bo‘lgan ekanlar, deb gumon qilamen.

Xo‘ja Afzal qora, qiyg‘och, kichik ko‘zlarini qisib, «qih-qih» kuldi. Keyin birdan o‘zini tiyib: «Tuzishdan ko‘ra ko‘proq buzganlar deng», dedi.

— Buzishdan go‘yo zavq olganlar, — dedi Navoiy achchiqlanib. — Ahvol shunday ekan, yana xazinaga tog‘-tog‘ oltin to‘plamoqni xayol qiladilar. Astrobod — savdosi katta shahar, lekin xarob!

Vaqt namozasrga yaqinlashgan edi. Tahorat uchun o‘rinlaridan turdilar. Xo‘ja Afzal tashqariga chiqib, otini xashakka qo‘yishni buyurdi.

Atrofi kattagina, lekin qaramsiz, daraxtlari tartibsiz o‘sgan bog‘ bilan aylangan eski qo‘ra. Navoiyning Hirotdagi bog‘lari va ko‘shklariga nisbatan juda oddiy va xunuk ko‘rinadi. Lekin Xo‘ja Afzal bu taassuroti haqida Navoiyga indamadi.

Kechki ovqatga Astrobodning ba‘zi peshqadam olimlari va ba‘zi mansabdorlari taklif etilgan edi. Ziyofat ko‘ngilli o‘tdi.

Ertasi xuftondan keyin Yaqubbekning elchilari tantana bilan kirib kelishdi. Tashqarida otlar kishnashib, navkar va mulozimlar baqirishib-chaqirishib, butun qo‘rani jonlantirib yuborishdi.

Yaqubbekning odamlari Navoiy bilan g‘oyat samimiy ko‘rishib, sovg‘alarni taqdim etdilar. Bahodirlar-cha oddiy, ulug‘vor kiyingan, jangovar turkman yigiti, muqaddas ishni bajargan kabi, chin ixlos bilan Yaqubbekning maktubini shoirning qo‘liga uzatib, orqaga tislandi. Navoiy mehmonlarga minnatdorchiligini bildirib, har birining hol-kayfini ayrim-ayrim so‘rab, o‘tirishga taklif qildi. Mehmonlar go‘yo oldindan til

biriktirib qo'yganday taraddudsiz, har qaysilari o'z rut-balariga muvofiq o'rinni ishg'ol etdilar.

Navoiy maktubni ichida o'qirkan, yuzlaridagi qu-vonch o'zini ko'rsatib turardi. Bu maktub Yaqubek-dan Hirotda olingan ilgarigi nomalarga qaraganda, yana chuqurroq muhabbat, qadrdonlik tuyg'ulari bilan to'la edi. Navoiy qog'ozni bukib, tizzasiga qo'ydi-da, Yaqubbekka bo'lgan minnatdorchiligini bildirdi. Sa-mimiy, jonli suhbat alla-pallagacha davom etdi.

Bir necha kundan so'ng Navoiyning Yaqubbekka sovg'a-salomlarini olib, mehmonlar jo'nab ketdi. Bir necha haftagina Navoiyning oldida tun-kun birga bo'lib, poytaxtda bo'lgan va ro'y berayotgan voqea-larni mulohaza qilib, Xo'ja Afzal Makka safari uchun yo'lga chiqdi. U avvalgi mavqeda bo'lsa edi, u chog' muqaddas yerlarni ziyorat etish havasi bilan bunchalik yonmasdi. Tabiiy, Xo'ja Afzal Hirotda ishning o'ng'a-lishiga, dushmanlarning taslim bo'lishiga ishonmagani uchun dilgir edi. Vatanni tark qilishdan o'zga chorani tasavvur qila olmasdi. Shuning uchun Navoiy safar muhlatini orqaga surishni iltimos qilsa-da, u unamadi.

Navoiy yana Astroboddagi tanish-bilishlari bilan qoldi. U tinmasdan ishladi. Har kun mahkamada katta-kichik har qanday masalani o'zi hal qiladi. Sha-harliklarni va tumanlardan arz va shikoyatlar uchun kelganlarni qabul etadi. Qolgan vaqtlarda, aksari kechalari «Chahor devon» bilan mashg'ul. Hamma vaqtni ish bilan to'ldirsa ham, ayrim paytlarda o'z ahvolini o'ylab, ichi haqsizlikka qarshi g'azab bilan to'ladi. Do'stlardan kelgan xatlar poytaxtda vaziyat-ning kundan-kun og'irlashganidan darak beradi.

Shoir mamlakatda buzug'liq davri boshlanganiga har kun yangi dalil va isbotlar ko'rdi. Nima qilish kerak? Dunyoning hoy-huyidan etak silkib, faqir va fano yo'lini tutsinmi? U darveshlarni sevardi. U xo-naqohlarda, takyalarda uya qurib, xalqni talagan xirqapo'shlarga qanchalik nafrat sezsa, o'z xayolida ta-savvur etgan va tarixlarda nodir uchragan haqiqiy darveshlarga shunchalik muhabbat tuyardi. U darvesh-

likni haqiqat ishqi, donolik manbai, deb tushunar edi. O'qtin-o'qtin ko'ngli bu manba qaynagan, allaqanday sof, nur diyorlariga qanotlanardi. Ammo vatan, xalq taqdiri falokatlar ostida qolgan paytda, go'shanishinlik'ni bir gunoh deb bilar edi.

Shoir ba'zan soatlarcha yolg'iz o'zi o'yga cho'mib, mamlakat ko'kiga cho'kkan buzug'liq bulutlarini qanday quvish masalasi ustida turli yo'llar axtarar edi. Hirotidan, mamlakatning qalbidan uzoqda, har nav josuslar bilan o'ralgan bir holda, u nima qilishi mumkin? Haqiqat ovozini baland qo'yay, taxtdagilar eshitmasa yoki eshitkulari kelmasa, bu sadolarga chanqoq ko'ngillar yo'q emas, deb ishonadi. Davlatni mustahkamlash, mamlakatni obod, xalqni shod qilmoq uchun zarur bo'lgan dasturlar haqida mulohaza yuritadi. To'g'riligiga aslo shubha qilmagan, ming bir mushkulotga, monelarga qaramasdan, o'zi bir vaqtlar amalga oshirishga jahdu jadal etgan siyosiy aqidalarni yana chuqur o'ylab chiqadi. Podshohdan boshlab mahalla qorovuligacha har mansabdorning vazifasi, faoliyati, axloqi nimadan iborat bo'lishini ipidan ninasiga qadar belgilaydi. Haqiqat va adolatning muazam ohangini tashkil etishi kerak bo'lgan bu fikrlarini qunt bilan yozib, ayrim maktublarda Hirotga yuborishga kirishadi.

Goho shoirni go'yo uyqu bosgandek, charchog'liq egallab oladi. U musiqiy tinglaydi yo o'zi chaladi. Yoki qalamni olib, ilhomning shafaqday sof, rangorang bulutlariga o'raladida, tog'larda orombaxsh uyqudan tong yellari bilan uyg'ongan kishidek, o'zini yengil sezadi.

## ***Yigirma uchinchi bob***

### **I**

Hovlida yenglarini tirsakkacha shimarib, ko'ylak yoqasini oppoq o'zimizga tushirib, bosh yuvib o'tirgan Dildorning tepasiga Arslonqul kelib: «Qani, tez bo'!»

---

<sup>1</sup> Tarki dunyo qilib, odamlardan uzoq yashash.

Masallug'ni qayerga qo'yay?» dedida, ikki qo'ltig'ida bozordan keltirgan tugunlarini ko'rsatdi. Xotini tim qora, oftobda allaqanday tovlanib «yaltiragan silliq sochlaridan barmoqlari bilan suvni silqitib, eriga qaradi:

— Axir, hali vaqt erta-ku.

— Mehmonlarni erta bilan bozor ketishda aytganmen. Namozni jum'adan chiqib to'g'ri biznikiga kelishadi.

— Oshxonaga qo'ying. Go'shtni mo'lroq oldingizmi? Mehmonlaringiz — nozik odamlar. Unaqamunaqa taom bilan kuzatish uyat bo'ladi, — dedi-da, durdek tishlarini yarqiratib kuldi Dildor.

Arslonqul oshxona tomon qayrilarkan: «Shuncha ta'riflarini qilsam ham haligacha ularning fe'lidan be-xabarsen. Bir tovoq atalamizni bir tovoq ilik deb biladigan odamlar», dedi.

Katak-katak bo'z ko'ylak kiygan to'rt yashar Oynisa ayvondan pildirab tushib, dadasining orqasidan yugurdi: «Dada, halvo bering!» Arslonqul oshxonada tugunlarning birini ochib, qizchasiga bir kesim halvo berdi. Keyin xaltadagi piyozdan etagiga to'kib, oshxona yonida o'tin yorish uchun ishlatiladigan to'nkaga o'tirib, piyoz archa boshladi. Bukun u odatdagidan ko'ra xursand... Past ovoz bilan, o'zicha, qurama ashulalar ham aytib qo'yadi. Bahor quyoshi uning keng, irodali peshonasida jim-jim yaltiraydi. Hovlidagi olucha oppoq ko'rkam gulda. Tomlarda bolalar, hatto ko'kragi bilinib qolgan durkun-durkun qizlar to'da-to'da bo'lishib o'ynashib yuradilar, jarangli ovoz bilan sho'x qo'shiqlar aytadilar.

Arslonqul bir vaqtlar Dildor bilan topishgandan keyin, o'z qishlog'iga qaytmagan edi. Bir necha yil Hirotda yashab, uning achchiq-chuchugini totib, tanish-bilish orttirgan shaharni tark etish og'irdek tuyuldi. Dildor, uning hasratida o'rtangan buvisi va dadasi o'lib ketganini eshitib, erining qaroriga tamom qo'shildi. Buning ustiga, Arslonqulning xolasi — Zubayda kampir ham ularni qo'ldan chiqarishni istamagandi: «Peshonamga xudo farzand nasib qilmadi. Endi uy-

joyga ega bo'linglar. Chol-kampirni ko'minglar. Bizdan keyin chirog'imizni yoqib o'tirsangiz, arvo-himiz xursand bo'ladi», deb yalingan edi.

Baquvvat, har hunarga qiziqqan Arslonqul uchun katta shaharda har xil ish topilib turardi. Bundan tashqari, Dildor yaxshi chevarlardan biri hisoblanib, kiyim-kechakka zeb beradigan nozik oilalarning kiyimlarini tikar edi. Shuning uchun er-xotin, qo'sh ho'kiz bo'lganlaridan, qattiq ehtiyojlarga hali duch kelmaganlar. Uzoq va achchiq ayriliqdan so'ng, ehtimoldan tashqari qiyinchiliklar orqasida topishganlaridan, ularning yuraklari shunday yaqin ediki, ular bir-birlariga biron ortiqcha so'z aytishdan qo'rqardilar. Ularning hayotlari qo'ni-qo'shnilar uchun ermak edi. Xotinlar: «Hazrat Ali bilan bibi Fotima ham bir-birlarini bunday siylamagandirlar», deb qo'yishardi. Mana, hozir ular bir qiz va bir o'g'ilning ota-onalari. Bundan bir necha kun burun o'g'ilcha dumalab-sumalab atak-chechak qila boshladi. Kecha Dildor qo'shni xotinlarni yig'ib, to'ycha qilib berdi: kampir qo'g'urmoch qovurdi. Qozonda patirlagan qo'g'urmochni qo'llarining kuyishiga qaramay, hovuchlab-hovuchlab olib, bolaning ustidan sochdilar, uning semiz, tiqmachoqday oyoqlari orasidan, maxsus yopilgan, piyolaning tagiday kichkina kulchalarni yumalati o'tkazdilar. Bo'zchi qo'shnikiga charx yigirish uchun yig'ilgan qizlar devor oshib tushib, bir zumda uyni qiy-chuv bilan, o'yin-kulgi bilan to'ldirib, Dildorni benihoyat xursand qildilar. Bugun esa Arslonqul o'z gali bilan, nihoyati ikki mehmon — Sul-tonmurod bilan Zayniddinni uyga taklif qilgan edi.

Dildor sochini kampirga nari-beri o'rdirib, bolasini emizib, erining yoniga keldi. «Piyozni ko'proq to'g'rang, manti qilamen», deb oshxonaga kirdi. Tugunlardagi go'sht-yog'ni, meva-chevalarni bir-bir ko'zdan kechirib, chamalab, yana chiqdi. Arslonqul piyoz hiddan yoshlangan ko'zlarini yeng uchi bilan artib, unga qaradi. Dildorning yuzida mamnunlikni sezib, jilmayib dedi: «Oz emasmi, jonim?».

— Yo‘q, naq ko‘nglimdagidek...— javob berdi xotin.

— Ey, ularga jonimni bag‘ishlasam ham oz, — salmoqlanib gapira boshladi Arslonqul. — Senga nimasini gapiramen, hammasi o‘zingga ayon.

— O‘g‘limiz ham Sultonmuroddek olim bo‘lsin! — dedi samimiyat bilan Dildor.

— Aqlning xazinasida, — boshini ishora qilib dedi Arslonqul. — Bir vaqtlar qaysi bir mamlakatdan, qaysi edi, ha, Rumdan, oti esimda yo‘q, Chalabiy degan zo‘r olim kelgan ekan. Hirotidagi madrasalarda darsgo‘ylik qiladigan jamiki olimlar bir tomon, haligi olim yolg‘iz o‘zi bir tomon bo‘lib, masala talashibdi. Chalabiy dam osmondagi yulduzlardan gap ocharmish, dam qarasangiz, allaqaysi zamonda o‘tgan Aflotun hakim to‘g‘risida gapirarmish, dam Qur‘ondan oyatlarni qatorlashtirib tashlarmish. Dam yerni o‘lchash to‘g‘risida masalaxonlik qilarmish. «Qani, hammasiga javob beringlar!» Biznikilar ba‘zisiga to‘la javob berishibdi, ba‘zisini yarimta-yurimta qilib qo‘ya qolishibdi. Ba‘zi yo‘g‘on masalalarga kelganda, guldirashib, o‘hu-uhu qilib, boshlarini qashib, «sen javob ber», deb bir-birlarini imlashib, turtishib, xullas kalam, mot bo‘lishibdi-da.

— Sultonmurod ham mot bo‘libdimi? — hayajonlanib so‘radi Dildor.

— E, jonim, gapning eng shirin joyiga kelganda kesasenmi-ya! Yo‘q, Sultonmurod nima uchundir hammadan keyin kelibdi. O‘zi tortinchoqroq-da, «xo‘sh» degandan keyin u olimning qarshisiga tiz cho‘kib olibdi. — Shu vaqtda Arslonqul pichoqni uloqtirib, etagini qoqib o‘rnidan turib ketdi. — Hamma churq etmasdan, ko‘zini yerga qadagan emish. Chalabiy deganimiz uni nazar-pisand qilmasdan, gaplashgisi kelmabdi. Ana shunda Sultonmurod birikkita g‘alati-g‘alati masalani ko‘ndalang qilibdi-ku. Bu narsa Chalabiyning qitiq patiga tegib, tilni olovday kuydiradigan masalalar undan ham chiqaveribdi. Bora-bora, bafarmoni xudo, tortishuv shunday qizib



ketibdiki, Havzi Mohiyonda Pahlavoni Olam<sup>1</sup> bilan Molon Pahlavon<sup>2</sup>ning kurashini uning oldida bir o‘yinchoq, deya ber!

— Oxirida kim yengibdi? — sabrsizlanib so‘radi Dildor.

— Oxiri Chalabiy deganimiz, xuddi mushukning changalidan qochib qolgan sichqonday, kovak qidiribdi! — dedi-da Arslonqul shunday qiziq bir harakat qildiki, Dildor beixtiyor xaxolab kulib yubordi.

Ayvonda xamir yoyish bilan ovora bo‘lgan kampir koyigan ovoz bilan qichqirdi: «Nima hangoma? Qiymangni qilmaysanmi, bolam!»

Namozi jum‘adan keyin Arslonqul Sultonmurodni kutib oldi. Hovlida yumush qilib yurgan Dildor uzoqdan boshini bir oz egib: «Assalom», dedi-da, allanechuk uyalib, ko‘zlarini yerga tikdi. Dildor olimning bukun vaziyatida bundan ilgari ikki marta sezgan o‘zgarishni ko‘rdi. Birinchi marta To‘g‘onbek hujraga boshlab kirganda (buni Dildor keyin eslagan edi), ikkinchi marta zindondan qutulgan chog‘da ham xuddi shunday holni sezgan edi. Yana hozir unda ayni holat... Ko‘z ochib yumguncha uning boshidan bir fikr o‘tdi: «Nahotki ko‘ngli menda bo‘lsa!»

Sultonmurod titrak ovoz bilan «Salomatmisiz, singlim, ko‘p yashang», deb bir zumda oyoqlari tamom majolsizlangandek, kalovlanib, Arslonqul boshlagan xonaga kirdi. Uning baxtiga, haytovur, Arslonqul xona ichiga kirmasdan, eshikda turib: «Marhamat qiling, taqdir, marhamat», deb o‘zi bir zumda ko‘zdan yo‘qoldi. Sultonmurod katta sallani olib, peshonasidan sovuq terini artirdi va ichdan kelgan bir xo‘rsinish bilan chuqur so‘lish oldi. Yurak hovliqishini iroda bilan bosishga tirishdi.

Ruhi qanday qilib iztirob chekmasin! Yillar Dildorning husnini yana kamolga yetkazgan. U to‘lishgan. Qaddi-qomati rasolangan, yuzi va butun siymosi ko‘rkam jiddiylik kasb etgan. Sultonmurod bu sifat-

---

<sup>1</sup> Muhammad Said Pahlavon — Navoiyning do‘sti.

<sup>2</sup> Husayn Boyqaroning pahlavonlaridan.

larni bir on ichida, ko‘z tushishi bilanoq, his etgan edi. Dildorning uyida tanho o‘tirib, shipga, devorlariga, katta tokchalardagi ro‘zg‘or asboblari­ga bir-bir razm soldi. Eng oddiy narsalar uning ko‘ziga allaqanday mo‘jizali bo‘lib tuyuldi. Birdan boshi, beixtiyor ravishda, qiya ochiq darichaga o‘girildi. Hovlida hech kimni ko‘rmadi. Lekin darrov u ichida: «Adab, safvat!»<sup>1</sup> dedi-da, o‘z ruhining zaifligi uchun o‘zini ko‘ziy boshladi.

Sultonmurod ishqni oliylashtirib, dastlab o‘zining baxtsiz muhabbatiga o‘lguncha sodiq qolmoqqa qaror qilgan edi. Keyin do‘sti Zayniddinning qistovi bilan va mashg‘ulotlariga turmushning iker-chikiri monelik qilmasin, degan mulohaza bilan bu fikrdan voz kechishga majbur bo‘ldi. U o‘zining ilmiy obro‘si orqasida Hirotning moldor oilalarining go‘zal satang qizlariga yoki ulamo va fuzalo oilalarining o‘qimishli, tarbiyali, shoira qizlariga qulaylik bilan uylanishi mumkin bo‘lsa ham, lekin hayotning bunday muhim hodisasi­ga yurak bilan kirishmaganidan, kimsasiz, sodda yetim bir qizni ikki yil burun «bir qoshiq suv bilan» nikoh qilib oldi.

Xursandlikdan uchib qo‘ngan Arslonqul dasturxon yozdi. Dildor tong qorong‘isida hafsala bilan yopgan nonlarni qalashtirib tashladi. Nonni ushatib: «Marhamat», derkan, Zayniddinning kechikkanligiga taassufini bildirdi. Sultonmurod endi o‘zini xiyla tutib olib: «Bilasizku, har qadamda yor-oshnasi bor, biron joyda suhbatdadir», dedi.

Katta olim bilan sodda yigit har qachon uchrashalar, bir-birlariga yaqin til topar, oddiy mavzularda maroqli suhbatlashar edilar.

— Mehmonni laziz ovqatlar bilangina emas, shirin latifalar bilan ham kutmoq kerak, — dedi kulib Sultonmurod.

— Ovqat darvozasi bilan so‘z darvozasi bitta! Ochib yuboring, taqsir.

---

<sup>1</sup>Ravshanlik (muh.).

Hirotning rang-barang hayotida shu kunlarda yuz bergan qiziq voqea-hodisalar haqida gangur-gungur soʻz ketdi. Havzi Mohiyonda iroqlik qalandar bilan Hirot avboshlaridan Xalilning tayoq urishmasi, ularga podshohning inʼomlari; Muhammad Said Pahlavon Hirotga yaqinda kelishi kutilgan mashhur pahlavon bilan kurashga solish uchun oʻzining oʻn yetti yoshli jiyanini gushtigirlik ilmi asosida qanday qilib tayyorlayotgani; Hirot hunarmandlari bu yil xalqqa koʻrsatish uchun ajoyib bir shisha yasab, unga har nav rasmlar ishlaganlari va hokazo toʻgʻrisidagi gaplarning hali keti uzilmagan ediki, Zayniddin yetib keldi. Katta Hirotning, ayniqsa, kibor doiralarida roʻy beruvchi sirli, rangin hikoyalardan eshitmoq niyatida Zaynid-dinga quloq osdilar. U, oʻz odatiga qarshi, soʻzga qiziqsinmadi. Mashhur Sultonali Qilqalam<sup>1</sup> yozgan bir necha yangi kitoblarni koʻrganligi va ular xattotlik tarixida hech bir erishilmagan mislsiz sanʼat namunalari ekanini sanʼatkorning samimiyati va zavqi, vuqufi bilan Sultonmurodga tasvirlab berdi. Keyin qora, koʻrkam, moylangandek yiltiragan moʻylabining uchini, katta Badaxshon aqiqi bilan yongan uzukli bar-moqlari bilan burab jim boʻldi. Sultonmurod jiddiy, yirik, oʻtkir koʻzlari bilan doʻstiga zimdan tikilib, uni tashvishga solgan bir dardni sezdi.

— Xattotlikda Sultonali, rasmda ustod Behzod, shubhasiz, zamonning xudo bergan isteʼdodlaridir, — dedi Sultonmurod qoshlarini chimirib, oʻz-oʻziga soʻzlagandek. — Filhaqiqat, ular abadiy asarlar ijod qilmoqdalar. Lekin sening qalaming goho-goho shunday sehriy quvvat kasb etadiki, men shu qalamni qogʻoz ustida inson qoʻli tebratganmi, deb hayron qolamen.

Zayniddin lablarini tishlab, qattiq nazar tashladi.

— Meni yupantirmoqchimisen? Nimalar soʻzlamogdashen?

— Yoʻq, aslo! Men oʻz mulohazamni soʻzlaymen.

---

<sup>1</sup> Mashhur xattotning laqabi.

Isbot va dalil hojatmi, chaqiring yurtning san'atkorlarini! — dedi keskinlik bilan Sultonmurod va, xuddi munozaraga g'ayrati toshib ketganday, o'rnidan bir chayqalib qo'ydi. Zayniddin kulib yubordi.

— Soddasen, oq ko'ngilsen, kechirilmas darajada beparvosen, alalxusus, o'z shaxsingga doir masalalarda beparvoliging haddidan oshadi. Men, chinnin aytaymi, shunga xafamen.

Sultonmurod o'ylab, yelkasini qoqib, dedi:

— Beparvolik emas, do'stim, men ajoyib ul-maxluqotlar bilan muboraza olib borishni o'zimga loyiq ko'rmaymen. O'zing bir nafas mantiqi tom bilan o'ylab ko'r: kim u, mavlono Shahobiddin? Mening har bir talabam unga dars bera olur. Orqa-o'ngimdan hasad qilsa, gunohi o'ziga.

— Axir, senga g'oyat vahim gunohlar ortmoqchilar, oddiy hasad emas, — dedi kuyunib Zayniddin.

Sultonmurod «nima bo'lsa bo'lar», degandek qo'lini silkib, sukut qildi. Zayniddin, uni mufsid fikrlar<sup>1</sup> tarqatishda ayblamoqchi ekanlarini, mavlono Shahobiddin o'ziga o'xshash bir necha nimcha olim, nimcha mullolarni uyushtirib, har yerda ig'vo tarqatib yurgani, agar Sultonmurod bu kun-erta o'z dushmanlarining yo'liga sad chekmasa, behudaga biron falokat ostida qolishi mumkinligini so'zladi. Sultonmurod birdan tutoqdi. Uning dushmanlari tarqatgan bo'htonlar, go'yo ilonday, uning yuragini chaqib olgan edi.

— Ig'vo! — dedi qichqirib Sultonmurod. — Ilmning, falsafaning haqiqiy durdonalarini bular mufsid fikrlar, desinlar! Men ulumi diniya<sup>2</sup> bilan bir qator da mantiq, hisob, falakiyot, falsafa kabi inson zakosining muqaddas mash'allari bilan talabalarimning ko'ngillarini tanvir etamen<sup>3</sup>. Koshki bu narsalar Qur'on tilovat qilganday oson bo'lsa! Yuzlarcha kitoblarni ko'rmoq, turli olimlarning fikrlarini tahlil

<sup>1</sup> Zararli, buzuq fikrlar.

<sup>2</sup> Diniy ilmlar.

<sup>3</sup> Nurlantiraman.

etmoq, qiyos qilmoq, sahv-xatolarini tuzatmoq — bu ishlar umrning egovidir. Lekin men ilm oshiqi bo'lganimdan chidaymen. Bular bo'lmasa, tahsilning, madrasaning ne hojati bor? Yana men Navoiy hazratlarining madrasalarida dars berurmen. Nafaqai naqdni ul janobning vaqflaridan olurmen. Talabalarga qaysi ilmlardan qay darajada o'tmoqni Navoiyning o'zlari ko'rsatib bergan edilar. Bu qanday tuhmat!

— Zamona! Hamma illat shunda, — dedi Zayniddin qo'lini tizzasiga urib. — Sen va yana bir necha haqiqiy olimlar Navoiy ko'rsatgan tartib va jadval bilan ish qilursiz. Asarlaringizni uning muborak nomiga bag'ishlaysiz. Har munosabat bilan Navoiyning fikrlarini ilgari surib, unga tarafdorlik qilursiz. Siyosatning shatranj taxtasida Shahobiddinlar yolg'iz piyodadur. Orqada qudratli donalar borki, qazo va kadar singari beomondirlar.

Ko'zlarini mo'ltillatib, peshonasini burishtirib, diqqat bilan gapga quloq solgan Arslonqul mehmonlarga qarab dedi:

— Navoiy ketdi — Hirotdan fayz-putur ketdi. Allaqachon fotiha o'qib qo'rganmen bu shaharga ham, toju taxtiga ham... Na dehqonda, na hunar ahlida huzur-halovat qoldi. To Navoiyning o'zi kelib, ishni qo'lga olmasa, hozirgi hokimlarning dastidan xalqning na noni butun, na joni salomat...

Sultonmurod bilan Zayniddin kulib, ko'zlari bilan imlashib, yigitning so'zini ma'qulladilar. Zayniddin saroy tevaragida, vazirlar orasida Navoiyga qarshi fitnalarning borgan sari avj olganini so'zlab, shoirning hali-beri qaytishiga shubha bildirdi. Arslonqul dardi ichiga sig'maganday, «uh» tortib o'rnidan turdi. Sultonmurod uzoq zamon xomush o'tirdi. Nihoyat, uni beparvolikda ayblagan do'stiga murojaat etib, undan yo'l-yo'riq ko'rsatishni iltimos qildi.

— Majididdinning huzuriga bor, haqingda bo'lgan tuhmatlardan uni ogohlantir. Ha, kechikmasdan, balki shu bugun murojaat et! — dedi Zayniddin ta'kidlovchi ohang bilan.

— Men haqsizlikdan bo‘riga shikoyat qilayinmi? Bunda qanday ma‘no bor? Vallohi, tushunmaymen!

— Majididdin bilsinki, u o‘z kirdikorilarini, garchi g‘oyat ustalik bilan xaspo‘sh qilishga intilsa ham, o‘z iflosligini odamlardan yashirolmaydi. Mavlono Shahobiddin ustida aytgan har bir haqiqiy so‘zing Majididdinning o‘ziga tosh bo‘lib tegaveradi.

Sultonmurod dastlab taraddudlanib, ba‘zi qiyinchiliklarni ko‘rsatsa-da, keyin bu taklifni qabul qildi. Bukun kechqurun uning uyiga borishga qaror berib, bu ish bilan bog‘langan ba‘zi jihatlar haqida Zayniddin bilan uzoq fikr olishdi.

Arslonqul katta bir laganda usti qatiqli, murchli manti olib kirib, o‘rtaga qo‘ydi. Keyin tokchadan ikkita kattagina sopol shishani olib «daf savdo uchun», deb qizil tiniq mayni qulqullatib, kichik, ixcham piyolalarga quydi. Sultonmurod piyolani og‘ziga olib bordi-da, birdan boshini ko‘tarib o‘qidi:

*May xo‘rdanu shod budan oyini man ast,  
Forig‘ budan zi kufru din, dini man ast.  
Guftam ba arusi dahr kobini tu chist?  
Gufto dili xurrami tu kobini man ast.<sup>1</sup>*

Keyin Arslonqulga ma‘nosini tushuntirdi. Unga juda yoqdi: «Maydan ham totli so‘zlar ekan-ku», deb tebrandi. Uchovlari xursandlik bilan piyolalarni bo‘shatdilar-da, yemoqqa boshladilar. May o‘tkir edi. Yana bir piyoladan ichilgach, odatda oz ichadigan Sultonmurodning yuzlari qizarib, ko‘zlari yona boshladi. Undan tashqari, vazirning qoshiga boradigan bo‘lgani uchun uni ortiq qistamadilar. Zayniddin bilan Arslonqul yana ikki piyoladan ichishdi. Sultonmurod tinmasdan Xayyomning eng go‘zal ruboiylarini o‘qib, ma‘nolarini ajoyib ustalik, chechanlik bilan izohlashga boshladi. Mayga doir yana bir ko‘p arabiy, forsiy, turkiy go‘zal baytlar, ruboiylarni qatorlashtirib

---

<sup>1</sup> M a ‘ n o s i : Mening yo‘lim, maslagim may ichish va shodlanishdir; diniy ishlardan uzoq turmoq mening dinimdir. Kelinga o‘xshash dunyodan: «Sening qalining nima?» deb so‘radim. U: «Mening qalim sening qayg‘usiz shod ko‘nglingdir», deb javob berdi.

tashladi. Zayniddin qiziq latifalar soʻzladi. Ayniqsa, mudarris mavlono Fasihiddin haqidagi hikoyasi uzoq va qattiq kuldirdi. Mavlono Fasihiddin bir kecha nuqul oʻspirinlar bilan may bazmi tuzibdi. Xiyla may ichishib, musiqiy avjga chiqib, jon olgʻich qoʻshiqlar yangrab, bazm doligʻuliga yetganda, shishalarda may qolmaganligi bilinibdi. Qoq yarim kecha; shu vaqtda bazmni sovutmasdan, chetdan may topib kelishning iloji yoʻq. Bazmchilar shishalar tagidagi quyqumni suzmoqqa qaror qiladilar. Shu pallada mast-alast shavqqa toʻlgan mavlono Fasihiddin koʻrkam oppoq soqolini tutamlab, yoshlarga shunday debdi: «Men bu soqolimni qancha-qancha yillardan buyon har kun necha mahal sobun bilan yuvib, tarab kelamen. Agar bu soqol shu onda korimga yaramasa, sassiq alafdek yulib tashlaganim yaxshi. Qani, yigitchalar, yerga idish qoʻyib, may quyqumini soqolim bilan suzinglar!» Majlis ahli bir-birlarini quchoqlab, mast suron koʻtarib, mudarrisning oppoq soqolida mayni suzadilar!

Bu hikoya qoʻzgʻagan davomli kulgudan goʻyo charchagandek, bir nafas sukut, soʻlish oldilar. Keyin Zayniddin qaydandir tanbur toptirib, qizlarnikidek nozik, chaqqon barmoqlari bilan chertdi; ishqqa, hijronga doir chuqur hazin ashula aytdi. Har bir soʻz Sultonmurodning yuragiga choʻgʻdek yopishardi. U sadolarning dardli, sevguchi ruh uchun shirin sehriga berilib, boshini qoʻllari orasiga oldi-da, jim qotdi. Kuy bitgach, doʻstiga chuqur qaygʻu ifodalagan bir nazar tashladi. Zayniddin olimning yurak sirini payqadi shekilli, tanburni devorga tirab qoʻya qoldi.

Kun xiyla oqqandan soʻng mehmonlar Arslonqulga minnatdorlik bildirib, uning oʻgʻilchasiga yaxshi tilaklar bayon qilib, oʻrinlaridan turdilar. Zayniddin oʻz uyiga joʻnadi.

Sultonmurod vazir bilan boʻljak muloqotini oʻzi-cha tasavvur qilib, Hirotning shimol tomoniga qarab, dadil yurib ketdi. Tor koʻchalardan keng yoʻlga chiqdi. Jumʼa boʻlganidan hamma yoqda odam qalin. Bir necha navkarlar qilichlarini yalangʻochlab, sharobxo-

nada mast bo‘lib, xanjarbozlik qilgan avboshlarni olib ketmoqdalar. Ularning ketidan bolalar va tekin tomoshaga o‘ch bo‘lgan katta-katta odamlar o‘zaro qichqirishib, birini yoqlab, birini qoralab sudralib bormoqdalar. Zaryoqa to‘nli, olifta etik kiygan bekzodalar go‘zal turkman otlarini gijinglatib daladan, chavgon o‘yinidan qaytadilar. Hirotning faqirlari uchta-to‘rttadan bo‘lib, endigina murg‘ak barglar chiqargan va quyoshda shaffof yashillangan daraxtlar ostida, xi-yobonlar bo‘ylab machchoyi sayil qilib yuradilar. Uzoqda azamat qo‘rg‘onlarning kunguralari, baland minoralarning xilma-xil olovlangan naqshlari, bog‘chalar orasida ajoyib ruhafzo ko‘shklar, koshonalar ham bir-birining ustiga mingandek, chaplashib ketgan past, buzuq-yoriq, qing‘ir-qiyshiq faqir uylar, egar-jabduqlari kumush bilan ishlangan tulpor otlar, kir to‘qimli oriq-tiriq eshaklar, kimxob jomalar va yamoqyasqoq olacha yaxtaklar hayotning qurama manzarasini tashkil etardi.

Sultonmurod noib us-sultonning yangi bog‘iga yetib, navkarlar, mulozimlar qaynagan darvozada to‘xtadi. Sinovchi nazarlar, burun va yuzlarning sezilar-sezilmas, qiyshayishlari ta’siri ostida sodda olim iymanib, bir lahza tili qotdi. Ichida Zayniddinni koyib ham qo‘ydi. Nihoyat, o‘zini kulunch ahvoldan qutqarishga jasoratlandi. Aft-boshi, kiyimi va o‘zini tutishi bilan bu yerdagilarning boshlig‘i ekani ko‘rinib turgan bahaybat bir yigitga murojaat qildi:

— Majididdin Muhammad janoblariga muloqot niyatida kelmish edim. Marhamat qilib, meni ul zotning oliy huzurlariga boshlasangiz.

— Kimligingizni bildiringiz. Men harakat qilib ko‘ray. Toileingiz bo‘lsa... — dedi mulozim beparvolik bilan qayoqqadir qarab.

Sultonmurod ismini va «Ixlosiya»dagi mavqei ham vazifasini aytdi. Mulozim, go‘yo tegajaklik qilganday, navkarlar bilan bir necha vaqt gap sotishib, uni-buni surishtirib, keyin yumush bilan kelgan ikki sipohini boshlab ichkari kirib ketdi.



Mulozimdan hadeguncha darak yo‘q. Sul-tonmurodning madrasa ahliga xos bo‘lgan g‘alati tajangli-gi tutib, u yoq-bu yoqqa yurib turganda, orqasida shahzodalarning xos yigitlaricha kiyingan ikkita xushro‘y yigitni ergashtirib, otlarda To‘g‘onbek chaq-moqday yetib keldi. Navkarlar hansiragan otlarning jilovidan tutdilar. To‘g‘onbek chavandozlarcha chaq-qonlik bilan otdan tushib, qizargan ko‘zlarini Sul-tonmurodga tikdi-da, birdan tirjaydi.

— Bu yerlarda ne qilib yuribsiz, maxdum?

Sultonmurod rasmiy odobga rioya qilib, To‘g‘on-bek sari ildam yurib bordi va uning temirday mah-kam, dag‘al qo‘llarini siqdi-da, o‘z muddaosini so‘z-ladi.

— Yuring biz bilan. Men sizning ilmingizni bila-men. Eski qo‘ldoshlarimdansiz, — dedi shirakayflik bilan To‘g‘onbek.

Ular ichkari yurarkan, navkarlar, mulozimlar chet-lanib, ta‘zim qildilar. Sultonmurodning ko‘ziga katta bog‘ ochildi. To‘g‘onbek uni bahor nafasi bilan yangi uyg‘ongan gulzorlar, muntazamligi, tozaligi, latofati bilan go‘yo xayoliy kabi ko‘ringan sarvzorlardan olib yurdi. Unda-bunda daraxtlar orasida katta oyna doiralari bilan jim-jim yiltiragan hovuzlar uchrarkan, Sultonmurod beixtiyor suqlanib, qarab qolardi. To‘g‘onbek qo‘lini silkib: «Baxmalday qip-qizil may bilan to‘la hovuzlarni ko‘ring va taajjublaning... Mana bu kecha shahzodam Muzaffar Mirzoning majlisida hovuzdan sharob ichdik. Oxirida, bir-ikki to‘yma-g‘urni uloqtirdik, mayda cho‘mildi», dedi. Doira shak-lida yangi katta gulzorga chiqqanlarida, qarshida ikki qabatli zangin bahovo bino gavdalandi. To‘g‘onbek to‘xtadi va binoni ko‘rsatib: «Hech tortinmasdan kiravering, albatta, qabul qilurlar», deb qo‘l uchi bilan xayrlashib, boshqa tomonga burilib ketdi. Sultonmu-rod bino ichiga kirib, qimmatbaho oynaday silliq tosh bilan qoplangan to‘garak sahnda to‘xtadi. Bu sahn-ning to‘rt tarafidagi oltin halli eshiklar orqali xona-larga kirilar edi. Shu vaqtda so‘l yoqdagı eshikdan

haligi devqomat mulozim chiqib, to'rdagi eng zangin eshikka ishorat qildi.

Sultonmurod o'zini qator darichalari boqqa qaragan katta, chor burchak xonada ko'rdi. To'rda sirti xitoyi shohilar bilan qoplangan to'shakda, vazirlarga xos kiyimda chordana qurib o'tirgan Majididdin Muhammad, go'yo oyog'ini o'pishga tayyor bir xokisor muridni qabul qilgan kibrli eshonday, pinagini buzmasdan qarshilab, Sultonmurodga qo'l uchini uzatdi. Sultonmurod ruxsat tilab, ancha pastga, devor tagiga tiz cho'kdi. Bu xona anvoi qimmatli buyumlar bilan shunday muzayyan ediki, tashqi bezaklarga, boylikka e'tibor bermaydigan olimning ko'zlari ham beixtiyor jovdirab ketdi. «Bu xona uchun yolg'iz oltin taxt yetishmaydi», — o'yladi ichida u. Keyin sun'iy bir yo'talib, vaqtsiz kelib, zoti oliyning muborak ko'ngillariga aziyat yetkizganini so'zlab, uzr tiladi. Majididdin yirik marvaridlardan tizilgan tasbehini barmoqlari orasida o'ynab, odatdagi asabiyligi, kibri bilan po'ng'illadi:

— Muddaongizni bayon qiling!

Sultonmurod o'zi to'g'risida ba'zi kimsalar tomondan noxush gaplar tarqatilganini, bularning tamoman ma'nosiz bo'hton ekanini, bo'htonchilar bilan uning orasida hech qanday xusumat va adovat yo'qligini bildirmoq uchun kelganini so'zladi.

— Bizga nima aloqasi bor?— zaharxanda bilan dedi Majididdin.— Aybsiz yolg'iz parvardigordir. Modomiki, haqqingizda shu qabilda so'z yurur ekan, albatta, behuda bo'lmasa kerak, deb o'ylaymen. Tolibi ilmlarning ko'ngillariga qanday fikrlarni talqin etmoqdasiz — bu savolni bir karra o'zingiz mulohaza qildingizmi?

Sultonmurod o'z do'stining xavfsiragani o'rinli ekaniga endi tamoman ishondi. Haqiqatni ochib tashlashga qaror qildi:

— Zoti oliylari, men johillarning qo'lida behuda qurbon bo'lmoq istamaymen,— dedi u dadillik bilan.— Modomiki, men talabalarimga talqin etgan fikr-

lardan hatto siz shubhalanur ekansiz, ahvolimning jiddiyliги ravshandir. Men sizni adolatga chaqiraman. Zeroki, hayotning nash'u namosi adolat nuriga bog'liq bo'lganidek, insonning kamolot darajasi ham adolat bilan o'lchanur! — dedi-da, o'zi ko'p yillardan buyon qanday ilmlar bilan mashg'ul bo'lgani va talabalarga qanday ilmlardan dars berayotgani va Yunonda, Arabda, Eronda, Hindda qanday buyuk olimlar, hakimlar bu fikr javharlariga o'z umrlarini sarf qilganliklari va hokazo haqida batafsil so'zlab ketdi. Nihoyat, g'azabiga chidayolmasdan, qichqirib, dedi: — Jaholatning timsoli mujassami bo'lgan Shahobiddinlar ilm daraxtining ildiziga tushgan muzir<sup>1</sup> hasharotlardan boshqa narsa emaslar. Unday tufayllilar<sup>2</sup>ni bitirmoq kerak edi, afsus, ming afsuski, ular urchimoqdalar, qudrat kasb etmoqdalar. Odamlarga o'z zaharlarini oltin kosalarga solib, bol, deb tutmoqdalar. Lekin haqiqat loyamut<sup>3</sup>dir. Shahobiddin kabi jinoyatkorlar tarix oldida, nasllarning pok vijdoni oldida yuzlari qora, sharmandai sharmisor bo'lurlar.

Majididdinning rangi oqardi. Ko'zlarida allaqanday yomon ifoda jilvalandi. Moshkichiri soqolini silab-silab, tasbehiga tikilib qoldi. Sultonmurod, gapi unga qattiq tekkaniga ishondi. Ichida xursand bo'ldi. Devorga suyalib, yengillanib, xo'rsindi.

— Maxdum, siz qayerda va kim huzurida ekaningizni yaxshi idrok etishingiz lozim edi, — dedi achchiq bilan Majididdin.

— Kamina adab doirasidan zarracha chiqmagan bo'lsam kerak,— boshini ozgina egib, dedi Sultonmurod.

— Muhtaram ulamo-fuzalolarimiz orasida bu kabi gina-kudurat va adovatning bo'lishi g'oyat muzir voqeadir, — xolisona gapirayotgan kishining ohangi bilan davom etdi Majididdin.— Bu hollarni bartaraf qilmoq kerak. Maxdum, men sizni bir jihatdan ogoh-

---

<sup>1</sup> Zararli.

<sup>2</sup> Parazitlar.

<sup>3</sup> O'lmaydigan, mangu.

lantiramenki, islom mamlakatida, dinimizning istinod'i musulmon komil podshohimiz davlatida majusiylarning, butparastlarning fikrlariga taqlid qilg'uvchilarga omon bermasmiz. Aslo! Bu haqiqatni idrok etmaganlarning holiga voy! Men sizga ulumi diniya bilan ko'proq shug'ullanmoqni tavsiya qilurmen...

Majididdin boshini ters burib, qo'li bilan «gap tamom», degandek ishorat qildi. Sultonmurod ilmlar haqidagi tushunchasini Ibn Sino, Forobiy, G'azzoliy kabi ulug' olimlarning fikrlari bilan asoslab, mantiqning gurzisi bilan o'jar, mag'rur, makkor vazirni mixdek yerga qoqib qo'yish orzusi bilan yonib tursa ham, ilojisiz qoldi. «Har bir harakatda muvozanat va me'yor zarur», deb o'yladi-da, ruxsat tilab, rasmiy tavoze bilan eshikka tomon yurdi.

U to'garak sahnda Abulziyoboyning, yana Hirotning dongdor qutidor boyonlaridan bir nechasining qabul kutib turishganini ko'rdi. Xitoy va Misrning qimmatbaho matolariga belangan davlatmandlar, bu faqir mullo ochko'zlikdan nafaqa tilab, shunady oliy dargohlarga qadar bosh suqibdi, deb o'ylagan bo'lsalar kerak — istehzo bilan ko'zlarini yomon tikib, bir-birlari bilan ma'nodor imlashib olishdi. Sultonmurod o'z ma'naviyatining kuchi bilan boshini adil tutib, dadil va ildam yurib ketdi.

Kechqurungi bahor havosining nam salqinligi ko'krakka urdi. Sultonmurod ip, ipak aralash ola bayroq to'ning barlarini birlashtirdi. Bino oldidagi katta gulzorlardan ikki katta yo'l bog' ichiga kirib yo'qolar, yana har tarafga ilon izi bo'lib o'rmalagan yolg'izoyoq yo'llar ko'p edi.

To'g'onbekning gapiga ovora bo'lib, hali kelgan yo'lga yaxshi razm solmaganligidan, taxminan, keng yo'l bilan o'ng tomonga ketdi. Uzoqda, daraxtlarning orasidan ko'cha darvozasi va uning atrofida g'ivillagan navkarlarning gavdalari ko'rinarkan, bu yo'lni kesgan yolg'izoyoq yo'ldan katta salla, yarqiroq zar to'n kiy-

---

<sup>1</sup> Tayanch.

gan Shahobiddin chiqib keldi. Sul-tonmurod salom-  
alik bilan cheklanib, o'tib ketmoqqa tirishsa ham,  
Shahobiddin uning yelkasiga qo'lini sekingina qo'yib,  
tutib qoldi.

— Xo'sh, janoblari biron arz bilan keldilarmi?  
Mazmunidan kaminani ham ogohlantirasizmi? —  
mehrionlik bilan so'radi mavlono Shahobiddin.

Sultonmurod ichida: «Bo'ridan qutulib, tulkiga  
uchradim», dedi-da, garchi uning qanday maqsadda  
kelganini Shahobiddin taxminan payqaganligiga  
ishonsa ham, bu jirtaki bilan bu yerda g'ijillashib o'ti-  
rishni o'ziga ep bilmagani uchun kelish sababini  
ochmadi; «Kichik bir arzimiz bor edi», deb qo'ya  
qoldi. Shahobiddin quyuq qoshlarini chimirib, kichki-  
na, ayyor ko'zlari bilan o'z raqibiga tikilib, uning yuzi-  
da g'amgin parishonlik sezdi va Majididdinning  
qo'pol muomalasidan bu sodda olim rosa qo'rquvga  
tushibdi, deb o'yladi.

— Har qanday ariza va shikoyatingiz bo'lsa, har  
qanday mushkulot va iztirob qarshisida qolsangiz,  
bevosita kaminaga murojaat qilingiz, — avvalgidan  
ham yumshoqlanib dedi Shahobiddin. — Alhamdulillah,  
vaziri a'zam<sup>1</sup> hazratlariga qarobatim<sup>2</sup> bor, ilti-  
mosimni hech vaqt yerda qoldirmaslar.

— G'amxo'rliğingiz uchun tashakkur. Men o'z  
ovozimni, istasam, podshohga qadar yetkiza bilur-  
men, — dedi g'ijinib Sul-tonmurod.

Mavlono Shahobiddin aksirib, rutubatdan shiko-  
yatlandi, xiyla oqargan quyuq soqolini qo'llari bilan  
silab-artib:

— G'oyat qiziqqonlisiz-da, birodar. Munda keling,  
munda, — deb Sul-tonmurodni, xohishiga qo'ymas-  
dan, olib ketdi.

Ular yozlik, yengil ayvonchanning chetiga o'tirdilar.  
Quyoshning mayin, qizil shaffof shu'lalari gullagan  
bog'ning, bahorning husnini rangdan-rangga solib  
ochmoqda edi. Sul-tonmurod iyagini bir qo'liga tirab,

---

<sup>1</sup> Ulug' vazir.

<sup>2</sup> Yaqinligim.

sukut bilan tomosha qilarkan, Shahobiddin uni asta turtidi: «Bog‘i Eram-a? Oлло taoloning karami keng, baxt ato qilsa, kichkina, lekin latofati barq urgan bir bog‘ sizga ham muyassar bo‘lur», dedi.

— Taqsir, men hasad qilayotganim yo‘q, zavqlanmoqdamen, — dedi Sul-tonmurod qayrilib.

— Albatta, albatta, hasad qursin!

— Muddongiz ne edi, shoyad so‘zlagaysiz, — sabr-sizlanib, murojaat qildi Sul-tonmurod.

Shahobiddin gapni qanday boshlashning evini topmaganday ikkilanib, yana qo‘lini Sul-tonmurodning yelkasiga qo‘ydi va soxta tabassum bilan dedi:

— Bu kaminaga nisbatan ko‘nglingizda andak gina bor. Buni men, garchi sizdan biron nishonasini ko‘rmagan bo‘lsam ham, bir qancha vaqtdan buyon aql ko‘zi bilan sezamen. Yoki men xato qilamenmi?

— To‘g‘ri, albatta, sababsiz bo‘lmasa kerak.

— Tamoman behuda! Bu xususda ko‘nglingizda zarra qadar g‘ubor qolmasin, birodar. Zamonamizda shunday kishilar borki, ular do‘stlar orasidagi samimiyatni buzishni hunar qilib olganlar. Ularning so‘zlariga zinhor quloq osmang, xo‘bmi?

— Taqsir, men, har holda, haqiqat bilan yolg‘onni farq qila olsam kerak.

— Shayton otamiz Odamni ham aldagan emasmi? Orada shaytonlar yo‘qmi?— dedi ishontiradigan ohangda Shahobiddin.

Sul-tonmurod taajjulanib, sukut qildi. Shahobiddindagi bu o‘zgarishni u aslo kutmagan edi. Garchi Shahobiddin o‘z gunohlarini e‘tirof qilmasa-da, har holda, o‘z yomonligini jilovlashga qaror qilganligiga, uning qora ruhida insofdan bironta uchqun qolganligiga shubha qilmadi. Haqsiz hujumlardan, bo‘htonlardan qutulib, tinch ishlay olishiga ichdan suyundi.

Shahobiddin uning iste‘dodini maqtadi. Majididindan unga in‘omlar olib berish mumkinligini so‘zladi. Sul-tonmurod o‘z ahvolidan mamnun ekani-ni, hech qanday in‘om-ehsonga muhtoj emasligini qat‘iy bildirdi. Shahobiddin uning darvesh tabiati

haqida soʻzlab, doʻstona koyingan boʻldi. Keyin Sul-tonmurodning sabrsizlanganini sezib: «Andak oʻti-ring», deb uning tizzasini bosdi. Umrining gʻoyasi bir qimmatli ilmiy kitob yozmoqdan iborat ekani, buning uchun oʻn yillar mobaynida hech kimga bildirmasdan, turli kitoblar koʻrib, tatabbu qilib kelganligi haqida soʻzlab ketdi.

— Koʻp yaxshi niyat, yozing, taqdir, — dedi Sul-tonmurod lablarining uchidagi tabassum bilan. — Olimlar uchun eng faxrli ish budir. Chunkim, kitoblar odamzodning fikr durlarini toʻplab, ularni asrlarga qoldiradilar. Biz va siz bir hovuch tuproqqa aylanur-miz, lekin kitoblar, tunj va toshdan yasalgan haykallar kabi, abadiyan saqlanurlar.

— Ammo, birodar, — dedi oʻksizlarday qarab Shahobiddin, — bir nimarsa monelik qilmoqdaki, koʻngil shundan tunday xiradir.

— Goʻzal niyatlar, ulugʻ maqsadlar qarshisida hech qanday monelikning boʻlishi mumkin emas, taqdir.

— Aytish oson, lekin monelikni bartaraf etmoq mahol. Masalan, hozirgi kunda kaminaning vazifalari gʻoyat koʻp, balki erta-indin kaminaga yana yangi vazi-falar topshirilur. Vaziri aʼzamning muborak xotirlarini qaytarmoqqa, albatta, imkon yoʻq. Umrim oʻtib, asarim dunyo yuzini quvontirmasdan ketadiringanga oʻxshaydi.— Bu yerda Shahobiddin bir nafas Sul-tonmurodga tikilib oldi va yalingan tovush bilan davom etdi.— Birodar, haqiqiy inson oʻz ajizini iqrar qilmoq-dan zavq olur. Sizdan yashirgʻulik sirim yoʻq, chin soʻz shulki, garchi maʼlumotim darajai tomʼga erish-gan boʻlsa ham, koʻproq tajriba qilmaganligim sababli, yozmoqqa qiynalamen, koʻksimni toʻldirgan fikrlarni qogʻozga koʻchirishda qalam sarkashlik qiladi. Masalan, sizning qalamingiz bodraftordek<sup>2</sup> ravon... Siz jadal qilsangiz, bir necha oy mobaynida fikr xazi-nangizdan nodir asar tugʻdirasiz. Keling, biz uchun shunday bir asar yozing. Men uni oʻz qoʻlim bilan

<sup>1</sup> Yuqori darajaga.

<sup>2</sup> Tez uchadigan shamoldek.

eltib, podshoh hazratlariga taqdim etay, u hazratning muborak ismlari bilan kitobni muzayyan qilay. Ha, bu ish siz va men, yana ollo taolodan o'zgalarga maxfiy qolur. Mehnatingiz va qadrshunosligingiz ajrini to tirikmen, mendan behad ko'rursiz. Ma'qulmi, birodar? So'z bir — olloh bir!

Sultonmurodning rangi o'chdi. O'rnidan dik turib, etagini poqdi.

— Taqdir, olimlik shuhrati uchun kitob yozmoq shart emas,— titroq lablari bilan bo'g'ilib gapirdi u. — Har bir inson o'z qadr-qimmatini bilishi kerak. Siz shu qadar pastlashdingizmi? Men ilm savdogari emasmen, taqdir!

Shahobiddinning a'zoyi badanini titroq bosib, tili g'uldurab: «Hay-hay, birodar!» derkan, Sultonmurod bir zumda ko'zdan yo'qoldi.

\* \* \*

Majididdin Hirot boyonlarini xuftondan keyin izzat-ikrom bilan kuzatib yolg'iz qolarkan, oltin shamdonlarda to'p-to'p yongan shamlarning nuridan, jonli chamanzorday yashnagan yumshoq gilamlar ustida u yoq-bu yoqqa yurar, shodligidan, qandaydir, tasodifan esga tushgan bir maqomni sekin-sekin kuylar edi.

U boj-xiroj masalasida va davlat uchun kerakli ba'zi buyumlarni yetkazib berishda boylarga imtiyozlar berdi. Undan nima ketibdi? Zarar podshohning xazinasiga... Buning badaliga u boyonlardan yombilar, fil tishidan yasalgan ajoyib qutilarda la'ligavharlar, Hindda, Misrda, Xitoyda ishlangani, hatto podshohning ham ko'zini o'ynatadigan nodir matolar hadya oldi. «Kosiblarga, dehqonlarga g'amxo'rlik qilishdan qanday foyda chiqadi? Mutlaqo hech nima! Vaqti kelsa, bu boyonlarning har biri, bir azamat tog' kabi, uni himoya qiladi. Mana, barqaror siyosatning tamal toshi!» deb ichida o'ylarkan, birdan yodiga bugun tortiq qilingan go'zal qiz kelib tushdi: «Jon olguvchi ofat u! Ko'zim tushishi bilan jismimda qonlarim yonib ketdi».



Majididdin sabrsizlanib, eshikka quloq solarkan, dahlizda ko'p qadamlarning guvillagani eshitildi. Masalani uzoq o'ylab, mustahkam qarorga kelib qo'yganidan yashirin, tor majlisning tez o'tishiga ishondi.

To'g'onbek bilan birga bir guruh ulug' mansabdorlar, saroy tevaragida yashaydigan zarto'nli bekorchilar kirib kelishdi. Ular o'tirishi bilanoq Majididdin Shahobiddinga eshik va darichalarni mahkam berkitishga buyurdi va hammaga bir-bir nazar tashladi. Hammaning yuzi jiddiy va jinoyatkorona o'ychan edi.

— Do'stlarim, oramizda sir yo'q, — sekin, ammo qat'iy qilib gapirdi Majididdin... — Maqsad va mudaoimiz ma'lum. Men bir masalani sizning muhokamangizga havola qilmoqchimen.

Hamma birdan enkaydi. To'g'onbek pishillab, oldinroq surildi. Ilgaridan ko'zlangan ov uchun qat'iy va so'nggi kengashga to'plangan o'g'rilar to'dasidek, sirli sukunat ichida quloqlar dikkayib, ko'zlar jovdirab ketdi.

— Dushmanimiz hanuz silohini<sup>1</sup> tark etmadi, — davom etdi Majididdin. — U tish-tirnog'i bilan bizga chuqur qazimoqda. Haqiqatan, u kuchli, tadbirli dushman. Shuning uchun xavf-xatar g'oyat kattadir. To'g'ri, bizga shahanshohning iltifot va muruvvatlari baland, sadoqatimizga imonlari komil, ammo, unutmaylikki, podshoh va Alisher bir qarich yoshdan boshlab do'st bo'lishganlar. Alisherdan keyingi oylarda podshoh paydar-pay maktub olmoqdaki, ba'zilarining mazmuni bilan tanishmoq menga muyassar bo'ldi. Alisher mamlakatning faqirlashganining sabablarini ko'rsatib, o'zicha isbotlab, butun davlat tartibotini isloh qilmoqni tavsiya qiladi. Keyingi ma'lumotlarga binoan, u endi poytaxtga kelmoqqa azm qilgan. Iloji bo'lsa, uchib kela qolsa...

— Muvaqqatanmi?<sup>2</sup> — cho'chib so'radi Mavlono Shahobiddin.

— Tug'ilgan shahrida o'lmoqchi emish, — istehzo bilan javob berib, davom etdi Majididdin. — Xudo

---

<sup>1</sup> Qurolini.

<sup>2</sup> Vaqtinchami.

ko'rsatmasin, Hirotda yashashga ijozat olsa, erta yo kech hammamizni ost-ust qilishi muqarrar.

Majididdin odamlarning fikr va kayfiyatlarini aniqlamoq niyatida sukut etdi. Yosh beklardan biri suvsar telpagini olib, boshini qashidi, keyin Alisherning xalq orasida obro' va e'tibori borgan sari oshib ketayotganini ham butun mamlakatda to hazrat Jomiydan tortib, jamiki ilm, san'at ahli unga chuqur muhabbat bilan bog'langanligini so'zladı. Podshoh shuncha xalqning orzusiga qarshi turolmay, oxirida Alisher bilan munosabatni yaxshilashga majbur bo'lishi mumkinligini bayon qilib, qattiq choralar ko'rishni uqtirdi.

— Har yo'l bilan Navoiyni podshoh hazratlariga yomonlay berish kerakki, sobiq do'stlikning eng keyingi iplari ham uzilsin, — taklif qildi Shahobiddin.

To'g'onbek bu eski tadbirga unchalik e'timod etmaslikni isbot qilishga tirishdi:

— Qoralash uchun yangi hujjatlarimiz ham yo'q, — dedi u salmoqlanib. — So'z teri emaski, kafshdo'zdek suv purkab, chaynab torta bering... Men ovda podshoh hazratlari bilan bir oy birga yurdim, birga o'tirdim. Menga bo'lgan iltifotlari hammangizga ma'lum. Suhbat vaqtida Alisherning tutgan yo'lini har vaqt qoralashga tirishdim. Lekin podshoh hazratlarini ishontirdim, deb ayta olmayman. Hazratning ko'ngillarini bilish qiyin. Mening fahmimcha, shahanshoh bu xususda taraddudlanadilar. Shuning uchun eng ishonchli chora shuki, Alisherni bu dunyodan olib tashlash kerak — vassalom.

O'tirganlar boshlarini ko'tardilar. Ba'zilar chuqur xo'rsinib qo'ydi. O'rtaga og'ir sukut cho'kdi. Majididdin odamlarning ko'zlariga qarab, ularning ko'nglida allaqanday kurash ketayotganini sezdi.

— To'g'onbekning yo'li — eng to'g'ri yo'l, — qat'iyat bilan dedi Majididdin. — Men aytmoqchi bo'lib turgan taklifni shijoatli To'g'onbek, o'z odatiga muvofiq, shartta o'rtaga otdi. Mening yagona iltimosim shuki, bu taklif to'g'risida aslo munozara qilmasligimiz

kerak. Hammamiz dushmanga qarshi kuchli chora oqtaramiz. Axir o'limdan kuchli narsa bormi?

— Hazil ish emas bu, qanday qilib amalga oshirmoqchisiz? — bezovtalanib so'radi eski dushman Xo'ja Xatib.

— Har bir jihati o'ylangan, tarozuda tortilgan, — javob berdi Majididdin. — Astrobodga saroy bakovullaridan eng pazandasini yuborurmiz. Alisherga lazzatli taomlar pishirib berur!

Bu yo'l hammaga benihoyat ma'qul tushgani va yagona to'g'ri topilganidanmi, hech kim boshqa yo'l taklif qilmadi ham, e'tiroz bildirmadi ham...

Odamlar eshikka chiqarkan, Shahobiddin orqada qoldi-da, Majididdinga murojaat qilib, Sultonmurodni bugun-erta zindonga tashlashga yoki Xuroson tuprog'idan haydashga farmon berishini iltimos etdi. Go'zal qizga tezroq erishuv uchun oshiqqan vazir jerkib tashladi.

— Quyushqondan tashqari chiqmang, taqsir. Unga tuhmat qilgan emishsiz.

— Shakkok u, shakkok! — qo'pol muomaladan g'uldirab qoldi Shahobiddin.

— Vaziyat qulay emas, xalq orasida g'alayon avj olishi mumkin. Agar u olim ko'zingizga tikan bo'lib qadalsa, uni madrasada dars berishdan mahrum qilarmiz, ma'qulmi?

Shahobiddinning rangi o'chib, titrab ketdi.

— Yo'q, jonim tasadduq bo'lsin, vazir janoblari, — dedi u yolvorib, — filhaqiqat, men quyushqondan tashqari chiqibmen. Afv etasiz, men siyosat odami emasmen. Vaziyat og'ir dedingiz — to'g'ri. Uni darsdan ham mahrum qilmangiz. Iste'dodli yigit, albatta. Mening nasihatlarimga quloq osib, to'g'ri yo'lga tushib qolar, aminmen. Balki o'z tarafimizga butunlay moyil qilurmiz. Zoti oliylaridan so'raymen, tinch qo'yaylik uni.

— Esingizni yeb qo'yibsiz, taqsir. Fikringizda aslo qaror yo'q. Ixtiyor sizda, — dedi Majididdin va eshikka tomon mag'rur yurib ketdi.

— Shu kunlarda, darvoqe, zehnim parishon, — orqadan soʻzlab qoldi Shahobiddin.

U Sul-tonmurod bilan boʻlgan haligi voqeadan keyin chindan ham esini yoʻqotgan edi, chunki Sul-tonmurod uni, istasa, sharmanda qilib, odamgarchilikdan chiqarib, butun hayotini zaharlashi mumkin edi. Sul-tonmurod bilan avval munosabatini yaxshilab, uni xoʻb sinab, undan keyin niyatini ochmaganiga, kaltafahmli-giga qattiq kuydi. Nihoyat, alamiga chidolmasdan, gʻazab ichida qaror qildi: «Bugun-erta zindonga tashlatib, qurtlarga yem qila-men seni!» Ammo hozir Majididdin uning bu iltimosini qatʼiy rad qilganidan soʻng Sul-tonmurodga bosh egmoqdan boshqa iloji yoʻq edi. Shuning uchun oʻzini gʻoyat kulunch vaziyatda qoldirib, uning madrasadan haydali-shiga jon-dil bilan eʼtiroz qildi.

Shahobiddin uyatdan va qaygʻudan oyoqlari majol-sizlanib, bogʻdan chiqdi. Oy-din kechada, jimjit uxlagan, kimsasiz koʻchalarda qoʻlini orqasiga qoʻyib, oʻnqir-choʻnqirlarning farqiga bormay, kalavlanib borarkan, faqatgina Sul-tonmurod bilan yarashish yoʻllarini oʻylardi.

## II

Ertasi Sul-tonmurod quyosh yoyilganda, «Ixlosiya» madrasasiga keldi. Katta darsxonaga kirib, har kungi oʻtiradigan oʻrnida chordona qurdi. Taomil boʻyicha navbat bilan guruh-guruh kelib, dars oluvchi talabalarni kutarkan, Shahobiddinning jiyani kirib keldi. U husndor, xushmuomala, qizlarday uyatchan yigit edi. Ikki yil burun Sul-tonmurod unga bir necha oy hisobdan va arab tilidan xususiy dars bergan edi. Yigitni ochiq yuz bilan qarshilab, yoniga oʻtqazdi. Uning mashgʻuloti va hokazo haqidagi savollariga yigit qisqa javob berdi. Keyin qoʻlini koʻksiga qoʻyib:

— Janoblari hozir dars boshlasalar kerak, ikki ogʻiz soʻz uchun ruxsat beradilarmi? — murojaat etdi yigit.

— Soʻzlayveringiz.

— Tag‘omiz bilan sizning orangizda qandaydir noxushlik ro‘y beribdi. Lekin kamina shogirdingiz uning asli mohiyatidan aslo xabardor emas, — nozik qo‘llari bilan tasdiqlab gapirdi yigit. — Yolg‘iz shu narsa ma‘lumki, u kishi sizning ko‘nglingizni og‘ritib-dilar. Bu holdan o‘zlari bag‘oyat qayg‘urmoqdalar. Shogirdingiz siz janoblariga u kishining uzrini keltirdi. Qabul etsangiz, men benihoyat quvonurmen. Ayb qilmoqdan ko‘ra, aybni iqror qilmaslik yomon. Modomiki, tag‘omiz sizni haqli topdilar...

— Biz hammamiz insonmiz, — kulib gapirdi Sultonmurod. — Hammamizda ham nuqson bor. Aks holda, biz farishta, olam jannat bo‘lur edi. Agar mumkin bo‘lsa, hozir borib tag‘ongizga ayting, men gina saqlamaymen.

— Qalbingiz ulug‘dir, bilurmen, — birdan quvonib ketdi yigit.

— Yana shu jihatni ham u kishining qulog‘iga yetkazingki, men shaxsiy qasos oluvchilardan nafrat qilurmen. Ko‘ngillari tinch bo‘lsin.

Yigit ta‘zim va ehtirom bilan qo‘zg‘aldi, olimga o‘z minnatdorchiligini qayta-qayta bildirib, chiqib ketdi.

Kitoblarini qo‘ltiqlab, oyoq uchida darsxonaga besh tolibi ilm kirdi. Sultonmurod ularga qiyomgacha dars berib jo‘natdi. Ikkinchi guruhni kutdi. Shu asnda sallasini qunt bilan o‘ragan, guldor etikli, olifta, o‘rta yashar bir kishi kirdi. Sovuq tavoze bilan bir taxta qog‘ozni taqdim etdi. Sultonmurod o‘qiy turib, rangi oqarib ketdi: bu — shayx ul-islomning farmoni edi. «Mamlakati islomda, dini Muhammadning ulug‘ homiysi va amaldori bo‘lgan xoqon ibni xoqon Sulton Husayn Boyqaro Mirzoning saodatli zamonida musulmonlikning asosotiga raxna solg‘uvchi fikrlarni tolibi ilmlarga talqin etgani va hokazo...» uchun Sultonmurod madrasadan tard<sup>1</sup> qilingan edi. G‘azabdan, og‘riqdan tutaqqan olimning ko‘z oldi qoraydi.

---

<sup>1</sup> Quvilish, haydalish.

Tepasida qaqqaygan kishiga qarab, titrak ovoz bilan dedi:

— Shayx ul-islom janoblari bizdan zulm-jabrni aya-masinlar. Haqiqat yo‘liga jonimizni shavq-zavq bilan fido qilmoqqa hamisha tayyormiz!

Mulozim soxta ta‘zim qilib, keskin yurish bilan chiqib ketdi.

Sultonmurod kecha Majididdin bilan bo‘lgan uchrashuvini o‘yladi. Lekin uning haqida Shahobid-din va uning singari johillar shayx ul-islomga ilgaridan chaqiq qilib, ishni pishirib qo‘ygan ekanliklarini tax-min qildi. U o‘rnidan irg‘ib turdi. Farmonni qo‘llari bilan g‘ijimlab, burchakka otdi-da, darsxonadan chiq-di; turli hujralardan yig‘ilib, darsga kelayotgan tala-balariga qaramasdan, ularni hayratda qoldirib, ko‘cha-ga otildi. Xonaqohga kelib, o‘z xonasiga kirdi-da, kitoblar orasiga darmonsiz, behol tiz cho‘kdi. Ammo ichidagi alam o‘ylashga ham, o‘qishga ham imkon bermas edi.

Peshindan keyin talabalari kirishdi. Bularning ichi-da miyiq-lari endi bilina boshlagan o‘spirinlar va o‘n yillab madrasada muqim bo‘lgan sersoqollar bor edi. Hammalari g‘azabli, hayajonli edilar. Sultonmurod o‘zini favqulodda dadil tutib, ularning ko‘nglini tin-chitishga tirishdi. Talabalardan biri tutaqib qichqirdi:

— Bu ahvolga toqat etib bo‘lmaydi, taqsir! Aflotun, Arastu, Ibn Sino, Forobiy va Ulug‘bek kabi faylasuf va olimlarning fikrlarini talqin etmoq majusiylik, shakkoklik, deb e‘lon qilinsa, madrasalarda ilm nomi-ga nima qolur?

— Ilmparvarligi bilan shuhrat chiqargan bir pod-shohning poytaxtida bu qadar jaholat! — dedi ikkinchi talaba qaynab.

— Shayx ul-islom janoblari o‘z farmonlarini e‘ti-bordan soqit qilmasalar, madrasani tark eturmiz, biro-darlar! — dedi uchinchisi.

— Albatta!

— Boshqa iloj yo‘q! — bir og‘izdan qichqirdi boshqalar.

— Aziz do'stlarim, — murojaat etdi Sul-tonmurod so-kin, — farmonga itoat etib, madrasada sizlar bilan mashg'ulotimni to'xtatmoqqa majburmen. O'limimga rozimen, lekin ilmda qalloblikka, haqiqatni yashirish-ga aslo rozi bo'lmasmen. Sizdan shu narsani orzu qi-lamenki, hammangiz ilmlarni ulug' va sof ko'ngil bilan o'rganingiz va ularning rivojiga hayotingizni bag'ishlangiz. Jahonda inson uchun bunday oliy, bun-dan sharaflı ish yo'qdir. Ammo haqiqiy ilmni ko'hna, puch aqidalardan ayira bilingiz. Haqiqiy ilm falak mushkullarini hal qilmoqqa, sirlarni kashf etmoqqa yo'l ko'rsatur. Aqlning kuchiga ishoningiz, sizga har vaqt u rahbar bo'lsin. Besh-o'n kitobni ko'rib, olimlik da'vosi bilan lof urmoqdan saqlaningiz! Yana bir o'tinch shulki, hech qanday g'avg'o ko'tarmasdan, endi darslaringiz bilan shug'ullaningiz. Hirotda hamma mavjud ilmlarni favqulodda chuqur biluvchi olimlar ko'pdir. Ularning aksari kaminaning ustodla-ridir. Ularning ilm daryolaridan chin ixlos, g'ayrat va samimiyat bilan foydalaningiz. Men aminmenki, Na-voiy janoblari yoqqan ilm mash'alini jaholat va zul-mat, garchi bo'ron kabi qutursa ham, aslo so'ndira olmas!

O'z ustodini butun borlig'i bilan berilib tinglagan talabalar uzoq cho'zilgan og'ir sukutdan so'ng yana hayajonlana boshladilar. Shayx ul-islomga, Majidid-dinga uchrashmoq haqida o'zaro qizg'in kengashib, nihoyat, Sul-tonmurodning iltimosi bilan, birin-sirin tarqalishdi. Xonaqohda doimiy yashaydigan olimlar, shoirlar va o'zga san'at ahllari ham bu voqeadan g'azabga kelishdi. Ba'zilar haqiqatan xavfsiray boshla-di: «Bosh vazir hammaning tagiga yetmoqda. Erta-indin nima bo'lar ekanmiz!»

Zayniddin bilan Arslonqul hovliqib, titrab kirar-kan, olim ularni har vaqtdagi tetiklik bilan qarshi oldi. Zayniddin vazirni, shayx ul-islomni hajv qilgan bir shoirning she'rini o'qib berdi-da, o'zi ham Hirotning bezorilari tili bilan ularni so'kib qo'ydi.

— Men bir narsaga dog‘men, — qo‘llarini palaxsa qilib, kuyunib gapirdi Arslonqul. — Bir kun qaraysenki, bu shahri azimga Rumdanmi, Hinddanmi, Xitoy ichidanmi — anov Chalabiyga o‘xshagan olim kelib qoladi. Bu — aniq. Xo‘sh, u vaqtda masala talashmoqqa kim chiqadi?

— Shayx ul-islomning o‘zi! — javob berdi Zayniddin.

— Yo‘q, uning beli ilmda chumolining beliday mo‘rt bo‘lsa kerak! — deb Arslonqul kallasini shunday g‘alati, ma‘nodor tebratdiki, ikki do‘st boshqa vaqtda bunga qotib-qotib kulishgan bo‘lar edi, lekin hozir iljayibgina qo‘yishdi.

— Madrasada senga o‘rin yo‘qmi? Mayli, sen fikrlaringni yoz! — do‘stiga qat‘iy taklif qildi Zayniddin. — Hech kimdan xavflanmasdan, dadil yoz! Zotan, fikrlarning sayri sayohati uchun qog‘ozlar tolmas qanotlar kabidir, ular tog‘dan ham, dengizdan ham uchib o‘tgusi.

— Albatta, yozamen, albatta! — yengillanib, javob berdi Sultonmurod.

### ***Yigirma to‘rtinchi bob***

Bog‘i Jahon oro kun sari kuchli qizdirgan quyoshda yashnar, kumushlangan hovuzlar bo‘yida juft-juft bo‘lib yalqovgina qadam tashlagan tovuqlarning qanotlari kabi, xilma-xil tovlanar, go‘yo har lahzada o‘z husni-latofatini to‘lishtirib turar edi.

Xuddi oltin bilan to‘qilgandek yorqin havoda ajoyib charx urib, kabutarlar — qanotli raqqoslar o‘ynardi. Husayn Boyqaro bo‘yni tolib, ko‘zi yoshlanguncha tomosha qildi. Mulozim yaqinda keltirilgan urishqoq qo‘chqorlarni, agar u amr etsa, ko‘rsatish mumkinligini bildirdi. Husayn Boyqaro kecha haddan ortiqroq ichib qo‘yganidan, hozir ko‘ngli behuzur edi. U, ertaga jang qildirib ko‘rarmiz, deb mulozimni qaytarib yubordi. Keyin orqasida har vaqt ergashib yuradigan suhbatdoshlariga qo‘li bilan, qola beringlar, degan



ishoratni qilib, o'zi qasrga kirdi. Eshik og'asi Boboaliga Abdulhayni chaqirishga buyurdi-da, oltin taxtda chordona qurib oldi. U o'z tenglariga qaragan-da ancha qarimsiq ko'rinar edi. Bir vaqtlar o'tkir, o'ynoq ko'zlari endi zaiflashgan, qilichni zarb bilan uradigan baquvvat qo'llar ba'zan darmonsizlikdan titrar, gavdasi cho'kkan edi. Shuning bilan barobar u hali o'zini tetik tutishga tirishar edi. Haqiqatan, goho avvalgi g'ayratga kirar, kerakli vaqtlarda azm-sabot ko'rsata bilardi. Ulug' bobosi Temur kabi yangi mamlakatlar zabt etish orzusida qonli, sermashaqqat safarlarni u aslo o'ylamagan bo'lsa ham, ammo kuchli raqiblar qo'lida davomli kurashlarda tortib olingan mamlakatni qo'riqlashga hamisha tayyor edi. Viloyatlarga ko'z tikkan xonlarga yoki goho toju taxt uchun olovlangan ichki isyonlarga qarshi safarlarga chiqishdan erinmasdi.

Bosh tabib Abdulhay kirib, ta'zim qildi. Tib qoidalariga qattiq rioya etib, umrining ko'pini parhez bilan kechirgan tabib, soqolining oqiga qaramay, kaltakday mahkam edi.

— Behuzurmilar? Muborak tomirlarini ko'rib qo'yaymi? — murojaat qildi Abdulhay ta'zim bilan oldinga yurib.

— Bizga bir oz ma'jun bersangiz kifoya.

— Sezgan edim, kecha chizi... — dedi-da tabib orqasi birlan yurib chiqib ketdi.

Ma'junni yeb, ta'siri bilingandan keyin, Husayn Boyqaro bosh vazirni qabul qildi. Majididdin podshohga, har vaqtdagidan ham ko'ra, yaqinroq o'tirib, ma'ruza qildi. Raiyat<sup>1</sup>ning xursandligi, lashkarning hamma ehtiyojlari to'la ta'min etilganligi haqida juda silliq gapirdi. Keyin sarhadlardan kelgan xabarlar, viloyat va tuman beklaridan olingan maktublar bilan tanishtirdi. Husayn Boyqaro ma'ruzani diqqat bilan tingladi, bosh vazirning fikriga boshini liqillatib, qo'shilganini bildirib turdi. Xazinaga mablag' to'play

---

<sup>1</sup> Bir davlatga tobe fuqaro, aholi.

bilgan vazirga ishonchi zo‘r edi. Garchi u butun mamlakat ishini o‘z qo‘liga olib, uning e‘tiborli beklarini ham biylatmay, ularning jiddiy shikoyatlariga sababchi bo‘lsa ham, bu xususda unga og‘iz ochmagan edi. Kecha Ibrohim Chig‘atoy, Tangriberdi Samonchi, Yomg‘urchi beklar bosh vazirga qarshiliklarini ochiqdan-ochiq bildirishganidan, beklar bilan muomalada nozik bo‘lish to‘g‘risida bir necha og‘iz so‘z uqtirib o‘tdi. Majididdin, asabiyliги va qiziqqonligi orqasida, ba‘zan o‘z xohishiga qarshi kishilarni ranjitishi to‘g‘risida so‘zladi. Keyin birdan tovushini sirga ko‘mib, murojaat etdi:

— Ijizat bersalar, kamina zoti oliylarini bir muhim ishdan ogohlantirsam...

— Marhamat qiling, — Husayn Boyqaro ko‘zlarini katta ochib, boshini vazir tomon egdi.

— Xo‘ja Afzal Iroqda, Yaqubbekning qoshida emish, — davom etdi vazir, — va Yaqubbek jihatidan g‘oyat zo‘r ehtirom, dabdaba bilan qarshi olinmish... Makka sayohati bir bahona bo‘lsa kerak, deb gumon qilamen. Ko‘rdingizmi, toj, davlatingizning dushmani Astrobodda yotib, qanday xiyonatlarni bilan shug‘ullanmoqda? Makr to‘rini u uzoqqa yoygan.

— Yaqubbekning qalbi sof emas. Aks holda, men Astrobodga haydagan bir shaxsga elchilar yuborib, ulug‘ iltifotlar ko‘rsatarmidi? Barchasi dushmanlik namoyishi! — dedi noxushlanib Husayn Boyqaro.

Majididdin podshohning yuziga tikilib, unda har nafas sayin kuchaygan g‘azab va nafratni ochiq payqadi. Yana bir tomchi moy quyib, g‘azabini alangalatmoqchi bo‘ldi.

— Olingan ma‘lumotlarga binoan, — dedi Majididdin, — Balxda ham ahvol yaxshi emas. Garchi u yerda hokimiyat Faridun Mirzo<sup>1</sup>ning qo‘llarida bo‘lsa ham, lekin shahzoda janoblarining yoshligi va tajribasizligidan foydalanib, Darveshali jamiki ishlarni o‘z bilgicha olib bormoqda emish. Og‘a bilan ini orasida

---

<sup>1</sup> Shahzodalardan biri.

paydar-pay choparlar qatnab turmoqdaki, bu xususda har kun yangi ma'lumotlar olurmen.

— Hozirlik ko'ringiz, toki g'aflatda qolib, pushaymon bo'lmaylik! — asabiylanib dedi Husayn Boyqaro.

Majididdin g'urur bilan qaddini rostladi, Astrobod dardisarini bartaraf qilmoq uchun qat'iy choralar ko'rishni va'da qildi.

Husayn Boyqaro Hisor voqealari, Sultonmurodning yangi kirdikorlari haqida so'zlashib o'tirib, gap orasida birdan shayx ul-islomning farmonini eslatdi:

— Bu qanday hol? Men tamom bexabarmen. Madrasalarda tolibi ilmlar, bir ko'p mudarrislar g'oyat mutaassir bo'lgan emishlar.

— Alisher Navoiyning «Ixlosiya» madrasasi va xonaqosi fitna-fasod o'chog'idir, — dedi Majididdin g'amgin bir tur bilan. — Ilm va falsafa nomi bilan Alisher tayinlagan mudarrislarining aksari dahriylikni ta'lim bermoqdalar.

— Sultonmurod — favqulodda iste'dodli olim, deyдилar... — boshini tebratdi achinib Husayn Boyqaro. — Afsuski, haqiqat yo'ldan adashmish.

— Siyosatda u qora xalq tarafdori emish. Hukumat dehqonlarga va kosib-hunarmand ahliga g'amxo'rlik qilishi kerak va hokazo degan safsatalarni talabalarga talqin qilar emish.

Husayn Boyqaro butun madrasalarda nazoratni kuchaytirmoq kerakligini vazirga uqtirdi.

— Har bir madrasada odamlarimiz bor... «Ixlosiya»da ko'proq! — dedi kulib Majididdin.

Husayn Boyqaro yengillanib, o'rnidan turdi. Vazirni o'zi bilan musiqiy tinglashga taklif etib, devorlari xitoyi chinnidan ishlangan xonaga o'tdi.

## Yigirma beshinchi bob

### I

Shamol o‘ymakor darichaning tavaqalarini bir-biriga urib, taraq-turuq bilan yopdi. Past kursi ustidagi qog‘ozlar shaldirab uchib ketdi. Sohibi deivon<sup>1</sup> mavlono Nizomiddin, ko‘rinishda beg‘am, betashvish, lekin o‘z boshlig‘iga hamisha itoatkor, vazifasini erinmay bajaruvchi eski amaldor, homuza tortib: «Yopiray, bu nima hangoma!» deb lapanglab o‘rnidan turdi; uvushgan tizzalarini uqaladi: tarqoq qog‘ozlarni yig‘ishtirib, yana o‘rniga o‘tirdi. Keyin sopiga mayda feruzalar qadalgan mo‘jaz pichoq bilan qalamni ochib, siyohdonga botirdi. Sinamoq uchun bir parcha qog‘ozga «itqi», «izg‘i»<sup>2</sup>ni yozib ko‘rdi. Keyin kent boshliqlariga tayyorlanayotgan farmonlarni qitirlatib yozib ketdi.

Qo‘shni xonaning to‘rdagi eshigi yengil «g‘irch» bilan ochilgach, shuursiz ravishda qalamni kursiga qo‘ydida, xira ko‘zlariga eski ma‘murlik, vazifashunoslik hissini to‘plab, boshliqqa tikildi.

— Bizga kiruvchilar yo‘qmi? — so‘radi Navoiy.

— Yo‘q. So‘nggisi haligi cho‘loq dehqon edi. Huzuringizda rosa o‘tirdi. Ammo, sezdim, qanot taqib chiqibdi go‘yo... Men kulib qo‘ygan edim, qulog‘imga asta shivirladi: «Nega shu kishining o‘zi yurtga podshoh bo‘lmaydi!» Men dedimki, bu kishi faqirlikni podshohlikdan afzal ko‘radi. U boshini tebratib: «Qo‘ying, unday yomon niyatda bo‘lmang!» deb chiqib ketdi.

Navoiy kamtarlik bilan tabassum qildi:

— Ajab qiziq, shirin kalom kishi ekan, — dedi shoir eshikka suyalib. — Har ne to‘g‘risida gaplashdik. Har xususda yaxshi ma‘lumotlar berdi. Eski qo‘shiq-larni, ertaklarni, bobolarning purhikmat so‘zlarini yaxshi bilur ekan. Yana ba‘zi bir dala qushlarining

<sup>1</sup> Mahkama boshqaruvchisi ma‘nosida.

<sup>2</sup> Arab alifbosidagi harflardan.

xususiyatlari haqida ajoyib narsalar soʻzladiki, hech bir kitobda u toʻgʻrilarda biron soʻz topmoq imkonsizdir. Tangriga shukur, bizning elning aksariyati uning kabi qalbi sof, idroki oʻtkir odamlardir.

— Toʻgʻri, ammo boshlaridan boʻrki tushmas! — taralmagan soqolini serkillatib, kulib dedi sohibi devon.

— Ularning butun koʻrki yuraklaridadir, — ishonch va gʻurur bilan dedi Navoiy. — Gulning toʻni qirq yamoq, barglari yirtiq boʻlsa ham husni toza emasmi?

— Muhaqqaq, taqsir, muhaqqaq! — shoshib javob berdi sohib devon.

Navoiy baʼzi yumushlarni mavlono Nizomiddinga topshirib, chiroyli muqovali kichkina kitobni qoʻltigʻiga qisib, tashqari chiqdi. Hovlida gap sotib oʻtirgan navkarlar oʻrinlaridan sakrab turib, uni hurmat bilan kuzatdilar. Navoiy chang burqigan, notekis koʻchalaridan uyga joʻnarkan, astrobodlik bir toʻda tanishlarga yoʻliqdi. Bularning ichida biri qasidada, biri gʻazalda durust narsalar yozgan va biri qari va biri oʻspirin ikki mahalliy shoir, kimyo va ilmi nujum bilan mashgʻul boʻlgan darvesh tabiatli olim, sersavlat mufti, yana ikki-uch mansabdorlar bor edi. Ular shoirni qoʻyarda-qoʻymay oʻltirishga daʼvat qilishdi. Darvesh tabiatli olim tantanali bir ohang bilan iltimos qildi.

— Biz janoblarini, yoʻlakay olib ketmoqchi edik. Tole yulduzi oʻz ishini koʻrsatib, sizni yoʻliqtirdi. Dafʼi savdo lozim. Marhamat qiling!

Shaharning yoqasida, tevaragi guvala, tosh aralash urilgan qiyshiq, past devor bilan qurshalgan bogʻda, supada oʻtirishdi. Bu — muftining bogʻi edi. Tezda taomlar tortildi. Shoir qaltiroq qoʻllari bilan koʻkimtir sallasining uchiga qistirilgan qogʻozni olib, koʻziga juda yaqin tutib, oʻqimoqqa boshladi. Bu — uning yangi qasidasi edi. Oʻqirkan, bir-ikki yerda toʻxtab, boshini vazmin tebratdi: «Nabiram koʻchirgan edi. Gʻalat qilibdi... Hayhot, umr!»

Navoiy qasidaning ilk ikki yoʻlini koʻchirib olib, keksani juda xursand qildi. Olim paygʻambarona bir

tur bilan ilmi nujum haqida gapirdi. U Chingizning Movarounnahrğa qonli hujumidan ancha burun bir ko'p olimlarning bu falokatdan xabar berganliklari va ular buni nima bilan isbot qilganliklarini bayon qildi. Navoiy ilmi nujumchilarning yolg'onchiligini isbot etmoqni istasa ham, lekin olimni ranjitmaslik uchun ularning oldindan bergan xabarları qariyb hamma vaqt noto'g'ri chiqishini gapirdi; o'jar olim bilan hazil yo'so'n bahslashdi. Keyin astrobodlik mashhur eski shoirlarning hayoti va asarlari haqida o'tirganlar juda qiziq ma'lumotlar naql etishdi. Nihoyat, gap-so'z asta susayib, bora-bora qumlikka singgan suv kabi, to'xtadi-qoldi.

Havo allaqanday dim; qari shoir boshini quyi solib, mudray boshladi. Tuprog'i bilq-bilq ko'chadan arobaning asablarni parmalaydigan «g'ijir»i eshitilardi. Ko'kka bulut toshdi. Havoda ko'ngilsiz dimlik yana kuchaydi. Bir ozdan keyin, xuddi uyquda yotgan it yaqiniga kelgan odamga birdan uyg'onib o'zini tashlaganday, shamol qo'zg'alib, gurillab o'tdi. Bulutlar katta parchalarga bo'linib, oq tuyalardek har yoqqa yugura ketdi. Quyosh birdan o'tkir chaqnab, hamma yoqni ko'z qamashtirarli nur bilan qopladi. Shu vaqtda olishovur yomg'ir quyib o'tdi. Tomchilar chang bosgan barglar orqali kirlanib, kishilarning ustiga, dasturxon-ga toma boshladi. Navoiy taajjublanib, havoga razm soldi. Uy egasi mufti uning taajjublanganini payqadi.

— Taqsir, bizning shahrimizning xususiyatlaridan biri shulki, — dedi u kulib, — bu yerda bir kunda to'rt faslning havosini ko'rish mumkin!

— Balli! — dedi Navoiy boshi bilan tasdiqlab. — Chunki bu shaharda bir kun bir yil bilan barobardir!

Bu javob umumiy kulgi qo'zg'otdi. Hatto qari shoir cho'chigandek, ko'zlarini katta ochib, atrofga qaradi:

— Ne gap? Ne? — dedi.

Navoiy kechgaga yaqin uyga qaytdi. Hovlida Shayx Bahlul uchrab, Hirotdan mehmon kelganini darak berdi.

— Kim ekan? Ne yumush bilan? — qiziqib so‘radi Navoiy.

Shayx Bahlul sekingina javob berdi.

— Podshoh hazratlarining bakovul'laridan biri... Abdusamad keldi. Endi oshxonamiz yashnagusidir!

Navoiy yelkasini qisdi. Bir nafas qoshlarini ma'nodor chimirib, Shayx Bahlulga shivirladi:

— Har qadamimni poylagan itlar, mazmuni, ozlik qilibdi shekilli!

Shayx Bahlulning ko‘zlari jovdirab, Navoiyga «shundaymi?» degandek tikildi. Keyin kulib yubordi.

Shu vaqt xonalarning biridan bakovul Abdusamad chiqdi. Navoiyni ko‘rib, lapanglab yugurdi. Avval ta'zim qilib, semiz, yumshoq qo‘llari bilan ko‘rishdi. Uning go‘yo moy siljib turganday ko‘ringan lo‘ppi yuzida allanechuk uyat aralash bema'ni bir iljayish bor edi. Navoiy sir boy bermasdan, lekin istehzoli bir ohang bilan: «Musofirchilikda bizga xizmat uchun kelibsiz. Rahmat!» dedi-da, o‘z xonasiga kirdi.

\* \* \*

Abdusamadning bobosi Shohrux Mirzo zamonida jallod edi. Boshlarni cho‘rt uzish, qatorlashtirib dorga osish, qo‘l, oyoq, burun, til kesish kabi qonli dahshatli ishlarni qanday ustalik bilan bajarganligini, ayniqsa teri shilish, po‘stga somon tiqishda mahorati baland ekanini Abdusamad o‘z otasidan, Abu Said Mirzo zamonidagi zindon posbonidan bolalikda ko‘p eshitgan edi. Otasini bir kecha qonga belangan holda zindon yoqasidan topganlarida (uni zindondan qochganlar o‘ldirib ketishgan edi), Abdusamad o‘n yashar, qo‘rqoq, lekin shu bilan baravar pismiqlik quv bola edi. Ko‘p o‘tmasdan, onasi er qildi. O‘gay ota, yoshi ulg‘ayib farzand ko‘rmagan esa-da, «Otning asli qartadir, asli tagiga tortadir», degan gapga ishonganidan bo‘lsa kerak, yetimga kun bermadi. Abdusamad har

---

<sup>1</sup> Oshpaz, dasturxonchi.

kun erta bilan, hakka uygʻonmasdan koʻchaga otilar, bozor va rastalarda izgʻib, qosh qorayganda uyga qaytar, oʻgay otaning koʻziga tikanak boʻlmaslik uchun bir burchakka tiqilib, uxlab qolar edi. Abdusamad koʻpincha oshxonalar tevaragida xira pashshaday aylanib, nihoyat, bir kallapazga shogird tusha bildi. Oʻn besh yoshgacha oʻtin yorib, olov qalab, oʻchoq tozaladi. Arzon kalla shoʻrvani raso ichib, suyaklarini chaqib, iligini yutib, baqaloq boʻlib qoldi. Endi u oshpazlikdan boshqa hunarni esga ham keltirmadi. Bir kun arzimagan narsa ustida xoʻjasi bilan achchigʻlashdi-da, nozik ovqatlar tayyorlaydigan oshxonaga xizmatga kirdi. Bir necha yildan keyin u tayyorlay olmaydigan hech bir antiqa taom qolmadi. Nihoyat, pazardalik orqasida podshohning saroyiga oshpaz boʻlib kirdi. Saroydagi va saroy tevaragidagi odamlarning xulqini miridan sirigacha oʻrgandi. Tashqi porloqlik, koʻz qamashtirarli ziynat, dabdaba va shaʻshaa tagida chirkin fahsh, fitna-fasod koʻrdi. Nozik muomala, nazokat, tavoze va takallufot pardasi ostida qonli xanjarlar, xiyonatlar sezdi. Bu muhitda u, baliq suvda suz-ganday, huzur qilib suzdi.

Majididdin hokimiyat tepasiga kelib, oʻz dargohida favqulodda dab-dabali ziyofatlar berishga boshlaganda, Abdusamad bir necha marta oʻz hunarining «gullari»ni koʻrsatib, Majididdinning diqqatini jalb etdi. Maydan, davlat va dabdabadan mast boʻlgan vazir mehmonlarini kuzatgach, mayda-chuyda mulozimlarini, xizmatkor va navkarlarini toʻplab, bir necha daqiqa hangomalashar, qolgan-qutganlarni ichishga, yeyishga taklif etarkan, Abdusamad xira mushukday unga suykaliq qoʻyardi. Bir kun ziyofatdan keyin, tasodifan u bilan yolgʻiz uchrashishga toʻgʻri kelganda, Abdusamad saroyda, haramda roʻy bergan baʼz sirli voqealarning uchini chiqarib qoʻydi. Majididdin qiziqib, ustalik bilan gapga soldi ham hech taraddudsiz uni «ish»ga oldi. Nihoyat, Majididdin oʻzining saroydagi ishonchli, qadrdon josusi Pir Hoji bakovul orqali bir ming dinorni naqd, yana besh ming dinor



uchun va'da berarkan, Abdusamad jinoyatni savobday qabul qildi-da, safarga chiqdi.

Ertasi Abdusamad oshxonani qo'lga oldi. Shoirning eski qadrdon oshpazi Hasan Sayyohni, o'zi kallapazga shogird tushgan vaqtdagiday, olov va kulga tiqib qo'ydi. Lekin dastlab juda oson ko'ringan jinoyatni amalga oshirish bu yerda imkonsizdek tuyuldi. Muomalada, Haydardan boshqa, hamma u bilan samimiydek ko'rinishiga qaramay, Abdusamad yuraklarning qa'rida, ko'zlarning yashirin ma'nosida, sirlilimo-ishoralarda unga yot kabi qaraganliklarini sezdi. Navoiyning yer tagida ilon qimirlaganini sezadigan ziyrak ekaniga kundan-kun chuqurroq ishondi. Hammaning ikki ko'zi bo'lsa, Shayx Bahlulning go'yo hamma yog'i ko'z... Abdusamad ichini kemirgan yomonlik hislarini bo'g'ishga, yuragida jinoyatning ilon tiliday hamma vaqt likillab turgan zaharli nishtarini vaqtincha makrning qiniga tiqishga tirishdi. Odamlarda shubha izini qoldirmaslik uchun moy sirqigan semiz yuziga oq ko'ngillilik, soddalik niqobini kiydi. O'z o'rnini yana Hasan Sayyohga berib, faqat taomlarning ta'mini totib ko'rish bilan chegaralandi. Shu zaylda ikki oy o'tdi. Hadiksirashlar ancha ozaydi. Shayx Bahlul ilgari Navoiyga kelgan maktablarni undan yashirish uchun qanday quvliklar qilardi — hozir esa bunday narsalarga e'tiborsiz qaraydi u... Ammo Abdusamad hali ham bu muhitda o'zini, shishaga qamalgan chayonday, ojiz sezar, rejalaridan birini qat'iy ravishda tanlab amalga oshirishga botinomasdi. Uchinchi oy Hirotdan yashirin xat oldi. Xatda uni xiyonat, qo'rzoqlik va hokazoda ayblab, agar jonidan umidi bo'lsa, vazifani tez bajarishni buyurgan edilar. Abdusamadning ichida jinoyat iloni yana gajaklanib-dikillab qoldi.

## II

Navoiy devondan qaytib, odati bo'yicha, Shayx Bahlulni yo'qladi. U bo'lmasa, shoir uyni go'yo bo'shdek sezardi. Hasan Sayyoh uning qandaydir

yumush bilan bozorga ketganini bildirdi. Navoiy o‘z xonasiga kirib, sallani qoziqqa ilib, uchli taqyani kiydi. Ko‘rpachaga o‘tirib, bolishga suyandi. Bir oz hordiq chiqargandan so‘ng mashg‘ulot axtardi. «Chor devon» tartibga solingan. Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr»i yana xotiriga keldi. Bir qarich yoshida maktabda mutolaa qilarkan, uning bolalik qalbini asir etgan bu asarning ishq, zamonlar ham voqealarning girdobiga qaramay, hali ham o‘z tozaligini, sehrini saqlar edi. Uni tarjima etish yoki shu mavzuda, shu shoirona kayfiyat bilan o‘z ona tilida yangi asar yaratish orzusi goho uning yuragida to‘lqinlar yasar edi. Hozir ham bolalikda miyasiga naqshlangan misralar o‘lchovsiz darajada to‘lg‘in mazmunda rang va ziyo bilan yongan holda uning boshiga quyulib keldi. Lekin Astroboddagi kayfiyat, afsuski, bunday asarni yozishga mos emas edi. Shoirning yuragida haqiqat dushmanlariga, hammadan sevgan hayot gulini sovurmoqchi bo‘lgan yovuz kuchlarga qarshi g‘azab yonar edi.

Navoiy ba’zi bir qalin kitoblarni varaqladi, Behzodning ba’zi kichik rasmlariga, naqshlariga ko‘zi tushdi. Ranglar va chiziqlarning mislsiz chuqur ma’nosiga, nozik adosiga, san’atkorning bemisl zavqiga berilib, hamma narsani unutayozdi. O‘zi tarbiyalagan, ajoyib o‘tkir tuyg‘u bilan bir onda idrok etgan nodir iste’dodni yodlab ketdi. «Hozir ne ajoyib narsalar yaratmoqda ekan? Koshki uni bir zum ko‘rish muyassar bo‘lsa!» Yuragi do‘stlarning, yaqinlarning, shogirdlarning sog‘inchi bilan to‘ldi. Shoir erksizlikni, g‘ariblikni chuqur alam bilan sezdi. Birdan o‘rnidan turib, tokchadan qalami mo‘y va qog‘oz oldi. Ko‘pdan buyon sira rasm mashq qilmagan edi. Biron narsa chizishni o‘yladi: basharasi odam qiyofasiga o‘xshab ketgan sher... Bo‘ynidan ikki tomonga yo‘g‘on zanjir tortilib, uchlari ikki qoziqqa bog‘langan. Ammo zanjirband sher... mag‘rur. Bu fikr asta-sekin qog‘oz betida jonlana boshladi. Shoir ko‘proq fikrga qiziqib, havas bilan uzoq ishladi. Xomaki holda

umumiy shakl bitganda, Haydar kirdi. U uzoqdan ko‘z tashlab, iljayib qo‘ydi. Keyin rassomning tepasiga kelib qichqirdi: «Alisher Navoiy janoblari zanjirda!» Navoiy ma‘nodor kulimsirab qaradi-da, e‘tiroz qilgandek, boshini chayqadi.

— Jamiki xaloyiq, men aytganim kabi, anglaydi, — dedi Haydar rasmni qo‘lga olib.

Navoiy rasmni bir chekkaga qo‘ydi-da, «Keyin, bo‘sh vaqtimizda yana ishlarmiz. Qani, o‘tiring, sizga bir taklifim bor», — dedi. Haydar gilamga tiz cho‘kib, sho‘x, beqaror ko‘zlarini shoirga tikdi. Navoiy, o‘zi Hirotga bormoq huquqidan mahrum bo‘lgani uchun, rasmiy vazifalar bilan uni poytaxtga yubormoqchi ekanini so‘zlab, Haydarni quvontirdi...

— Qachon? Ham vazifalarim nima bo‘lur? — deb so‘radi Haydar.

— Shu hafta ichi borursiz. Vazifami? Ba‘zi ishlar haqida podshohga ma‘ruza qilursiz, xolos.

Haydar suyunib, tashqariga chiqishi bilan Abdusamad kirdi. U ro‘mol bilan bog‘langan peshonasini siqib, ingrab qo‘ydi.

— Xo‘sh, holingiz nechuk? — so‘radi Navoiy.

— Betobmen. Uch kun bo‘ldi — a‘zoyi badanim qaqshaydi, — lanjlik bilan javob berdi Abdusamad. — Og‘riq ustixonlarimni chaqmoqda, taqsir.

Navoiy tabibga ko‘rinishini buyurdi. Abdusamad qo‘li bilan rad qildi.

— Bu yerning tabiblari yaxshi emas. O‘zim turkona doru qilamen, — dedi Abdusamad va bir oz to‘xtab, davom etdi. — Hazratlaridan bu qulning bir iltimosi bor. Yaqin kunlarda meni Hirotga jo‘natsalar... Garchi, poyqadamingizni ko‘zga surmak, izingizni yalamoq men uchun saodat bo‘lsa ham jo‘namoqqa majburmen, chunki go‘daklarim bor. Har kun yomon tushlar ko‘ramen. Bu ojiz qulingizning iltimosini yerda qoldirmagaysiz.

Har vaqt hatto ortiqcha xursand bo‘lib ko‘ringan va oshxonaga bosh suqqan mushuklar bilan jang qilib qahqaha otadigan bu odamning bunchalik kayfsizlan-

ganiga shoir achindi. Balki, farzandlarini qattiq sog'ingandir, deb o'yladi va rahmi kelsa ham ochiq javob berishga botinmadi.

— Sizni poytaxtdagilar yuborganlar. Ixtiyoringiz ularning qo'lida bo'lishi kerak. Shunday emasmi? — dedi Navoiy yumshoqlik bilan.

— Siz bo'shatib yuborsangiz, poytaxtdagilar nima der edilar. Sizning ra'yingizdan ustun narsa yo'q, — dedi Abdusamad qo'lini ko'ksiga qo'yib.

— Xub, yana o'ylashib ko'rurmisiz. O'zingizni ko'yitmag, tinch yoting...

Abdusamad iltimosini qayta-qayta takrorlab, ingrab, o'rnidan turdi.

Navoiy yostiqqa suyandi. Ko'zlarini yengil mudroq bosdi. Oradan biror soat o'tgach, Hasan Sayyoh kirib, dasturxon yozdi. Xitoyi kosada, qiymasi charviga o'ralgan sho'rbo ham non keltirdi. Navoiy nonni sindirarkan, hazilomiz dedi: «Abdusamad ketib, bizni g'arib qoldiradiganga o'xshaydi». Hasan Sayyoh dakkam-dukkam ko'sa soqolini chimdilab, o'ng qoshi bilan qavs yasab, noxush ohang bilan dedi:

— So'zida subuti yo'q. Bukun degani tonglaga to'g'ri kelmaydi. Kasali ham yolg'on...

— Qanday? Rangi sirqigan-ku.

— Makkai sano' ichgan, — ishonch bilan qo'llarini silkib dedi Hasan Sayyoh. — Kun qoraygandan tong otguncha shunday xurрак tortadiki, bir farsahdan eshitasiz. To'g'risini aytsam, kunduz o'zini kasallikka solishiga aslo tushunolay qoldim. Olamda eng qiyin muammo — uning o'zi.

Navoiy, allanechuk gumonsiraganday, «Taom tayyorlaganda, Shayx Bahlul bormidi?» deb so'radi. Hasan Sayyoh hanuz uning qaytmaganini aytdi. Ovqatni o'zi tayyorlaganini so'zlab, Navoiyning ishonqiramagani uning izzat nafsiga tegib, qisildi. Lekin ovqat suzilarkan, Abdusamad oshxonada g'ivillab yurganini shu onda esladi-da, yuragi birdan o'ynab ketdi.

---

<sup>1</sup> Surgi dori.

U: «Taqsir, ta'mini ham totmang!» deb, kosani ko'taridida, chiqib ketdi. Navoiy uning bu qadar hovliqqaniga taajjublandi. Hirotdagi do'stlari unga yozgan xatlarida, tunlari eng sodiq navkarlar bilan birga yurishni, taomlardan ehtiyot bo'lishni uqtirgan edilar. Lekin hozir o'zini ortiqcha ehtiyotkor sezib, g'alati bo'lib qoldi: «Bunday qilib, kishilarning ko'nglini og'ritmoq yaxshi emas. Axir, ko'ngil shishasi kabi nozik narsa yo'q-ku!» — o'yladi u ham pushaymon qildi. Sedanali nondan bir burda yedi. Shu orada qaltirab Hasan Sayyoh paydo bo'ldi.

— Bir balo bor, taqsir, — guldirab dedi u. — Men sho'rboni eltib, oldiga qo'ydim. «Mir janoblari ovqatlangan ekanlar, marhamat qil, birga ichaylik», dedim. Azbaroyi xudo, yuzi ko'karib ketdi, tili ham kesildi. Keyin, menga o'qrayib, kosani hovliga otmog'chi edi, yo'q, yo'l qo'ymadim. Sho'rboni itning oldiga to'kdim. Taqsir, bir balo bor, karomat qildingiz!

Navoiy ishongusi kelmasa ham hayajonlanib, shu-ursiz holda o'rnidan turdi.

— Yana adashgan bo'lmang, bema'ni xayol bo'lmasin! — dedi qovog'ini solib u.

— Yo'q, karomat qildingiz. Bir balo bor...— ishon-tirib aytdi Hasan Sayyoh. — Ha, badbaxt!

Ular eshikka tomon yurarkan, dahlizda Shayx Bahlul bilan Haydar paydo bo'ldi.

— Tinchlikmi? — qo'rquv bilan so'radi Shayx Bahlul dam Navoiyga, dam Hasan Sayyohga tikilib.

Hasan Sayyoh guldirab voqeani aytib berdi. Haydar ustki to'n ichidan beliga taqilgan xanjarini sug'urib, o'zini hovliga otdi.

— Isbot qilinmagan da'vo! Muncha ayyohannos!— Hasan Sayyohga o'qraydi Navoiy.— Yuguring, Haydarni tutib, qo'lidani tig'ni oling!

Shayx Bahlul va Hasan Sayyoh oldin-ketin yugurishdi. Navoiy qaytib, o'z o'rniga o'tirdi. Tomirlarida qon uyulgan kabi, og'ir darmonsizlik sezardi. Ko'z uchi bilan «Zanjirband sher»ga qaradi.

Bir ozdan keyin halloslab Shayx Bahlul va Haydar kirdi.

— Haqiqat ekan, Abdusamad qochibdi! — dedi qurigan lablarini yalab Shayx Bahlul.

— Ko'kka uchsini — panjamdan qutulmaydi! — deb qichqirdi Haydar. — Orqasidan navkarlarni yubordim. Zaharni o'ziga ichiraman, unamasa, yana og'irroq jazo — terisini shildiraman!

— U mal'unga har qanday jazo oz! — ko'zlariga yosh to'lib, halqumini alam bo'g'ganday gapirdi Shayx Bahlul.

Navoiy oqargan peshonasidan sovuq terni artirdi. Hamisha ilhom, fikr, muhabbatning toza nuri bilan yongan ko'zlarida g'azab lim to'lib, go'yo yuzlariga quyilib, burushiqlardan toshmoqda edi.

— Abdusamad kim? Ojiz, gumroh bir banda, aqldan mahrum bir olat! — boshini ko'tarmasdan, iztirob bilan dedi Navoiy. — Haqiqiy jallodlar, qotillar, eng qabih jinoyatkorlar Hirotdadirlar. Ular oliy poyalarni ishg'ol etganlar. G'addorlar bu besh kunlik hayotning qadr-qiyamatini bilmaydilar. Ular chamanlardan rang va nurni uchirgan kuz izg'irinlariga o'xshaydilar. Do'stlarim, ular g'oyat baxtsiz maxluqlardir. Hayotda baxt o'zgalarning quvonchini ko'rmoq ekan, ular umumning baxtini poymol qilib, saodatga erishmoqchi bo'lurlar. Bilmaydilarki, asli badbaxtlik budir. Hayhot, el-ulusning taqdiri shu zulm-sitam ahlining qo'lidadir. Men uchun bu holni ko'rmoq har kuni zahar yutmoqdan ming qatla og'ir va mushkuldir!

Shayx Bahlul yig'idan qizargan ko'zlarini yerga tikib, jim qotdi. Haydar alamiga chiday olmay, goh o'tirar, goh sachrab turar edi.

Tusi asliga kelmagan Hasan Sayyoh kirdi: «it holati razmda... Tepsam ham qo'zg'olmaydi», dedi.

Navoiy samimiy achinish bilan boshini tebratib, dedi:

— It behuda nobud bo'ldi. Bekor qilgansiz. Bilasizmi, it g'oyat vafodor maxluq!

Haydar notinchlanib, Abdusamadni qidirishga

ketdi. U kechqurun navkarlar bilan horib-charchab qaytdi. Abdusamad izsiz yo‘qolgan! Uni maxsus odamlar yashirgan, deb hukm qildi Navoiy.

Butun kecha qidirish davom etdi. Tongga yaqin bir jarlikda uning qonga belangan boshsiz gavdasini topdilar...

## *Yigirma oltinchi bob*

### I

Arslonqul nari beri nonushta qilib, jomakorini kiydi. Ikki haftadan buyon ishlayotgan joyiga — Hirot xiyobonida solinayotgan binoga jo‘namoqchi bo‘lib turganda, ko‘cha eshigi qoqildi.

— Xuddi zakotchilar keldi, — ranjib dedi Dildor. — Yana necha dinor... bering-da, bu balolardan boshingizni qutqaring.

— Jonim, nimani beramen? Mehnat haqqim kimsamga tushayotgani yo‘q. Majididdin Muhammad o‘z xayolxonasidan haftada yangi zakot to‘qib chiqarmoqda. Azbaroyi xudo, bitta-yarimtasini chopib tashlaymen-da!

— Bolam, tinch yur: och qornim, tinch qulog‘im! — orqadan qichqirib qoldi kampir.

Ko‘chada Arslonqulni baland bo‘yli zabardast chol — mahalla oqsoqoli qarshiladi. Yigit qo‘lini qovushtirib, salom berdi. Oqsoqol shamshod hassasini yerga urib, odaticha, dastlab Arslonqulni koyidi. Unga bomdod namozini ko‘pincha kanda qilishini eslatdi. Agar yana kanda qilsa, muhtasib‘ga aytib, el oldida qirq darra urdirishini uqtirdi. Arslonqul, chavandoz ostidagi otni tutgan kabi, butun mahallani yaxshi jilovlagan bu chol bilan hazillashish mumkin emasligini bilganidan, namozni aslo kanda qilmaslikka va‘da berdi-da, uyga qaytmoqchi bo‘ldi.

— Shoshma, o‘g‘lim, — dedi Arslonqulning yelkasidan ushlab chol, — bukundan e‘tiboran shahzoda

---

<sup>1</sup> Diniy ishlarning musulmonlar tomonidan bajarilishini taftishlab yuradigan ma‘mur.

Muzaffar Mirzoning to‘ylari boshlandi. Biz katalak ko‘chada emas, guzargohda yashaymiz. Butun uylarini, devorlarni yasaturmiz. Amri podshoh, g‘ayrat bilan yasovga kirishmoq lozim.

— Ishga kechikamen, ustalarim qarab qoladilar.

— Qanday ish! Bukun barcha ustalar chortoqlar, arklar qurmoq bilan band... — dedi oqsoqol.

Shahzodalarning avvalgi to‘ylaridagi hashamatni ko‘rgan Arslonqul cholga e‘tiroz qilmadi. Uzoqqa qarab, do‘kondorlar o‘z do‘konlarini bezashga boshlaganliklarini ko‘rdi. Oqsoqol yana uqtirib, past ko‘chadagilarga xabar qilgani ketdi. Shu vaqtda yon qo‘shnilar — bo‘zchi, kosagar, jomado‘z<sup>1</sup> — uylaridan chiqishdi.

— Taxlab qo‘yilgan atlas, kimxoblarni va ipak gilamlarni olib chiqmaysizlarmi? — kulib hazillashdi Arslonqul.

Oriq, yelkasi chiqqan bo‘zchi ingichka belini uchma-uch chirmagan kir belbog‘iga bir qo‘lini tirab, ikkinchi qo‘li bilan boshini kambag‘alchasiga qashib qo‘ydi.

— Tavba! — dedi ko‘zini olaytirib. — Muzaffar Mirzoning xatna to‘ylari yaqinda o‘tmaganmidi?

Katta ko‘k sallasini xuddi bolalar o‘rgamchikka o‘ragandek, nari-beri chirmagan, uzun bo‘yli, qotma kosagar salmoqlanib, javob berdi:

— Podshohga ermak kerak-da. Sohibqiron Amir Temurning butun umri safarda o‘tgan. Bizning podshohniki nuqul to‘y-tomosha bilan o‘tyapti. Mayli ediya, lekin xazinani to‘yga sochadilar-da, keyin yana zakotga zo‘r beradilar.

— Ko‘rgan tomoshalarinigiz badaliga haq to‘lamaysizlarmi? — istehzoli kulib dedi Arslonqul.

— U bozordan bu bozorga bir qadaq halvo sotib olib, bolalarimning og‘zini chuchitsam, ularning quvonchi — menga katta tomosha! — javob berdi ayolmand bo‘zchi.

---

<sup>1</sup> To‘n tikuvchi.



Bayramlarga, o'yin-kulgiga o'ch bo'lgan, so'zda ham, kiyimda ham, yurish-turishda ham o'z kambag'alligini yashiradigan xushmo'ylab, kichkina gavadali jomado'z hammaga e'tiroz qildi:

— Xursandchilik tiriklikning ziynatidir, — dedi u bidillab. — Shunday ulug' podshohning zamonida tomosha ko'rganimiz g'animat. Ko'rursiz, bu shunday qiziq to'y bo'lurki, ta'rifini qalam bilan ham, til bilan ham aytib bo'lmas. Badiuzzamon Mirzoning to'ylarini hali ham doston qilib yuradilar. U hech narsa bo'lmay qolur hali.

Go'yo podshoh bilan maslahatlashgan katta to'y-boshilardek bo'lajak hangomalarni so'zlab berdi u. Nihoyat, fikrini tasdiqlash uchun, ovozini pasaytirib, ma'nodor ishoralar bilan dedi:

— Muzaffar Mirzo — podshohning suyakli o'g'li. Xadichabegimning e'tiborlari ma'lum. Kelin bo'lsa, podshohning singillari Badiuljamol begimning qizlari Xonzodabegim... E, ko'rgan g'animat, antiqa to'y!

Bo'zchi bilan kosagar mahmadona qo'shnini istehezli tabassum bilan tinglab, indamasdan uylariga kirib ketishdi. Jomado'z atrofdagi boyonlar, dongdor oilalar o'z devorlarini qanday yasatayotganlarini ko'rmoq uchun ildam jo'nab qoldi.

Arslonqul bir nafas garanglanib turdi-da, uyga kirib, voqeani xotinlarga aytib berdi. Dildor bu to'yda yasanmoq uchun doruganing kelinlari, shayx ul-islom ham yasovulboshining qizlari allaqachon kiyimlar tik-tirganlari to'g'risida so'zladi. Keyin saroyda, ayollar orasida, to'y kunlari bo'ladigan tantanalar haqida gapirarkan, eri yoqasini ushlab: «Jonim, ertak so'ylayapsenmi?» deb taajjublandi.

— Oh, nega ertak bo'lsin! Men sizga nihoyati bir uchini ochdim... — kuldi Dildor.

Er va xotin ko'cha tomonni nima bilan bezash to'g'risida kengashishdi. Kampir yaqinda o'lgan cholining ma'rakalarini o'tkazish uchun o'z bisotidagi ancha buyumlarini birin-sirin sotib qo'ygan edi. Dildor, hamma xotinlar kabi, ziynatni sevgani ham

buni o'z oilasining obro'si deb bilgani uchun jiddiy o'ylay boshladi. Dastlab: «Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar», degan er endi xotining ko'ngliga qarab qiziqsindi. Baxtlariga, har qalay, bir yaqin do'stlarining omonat tashlab ketgan kattagina gilami bor edi. Dildor sandiqni ochdi. O'ziga ham qizi kattaroq bo'lganda ko'ylak tikmakka atab saqlagan ikki juft yarqiroq guldor adrasni oldi. Kampir ham bisotidan eni-bo'yi ikki quloqli so'zana topib berdi.

Qiyom chog'igacha ko'cha bo'ylab cho'zilgan butun uylarning devorlari rango-rang matolar, so'zanalar, gilamlar bilan qoplanib, erta kuzning hali issiq quyoshida ajoyib manzara yasadi. Xususan, boyonlarning, katta mansabdorlarning yasatiqlari nuqul asl va nodir matolardan bo'lib, go'zal tovlanishi bilan ko'zlarni o'ynatardi. So'zi o'tkir oqsoqol katta yo'l ustidagi bu mahallani boy bezak bilan, ingichka zavq bilan yasatishga tirishgan ham bunga muvaffaq bo'lgan edi. Mahallada aksariyatni tashkil etgan kambag'al-pambag'allarning yalang'och-muhtojligini yaqqol ko'rsatuvchi yamoq-yasqoq uylar moldorlarning, mansabdorlarning tuganmas bisotidagi ipak matolar bilan qoplandi.

Qo'riqlash uchun oqsoqol odim-odim joyda qorovullar qo'ydi. Tantana, hammadan ko'ra, jomado'zni qanotlantirgan edi. U yalinib-yalpog'lanib kimlardandir omonatga olgan so'zanalarni o'zinikiday ko'rsatishga tirishib, qing'ir-qiyshiq devorlarini xotindarday o'quv va chaqqonlik bilan bezadi. Keyin tomoshabinlar bilan birga yurib, har qadamda bir to'xtab, qiymatshunos<sup>1</sup> singari, matolarning rangi, to'qilishi, ishlangan joyi, gullari, so'zanalarning nusxasi va hokazo haqida baho berib turdi. Har bir qiziq hodisaga she'r bag'ishlashni sevgan ham tez she'r to'quvchi shoirlar bu yerdan o'tarkan, tovusday tovlangan ko'chaga atab baytlar, ruboiylar aytishdi. Lekin, ko'p o'tmasdan, odamlar bu yerda uzoq

---

<sup>1</sup> Qimmatbaho narsalari tanuvchi, baholovchi.

to'xtamaydigan bo'lib qolishdi. Bog'i Jahon oro bilan Puli Molon o'rtasidagi masofada — nikoh kuni tantana bilan kelin o'tadigan yo'ldagi manzara hammaning tilida doston edi.

Hashamat va bezaklarning ta'rifi Arslonqulni ham sabrsizlik bilan u tomonga yugurishga majbur etdi. Ulug'larga yaxshi ko'rinish yoki fursat kelganda odamlarga o'z hukmini o'tkazib qolish uchun oqsoqol mahallaning bir necha ishchan yigitlari bilan Arslonqulni o'sha yoqqa yumushga yubordi. Arslonqul shaharning bu qismiga yaqinlashib, uzoqqa qarashi bilanoq o'zini allaqanday boshqa, xayol dunyosiga tushib qolgandek sezdi. Hayajondan titragan, suron ko'targan, qanot bo'lsa, ucha qolishga tayyor minglar-cha olomonni yasovullarning zug'umi tutib turardi. Kuchini qo'llashga fursat kelganda aslo bo'sh kelmaydigan Arslonqul qudratli yelkalari bilan olomon orasini yorib, oldinga o'tdi... Katta mansabdorlar, Hirotning olifta bekszodalari to'da-to'da bo'lib kezardilar. Arslonqul ham tomoshaga berildi.

Bog'i Jahon oroning baland darvozalari, muazzam arki, devorlari, qasrlar va ko'shklarning ko'cha tomonlari Hind va Misrning ipak to'qimalari bilan, Xitoyning «guli hamisha bahor»day sho'x gulli, nafis go'zal atlaslari bilan tutash qoplangan. Gullari oltin va kumush bilan ishlangan ba'zi matolar quyoshda oq ham qizil olov bo'lib yonardi. «Bizning mahalla bezagining hatto eng yaxshilaridan eshakka to'qum yasal-sa, uvol ketmas ekan», — o'yladi ichida Arslonqul ham ag'raya-ag'raya nari ketdi. Yo'lning ikki tomonidagi hamma uylar va do'konlar, bog' devorlari nuqul shunaqa matolarga burkangan edi. Faqat rangi, guli, yashnashi boshqacha. Yigit orqaga, oldinga qaraydi — ayni manzara. Shamol esib, cheksiz ipak dengizini to'lqinlatarkan, manzara tamom xayoliy shaklga kirdi.

Arslonqulning ko'zi tinib ketdi. Ko'rinishli joylarga ustalar shoshilinch ravishda yuksak arklar quradilar, bir tomonda mashhur naqqoshlar og'ochlarga o'z san'atlarining sehrli liboslarini kiydiradilar.

Bir farsah yo‘l bosib, Puli Molonga yetganda, taasurotning kuchidan Arslonqul horidi. Kelinni kutib olinadigan joyda bo‘layotgan ajoyibotlarning umumiy manzarasiga uzoqdan bir oz qaradi-da, bir chekkada daraxtga suyalib o‘tirdi. U, mudroq bosgandek, ko‘zini yumdi. Fikri asta ravshanlashdi. «Bu asl buyumlarni yig‘ib, Hirotning yetim-yesirlariga ulashilsa, ular loaqal o‘n yil bo‘z kiymas edilar, — kulimsirab o‘yladi ichida Arslonqul. — Podshohlarning boshiga davlat qushi qo‘nadi, degan gap bejiz emas, shekilli. U qo‘ndimi, hamma narsa muhayyo. Hamma orzu-armon sippa-silliqlik yuzaga chiqqan berur...» Bu qushning hikmati to‘g‘risida uzoq o‘yladi, keyin yodiga Navoiyning so‘zlari tushdi:

*Eki qavi<sup>1</sup> ayladi davlat qo‘ling,  
Zulm sori tushdi va lekin yo‘ling...*

*Chunki farah<sup>2</sup> bazmiga azm aylading,  
Ayshu tarab<sup>3</sup> nazmiga jazm aylading.*

*Qasrki, bazm anda muhayyo bo‘lib,  
Zinnati firdavsi muallo bo‘lub.*

*Pardalari rishtasi<sup>4</sup> el jonidin,  
La ‘liyu shingarfi<sup>5</sup> ulus qonidin.*

*Shamsasi el moli bila zarnigor,  
El duru la‘li bilan gavhar nigor.*

*Bazmdagi qariyu gar xud yigit,  
Maydin o‘lub har biri bir telba it.*

*Sen dog‘i qoplandin agarchi fuzun<sup>6</sup>,  
Nafs itining ilgida lekin zabun.*

Arslonqul Navoiyning Astrobodga surgun qilinishining sabablari to‘g‘risida bir kun Sultonmurod

---

<sup>1</sup> Kuchli, quvvatli.

<sup>2</sup> O‘yin-kulgi quvonch.

<sup>3</sup> Vaqti chog‘liq.

<sup>4</sup> Ip.

<sup>5</sup> Bo‘yoq.

<sup>6</sup> Yuqori, ustun.

bilan suhbatlashganda, olim unga shoirning bu misralarini o‘qib berib, ma’nosini yaxshi tushuntirgan va, nihoyat, shunday degan edi: «Fahmladingizmi, yigit, masala nimadan iborat? Navoiy ulug‘ haqiqatparastir. Uning har bir so‘zi haqiqat mash’ali, vijdonning na’rasidir. Bu hol podshohga, uni qurshagan bir guruh oliy mansabdorlarga, a’yon va akobirlarga yoqmaydi. El-ulusni talab, molu mulk orttirguvchi razillar el homiysi shoirning sof, olijanob yuragi oldida zir titraydilar. Ko‘rshapalak quyoshdan cho‘chigani kabi, ular Navoiydan qo‘rqadilar. Jinoyatlarini fosh qilg‘uvchi qudratli ovozi bo‘g‘moq tilaydilar!»

Arslonqul qo‘lini silkib, shu qarorga keldi: «Podshohning davlat qushi aslida talov qushi bo‘lsa kerak!» Shu vaqtda kimdir uning yelkasidan asta tortib qo‘ydi. Arslonqul xayolini qochirgan hazilkashga yeb qo‘ygan-day bo‘lib, qovog‘ini solib qaradi-da, birdan kulib, dik etib o‘rnidan turdi. Bu — Zayniddin edi. U, har vaqtdagi, sho‘xligi bilan dedi:

— Rosa pinakka ketgan ekansiz. Xayol dengiziga sho‘ng‘ib, necha xum tilla topdingiz? Bu ajoyibotlarni tomosha qildingizmi?

Arslonqul qizarib, boshi bilan tasdiqladi.

— Buni keyin ko‘rsangiz ham bo‘ladi. To‘y yetti kun, — davom etdi Zayniddin. — Men sizni boshqa yerga olib boraman.

Ular Bog‘i Zog‘onning bosh darvozasi oldida to‘xtashdi. Epchil Zayniddin to‘yboshilar bilan bir zum gaplashib, hamrohini ichkari olib kirdi-da, bir muddat birga kezgach, daraxt ostida gilamda shatranj o‘ynovchilar orasiga tiqilib, o‘zini ham unutib yubordi. Arslonqul eski podshohlardan qolgan va ta’rifini ko‘p eshitgan saroybog‘da ag‘rayib yolg‘iz keza boshladi. Sayrchilarning deyarli hammasi mag‘rur asilzodalar, mansabdorlar, kiyim-kechagi, so‘zi, muomalasi bilan yarqiragan olifta yoshlardan iborat «sara» xalq bo‘lganidan, sodda yigit dastlab chetlanibroq yurdi. Lekin har yoqda pitirlab yurgan yuzlarcha yumushchilar, navkarlar uni jilla ko‘zga tashlatmas edi. Arslonqul

hashamat, ziynat, tantana degan tushunchalarning timsoli-mujassamini bu yerda ko'ra boshladi. Eski, g'oyat zangin qasrlarga boy Bog'izog'on to'y munosabati bilan shoyon hayrat tus olgan. Bu yerda nimalar yo'q? Shaharning eng mashhur san'atkorlari — rassomlar, naqqoshlar, me'morlarning ijodi, hammani qiziqtiradigan har nav hunar egalarining hiylakor san'ati bu yerda ta'rifdan tashqari ko'rkam, rang-barang gullagan, tajassumlangan edi. Bog'ning turli tomonlarida, sehrli oina kabi, yiltiragan hovuzlar oldida har bir shahzoda o'zi uchun yasalgan go'yo ertaklardagidek boy, bezakli, chiroyli ko'shklarda o'z yigitlari, yaqinlari, mehmonlari bilan bazm qilardi. Podshohning o'n to'rt o'g'li uchun o'n to'rt yerda ko'shk qurib berilgan! O'n to'rt yerda bazm! Maxsus tuzilgan marmar hovuzlarda aqiqday yongan sharob va sharbatlar!

Arslonqul shahzodalarning manzilini uzoqdan tomosha qildi. Faqat podshohning bosh o'g'li Badiuz-zamon Mirzoning ko'shkida bazm suronsiz ham shahzoda har vaqtki kiyimda edi. Yaxshigina shoir bo'lgan bukri shahzoda — G'arib Mirzoning ko'shkida aksar shoirlar, cholg'uchilar, ashulachilar bazm qilishardi. Arslonqul o'zini daraxt orqasiga olib, xiyla vaqt musiqiy va ashula tingladi...

Mana, Muzaffar Mirzoning bazmi... O'n besh yashar kuyov parcha-parcha oltin gulli kiyimda. Chiroyli o'ralgan oq shohi sallada, peshonasining tepasiga qadalgan yirik gavhar va uni qurshagan rang-barang la'l-yoqutlar, durlar chaqnab yonadi. Sallaning uchida ko'rkam jiga hilpiraydi. Muzaffar Mirzoning o'ng yog'ida bahodirona tur bilan gerdayib To'g'onbek o'tiradi. Yigitlarning hammasi to'y uchun maxsus tiktilgan zar yoqali — qiymatli toshlar bilan bezalgan kiyimlarda yaltiraydi... Xushro'y yosh-yosh soqiylar oltin qadahlarni nozik harakatlar, ta'zimlar bilan, qizlarday chiroyli imolar bilan paydarpay tutadilar... Arslonqul tishini qayrab, To'g'onbekka o'qraydi-da, tez yurib ketdi. Daraxtlar orqasidan havoga sachrab

yongan oltin shu'lalar uning ko'zini qamashtirdi. Arslonqul yaqin bordi... Nayzasiga suyalib turgan ikki navkardan boshqa kimsasiz katta ko'shkning oldida anqayib qoldi. Ko'shkning hamma qismlaridagi toza lojuvard ustiga oltindan ishlangan bo'rtma naqshlar, tasvirlar — ustalarning, naqqoshlarning san'ati — uni rosa mot qilgan edi. Tanish bir xizmatkor yo'liqib, bu ajoyib binoni podshoh o'zi uchun soldirganini, bu yerda tun bo'yi favqulodda suronli bazm bo'lib, podshoh va vazirlar, beklar, hatto shayx-ul-islom ham mastlikdan uchib qolganini so'zladida, Arslonqulni sudrab ketdi. Uni oshxona yonidagi supaga o'tqazib, taom keltirdi. Arslonqul belini qamish bilan bog'lagan, yuzi, qo'li kuya bir necha yumushchilar bilan gangir-gungir suhbatlashib o'tirdi. Bu yerda ko'rganlari haqida gapirarkan, ayyorcha kulib, sekin o'qidi u:

*Pardalari rishtasi el jonidin,  
La'liyu shingarfi ulus qonidin!*

— Haq so'z! Shoiri kim? — so'radi bir yosh xizmatkor.

— O'zing ayt, bo'zchisidan shoiri ko'p bo'lgan bu shaharda eng haqgo'y shoir qaysi? — dedi Arslonqul.

— Albatta, bizning Navoiyimiz! — ishonch bilan javob berdi xizmatkor.

— Balli! U kishining so'zi, — g'urur bilan tasdiqladi Arslonqul.

— Majididdin Muhammad ish boshida turaversa, podshoh yana bir-ikki shunday to'y qilsa, elning bir qatra qoni qolmaydi!— qo'llari bilan ta'kidlab, salmoqlanib dedi suv tashuvchi.

Navoiyning sifatлари, taqdiri, u bilan bo'lgan uch-rashuvarlar va hokazolar haqida har kim o'z bilganini gapirib, iliq, samimiy mazmunli suhbat uzoq davom etdi...

To'y munosabati bilan Hirotning turli maydonlarida, ayniqsa Hovzi Mohiyon ham Iydgoh'da har kun tomoshalar bo'ldi. Ot chopishlar, chavgon o'yinlari, kurash, tayoqbozlik va hokazolarda Husayn Boyqaro duvozi dahpoya<sup>2</sup>ni tikib, barcha shahzodalar, davlat arboblari bilan birga tomosha qildi. Bir ko'p o'yinlarning haqiqiy tashabbuskori u bo'lganidek, o'yinlarning natijasini ham yolg'iz uning ra'yi hal qilar edi.

Ettinchi kun — nikoh kuni tantana avjga chiqdi. Madrasalarning baland peshtoqlarida, shahar qo'rg'onlari ustida chalingan nog'oralar, karnaylar ko'kni titratdi. Hamma ko'chalarda, guzargohlarda inson to'lqini guvilladi. Oqshom minglarcha xalq kelinni qarshi olmoq uchun Puli Molonga oqdi. Bu yerda Muzaffar Mirzoning serhasham otlarini gijinglatgan xos yigitlari, Hirotning qimmatbaho kiyimlarga belanib gerdaygan asilzodalari, yuzlab cholg'uchilar, qo'shiqchilar, qiziqchilar — qurama olomon shovqin solar edi. Baland ko'tarilgan yuzlarcha mash'allar quyushlagan qorong'ilikni yutib, tevarakni nur toshqini bilan to'ldirgan edi. Dumidan xartumigacha gilamchalar, maxsus ipak jabduqlar bilan yasatilgan fil-lar ustiga tevaragi o'yma gullar kajavalar o'rtanilgan. Bulardan bichimi g'alati, ola-bula kiyimlar kiygan fil-bonlar qaqqayib turardi.

Puli Molondan Bog'i Jahon orogacha bo'lgan va Hind, Xitoy, Misrning ajoyib matolari bilan tutash muzayyan masofa bo'ylab har ikki tomonda cholg'uchilar, qo'shiqchilar turnaday qator tizilgan. Odim-odim joyda maxsus yasalgan, o'yinchiqday mo'juz, bezakli supachalarda yuzlariga oq to'r ro'mol tutgan saroy xonimlari, kanizaklar sochiq<sup>3</sup> sochish uchun kelinni kutardilar.

<sup>1</sup> Bayramlarda xalq sayil qiladigan maydon.

<sup>2</sup> Maxsus minbarli chodir.

<sup>3</sup> Sochiq (muh.).



Nogoh «kelin keldi!» suroni havoni yangratib yubordi. Inson to'liqini birdan chayqalib ketdi. Chiroyli bezatilgan, soyabonli yuzlarcha arobalarda o'z manzilidan chiqqan kelin — Xonzoda begimni dastlab Puli Molon zo'r qiy-chuv bilan qarshiladi. Guruh-guruh yosh xonimlar xushro'y kanizaklar bilan qurshalib, cho'rilar baland ko'tarib turgan juda katta so'zanalar tagida turgan Xonzoda begimga Muzaffar Mirzoning To'g'onbek boshliq barcha beklari, yigitlari uzoqdan qulluq qildilar. Saroydan Xadichabegim yuborgan e'tiborli ayollar kelin va uning yaqinlari bilan ko'rishib, hovuch-hovuch dinorlar sochdilar. Olomon chuvvos bilan ur-yiqit terarkan, fillardan yangi sochiqlar yog'ildi. Cholg'ularning sadolari, qo'shiqchilarning kuylari, otlarning kishnashi, olomonning qiy-chuvi havoda kuchli yangrab turdi.

Fillarning orqasidan kelin karvoni yurdi; yo'lning har ikki tomonida turnaday qator tizilgan sozandalar chalgan udlar, tanburlar, setorlar, changlar, daflar, naylarning sadolari mavjida tantana bilan Bog'i Jahon oro tomon asta oqdi. Kelinning atrofida, orqasida kelayotgan guruh-guruh ayollar turkona rasm bilan «yor-yor» aytdilar.

*Qaysi chamandan esib keldi sabo, yor-yor,  
Kim damidin tushti o't jonim aro, yor-yor...*

Har qadamda kanizlar umumiy suron ostida mo'l-mo'l sochiqlar sochdilar. Sochiqlar uchun pista va bodomlarning qobiqlarini oltin va kumush bilan qoplagan edilar. Mash'allarning, fanorlarning shu'lalsida pista-bodomlar cho'g'dek yarqirab sochilardi.

Butun bu tantana Bog'i Jahon oroning muazzam darvozasiga kirish bilan bir nafasda suv quygandek jimjitlik hukm surdi. Katta yozlik zalda shaharning ilg'or ulamolari bilan qurshalib o'tirgan shayx ul-islom kuchsiz, ingichka ovozi bilan ming'irlab nikoh o'qidi. Nikohdan so'ng Husayn Boyqaroning o'zi kelin boshidan oltin tanga yomg'irini yog'dirdi. Qiz tomon esa kuyov bola — Muzaffar Mirzoning boshidan sochiqlar sochdi. Yana hamma yoqni suron bosdi.

To'y tantanasi bahor toshqiniday kuchli to'liqin bilan bog'ning katta sahniga yoyilib ketdi.

Arslonqul qo'shni xotinlar bilan tomoshaga chiqib ketgan Dildorni qaynagan olomon orasida qidirdi. Topolmasdan, charchab tashqariga chiqdi. Mash'allar bilan yoritilgan katta maydonda, qarshidan qattiq kelib, ellik qadamcha narida, bir guruh navkarlar oldida, birdan to'xtagan otliqni ko'rdi. Otliq unga tanish harakatlar qilib, navkarlar bilan g'ijillashib ham oldi. Arslonqul yugurib bordi. So'lug'ini tishlab, hansiragan qora bayirning jilovini tutdi. Xiyla kayfli Haydar mastlarcha beparvolik bilan otdan tushdi. Arslonqul undan Alisher Navoiyning sog'-salomatligini so'radi. Haydar g'azab bilan yongan ko'zlarini arkka tikib, zaharxanda bilan dedi:

— To'y, bayram, jinoyat — hammasi bu yurtda bor!

— Nima gap, Haydarbek? — qo'rquvli ovoz bilan shivirladi Arslonqul.

— Tinchlik... — qo'lini siltadi Haydar.

Arslonqul otni chetga eltib bog'ladi. Haydarning fe'li ayniganidan xavfsirab, olazarak bo'lib turarkan, qayoqqadir shoshib-pishib ketayotgan Sul-tonmurod ham Zayniddinga ko'zi tushdi, ularni qichqirib chaqirdi. Ular kelib, Haydar bilan quchoqlashib ko'rishdilar.

— Sabuhiy<sup>1</sup>, — murojaat etdi Sul-tonmurod, — so'ylang. Mir janoblarining ahvollari nechik?

— Tangriga shukur, sog'-salomatlar... Majididdin Muhammadning makkor peshonasi haqiqatning abadiy toshiga urilib, chil-chil sinib ketdi!

Zayniddin va Sul-tonmurod bir-birlariga ma'nodor qarashib, Haydarni ogohlantirishga tirishdilar:

— Qayerdasiz?

— Dilga kelgan fikrni tilga ko'chirmoqda hamisha ehtiyot shart!

— Men mirzolarga Alisher janoblarining g'azabli salomlarini keltirdim, — dedi Haydar g'ururlanib. —

---

<sup>1</sup> Haydarning taxallusi.

Do'stlarim, shu to'y-tomoshaga men ham chizi zahar tashlamoq fikridamen. Yeng ichida xanjar saqlaganlar qani?

Sultonmurod Zayniddinning qulog'iga nimadir shivirlab, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Zayniddin ustalik bilan Haydarni gapga solib turdi — Haydar-ning fe'lini yaxshi bilardi u.

— Sizga istirohat kerak, charchagansiz, — murojaat etdi Arslonqul Haydarga.

Haydar tezda shaxdidan tushdi, atrofga qayg'uli parishon boqdi. Shu orada Sultonmurod Boboali eshik og'ani boshlab keldi. U uzun, quvvatli qo'llarini keng yoyib, Haydarni go'yo o'z o'g'liday quchoqladi, shirin gapirdi. Keyin uni otiga mindirib, o'zi ham bir zumda ot topib kelib, uyiga olib jo'nadi. Sultonmurod ularning orqasidan uzoq tikilib qoldi-da, keyin qayg'udan bo'g'ilgan ovozi bilan dedi:

— Biz g'aflatda ekanmiz, Astrobodda g'oyat alamangiz qabih voqea ro'y bergani shubhasiz. E voh, Hirot bayram qilmoqda!

— Suyunmoq kerak, — dedi Zayniddin shivirlab to'yboshilarning kirdikori fosh etilib, tarix oldida ular sharmanda bo'libdilar!

Sultonmurod ham Arslonqul boshlarini g'amli chayqab, uning fikrini tasdiqladilar. Keyin uchovlari asta-asta yurib, og'ir sukut bilan qorong'ilikda ko'zdan yo'qoldilar.

## II

Tongda Haydar ko'zlarini ochib, uqaladi. U shipi chiroyli shamsli, devorlarining yuqori aylanasi, go'zal naqshlar orasida hikmatli ruboylar yozilgan kichkina, tanish xonada yotar edi. Boboalining uyiga qo'nganiga u xursand bo'ldi. Otda uzoq yo'l bosib charchagan gavdasida hozir allaqanday xush yoqar bir orom sezsa-da, belidan va oyoqlaridan og'riq aralash horg'inlik ketmagan edi. Rohatlanib bir kerishdi-da, yana yalqovlanib yotdi. Bog'i Jahon oro oldida tunda ko'rganlari — mash'allar, bezaklar, shovqin-suron va

hokazo uning boshida, uzoq bir tush singari, jilvalardan. Tashqarida xizmatkorlarga yumush buyurgan Boboalining tovushini eshitgach, o'rnidan turib, odati bo'yicha, imirsilanmasdan kiyindi. Dahlizda mo'jiz, guldor mis obdastadagi suv bilan yuvinib bo'lguncha, xizmatkor kirib o'rinni yig'di, ichini saranjom qildi. Keyin Haydar uy sohibi bilan nonushta etdi. Boboali eshik og'a Haydarning fe'lini yaxshi bilganidan, tilga ehtiyot bo'lishini, do'st-dushmanning farqiga yetib, muomalada bu jihatga rioya qilish kerakligini ochiq nasihat tariqida emas, ishoralar bilan uqtirib o'tdi. Ham qiyom chog'ida saroyga kelsa, podshohning qoshiga kirgizishini va'da qilib, o'rnidan qo'zg'aldi.

Haydar tokchaga qalangan kitoblarni ko'zdan kechirdi. Mavlono Hiloliyning «Shoh va gado» asarining favqulodda go'zal xatli kotib ko'chirgan g'oyat bezakli bir nusxasini tomosha qildi. Ba'zi joylarini o'qib, oxirgi betini ochdi: kotib Zayniddin! Kitobchani yana varaqlab xatiga diqqat qilib, Zayniddinni Hirotning eng mashhur kitoblaridan aslo tuban ko'rmadi. Musiqiyda, shatranjda, sangtaroshlikda shuhrat qozongan bu sho'x, xandon odamga mehri yana ortdi. Navoiy buyurgan ba'zi kitoblarni unga yozdirmoqqa qaror qildi. Keyin rasmiy maktublarni chiroyli juzdonga solib, qo'ltig'iga tiqdi ham tug'ilib o'sgan shaharning havosini, fayzini sog'ina-sog'ina dilgir bo'lgan yurakni ochish uchun ko'chaga chiqdi. Sahhoflik rastasiga tushdi. Keyin bir-ikki madrasaga kirib, do'stlari bilan diydor ko'rishguncha vaqt peshinga yaqinlashib qoldi. Podshoh, eski odati bo'yicha, peshindan keyin kundalik ichkilik bazmiga sho'ng'ib ketishini bilganidan, saroyga yugurdi. Uni Boboali eshik og'a ko'zlaridagi ranjish ifodasi bilan qarshi olib, podshoh huzuriga kirishga buyurdi. Haydar bir oz to'lqinlanib: «Hazratlari yolg'izmilar? Aks holda, kir-maymen», dedi. Boboali boshini qimirlatib, «ha» deb javob berdi.

Haydar oltin taxtda qovog'ini solib o'tirgan Husayn Boyqaroga, butun qoidaga muvofiq, ta'zim qildi.

Ruxsat bo'lgandan so'ng o'tirib, Alisherning salomini so'zladi. Juzdondan rasmiy hujjatlarni chiqararkan, podshoh ularni devonxonaga topshirishni buyurdi ham Astroboddagi umumiy ahvol haqida so'radi. Haydar bu xususda Navoiyning uqtirgan fikrlarini batafsil so'zlab berdi. Husayn Boyqaro beparvogina tinglab, shoirning bu kunlarda nima bilan mashg'ul ekanini, kayfiyatini so'radi. Haydar Navoiyning fikri hamma vaqt el va ulus ishi bilan band ekanini aytdida, bir nafas sukut qilib, uning kayfiyati to'g'risida dedi:

— So'nggi zamonlarda Mir janoblarining xotirlari siniq, ko'ngillari g'am-anduh bilan pora-pora bo'lgandir. O'zlarini og'ir vaziyatdan ne yo'l bilan qutqarishni bilmaydilar va yolg'iz g'azab o'tida qovriladilar.

— Nimalar demoqdasiz? Sabab? — Husayn Boyqaro birdan hushyorlanib, ko'zlarini qattiq tikdi Haydarga.

Haydar bir muddat taraddudlandi. Shu paytda haqiqatni qandaydir boshqa vajhlar bilan yashirish zarurligiga aqli yetsa ham, qoniga singgan fe'li ustun chiqdi. Birdan taraddudni yengdi.

— Mir janoblarini benihoyat tashvishga solib, g'azablariga sabab bo'lgan voqea shulki, — deb boshladi Haydar, — yaqinda siz pushti-panohimiz podshohi olamning bakovullari Mir janoblarining hayotlariga qasd etdi!

— Ne bo'htonlarni so'zlamoqdasiz? — qichqirib yubordi Husayn Boyqaro.

— Bakovul Abdusamad Mir janoblarining taomlariga zahar qo'shgan ekan... — endi beparvo davom etdi Haydar. — Ammo Mir janoblari karomat tariqida bu ofatdan ogohlanib, tangriga sad hazor shukur, salomat qoldilar. Bu faje hodisa Mirning dillarini shubha va andisha bilan to'ldirdi. Jinoyatning ildizini bu yerda, Hirotda, deb ishonadilar...

Husayn Boyqaroning rangi qum o'chib, yuzi bir zumda ko'k-sarig' bilan qoplendi. Burnining kataklari

qisilib, og'ir nafas ola boshladi. Haydar o'zini juda noqulay sezdi. Dolig'ulilik bilan so'zlaganiga afsus qildi. Lekin endi vaziyatni o'zgartirish yoki, jilla qursa, sal yumshatish mumkin emasdi. Husayn Boyqaro jahl bilan qichqirdi:

— Bu gaplarning bari ahmoqlikdir. So'z tamom, chiqingiz bu yerdan!

Haydar sovuq, o'chiq yuzini ters burgan podshohga ta'zim qilib, orqasi bilan yurib chiqdi. Dahlizda Boboali eshik og'aga murojaat etib, nima qilish kerakligini so'radi.

— Siz o'z odatingizga hech xilof ish qilmaysiz! — dedi u kuyunib. — Joningizdan qilcha umidingiz bo'lsa, endi tilingizni kesing, tamom gung bo'ling!

Haydar indamasdan, marmar zinaga otildi.

Husayn Boyqaro Boboalini yo'qladi, qalam va qog'oz talab qildi. Boboali oltin siyohdon, oltin va kumush bilan ishlanib, qimmatbaho mayda toshlar terilgan qalam va bir taxta rangdor qog'ozni darrov taqdim etdi. Podshoh unga Haydarni Astrobodga jo'natmaslikni, Hirotda nazorat ostida saqlash kerakligini tegishli amaldorlarga shu onda yetkazishini buyurdi. Keyin yolg'iz qolib, Navoiyga yozilajak xatning mazmunini, unga qanday unvon bilan murojaat qilish kerakligini o'ylarkan, qog'oz tutgan qo'li titrardi. U o'zi bu jinoyatdan xabarsiz bo'lsa ham, lekin Majididdin va uning guruhining Navoiyga bo'lgan adovatini, ko'pdan buyon tayyorlab yurishgan kirdikorlarini sezganidan va ba'zi ishoralarga sal hushyorlik bilan qaragan taqdirda, jinoyatdan ogohlanishi mumkin ekanligini iqror qildi ham o'z shaxsiga yopishtirilishi mumkin bo'lgan bu qora dog'ni silishga, ishni «yopdi-yopdi» qilishga qaror berdi. Titrak qo'l bilan yozishga kirishdi. Xatni Alisherga nisbatan samimiyat, qadrdonlik so'zlari va tumtaroqli uzun jumlalar bilan bezab, oxirida Haydar keltirgan xabardan g'oyat mutaassir bo'lganini, lekin bunday jinoyat hech qachon uning xotiriga kelmaganini yozdi. Ko'ngli picha taskin topdi. Boboali eshik og'a haligi farmon

haqida tegishli amaldorlarni ogohlantirganini arz qilmoq uchun kirganda, Husayn Boyqaro xatni bukib, ko'z oldida tamg'alatdi ham ishonchli chopar orqali shu onning o'zida Navoiyga yuborishni buyurdi.

Ishlar to'g'risida ma'ruza qilmoq uchun Majididdin oltin gullari yonib turgan ipak to'nda gerdayib kirdi. Podshohning avzoyiga nazar solishi bilanoq, g'alati bo'lib ketdi-da, bo'shshibroq o'tirdi. U Haydarning kelganini eshitgan edi. Lekin podshohning kayfsizligini shundan deb gumon qilmoqqa hech qanday asos yo'q edi. Bosh vazir so'zlash uchun ijozat so'radi. Husayn Boyqaro ma'ruzani boshqa vaqtga qoldirarkan, uning ichini titroq bosdi. Sababini so'rashga botinolmay, boshini egib, sukut qildi.

— Astrobodda bag'oyat nomaqbul harakat ro'y bermish, — dedi Husayn Boyqaro shikoyatlanib.

— Muborak dilingizni xira qilgan ahvol ne ekan?— gavasini bukib, murojaat etdi Majididdin.

— Yuborgan bakovulingiz Alisherning hayotiga qasd qilibdi. Ammo hech ish chiqmabdi. Kishini zaharlamog oson ish bo'libdimi? Endi Alisher o'zini har nav tahlikadan qutqarmoq uchun choralar izlar emish...

— Aslo xabarim yo'q, oftobi olam! — rangi oqarib, ko'zlariga mas'umlik ifodasi berishga tirishib dedi Majididdin. — Siz olampanoh uchun bu alim<sup>1</sup> hodisa qanday kutilmagan bo'lsa, bu qulingiz uchun ham shundaydir.

— Yashirin vazifa topshirgan edingizmi? — so'radi to'nglik bilan Husayn Boyqaro.

— To'g'ri, biz u ablahning zimmasiga bir nima vazifa yuklagan edik... — guldiradi Majididdin. — Lekin ma'lum bo'ldiki, bakovul o'z haddidan o'tibdi.

— Endi bu haqda bahslashmoqning hojati yo'q, — dedi qisilib Husayn Boyqaro. — Ayting, oqibati nima bo'lur? Qanday qilib yashirmog mumkin?

— Iflos bakovulning izini bu dunyodan o'chirmog kerak! — javob berdi Majididdin.

---

<sup>1</sup> Alamli.

— Vaqt o‘tdi!

— Xotiringiz jam bo‘lsin, olampanoh, — dadil-  
lanib dedi Majididdin, — bu bakovulning ishini ista-  
gan onda saranjom qilmoq uchun uning orqasiga  
o‘lim soyasini ergashtirib qo‘ygan edik...

Husayn Boyqaro birdan yengillanib, qaddini  
ko‘tardi. Majididdin ishonch bilan, kuyunib, so‘zini  
davom ettirdi:

— Alisher bu hodisani bahona qilib, tangri taolo  
abadiyan barqaror etgan saltanat tojingizga ochiq  
muxolifatda bo‘lishi mumkin. Bu tahlikaning oldini  
olmoq zarur. Alisher bilan Yaqubbek orasidagi sami-  
miyatni, bir on bo‘lsin, xotirdan chiqarmaslik kerak.

Husayn Boyqaro bosh vazirning bu fikrini ham o‘z  
diqqati ham ko‘zlarining ifodasi bilan tasdiqladi.  
Podshoh nazarida o‘z obro‘-e‘tibori mustahkam ekani-  
ga Majididdin yana bir karra ishondi. Mablag‘lar ort-  
tirish uchun yangi-yangi manbalar topilganligi haqida  
gap orasida bir necha so‘z qistirib o‘tdi. Husayn  
Boyqaro vazirga ketmoqqa ijozat berdi. Keyin  
Hirotning e‘tiborli oilasiga mansub bo‘lib, yaqinda  
unga nazr qilingan go‘zal qiz bilan ko‘ngil ochish  
uchun haramga jo‘nadi.

## *Yigirma yettinchi bob*

Haydar dilgir edi, bu — o‘zi qilmishi uchun biron  
jazoga tortilishi vahimasidan emas, balki Hirotda kel-  
ganiga o‘n besh kun bo‘lgan esa-da, biron kun  
quvonch ko‘rmay, tanholik tuyib, hayot bilan o‘z ruhi  
orasida allaqanday mubham bir ohangsizlik sez-  
ganidan edi. U «Unsiya»da yashar va ko‘p ichardi.  
Ba‘zan faqat Sohob Doro bilan bir oz dardlashar edi.  
Ammo Sohob Doro ham har vaqt nash‘asiz. Navoiy-  
ning bu qadrdoni «Unsiya»dagi avvalgi hayotini  
sog‘inar, avvalgi nash‘ali kunlarni qo‘msab, g‘amgin,  
umidsiz she‘rlar yozar, Haydarga o‘qir edi. Durust,  
«Unsiya»da barcha mulozimlar va qadrdonlar, yaqin-



lar yashar, ular o'z vazifalarini avvalgidek bajarishardi. Ba'zan shoirlar, olimlar yig'ilib, avvalgidek suhbat tuzishardi. Ammo, badanga hayot bag'ishlagan yurak kabi, bu dargohga fayz, qut, nash'a bergan bir nima yo'q edi. Yurakni umid, imon, nash'a, muhabbat bilan to'ldiruvchi shu narsani hamma qo'msar edi.

Haydar bilan Sohib Doro — ikki qayg'uli do'st «Unsiya»ning darvozasiga chiqishdi-da, supachaga o'tirishdi. Lojuvard ko'kda, shamol uchirgan mayin oq shohi ro'mollardek, bulutlar hilpiraydi. Quyosh yoqimli. Qarshidagi bog'chalar ko'm-ko'k bo'lsalar ham, ularning nafasidan kuzning isi anqirdi.

— Umrinni faqru fano yo'liga<sup>1</sup> bag'ishlamoq niyatidamen,— ko'zlaridagi hasratni uchqunlantirib gapirdi Haydar. — Nurga, soflikka, haqiqiy muhabbat va oliy husnga tashna ko'ngillar uchun yagona yo'l buldir. Sirri hikmat<sup>2</sup> darveshning yuragidadir. Aytimg, ne deysiz, uch kunlik hayotning yolg'onchi ne'matlaridan qo'l uzib, husni mutlaq<sup>3</sup>ning muhabbati bilan yashamoq qadar ulug' va insoniy baxt bormi?

Sohib Doro Haydardagi bu oniy qaror uning ko'ksida lov etib yonib, yana so'nuvchi orzulardan, deb o'yladi-da, yelkasini qisib, sukut qildi. Haydar darveshlik falsafasi haqida gapirdi. Farididdin Attor, Jomiy ham Navoiyning asarlaridan chiroyli misollar keltirib, haqiqiy darvesh zavqi bilan o'qimoqqa boshladi. Sohib Doro uni huzur bilan tingladi. Nogoh adil, ko'rkam daraxtlar orasida qivrilib cho'zilgan yo'lda, yengil chang ko'tarib kelayotgan uch-to'rt otliqqa ko'zi tushdi-da, ravshan ko'rish uchun qo'lini qoshlari ustiga qo'yib tikildi ham birdan o'rnidan turib, qichqirib yubordi: «Mir janoblari kelmoqdalar!»

— Ha, ha oldindagi Mir... — o'tirgan joyida qotib dedi Haydar.

«Unsiya»ga birdan jon kirdi. Hamma xonalardan mulozimlar, qadrdonlar, yaqinlar, navkarlar yugu-

<sup>1</sup> Darveshlik, so'filik yo'li.

<sup>2</sup> Olam siri, donolik siri.

<sup>3</sup> Mutlaq go'zallik; darveshlik e'tiqodicha, xudoning jamoli.

rishib istiqbolga chiqdilar. Navoiy otdan tushib, etaklarini qoqdi, hamma bilan ko'rishdi. Oyoq ostida pildiragan bolalarning boshlarini siladi, har qaysiga shirin so'zlab, erkaladi. Keyin to'g'ri o'z xonasiga kirdi. Bu yerda har narsa u Hirotdan jo'naganda qay holda bo'lsa, xuddi shunday turgan edi. Obrezda yuvindi. Yo'l kiyimlarini chechib, qayta kiyindi. Keyin yostiqaqqa yonboshlab, bir oz dam oldi. Haydarni chaqirib, uning kayfini parishon ko'rgach, xafa bo'ldi. Muloyimlik bilan nasihat qilib, yupantirishga tirishdi. Haydar yolg'iz haqiqatni soddadillik bilan e'lon qilishdan o'zga gunohi yo'qligini aytdi. Navoiy ta'kidlovchi ovoz bilan dedi:

— Munofiqlar haqiqatdan qo'rqadilar. Haqgo'ylik ulug' fazilatdir. Lekin zarur vaqtdagina tilga erk bermoq lozim. Shuni unutmangki, podshohga yaqin turmoq, og'zini ochgan ajdahoga yaqin turmoq bilan barobar! — Navoiy o'rnidan qo'zg'aldi, podshohga ko'rinish bermoq uchun ketdi.

Eshikda uni atrofdagi oddiy xalqdan iborat qalin guruh kutib turar edi. Hamma ko'zlarda quvonch yonardi. Har yoqdan yoshlarning va keksalarning hayajonli sadolari yuksaldi:

— Ko'zlarimiz yo'lingizga intizor edi!

— Yurtning tirikchiligi, baxti sizda!

— Dardlarimiz behad-behisob, sizdan o'zga hi-moyachimiz yo'q!

— Bizdan sizni uzoqlashtirguvchilar qirilsinlar!

Navoiy ta'sirlanib, titrak tovush bilan minnatdorchilik bildirdi. Bir ko'plarning turmushi, kasb-kori to'g'risida so'radi. Har lahza xalq ko'paydi. Navoiy qaerda bo'lmasin, ko'ngli hamisha xalq bilan bir ekanini juda kamtarlik bilan ishora qildi-da, hamma-ni quvontirib, uy-uylariga jo'natdi.

Bog'i Jahon oroga borguncha darveshdan a'yon-gacha, hammoldan olimgacha, hamma uchragan odamlar uni olqishlab, sevgi va ehtirom to'la ko'zlari bilan kuzatib qoldilar.

Shoir bir vaqtlar zavqlanib kezgani saroyda gulzorlarni sog'inchli nazarlar bilan tomosha qilib, bosh qasrga borarkan, sarvzolar orasidan Husayn Boyqaro, orqasida har vaqtki hamsuhbatlari, hamsharoblari bilan chiqib keldi. Bularning ichida Majididdin, Amir Mo'g'ul, To'g'onbek va boshqalar ham bor edi. Navoiy rasmiy ta'zimni bajo qilib, Husayn Boyqaro bilan ko'rishdi. Qolganlarning o'zlari yaqinlashib, shoirning qo'lini siqdilar. Majididdinning ko'zlarida kuchli sarosima ochiq sezilsa ham u tilyog'lamalikni yaxshi bajardi: «Diydoringizni ko'rmoq nasib bo'lgani uchun kamina o'zimni favqulodda mas'ud his etmoq-daman», dedi u ko'risharkan.

Husayn Boyqaro shoirning o'zini devon yonidagi tillakori kichik xonalardan biriga olib kirdi.

— Poytaxtga kelmog'ingiz uchun bizdan ijozat bo'lgani yo'q edi-ku,— dedi u og'ir chordana qurib. — Biz sizni hech kutmagan edik.

— Muborak qo'lingiz bilan yozilgan nomani olgandan so'ng, — dedi Navoiy oddiy narsa haqida so'zlagandek, — viloyatning ishini muvaqqatan Valibekka topshirib, oliy dargohingiz sari yugura qoldim, toki har nechuk so'z bo'lsa, o'rtaga tashlab, aql va insof bilan hal etmoq mumkin bo'lsin...

Husayn Boyqaro o'ng'aysizlangandek, to'lg'anib oldi. Jinoyatning chigilini yechganda, bir ko'p arzandalarining sharmanda bo'lishlari, ham ularning makriga laq etib tushganidan o'zining-da qizarishi mumkinligidan, fojia tafsilotiga kirishmaslikka qaror berdi.

— Telba Haydar ba'zi ko'ngilsiz voqealar to'g'risida gapirdi. Bu, albatta, uning xayolxonasida to'qilgan bo'lishi kerak. Har holda, janoblariga noma yozdim. Nomamizni olganingizdan so'ng ko'nglingizda hech qanday shak-shubha qolmaganiga imonim komil. Janoblari ne derlar?

— Ko'nglim kek va adovat saqlashga moyil emas,— javob berdi Navoiy. — Razillarni sharmanda qilmoq ham behuda, chunki ko'mirchining yuzi qaro, jallodning ko'zi qon bo'lganidek, razillarning razolati ular

uchun ulug' jazo va ayni sharmandalikdir. Ular bilan da'volashmoqni o'z qadrim uchun nuqson bilurmen. Ammo haqqingizda hech qanday shubha ko'nglimdan kechgan emas.

Husayn Boyqaro oltin kamariga bir qo'lini tiragan holda, ezilgan, parchinlangandek bo'lib, ko'zlarini qayga yashirishni bilmay qoldi. Borgan sari og'irlashgan, chuqurlashgan sukunat hukm surdi. Bu sukunat go'yo haqqning ustunligini ta'kidlagandek, ma'nodor edi. Nihoyat, sukunatni Husayn Boyqaro buzdi:

— Endi ko'nglingizdagi maqsadni bayon qiling. Bizdan nima tilaysiz?

— Menga hech qanday vazifa, mansab kerak emas,— dedi Navoiy. — Faqat Hirotda istiqomat etmakka oliy ruxsatingizni bersangiz, bas.

Husayn Boyqaro bu iltimos qarshisida haqiqatan jiddiy o'yladi. Keyin, garchi ichida rozi bo'lsa ham, lekin iltimosni qabul etishni shoirga katta bir sovg'a, yon berish kabi ko'rsatish niyatida uzoq tixirlik qildi. Bir-biriga zid, bir-biridan kuchsiz har nav moneliklarni dastak qilmoqqa tirishdi. Navoiy o'z fikrida qat-tiq turdi. Ko'rsatilgan moneliklarni, mulohazalarni shoir cho'p-xasday supurib tashlagach, podshoh ko'nishga majbur bo'ldi. Navoiy qulluq qilib, tashqari chiqdi.

Navoiy har burchagi jonli latofat bilan nafas olgan bog'da yuragi qofiyalarning jarangi bilan to'lib, xayol-larga berilib borarkan, to'satdan to'xtadi. Ko'zi tush-gan bir mulozimni chaqirdi: — Behzodni tanirmusen? Hozir mashg'uloti qaerda? — so'radi undan.

— Taqsir: tanurmen, — tavoze bilan javob berdi mulozim, — u kishi kutubxonani humoyun qoshidagi xonalardan birida surat tortadilar. Ko'rsatayinmi?

Navoiy «Rahmat, eski o'rnida ekan», deb o'ng tomonga, kutubxonaga qarab ketdi.

Behzod, uzoq safardan qaytgan otasiga tashlangan bolalardek, o'z ustoziga otildi. Ko'rishib, shoirning qo'llarini o'pdi. Navoiy ham ta'sirlanib, yuragidagi butun muhabbatini ko'zlariga, ovozigga quyib, bu rang

va ziyo sohiri ahvolini so'rarkan, Behzodning daho uchquni bilan yongan, maftun qilarlik ajoyib ko'zlarida qalbning mehri, samimiyati porloq ko'z yoshlariga aylandi. San'atkorning nozik siymosi, gul niholiga bahorning iliq, hayotbaxsh shabbodasi tekkandek, yashnab ketdi: «Bu onni umrimda hech unutib bo'lmas. Yuragimni sog'inch, firoq limmo-lim to'ldirgan bo'lsa, shu onda uni shodlik va baxt labo-lab to'ldirib yubordi», dedi-da, to'shak solib, shoirni o'tqazdi. Chiroyli, yop-yorug' uy. Ochiq derazadan zangori samo, xiyobonlarning nozik tebrangan yashil devori, uzoqda, og'ochlar orasida, suvning bir parcha oynasi ko'rinardi.

Past, to'garak taxtadan ma'dandan, chinnidan ishlangan kichik idishlarda turli ranglar. Bular bilan rassom tabiat va hayotning cheksiz jilvalarini yana chuqur, yana ma'nodor jonlantiradi. Mo'yqalamlar, qog'ozlar, tayyor va chala rasmlar yotadi. Navoiyning ko'zlari butun ehtiros bilan yonib, rasmlarga qadaldi: «Shahzoda ovda», «Ustiga kichkina guldor gilam to'shalgan teva». «Oshiq va ma'shuqning gulzorda uchrashuvi». Navoiy har bir chizgida, birgina nuqtaday ko'rsatilgan ko'zda, ranglarning mayin quyilmasida hayot tomirining urishini, hayotning quyuyqlashgan, porloq jilvasini ko'rdi. Bir ko'rgan rasmni yana qo'lga olib, to'yimas ko'zlari bilan tikildi. Zavqlanib, Behzodning ajoyib mahoratini maqtadi. Rasm san'atining imkoniyatlari haqida gapirdi. Kamtarin san'atkorning qop-qora soqol bilan qoplangan uzunchoqroq yuzini mas'um tabassum bezadi.

— Janob ustod, — murojaat etdi Behzod. — Sherining bo'ynidan zanjirlar uzildimi?

Navoiy «yalt» etib unga qaradi. Keyin kulimsirab dedi:

— Haydar aytdimi sizga? U yigitning ko'ngli g'oyat beg'ubordir.

— Haydar ishontirdiki, — dedi Behzod. — u yolg'iz menga so'zlagan. Men u rasmni ko'rmoqqa mushtoqmen. Qachon ko'rsatarsiz?

— Meniki bamisoli bolalarning chizmakashligidek bir narsa... — dedi Navoiy qo‘lini silkib.

— Zanjirband sher o‘z asoratchilariga qarshi yana ham qo‘rqinchliroq bo‘ladi, — dedi sekingina Behzod. — Sherning bo‘yni zanjirga itoat qilsa ham, yuragi aslo bo‘ysunmas, afsuski, bu oddiy haqiqatni idrok etmaydilar...

— Aql va idrok insonlarga xos sifatdir! — dedi Navoiy qat‘iy ohang bilan.

Behzod dasturxoncha yozib, ustodni mehmon qilmoqqa harakat qilarkan, Navoiy e‘tiroz etdi. Uning huzuriga borib, yo‘qlab turishni rassomdan so‘rab, jo‘namoqchi bo‘larkan, eshikdan halpillab Muhammad Said Pahlavon kirdi. Shoir va pahlavon quchoqlashib ko‘rishdilar. Pahlavon o‘zining gavdasi va nash‘asi bilan shu topda go‘yo uyni to‘ldirdi. Yillar uning azamat jussasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsata boshlagan esa-da, lekin yuzlarcha kurashlarda yelkasini yerga o‘ptirmagan bu pahlavon endi kuchga to‘lgandek ko‘rinar edi. Navoiy bu ajoyib odamga to‘ymaganday sog‘inchli ko‘zlari bilan unga qayta-qayta tikilib, yana o‘tirib qoldi. Shoir, rassom va pahlavon Bog‘i Jahon oroning latofatlariga boqib, shirin, jonga yaqin suhbat qilishdi. Mavzular, so‘zlar buloqday qaynab, ravon oqardi. Yangi ilmiy kitoblar, devonlar, tir-andozlik<sup>1</sup> haqida, shayx ul-islom bilan pahlavonning fiqh masalalari ustida podshoh qoshida mubohasa qilishib, pahlavonning yengishi va hokazo haqida so‘z ketdi. Shoir Shayxim Suhayliy bilan Xo‘ja G‘iyosiddin Dehdor kirib kelgach, o‘tirish yana qizidi. Har kim Hirotda ro‘y bergan jiddiy va kulgili har xil voqealar haqida so‘zlab, Navoiyni xursand qilishga tirishdi. Navoiy pahlavonning musiqiyda yaratgan yangi maqomlari haqida Astrobodda eshitganini so‘zlab, undan tafsilotini surishtirarkan, Behzod tokchadan tanburni olib, pahlavonning qo‘liga tutdi:

— Musiqiy ijod to‘g‘risida musiqiysiz so‘zlashmoq maholdir, — dedi Behzod.

<sup>1</sup>O‘q-yoy otish.

— Pahlavonning mahoratini tanbur hikoya qilsin, — dedi Shayxim Suhayliy.

Muhammad Said mallarang chakmonining yengini picha shimarib, kurash maydonida pahlavonlarning gupchak belini siqadigan qudratli qo'llari bilan tanbur sozladi-da, o'zi yaratgan maqomni chala ketdi. Sevuvchi hassos ingichka hislari, kechirmalari, og'riqlari, nash'alarini sozchi tanburning qillarida shunday jonli, shunday porloq ifoda etdikim, tinglovchilar sehrli sadolarda go'yo erib ketdilar. Mana, sadolar ruhning so'nggi faryodi bilan tindi. Behzodning katta sallali boshi tizzasiga tegayozgandi. Navoiy, shirin tushdan ayrilganday, hasrat bilan ko'zlarini ochdi. Bu — yangi maqom edi. Navoiy Muhammad Saidni tabrikladi. Pahlavon esa tanburni devorga tirab qo'ydi-da, kelar hafta bo'ladigan katta kurashda qatnashuvchi pahlavonlar haqida bu kasbga xos til va uslub bilan gapira boshladi. Keyin yana so'z musiqiyga ko'chdi. Navoiy Hirotdagi o'zga mashhur cholg'uchilarning ishi, ahvoli haqida surishtirdi. Boshqalar ma'lumot berarkan, Navoiy cholg'uchilarning muhtojlariga qanday yordam ko'rsatish to'g'risida ichida o'ylab o'tirdi. Keyin Xurosondagi eng iste'dodli musiqiyshunoslarning ishlari haqida bir kitob yozish, unda hamma eski, yangi kuy-maqomlarni to'plab, shakllar bilan ko'rsatib, kelajak nasllarga qoldirish kerakligini so'zladi. Bu fikr hammaga ma'qul bo'ldi.

Bog'i Jahon oroning yam-yashil dengiziga g'urubning qon shu'lasini yugurdi. Uzoqdan podshoh bazmining mast qiyqiriqlari eshitildi. Do'stlar xo'shlashib, ayrilishdi.

Navoiy «Unsiya»ga yaqin solingan o'z kutubxonasi keldi. Bu — bir-biriga yopishgan, har biri o'zga uslub va zavq bilan naqshlangan, boy bezakli, o'nlarcha xonalardan iborat chiroyli bino edi. Shoir ikkinchi xonada kitoblar orasida, sham nurida suhbatlashib o'tirgan Sultonmurod bilan Zayniddinni uchratdi. Ota-o'g'illardek ko'rishishdi. Ular bir nafasda talay narsa haqida so'zlashmoqqa ulgurishdi.

— Xo‘sh, sizni shakkoklikda ayblamoq uchun ular-da hech asos bormi?— so‘radi Navoiy kulib Sul-tonmuroddan.

— Meni tabiiyyun<sup>1</sup> deydilar, — javob berdi Sul-tonmurod. — Lekin men aql va ilmga ergashurmen. Yolg‘iz bularning haqiqatini tanurmen.

— Albatta, olim haqiqatni qidirur ekan, shak-shub-haga bormog‘i tabiiydir, — dedi Navoiy jiddiy. — Tabiatning sirlaridan voqif bo‘lmoq uchun uni tatab-bu etmoq kerak. Zotan, bu narsa hech kimsani olloh-dan uzoqlashtirmas. Chunki tabiatning o‘zi husni mutlaqning bepoyon jilvalar ko‘rsatgan ulug‘ ko‘zgu-sidir. Lekin, bu jihatni johillar anglamaydilar. Xo‘b, erta biz sizni madrasaga olib borib, shogirdlaringizni quvontirurmiz, ilm va haqiqatni johillar panjasidan qutqarurmiz.

Sultonmurod va do‘sti Zayniddin cheksiz qu-vonishdi. Navoiy Zayniddinning shatranj, musiqiy, xattotlik sohalaridagi muvaffaqiyatlarini Astrobod-dayoq eshitib, suyunganini bildirdi. Keyin musiqiy haqida kitob yozmoq kerakligi haqidagi haligi fikrni o‘rtaga tashladi. Sultonmurod bu vazifani Zayniddin bajarishi mumkinligiga ishonch bayon qildi. Zaynid-din bu haqda o‘ylab ko‘rib, keyin qat’iy javob bermoq-chi ekanini aytdi. Navoiy, gap orasida, ularning mod-diy ahvollari to‘g‘risida so‘radi. Ular muhtoj emaslik-larini bildirsalar ham, Navoiy ularga boshdan-oyoq razm solib, yuz dinordan yordam bermoqqa o‘z ichi-da qaror qildi. Keyin bu do‘stlarini yoniga olib, sham-lar bilan yoritilgan, tokchalariga kitoblar qalangan xonalarni kezdi. Yangi asarlarni tez-tez ko‘zdan kechirib, u yo‘q bo‘lsa ham, ikki yil mobaynida kutub-xonaning ishini rivojlantirgan va undagi tartibni yaxshi saqlagan kutubxonachidan ham yangi kitoblar sotib olib, eskilarini yaxshi kotiblarga ko‘chirtirgan Sohib Dorodan mumnun bo‘ldi.

---

<sup>1</sup> Falsafada tabiatni asos qilib oluvchilar.



Ular «Unsiya»ga qaytishdi. Bu yerda yigirmaga yaqin do‘stlar sabrsizlik bilan kutishardi. Bular orasida shoirlardan Hiloliy, Hofiz Yoriy, Pir Muammoiy, Osifiy, Hotifiy, olimlardan munkillab qolgan Fasihiddin, hali ham sho‘x Mir Mirtoz va Xurosonning mashhur tarixchisi qari Mirxond va boshqalar bor edi. Ko‘ngilli suhbat va ziyofat boshlandi.

Bu kecha uy sohibidan, mehmonlardan boshlab xizmatkorlarga qadar hamma xushchaqchaq edi.

Navoiyning Hirotga qaytishi xalqning va do‘stlarining ko‘nglidan g‘am-tashvishni va umidsizlikni ko‘tardi. Har kun «Unsiya»ga paydar-pay odamlar kelaverdi. Olim, shoir, kosib, dehqon — hamma uni ko‘rishni, unga bo‘lgan mehrini bildirishni o‘zi uchun faxr va sharaf deb bilardi. Majididdin va To‘g‘onbek singarilarning zulmi, qiynog‘i, ta‘qibidan jon hovuchlab pana-panada yurganlarning yurak o‘ynog‘isi to‘xtab, erkin nafas oldi. Navoiy yetim-esirlar, faqirlar uchun oylab osh-non berdi, kiyim-kechak ulashdi.

### ***Yigirma sakkizinchi bob***

Muzaffar Mirzo qasrining devorlari toza chinnidan bo‘lgan go‘zal bir xonasida To‘g‘onbek suvsar po‘stinini yelkaga tashlab, qo‘llarini mang‘alda laqqa cho‘qqa tutib, salmoqlanib so‘zlar edi. Mang‘al atrofida keng doira qurib o‘tirgan va To‘g‘onbekka quloqlarini, ko‘zlarini tikkan bekozodalar va shahzodalarning obro‘li yigitlari orasida mavlono Binoiy bilan mavlono Shahobiddin ham bor edi. To‘g‘onbek yolg‘iz Muzaffar Mirzoning qoshida emas, podshohning nazarida ham e‘tiborli beklardan hisoblanib, hatto u o‘zini Muhammad Burunduq barlos, Jahongir barlos kabi taniqli beklar darajasida ko‘rgandan buyon, garchi ko‘p ishlarda qadimgi soddalikni saqlagan bo‘lsa ham, lekin tantana, bezakning mazasini totgan edi. Bog‘u rog‘, ziyofat, cho‘rilar — hammasi joyida edi. Shahobiddinni katta olim deb fahmlaganidan, bir kun nomimga biron kitob yozar yoki tole yor bo‘lib, katta

ishlar qilib yuborsam, tariximni tuzar, degan andisha bilan o'ziga bog'lab olgandi. Mavlono Binoiyni, umuman Majididdin guruhining shoiri va Alisherning dushmani bo'lgani uchun, To'g'onbek har bir o'tirishga taklif qilar, uning forsiycha she'rlarini durust tushunmasa ham, latifalariga zavqlanar edi. Uning safolatli kunlarida tanishib, hujrasidan joy bergan eski qadrdoni Aloiddin Mashhadiyni pul, kiyim bilan yo'qlab turar, shoir har bir in'om olganda, biron qasida bilan minnatdorchiligini bildirardi.

To'g'onbek qattiq bir o'ksirib, cho'g' yallug'ida tusi quyuqlashgan dakkam-dukkam, qizg'ish soqolini artib qo'ydi-da, eski vaqtdagi katta, qonli urushlar haqida, bolaligining ajoyib bahodirligi haqida sodda, lekin juda kelishtirib, maroqli hikoya qildi. Yigitlar o'zlarini u janglarda ot surgan, qilich chopgan botirlar kabi xayol qilib, ruhlanib, beixtiyor ravishda kulgili, qiziq harakatlar qilib yubordilar. Mavlono Binoiy latifa aytib, kichkina, ko'rimsiz gavdasiga monanad bo'lib tushmaydigan qalin, uzun soqolini serkillatib kulishdan yoki zaharli hajvdan zavq oladigan odam edi. To'g'onbekning sodda, jangovar hikoyasi yoqma-di. To'g'onbek bir hikoyani bitirib, boshqasini o'ylarkan, Binoiy so'zni ilib ketdi. Yangi yozgan hajvlari, g'azallarini o'qib, falonchi shoir bu xususda bunday degan edi, men bu shaklda ta'bir berib, mislsiz xo'b narsani yaratdim, deb o'z-o'zini maqtashga tushdi. O'tirganlardan «Ofarin!» degan sado chiqmagach, izzat nafsi qirilib, hammani bir-bir chaynay boshladi.

— Katta shoir bilan ko'rishib turasizmi? — Binoiyning qitig'iga tegmoq uchun dedi To'g'onbek kulib.

— Bek yigit, qazo va qadarning bir insofsizligi shuki, yo uni, yo meni adam'ga haydamaydi, — deb hazilini yana boshladi. Binoiy. — Men uning o'zidan ko'ra so'ziga bardosh qila olmaymen.

Yigitlardan biri kecha hamshirasi Navoiyning terma kichik devonini o'qirkan, bir g'azali benihoyat

---

<sup>1</sup> O'lim.

ko'ngliga yoqqanini so'zladi ham kissasidan bir parcha qog'oz chiqarib g'azalni o'qig' boshlarkan, Binoiy ikki qulog'ini qo'llari bilan qattiq berkitdi.

— Siz bir karra tinglang. Shoir bo'lmasam ham, chizi zavqim bor, deb o'ylayman,— dedi yigit qizarib.

— Inim, — dedi qo'llarini qulog'idan olmasdan Binoiy,— men uning turkiy so'zlarini eshitsam, haqiqatan quloq og'rig'i degan illatga duchor bo'laman — kuldi Binoiy.

— Zavqi salim ahliga turkiy so'z tikandek tuyuladida. Alalxusus she'rda... — dedi yuz-ko'zini burishtirib mavlono Shahobiddin.

Yigit g'azalni yaxshi o'qidi. Qog'oz qo'ldan-qo'lga o'tdi. To'g'onbek salmoqlanib: «Pishiq g'azal, so'zining ta'mi bor», deb qo'ydi.

G'azal ustida ikki tomon tortishmoqqa hozir ekan, Muzaffar Mirzo kirdi. Hamma o'rnidan turib, ta'zim bilan qarshi oldi. Shahzoda To'g'onbekdan o'zga hamma boshqa xonaga chiqib kutib turishni ishora qildi.

Kishilar chiqib ketgach, Muzaffar Mirzo ko'zlarining sho'x mastligi bilan kulib so'radi:

— Bilasizmi, qayerda edim?

— Bilmaymen, — javob berdi To'g'onbek, — har holda benihoyat xursandsiz. Bu yaxshi.

— To'g'ri, bek, shodmen. Meni bir xoli manzilga taklif etgan edilar. U manzilda har vaqt menga manzur bo'larlik majlis yasar edilar. Shuning uchun bordim. Ikki parivash qiz. Husn bog'ining toza gullari, har ikkisi latofatning avjida. Biri ud chaladi, biri kuylaydi. Ikkisi ikki quchog'imda... Ichdik, aysh-ishratga botdik. Ikkisiga ayni darajada muhabbat qo'ydim.

— Erta, tangri xohlasa, shunday bir go'zalni quchasizki, bir lahzada ularni yodingizdan chiqarasiz, — dedi To'g'onbek xaxolab.

— Qani, erta ko'raylik himmatingizni...

— Shahzodam, yangi xabarlardan ogohmisiz?

— Qanday xabarlar? — qoshini chimirdi Muzaffar Mirzo.

— Alisherning o‘rniga yana Astrobodga tayin etilgan Amir Mo‘g‘ul fitna ko‘taribdi. Astrobod sohibi devonini o‘ldirib, Iroqqa qochibdi. Otangiz, podshoh hazratlari, u viloyatni Badiuzzamon Mirzoga beribdilar. Bu to‘g‘rida ne deysiz? Muzaffar Mirzo sukut qilib, To‘g‘onbekning yuziga tikildi.

— Yaxshi o‘ylash kerak, shahzodam, — do‘ng‘illab qo‘ydi To‘g‘onbek.

— Bilamen, Badiuzzamonning qabih niyatlari bor,— birdan asabiylanib gapirdi Muzaffar Mirzo. — Lekin ishimizni ma‘raka maydoni hal qiladi. Hozircha sabr-bardosh lozim. Vaqti emas.

To‘g‘onbek Muzaffar Mirzoga razm soldi. Uning hali nash‘ali tabassum bilan qoplagan yuzlarida endi allaqanday sovuq jiddiylik sezilar edi. Shahzodani chindan tashvishlantirmoqqa qaror berdi.

— Siz endi yosh emassiz, — dedi To‘g‘onbek jiddiy tur bilan, — siz saltanat tojining eng yirik yulduzisiz. Uylanmoq uchun balog‘atga yetmoq kerak, toj kiymoq uchun balog‘at shart emas. Yurt so‘ramoq ishida yosh podshohga ishbilarmon, siyosatda tadbirli, harbu zarb ishida tajribali bir yetakchi bo‘lsa bas. Og‘angiz Badiuzzamon Mirzo ishni maxfiy va pishiq yurityapti. Qandahor hokimi Arg‘unbek bilan til biritirgan. Astrobodni olgandan keyin boshqalarga ko‘z tikadi. Fursat bor ekan, qo‘r yig‘adi. Hushyor bo‘ling, shahzodam!

Muzaffar Mirzo bunday nasihatlarini atrofdagi bir ko‘p otabeklaridan, anyiqsa, onasidan ochiq yoki razm-ishoralar bilan ko‘pdan buyon eshitib kelgan bo‘lsa ham, lekin boshqa aka-ukalarining harakatlari-da taxt uchun kurashning ravshan alomatini sezmaganiidan, tashabbusni o‘zi boshlab berishga botinmas edi. To‘g‘onbekning so‘zi undagi andisha va taraddudlarni bartaraf qildi. U birdan jiddiylashdi. Yuzidan may va muhabbat nash‘alari o‘chdi. U belidagi qimmatbaho yonib turgan oltin kamarga suqilgan chiroyli qinli xanjarni go‘yo sug‘urmoqchiday mahkam ushlab, o‘ylab qoldi. To‘g‘onbek uning bodom qovoq

ostidagi qiyg'och ko'zlariga tikildi. U ko'zlarda g'azab yonardi.

— Hushyor bo'ling, shahzodam! — yana takrorladi To'g'onbek.

— Bu ishlar qilich bilan hal bo'lg'usi! — qichqirdi birdan Muzaffar Mirzo. — Kimda saltanat dag'dag'asi bo'lsa, maydonga chiqsin! Tojedor bo'lmoq tilagan boshlar o'limdan qo'rqmaydi!

To'g'onbek o'z so'zining, go'yo kul ostidagi olovni kuchli alangalatgan shamol kabi ta'sir qilganiga xursand bo'lib, shahzodaning har vaqt shunday sabotli, jasur bo'lishga undadi. Lekin siyosatda tajribasiz yigitcha ehtiyotsiz, ochiq harakatlari bilan butun ishni buzib yuborishi, bu bilan yolg'iz o'zining emas, atrofidagilarning oyoqlariga ham bolta urishi mumkin edi. To'g'onbek, garchi tarixiy kitoblarni o'zi aslo mutolaa qilmagan bo'lsa ham, Temurdan keyin shahzodalar orasida saltanat uchun bo'lgan barcha kattakichik kurashlarning, fitna va isyonlarning tarixidan yaxshi xabardor edi. Shuning uchun u shahzodaga niyatlarini dilga yashirishni, har qanday sharoitda ham yashirin ishlashni, har vaqt sovuqqon bo'lishni kengash berdi.

Oradan ko'p o'tmasdan, Badiuzzamonning kelganidan xabar berishdi. Muzaffar Mirzo ingichka egilma qoshini ma'nodor o'ynatdi-da, mamnuniyat bilan qabul qilishini bildirdi. Badiuzzamon o'z o'g'li Muhammad Mo'min Mirzoni ergashtirib, eshikda ko'rinishi bilan Muzaffar Mirzo yugurib borib, og'asining qo'lini siqdi. Keyin to'qqiz-o'n yoshli, otasidek chiroyli, nozik va yoshiga nisbatan ko'zlari juda jiddiy, ziyrak bolaning boshini silab, suyub muomala qildi. Har vaqtdagi kabi, katta diqqat va ingichka zavq bilan kiyingan Badiuzzamon o'z mavqeini bilib, o'zini ulug'vor tutar edi. Muzaffar Mirzo ularni shirin so'zlar, mehribonchiliklar bilan to'rga — kimxob to'shakka o'tkazib, o'zi To'g'onbek oldida tiz cho'kdi ham ularning tashrifi uchun cheksiz quvonganini bildirdi. Bir qancha vaqt undan-bundan

so'zlashganidan keyin, Badiuzzamon muloyim tabasum bilan ukasiga murojaat etdi:

— Sizga ham ma'lum bo'lsa kerak, padari buzrukvorimiz ulug' iltifot ko'rgazib, Astrobod viloyatini menga hadya etdilar. Men onhazratning ra'yilarini yerda qoldirmoqni odobdan bilmay, qabul etdim. Erta-indin, safar anjomi tayyor bo'lsa, balki jo'narmiz. Shuning uchun siz bilan diydor ko'rishmoqqa keldim. Shoyad bizni yo'qlab turursiz.

Muzaffar Mirzo boshini kamtargina quyi solib tingladi. So'ngra kamoli ehtirom bilan qo'lini ko'ksiga qo'yib, dedi:

— Men bu xushxabarni eshitib, g'oyat xursand bo'ldim. Siz uchun yurt so'ramoq chog'i ko'pdan kelgan edi. Noqobil kishilarning qo'llarida noobod holga kelgan shahar va viloyatlarni chuqur fikr, yaxshi tadbirlaringiz bilan obod etmoq vazifangizdir. Biz, ukalaringiz, haqqingizga duoda bo'lib, har nechuk amr-farmoyishlaringizni ko'ngil bilan ijro qilurmiz, qo'limizdan kelgan yordamni aslo ayamasmiz. Ulug' maqomingiz muborak bo'lsin!

Badiuzzamon yengillanib, tashakkur bildirdi va ketmoq uchun ijozat tiladi. Muzaffar Mirzo e'tiroz qildi, bukungi ziyofatga o'z ishtiroki bilan ruh va fayz berishini undan iltimos qildi. Badiuzzamon ikkilanganday bo'lib, ukasining ko'nglini ovlamoq uchun, nihoyat, ko'ndi.

Shahzodalar ikkinchi xonaga o'tgach, To'g'onbek tashqariga chiqdi. Tayyor turgan yasamol otini minib, sovuq shamolga qaramasdan, qizil jiyronni Majdidinning dargohiga shitob haydarkan, butun fikri bo'lib o'tgan hodisa bilan band edi. Muzaffar Mirzoning makri, ikkiyuzliligi uni hayratda qoldirgan edi. Bir daqiqa ilgari g'azabga to'lib, akasining boshini olishga tayyorligini bildirgan yosh shahzoda o'z muhitiga, podshoh oilasiga xos bo'lgan va ona suti bilan qoniga singgan munofiqlikni juda tabiiy, juda rostakam bajar-gan edi.

To'g'onbek Majididdinni uning qishliq mehmonxonasida yolg'iz uchratdi. U bukun xafaroq ko'rindi. To'g'onbek haligi voqeani so'zladi. Vazir xomushlik bilan tingladi. Keyin o'z boshini qotira boshlagan dardni ochdi. U, Navoiy kelgandan boshlab vaziyatning asta-asta o'zgarayotganini, ba'zi beklar, amaldorlar uning muomalasidan podshohga shikoyat qilayotgani, Navoiy, garchi rasmiy vazifalardan chetda bo'lsa ham, muhim masalalarda ba'zi davlat arboblari uning kengashiga murojaat qilayotganlari haqida gapirdi. Balxda Darveshali, bu yerda Navoiy va Nizomulmulk unga qarshi yashirin ish ko'rayotgani haqida uzoq ma'lumot berdi. Xo'ja Afzal safardan qaytib qolsa, yana ahvol chatoqlanishi mumkinligini bildirdi.

— Bunday ahvoldi,— dedi qovog'ini solib To'g'onbek, — aqlga eng to'g'ri keladigan yo'l dushmanlarning orasini ayirimoqdir. Ularni ayiring, ular o'z o'tlarida qovrilsinlar!

— Qanday qilib? — jonlanib so'radi Majididdin.

— Qiyin emas,— ayyorcha kulib javob berdi To'g'onbek.— Hammaga belgilikki, Nizomulmulk sizga ham, Navoiyga ham dushman. Lekin u sizning zarbangizga qalqon qildirib, o'zini u tomonga yaqinroq olib yuradi. Nizomulmulkni qo'lga olib, vazir tayinlab, devonda o'rin bersangiz, sizni qo'llab-qo'ltiqalaydi. Yana shu narsani xotirlangki, uning ikki o'g'liga ham podshoh iltifot qiladi.

Majididdin qo'lini iyagiga tirab bir oz o'ylagandan so'ng: «Maslahating aql va mantiqan xoli emas», dedi. Keyin To'g'onbek ba'zi katta yerdorlarning zakotning kamaytirilishi haqidagi talablarini so'zladi. Agar vazir bu talabni qondirsa, ulardan o'zlari uchun katta mablag' olishga ishonchini bildirdi. O'zi uchun davlatga qarashli yerlardan bir qism suyurg'ol olib berishni iltimos etdi. Vazir bu talablarni qabul qilgach, To'g'onbek shahzodalarning bazmiga yetishga oshiqib, jo'nab qoldi.

Ertasi Majididdin saroyda Nizomulmulkka duch keldi. Tantana, ziynatni sevgan sobiq vazir ko'p yillab

havosiga ko'nikib qolgan saroyga tez-tez kelib, go'yo xumorini tarqatib ketardi. Majididdin u bilan uchrashganda, uning yarasiga tuz sepmoq niyatida, odatda, benihoyat kekkayib olardi. Ko'pincha go'yo bironta navkarning oldidan o'tgan kabi, nazar-pisand qilmas edi. Bu gal Majididdin, garchi sovuqqina bo'lsa ham, u bilan ko'rishdi. Qavat-qavat xitoyi shohi to'nlar kiygan, oqargan ko'rkam soqolli sersavlat Nizomulmulk mug'ombirona boqib, o'z dushmanidagi bu holatning yashirin ma'nosini tushunmoqqa tirisharkan, Majididdin, xolis bir xonaga ishorat qildi. Nizomulmulk muhim bir narsaning isini payqaganday, atrofga alanglab, indamasdan uning orqasidan yurdi.

Majididdin vaziyatni tushuntirib, o'z muddaosi-ning ustidan qalin, sirli pardani uloqtirdi.

— Siz g'oyat tajribali, kordon odamsiz, — dedi Majididdin qat'iylik bilan, — oramizda o'tgan gina-kuduratlarga xotima berurmiz. Men janoblarga burungi vazifani olib beraman. Lekin bir shart bor, — labini tishlab tikildi Majididdin.

— O'rtadagi ba'zi noxush voqealarni, — dedi Nizomulmulk donishmandona bir vazohat bilan, — men sahv xatoning natijasi, deb bilamen. G'olibo, bizlarning dillarimiz bir-birimiz uchun tilsimotdek maxfiy qolgandir. Oqillarnig ishi xatolarni tuzatmoqdir. U shartki, siz dedingiz, nima ekan?

— Do'stona munosabatda bo'lib, hamkorlik qilur-miz, — birdan ovozini pasaytirib javob berdi Majididdin. — Hamkorlik shulki, siz hech qachon, hech kimning huzurida mendan shikoyat qilmaysiz. Mening tadbirlarimga hech vaqt e'tiroz etmaysiz. Har qanday mushkulotni bahamjihatlik bilan bartaraf qilmoqqa harakat qilurmiz.

— Bag'oyat ma'qul shart, — quvonch bilan dedi Nizomulmulk, — zotan, biz qadimdan bu shartga rioya qilmoqligimiz kerak edi. Hay, moziyni eslamaylik.

— Va'daga vafo? — qo'llari bilan ta'kidlab, qat'iy dedi Majididdin.



— Vafosizlik qadar qabih badnomlik yo‘qdir.  
Tangri bir so‘z bir!

Ikkinchi kun Nizomulmulk rasmiy yorliq bilan vazir tayin qilindi.

### ***Yigirma to‘qqizinchi bob***

Darichaning tepasidagi rangli oynalardan quyosh uyga bir tutam nur otgan edi — kursi ustidagi silliq hafrang qog‘ozlarda, chiroyli mis siyohdonda, tiniq suv turgan mo‘‘jaz, ko‘z oqiday toza, chetlariga jivir-jivir gullar ishlangan jonon kosada aks etar, bir parchasi esa gilamning gullarini yondirar edi. Shoir qalin kitobni tizzasiga qo‘yib, yostiqqa suyangan holda tarix mutolaa qilardi.

Navoiy saroyning behuda bo‘sh-bo‘g‘ovligidan uzoqda har kun yozadi, o‘qiydi. Yozmoqni ko‘zlagan asarlari haqida o‘ylaydi. «Mahbub ul-qulub»<sup>1</sup>, «Muho-kamat ul-lug‘atayn»<sup>2</sup> uchun kerakli fikrlarni, misollarni saralaydi. Xonaqohga borib, olimlarning holidan xabar oladi, ularning yozayotgan kitoblari bilan tanishadi, kengashlar beradi.

Madrasalarga kirib tolibi ilmlarning nafaqalari to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi. Hirotida, o‘zga shaharlarda yuzlarcha shoirlarning yangi yozgan har nav katta-kichik she‘rlarini topadi. Ma‘lum vazifalar topshirilgan mulozimlarini qabul etib, ishlarning borishi haqida ma‘lumot so‘raydi. Daromadlardan xayri ehson uchun qilingan xarajatlarni tekshiradi. Goho otda, goho piyoda yurib Hirotning qadimgi tarixiy binolarini, joylarini tomosha qiladi. Shaharning husnini ochish uchun nimalar qilish to‘g‘risida o‘ylaydi. Do‘sti mavlono Jomiy qoshiga borib, she‘rdan, falsafadan, tasavvufdan suhbatlashadi. Olim, fozil do‘stlarini tez-tez chorlab, shirin o‘ltirishda musiqiy tinglaydi, andak hazil-mutoyiba qiladi. Bu sokin ha-

<sup>1</sup> Qalblarning do‘sti, sevguvchisi.

<sup>2</sup> Ikki til haqida fikr yuritish.

yotda, u bir dam bo'lsin, mamlakat taqdirini unutmaydi. Xalqqa sitam qiluvchilarga bo'lgan g'azabi yuragida chayqalib turadi. Ba'zan tutaqib, alamdanda to'lg'anadi...

Mulozim kirib, Mirak Naqqoshning kelganini aytdi. Navoiy darrov kitobni chetga olib qo'ydi.

— Axir qo'lga tushdimi, ildam kirsin!— dedi kulib u.

Mirak Naqqosh qo'rqa-pisa kirib, qo'lini qovush-tirib, bir chekkaga o'tirdi.

— Soatni qachon bitkizasiz? Siz uchun va'da, so'z degan mafhumlarning qimmatini bormi? — sun'iy ravishda qovog'ini solib, shiddat bilan gapirdi Navoiy.

Naqqosh so'z topolmay, qo'li bilan kattagina sal-lasini tuzatdi, qizardi, joydiragan o'tkir ko'zlari bilan shoirga tikildi. Nihoyat, taralmagan sarig'-qizg'ish soqolining uchini himarib:

— Soat hali bitgani yo'q, — dedi Naqqosh aybdorlarcha kulimsirab. — Lekin, taqsir, bu xayol bo-shingizga qaydan keldi? Raso xunob ish ekan...

— Qachon yurgizasiz, qachon vaqtini to'g'ri o'lchaymiz? Insof qiling, o'tgan muddatni bilasizmi? — dedi Navoiy.

— Fikrim erta-kech bu muammo bilan band. Lekin dardisarning hal bo'lmagan jihatlari bor. Hayronmen, natija ne bo'lar ekan... — asabiylashganday qo'lini siltab qo'ydi Naqqosh.

— Soatni faranglar yasabdilar. Arablar ham yasaganlari ma'lum. Xo'sh, nega siz bu muammoni hal qilolmaysiz? Ilmi jarri saqil'dan ma'lumot sohibisiz. Bu menga ma'lum. Bu ilmni tadbiiq eting. Inson fikrning qudrati bilan ne-ne mushkullarni hal qilmas! Xo'b, mana bu kosa, fikringizcha, qay mamlakatning mahsuli? — kursidagi kosani ko'rsatdi Navoiy.

Naqqosh engashib, diqqat bilan kosaga razm soldi.

— Xitoy chinnisi!

— Borakallo! — ko'zlarini chiroyli suzib kulib yubordi Navoiy va muloyim gapirdi. — Yo'q, xato

---

<sup>1</sup> Mexanika.

qildingiz. Bu chinni Hirotning mahsuli. Buni o'zingiz tanigan usta Muhammad Jamol yasadi.

Naqqosh taajjublanib, olaygan ko'zlari bilan go'yo kosani yeb qo'yganday bo'lib qaradi. Nihoyat, boshini chayqadi:

— O'xshatgan. O'xshatgan!

— Tirik bo'lsam, — dedi Navoiy bir xo'rsinib, — butun yurtga shu chinnini tarqatamen. O'z tuprog'imizdan asl chinni yaratmoq mumkin ekan. Soat, tabiiy, ko'p ilm, ko'p hunar talab qilur. Ammo, aminmenki, siz yarata olursiz. Sizda yalqovlik bor, ana shu balodan qutulishingiz kerak, inim.

Naqqosh, go'yo o'z beparvoligini iqror qilganday, iljayib qo'ydi. Endi qunt bilan ishlab, tez bitirishni va'da qildi. Navoiy, agar u yana beparvolik ko'rsatsa, qattiq tadbirlar ko'rishga majbur bo'lishini, u vaqtda undan ranjimaslikni ta'kidlab, po'pisa qildi. Keyin soat ixtirosining ahamiyatini, insonlar uchun vaqtni ilishning foydalarini so'zladi. Bu munosabat bilan ilmi nujum haqida, Ulug'bekning rasadxonasi va hokazo to'g'risida qiziq ma'lumotlar berdi.

Naqqosh ketgandan so'ng shoir eshikka chiqdi. Bir oz hovlida kezindi. Mulozimlar bilan so'zlashdi. Ba'zi ishlardan noxushlanib koyindi. Keyin shifoxonadagi tabiblar bilan suhbatlashmoqqa jo'nadi.

Katta yo'lga chiqqanda, uzoqdan Haydarga ko'zi tushdi. U ko'pdan qalandar bo'lib olgandi. Hamma uni «Haydar qalandar» derdi. Boshida qalandarlarga xos kuloh, egnida eski xirqa, sochlar o'siq... U uy-joyini tark etib, bir kulbani maskan qilgan edi. Har kun bozolarini aylanib, qalandarlar odaticha, g'oyat oddiy tirikchiligi uchun kerak narsalarni tilanib topardi.

Hirotida bu hol uyat hisoblanmas edi. Qalandarlarining hammasi — ular orasida asilzodalar ham uchrardi — shunday yashardilar. Navoiy xuddi o'z farzandiday ko'rgan bu jiyanini, bir vaqtlar shoir va sipohi bo'lgan yigitni bu holga tushganiga qayg'urardi. Lekin Haydarga nasihat kor qilmas edi. Navoiy uning bu holatini yolg'iz uning darveshlikka bo'lgan tabiiy

maylidan deb bilmas, balki haq soʻzi uchun podshoh tomonidan siquv ostiga olinganligi ham taʼsir etganini fahmlardi. Haydar Navoiyni koʻrdi shekilli, uzoqdan boshini egib, jimgina boshqa yoqqa burilib ketdi. Navoiy balki qaropsizligi orqasida bir kun bu yoʻldan qaytar, deb umid qildi-da, asta-asta joʻnadi. Lekin shifoxonaga borishga toʻgʻri kelmadi. Bir oz yurgach, qarshisidan Muboriziddin Valibek bilan Gʻiyosiddin Dehdor chiqib qoldi.

— Mir janoblari,— dedi Valibek koʻrishgandan keyin, — biz huzuringizga bormoqda edik.

Navoiy ularning yuzlarida ichki bir hayajonning asarini koʻrdi.

— Zotan, ishim ham yoʻq edi. Suhbatlaringizga orzumandmen, — dedi-da, uyga boshladi.

Oʻtirishgan hamon Valibek: «Balxdan chopar keldi», deb soʻzlab ketdi.

Navoiy diqqat bilan quloq solib, shunday voqea roʻy berganini eshitdi:

Podshoh bukun devonda vazirlar, beklar va yaqinlari bilan majlis qurarkan, Balxdan chopar yetib kelib, Darveshalining isyon koʻtarganini va Sulton Mahmud bilan ittifoq tuzib, harakat qilayotganini bildirgan. Podshohga bu xabar qattiq taʼsir qilgan, bir onda tutaqqan. Majlisdagilar ham hayajonlanganlar va bu voqea xususida darrov oʻzlaricha bichib-toʻqiy boshlaganlar. Ular, agar Alisher Navoiyning qoʻli boʻlmasa, bunday ishga Darveshalining oʻzi jasorat koʻrsata olmas edi, deganlar. Voqeani bunday taʼbir etish podshohga ham maʼqul koʻringin. U shu ondayoq Alisher dan shikoyat qila boshlagan. Valibek bilan Gʻiyosiddin Dehdor maslahatlashib, voqeaning ahamiyatsizligini isbot etishga tirishganlar. Dehdor podshohga taʼzim qilib, soʻziga odatdagi hazil-mutoyiba ruhini berib: «Olampanoh Sulton, bu faqir bandangizga ijozat bering, men u ojiz kitobdor gʻulomingizni<sup>1</sup> tutib keltirib, oyoqlaringiz ostiga tashlayin!» degan. Podshoh

---

<sup>1</sup> Darveshali bir vaqtlar Husayn Boyqaro kutubxonasining boshligʻi edi.

Dehdorda bunday shijoatni ko‘rib, xaxolab kulgan: «Xo‘b, ijizat berdik, hunaringizni ko‘rsating», degan.

Valibek so‘zni bitirgach, Navoiy yuzini, soqollarini qoplagan muloyim kulgi bilan Dehdorga qaradi.

— Podshohning g‘azabi ichimizga titroq soldi, — dedi G‘iyosiddin Dehdor, — men aslo kutilmagan taklif bilan podshohning yuragini bosgan g‘azab bulutlarini xiyla tarqatdim. Xato qilmabmenmi?

— G‘oyat nozik harakat qilgansiz, — dedi boshi bilan tasdiqlab Navoiy. — Albatta, Darveshali davlatga raxna solmoq niyatida bosh ko‘tarmagan bo‘lsa kerak. Ma‘lum maqsadlari ham bordir balki... Bilmadim, to‘g‘rimi, men shunday o‘ylamoqqa moyilmen.

— Bu xususda bizda ham shubha yo‘q, — ma‘nodor iljayib dedi Valibek.

— Men Balxga yetib, mavlono Darveshali bilan muzokara boshlaguncha, inshoollo, bu yerda ishlar ko‘nglimizdagidek rivoj topar, — dam Navoiyga, dam Valibekka ayyorcha boqib gapirdi G‘iyosiddin Dehdor.

Navoiy shu yerda bir parcha qog‘oz olib, Darveshali uchun maktub yozishga boshladi. Xatda hamisha el va ulus manfaatlarinigina chuqur o‘ylab, shunga binoan harakat qilish, aql, insof, adolatga tayanish kerakligi, yurt ishini o‘z manfaatlari uchun vosita etishning eng og‘ir jinoyat ekani haqida chuqur, go‘zal, hikmatli so‘zlarni uqtirdi. Chunki Darveshali Majididdin bir kun mening ishimni ham rasvo qilishi aniq, degan shaxsiy andisha orqasida harakat qilayotgan bo‘lishini Navoiy gumon qilgan edi. Shoir esa Majididdinni davlat uchun, xalq uchun zararli, ig‘vogar, fitnachi deb ishonganidan, Darveshalining unga adovatini haqli topar edi. Xatni bukib, G‘iyosiddin Dehdorga topshirdi. Oradagi nizolarni tinchlik bilan, muzokara bilan hal qilmoq kerakligini Darveshaliga uqtirishni Dehdorga yana tayinladi.

Ular ketgach, shoir ro‘y bergan ahvolni yana o‘ylab qoldi. Darveshali harakatining oqibati nima

bo'lishi uni tashvishga soldi: «Tojlari adolat yulduzining gavharlari bilan muzayyan bo'lgan, ko'zi hamisha ochiq podshohlarning soyaiv davlatida yashamoqni o'zga, begona ellar orzu qiladilar, — o'yladi ichida, — bu qanday falokatki, bizning elning podshohidan o'z eli shikoyat qilar, o'z kishilari yuz o'girar!»

Uchinchi kun shoir har nav «mish-mish»larni tahqiqlamog uchun saroyga bordi. Bu yerda u favqulodda tantana va hayajon alomatini sezdi. O'zining qadimgi sodiq mulozimi Boboali eshik og'a, Balxdan bukun kelgan ma'lumotlarga binoan, Darveshali, podshoh Majididdinni mansabdan tushurmas ekan, Sulton Mahmud bilan ittifoq bo'lib markazga qarshi harakatni davom ettirajagini qat'iy bildirganini, shuning uchun podshoh qadrdon vazirini muvaqqatan bo'shatmoqqa qaror berganini so'zladi. Navoiy o'z ukasi boshlagan harakat el va ulus foydasiga xizmat qilganidan ichida suyundi. Tez-tez yurib devonga kirdi. Katta, yorug', tillakori xonada beklar, vazirlar, saidlar<sup>1</sup>, ulug' mansabdorlar gerdayib, churq etmasdan o'tirardilar. Oldingi qatorda boshini quyi solib, o'shshaygan Majididdin, uning ro'baro'sida g'olibona bir tur ham vajohat bilan Nizomulmulk o'tirardi. Shoir kirishi bilanoq ixtiyorsiz ravishda, go'yo anglashilmas ichki bir turtkning kuchi bilan, hamma birvarakay o'rnidan turdi. Qo'ltiqlashib, bir-biriga uzatgan qo'llar Navoiyni, uning xohishiga qarshi, yuqori chiqarib qo'yan edi. Bir onda rangi qum o'chib ketgan Majididdin bilan uzun kipriklari yomon pirillagan Nizomulmulkning o'rtasida shoir ixtiyorsiz ravishda o'tirishga majbur bo'ldi. Ko'p o'tmasdan, qo'shni xonaning zarhal eshigi ochildi. Hamma yana guv etib qo'zg'aldi, boshlar ta'zim bilan egildi. Husayn Boyqaro darmonsizlik va mastlik orqasida kalavlanib paydo bo'ldi. Takallufsizlik bilan o'z joyiga, kimxob to'shaklarga o'tirdi. Kishilar qadrlarini asta ko'tardilar. Podshoh Majididdin Muham-

---

<sup>1</sup> Yuqori imtiyozli ruhoniylar.

madning davlat uchun qilgan ulug' ishlari, dono tadbirlari haqida qisqa, lekin g'oyat tumtaroqli so'zlab, mulozimlarga ishorat qildi. Ular kashmir sholiga o'ralgan katta bo'g'chani olib chiqib yechdilar. Husayn Boyqaro yarqiroq tillado'zi qimmatbaho jomani olib, mehribonliklar bilan Majididdinning ustiga yopdi va unga yuz ming dinor maosh tayin etkanini e'lon qildi. Maosh miqdori hammaning ko'zida taajjub uyg'otdi. Tillado'zi jomani kiyib Majididdin titroq, hayajonli ovoz bilan podshohga sadoqat va muhabbatini aytib, so'zini duo bilan bitirdi.

Navoiy xalq bilan birga bog'chaga chiqdi. Odamlar katta-kichik guruhlariga bo'linib, imo-ishora, ivir-shivir bilan gaplashib, har yoqqa tarqalib ketishdi.

Izg'irin daraxtlarda qolgan barglarni uzardi. Gulzorlarda yozning ro'yolari titrardi. Og'gan quyosh bulutli ko'kka turli toza rang dengizlari toshdirgandi. Shoir uzun yeng ichidagi qo'llarini orqaga qo'yib, asta, o'ychan kezindi. Yuragi qofiyalarning jarangi, shoirona fikrning nuri, ilhomning shavqi bilan to'la edi. Lekin bularni birdan hayot voqealarining sovuq nafasi qopladi — u shirin farahbaxsh tushdan ayrildi. Vatan, davlat, xalq — bular uning uchun muqaddas hodisalar edi. U bularning ishq bilan, g'ami bilan yashardi. Majididdinning buzug'lik zamoni, ochiq havoni bosgan va xayrli shamollar kuchi bilan haydalgan dovul bulutlari kabi yo'qolar, yerda hayotning gullagan sabzasi yana nurda yashnashga imkoniyat topar... faqat buning uchun vatan, davlat, xalq g'amini yeydigan, vijdonli bir shaxs ishni o'z qo'liga olishi kerak edi. Navoiy podshoh bilan yolg'iz so'zlashib, mumkin bo'lsa, bu xususda o'z mulohazalarini aytmoqqa qaror berdi. Biroq, devonga yaqinlasharkan, xo'mraygan Valibekni ko'rib, uni chetga tortdi va o'z mulohazasini aytdi.

— Ne xayollardasiz, janob Alisher? — dedi achchiq kulgi bilan Valibek. — Bo'rining o'rniga tulki keldi. Nizomulmulkni oliy maqomi bilan tabrik eting!

— Ana mantiq, ana yurt tuzatmoq! — qichqirdi Navoiy ham gʻazabining shiddatidan tez-tez yurib, saroydan chiqdi.

Majididdinning aslo kutilmagan tantana va ulugʻ shohona mehribonliklar bilan vaqtincha boʻshatilishi Darveshalini qanoatlantirmaganligi tez orada Hirotda maʼlum boʻlib qoldi. Husayn Boyqaro yana tashvishga tusha boshladi. Majididdinning tarafdorlari va har xil fitnachilar «Navoiyning qoʻli» haqida gap tarqatishdan tolmaydilar. Husayn Boyqaro uchun haqiqatda Darveshali emas, balki Sulton Mahmud katta xavf edi. U eski, hech vaqt qilichini qiniga solmaydigan, tushida Xuroson toju taxtidan oʻzga narsani koʻrmaydigan dushman edi. Shuning uchun u Balxga, safarga otlandi. Hirotdan chiqadigan kuni Navoiyga kishi yubordi: «Ildam otlansin!» Shoir keldi. Sovuq tushib, safar mashaqqati qatla-qatla ortganini soʻzlab, qoldirishni soʻradi.

— Menga sizning hamrohligingiz kerak, — safar kiyimida boʻlgan podshoh eʼtirozni koʻtarmaydigan bir ohang bilan dedi.

Navoiy oʻzi toʻgʻrisida Husaynning qandaydir gumoni borligini fahmladi. Nochor safar ixtiyorini qabul etishga majbur boʻldi.

Koʻchalarni toʻldirgan otliq sipohilar, ur-sur bilan yoʻl ochgan yasovullar, safar anjomini eltuvchi karvonlar va odatdagi suron, tantana bilan Husayn Boyqaro poytaxtdan chiqdi. Sahroni toʻldirgan qoʻshin va koʻmakchi qismlar ham katta maiyat<sup>1</sup> bilan borayotgan podshoh shoshilmasdan, oz yurib, koʻproq qoʻnib, hatto yoʻl-yoʻlakay ov va shuning kabi koʻngil ochuvchi hangomalar bilan harakat qildi.

Katta-kichik safarlarni, janglarni benihoyat koʻp koʻrgan Murgʻob daryosiga yetganlarida, kutilmagan vaqtda Xoʻja Gʻiyosiddin Dehdor paydo boʻldi. Otdan oʻzini otib, bukilib, Husayn Boyqaroga yaqin keldi, odat boʻyicha, uning etagini oʻpdi. Keyin orqasi bilan

---

<sup>1</sup> Podshohga hamrohlik qiladigan yaqinlar.



yurib, uch-to'rt qadam chetlandi va podshohning haqiga ta'sirli duo qildi. Har ilmda tishi baquvvat bo'lgan, turli-tuman hunarlarni biladigan Dehdor bunday rasmiy tavozelarni ham juda do'ndirardi. Husayn Boyqaro yumshaldi.

— Xaloyiq qoshida bizga qilgan va'dangiz ne bo'ldi? Jasoratingizning samarasini ko'rmadik, axir! — jo'rttaga ovozini baland qo'yib, dedi podshoh.

— O, xoqoni olam! — qo'lini ko'ksiga qo'yib javob berdi Dehdor. — Bu faqir o'z zimmasiga olingan mushkul va'dani sadoqat bilan bajardi. U osiy<sup>1</sup> g'ulomingiz mening changalimdadir. Yolg'iz, sahroda kishan topolmaganimdan, oyoq-qo'lini bog'lab qoshingizga keltira olmadim. Men agar xoqonimizdan ijozat bo'lsa, hozir Urdu bozor<sup>2</sup>ga yugurib, bir temir-chini olib ketamen ham asirimni zanjirband qilib, tezda olib kelamen.

Podshoh quvondi. Atrofidagilarga kulib qarab qo'ydi. Keyin Darveshalining qayerda ekanini so'radi. Dehdor: «Bu yerdan uch farsax narida», dedi ham uning tavba qilganini, o'z podshohining diydorini ko'rmoqqa orzumand ekanini bayon qildi. Husayn Boyqaro birdan qoshlarini nitib, o'ylab qoldi. Bir ozdan keyin Dehdorga buyurdi: «Qoshimga kelsin, men uning gunohidan kechdim». Podshohning marhamati, Majididdin tarafdorlaridan boshqa hammani quvontirdi.

Darveshali Murg'ob yoqasida qabul etildi. Majididdin bo'shatilgandan boshlab, o'rtada hech qanday ixtilof qolmaganligi ravshan bo'ldi. Husayn Boyqaro hatto Darveshalining chodirida tuzilgan katta ziyofatga kelib, o'zining shohona marhamatini yana tasdiqladi. Bu qishni Balxda o'tkazib, bahor kelishi bilan Sulton Mahmud ustiga qo'shin tortishga qaror berildi.

Qo'shin Balxga qarab yurdi. Husayn Boyqaro Balxda Amir Arg'un deganning Chahorbog'iga qo'ndi.

---

<sup>1</sup> Gunohkor.

<sup>2</sup> Qo'shin orqasidan yurib, mollarini sotadigan savdogarlar bozor tashkil qiladilar. Shunga «Urdu bozor» deyiladi.

Podshoh qishning sovuq, bulutli yaknasaq kunlarini, Hirotdagi kabi, xushchaqchaqlik bilan to'ldirishga tirishdi. Rang-barang ziyofatlar, may bazmlari, raqs-lar, qiziqchiliklarning keti uzilmas edi Goho minglar-cha merganlar bilan birga tantanali ov haftalari tuzib, qorli sahrolarga suron solar, katta g'animat bilan qay-tardi.

Navoiy Balxda soddagina bir xonada yashadi. Podshohning atrofini qurshagan yigitlar, yuqori man-sabdorlar va tamaxo'r hamsuhbatlarning g'iybatlari-dan, fisqu fujurlaridan, fitnalaridan uzoq, ularning kundalik tantanalari, ko'ngil ochishlariga begona bo'lib, kunlarini ish bilan, tafakkur bilan kechirardi. Shoir bu safarga qatnashuvini tamom ma'nosiz, deb hisoblar, o'zini erksiz, ixtiyorsiz sezardi. Bu shahar-ning ilmparvarlari, shoirlari tez-tez kelib, u bilan suh-batlashar, yozganlarini ko'rsatishardi. U ko'pincha moddiy va ma'naviy yordam bilan ko'ngillarini ko'tarib jo'natardi. Shoir goho shaharda aylanardi. Uning tarixiy va hozirgi hayoti bilan qiziqardi.

Atrofi qalin, azamat tuproqko'rg'onlar bilan o'ral-gan Balx bir vaqtlar o'zining savdosi, hunarlari bilan dong chiqargan, obod, katta shahar bo'lgan edi. Chingiz qo'shinlari balodek qursharkan, shahar o'z erkini mardona mudofaa qilgan; lekin yemirib yiquvchi, dahshat bilan tog'larni qo'zg'ata biladigan qora mo'g'ul bo'roni qarshisida yolg'iz shahar qarshi-lik ko'rsata-ko'rsata majolsizlangan va nihoyat, taslim bo'lgan. Darvozalardan ofat to'lqini shaharga otilib, yoqqan-yiqqan, talagan. O'n minglab boshlar — taslim bo'lib egilgan boshlar — qilichdan o'tkazilgan. Bu mash'um voqeadan keyin Balx o'zini o'nglab ololma-gan. Asrlar o'tishiga qaramay, bu yerda hayot hali ham falaj edi. Badanga chiqqan kuydirgi jarohatining bir umr qoladigan dog'idek, mo'g'ul zarbasining qo'rqinchli izlari hali ham yupun Balxning gavdasida saqlangan edi.

Shoir vaqshatning izlarini tomosha qilarkan, yura-gi chuqur hasrat bilan to'lar, qoshlari alam bilan chi-

mirilardi. Xayoli tarixning ketma-ket ochilgan cheksiz ufqlariga uchradi. Qon dengizlari, katta minoralari, ko'kni tutgan olov bo'ronlari ustida, fotihlarning mud-hish siymosini ko'rar va jirkanar edi. U tarixda hayot-ga ko'proq hayot qo'shuvchi, inson ruhidagi asl ijod-kor kuchlarni gavalantiruvchi, aql mash'ali bilan tarix yo'llarini yorituvchi qahramonlar qidirardi...

Mana, qishning dami kesila boshlandi. Bo'g'otlar-da, tarnovlarda bir necha kun osilib sarig' sumalak ham o'tdi. Havoda kundan-kun iliqlangan xushyoqar shamollar tentiradi. Daraxtlarning novdalari yashil bezaklar kiydi. Husayn Boyqaro safar uchun tayyor-garlik ko'rishga kirishdi. Atrofda qang'ib yurgan navkarlar to'plana boshladi. Hunarmandlar yetishma-gan qurol-aslahalarni yasamoqqa jadal qildilar.

Bahorning ko'ngillarni shirin mastlik bilan to'ldi-ruvchi eng latif bir kuni Husayn Boyqaro Sul-ton Mahmudga qarshi yurish e'lon qildi. Sipohilar qurol-lanib, yo'lga hozir turardi. Husayn Boyqaro xos yigit-lari, yaqinlari bilan Chahorbog'dan chiqdi. Nog'o-ralar, karnaylar havoni yangratdi. Otlar uzoqda ko'k dengizday tovlangan sahrolarga intilib, har tarafdin kishnashardi. Navoiyning yuvosh, lekin chiroyli yo'rg'asi ham so'lug'ini chaynab, quloqlarini dikkayti-rar, oldingi oyoqlari bilan yerni gursillatib tepardi. Egar-jabduqlari eng mohir sarrojlar<sup>1</sup> tomonidan ish-lanib, kumush va feruzalar bilan yarqiragan chiroyli otlarni o'ynatgan mag'rur beklarning qo'l ostida qo'shinning ayrim guruhlari yo'lga tusha boshladi. Husayn Boyqaro mulozimi orqali Navoiyni chaqirdi.

— Siz Balxda qolib, biz qaytguncha, bu viloyatda idorani qo'lga olursiz, — buyurdi Husayn Boyqaro.

Navoiy kutilmagan bu taklifga taajjublandi. Bu xususda shu vaqtgacha biron ishora bo'lmagan edi. Qat'iy, lekin ishonch alomati kabi qilingan taklifni qabul etmaslik uchun Navoiyda hech qanday sabab va bahona yo'q edi.

---

<sup>1</sup> Ot asboblari yasovchi hunarmandlar.

— Bu vazifa garchi safar mashaqqatidan yengil bo‘lmasa ham, qabul qilurmiz, — dedi Navoiy kulimsirab.

Husayn Boyqaro shod, tetik ko‘rinardi. Odamlarga uni-buni buyurib, gap orasida hazillashib qo‘yardi. Otda xomush o‘tirgan Darveshali, o‘ng tomonida gerdaygan sersavlat Nizomulmulk va boshqalar bilan jonli suhbatlashar, kular, yashil sahroni to‘ldirib, quyoshda chaqnab uzoqlashgan qo‘shin qismlariga suqlanib qarar, chorpaxil, kuchli, sodda Islim barlosning bo‘lajak janglar haqida fikrini so‘rardi. Hamma ishlar saranjom topgandan so‘ng hamma vaqtdagi tartib, odat va tantana bilan yo‘lga tushildi.

Navoiy Balx devonxonasiga kelib, bundagi yosh va qari, sodda va xirfa amaldorlar bilan so‘zlashdi; viloyat ishlari bilan tanishdi. Kechani shu yerdagi xonalardan birida mutolaa va yozish bilan yolg‘iz kechirdi. Ertasi peshindan so‘ng o‘zi vijdonli deb taxmin qilgan bir necha mulozimlarni yig‘ib, xalq orasida zulmi, poraxo‘rligi va hokazo yomon sifatleri bilan tanilgan ba‘zi amaldorlar to‘g‘risida so‘zlasharkan, navkar yugurib kirdi.

— Janob Mir, Darveshalibek janoblarini keltirdilar!— qichqirdi hovliqib navkar.

Navoiy suhbatni kesdi. Qandaydir ichki hayajon, andisha bilan tashqari chiqdi. Qarshidan katta qadamlar otib kelayotgan tanish yasovul unga yaqinlashib to‘xtadi, ta‘zimdan so‘ng ko‘zlaridagi sarosimani yashira olmay, sekingina dedi;

— Xoqon hazratlarining amrlari bilan Darveshalibek janoblarini keltirdik. Qamar emishsiz!

Navoiy labini tishlab, bir zum yerga qarab qoldi. Keyin qovog‘ini solib, rangi o‘chgan holda darvoza tomonga — bir guruh otliqlarga qarab yurdi. To‘rtta qurolli navkar o‘rtasida, otda qo‘llari kishanlangan Darveshali turardi. Navkarlar qo‘l qovushtirib, salom berdilar va qizarib, ko‘zlarini shoirdan yashirishga tishirdilar. Darveshalining yuzida ichki qayg‘uning dudi

jilvalanardi. U boshini qimirlatib, akasi bilan ko‘rishdi.

— Bu ne ko‘rgulik? Aqlim bovar qilmaydi?— mu-rojaat etdi Navoiy hayajondan, qayg‘udan bo‘g‘ilib.

— Orada hech nima bo‘lgani yo‘q. Bizdan qasos olmoqchilar! — g‘amgin, horg‘in javob berdi Darveshali. — Taraddudlanmangiz, men tezroq qorong‘i makonimga boray!

— Mendan ne talab qilursen? — yasovulga tikildi Navoiy.

— Qal‘a begiga farmon yozib beringiz.

— Balx hokimi sifatida meni qamashingiz kerak! — kinoyali jilmayib dedi Darveshali.

Navoiy indamasdan orqaga qaytdi. Boshqa xonaga kirib, qog‘oz va qalam oldi-da, shuursiz ravishda farmon yoza boshladi. Ichdan alam titrog‘i qo‘zg‘alib, ko‘z oldi qorong‘ilashdi. Qalamni chetga qo‘ydi. Bu qanday haqorat! O‘z inisini o‘z qo‘li bilan qamash! Qay gunohi uchun? Majiddin va unga o‘xshash g‘addorlarga dushman bo‘lgani uchunmi? Yuragi qanday tirqillab qonamasin. Navoiy farmon berishga majbur edi. Husayn Boyqaroning g‘azabi o‘zi uchun ham, Darveshali uchun ham yomon oqibatlar tug‘dirishini bilardi. Qalamni olib, shuursiz ravishda, farmonning so‘nggi jumllarini yozdi, qo‘l qo‘ydi-da, yasovulga berish uchun eshikdagi navkarga uzatdi. Keng, yorqin peshonasini, go‘yo u yonib, yorilib ketayotgandek, ezib, qo‘llari bilan qisdi: «Haq so‘zimiz uchun qasos olmoqchilar! — dedi ichida, iztirob bilan kemirilib. — Yana qanday makr bilan, qanday munofiqlik bilan! Haqiqatan, bobolar xato ayt-maganlar: «Suv keltirgan xoru zoru, ko‘za sindirgan aziz!» Mayli, boshimga jabr tog‘larini ag‘dar, lekin meni o‘z jallodlaring, el-ulusni talovchilaring, mast itlaring qatoriga qo‘sholmaysen! Jonimdan kechishga, jonimdan aziz va shirin bo‘lgan bu vatandan bosh olib ketmoqqa rozimen, ammo haqiqat so‘zini ichimda bo‘g‘olmaymen!

## O'ttizinchi bob

Safarga qatnashmagan To'g'onbek Hirotda o'z shahzodasi Muzaffar Mirzo qoshida edi. Muzaffar Mirzo ko'ngil ochish uchun tuzgan ovlarda, o'yinlarda, ziyofatlarda har vaqt birga edi. Kengashlarda, boshqa beklardan ko'ra, shahzoda uning mulohazalariga ko'proq diqqat qilar edi. Xususan, Majididdin mansabdandan tushgandan buyon To'g'onbek shahzodaga kuchuk sadoqati bilan yana mahkamroq bog'landi. Lekin eski qadrdoni ham valine'matini unutmadi.

Ovlardan, chog'ir bazmlaridan bo'shagan vaqtlarda To'g'onbek Muzaffar Mirzoning yigitlariga jang ta'limlari berardi. Hirot tashqarisida, katta, tekis maydonda o'q-yoy otish, otda uchib qilich chopish, nayzabozlik va hokazodan mashq qildirar edi. Yigitlar orasida temir gavdali, ish ko'rgan botirlar bo'lganidek, yosh, nozik asilzodalar ham bor edi. Mashq vaqtida To'g'onbek ba'zan nodir usullarni ko'rsatib, yigitlarni taajjublantirib ham qo'yar, keyin tuproqqa cho'qqayib o'tirib, o'qning bir uchi bilan yerni chizib, atrofni qurshagan yigitlarga bu hunarni qayerda va kimdan o'rganganligi, odamning jangovar xususiyatlari haqida salmoqlanib, har bir so'zni doruvor tortgandek o'lchab, hikoya qilar edi. Keyin asta o'rnidan turar, chakmanining etagini qoqib, uning hozirgi hikoyasining jonli ta'siri bilan boqqan ko'zlarga bir-bir tikilib, g'urur bilan derdi: «Bir vaqtlar Samarqandda bir botir o'zbek bo'lar edi. Ertaga ana uning bir yo'lini ko'rsatarmiz!» yoki «Falon vaqtda yarim mo'g'ul, yarim qipchoq bir chopqinchi bilan urishganimda, u ajab bir usul ko'rsatgan edi. Kallamni bazo'r qutqarib qolgan edim. Hozir esimga tushib qoldi, ko'rsatsak, zarar bo'lmas».

Bir kun ovdan qaytib, To'g'onbek to'ppa-to'g'ri Majididdinning bog'iga keldi. Yozning oxiri edi. Daraxlar mevaning mo'lligidan har tomonga og'ib, yer bag'irlab yotardi. Gulzorlardan kishi ko'z uzgusi kelmas edi. Lekin har biri san'at mo'jizasi bo'lgan

ko'shklar bo'm-bo'sh... Unda-bunda tentiragan bog'bonlardan — marhum qul Nurboboning avlodlaridan o'zga hech kim ko'zga chalinmas edi. Katta ko'shkning eshigiga borganda, mis ko'zada suv tashiyotgan o'n sakkiz-yigirma yashar chiroyli uyatchan cho'rini uchratdi. Unga yarim hazil-yarim jiddiy ko'zini qisib, xo'jani chaqirishga buyurdi.

Yozlik yengil, oqish shohi to'n kiygan Majididdin chiqib, ko'shkning ikkinchi qatiga taklif etdi, darichalari orqali to'rt tomonning uzoq-yaqin manzalarini kaftdagidek yaqqol ko'rsatadigan xonada o'tirishdi.

Majididdin mansabdan tushgan kundan boshlab, go'yo uning ichida butun gavdasini tutib turgan metin bir quvvatning singanini sezgan; shuning uchun odamlar bilan uchrashganda, avvalgidek mag'rur, viqorli ko'rinishga tirishsa ham, buning sun'iy soxtaligini yashira olmasdi. Ammo bugun u ancha tetik, chehrasi ochiq, ko'zlari qandaydir umid bilan to'la edi. U o'z odamlari orqali hamma hodisadan xabardor bo'lib turardi. Podshoh bilan beklar ham vazirlar orasidagi munosabatlar podshohning kimlarga iltifoti qanday ekani va hokazo, go'yo o'z ko'zi bilan ko'rgandek, unga ravshan edi.

Majididdin katta par yostiqaqqa yonboshladi. Podshohning og'ir va mashaqqatli safardan ko'zga ko'rinarli biron ish ko'rsatmasdan qaytayotganini, balki ikki-uch kundan keyin istiqboliga chiqishga to'g'ri kelishini so'zladi. Darveshalini Balxda qamoqda qoldirilganligi podshohning ko'ngli undan aslo uzilmaganligi uchun katta isbot ekanini tushuntirarkan, sersoqol yuzlari umid bilan yonib ketdi. To'g'onbek safarga ishtirok etgan beklarning noshudligi, Hisorning qo'rg'onlari, garchi juda mustahkam bo'lganda ham, uni bosib olib, Sul-ton Mahmudning ta'zirini berish mumkin ekanligi haqida gapirdi. Majididdin podshohning safardan quruq qaytganiga xursand edi. Chunki Sul-ton Mahmud shikast topib, podshoh zafar bilan mast bo'lib, Nizomulmulikka

katta ishonch qo'yishi, hatto Alisher va uning ukasiga o'z munosabatini o'zgartishi mumkin, deb o'ylar edi. Shuning uchun Hisor qo'rg'onini bosib olish masalasida To'g'onbekka qo'shilmadi ham, e'tiroz qilmadi ham. U To'g'onbekdan Xadichabegim bilan Nizomulmulkning orasida do'stlik va ishonch barpo bo'lyaptimi, deb so'radi. To'g'onbek nimanidar xotirlamoqchi bo'lganday, kichik, o'tkir ko'zlarini qisib turdi-da, keyin bu xususda hech narsa bilmaganini, ammo Nizomulmulkning o'g'illari Muzaffar Mirzo bilan aloqani mahkamlashga urinayotganlarini gapirdi.

— Jonim, bu nima degan so'z? — qaddini birdan ko'tardi Majididdin, — podshohning suyukli o'g'li bilan do'st tutinmoqning ma'nosini tushunmaysizmi?

— Bunday gaplarning ma'nosini ichib yuborganmiz-ku, — kuldi To'g'onbek.

— Xo'sh, qanday chora ko'rmoqdasiz, bek?

— Chaqirtikanak bo'lib, ularning orasini ayirishga urinmoqdamen.

To'g'onbek bu javobi bilan sobiq vazirning ko'ngli tinchiganini bildi-da, xayrlashib jo'nadi.

Uchinchi kun Majididdin Hirotda bo'lgan shahzodalar, beklar, baland martabali mansabdorlar ham o'zga e'tiborli kishilar bilan, odat va an'ana bo'yicha, podshohni kutib olish uchun shahardan chiqdi. Bu yaltiroq olomon otda ikki qo'nimlik masofani bosib, kechga yaqin xushhavo bir manzilga tushdi. Katta qozonlarda har xil taomlar pishirilib, kechani shu yerda o'tkazildi. Ertalab hammaning ko'zi yo'lda edi. Uzoqdan chang ko'tarildi, ko'pirgan otlarda yasovullar yetib kelib, xoqonning kelayotganidan darak berishdi. Odamlar shoshib, kiyim-boshlarini tuzatib, otlarga mindilar. Bir ozdan keyin yana yangi yasovullar va maxsus mulozimlar yetib kelib, podshohning yaqinlashganini bildirishdi. Lekin yo'lga tikilaverib, ko'zlar charchadi, sabr-bardosh bitdi — podshohdan darak yo'q edi. Nihoyat, uzoqda zangori ufqlarga tutashgan, to'lqinlanib cho'zilgan tepalarning ostida, chang g'ira-shira ko'zga tashlandi. Otliqlarning beli



qotdi. Otlar zerikkanday, boshlarini bir-birlariga urib, tishlamchilik qilib, ba'zi urishqoqlari tepishib turardilar. Chang borgan sari yorqin havoni ko'proq bulg'adi. Tikilgan ko'zlarga otlarning, odamlarning shakllari borgan sari ravshan ko'rina boshladi. Kutuvchilarni hayajon bosdi. Beklar va xos yigitlar bilan qurshalub, tantana bilan kelayotgan podshoh bu yerga yaqinlashgach, otini sekinlatib, qirq-ellik qadam narida to'xtadi. Oldin shahzodalar borib, yukunib, ayri-ayri ko'rishdilar va podshohning uzatilgan qo'lini kamoli ehtirom bilan o'pdilar. Qo'l, odatda, hamma-ga uzatilavermasdi. Istiqbolga chiqqan yuzlarcha davlat arboblardan faqat bir nechasingina bu inoyatga loyiq bo'lardi. Bu — mansabdorlarga podshohning ayrim iltifotining belgisi edi. Majididdinni qaltiroq bosdi. Lablari burishib ketdi. Bir necha sarkardalar va podshoh xonadoniga mansub ulug'lardan keyin Majididdin borib bukildi. Lekin uning jovdiragan ko'zlari podshoh qo'lini ko'rmadi. U go'yo boshidan chaqmoq urib, butun vujudini kul qilganday, «Muqaddas jamollarini...», deb bir nima g'uldiradi-da, kalavlanib borib, otiga bazo'r minib oldi, — bir mahal qarasa, Husayn Boyqaro o'tib ketibdi. Orqadan boruvchilar orasida charchoq, g'amli, xomush Alisher Navoiyni, boshqa do'stlari va dushmanlarini ko'rdi. Hammasi bilan gangragan holda, shuursiz ravishda ko'rishdi. Paydarpay kelayotgan otliqlar orasida, chang-to'zon ichida qolib ketdi.

Oqshom u charchab-horib, uyga qaytdi. Xonalardan biriga qamaldi. Shu qamalgancha bir necha kun uydan chiqmadi. Nihoyat, podshohning huzuriga kirib, uning diqqatini jalb etishga qaror qildi. Yasanib-tusanib saroyga bordi. Boboali eshik og'ani va bir ko'p beklar, a'yonlarni uchratdi. Qabul qilinish uchun ijizat olib berishni ba'zilaridan yumshoqqina so'radi. Ularning hammasi sobiq vazirning kayfiyatidagi parihonlikni, ojizlikni sezib, go'yo rahmlari kelganday, rozilik bildirishdi. Majididdin devondan uzoqlashmay, asta aylanib yurdi. Bog'i Jahon oro avvalgiday go'zal,

tantanali bir ruh bilan yashardi. Sobiq vazir, Sultonning noibi, bu yerlarda avvallar qanday iftixor, qanday shavkat bilan yurardi! Bu yerda uncha-muncha beklarni ko'z uchiga ilmasdi! Oradan ancha vaqt o'tdi. Yuragi hovliqdi, nihoyat, Boboali eshik og'a kelib, maattaassif, orzu muyassar bo'lmaganini so'zlar kan, Majididdin, garchi o'zini tutishga urinsa ham, lekin allanechuk qizarib-bo'zarib ketdi. Yana, buning ustiga, Bobalining ko'zlaridagi nozik kinoya uning izzat-nafsigiga xanjardek qadaldi. U saroydan chiqib, to'ppa-to'g'ri To'g'onbeknikiga bordi. Serhasham xonalar bilan o'ralgan, gulzorlar bilan yashnagan katta qo'rada hayot qaynoq edi. Yaxshi kiyingan mulozimlar, kamarlari, xanjarlari, qilichlari ziynatli yigitlar to'da-to'da kirib-chiqib turardilar.

To'g'onbek uni, qadimgiday, katta ixlos bilan qarshi oldi. Asil buyumlar bilan bezalgan katta, naqshli xonaga olib kirdi. Majididdin, podshohning marhamatsizligidan shikoyat qildi. To'g'onbek podshohning ko'ngli Majididdindan qolganligini ishonchli odamlardan eshitgan va sababini ham surishtirib bilgan edi. Shuning uchun sokin tingladi va oxirida Nizomulmulkni tilga olib bo'lmaydigan so'zlar bilan haqorat qildi.

Majididdin uh tortib: «Uni o'z qo'lim bilan osmonga ko'tardim. Endi tagimga yetadiganga o'xshaydi», dedi ham podshohning huzuriga kirishi uchun Burunduq barlos va uning o'g'li Shujoiddin Muhammadni vositachi qilmoqqa qaror berganini bayon qildi. Bu narsa To'g'onbekka ham ma'qul tushdi.

— Ular biron nima tama qilsalar kerak? — dedi To'g'onbek.

— Albatta. Besh-o'n ming dinor va'da qilursiz.

— Kim? Men boramenmi? — so'radi To'g'onbek.

— O'zim borsam, boshqalarda gumon tug'ilar, — dedi Majididdin. — Sizning ota-bola bilan munosabatingiz yaxshi. Ham sizdan boshqaga e'timodim qolmadi. Behisob do'stlarimni endi barmoq bilan sanash mumkin. Ular ham qo'rqadilar.

To'g'onbek qabul qildi. Bu oqshom Shujoiddin Muhammad barlos bilan, erta-indin uning otasi Burundiq barlos bilan xoli yerda uchrashmoqqa harakat qilishini bildirdi.

Majididdin kunlarni dard bilan, sabrsizlik bilan kechirdi. Bir oydan keyin barloslardan xushxabar keldi. Qabul tayin etilgan kun Majididdin saroyga borib, osonlik bilan podshoh huzuriga kirdi. Taxtda cho'kibroq o'tirgan Husayn Boyqaro, avvalgidek lutf-iltifot bilan bo'lmasa-da, har holda, ochiq yuz bilan qarshiladi. Majididdin bor quvvayi nutqini ishlatib, unga bo'lgan o'z sadoqati, muhabbati haqida gapirdi; mansab, vazifa to'g'risida og'iz ochmadi. Lekin uning ostonasida it bo'lish bilan faxrlanishini bir necha marta aytib o'tdi. Keyin podshohga yigirma ming dinor sovg'a qildi-da, ijozat so'rpab, tashqari chiqdi. Ko'ziga olam endi yop-yorug' ko'rindi. Bu baxtli kunning sharafiga bayram yasash uchun uyiga yugurdi.

Butun mamlakatda ishlarning ipi Nizomulmulk qo'lida edi. Bu — uning butun umrining g'oyasi edi. Hatto podshoh o'z yaqinlariga uni davlatimizning eng katta bebaho gavhari, deb maqtaganini bir necha bor eshitgan edi. Bu mavqeni to'lguncha, har qanday yo'llar bilan saqlashga qaror bergan edi. Eng ko'p xavfni Majididdindan kutardi. Majididdinning qabul etilganini eshitgach, devondan chiqib, ma'ruza qilmoq bahonasi bilan Husayn Boyqaroga kirdi... Podshoh darrov Majididdindan so'z ochdi. Uning sovg'asini aytdi. Nizomulmulk yuzini burishtirib:

— Yigirma ming dinor? Bu qanday xasislik! O'n qatla ortiq berganda ham davlati sufrasiga sichqon kemirgancha nuqson yetmas edi! — dedi.

— Mubolag'a qilmaysizmi? — so'radi Husayn Boyqaro taajjub bilan.

— Aslo! — javob berdi Nizomulmulk. — Men uning davlatini daftarga yozib-chizib qo'ygandek bilamen.

— Qayerdan olgan? — birdan qiziqdi podshoh...

— Agar mubolag'ada ayblanmayin, desam, — dedi

Nizomulmulk, — eldan kelgan mablag‘ning nisfi sizning xazinangizga, nisfi uning xazinasiga tushgan!

Husayn Boyqaro, ishonqiramaganday, o‘ylab qoldi. Keyin Burundiq barlosning iltimosi bilan qabul qilganini, xiyonatlarini tahqiq qilish kerakligini so‘zladi. Nizomulmulk Majididdin bahonasi bilan Burundiq barlosga ham xarsang tosh otmoqchi bo‘ldi.

— Xoqon hazratlarini yana bir mudhish xiyonatdan ogohlantirmoqni farz, deb bilamen, — dedi podshohga tomon og‘ir gavdasini burib Nizomulmulk. — Qunduz safarida yurganingizda, Burundiq barlos va o‘g‘li Shujoiddin Muhammad ba‘zi kimsalarga deganlarki, agar podshoh mag‘lubiyatga uchrasa, u vaqtda shahzodalardan Uvays Mirzoni taxtga mindirurmiz, sadoqat bilan unga xizmat qilurmiz.

Husayn Boyqaro ilon chaqqanday to‘lg‘andi, g‘azablanib, o‘rnidan turib ketdi va titrab qichqirdi:

— Nonko‘r ota-o‘g‘ilni, ham Majididdinni ushbu soatda hibis qilmoq kerak. Chaqiring kishilarni!

Nizomulmulk tashqarida bir necha kishini — qamash, so‘roqlash, gunohkorlarning uyularini talon-toroj qildirish ishida tajribali mulozimlarni bir zumda boshlab kirdi. Husayn Boyqaroning o‘zi farmon berdi. Bular yaxshi sur‘at bilan chiqib ketgach, Amir Ali «atka» deganni chaqirdi. Bu zolim tabiatli, dag‘al odam edi. Unga bir necha ko‘makchilar bilan Majididdinning mol-mulkini olib kelishga buyurdi Husayn Boyqaro.

Ikki kundan keyin Nizomulmulk podshohni saroydagi omborxonalariga bir nafas ko‘z tashlashga taklif qilib, birga olib keldi. Bir necha juda katta omborxonalar yerdan shippgacha mol bilan to‘lgan edi. Husayn Boyqaro faqat sandiq-sandiq quyma oltin-kumushlarni, qimmat baho toshlarni, la‘l, yoqut, gavhar, durlarnigina tomosha qilib, hayratdan boshini chayqab qoldi. Tepa-tepa uyulgan Hind, Xitoy, Misr mollariga, gilamlarga, ipakliklarga, turli-tuman nodir buyumlarga qaramadi ham.

— Qiynasak, yashirgan matolar ham qo‘lga kirar

edi! — dedi Nizomulmulk Sultonning qulogʻiga va ayyorcha kulib qoʻydi.

Amir Ali «atka» bu ivir-shivirning maʼnosini, goʻyo savqi tabiiysi<sup>1</sup> bilan eshitganday, tasdiqladi: «Albatta, qiynamoq kerak!» Husayn Boyqaro taraddudlanib, dedi: «Qiynangiz, lekin zinhor joniga shikast yetmasin!» Nizomulmulkning koʻzlari, norozilanganday, allanechuk suzilib ketdi.

Bir oylardan keyin Bogʻi Jahon oroning devon-xonasida soʻroq boshlandi. Bu yerda juda koʻp beklar, arkoni davlat, saroy mulozimlari hozir edi. Burundiq barlos bilan uning oʻgʻlining ayblari isbot etilganidan qamoqdan boʻshatilganlari uchun aybdor yolgʻiz Majididdin edi — uni zindondan zanjirband holda olib kelishdi. U qiynoqdan, qaygʻudan, sharmandalikdan xarob va ozgan edi; soch-soqollarining oqi ham koʻpaygan edi. Lekin majolsiz boʻlsa ham, savollarga tetik javob berishga tirishdi. Savollardan keyin, koʻproq Nizomulmulkning ishorasi bilan, kotiblar va uning qoʻl ostida bir vaqtlar ishlagan mayda amaldorlar birin-ketin chiqib, uni qoralay boshladilar. Ularning nutqida, haqiqat bilan baravar mubolagʻa poyma-poy ayblashlar ham sezilib turardi. Nihoyat, Majididdin butunlay ilojisiz, yordamchisiz, hamma ayblarni boʻyniga olishga majbur boʻldi. Soʻroq tugadi.

Majididdin endi harna qilib qamoqdan qutulishga tirishdi. U Toʻgʻonbek orqali bosh vazirga murojaat etdi. Nizomulmulk, agar u yana mablagʻ toʻlasa, qutqarishi mumkinligini bildirgach, Majididdin chor-nochor qabul qildi. Qolgan yuq-yundini, yerlarini sotib toʻlab, gadodek qup-quruq boʻldi. Lekin buncha falokatlardan keyin yurtda yashashga tobi qolmadi. Nizomulmulkning kutilmagan vaqtda yangi zarba berishini ham oʻylab, choʻchir edi.

Bir kecha oilasi bilan yashaydigan xarob bir hovlida Toʻgʻonbekni qabul qildi. Miltillagan shamning

---

<sup>1</sup> Ichki sezgi, shuursiz ravishda anglay bilish.

yorug'ida uzoq gapirishdi. Hayot yo'lini, qilgan ishlarini yodladi. Nihoyat, chuqur afsus va qayg'u bilan dedi: «Umrimdagi eng katta xato — Alisher Navoiyga dushmanligim bo'ldi. Men yigirma yildan ortiq Alisherga qarshi harakat qildim — ne ishlar qilganim sizga ma'lum — Alisher yuragi toza odam edi».

— To'g'ri,— dedi To'g'onbek boshini quyi solib.— Alisher Navoiy tulkilikni bilmaydi. Yuragi obdon sof odam.

— Balli! — dedi Majididdin xo'rsinib. — Uning qahri ham, rahmi ham samimiy. Har vaqt samimiy. Ne qilaylikki, vaqt o'tdi, xatoni tuzatib bo'lmaydi.

To'g'onbek uning ko'nglini yupantirishga tirishdi. Og'ir tegmasin degan andisha bilan, mablag', moldunyo jihatdan yordamga tayyorligini juda pardali ravishda so'zlab o'tdi. Keyin, gap ko'p bo'lsa ham, vaqt kech bo'lgani uchun, uzr etib, o'rnidan turdi. Majididdin ham o'rnidan turib, To'g'onbekni quchoqladi: «Xayr, do'stim, birodarim, qayta ko'rishmoq nasib bo'ladimi-yo'qmi, aytmoq qiyin». To'g'onbek sarosimali ko'zlarini tikdi.

— Hajga ketamen. Tong otishi bilan jo'naymen. Safar anjomi muhayyo; ba'zan oilamning ahvolidan xabar olib tursangiz, har ikki dunyoda sizdan minnatdor bo'lurmen, do'stim, inim, qadrdonim! — dedi yig'lamsiragan ovoz bilan Majididdin.

— Muqarrarmi? — so'radi To'g'onbek hayajonlanib.

— Muqarrar! — javob berdi Majididdin xo'rsinib.

To'g'onbek qaytadan quchoqlashdi: «Esonlik bilan qaytingiz!» deb qorong'ilikda g'oyib bo'ldi.

### ***O'ttiz birinchi bob***

Uzun qish tuni qora pardasini endi quyuqlashtirgan bo'lsa ham, «Unsiya»da ulug'vor, fayzli, ma'noli bir sukunat hukm surardi. Hamma xonalarda shamlar yoqig'lik. Birida mavlono Osifiy boshliq bir necha shoir qizg'in suhbat qiladi. Ikkinchisida kotiblar kitob

ko'chiradilar. Yana bir xonada Shayx Bahlul bilan Sohob Doro qoshlarini jiddiy chimirib, boshlarini shatranj taxtasiga egganlar...

Navoiy xuftondan so'ng, kutubxonani aylanib chiqib, o'z xonasiga kirdi. Shamdonni tokchadan olib, kichkina mayin gilam yopilgan past kursi ustiga qo'ydi. «Majolis un-nafois»<sup>1</sup>ni davom ettirishga o'tirdi. Savag'ich qalam qog'oz ustida shoirning fikriga, tuyg'usiga inoq yurib ketdi.

Navoiy tunlarda qalamni qo'lga olib, o'z fikrlari, tuyg'ulari bilan ulfatchilik qilishni sevardi. Bu — bir qarich bolalikdan qolgan odat edi. U qishki sokin kechada, xuddi o'zi baytda aytgani kabi, fikrlarning ajoyib bazmini qurdi.

*To baraqs oyand shabho shohdoni bazmi fikr,  
Ham chu nay dar kaf qalam sozi xush ohangi man ast<sup>2</sup>*

«Majolis un-nafois» — bir necha yuz shoirning hayotlari va ijodlarining yaproqlaridan terilgan bir guldasta. Navoiy Xuroson va Movarounnahrda yashamoqda bo'lgan yoki dunyodan abadiy ko'z yumgan yuzlarcha shoirlarni, she'rga aloqa ko'rsatgan olim, fozillarni xotiraga oladi. Ko'plarini taniydi, ko'plari bilan maktublashgan. Oralarida unga do'stlik ipi bilan bog'langanlar bo'lganidek, dushmanlar ham bor. Lekin Navoiy ularning hayotiga, fe'l-atvoriga, iste'dodiga, yuksak fazilatlar va o'zliklariga xolisona qaraydi. Insonlarga xos qancha g'alati, qiziq, turli-tuman sifatlar ko'z oldida yorqinlashadi. Bir necha og'iz so'z bilan har shoirning hayot durdonasini, bir necha og'iz so'z bilan uning insoniy sifatini, o'ziga xos alomatini ko'rsatish kerak ham bir necha og'iz so'z bilan shoirning ijodiga qimmat berish kerak. Inson tabiatining porloq, xira, rangsiz, qora va hokazo sonsiz jilvalari ko'z oldida tajassumlanadi. Qancha yorqin va nodir siymolar, qancha razil va ojiz, qayg'uli va kulgili

<sup>1</sup> «Nafis majlislar» — Navoiyning asarlaridan biri.

<sup>2</sup> M a' n o s i: Kechalar fikr bazmida go'zal raqqosalar — fikrlar o'yinga tushishi uchun qalam mening qo'lida xushovoz, xushohang bir sozdir.

qiyofalar uning tasavvur yonasida aks etadi. Ba'zan bir ongina shoirning yuzidan ma'nodor tabassum uchib o'tadi. She'r, san'at, ilm ahli — mayli, yaxshimi, yomonmi, oqilmi, johilmi, insonmi, shaytonmi,— baribir, so'zning torini chertgan. Shuning uchun kitobda uning to'g'risida bir necha og'iz gapirish kerak.

Navoiy fikrlarning bazmiga, qalamning ohangiga berilib, vaqtning alla-palla bo'lganini sezmay qoldi. Qalamni qo'ydi. Barmoqlarida og'riq sezdi. Devorga suyalib, boshini quyi solgan holda fikrga tolganday, bir muddat o'tirdi. Yana kasal Jomiy ko'z o'ngiga keldi. Yuragi hovliqdi. Kunduz borganda, bemorning holini ko'rib, ko'ngli allanechuk buzilgan edi. Biron kishini yuborsammikan, deb o'yladi. Lekin sezgilari tashvishli bo'lganidan, o'zi borishga qaror qildi. O'rnidan turib, shamni o'chirdi.

Izg'irin shoirning yuzini tirnadi, etaklariga yopishdi. Osmon qora, xo'mraygan. Uzoqda, maydonda navkarlar, qorovullarning gulxani tunning qora bag'rini yalamoqda edi. Qayerdadir chang, ud va nay ovozi eshitdi, qayerdadir yolg'iz tovush uning bir g'azalini yangi yaratilgan maqomlardan biriga solib aytmoqda. Xushkayf bir guruh: tor ko'chadan chiqib, madrasa orqasida g'oyib bo'ldi, bular ichida tanish ovozlarni — yosh, sho'x shoirlarning ovozi eshitdi.

Jomiyning eshigida, fanor bilan yoritilgan hovlida odamlarning tashvish bilan yurib turganini ko'rdi. Bular Jomiyning aqrabolari, yaqinlari, do'stlari edilar. Navoiy bemorning holi haqida hech kim bilan so'zlashmasa ham, yuragini birdan o'tkir alam sanchib ketdi. Xona ichiga kirdi. To'rda, to'shakda yotgan bemorning atrofida bir to'da do'stlar turardi. Jomiyning oyog'ida uning o'g'li Ziyoddin Yusuf yig'idan shishgan ko'zlarini ojizlik bilan otaga tikkan edi. Navoiy xastaning oldiga tiz cho'kib, boshiga engashdi. Qayg'u va muhabbat uchqunlangan so'zlar bilan unga murojaat etdi. Evoh, donishmand ko'zlar ochilmadi. Jomiy behush edi! Navoiy dardli ko'zlarini tabib Abdulhayga tikdi. Hoziq hakim boshini ojizona chayqadi, xolos.



Navoiy qaltirab o‘rnidan turdi. Ko‘zlaridan yoshlar quyilib, soqollarini yuvdi. Ziyoiddin Yusufning boshini ota mehribonligi bilan silarkan, hech kim o‘zini tuta olmadi — ho‘ngrab-ho‘ngrab yig‘lashdi.

Jomiy goh qisqa muddat hushiga kelib, goh yana behol bo‘lib yotdi. Navoiy uning yonidan siljimadi. Xushovoz G‘iyosiddin Dehdor Jomiy boshida qiroat bilan muttasil Qur‘on o‘qidi. Keyin qalin xalq davra qurib, naqshbandiy usuliga muvofiq, zikr tushdi. Ertalab xastaning holi yana og‘irlashdi, ko‘p o‘tmasdan, o‘lim o‘z og‘ushiga tortdi. Janozaga butun Hirot qatnashdi. Ulug‘ shoir va shayxni katta tantana bilan mavlono Sa‘diddin Koshg‘ariyning mozori yoniga dafn etdilar.

O‘limning yettinchi kuni Navoiy ulug‘ do‘stining xotirasi uchun minglab xalqqa osh berdi. Bu yerda Jomiy haqida yozilgan she‘rlar o‘qildi. Oqshom uyga horg‘in qaytdi. U Jomiyning o‘limidan keyin qandaydir bir tanholik, o‘ksizlik sezar, birin-sirin o‘lim og‘ushidan joy olayotgan jonajon do‘stlarni alam bilan yodlar, hayot va o‘lim ziddiyati haqida alam bilan o‘ylar edi. Bu, olamning markaziy masalasi kabi, uning boshida gala-gala masalalarni tug‘dirardi. Fikr, falsafa, ilm, haqiqat, xudo masalalarining tubsiz girdobida chirpinar, yaralangan burgut qudratli qanotlarini tog‘ toshlariga ura-ura, xavfsiz qo‘nar, joy topishga uringandek uning fikri ham negizli bir maskan qidirdi.

*Xotiriga bir vaqt yozgan g‘azali tushdi:  
Nechun may bila bo‘lmasun ulfatim,  
Kim jon qasdi aylar g‘ami mehnatim.  
Nazar ayla bu korgah vasfiga,  
Ki ortar tamoshosida hayratim.  
Quyosh yo‘qki bir zarra mohiyatin  
Topa olmadi sa‘y ila fikratim.  
Ne kelmak ayon bo‘ldi, ne ketmagim,  
Ne umid yaqin bo‘ldi, ne ruj‘atim,  
Ne kasbi ulum etti hal mushkulim.  
Ne utti ilk taqvoyu toatim.  
Topay deb xabar ushbu maqsuddin,*

*Tutashti base qavm ila suhbatim.  
Ne qilur bu dardim ilojin hakim,  
Ne shayx ayladi daf' bu illatim.  
Ne qilmoqqa pir amridan hosilim,  
Ne kechmakka bu fikrdan hayratim,  
Mening boshima bas qattiq tushdi ish,  
Chu toq o'ldi bu dard ila toqatim.  
Xarobot aro kirdim oshiftahol,  
May istarga ilgimda singan safol.*

Ilhomning shavqi bilan aytilgan bu fikrlar shoirning hozirgi kayfiyatiga ko'proq mos keldi: asrlar sajda qilgan haqiqatlarga qaraganda, bu ma'noliroq kabi ko'rinadi: «Garchi shak falsafaning onasi va haqiqatga yo'llovchi bo'lsa ham, uni fikr doimiy maskan qilolmas», dedi ichida.

Kirishga ijozat tilagan Shayx Bahlulning tovushi bilan u og'ir solingan boshini ko'tardi. Qadr don mulozim har vaqtdagi odobli vaziyat bilan uning yoniga ayri-ayri va turli shaklda buklangan bir necha qog'ozni qo'yib chiqib ketdi. Navoiy shamdonni o'ziga tomon yaqin surib, qog'ozlarni ocha boshladi. Buxoro va Samarqanddan kelgan ikki tolibi ilmning yordam so'rab yozgan arizalari, yana bir shoirning beva va yetimlari o'z ahvollarining og'irligini tavsiflagan bir nomadan o'zgasi dehqonlarning, kosiblarning zakotchilardan, tuman va qishloq amaldorlari ustidan qilgan shikoyatlari edi. Yana bir shikoyatda Navoiyga tanish binokor usta o'z oilasining nomusini bulg'amoqchi bo'lgan shahzoda Abulmuhsin Mirzodan dodlagan. Navoiy bu shikoyatni qaytadan o'qib, nafrat bilan boshini silkidi: «Ilohim, odam qiyofatidagi bu hayvon ish boshiga o'tmasin-da! deb, bu qog'ozni alohida juzdonga solib qo'ydi. Keyin hamma shikoyat va ariza egalarining talablarini qanday qilib va nima bilan qondirish to'g'risida o'ylab, har qaysini fikrda hal etib, taskin topdi.

Xufton namozini ado etib, ishga o'tirarkan, hovlida shovqin ko'tarildi. Bir nafasdan keyin, yo'l kiyimida Darveshali kirib keldi. Aka-uka samimiy ko'ri-

shishdi. Darveshali Balxdagilar to'sindan buyruq olib, uni qamoqdan bo'shatganlarini so'ylab, «Oxiri baxayr bo'lsin, bilmadim, bu marhamat samimiymi yoinki taqdim etilgan gul orasida zahar bormi?» dedi. Navoiy ham, bilmayman, degandek qoshini chimirib qo'ydi. Darveshali qulog'iga qisman chatilgan voqealarning tafsilotini bilishga qiziqsindi. Navoiy Majididdin masalasi nima bilan bitganini so'zlarkan, tovushida goh g'azab, goh kinoyali kulgi, goh esa insonning zaifliklariga donishmandona achinish sezilar edi. Darveshali faqat xursand bo'ldi.

— Majididdin razolatining fosh etilishi, — dedi Navoiy, — shubhasiz, katta ish bo'ldi. Lekin uning ildizlari hali qirqilgan emas. Uning haromnamaklari hali ko'p mahkamalarda in qurganlar. To'g'ri, ular bugun Majididdinni dajjol, shaytoni lain edi, deb ayyuhannos soladilar. Ammo ajdaho nafslari el molini hali ham sovurmoqdalar. Yangi vazir bularni, bamisoli qarmoqday, xalqning bo'g'ziga tashlamoqqa harakat qilur.

— Nizomulmuluk! — hayrat bilan ko'zini olaytirdi Darveshali.

Navoiy kuldi, keyin jiddiy gapirdi:

— Siz g'oyat soddasiz. Yolg'iz zohirga qarab hukm qilasiz. Zolimlar borki, farishta to'nini kiyadilar. Shayxlar borki, bang xayolotini elga karomat, deb sotadilar. Johillar borki, kitob qo'ltiqlab olimlik da'vo qiladilar. Mamlakat boshida tili bilan dili bir bo'lgan, yolg'iz xalq manfaatini o'ylagan, oliy ruhli, pok vijdonli insonlar turmas ekan, hayot sabzasi tobora so'lur.

— Davlatni isloh qilish haqida yozilmish mulohazalaringizga podshoh hech iltifot etmadimi?

— Bu mamlakatda isloh so'zini og'izga olganlarni, — javob berdi Navoiy g'azablanib, — eng muzir osiy kabi dor bilan mukofotlaydilar.

Darveshali jim qoldi. Xo'mrayib yerga qaragan Alisherga ko'z uchini tashlab, unda iztirob sezdi. Chiqib ketmoq yoki boshqa mavzu qidirmoq bo'lib

turarkan, Valibek kirdi. Darveshalining kelganini eshitib, ko'rgali oshiqqanini so'zladi. Navoiy ham uni, hamma vaqtdagi kabi, yaxshi qarshiladi. Turli mavzularda gangir-gungur suhbat boshlandi.

Keyin, orada bir nafas sukunat hukm surgach, Valibek aytishga fursat kutib turgan gapini boshlab yubordi. Yashirin xabarlariga va ba'zi alomatlariga qaraganda, Badiuzzamon Astrobodda isyon ko'tarish fikrlari bilan ovora bo'layotganini, u Qandahor hokimi Zulnun Arg'unbek bilan aloqada bo'lgani va hokazo haqida gapirdi. Navoiy uni berilib tingladi-da, tizzasiga urib qo'ydi, betoqatlanganday, butun gavdasini tebratdi.

— Voqea haqiqatga yaqin, — dedi u kuyinib. — Badiuzzamondagina emas, hamma shahzodalarning ko'kraklarida bunday qora niyat bor. Xo'sh, ne uchun Zulnun Arg'unbekdek oq ko'ngilli, mardona bir bek bu fitnaga sherik bo'lmoqchi? Hirotida unga hasad qilg'uvchilar bor. Arg'unbek Qandahor viloyatida yomon ishlar qilmadi. Navkarlariga yaxshi qaradi, ularning sonini borgan sari oshirdi. Buzuv-yig'uvdan o'zga ishga behunar bir guruh uni podshohga yomonladi. Arg'unbek o'zi uchun bir himoyachi qidirdi. Badiuzzamon bu fursatni g'animat bildi, xolos.

— Taqsir, voqeadan xabaringiz bormidi? — taajjublanib so'radi Valibek.

— Yo'q, — javob berdi Navoiy.

— Sabablarini to'g'ri aytdingiz-ku.

— So'zingizning mazmunidan yolg'iz shu natijaga kelish mumkin edi, — javob berdi Navoiy va davom etdi. — Lekin, biz hech vaqt bunday fitnalarga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Behuda qon to'kmak, yurtni parchalamoqdan azim gunoh yo'q! Qalbaki do'stlik, qardoshlik kuli ostida dushmanlik olovlari yong'inga aylanur. Yeng uchidagi zaharli xanjarlar kinli, g'azabli qo'llarda birdan yarqirar. Koshki buning badaliga biron shahzodadan yurt, el uchun xayrli ishni umid qila bilsak... Yo'q!

— Albatta! — dedi metin gavdasini egib, o'ylanib

Valibek. — Xonadonning barcha aʼzosi it bilan mushukka aylanur. Qoʻshin bir-biriga yov guruhlarga ayrilur. Biz, beklar, bir-birimizga maydon ochurmiz!

— Temur avlodida bu kasal aslo yoʻqolmaydi-da. Oxiri baxayr boʻlsin! — dedi oʻzicha Darveshali.

Dasturxon yozilib, bir lagan yaxna et, bir lagan quymoq keltirildi. Ishtahasizlik bilan bir oz totinishdi. Valibek va Darveshali xushlashib chiqib ketgach, Navoiy darrov qalam va qogʻoz oldi-da, Badiuzzamonga xat yozishga kirishdi. Gʻazabli kayfiyatda aytilgan baʼzi jumlar benihoya achchiq, dilni omburday uzib oluvchi edi. Xatni oʻqib chiqarkan, ular ustida oʻylanib qoldi. Lekin biron nuqtasini oʻzgartirishni istamadi. Yuragidagi dud tarqalganday, ancha yengillanib, uxlamoq uchun yotdi.

Ertasi nonushtadan soʻng Navoiy ishonchli choparlardan birini chorlab, xatni berdi. Astrobodga joʻnab, shaxsan Badiuzzamonning qoʻliga topshirishni uqtirdi. Keyin toʻgʻri devonxonaga ketdi. Qalamlarining uchini yalqovlik bilan ochib, ish boshlashga erinib, undan bundan gap sotishgan munshilar Navoiy kirishi bilan bir onda jim boʻlishdi. Bularning orasida Shohrux Mirzoning oxirgi yillarida xizmatiga kirib, hozir munkillab qolgan chollar bilan, moʻylab tuki endigina bilingan yigitchalar bor edi. Navoiy munshilar xonasidan oʻtib, ichkarigi xonaga kirdi. Bu yerda yolgʻiz Nizomulmulkni uchratdi. Atlas koʻrpachalar ustida tilladoʻzi toʻn kiyib oʻtirgan bosh vazir oʻrnidan turib koʻrishib, nazokat bilan shoirni oʻziga yaqin oʻtqizdi. Qalbaki tabassum bilan: «Zoti oliylarining har nechuk xizmatlariga tayyormen», dedi u. Navoiy kissasidan bir hovuch ayri-ayri bukilgan qogʻozlarni Nizomulmulkning oldiga qoʻydi.

— Shu mushkilotlarni tez hal qilmoq kerak!

Nizomulmulk hamma qogʻozlarni bir-bir ochib, oʻqib chiqdi.

— Bu kabi ishlarga janoblari aziz vaqtlarini sarf qilmasalar ham boʻlar edi, — dedi Nizomulmulk quyuq qoshlari uchini biriktirib.

— Nechun? — so‘radi Navoiy vazirga tikilib.

— Agar xalqqa quloq solsangiz, shikoyatlarga botib ketasiz. Umrni egovlamasdan, o‘zaro bitishinglar, deb ketaverish ham mumkin,— javob berdi kulib Nizomulmulk va davom etdi: — Yana ular ne uchun zoti oliylariga murojaat qildilar? Buning uchun mahkamalar ham vazifadorlar bor axir.

Navoiy mahkamalardan, vazifadorlardan xalq o‘z yaralari uchun zarra qadar shifo kutmaganini, zulm xanjari bo‘g‘ziga qadalganini so‘zladi. Bu shikoyatlarni tez tahqiqlashni talab qildi.

— Xalq amaldorlarga yomon ko‘z bilan qaraydi. Hamisha shunday bo‘lgan... — dedi Nizomulmulk.

— Xalq xato qilmaydi, — dedi Navoiy. — Ilonga hech kim o‘z ko‘ksida joy bermas!

— Ustlariga ayb tushgan zotlar, — dedi Nizomulmulk asabiylanib, — davlatning sodiq xizmatkorlari... Ularning qadri qimmatini unutmok yaxshi emas, albatta!

— Bu mamlakatda,— dedi Navoiy hayajon bilan,— zindonlar, jazolar, jarimalar, dorlar bor. Kim uchun? Adolatli davlatda bu narsalar yolg‘iz jabrkorlar uchun tadbiq etilur. Sadoqatli zolimlarning xizmatlari davlat ildiziga bolta urishdan boshqa narsa emas!

Bosh vazir titrab ketdi. Navoiyning avzoyiga razm soldi. Unda dahshatli kuch va iroda, yorilib hamma yoqni yiqquday bo‘lgan g‘azab nishonasini ko‘rdi. O‘rnidan ildam turdi. Qo‘l ostidagi ma‘murlardan birini chaqirib, shikoyat va arizalarni unga tutqazib, dedi: «Darhol qoziga borib, bu qog‘ozlarning mazmunini birlikda tahqiqlamoq kerak». Ma‘mur chiqar ekan, Navoiy qo‘l bilan ishora qilib, to‘xtatdi:

— Natijalarini bizga qay vaqt ma‘lum qilasiz?

Shoshib qolgan ma‘mur, ta‘zim qilib, javob berdi: «Zoti oliylarigami? Tahqiq-taftish bitgan kuniyoq o‘zim ogohlantirurmen...»

Navoiy tashqari chiqdi. Quyosh dam bulut orasiga kirib, dam keskin yaltirab chiqardi. Murabba shaklli

g'ishtlar yotqizilgan yo'ldan asta yurib, bosh qasrga bordi. Eshik og'aga podshoh qoshiga kirmoq istaganini bildirdi. Ko'p o'tmasdan ruxsat oldi. Husayn Boyqaro, bu maqrib us-sulton<sup>1</sup> bilan nodir uchrasha boshlaganligidanmi yoki kayfi chog'ligi uchunmi, ochiq yuz bilan qabul etdi. Bir muddat u-bu to'g'risida gaplashishdi. Fisq-fujur, may yolg'iz uning gavdasiga emas, balki butun ma'naviy siymosiga ham ta'sir etgan edi — so'zlarida qaror yo'q: goh birdan asos va dalilsiz kimnidir maqtab ketar, go'yo u odam kelsa-yu, o'pa qolsa... Goh esa kimnidir, yana asossiz, yomonlab ketardi. Lekin ko'zlarida hali ham makr-hiylaning ifodasi kuchli edi. Navoiy fursat kelganda, qo'ltig'idan qog'ozni chiqarib unga uzatdi. Husayn Boyqaro mastlik bilan xira yiltiragan ko'zlariga yaqin tutib o'qidda, tizzasiga qo'ydi. Qayoqdagi bosh og'rig'i narsalarini topib yurasan, degan kabi salqigan yuzlarini qiyshaytirib, jim qoldi. Navoiy, javobni qistaganday, dadil boqib turaverdi. Nihoyat, Husayn Boyqaro qog'ozni yana qo'liga olib: «Qanday jazo yoki jarimani ma'qul topursiz?» deb so'radi-da, javobni kutmasdan, noqobil o'g'illaridan shikoyat qilib ketdi. U gapirib bo'lgach, Navoiy shoh xonadoni avlodi xususan axloq, adab bobida hammaga namuna bo'lishi kerak ekan, buning tamom ziddini ko'rib, afsuslanganini so'zlab, keyin dedi: «Bu ishni faqat hazratlarining vijdonlariga havola qilurmen. Davlatning qonun va qoidalari oldida shohu gado baravar tiz cho'kishi kerakligi to'g'risida sizga benihoyat ko'p daf'a so'zlagan edim, buni yana takrorlaymen». Husayn Boyqaro bu haqda Shayx ul-islom bilan kengashib, shariati Mustafoga muvofiq o'g'lini jazolashga va'da bergach, Navoiy qulluq qilib, o'rnidan qo'zg'aldi.

Tunda qatqaloq bo'lgan ko'cha quyoshda erib, pilch-pilch loy bo'lgan edi. Shoir kafshini loy qilmaslik uchun chetdan ehtiyot bilan yurib ketdi. Hamma, katta-kichik salom berib, u o'tib ketguncha adab

---

<sup>1</sup> Sultonning yaqinlari.

bilan qimirlamay turishaverdi. U «Unsiya»ga kirmay, madrasa orqasidagi yordamchi binolardan biriga kirdi. Atrofi katta-kichik xonalar, ayvonlar bilan o'ralgan katta hovlida o'nlab xizmatkorlar ahillik bilan har kungi vazifalarini bajarmoqda edilar. Kimi yuzlarcha dasta-dasta tovoqlarni, laganlarni yuvadi, kimi katta ko'zalarda suv tashiydi. Kimi etagingning barini belbog'iga qistirib, qator qurilgan haybatli qozonlar ostiga o'tin tashlab, tutundan yoshlangan ko'zini uqalaydi. Katta kapggirlarni, beso'naqay yog'och cho'michlarni qo'llarida tutgan, mosh yegan xo'rozday qip-qizil oshpazlar qozon boshida kuymalanmoqda edilar. Bu yerda Navoiy har kun kambag'allar, yetim-esirlar, tilanchilar uchun osh berar edi. U har bir qozonning tepasiga kelib, bukun nima tayyorlanayotgani, qancha et, yog', qancha don va hokazo solingani to'g'risida so'zlashdi. Pazandalarning hunari haqida kimdir to'qigan, qay vaqtlar eshitgan bir necha qiziq baytni aytib, atrofdagilarni kuldirdi. Keyin hazil-mutoyiba qildi. Mutoyibada oshpazlar ham, boshqa xizmatkorlar ham bo'sh kelmadilar. Navoiy kulib-kulib: «Ko'plashib ketdingiz. Bittadan cho'qiganlaringda ham meni pora-pora qilib qo'yasizlar», dedi. Keluvchilarni aslo kuttirmasdan, ovqatni tartib bilan tortishni tayinlab, chiqib ketdi.

«Unsiya»ga kirib, o'z xonasida bir muddat orom oldi. Keyin tasodifan kelib qolgan Mir Mirtoz bilan shatranj o'ynadi. Mir Mirtoz bu o'yinda oldingilardan edi — o'yinchi topilsa, har narsani, madrasadagi darslarni ham unutib yuboradigan shatranjparast bu olim bilan Navoiy siyrak o'ynar edi. Juda ehtiyot bilan o'ynab, o'yinni ikki marta durang qildi-da, shu obro'ni saqlamoq uchun, garchi Mir Mirtoz qistasa ham, o'yinni takrorlamadi. Peshin namozidan keyin birga ovqatlanib, xonaqohga chiqishdi.

Xonaqoh, har vaqtdagi kabi, ulug'vor, ma'nodor bir sokinlik bilan yashardi. Hamma yoqni top-toza qilib, bu yerning ko'ngli nozik, doimiy mutolaa va yozuv bilan injiqlanib qolgan odamlarga kerakli



narsalarni muhayyo etib turuvchi xizmatkorlar oyoq uchida yurib, o'z vazifalarini bajarmoqda edilar. Navoiy o'z hamrohini Mirxondning xonasiga boshlab kirdi. Keksa hakimona beparvo rind tabiatli olim — zamonning eng ulug' tarixchisi — nozik va samimiy muomala bilan qarshi oldi. Uning o'n ikki yashar nabirasi G'iyosiddin Muhammad<sup>1</sup> o'zini kattalardek tutib, adab bilan salom berdi. U Navoiyni o'z bobosidek sevar edi. Bobosining atrofiga qalashgan kitoblarni nari-beri surib, tartibga soldi. Avvalgi o'tirgan joyidan pastroqda tiz cho'kib, donishmand cholarning so'zini tinglamoq uchun aqlli ko'zlarini diqqat bilan ularga tikdi. Navoiy Mirxondning kayfini takallufsiz, do'stona ravishda so'ragandan keyin uning nabirasiga murojaat etdi — bu iste'dodli bola bilan so'zlashishdan zavqlanardi.

Tarixdan yana qanday kitoblarni mutolaa qilganini so'radi. Xondamir bir qancha jiddiy kitoblarni aytib berdi. Navoiy ham Mir Mirtoz ofarin o'qishdi.

Xondamir har vaqt bobosi bilan birga o'tirardi. Atrofi olimlar bilan qurshalgan bobosining huzuriga keluvchi har xil ilm, san'at ahlining suhbatlariga quloq solib, ilmlarga, xususan, tarixga katta maroq orttirgan edi. Bu sohada ko'pgina jiddiy asarlarni o'qib, hazm etgan edi. Bobosi, Navoiyning iltimosi bilan, bir ko'p yillardan buyon bu xonada erta-kech yozish bilan mashg'ul bo'lgan katta tarixiy asarning — «Ravzat us-safo»ning hamma tugagan qismlarini bobma-bob bilar edi.

Qari Mirxond suyuqli nabirasi bilan faxrlandi: «Alhamdulillah, menga ko'makchi bo'lib qoldi. Ba'zan, yozganlarimni ko'chiradi, ba'zan ko'zim zaiflik qilib, badxat eski kitoblarni o'qimoqqa mushkulot cheksam, menga ravon o'qib beradi. Men tarixga o'z umrimni bag'ishladim. Bu ilm mendan so'ng yetim qolmas, deb o'ylaymen». Navoiy va Mir Mirtoz kekxa olimning fikrini tasdiqladilar. Mir Mirtoz Xondamir-

---

<sup>1</sup> Xondamir.

ning riyoziy ilmlarda ham bir qadar ma'lumot kasb etishning zarurligini uqtirdi.

Navoiy «Ravzt us-safo»ning qanday ahvolda ekani-ni tarixchidan so'radi. Mirxond o'ng tomonida, uyning mehrob shaklidagi taxmonida qalin kitoblar ustiga taxlangan juz-juz qog'ozlarni olib qo'ydi: «To'rtinchi jildini tamom qildik. Uyg'a eltib o'qishlarini ham fikr va mulohazalarini bayon qilishlarini orzu qilamen». Navoiy bilan Mir Mirtoz asta varaqlab, jildning boblarini qiziqish bilan ko'zdan kechirdilar. Navoiy uyda o'qib chiqmoq uchun juzdonga solib, yoniga olib qo'ydi.

— Umr barq sur'ati bilan o'tmoqda, — dedi Mirxond qayg'urib. — Qolgan jildlarni bitirmoqni tangri nasib etarmikan?

— Bizga va'da etgan bu asarni bitirmasdan qayga borasiz? Biz etagingizdan tortqilaymiz! — hazillashib kulib dedi Navoiy.

— Bugun ko'nglingizni andak g'am bosibdi, — dedi odatdagi sho'xligi bilan Mir Mirtoz. — Biror ayoqdan chog'ir ichilsa, ko'ngil, bahor osmoniday, yana ziyodor bo'lur...

— To'g'ri, — dedi Navoiy, daf'i savdo uchun, yurakdagi dard-anduh toshini eritmoq uchun ozgina may ichish odatingizni tark etmangiz.

Mirxond rindlik shavq-zavqining ko'ngilga bergan tozaligi haqida juda chiroyli, mazmunli va rangdor bir uslub va darveshona kamtarin ohang bilan so'zlab ketdi. Navoiy tarixchining chuqur shoirona, sof, xush tabiatini sevardi. Ayniqsa, bu tabiat uning keksalik davrida ma'navy boylikning yorqin ranglari bilan kamolotga erishib, yana dilbar, yana ma'nodor, go'zal bo'lgan edi. Asta-sekin Sultonmurod va bir necha olim va shoirlar kirishdi, suhbat gullab ketdi. Olimlar har nav fanga, san'atga oid yoza boshlagan asarlari haqida gapirdilar. Mavzularning muhim nuqtalari, turli muharrirlarning nazarlari bilan ba'zi chigal jihatlar va hokazo haqida Navoiy bilan maslahatlashdilar. Har kim o'z asarining Navoiyga maqbul bo'lishini istar

edi. Sultonmurod hamma fanlarning eng muhim xulosalari to'g'risida «Jomi ul-ulum»<sup>1</sup> nomli kitob yozish orzusida bo'lganini aytib, Navoiyni quvontirdi. Shoir zamon madaniyatining yorqin yulduzlari, fikr-ijodiyotning porloq buloqlari bo'lgan bu odamlarni yana oliy poyalarga tashviq etdi. O'z kutubxonasining eshiklari ular uchun hamisha ochiq ekanini yana takrorladi.

Soat beshni urdi. Muhammad Mirak Naqqosh yasagan soat Mirxondning xonasiga yaqin, maxsus joyga qo'yilgan edi. Soat ko'rinishda katta quti bo'lib, uning ichidagi shakl qo'llaridagi tayoqchasi bilan nog'orani urib, vaqtni muntazam ko'rsatib turardi. Suhbatning dilbarligidan hech kim uning baralla ovozi eshitmadi ham — hatto odatda soat har urgan sayin qiziqsinib qo'yadigan yosh Xondamir ham uni tamom unutgan edi. Faqat darichadan ko'rinib turgan va quyosh shu'lasida naqshlari yonib-chaqnagan minorada muazzin namozgarga birdan azon aytib yuborgach, odamlar shoshib-pishib qo'zg'alishdi...

### ***O'ttiz ikkinchi bob***

Avvalgi urushda Hisor<sup>2</sup> bilan tuzilgan bitim har ikki tomon uchun ham muvaqqat bir narsa edi. Muvaffaqiyatsiz safardan ko'ngli ranjigan Husayn Boyqaro dushman tomoniga hamisha quloqlarini dikkytirib turardi. Hisorliklar esa eski dushmanlarini biron kun bo'lsin unutmagan, qilichlarini qinga solmagan edilar. Aksincha, Husayn Boyqarodek ulug', tajribali deb nom chiqargan hukmdorning katta qo'shin bilan kelib, hech ish chiqara olmay, g'ururini sulh bilan qondirishga majbur bo'lganligi ularning ko'kragini ko'targan edi. Ular Hirotga qarshi doimiy fitnalarini, kirdikorlarini to'xtatmadilar.

Oradan uch-to'rt yil o'tgach, 1497-yilda Husayn

<sup>1</sup> «Ilmlar to'plami».

<sup>2</sup> Sulton Mahmudning poytaxti.

Boyqaro qo'shin bilan Hisorga yurish qildi. Safarga Muzaffar Mirzo ham boshqa shahzodalar o'z yigitlari bilan qatnashdilar.

Husayn Boyqaro Amudaryo yoqasiga, Termiz ro'baro'siga qo'ndi. Yordam uchun Badiuzzamon Astroboddan kelib qo'shildi. Dushman qo'shini Sul-ton Ma'sud Mirzo<sup>1</sup> qo'li ostida daryoning ikkinchi yoqasi-da, Termizda qo'r to'kib yotar edi. Qish va dushman-ning sergakligi orqasida Husayn Boyqaro faol harakat-lar uchun imkon topmay, qishni suv yoqasida o'tkazishga majbur bo'ldi. Yerda, havoda bahorning ilk nafas-lari sezilarkan, Husayn Boyqaro dushman-ning peshonasiga zarba berish fikridan voz kechib, biqinlaridan teshmoqqa otlandi. Amudaryoning sho'x to'lqinlari bo'ylab, Qunduz<sup>2</sup> sari, yuqoriga harakat qildi ham besh-olti yuz chaqqon, ish ko'rgan yigitlarga Amudan o'tishga buyurdi.

Bu guruh dushmanning ko'zi bo'lmagan joyni tan-lab, qarshi qirg'oqqa o'tib mustahkamlangach, Ter-mizda yotgan Sul-ton Ma'sud, boshini yo'qotgan kabi, shoshib qoldi. Beklarning qistovi, kengashiga quloq solish uchun unda ruh qolmagan edi. Suvdan o'tgan dushman guruhini bosish o'rniga shikast yegan qo'shindek buzilib, orqa-o'ngiga qaramay, Hisorga qochdi. Dushmanning sarosimada qolganidan foy-dalanib, Husayn Boyqaro qo'shin bilan Amudan kech-di va dushman kuchini bir-biridan ayirishga harakat qilib, Badiuzzamonni ba'zi beklar bilan birga Qun-duzga yubordi, o'zi Hisor ustiga yurish qildi va Hisor qo'rg'onini qamab tushdi.

Husayn Boyqaro Hisorga yaqinlasharkan, dush-man xiyla sarosimada qolib, ba'zi sarkardalar boshla-rini olib qochgan bo'lsalar ham, lekin qo'rg'on yaxshi mustahkamlangan edi. Husayn Boyqaro qo'r to'kkan kundan boshlab qo'rg'onni olmoq harakatiga tushdi. Qo'rg'on olishning tilini bilgan beklar zo'r berib

---

<sup>1</sup> Sul-ton Mahmudning o'g'li.

<sup>2</sup> Sul-ton Mahmudga qarashli bo'lgan shahar va viloyat.

qal'ani tekshirishga, uning metinligini sinashga, zaif tomonlarini paypaslashga kirishdilar. Dushmanni taslim ettirmoq uchun qay tomonga qarasang tog'day yuksalgan haybatli, og'ir qo'rg'onni olish kerak edi. Bu chumoli ini emaski, kaltak tiqish bilan ichidagi sanoqsiz mayda qora lashkar duv etib tarqalib keta qolsa! Yosh, qari beklar, mutaxassislar qo'rg'onning turli joylarini ko'zlab, uni buzish choralarini ko'rdilar.

To'g'onbekning ruhida eski, yigitlik davrining jangovar qoni, hirs, yovuzligi alangalandi. U go'yo qaytadan yasharib ketdi. Jang ilmini go'yo ona qornidan o'rganib tushganligiga ishongan kibrli barlos beklari oldida ajoyib bir ish ko'rsatish, podshohning va o'z shahzodasining iltifotini ko'proq qozonish orzusi uni ichdan kemirar, g'ayratlantirardi.

Kecha-kunduz tinimsiz ish ketdi. Yuzlarcha yigitlar qo'rg'on tagiga katta qozonlar to'nkarib, ichiga maxsus moddalar to'ldirib, portlatish yo'li bilan qalin qo'rg'onning metin tanini o'yishga harakat qildilar. Yuzlarcha yigitlar qo'rg'onning ma'lum joylarini tanlab, maxsus ibtidoiy mashinalar yordami bilan tosh otmoqqa kirishdilar. Ustidan arava yurishi mumkin bo'lgan qalin devor, butun bir tog'ning toshi otilgan taqdirda ham, qimirlamas bir vaziyatda edi.

Qo'rg'on mudofi'lari ham tinch turmas edilar. Yuksakdan, kunguralar orqasidan ular qalin o'q uchi-radilar. Ba'zan o'qlar shunday uzoqqa ketar, biror odamga yo otga shikast berib, maxsus og'ir yoylardan uzoqqa otuvchi botirlarni hayratga solardi. Bu narsa dushmanning safida ajoyib yigitlar borligini isbot etardi. Ba'zan mudofi'lar qo'rg'on tagida uymalashgan yigitlarga tepadan olov tashlab, qaynoq suv quyur, kavak yasash bilan band bo'lganlarni ichkaridan quyilgan tutun bilan bo'g'ar edilar.

Sulton Husayn Boyqaro qo'rg'onning shimol tarafida, uzoqda chodir tikkan edi. Uning, sherandom bo'yli qilichbozning, bir vaqtlar bahodirona jussasi juda zaiflashgan. U endi otga minolmas, yurganda ham kalavlanar, shohona aravada, taxtiravonda hara-

kat qilardi. Bu gal ham safarning muvfaqqiyatsiz chiqajagini gumon qilib, tashvish tortardi. Beklarga kengash berar, fidokorlikka tashviq qilar, goh muvaf-faqiyatsizlikka g'azablanar, goh shirin so'zlab, yigit-larni umidsizlanmaslikka undar edi. Ba'zan marhum beklarni yodlab, ularning bahodirona ishlarini hasrat bilan hikoya qilardi. Shuning bilan baravar uning hashamatli chodirlarida bazm, aysh-ishrat, bir kun bo'lsin, kanda bo'lmasdi.

Qilichboz yigitlarning yuraklari toshib, qo'llari qichib, jangni qo'msar, bo'ronli kunlarni kutib, sabr-sizlanardilar. Goh dushman ularning ko'nglini yupan-tirib qo'yardi. Kechaning quyuq qorong'isida yuzlar-cha bahodir darvozadan chiqib, qora bo'rondek bosib kelar, suron tun bag'rini yorar, qisqa, lekin favqulod-da qizg'in, omonsiz jang, ur-yiqit boshlanar, butun lashkar baqirish-chaqirish bilan oyoqlanardi. Lekin, ko'p o'tmasdan, dushman qanday bosib kelgan bo'lsa, yana shunday sur'at bilan azamat darvozaga o'zini urib, yashirinardi.

To'g'onbek ustalarga shotilar yasatdi. Bir dasta yovqur, chaqqon yigitlarni saraladi. Bir kecha katta jadal bilan shotilarni qo'rg'onning turli taraflariga, bir necha yerga o'rnatdi. Qal'aga chiqib, mudofi'larni qi-rish va ichkariga kirishni buyurdi. Yigitlar qilich, nayza, o'q-yoylarini olib, ko'plari sovut ham kiyib, dadillik bilan shotilarga otildilar. Qo'rg'on ustida hayajonli suron yangradi. Chiqqan yigitlarning aksari yuksakdan toshday uloqtirildilar, parchalanib, yerga singdilar. To'g'onbek bu yo'lni kunduzlari, butunlay kutilmagan vaqtlarda, ajoyib chaqqonlik bilan tadb iqildi. Ilk chiqqanlar tepada qilichlashishga ulgurardi-lar, lekin birdan yopirilgan dushmanning zarbasi-dan parchalanar, qolganlari esa shotidan ag'darilardi-lar.

Qurshov ikki yarim oy davom etdi. Bu muddatda qo'rg'onni olish uchun ko'rilmagan tadbir qolmadi hisob. Katta jang bo'lmasa ham, har ikki tomon ajo-yib fidokorlik ko'rsatdi. Ikki podshohning qo'l ostida

bo'lgan bir xalqning o'g'illari bahodirlikda bir-birlaridan qolishmadi.

Husayn Boyqaroning ko'ngli siniq, ishonchsiz edi, Qunduzga yuborilgan Badiuzzamonning Xusravshohdan<sup>1</sup> kaltak yeganini eshitib, safardan tamom sovundi. Qurshalgan Hisor ham juda qiynalgan edi. Har ikki tomon bir-birining siridan voqif edi. Bunday paytlarda Husayn Boyqaro o'rtadagi adovatni yumshatish yoki o'z muvaffaqiyatsizligini niqoblash niyatida, dushman bilan quda bo'lmoqni orzu qildi. Ikki tarafning elchilari uchrashib, yarash-yarash bo'ldi. Husayn Boyqaro Sulton Mahmudning qizini o'g'li Haydar Mirzoga olib berdi. To'y-tomoshadan so'ng Hisordan Balxga ildam jo'nab qoldi.

Husayn Boyqaro, ba'zi mulohazalarga ko'ra, Badiuzzamonni Balxda hokim qilib qoldirishga qaror qildi. Unga qarashli bo'lgan Astrobodni esa suyukli o'g'li Muzaffar Mirzoga bermoqni istadi. Bu suyukli xotin Xadichabegimning orzusi edi. Bu fikrni vazir Nizomulmulk bilan kengashganda, u Xadichabegim oldida o'z obro'sini mustahkamlamoq niyatida juda ma'qul ko'rdi. Badiuzzamon Balx hokimligiga rozi bo'ldi. Lekin Astrobodni o'zining yosh o'g'li Mo'min Mirzoga bag'ishlanishini tilardi. Bu masala atrofida ivir-shivir gaplar yurib turarkan, To'g'onbek Muzaffar Mirzoga uqtirdi: «Hisor qo'rg'onini ololmadik. Ammo siz bukun o'z baxtingizning, istiqbolingizning temir qo'rg'onini qo'lga oling. Bo'sh kelmang, shahzodam!» Muzaffar Mirzo ham otasi oldida o'z tilagini qat'iy so'ylay boshladi.

Husayn Boyqaro hamma beklar, yuksak mansabdorlar, muqarrablar bilan birga katta, tantanali majlis tuzdi. Badiuzzamon bilan Muzaffar Mirzoni chorlab, o'z qarorini bildirdi va har ikki shahzodani, an'anaga muvofiq, o'ziga sadoqatda qulluq qildirdi. Keyin Muzaffar Mirzoning ustiga tillado'zi joma yopdi, Badiuzzamon otasining har bir harakatida adolatsizlik sezdi, o'zini xo'rlangan hisobladi.

---

<sup>1</sup> Sulton Mahmudning bosh begi.

Husayn Boyqaro Balxda uzoq to'xtamay poytaxtga otlandi. Badiuzzamon otani tantana bilan kuzatib qo'yib, Astrobodga xat yozdi: Astrobodga Muzaffar Mirzoni kirgizmaslikni, zarur bo'lsa, qurol bilan qarshilik ko'rsatishni yosh o'g'liga buyurdi.

### ***O'ttiz uchinchi bob***

Husayn Boyqaro uzoq safardan qaytgach, Hirotda may, musiqiy bilan oqqan zavqli hayot og'ushida, g'azallarda parivashlarga bo'lgan muhabbatini tarannum etib, sokin va orombaxsh kunlar kechirmoqchi edi. Lekin taqdirning taqozosi bilan baxt yulduzlari bulutlar ichiga sho'ng'idi. Badiuzzamon kuchlar yig'ib, isyonga otlangani haqida xabarlar paydar-pay kela boshladi. Bu — keksa ota uchun og'ir edi. Har qanday tashqi dushman uning yeriga bosib kirsam, har qanday bek isyon ko'tarsam, u qayg'urmas, yolg'iz g'azablanar ham tahammul va sabot bilan safar choralarini ko'rar edi. Lekin bu — bosh o'g'il, valiahdi. U bilan jang maydonida uchrashishni o'ylaganmidingi?! Mana bu haqiqat uning yuragini zaharladi. Alisherni chorladi. Voqeani bayon qilib, undan dono bir kengash tutdi. Alisher ham afsuslandi. Bir vaqt yozgan xatidagi samimiy maslahatlarini, do'stona achchiq so'zlar bilan ko'rsatilgan haqiqatlarni, afsuski, Badiuzzamon quloqqa olmabdi. Endi nima qilmoq kerak? Alisher chuqur mulohazaga ketdi. Mana, qarshisidagi kishi o'ttiz yilga yaqin taxtni egallab keladi. Shoir ham o'ttiz yilga yaqin u bilan, har qanday bo'lmasin, hamkorlik qiladi. Navoiy uning hamma zaif jihatlarini, hamma nuqsonlarini biladi. Undan aqlsiz harakatlar, makrlar ko'p vaqt sodir bo'ladi. Undan o'zi ham ko'p jabr-sitamlar ko'rdi. Vaqtlar bo'ldiki, undan nafrat qildi, uni la'natladi. Ammo u o'ttiz yilga yaqin davlatni butun holda saqlab keladi. Bu davrda Xuroson tuprog'iga ko'z tikkan dushmanlar oz emasdi. Xurosonni yuz parchaga ayirib, beklik, xonlik qilish orzusi bilan yongan fitnachilar bukun



ozmi? Sherandom bo‘yli podshoh bukun qarib bukilgan, ot o‘ynatib, mardona qilich chopadigan zabardast qo‘llar endi qaltiraydi. Lekin hali ham ichki, tashqi dushmanlardan davlatni qo‘riqlashga har vaqt tayyor u. Davlat binosi uchun, garchi puturdan ketgan bo‘lsa ham, hozircha eng ishonchli ustun u edi. Badiuzzamon otani uloqtirib, taxtni egallashi mumkin. Lekin u vaqtda o‘n to‘rt shahzodaning kamida o‘ntasi, zanjirdan uzilgan, quturgan itlardek, bir-birlarining ustiga tashlanib, bo‘g‘ishib, bir-birlarining halqumlarini yirtadilar...

Alisher Navoiy ko‘zlariga cho‘kkan qayg‘u bilan podshohga qaradi.

— Bu falokatning oldini olmoq kerakki, uning dahshatli changali mamlakatni qaqshatmasin!.. — dedi Navoiy.

— Qanday qilib? — so‘radi ezilgan Husayn Boyqaro. — Aqlli kengash beringiz.

— Aqlli kengash shulki, — javob berdi Navoiy, — Badiuzzamon Mirzoni aqlga chaqirasiz, insof va vijdonga da‘vat qilasiz. Uning ko‘nglida mehru muhabbat uyg‘otishga harakat etasiz.— Navoiy bir nafas sukut qilib davom etdi.— O‘rtada bo‘lib o‘tgan ginalarni bartaraf etib, samimiy sadoqat, vafo, muhabbatni barpo qilmoq kerak:

— Demak, safarga hojat yo‘q!

— Aslo! — javob berdi Navoiy. — Modomiki, orada haqiqat uchun kurash yo‘q; balki bu harakat— xusumat, jaholat mevasi. Demak, to‘kilgan har bir tomchi qon ulug‘ jinoyatdir!

— Qon to‘kmoq fikri menda ham yo‘q, — dedi kuyinib Husayn Boyqaro. — Ammo noqobil farzand yaxshi tilaklarimizni idrok etmasa?

— Mehru muhabbatni idrok etmoqdan ojiz farzandning bo‘yniga tayoq urmoq otaning vazifasidir, — javob berdi Navoiy.

Husayn Boyqaro, yengillangandek, qo‘zg‘alib qo‘ydi. Keyin bir oz sukut qilib, bu vazifani bajarishni Navoiydan so‘radi. Navoiy hech bir ikkilanmasdan,

dedi: «Bu savob ishni barpo qilmoq uchun kamina har qanday mashaqqatdan yuz o'girmas».

Husayn Boyqaro ertaga Balxga jo'namoq uchun hozirlik ko'rishni iltimos qildi.

Badiuzzamon fitnasini podshoh muzokara yo'li bilan tinch hal etishga qaror berganligi darhol hamma yoqqa tarqalib, ko'p kishilarni quvontirsa ham, lekin ba'zi arkoni davlat va a'yonlarning ichlari shuv etib ketdi. Bular ota-o'g'il orasidagi adovat alangasida isinib olmoqchi edilar. Bularning tepasida vazir Nizomulmulk bilan To'g'onbek turar edi, Nizomulmulk, garchi ota-o'g'ilning bitishuviga jilla qarshi bo'lmasa-da, bu ishni Navoiy o'z zimmasiga olishi uning yuragini chaqardi. Uning mulohazasicha, agar Navoiy vositachilik qilib, bu muhim vazifani bajarsa, u vaqt podshoh qoshida shoirning mavqei mustahkamlanishi mumkin bo'lib qolar edi.

To'g'onbek boshqa mulohazalardan bunga qarshi edi. U Muzaffar Mirzo bilan Astrobodga jo'nab, u yerda o'zining ko'pdan buyon o'ylab yurgan rejalarini amalga oshirmoqchi bo'lardi. Badiuzzamon Mirzo isyoni erta-kech Muzaffar mirzoni ham oyoqlantirar, yurtda boshboshdoqlik kuchayar, ichki urushlarning bo'ronida qari Husayn Boyqaro, chirik daraxtdek, qulab ham ketar, ana u vaqt Muzaffar Mirzoni u o'z qo'li bilan taxtga o'tqazib, davlat kemasini istagan tomonga o'zi yurgizar!

Navoiy Hirotdan jo'nab ketgan kuni, oqshom To'g'onbek Nizomulmulkning uyiga bordi. Uni vazirning o'g'illari — Kamoliddin Husayn va Amidalmulk qarshi olib, e'zoz-ikrom bilan go'zal bir xonaga, kimxob ko'rpachalar ustiga o'tqazishdi. Kamoliddin Husayn o'qimishli, g'oyat nozik tabiatli, shirin so'z, nazokat va ta'zimni juda joyiga tushiradigan yigit edi. Amidalmulk bu boblarda akasidan bir qadar orqada bo'lsa-da, lekin uning boshqa bir afzalligi bor edi. U harbiy ishlarga maroqli edi. Garchi jang maydonini uzoqdan tomosha qilgan esa ham, o'zini maydon erlaridan hisoblardi.

To'g'onbek bunday oliftalarni jilla yoqtirmagani-  
dan, qisila boshladi. Kamoliddin Husayn nayday  
yoqimli tovush bilan undan-bundan so'zlay boshladi.  
U, chindan ham, arzimagan bir voqeani nozik harakat  
bilan shunday hikoya qilardiki, To'g'onbek bir ozdan  
so'ng beixtiyor ravishda berilib quloq soldi. Aka  
nazokat bilan sukut qilgach, ukasi jang san'ati haqida  
To'g'onbekni gapga solmoqqa intildi. Chordana  
qurib, og'irligidan pishillagan To'g'onbek bu to'g'rida  
hammaga ma'lum bo'lgan ba'zi narsalarni to'ng'illab  
gapirdi. Sabrsizlanib, goh eshikka, goh darichadan  
katta boqqa qarab qo'yarkan, Nizomulmulk salmoqli  
qadam tashlab kirib keldi, mehmon bilan ko'rishdi-da,  
xuddi devondagidek, ulug'vor vaziyatda o'tirdi.  
To'g'onbek vazirning o'g'illari oldida gaplashishdan  
iymanib turgan edi, vazir payqadi shekilli, xotirjam  
bo'ling, degandek o'zi gap ochdi.

— Bukun Navoiy janoblarini Balxga uzatdik, —  
dedi u qalin soqolini silab.

— Yumushlarini muvaffaqiyat bilan bajarsinlar, —  
dedi, istehzo bilan iljayib To'g'onbek. — U kishi ming  
bir dalil keltirib, o'z fikrlarini shahzodaga uqdirishla-  
riga shak qilmaymiz.

— Alisher Navoiy, — dedi Nizomulmulk zar to'ni-  
ga oro berib, — Badiuzzamon Mirzoga ota kabi yaqin.  
U, albatta, o'z so'zini o'tkazadi.

To'g'onbek bir oz o'ylanib, dakkam-dukkam soqo-  
lini chimtib, kichik, o'tkir, makrli ko'zlari bilan ham-  
maga bir-bir tikilib, keyin sekingina dedi:

— Aslida Balxga tuqqan otaning o'zlari bormoqlari  
kerak edi... Shunda balki durust ishlar bo'lar edi.

Nizomulmulk va o'g'illarining yuzlarini ayyor ta-  
bassum qopladi. Bir nafas cho'kkan sukutni  
Kamoliddin Husayn nayday mayin tovushi bilan  
buzdi. U ham To'g'onbekning fikrini quvvatladi.  
Lekin so'zga ortiqcha bo'yoqlar berib, hatto qanday-  
dir noma'lum shoirlarning baytlaridan qo'shib gapir-  
gani uchun Tug'onbekka yoqmadi. Xo'mrayib, boshi-  
ni quyi soldi. U umuman bu odamlarning so'zda,

harakatda, muomalada ortiqcha takallufot va nazokatga rioya qilishlari uni asabiylashtirgandi. Ammo Nizomulmulk maqsadni ancha ravshanlashtirib gapirdi. Faqat u Navoiyning vazifasini qay yo'l bilan buzish kerakligi to'g'risida hech narsa demadi. To'g'onbek ham yaxshi o'ylamasdan, biron taklifni o'rta qo'yishga botinmadi. Olifta aka-ukalarning ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari bir-biridan bema'ni edi. Nihoyat, Nizomulmulk, bu muammoni chuqur mulohaza qilib, ba'zi a'yonlarning maslahati bilan chora ko'rishga, har holda podshohni qo'lga olishga ishontirdi. To'g'onbek tafsilotni surishtirishni keraksiz topib, o'rnidan qo'zg'alarkan, vazir unga Muzaffar Mirzo va Xadichabegimga ta'sir qilishni uqtirdi. To'g'onbek boshini qimirlatib:

— Bu tomonni bizga yuklashingiz mumkin... — dedi.

## ***O'ttiz to'rtinchi bob***

### **I**

Quyosh ufqqa oshiqardi. Uzoqda, adirlarning, soylarning bag'rida ko'lkalar tentirardi. Katta karvon yo'li bo'ylab cho'zilgan ekinzorlarda shamol yashil to'lqinlar yasardi. Navoiy hamroh navkarlari bilan Balxga yaqin so'nggi rabotdan chiqib, bir necha kunlik yo'lni bosib charchagan otni zo'rlamay, asta borardi. Butun gavdasida horg'inlik sezar, boshida esa turli xayollar, fikrlar o'ynardi. Sodiq hamrohlariga goho g'ayrisuuuriy ravishda biron so'z deb qo'yar yoki biron narsaga ishorat qilar, yana jim bo'lardi. Mana, uzoqda Balxning eski qo'rg'oni ko'zga chalindi. Otlar, manzilning yaqinligini sezgan kabi, pishqirib, qamchisiz qadamlarni tezlatdilar. Bir to'p qalin daraxtlar orqasidan chang ko'tarildi. Hayal o'tmay, yo'lichilar Badiuzzamon boshliq istiqbolga chiqqan olomon bilan uchrashdilar. Bular ichida shahzodaning xos yigitlari, yaqinlari, hamsuhbatlari, Balxning bir necha oldingi odamlari, xalq namoyandalari bor edi. Badiuz-

zamon otdan tappa tushib, Navoiyga ta'zim qildi va adab bilan ko'rishdi. Shoirning sihati, safar mashaqqati to'g'risida dildorlik qildi. Boshqalar ham tartib va takalluf bilan birin-ketin kelib, shoirning qo'lini siqdilar.

Navoiy ham Badiuzzamonning kayfi, sog'lig'i haqida so'radi. Keyin ziynatli, chiroyli otga mingan Badiuzzamon bilan yonma-yon yurib, Balxga kirdi. Shaharda har yerda xalq uni quvonch va hayajon bilan tabrikladi.

Bu kecha Badiuzzamon shoir sharafiga katta ziyofat berdi. Turli ovqatlar suzilgan hamma idish-oyoqlar, qadahlar, ko'zachalar oltin va kumushdan edi. Mehmon kutish, majlis tuzishda dong chiqargan Badiuzzamon suhbat, o'yin-kulgi, musiqiy kabi ko'ngil ochishlarda tartibga, zavqqa, ingichkalikka bukun alohida e'tibor berdi. Navoiyning kelish sababi shahzodaga ma'lum bo'lganidan bu to'g'rida ikkovlari ham bu kecha og'iz ochmadilar. Charchagan qari shoir majlisning tezroq tugashini kutardi.

Ikkinchi kun, nonushtadan keyin, xoli uyda so'zlashdilar. Badiuzzamon Navoiyni hurmat qilar edi, u bilan suhbatlashishdan zavqlanardi. Ayniqsa, yoshlik yillarida Navoiy uning murabbiysi va muallimi kabi edi. Badiuzzamon, Temur sulolasiga mansub bir ko'p shohlar, shahzodalar kabi, she'rdan zavqlanar, o'zi ham goho-goho biror narsa yozib qo'yardi, Navoiy she'rlarini esa bir qarich yoshidan sevib o'qirdi.

Shoir mamlakatning vaziyatini mufassal tushuntirib, o'rtadagi har qanday xusumat, adovat, fitnalarni yo'qotmoq uchun ataylab kelganini so'zladidi, fikrini tarixning cheksiz hodisalaridan keltirilgan misollar bilan quvvatladi. Shahzodaning aqliga, vijdoniga ta'sir qilishga tirishdi. Uning ko'ngliga qattiq tegadigan so'zlarni ham ochiq aytishdan, uni qizartirib bo'zar-tirishdan toymadi.

— Men butun umr orzu qilgan hukmdorni, u bar-kamol insonni, — dedi Navoiy, — afsuski, hayotda

ko'rolmadim, yolg'iz xayolimda yaratdim. Siz taniy-siz, bilasiz uni, agar unutgan bo'lsangiz, «Iskan-darnoma»ni yana bir karra o'qing! Hukmdor u, bar-cha fazilatlarining koni u... Sizlarda uning soyasi ham yo'q. Sizlar uning navkariga ham arzimaysizlar.

Badiuzzamon chiroyli boshini quyi solib, qora, qiyg'och ko'zlarini yashirishga tirishdi. Keyin, ko'ng-lida dard chayqalgandek, uh tortdi. Otasining unga nisbatan adolatsizligidan shikoyatlandi. Nihoyat, dedi:

— Siz kabi aziz, ulug' ustodning iltimosini qabul etmaslik ulug' gunohdir. Zoti oliyingizga bo'lgan muhabbatim yuzasidan so'zlaringizni qabul qilamen va podshoh otamni insofga, adolatga da'vat etmo-g'ingizni so'raymen.

Navoiy xursand bo'ldi. Shahzodaga yaxshi tilaklar tiladi. Viloyatning ishlari haqida ma'lumot oldi, o'rgandi. Keyin qadrdonlari bilan ko'rishmoq niyatida asta-asta yurib, chiqib ketdi.

Uch-to'rt kundan so'ng shoir bir majlisdan qaytib kelgach, mulozimlar uni Badiuzzamon yo'qlaganini bildirishdi. Shahzoda o'tirgan xonaga kirgach, uni juda g'amgin va hurpaygan holda ko'rdi. Taajjublanib so'radi.

— Ne yumush bilan meni tiladingiz?

Badiuzzamon javob bermadi. Ko'rpachaning osti-dan bir qog'oz chiqarib, yoyib uzatdi. Navoiy xatga ko'z yugurtish bilan g'azabdan, sarosimadan qaltirab ketdi. Balx qal'asi begiga yozilgan Husayn Boyqaro xatining mazmuni shunday edi: Badiuzzamon Mirzo shahardan tashqari chiqsa, qaytganda shaharga kirish-ga yo'l qo'yilmasin, tezda hibs etilsin! Navoiy qalbaki xat bo'lmasin, degan andishada muhrga diqqat bilan tikildi, shubhasi qolmadi.

— Mana, otamizning muhabbati, sadoqati! — dedi o'z-o'ziga so'zlaganday Badiuzzamon. — Agar nav-karlarim nonko'rlik qilib, bu maktubni mendan yashirsalar edi, ehtimol, men hozir zindonda o'tirgan bo'lar edim! Yo'q, tangriga shukur, munofiqlik fosh etildi!

Navoiy xatni Mirzoning oldiga tashladi. Hech narsa demadi. U Badiuzzamon qoshida, chindan ham, g'alati bir vaziyatda qolgan edi. Bu razil harakati uchun ichida Husayn Boyqaroni, atrofidagi butun fit-nachilarni qattiq la'natladi.

— Hayhot! — dedi Navoiy o'rnidan qo'zg'alib. — Hokimlarda aql, vijdon nishonasi qolmabdi. Makrning, munofiqlikning devi hamma fazilatlarini o'z komiga tortibdi. Na so'zlarida ma'no bor, na ishlari-da hayo bor! Bundan dahshatli, bundan alamangiz badbaxtlik aslo bo'lmas!

Badiuzzamon boshini ko'tardi, shoirning butun siymosi uchqunlangan alam va g'azab bilan nafas olardi. Shahzoda uning yuragining softligi, maqsadlarining oliyligiga ishonganini so'zladi. Ammo unga bo'lgan butun muhabbatiga qaramay, endi sulh to'g'risida so'z bo'lishi mumkin emasligini qat'iy bildirdi.

— Butun tarix oldida, butun olam oldida sharmandalikni, razolatni bo'yingizga olib, ota-bola maydonda bo'g'ishinglar! — dedi Navoiy qayg'udan yongan ovoz bilan. — Shaxsiy xusumat, adovat va tama uchun bu muborak vatanning tuproqlarini qonga belanglar! Sizlar uchun bu — yigitlik, mardonalik, rustamona qahramonlik! Xalqning nohaq to'kilgan har tomchi qoni uchun tarix qoshida yuzlaringiz abadiyan qora bo'lur! Vaqt g'animat, butun yomonliklarni namoyon etmoqqa oshiqinglar!

Navoiy g'azabning kuchi bilan keskin yurib chiqib, safarga otlanishni hamrohlariga buyurdi.

## II

Badiuzzamon beklarini, ishbilarmon yigitlarini yig'ib, jangga hozirlanish to'g'risida kengash qurdi. Lashkar to'plash, qurol-aslahalarni ko'paytirish, Sulton Husayn kuchlari bilan qay mavzeda uchrashish va hokazo masalalar aniqlandi. Bundan so'ng kechakunduz jahdu jadal bilan tayyorlik ishlari boshlanib ketdi. Badiuzzamon urush ishlarida tajribasiz bo'lganidan, shoshib qolgan edi. Uning iltimosi bilan

Zulnun Arg'unbek va uning o'g'li Shoh Shujobek Qandahordan yetib kelib, ishni o'z qo'llariga oldilar. Zulnun Arg'un umrida ko'p janglar ko'rgan, yoshi ulug'ligiga qaramay, bahodirona siymoni saqlagan, sodda, dag'al, o'z so'zli bir chol edi. Uning so'zlarida, qilmishlarida qandaydir telbalikka o'xshagan bir sifat sezilardi. Lekin bu xususiyat, xuddi go'zalning kokiliday, unga yarashib turardi. Shoh Shujobek esa botirlik ruhining kamolga yetgan bir pallasida edi. U bir qarich yoshidan boshlab, go'yo tomoshaga ergashgandek, otasining ketidan janglarga ergashgan, ot surib, qilichlashgan, jang havosida suyagi qotgan edi.

Tayyorlik ishlari hali ko'ngildagidek saranjom topmagan bir paytda Husayn Boyqaroning oshig'ichlik bilan safarga chiqqani eshitildi. Badiuzzamon o'z kuchlarini nari-beri tartibga soldi, o'zi uchun jangda qulaylik beradigan Tangdaraga kelib qo'r to'kdi. Atrofga kuchli qorovullar qo'yildi. Dushman kuchlarini o'rganmoq uchun maxfiy ravishda odamlar yuborildi. Dushmanning oldingi qismlari, yo'lni chap berib, nogahoniy ravishda bosmasligi uchun, tunlarni sergaklik bilan o'tkaza boshladilar. Bir oqshom ufqda Husayn lashkarining gulxanlari ko'zga chalindi. Bu kecha lashkargohda ish qaynadi. Muhim joylarga yuzlarcha bo'sh aravalarni qalashtirib, yo'g'on zanjir-lar bilan bir-biriga bog'ladilar. Buning panasida piyoda merganlar o'q uzishlari kerak edi. Yigitlar ot jabduqlarini ko'zdan kechirib, aslahalarini shaylay boshladilar. Tong otganda, askarlar o'tlanib, sovutlarini, dubulg'alarini kiygan holda birong'ar, jirong'arga bo'linib, amr kutardilar.

Badiuzzamon Zulnun Arg'unbek bilan tepaga chiqib, dushman tomonni mushohada qildi. Husayn Boyqaro aslo kutilmagan miqdorda katta lashkar bilan kelgan! Uzoqdan Muboriziddin Valibekni, Islim barlosni va hokazo tanish sarkardalarni, garchi aftlarini tanib bo'lmasa ham, ularga xos ba'zi alomatlaridan payqadilar. Badiuzzamon bir zumda bo'shshib,



bo'zarib ketdi. Nima qilamiz, degandek Zулnun Arg'unga egildi. Qari sohibqironning yuzi avvalgidek qattiq, qahrli, o'shshaygan, tashvishsiz edi.

— Ne qilar edingiz?— dedi cho'ng tovush bilan, — quruqqa qochgandan ko'ra, kuchli yov bilan olishib, zarb yegan yaxshi. Urilmoq ham foyda: pishiq bo'lasiz, tajriba hosil qilasiz...

Badiuzzamon indamadi. Yolg'iz o'zi yana yuqori chiqdi. Dushman otliqlari ikki guruhga bo'linib, oldinga siljimoqda edi. Xos yigitlar bilan qurshalgan holda lashkarning o'rta qismida kelayotgan otaga ham ko'zi tushdi. Husayn Boyqaroning qalpog'iga qadalgan jig'aning oltin bandi ertalabki quyoshda ingichka olovdek yonar edi. Shahzodaning ko'ngli buzildi. Yig'lagisi keldi. Lekin pushaymon vaqti emas edi. Yugurib pastga tushdi. Navkarlar tutib turgan otiga mindi. Uning ishorasi bilan Shoh Shujobek oldingi qismlarni boshlab ketdi. Ko'p o'tmasdan, bo'ron hayqirig'i bilan dushmanning oldingi qismlari otildi. Chang-to'zon orasida jang qaynadi. O'g'liga yordam uchun qari Zулnun Arg'unbek o'ng yoqdan dushman ustiga yopirildi. Dushmanning bir qismi to'g'ri aravalar ustiga otildi. Lekin merganlarning o'qlariga tob bermay, to'lqin orqaga ag'darildi. Yigitlarning bir qismi otdan tushib, dasta-dasta yashirinib, yaqinlashib, arava orqasidagilarni o'q bilan qulatmoqqa boshlarkan, ikkinchi katta qismi uzoqdan qurshab tushishni ko'zlab harakat qildi.

Shoh Shujobek va Zулnun Arg'unbek sonsiz-sanoqsiz dushmanning bosimini to'xtatolmay, orqaga siljib, yana payt poylab, ilgari otilar edilar. Lekin ularning yigitlarining oz qismigina ularga ergashar, ko'plari esa buzilib, tartibsiz qochishga boshlagandilar.

Badiuzzamon mag'lub bo'lganligiga iqror bo'lsa ham, orqaga chekilib, yana mudofaa choralari ko'rdi. Kichik dastalar bilan chekila-chekila, dushmanga zarba berayotgan Shoh Shujobek va keksa bahodir unga dalda berar edi. Lekin borgan sari dushmanning bosimi, dahshati kuchaydi; Husayn Boyqaro yigitlari,

go‘yo eng ashaddiy dushman bilan olishayotganday, omonsiz qirg‘in solar edilar.

Badiuzzamonning oldinga yuborilgan xos yigitlari yugurib kelib, uni qurshashdi: «Shu onda qochmoq kerak, dushman sizni asir olmoq fikriga tushdi». Badiuzzamon atrofga razm solib, ularning fikrini tasdiqladi. Zulnun Arg‘un va Shoh Shujobekka yigitlar yuborib, o‘zlarinigizni qutqarishga harakat qilinglar, deb farmon berdi. Keyin bir dasta yigitni birga olib, otni shamolday surib qochdi. Tog‘liqlar orasiga kirgach, tahlikadan qutulganiga ishondi-da, qattiq halloslagan otni to‘xtatdi. O‘zi bazo‘r nafas olar edi. Orqaroqda tog‘larni gumburlatib kelayotgan yigitlarini kutdi. Yigitlar yetib, hansirab dedilar: «Abdulmuhsin Mirzo<sup>1</sup> quvib kelmoqda, ildam jo‘naylik». Badiuzzamon churq etmasdan, otga shig‘ab qamchi urdi. Borgan sari yomonlashgan, o‘nqir-cho‘nqirlar, katta toshlar bilan band yo‘l, nihoyat, azamat qoyalar ichida bitdi. Otlarda yurish mumkin emasdi. Otlarni tashlab, yo‘l biluvchi yigitlar toqqa tirmashdilar. Azob-uqubat bilan jonlarini hovuchlab, balandga chiqdilar. Lekin chiqishdan ko‘ra, tog‘ orqasiga tushish imkonsiz tuyuldi. Horg‘in, ruhsiz Badiuzzamon nima qilishini bilmay garang edi. Yigitlar salla va belbog‘larni bir-biriga ulab, arqon yasadilar. Bunga osilib, bir-birlariga ko‘maklashib qirilgan, yorilgan holda pastga tushdilar. Badiuzzamon tog‘ ostida dam olib, biron maskan axtarib, Qunduz viloyati sari asta yo‘l boshladi.

## ***O‘ttiz beshinchi bob***

### **I**

Quyuq daraxtzorlari, gulzorlari quyoshning qizg‘in nurlarida cho‘milgan katta bog‘da yosh shahzoda Mo‘min Mirzo yoydan o‘qni uzar, baland daraxtlar uchidan oshirganiga suyunib, o‘ynab yurardi. Otasi Badiuzzamon Balxga ketarkan, o‘z o‘rnini, Astrobod

---

<sup>1</sup> Husayn Boyqaroning o‘g‘illaridan biri.

hokimligini, vaqtincha unga topshirgan edi. Lekin o'n ikki-o'n uch yashar bola, tabiiy, bu vazifadan uzoq edi. U muallimda saboq olgandan keyin otda kezar, o'q-yoy otar, yigitlarning katta maydonda harbiy mashqlarini xuddi o'yindek juda qiziqsinib tomosha qilar, o'zi ham o'rganishga tirishar edi. Viloyatni idora qiluvchi mansabdorlar ko'p. Ular goho rasmiyat uchun u-bu ish to'g'risida so'zlashib, uning ra'yini olmoqni istar edilar. Ammo Mo'min Mirzo o'zi nima uchundir muhim deb o'ylagan masalalarda kattalarga sira bo'sh kelmasdi. Uzoq surishtirar, goho fikr berishdan ilgari, onasi bilan kengashib chiqardi.

Yoydan o'q uza-uza, ko'p yugurib, bog'dan horg'in chiqarkan, Balxdan kelgan chopar uni kutganini xabar berishdi.

Mo'min Mirzo avval choparning hansiragan go'zal otini tomosha qilib, keyin chopar bilan so'zlashdi. Chopar qo'ltig'idan xat chiqarib, ta'zim bilan bolaga taqdim etdi. Mo'min Mirzo o'q-yoyni xizmatkorga berib, xatni o'qidi. Birdan yuzi jiddiylashdi. O'ynoq, tashvishsiz ko'zlariga kattalarnikidek fikr cho'kdi. Otasi unga mushkul vazifani yuklagan: Astrobodni amakisi Muzaffar Mirzoga topshirmaslik, agar kerak bo'lsa, qurol bilan qarshilik ko'rsatishni buyurgan. U xatni o'z otabeklari<sup>1</sup>ga o'qib berdi. Ulug'lar vaziyatning jiddiyligi, vazifaning bola uchun mushkulligini bilib, ikkilanib so'radilar: «Bu xususda o'zingiz nima o'ylaysiz?» Mo'min Mirzo uzil-kesil javob berdi: «Aziz padarimning farmonini bajarurmen!»

Shu kundan boshlab bola o'yinlarni yig'ishtirdi. Amakisi bilan bo'ladigan hangomani o'ylab, kechalari uyquasi o'chdi.

Uning yonida obro'li, ishbilar beklar yo'q. Yigitlarning ko'pini Badiuzzamon Balxga olib ketgan. Mo'min Mirzo g'ayrati orqasida atigi ikki-uch yuz yigit to'play oldi. Bu kuchni ham har ehtimolga qarshi yig'di. Chunki Muzaffar Mirzoning qo'shin bilan

---

<sup>1</sup> Murabbiylari, kengashchilari ma'nosida.

kelib urush qilishiga unchalik ishonmas, masala muzokara yo‘li bilan hal qilinar, deb o‘ylardi. Oradan ancha vaqt o‘tdi. Muzaffar Mirzodan darak yo‘q. Bola asta-asta tashvishdan qutulib, suyukli kundalik o‘yinlari bilan mashg‘ul bo‘la boshlaganda, birdan Muzaffar Mirzoning Muhammad Burunduq barlos va To‘g‘onbek bilan lashkar tortib kelayotgani ma‘lum bo‘ldi. Lekin bola sarosimaga tushmadi. Aksincha, oqibatdan cho‘chigan kattalarga dalda berdi. Sovuqonlilik bilan tayyorlik ko‘rdi. Keyin yigitlarni to‘p-lab, otasining farmonini bajarishga qaror berganini so‘zladi va otlanishga buyurdi. O‘zi ham jajman, o‘tkir qilichini, xanjarini, kichik, lekin rostakam o‘q-yoyini taqib oldi. Navkarlar o‘ynoqlagan turkman otini keltirishdi, bola ularning sal yordami bilan otga mindi. Ovg‘a yoki dala sayohati uchun ketayotganday shahardan chiqdi. Tajribali jangchilarning maslahati bilan, dushmanga duch kelish uchun kerakli joyga tushdi. Ertasiyoq qarshisiga, uch-to‘rt chaqirim nariga, Muzaffar Mirzo qo‘r to‘kdi ham yigitlarini darrov tartibga sola boshladi. Bu narsa uning niyatidan xabar berardi. Mo‘min Mirzoning qismlari orasida sadoqatli, urush ko‘rgan yigitlar bor edi. Ularning yordami bilan bola ham o‘z kuchlarini urush tartibiga sola boshladi. Shu vaqtda Muzaffar Mirzo tarafidan elchilar keldi, hech qanday muqovimat ko‘rsatmasdan, shaharni taslim etishni taklif qilishdi.

— Borib aytinglarki,— elchilarga dedi Mo‘min Mirzo dadil, — men o‘z og‘am bilan jang qilmoqni aslo istamaymen. Bu uyat narsa. Lekin to otamdan ruxsat kelmaguncha, shaharni topshirishga haqqim yo‘q.

Elchilar jo‘nab ketdi. Mo‘min Mirzoning aqli, o‘zini tuta bilishi yigitlarni shavqlantirgan edi. Ular endi: «Muzaffar Mirzoning taklifini aslo qabul etmang. Unda nomus degan narsa yo‘q ekan. Bo‘lmasa, sizning ustingizga shuncha lashkar tortarmidi? Uning o‘zi kelib, siz bilan ko‘rishmog‘i, kengashmog‘i lozim edi», der edilar. Kichkina sarkarda so‘lig‘ini chaynab

o'ynoqlagan turkman otining ustida o'tirib, jang to'g'risida, go'yo poyga yoki chavgon o'yini haqida gaplashgandek, qiziqib, tabassum bilan bemalol so'zlashardi.

O'ng yoqda, tepalar orqasidan Muzaffat Murzoning o'tliqlari chang ko'tarib paydo bo'ldi. Ular o'q otimi qadar yaqinlashgach, Mo'min Mirzoning yigitlari shig'ab o'q uza boshladilar. Dushmanning ikkinchi guruhi naq ro'paradan, o'rtani yormoq uchun ot soldi. Hayal o'tmay, keng dalada qizg'in jang boshlandi. O'ng yoqda har ikki tomonning yigitlari aralashib ketgan edi. Odamlar yiqilgan, otlar qochgan, to's-to'polon, suron. O'rta qismga hujum qilgan dushman dastalari, Mo'min Mirzoning yigitlari katta g'ayrat ko'rsatishlariga qaramay, son jihatidan ko'p bo'lganlari uchun bostirib kelishni davom ettirdilar. Yosh shahzoda sabriga chidamasdan, turkman otini urib, quyoshda oq olovday yongan qilichini sug'urib, oldinga intildi. Uning atrofidagi yigitlar har yoqdan ot o'ynatib, Mirzoning yo'lini to'sdilar. Qadrton bir navkari ajoyib chaqqonlik bilan uning otining jilovidan tutdi va rangi qum o'chib yolvordi: «Shahzodam, zinhor jangga kirmang, men boshimni beray, siz kirmang urushga!» Mo'min Mirzo xo'mrayib, ingichka, bor tovushi bilan qichqirdi: «Qo'yib yubor meni! Boshqalar qirg'inga kirgan-da, biz tomoshabin bo'lib turamizmi?» Otga qamchi urdi u. Kuchli ot sakrab, oldinga qarab uchdi. Bola jang qaynog'iga kirdi. Uni qo'riqlagan yigitlar bo'ronday qo'zg'alib, uning orqasidan yugurdilar. Jangda ular dushman bilan qilichlasharkan, ayni vaqtda Mo'min Mirzoni qo'riqlashga, ustiga otilib, asir olmoqchi bo'lganlarni to'zgitishga zo'r fidokorlik ko'rsatar edilar.

Mo'min Mirzo qaynoq otda dushmanning to'dalariga o'zini urib, nozik qo'llari bilan qilich solar, yana g'azabli ko'zlarini atrofga tikib, o'z yigitlarining ahvolini bilmoqqa, ularga dalda bermoqqa harakat qilardi. O'ng yoqdagi yigitlari ancha chekinib, uzoqlashgan, to'zmoqqa boshlagan edilar. Mo'min

Mirzo ish ko'rgan uch-to'rt bahodiri bilan otini o'sha yoqqa burdi. Chang-to'zondan chiqib, otni savab ucharkan, dushmanning qandaydir qalin to'dasi ularni yoqaladi. Mo'min Mirzo yo'lni chap berib o'tmoqqa intilarkan, orqadan kimdir uning yengil gavdasini egardan uzib olib, tizzasiga chalqancha yotqizdi-da, qarshi tomonga shamolday uchdi. Mo'min Mirzo bor kuchi bilan astoydil tipirchiladi. Lekin temir changaldan qutulish imkonsiz edi. Mo'min Mirzo bir intilib, boshini sal ko'targach, ko'zlari To'g'onbekning qahrli yuziga tushdi va bo'g'ilib qichqirdi: «Ha, it!»

Mo'min Mirzoning ikki bahodiri To'g'onbekni quvib, uning oldiga tushishga ulgurdilar, har ikki yoqdan qilich bilan hamla qilishga boshlaganlarida, ularning ustiga o'nlab dushman yigitlari otildi. Ular ko'p dushman bilan fidokorona qilichlashib, ikkovlari ham parchalanib, tuproqqa qorishdilar.

Astrobod yigitlari Mo'min Mirzoning asir tushganidan ogoh bo'lgach, alamdan yana qattiqroq urushdilar. Ko'plari qirildi. Qolganlarini kuchli dushman keng dalaga to'zdirib yubordi. Lekin ular ajoyib mard bolaga achinib, ho'ng-ho'ng yig'lashar, yana dasta-dasta birikishar, hayotdan o'limni afzal bilib, dushmanga qayta-qayta otilar edilar...

To'g'onbek yosh asirni to'ppa-to'g'ri Muzaffar Mirzo qoshiga keltirib, g'urur bilan topshirdi. Salqin daraxtzorda, gilam ustida gerdayib o'tirgan sip-silliq Muzaffar Mirzoga chang-to'zon bilan qoplangan asir qovoqlarini solib, dadil qaradi. Muzaffar Mirzo kinoyali tabassum bilan so'radi:

— Oqibat ne bo'ldi?

— Ayb sizda. Men yolg'iz farmonga bo'ysundim,— javob berdi Mo'min Mirzo chanqovdan qurigan lablari bilan. — Agar siz bir oz bardosh qilsangiz edi, men otam bilan yoki bobom podshoh hazratlari bilan xabarlashib, shaharni topshirar edim.

— Boshqa yo'l ham bor edi, — dedi Muzaffar Mirzo xuddi go'daklar bilan hazillashgan bir tur bilan.— Agar sen qilich-sadog'ingni bo'yingga osib

qoshimga o'zing kelsang edi, u chog' mendan marhamat ko'rar eding.

— Men — ulug' Temurning nabirasi! — dedi bola achchiqlanib. — Qilich-sadoqni bo'yniga osib, dushmanga tiz cho'kmoq, ulug' bobomning ruhiga zo'r haqorat bo'lar edi.

— Kimga aytasan bu gapni?

— Sizga! agar siz emas, Rustam kelsa, Chingiz kelsa ham shu so'zni aytar edim! — dedi-da, Mo'min Mirzo alamdand, o'kinchdan titrab, yerga qaradi.

Atrofni qurshagan navkarlarning ko'zlarida yosh, shahzodaga samimiy achinish va muhabbat yondi. Ko'plari bir-birlariga ma'nodor boqib, boshlarini asta chayqab qo'ydilar. Muzaffar Mirzo xijolat tortib, o'rnidan turdi-da, To'g'onbekni imlab, uzoqlashdi. Qari, tajribali jangchi, ov va qush bandasi Muhammad Burunduq barlos yosh, mard, olijanob asirga yaqin kelib, sevgi va hurmat bilan uning boshini siladi: «Chin so'zni aytdingiz, shahzodam! Ulg'ayib, zo'r qo'shirlarga sardor bo'lursiz, shahzodam!» dedi ham yigitlarga shahzoda uchun taom va sharbat keltirishni buyurdi.

Oqshom Muzaffar Mirzo tantana bilan shaharga kirdi. Mo'min Mirzoni qamab, qochirmasinar, degan andisha bilan kuchli posbonlar qo'ydi. Chunki yosh bolaning bahodirligi, aqli hammaga tarqalgan, hammaning yuragida unga chuqur muhabbat uyg'otgan edi.

G'alaba munosabati bilan Muzaffar Mirzo katta ziyofat tuzdi. Behad ko'p may ichdilar, o'yin-kulgi qildilar. Ish ko'rsatgan yigitlarga qimmatbaho sarupolar va o'zga in'omlar berildi.

Bir qancha kundan so'ng Balxdan xabar keldi — Husayn Boyqaro o'z o'g'li Badiuzzamonga qattiq shikast berganligi bilindi. Odamlar orasida eng ko'p doston bo'lgan voqea Badiuzzamonning yengilishi emas, balki Balxda Badiuzzamon yengilgan kunning naq ertasi Astrobodda uning o'g'li Mo'min Mirzoning yengilib, asir tushishi bo'ldi. Bu xabardan Muzaffar

juda quvondi. Otasini g'alaba bilan tabriklab, chopar yubordi.

To'g'onbek bir oydan so'ng, Muzaffar Mirzoning iltimosicha, ba'zi ishlarni bajarish uchun podshoh qoshiga jo'nadi. Husayn Boyqaro bu vaqtda Murg'ob yoqasida yotardi. To'g'onbek qarorgohga kelgan kuniyoq Nizomulmulkning yordami bilan podshoh tomonidan hashamatli ipak chodirda qabul etildi. To'g'onbek Muzaffar Mirzoning salomini bildirib, uning ba'zi iltimoslarini, masalan, Astrobod viloyatidan tushadigan daromadlarni ko'paytirish va hokazoni gapirdi. Husayn Boyqaro suyukli o'g'ilning hamma orzularini bajarajagini so'yladi. Keyin Muzaffar Mirzoga ko'rsatgan xizmatlari uchun To'g'onbekni tabrikledi. Unga rasmiy beklilik unvoni, Hirot viloyatidan katta yer berishni va'da qildi. To'g'onbek uning yonidan favqulodda gerdayib chiqdi.

Oqshom podshoh ziyofat tuzdi. Taklif etilganlar orasida To'g'onbek ham bor edi. U ziyofatda eng faxrli o'rinlardan birini ishg'ol etdi. Bog'i Jahon oroning saroylaridek katta, keng ipak chodirda sho'x, shod bazm bo'ldi. G'oz, qirg'ovul, bedana kaboblari bilan juda ko'p may ichildi. Raqslar, qiziqchiliklar, har nav kutilmagan hangomalar... Husayn Boyqaro qattiq mast bo'lgach, vaqt alla-pallada bazm tarqaldi. To'g'onbek Nizomulmulk va uning o'g'illari bilan birga tashqari chiqdi. Bir-biriga yaqin qurilgan va atrofida yasovullar aylanib yurgan ipak chodirlardan tevarakka shamlarning nuri xira aks etardi. Odamlar tezgina o'z maskanlariga kirib g'oyib bo'ldilar. Nizomulmulk, ichmaganday, tetik edi. To'g'onbek ko'p ichsa ham, odaticha, es-hushi joyida edi. Vazir uni qo'ltiqlab, chetroqdagi katta chodirga olib keldi. Bu chodirning atrofida posbonlar, bichilgan qullar ko'p edi. To'g'onbek, hadiksiragandek, birdan eshikda to'xtab qoldi.

— Xadichabegimning huzurlarida muhim kengash bor, — shivirladi Nizomulmulk.

Xadichabegim To'g'onbekni ochiq yuz bilan qabul



etdi. O'g'lining ahvolini so'radi. Keyin, garchi o'zi yaxshi xabardor bo'lsa ham, Astrobodda ro'y bergan voqealar bilan qiziqsindi. To'g'onbek qisqa, lekin chertib-chertib gapirib berdi.

— U nomaqbul asirni nima qilmoqchisizlar? — so'radi oqargan sochlarini barmog'i bilan silab Xadichabegim.

— Bilmadik, — javob berdi To'g'onbek. — Hozir Hirotda, Ixtiyoriddin qal'asida yotgan chiqar. Ishonchli navkarlar bilan yuborgan edik.

— O'g'linga beadablik qilgan u shumni qattiq jazolash kerak. Menga qolsa, o'ldirmoq kerak! Otasi Hirotda, bolasi Astrobodga panja solmoqchi! Yo'q, bunga aslo yo'l qo'yasmiz! — dedi g'azab bilan shivirlab Xadichabegim va o'tirganlarga qarab qo'ydi.

To'g'onbekning ko'zlari g'alati ochilib ketdi. Nizomulmulk ayyorlarcha sukut etdi.

Xadichabegimning har bir so'zini bosh liqillatish bilan tinglagan Kamoliddin Husayn, Amidalmulk ikkisi birdan: «Ixtiyor sizda!» deyishdi. To'g'onbek bir oz mulohaza qilib, bu fikr bular orasida ilgaridan pishganligini payqadi. Badiuzzamonni podshohga qarshi yana katta g'azab bilan oyoqlantirish, o'rtada g'av-g'olarni kuchaytirish uchun bundan yaxshi chora yo'q edi. Buning natijasida To'g'onbek ham maqsadlarini tezroq, qulayroq amalga oshiradi. Mana, Xadichabegim ham o'z o'g'lining baxti uchun o'gay o'g'il Badiuzzamonga dushmanlik qilyapti-da!

— Farmon qani? — Xadichabegimga tomon egilib, tikildi To'g'onbek.

— Xohlasam, shu kecha olamen, — javob berdi ishonch bilan Xadichabegim. — Ammo farmonni nihoyatda tezlik bilan amalga oshirish zarur ham buni sizga o'xshash kishi qiladi. Farmonni har kimdan yuborib bo'lmaydi, chunki Hirotdagilar farmonni olib, lekin qatlni mumkin qadar orqaga surishlari mumkin. Ulug' amirlar eshitib qolsalar, Mo'min Mirzoning gunohini podshohdan so'rab olishlari mumkin.

— Hech shubha yo‘q, hech! — po‘ng‘irlab qo‘ydi Nizomulmulk.

— Bu xizmat badaliga oltin tog‘lar muyassar bo‘lur, — tovushini nayday cho‘zib dedi Kamoliddin Husayn.

To‘g‘onbek unga o‘qrayib bir qaradi-da, Xadichabegimga dedi:

— Sizga ma‘qul tushgan bo‘lsa, bas. Lekin oxiri ko‘ngilsizlik bilan bitmasmikin?

— Nimalarni o‘ylaysiz! — javob berdi qari satangning ishvasi bilan Xadichabegim. — Podshohning o‘z muhri bosilgan farmon bilan borasiz!

To‘g‘onbek yana bir necha vaqt o‘ylab, nihoyat, ayniqsa Xadichabegimning orzusini yerda qoldirishga botinmay, qabul qildi.

Tashqari chiqdilar. Nizomulmulk o‘z chodiriga ketdi. To‘g‘onbek uning o‘g‘illarining chodiriga kirdi. Hech biri yotmadi.

— Podshoh hazratlari ko‘nmasalar kerak, — dedi qo‘lini siltab To‘g‘onbek.

— Farmon hozir qo‘lga tegadi, — dedi Amidalmulk. — Xadichabegim podshohni shunday avraydiki, ta‘rifga sig‘maydi.

— Alalxusus, xoqon hazratlari mayi nob ta‘sirida bo‘lsalar, har qanday farmon olish uchun mushkulot chekilmas. Chunki aql sharobda erib ketadi!

To‘g‘onbek yonboshladi, o‘yga sho‘ng‘idi. Kamoliddin Husayn muqovasining hallari shamda yongan chiroyli bir kitobni olib, shirin tovush bilan sekingina g‘azal o‘qiy boshladi. Ba‘zi misralar ustida aka-uka bahslashishdi. Ikki soat qadar vaqt o‘tgach, sekingina Nizomulmulk kirdi: «Mana, farmon, ildam yo‘lga tushingiz!» — sekin, lekin g‘urur bilan dedi vazir.

To‘g‘onbek farmonni chiroqqa solib ko‘rdi-da, taajjublanib, boshini chayqadi.

— Suyukli xotin... — dedi kulib Nizomulmulk.

— Mastlikda suyukli xotin yana ham suyukliroq ko‘rinadi, — dedi Amidalmulk.

To‘g‘onbek xayrlashib, eshikka chiqdi. Navkarlarni

tepid uyg'otdi. Ular bir zumda otni tayyor qildilar. To'g'onbek, orqadan qaroqchilar quvgandek, otni qattiq haydab ketdi. Birinchi rabotga yetganda, tong yorishdi. Bir nafas otga dam berib, yana jo'nadi.

Keyingi rabotlarda otni almashtirib, katta masofalarni, mo'g'ulchasiga, yana ildam bosdi.

Ikkinchi kun kechqurun ko'pirgan ot Ixtiyoriddin qal'asining darvozasi yonida to'xtadi. To'g'onbek otdan sakrab tushib, lapanglab ichkari qadam qo'ydi. Zindon boshlig'i, giyoh yeb pinakka ketganday, sham yonida mudrab o'tirardi. Yosh bir navkar o'qila-o'qila shalaqlangan eski bir kitobni — qandaydir jangnomani o'qirdi. To'g'onbek korgach, navkar o'qishni birdan kesib, dik etib turdi. Zindon boshlig'i erinchaklik bilan o'rnidan turdi. Bu cho'ltoq supurgiday ko'rimsiz soqolli, harakatlari sust odamning ko'zlari qattiq va yomon edi. To'g'onbek: «Ha, elat, bardammisiz?» deb ko'rishdi va farmonni uzatdi. Zindon boshlig'i farmonni chiroqqa tutib, ko'z yugurtirdi-da, yer ostidan To'g'onbekka qarab qo'ydi. Keyin To'g'onbekni nari-ga eltib, shivirladi:

— Yetti otam haqqi, men bunday jazoni hech kutmagan edim. Bayon qiling, bek, bu qanday gap?

— Farmoni oliy... — dedi To'g'onbek zarda aralash. — Sen ham, biz ham xoqonning qullarimiz. Bo'ysunishni bilamiz, xolos! Ha, shoshma, — zindon-boshini nariroq surib, davom etdi To'g'onbek. — Ishni shu tundan qoldirmaymiz. Ijro etilguncha, tilingni kes!

Zindonboshi xo'mrayib, yana sham qarshisiga o'tirdi; farmonga tikilib, afsuslanganday, boshini asta, lekin uzoq tebratdi. To'g'onbek bu yerdan shaharga chiqishni, hatto oilasida qolganlarni borib ko'rishni istamadi. Navkarga pul berib, oshxonadan taomlar keltirdi-da, bemalol yeb oldi. Xuftondan keyin Amr Obodiy, boshi og'ib kirgan odamday, paydo bo'lib qoldi. Bu — ko'rinishda bahaybat bo'lmagan, qalin soqolli, kichik yuzli, ko'zlarida doimo qotgan qandaydir bir xiralik ko'ringan odam — so'roq va qiynoq

mutaxassisi edi. Bu davrning odamlari san'atlarda va turli foydali ishlarda o'z mahoratlarini kamolga yetkazishga intilganlaridek, Amr Obodiy ham qiynoq, jazo bobida inson hayoliga sig'mas darajada g'alati ixtirolar egasi edi. To'g'onbekka, keyin zindonboshiga ko'z tashlash bilan, u o'zining o'tkir ichki sezgisi orqasida, mash'um hodisa hidini tuydi. Qalbaki nazokat bilan ko'rishib, To'g'onbekka murojaat etdi:

— Janoblari, agar xato qilmasam, saltanat tojining gavharlaridan birini egovlagali kelgan bo'lsalar kerak?

— Ushatgali keldim! — dedi yerga tikilgan holda To'g'onbek.

— Rostmi? Podshoh hazratlarining qahri g'azablariga yarasha saboqni biz bersak ham kifoya edi. Go'dakning jonini sug'urmasdan o'n jonni sug'urgandan badtar bir ish qilar edik, — dedi-da Amr Obodiy zindonboshidan farmonni olib o'qidi. Keyin unga: «Bo'ladigan ishda sustlik ko'rsatmoqda ma'no yo'q, yana farmoni oliyga hurmatsizlik bo'lmasin!» degach, zindonboshi indamasdan, o'rnidan turdi, qorong'ilikda yo'qoldi. Amr Obodiy, muqaddas joyga ketayotgan kabi, ruhiy yengillik bilan zindon tomonga borarkan, orqasidan lapanglab To'g'onbek ham yetdi. Chunki ishni «toza» bajarmoqchi bo'ldi. Oltin, kumush yoki kelajakda mansab berish va'dasi bilan jallod tig'i ostidan boshini qutqargan shahzodalar haqida u eshitgan edi. Shunday qilib, bular ham shahzodani bir zumda qochirishlari yoki yashirishlari mumkin edi.

— Tomosha qilasizmi? Juda soz! — dedi Amr Obodiy To'g'onbekka yo'l boshlab.

Qorong'ida zindon binolari o'z dahshatini yana ham chuqurroq sezdirardi. Ba'zan qorong'ilik orasidan faryodlar, yig'ilar, ingrashlar eshitilib qolardi. Amr Obodiy goh pastlikka tushib, goh balandlikka ko'tarilib, nihoyat, qo'rg'onday baland, haybatli devorlar oldida to'xtadi. Kalidlarni shiqirlatdi, eshik zardali «g'arch-g'urch» bilan ochildi. To'g'onbek ichkari kirgach, rutubatli bo'g'iq havo burniga urdi. Bir

burchakda, go‘yo qorong‘ilikdan qo‘rqib titraganday, lipillab, kuchsiz yongan shamda bu yerning uzun dahliz ekanini fahmladi. Amr Obodiy dahliz oxiridagi eshikni ochib, oldin To‘g‘onbekni kirgizdi.

Shahzoda to‘shak ustida shanga yaqin o‘tirib, Qur‘on o‘qish bilan mashg‘ul edi. Navkarlar ovqat olib kelgan bo‘lsalar kerak, deb o‘ylaganidanmi, shahzoda Qur‘ondan boshini ko‘tarmadi, mungli tovush bilan qiroat qilaverdi.

— Shahzodam Kalomulloga xo‘b berilgan ekanlar, — dedi To‘g‘onbek yaqin kelib.

Mo‘min Mirzo birdan yalt etib qaradi. O‘tkir ko‘zlariga ishonmaganday, taajjub bilan To‘g‘onbekka tikildi. Ingichka qoshlarini kindor chimirib, dedi:

— Ha, pahlavon, qayerdan? Nima qilasiz bu yerda? Ne xabarlar keltirdingiz?

— Shahzodamning holidan xabar olay, dedim, — tutilib, g‘uldirab javob berdi To‘g‘onbek.

— Sizlar qalin lashkar bilan keldinglar, — lablari o‘kinchli bir kulgi bilan yoyilib dedi Mo‘min Mirzo. — Mening yigitlarim yaxshi savashdi. Lekin, juda oz edikda. Keyin men o‘ylab qaragam, ko‘p xatolar ham qilgan ekanmen, rostmi? Bir vaqt Jahongir barlos otam bilan so‘zlashib o‘tirib, oz kishi bilan ko‘p kishiga shikast berish to‘g‘risida qiziq narsalar so‘zlagan edi. Men u bahodirning so‘zlariga sira amal qilmabmen.

— Yaxshi urush qildingiz, — yerga qarab dedi To‘g‘onbek.

— Yo‘q, — boshini chayqadi bola, — zafarga erishmog‘im kerak edi. Ozod bo‘lgandan so‘ng podshoh bobom bilan so‘zlashib, ulardan jang ilmini o‘rganamen — tajribalari zo‘r. Keyin maydonni ko‘p ko‘rgan beklarimizdan ham o‘rganamen.

To‘g‘onbek allanechuk oqarib ketdi, qisildi. So‘zlashga majoli yo‘q, eshikka boqar edi, keyin peshonasini siqib, dedi:

— Shahzodam, har bir banda avvalo tangridan umr tilashi kerak!

— Albatta, — dedi Mo‘min Mirzo. — Lekin orzusi umrning ham keragi yo‘q!

Dahlizda gumbur tovush eshitildi. Mo‘min Mirzo eshikka qaradi. To‘g‘onbekka va Amr Obodiyga tikildi: «Aytkulik so‘zlaringiz bo‘lmasa, chiqib ketinglar. Men yotamen», — dedi bola shahzodalarcha buyruq yo‘sunida. Amr Obodiy beso‘naqay tishlarini ochib, kulib qo‘ydi.

Zindonboshi bilan jallod kirdi. Bola o‘tkir ko‘zlari bilan hammaga jovdirab qaradi. Rangi birdan qum o‘chib ketdi. Sakrab o‘rnidan turdi: «Nega keldinglar?» — qichqirdi bola. Uning haligacha ma‘sum, sof ko‘zlari dahshat bilan yonardi. Amr Obodiy bolaning ikki qo‘lini ombur bilan qisgandek, mahkam ushladi va dag‘allik bilan:

— Shahzodam, hozir to‘g‘ri tangri qoshiga borasiz! — dedi.

— Nomussizlar! — bo‘shalishga tirishib qichqirdi bola. — Kimning farmoni bu? Bobomning qahru g‘azabidan qo‘rqmaysizlarmi? Qo‘y meni! Yo‘qol hammang!

— Bobongiz xoqon hazratlarining farmoni oliysi bilan keldik. Taqdirga tan bermoq kerak... — dedi hansirab To‘g‘onbek.

— Ollohning rizosi... Qismat, — farmonni ko‘rsatib dedi zindonboshi.

— Bobomga ne bo‘ldi? O‘z ko‘zini o‘zi o‘ymoq! Insofsiz, badbaxt bobo!

Jallod Mo‘min Mirzoni ko‘tarib pastga, quruq yerga yotqizdi. Amr Obodiy sham tutdi. To‘g‘onbek orqasini o‘girib, ko‘zlarini yerga qadadi. Bola kuchsiz, dardli ovoz bilan, «Onajonim!» Qayerdasiz, otam?» derkan, jallod bo‘g‘ziga xanjar qo‘ydi... Bir zum xirillab, bola jim bo‘ldi. Jallod uning shohi ko‘ylagiga xanjarni artib, qaddini rostladi.

To‘g‘onbek Amr Obodiyning orqasidan og‘ir qadam tashlab, tashqari chiqdi. Salqin havoda chuqur nafas oldi. Amr Obodiy bilan baravarlashib: «Obdon aqlli go‘dak edi», dedi. Amr Obodiy labini yalab

«Yusufdek xushro‘y edi!» deb qo‘ydi. Zindonboshining xonasiga yetishgach, u qimor va sharob bazmiga borishini aytib, xayrlashdi. To‘g‘onbek xona ichiga kirdi. Boshini quyi solib, yolg‘iz o‘tirdi. Hozirgi faje manzarani unutishga tirishdi. U fikrini zo‘rlab, bu ma‘sum qurbonning natijasida ro‘y beradigan voqealarni o‘yladi; o‘z yo‘llarini, munosabatlarini aniqlab olish uchun bosh qotirdi. Bir soatdan keyin zindonboshi keldi. To‘g‘onbekning bu yerda o‘tirganini ko‘rib, taajjub bilan so‘radi: «Bu faqir kulbada tunamoqchilarmi, bek janoblari?» To‘g‘onbek javob bermadi. Zindonboshi shamdonga yangi sham o‘tqazdi. Homuza tortib, bir chekkada mudraganday, jim o‘tirdi. Bir muddatdan keyin To‘g‘onbekka yana murojaat etdi: «O‘rin solib beray. Bir nafas orom olsinlar». «Sen yotaver. Uyqu bosib qolsa, mudrab olarmen», javob berdi po‘ng‘illab To‘g‘onbek.

To‘g‘onbek Hirotda bir kun ham qolishni istamas edi. Chunki erta-indin poytaxtda butun xalq fojiani eshitar, har kim o‘z bilganicha bichib-to‘qir, podshoh farmoni bilan bo‘lgan ishda To‘g‘onbekni ayblashmasalar ham, har holda uning ismi har yerda tilga olinar, zahar tilli bitta-yarimta shoir uning to‘g‘risida hajv yozib tarqatar... Shuning uchun erta bilan qarorgohga chiqib ketib, Xadichabegimni quvontirmoqchi bo‘ldi.

Zindonboshi ancha vaqt g‘oyib bo‘lib, nihoyat, qayerdandir bek uchun yangi atlas ko‘rpalar, ikkita yumshoq par yostiq keltirib, o‘rin soldi-da, bir chekkada uyquga ketdi. Vaqt yarim kechadan og‘di. To‘g‘onbek yechinib yotmoqchi bo‘lganda, darvozadan tasirlatib otliq kirdi. Keng sahnda, qorong‘ida, jimgina aylanib yurgan qurolli navkarlar har yoqdan yugurishdi. To‘g‘onbek parvo qilmay, o‘rniga cho‘zilishi bilan gursillab kimdir xonaga kirib keldi. To‘g‘onbek boshini ko‘tarib, saroyning yaqin mulozimlaridan birini ko‘rdi. Zindonboshi ham cho‘chib o‘rnidan turdi.

— Ha, nima g‘alva? — to‘nglik bilan so‘radi To‘g‘onbek.

— Siz shundamisiz? Juda yaxshi, — hansirab dedi mulozim. — Xoqon hazratlari farmonni bekor qildilar. Mana, yangi farmon!

— Nima? — To‘g‘onbek o‘rnidan sapchib turdi.

Zindonboshi: «Evoh!» deb peshonasiga urdi, qaltirab, devorga suyalib qoldi. Choparning ko‘zlari go‘yo qinidan chiqayozdi, yiqilayozganday u ham devorga suyaldi va g‘ulduradi:

— Shahzoda... nima... ketdimi? Ana falokat! Bu qanday gap? Darrov?

— Ajali yetgan-da, — do‘q qildi To‘g‘onbek.

— Ajalga davo yo‘q! — qaltirab dedi zindonboshi.

To‘g‘onbek chopardan yangi farmonni oldi. Ichida o‘qib, majolsiz, bo‘shashgan holda jim bo‘lib qoldi. Bu farmon haqiqatan avvalgi farmonni bekor qilgan edi. Uzoq, og‘ir sukunatdan keyin, To‘g‘onbek qanday qilib va qay sabablar bilan podshoh o‘z qaroridan voz kechganligini so‘radi.

— Podshoh hazratlari farmonni kayfning zo‘ridan, aslo bilmasdan, bergan ekanlar, — hayajonini bosishga tirishib gapira boshladi chopar. — Bu mazmundan xabardor bo‘lib qolgan ba‘zi muqarrablar ertasi bu xususni xoqonning ko‘ngillariga yetkizdilar. Mash‘um farmonni xoqon go‘yo tushlarida ko‘rgandek yodlaydilar. Birdan butun qarorgohni ost-ust qildilar. Nimasini so‘zlayin, bek janoblari, qarorgohda bir qiyomat qo‘pdi. Shu onning o‘zida yangi farmonni bitib, menga topshirdilar, shamoldek uchib bor, deb takror-takror uqtirdilar. Umrimda ne-ne otlar mindim, ne-ne masofalarni yashindek bosdim. Lekin hammasi bu safargiday emas. Afsuski, ajal tikilgan ekan... Hay, siz nega bu qadar sur‘at bilan yo‘l bosdingiz, hojat yo‘q edi-ku?

— Endi bildingizmi,— o‘qrayib dedi To‘g‘onbek,— otimning qanotiga yuguruk bulutlar rashk qiladi! Tarki odat mahol, badanimda suyaklarim qisirlagan sari zavqlanib, battar tez haydaymen. Sizlar na otni, na yo‘lni bilasizlar!

— Hamma narsa qismatda... — aybdorlarcha



bo'ynini qisib dedi zindonboshi. — Agar shahzodaning qismati o'zga bo'lsa edi, ot emas, eshak minganingizda ham bekdan oldinroq yetib kelardingiz.

Chopar kalavlanib eshikka chiqdi — qorong'ilikda ho'ngrab yig'ladi. Zindonboshi To'g'onbekka orqadan ko'z olaytirib, boshini chayqab qo'ydi.

To'g'onbek shoshib-pishib kiyinarkan, ichida jahl bilan derdi: «Qay ishga ayol burnini tiqsa, oqibati voy!» Kiyinib bo'lib, zindonboshiga qattiq o'qraydi, tashqari chiqdi. Navkarlar otni keltirdilar. Podshohning huzuriga borishga botinmay, Astrobodga, Muzaffar Mirzo huzuriga jo'nab ketdi To'g'onbek.

## II

Uyidan elang-qarang chiqqan Sultonmurod hammaning yuzida oniy bir falokat zarbini tortganlarning hayajon va tashvishini ko'rdi. Surishtirib, tungi voqeani eshitdi. Ba'zi bir kishilar tafsilotiga qadar bilib olgan edilar. Olim g'azabdan tutaqib ketdi. Madrasaga yugurdi. Lekin yo'llarda ayni voqeadan ta'sirlangan guruh-guruh tanishlar bilan uchrashishga to'g'ri keldi. Hirot to'lqinlandi. Odamlar o'z hayajonlarini bir-birlariga aytib, yuraklarini bo'shatishga tirishardilar. Yosh, aqlli shahzodaning o'z bobosi farmoni bilan jalod qo'lida qurbon bo'lishi podshoh xonadonida ko'pdan buyon mavjud bo'lgan fitnalar girdobining butun faje manzaralarini ochib bergan edi.

Sultonmurod do'st-dushman farqiga bormasdan, podshohga qaratib g'azabli so'zlar aytishdan o'zini tiya olmadi. Madrasaga kelganda, hamma tolibi ilmlar ayni hayajon ichida qovrilardilar. Hamma hujralarda to'p-to'p talabalar, ularning tanishlari, mudarrislar yig'ilishib, qayg'u, olov zahar bilan sug'orilgan so'zlar daryosida chirpinardilar. Odamlarning nazarida, ma'sum qurbon, qonga belangan go'dak ulug' qahramonga aylandi. Unga atalgan marsiyalar, qasidalar paydo bo'la boshladi. Zolimlarni fosh etuvchi achchiq hajvlar og'izdan-og'izga uchardi.

Bukun dars bo'lmadi. Sultonmurod o'zga mad-

rasalarga bordi. Hamma, mash'um nafasi yaqinlashgan allaqanday dahshatli falokatni kutayotganday, ichki bir titroq va iztirobda edi. Go'yo yer bir silkinib o'tdi, mana endi omonsiz, g'azabli bir quvvat bilan takror silkinadi-da, hamma narsani o'z qa'riga tortadi! Shu kayfiyatda iztirob chekkanlarning yuragida yagona bir umid yashar edi: Alisher Navoiy! O'pqnolikka qulab ketayotgan tog'ni yolg'iz u tutib qola biladi! Eng sovuqqon, eng mantiqli odamlar bu mo'jizaga ishonardilar. Lekin bu falokatli daqiqalarda Alisher yo'q edi. Hammaning ko'zi Mashhad yo'liga intizor edi.

Uchinchi kun Alisherning oti shahar darvozasidan kirishi bilanoq bu xushxabar hammaga tarqaldi. Sultonmurod xonaqohdagi hujrasini qulflashni ham unutilib, yugura ketdi.

«Unsiya»da — Navoiyning xonasida, uning har vaqtgi hamsuhbatlari, yaqinlaridan tashqari, bir ko'p shoirlar, olimlar bor edi. Navoiy har vaqt o'tiradigan joyida, darichaning tagida o'tirardi. U zohiran sokin edi. Sultonmurod qalbiy sog'inch bilan qari shoirning kuchsizlashgan, nozik qo'llarini siqarkan, uning dono ko'zlarida qayg'u ko'rdi. Bu qayg'u uning yelkalaridan ham bosib, shoirni buklab qo'yimoqchiday edi. Sultonmurod bu yerdagi yoshlarning eng yoshi bo'lgan, aqlli ko'zlarini Navoiydan uzmay, shoirning har so'zini uqib olishga, har bir harakatini o'z fikriga chizishga intilgan Xondamirning yoniga o'tirdi. Navoiyning ruhi hozirgina eshitgan fojining iskanjasi ostida edi. U yurak yarasini qonatmaslikka uringanday, u-bu haqda qisqa, go'yo g'ayrihuuriy ravishda gapirib qo'yar yoki u-bu to'g'rida ko'ziga to'g'ri kelgan odamdan savol so'rar edi. Nihoyat, uzoq sukutdan keyin, qayg'uli ko'zlarini ko'tarmasdan, fikrning haddiga yetganiga ishongan faylasuf kabi, o'z-o'zi bilan so'zlashgandek, gapirdi. Keyin ovozi borgan sari kuchliroq to'lqin bilan yangray boshladi.

— Bu mash'um hodisa qarshisida, — dedi u, — fikr, mulohaza yuritgan inson afsus va nadomat bilan

benihoyat dahshatli va olamshumul natijalarga keladi. Fikran asrlarning, davrlarning manzarasiga nazar tashlasangiz, tarix mantiqining ajoyib xulosalarini ko'rasiz. Qahramonlar, hukmdorlar, jahondorlarning umri bo'lgani kabi, davrlarning, davlat va saltanatlarining, xonadon, sulolalarning ham umri bor; daryo-daryo qon oqizib, muazzam tarix binosi yaratgan erlar, nihoyat, bir tomchi qonning gunohiga g'arq bo'lib, na o'zlaridan, na azamat tarixlaridan nom-nishon qolgan. Buning misollarini bizning o'z tariximizdan ham topmog'ingiz mumkin. Ular hammaga ham ma'lum. Qo'rqamenki, unday falokatlar qarshisida takror qolmasak edik!

Shoir jim bo'ldi. Uning hazin fikri ko'zlaridagina emas, keyingi vaqtlarda quyuqlashgan yuz ajinlarida, oppoq soqolining tolalarida ham yonar edi. Navoiyning mash'um bo'rondan darak bergan, haqiqatning butun achchiqligi, sovuqligi bilan aytgan so'zlari, go'yo ko'zi bog'liq odamni tubsiz o'pqonning naq labiga keltirib, birdan ko'zini ochib yuborganlaridek, ta'sir ko'rsatgan edi.

— Har nechuk falokatni daf etmoqqa g'ayrat qilmoq kerak, — dedi Navoiy qat'iy, ishonchli ovoz bilan, — muborak vatanning, el-ulusning salomatligi uchun fidokorlik ko'rsatmoq vazifamizdir. Sizdan tilagim shulki, bir-birimizga, davlatga, yurtga vafo, sadoqat, muhabbat bilan bog'lanaylik. Vafo va muhabbat ulug' qudratdir. Bu qudrat bilan to'la ko'ngillar hayotni nurlanturlar, ular falokat darvozalariga sad chekib, saodat darvozalarini ochurlar.

Bu so'zlar, bo'g'iq nafaslariga varillab kirgan bahor shamoliday, ta'sir qildi. Sultonmurod bu fikrni juda qizg'in va shavq bilan quvvatladi. Vafo va muhabbatning munbat zamini<sup>1</sup>ga aql va ilm urug'larini sepib, ularning guli va mevalari bilan hayotni bezamoq haqida, ilm va san'atning qudratli ildizlari keng yoyilgan yurt har nechuk falokatlarga dosh bera bilishi to'g'risi-

---

<sup>1</sup> Hosildor tuproq.

da gapirdi. Boshqalar ham shu mavzuda, lekin boshqa dalil va isbotlar bilan soʻzladilar. Yuraklarda yana umid qanotlandi.

Odamlar asta tarqala boshladi. Eng keyin Sultonmurod bilan Xondamir chiqarkan, Navoiy yosh tarixchini toʻxtatib, mehribonchilik bilan uning mashgʻuloti haqida soʻradi. Endi oʻn yettiga kirgan Xondamir katta tarixiy asar yozishga kirishganini, uning kutubxonasidan foydalanayotganini soʻzladi. Navoiy uning asari bilan juda qiziqsindi. Kitobning boshqa tarixiy asarlardan, masalan, bobosi yozayotgan yetti jildli katta asardan qanday farqlari borligi va hokazo toʻgʻrisida soʻradi. Xondamir savollarga qisqa, lekin ravshan javob berdi. Keyin kitobning ayrim boblarini oʻqib, oʻz fikrini bayon qilishni shoirdan iltimos etdi. Navoiy xafalanib, dedi: «Koʻrib turib-siz, yurtning boshida qancha dardisar voqealar bor! Andak fursat topsam, albatta, oʻqib chiqamen. Muttolaadan zarar koʻrgan emasmiz». Xondamir xursand joʻnadi.

— Sizning fikr xazinangizning nodir gavharlarini qachon koʻramiz? — Sultonmurodga tikildi Navoiy va undan javob kutmasdan davom etdi. — Sizda tahsil koʻrmish bir necha zot Mashhadda, madrasalarda dars etmoqdalar, barchalari sizga behad salom dedilar.

Sultonmurod kitobning riyoziyot, ilmi nujum va mantiqqa oid qismlari ancha ilgarilaganini soʻzladi. Navoiy bu ilmlarga doir arab, fors, hind tillarida qanday foydali narsalar boʻlsa, hammasini koʻzdan kechirish kerakligini alohida uqtirdida, keyin:

— Shoshmoq kerak. Mana, soqolingizga bir-yarim oq tushibdi... — deb kulib qoʻydi.

### III

Navoiy yolgʻiz boshiga yana yurt qaygʻusini ortdi. Oʻz qoʻlini nabirasi qoniga boʻyagan podshohdan nafratlandi. Lekin Toʻgʻonbek keltirgan farmonning mastlikda yozdirilishi, uning bekor etilishi fitnaning chuqur ildizlari borligidan darak berardi. U tezda

qarorgohga borib, fitnalarning sirlarini o'rganishga qaror berdi. Kechasi «Mahbub ul-qulub»ning yangi bobini boshladi. Oz vaqt ichida bir dasta qog'oz har biri hayot tajribasi va boy, o'tkir fikrining asil durdonalari bilan to'ldi. Navoiy charchadi. Belida, barmoqlarida og'riq tuydi. Shoir qarilikni, tuganmas tashvishlarning natijasi bo'lgan darmonsizlikni yil sayin emas, oy sayin sezmoqda edi. Bir oz cho'zilib orom olmoq istarkan, nogahon Xo'ja Afzal kirib keldi. Navoiy ko'zlariga ishonmadi. Uzoq yillar ayriliqda sog'inishgan do'stlar to'ldinlanib, quchoqlashib ko'rishdilar. Navoiy suyunchdan tetiklanib ketdi. Do'stini o'tqazdi. Ikkovlari bir-birlariga tikilib, qadda, gavadada, yuzda, ko'zda yillarning ta'sirini ochiq ko'rdilar. Xo'ja Afzalning soqollari oqargan, ko'zlari avvalgi jonlilikni yo'qotgan, yuzi salqigan edi. Chamasi, o'n yil ichida o'tgan eng muhim voqealar haqida bir shingil-bir shingil so'zlashib, vaqt yarim kechdan og'ganda, uxlashga yotdilar. Ertalab nonushta ustida iliq, jonli, qiziq suhbatga berildilar. Navoiy mam-lakatdagi umumiy vaziyatni, keyingi hodisalarni tushuntirib, nihoyat, so'radi:

— Davlatda biron vazifa olib bormoq niyatingiz bormi?

— Boshqa o'lkalarda menga baland mavqelar taklif etdilar. Aslo rozi bo'lmadim. Ammo, Xurosonda qay vazifa berilsa, jonim bilan ado eturmen, — javob berdi Xo'ja Afzal.

Navoiy xursand bo'ldi. El-ulusga jonkuyar odamlarni ish boshiga qo'ymoq uchun bel bog'lamoqqa eski g'ayrat bilan azm etdi va bir necha kundan so'ng qarorgohga jo'nadi.

Husayn Boyqaro Murg'ob qirg'og'ida, hashamatli chodirda shoirni yig'i-sig'i bilan kutib oldi. U mast edi. Egnida uzun, qora ipak to'n — motam kiyimi... Butun siymosidan nabirasining hasrati barq urardi. Shoirni o'ziga yaqin o'tqizdi. Uzoq vaqtgacha gapira olmadi — achchiq alamli yig'i nafasini bo'g'ardi.

— Bag'oyat og'ir gunohga botdim. Nuridiydamni,

Temur kabi ulug' qo'shinlarga sardor bo'luvchi shunqorimni jallod qo'lga topshirdim. Tangri o'zi kechirmasa, ahvolim mushkul, — dedi ko'z yoshini artib Husayn Boyqaro.

— Yuzqoralik bo'libdi! — dedi Navoiy alam va jahl bilan. — Tangrim hech bir bandasining boshiga bunday kunlarni solmasin!

— Aqlu hushdan, ixtiyorimdan ayrilgan vaqtda noinsoflar... — so'zni davom ettira olmadi Husayn Boyqaro.

— Haqiqiy jinoyatkorlarni bilursizmi? Ular kimlar?

Husayn Boyqaro quyuc qoshlari ostidagi qiyg'och, shishgan, qizargan ko'zlarini pastga qaratib, boshi bilan tasdiqladi. Lekin shaxslar haqida hech nima demadi. Faqat umuman atrofini o'ragan nonko'rlar, fitnachilardan shikoyat qildi.

Navoiy Xo'ja Afzalning kelganligi, podshohga xizmat qilmoqqa orzusi borligini so'zladi. Husayn Boyqaro uni yaxshi so'zlar bilan, eski qadrdon kabi yorladi ham vazir etib farmon bermoqqa hozirligini bildirdi.

Navoiy kelgan kundan boshlaboq vaziyatni, jinoyatni va uning ichki tomonlarini o'rganishga tirishdi. Valibek, Boboali eshik og'a, Abdullo marvoriy, Darveshali bilan suhbatlashib, jinoyatga Xadichabegim bilan bir qatorda Nizomulmulk sababchi ekanini, lekin podshoh Xadichabegimdan xafa bo'lsa ham, uning gunohi haqida og'iz ochmaganini bildi. U Nizomulmulkning yaqinlaridan bo'lgan Imodal Islom, Xo'ja Abdulaziz, Nizomiddin Kurd, qozi Shahobiddin va hokazo bir ko'p yuqori mansabdorlar shahzodalarning orasiga dushmanlik solib, goh u shahzodaga, goh boshqasiga tarafdorlik ko'rsatayotganlarini aniqladi.

Badiuzzamon avvalgi adovatiga endi o'g'lining qasosini qo'shib, har yerda o'ziga tarafdorlar to'plab, qat'iy hujumlarga o'tmoqqa tayyorligi haqida xabarlar olindi. Uning hujumini, birdan guvillab keladigan bo'ron kabi, har vaqt kutib turardilar. Bu to'g'rida Navoiyning ham shubhasi yo'q edi. Bundan tashqari,

ba'zi alomatlarga binoan, boshqa shahzodalarning ham turli viloyatlarda erta-kech bosh ko'tarishlarini taxmin qilardi u.

Nizomulmulk hech qanday jinoyatning oldidan o'tmagandek, pinagini buzmay, avvalgiday kekkayib, dabdabador yashar edi. Uning so'zlarida davlatning vaziyati ko'rilmagan darajada mustahkam, xalq shod, yurt obod edi!

Husayn Boyqaro farmon bilan Xo'ja Afzalni vazir tayinladi. Navoiy, garchi rasmiy har qanday vazifa-mansabdan xoli bo'lsa ham, davlatning butunligi, yurtning tinchligi uchun tinmay ishlay boshladi. Nomusli odamlarning mansablarga tayinlanishiga yordam etdi. Nizomulmulk o'zining suyanch tog'larining bir-bir qulay boshlaganini sezib, yangi fitnalarni qo'zg'ashga tirishdi.

Husayn Boyqaro bir vaqtlar saltanat tojining beba-ho gavhari, deb maqtagan vaziridan shikoyat qila boshladi. Zotan, nabirasi uchun o'ch olish fikri gohogo-ho ilondek chaqib, butun vujudini zaharlar edi. Vazirning yangi fitnalari uning sabr kosasini to'ldirdi. U Navoiyni chaqirib, kengashdi.

Navoiy o'z fikrini bayon qilib, dedi:

— Davlat manfaati uchun lozim bo'lgan aqlli tadbirlarni men hamisha qabul qilurmen.

— Nima qilmoq kerak uni?

— Davlat taqdirini, xalqni vazirning makriga havola qilmoq jinoyatdir. Mansabdorlar o'z vazifalarini halol bajarsinlar, ammo davlatning ular qo'lida o'yinchoq bo'lishiga hech vaqt yo'l qo'ymaslik kerak. Hatto tojdor podshoh ham davlat va xalqni o'z kayf-lari uchun o'yinchoq qilmoqqa haqli emas! — javob berdi Navoiy.

— To'g'ri so'z, — dedi Husayn Boyqaro kasaldek inqillab. — Ammo siz juda yumshoq ko'ngilsiz. Men makkorlarning boshiga shunday dahshatli kunlarni solayki...

— Fitnachilarning ayblari tahqiqlanib, har kim o'z qilmishiga yarasha ko'rguligini ko'rsin. To'g'onbek

kabi razil maxluqlarni bu aziz tuproqlardan haydamoq kerak! — taklif etdi Navoiy.

— U shumqadamga harne jazo oz! — g‘azabdan ijirg‘anib dedi Husayn Boyqaro.

— Ayollar ham o‘z mavqelarini bilmog‘lari, o‘z hadlaridan oshmasliklari kerak. Ayol makrining bir uchquni siyosatda zo‘r yong‘inlar yaratishi mumkin! — har bir so‘zni atayin ta‘kidlab dedi Navoiy.

Husayn Boyqaro, bu xususda o‘zining ilojsizligini bo‘yniga olgan kabi, boshini quyi solib, jim qoldi.

Ertasi Nizomulmulk ham uning o‘g‘illari, uning tarafdorlaridan eng yiriklari shu yerda qamoqqa olin-di. To‘g‘onbekni, har qaerda bo‘lmasin, tutib qamamoq haqida har yoqqa farmonlar yuborildi.

Husayn Boyqaro Badiuzzamonning hujumini kutib, O‘langnishinda lashkar bilan qoldi. Navoiy Hirotga qaytdi. Xo‘ja Afzal bosh vazir bo‘ldi. Shoir tinch-roq ishlashga umidvor edi. Umr quyoshi muttasil og‘moqda. Gavda hassaga suyangan. Endi ot minmoqqa ham qiynaladi. Yozganda qo‘llari toladi. Lekin yozishi kerak bo‘lgan mavzular, fikrlar benihoyat ko‘p...

Navoiy bir necha oygina bir qadar sokin ishlay oldi. «Qush tili» ustida to‘lg‘in zavq bilan ishladi. Bir qarich bolalikda yurakka chuqur jo bo‘lgan orzu va muhabbat umr dovonlarini osharoq, ilk tozaligini yo‘qotmadi. Kamolga yetgan daraxt kabi, u muhabbat qarilikda mo‘l meva — fikrning yorqin gavharlarini qalamga quydi. Shoir erta-kech falsafiy fikrlarga berildi. Ilhomi, xayoli qalbidagi boy chamanlardan ajoyib, rango-rang guldastalar — chiroyli, shoirona hikoyalar to‘qidi. Atorning kitobida shoirona fikr va hisning yorqin cho‘g‘i bilan yongan misralarni yana chuqur-roq yaratarkan, ona tilining qudrati, go‘zalligiga qu-vondi.

Keksa Navoiyning kelajak bo‘g‘inlarga qoldirmoq istagan fikrlari ko‘p. Sovuq, mash‘um shamollar esmasdan ilgari, ilhom gulzoridan ko‘proq guldastalar terishga tirishadi. Faqat, nima qilsinki, mamlakatning siyosiy hayotida to‘xtovsiz zilzila!



Nizomulmulkning ikki o'g'lini zindon ichida, otasining ko'z o'ngida, jallod qilichdan o'tkazdi. So'ng Nizomulmulkni Amr Obodiyning eng keyingi ixtiroi bo'lgan qiynoqlar bilan qiynab, terisini shilib, somon tiqdilar. Sersavlat, ko'rkam sobiq vazirning somon tiqilgan gavdasi bir hafta qadar Hirot maydonida osilib yotdi.

Badiuzzamon Mirzoning tarafdorlarini Husayn Boyqaro zindonga otdi. Lekin hayotda osoyishtalik, baribir, yo'q. Podshoh xonadonidagi o'n yillardan buyon tomir yoygan adovat, fitna, zahar taratuvchi yog'ochday, havoni bo'g'moqda edi. O'g'lining qasosi bazonasi bilan Badiuzzamon qari, kasal otaga hujumdan qaytmaydi. Navoiy mamlakat va el taqdiriga ko'p va kar bo'lishga vijdoni azoblanadi. Poytaxtdan jang maydoniga yangi kuchlar yuborishi, shahzodalarga ham yozib, ularni adl-insofga chaqirishi kerak. Badiuzzamon endi ancha tajribali bo'lib qolgan. Uni to'la tor-mor qilish og'ir. Shikast esa, chekinadi, lekin oradan ko'p o'tmay, yana yangi hujumlarga o'tadi.

Navoiy Husayn Boyqaroni o'g'li bilan sulh tuzishga qistadi. Inqillab qolgan chol ko'ngach, shahzoda qoshiga bordi. Butun obro'si, butun mantiqi bilan uni otaga, davlatga qarshi tig' ko'tarishdan voz kechishga majbur etdi. Qish va yoz tinchdek o'tdi. Lekin kuzda boshqa o'g'illar, boshqa-boshqa shaharlarda isyon ko'tarishdi. Abulmuhsin Mirzo Marvda, Abulma'sum Mirzo Obivardda yong'in ochdilar. Otga mina olmaydigan chol ota o'z nuridiydalari bilan jang qilg'ali yana qo'shin tortdi. Lekin Astrobodda va o'zga viloyatlarda isyon olovi burqib, lovullash uchun kuchsiz bir yelni kutmoqda edi. Davlat mahkamalaridagi eski yaralar tuzalmagan; amaldorlarning ko'pi Majididdinning haqiqiy shogirdlari, merosxo'rlari edi. Ular elni talardi. Podshoh bir-biri bilan va ota bilan taxt talashgan axloqsiz, buzuqi o'g'illarining isyonini bosmoq uchun katta mamlakatning bir burchidan ikkinchi burchiga qo'shin tortib, xazinani sovuradi. Hadeb xalqdan mablag' yig'adi.

Navoiy butun umid-amallarining singanini sezdi. Suyukli ona tuproq uning oyoqlarini olovdek uza boshladi. Tarki vatan qilmoq, o'zga diyorlarga bosh olib ketmoq fikriga tushdi. Bu fikr asta-asta uning butun ruhini to'ldirdi. U fikran, xayolan o'z yurtining samosi, go'zal xiyobon va bog'lari, san'at obidalari, uzoqda ko'kni o'pgan tog'lari bilan xayrlasha boshladi. Bu narsa xuddi yurakni sug'urib olganday, alambaxsh edi. Lekin yuragini go'zal, muazzam xayollarning endigi siniqlari bilan to'ldirishdan ko'ra bu afzal edi.

O'g'li Abulmuhsin Mirzo bilan bir necha oydan buyon jang qilayotgan Husayn Boyqaroga vatanni tark etmoqqa qaror qilganligi haqida xat yozib, tabib Abdulhaydan Marvga berib yubordi. So'ng Xo'ja Afzalga uzun noma yozdi. Davlat odamlarining to'g'ri-haqqoniy ishlashlari kerakligi, qonunni hammadan yuqori bilib, hammaga baravar tadbiiq etishlari, xalqqa qanday munosabatda bo'lishlari, podshohdan qo'rqmay yoki unga xushomadgo'ylik etmay, uning xato va nuqsonlarini ochib berishlari zarurligini, juda ko'p siyosiy, axloqiy fikrlarini uqtirdi.

Hirot yana to'lqinlandi. Bu xabardan turli tabaqa odamlarning rangi oqardi. Sultonmurod boshliq mashhur olimlar, shoirlar, san'atkorlardan iborat qalin bir guruh hayajon bilan Navoiy huzuriga kirib keldi. Shoir bular vidolashmoq uchun kelgan bo'lsalar kerak, deb o'yladi. Hamma bilan ko'rishib, xushnudlik bilan o'tqazdi. O'zi esa, har vaqt mehmon qabul qilgandagi kabi, quyiroqda o'tirdi. O'rtada chuqur sukunat hukm surardi. Hamma ko'zlarda o'ksizlik dardi jilvalanardi.

— Do'stlarim, — dedi Navoiy mayin, g'amgin va mehribon tovush bilan, — ko'ngilga tarki vatan etmoq savdosi tushdi. Bu aziz tuproqlarning dilbar gullari bo'lgan siz kabi do'stlardan ayrilmoq, garchi benihoyat qiyin va alamangizdir, lekin g'urbat orzusiga itoat etdim. Balki qarilikda muqaddas yerlarni ko'rmoq nasib bo'lar... Tug'ilib o'sgan diyorda yashamoqlikka tob-toqat qolmadi. Ona vatanda ulug' orzularning,

maqsadlarning yolg'iz xarobasini ko'ramen. Bu faqirga oq yo'l tilangiz, yurtni sizga topshirdim, unga har vaqt sodiq bo'lingiz!

Ba'zilar og'ir xo'rsindi. Ba'zi ko'zlar namlandi, yana og'ir sukut cho'kdi. Chiroyli qafasdagi bir juft oq qumrining onda-sonda «hu-g'u»si sukunatni hazin, ma'nodor chayqatardi.

— Mir janoblari, — Sul-tonmurod qaddini rostlab, dadil so'zladi, — biz bu yerga vidolashmoq uchun kelmadik. Agar siz bilan vidolashmoqqa to'g'ri kelsa, biz balki butun Hirot, rub'i maskunning qaysi nuqtasini orzu etsangiz, u yerga qadar orqangizdan kuzatib boramiz... Davlatning butun asosoti qora quvvat changalida larzada ekan, muborak mamlakatning hamma burchagida isyon bo'ronlari quturar ekan, hayot va salomatlikning yolg'iz tayan-chi — siz. Tarki vatan etsangiz, qora quvvatlar yolg'iz bo'g'ovlaridan uzulur. Ulug' himoyachisidan ayrilgan el, tangri ko'rsatmasin, ne kunlarga qolur! Xurosonda inson fikri va ijodiyotning ajoyib mo'jiza asarlari bor, ham g'oyat ko'p. Ularning barchasini siz yaratdingiz. Bu kungi Xurosonning ravnaqi uchun tarixda hech kim siz kabi himmat va g'ayrat ko'rsatmagandir. Xizmatlaringizning ta'rifi uchun qalin jildlar yozmoq kerak bo'lur. Tarki vatan fikridan voz kechingiz. Ulug' ustod! Biz xalq nomidan, davlat nomidan, ularning otisi<sup>1</sup> nomidan qilgan iltimosimizni yerda qoldirmangiz.

Odamlar qadlarini rostlab, har chekkadan qisqagina, lekin samimiy so'z bilan Sul-tonmurodning fikrini quvvatladilar. Navoiyning eski qadrdoni qari shoir gapirdi.

— Do'stim, muqaddas yerlarga bormoqni orzu qilibsiz. Men aytamenki, muqaddas yerlarning shamollari bu tomonga esib kelib, sizning oyoq izlaringizdan bo'sa olsin... Alalxusus, yurtning falokatli kunlarida bu xayolni batamom yoddan chiqaring, do'stim!

Navoiy boshini ko'tardi, qo'llari bilan sallasini peshonadan sal yuqori siljitti. Hamma ko'zlar unga

<sup>1</sup> Kelajagi.

samimiy muhabbat va o'tinch bilan boqardi. O'ltirganlarning hammasi Xuroson ilm va san'atining nodir siymolari, jondan yaqin do'stlari edilar. Mana, Behzod va Muzahhib, Sultonali va Zayniddin, Sultonmurod va Mir Mirtoz, ustod Qulmuhammad va Shayx Noiy va hokazolar — bular zamonning ajoyib ustodlari edilar. Hatto bundagi odamlarning iste'dodlarini, qimmat va ahamiyatlarini hech bir yo'l bilan taqqoslab, darajalarga ayirish mumkin emasdi. Chunki hammalari kamolotning yorqin timsollari... Mana, hammadan yosh Xondamir. Uning ko'zlari shunday g'amgin: u ulug' tarixchi boboning o'limidan so'ng tamoman shoirga suyanib qolgan edi. Yana Hirotda qancha ma'naviy to'lg'in, ajoyib asrdoshlari bor. Hirotning har burchagida o'nlab, yuzlab hunar, kasb egalari borki, ularning qo'llari har kun, har soat aql, husn mo'jizalarini chiqaradilar. Ularning hammasi shoirning zamondoshlari; ularning ko'plarini shoir ilhomlantirgan emasmi? Azamat tarix yaratgan xalq! Uning faxri, g'ururi, sevgisi, g'oyasi bo'lgan xalq! To tirik ekan, uning g'amxo'ri bo'lmoq va jilla bo'lmasa, uning qayg'ularini o'rtoqlashmoq shoirning hayot aqidasi emasmi?

Navoiyning yuragini alamning po'lati chuqur tilib ketdi. Yig'lagusi keldi-yu, lekin o'zini tutib qoldi.

— Do'stlarim, — dedi u hazin, — xalq nomidan qilingan iltimosga bosh tovlamoq, e'tiroz etmoqqa qodir emasmen. Jamiki muqaddasotdan xalq so'zi aziz va ma'nodordir. Xalqim uchun orzularimdan emas, boshimdan ham kechishga hozirmen...

Majlis ahli benihoyat quvonch bilan tarqaldi.

## ***O'ttiz oltinchi bob***

### **I**

Arslonqulning bekorchi kuni edi. Chetlariga ingichka jiyak qadab, chevar xotini tikib bergan olacha to'nni kiyib, mahalladan guzarga chiqdi. U yoq-bu yoqqa razm solib, yasovullar va navkarlarning

yuzida favqulodda jiddiy tashvish, harakatlarida oshig'ichlik sezdi. «Bir nima bor», deb o'yladi ichida, ammo bir ozdan keyin qal'a tarafidan kelayotgan bir guruh tanishlarini uchratdi. Sipohilik qilmagan yigitlar va yoshi ulg'aygan odamlar jangga ketayotganday, mukammal qurollangan edilar. Yo'lni to'sib, ular bilan so'zlashdi. Podshoh Muzaffar Mirzoni Astroboddan haydagan Muhammad Muhsin Mirzoga qarshi yurishda bo'lganidan foydalanib, eski isyonchi Badiuzzamon to'ppa-to'g'ri Hirotga bostirib kelayotganini, shaharning mudofaasini Alisher Navoiy o'z ustiga olganini bildirdilar. Arslonqul ichida allaqanday kerilib, iljayib qo'ydi: «Navoiy lashkarboshi!» U qal'a tomonga ildam ketarkan, Valibek bilan birga Alisher Navoiy uzun, silliq hassasini yerga sekin-sekin qo'yib, qarshidan chiqib qoldi. Arslonqul, odati bo'yicha, yugurib bordi. Qo'l qovushtirib, salom berdi. Navoiy to'xtab qararkan, sertashvish yuziga tabassum yugurdi.

— Ha, yigit, — dedi Navoiy hassasiga tiralib, — ko'rinmaysen, ish-kuching qanday?

— Hammasi joyida, taqsir,— javob berdi Arslonqul,— muddaomni ayta qolay, taqsir, ruxsat bering, navkar bo'layin!

Navoiy xursandlik ifoda qilgan ko'zlari bilan Valibekka qaradi. Har vaqt zardali, achchiq so'z, dag'al-roq, lekin shu bilan baravar sodda, kamtar bek o'tkir ko'zlari bilan Arslonqulga boshdan-oyoq qarab qo'ydi.

— Yigitning sarasi yov bosganda bilinadi, — dedi Navoiy. — Yurt uchun qo'lingni ishga ur. Qal'aga yugur, aslaha ol!

Arslonqul hovliqib, halpillab uyga qaytdi. Eshikdan bosh suqqan hamon Dildorga: «Sandiqni och!» dedi.

— Nima gap? Sandiqdan nima olursiz?

— Qilich! Qilich kerak hozir... — javob berdi Arslonqul sabrsizlanib.

— Qilich? — noz bilan cho'zib so'radi Dildor. — Nima keragi bor sizga?

Arslonqul beixtiyor ijirg'anib, voqeani tushuntirdi. Keyin o'z-o'ziga degandek: «Dunyoga kelib, qilich

chopmagan odam, bilmaymen, ne desam bo'ladi», deb qo'ydi.

To'lishgan, orqa-beli tirsillagan go'zal gavdasini serkillatib, Dildor dahlizdan xona ichiga kirdi. Sandiqni ochib, qilichni eriga uzatdi. Arslonqul qilichni bir qarichga sug'urib, po'latiga tikildi-da, yana suqdi. Keyin uni chaqqonlik bilan taqib, xotiniga jilmayib qaradi.

— Yarashdi! — dedi eriga suqlanib qarab Dildor. — Ammo botirlar uchun qilichdan o'zga qurollar ham kerak.

— Albatta, qolganini qal'adan olurmen.

— Erkaklar baxtiyorlar... — ko'zlarini xayolchan suzib dedi Dildor ham aytmoqni mo'ljallagan so'zini til uchida qisib, orqaga burildi. — Tez boring, shahar tinch bo'lsin.

— Tashvishlanmanglar! — ko'zlari ola-zarak bo'lib tikilgan kampirga dedi Arslonqul. — Navoiy shaharga yovni kiritmas aslo!

— Hazrat Navoiy sarkarda bo'lsalar, erlar emas, ayollar ham jangga tayyor! — dedi Dildor.

— Jonim tasadduq bo'lsin u kishiga! — hayajonlanib dedi kampir.

Arslonqul keskin odimlari bilan ko'chaga otilarkan, maktabdan qaytgan o'g'ilchasi qiziqib, qilichga yopishdi, taqmoqchi bo'ldi. Arslonqul uning yumshoq lo'ppi yuzini barmoqlari bilan asta qisib, qal'aga chopdi. U yerda unga qalqon, yoy, o'q berdilar.

Shaharni Ko'hi Qofdek o'ragan muazzam qo'rg'on oldida qurolli, qurolsiz odamlar ko'p. Bularning ichida rangpar, noziknihol kosibbachchalar, Rustamqomat, o'mrovli azamatlar bo'lganidek, qaddi bukchaygan chollar ham bor edi. Arslonqul baland, bahaybat qo'rg'on tagida o'ziga zeb berib, bir oz kezdi. Biron narsa qilish kerakligini har kim sezsa-da, lekin nimadan boshlashni hech kim bilmasdi. Mana, yuvosh, chiroyli qora yo'rg'a otda Navoiy keldi, olomon o'rtasida to'xtadi. U sipohlarning bari podshoh bilan ketganligi, poytaxtni yolg'iz xalq yordami

bilan mudofaa qilish mumkinligini soʻzladi. Shu ondan boshlab qoʻrgʻonni mustahkamlashga bel bogʻlamoq kerakligini uqtirdi. Xalq har yoqdan qichqirib, suyukli shoirning, mehribon otaning fikrini maʼqulladi.

Xalq qoʻrgʻonni mustahkamlashga kirishdi. Olatasir ish boshlandi. Dastlab qoʻrgʻonning shikastlarini tuzatishga kirishildi. Tuproq qazigan, loy qorgan, tosh tashigan odamlarning soni yoʻq. Borgan sari yana xalq ortadi. Yosh-qari chuvvos koʻtarib ishlaydi. Navoiy goh otda, goh piyoda boʻlar, qilingan ishga diqqat bilan qarar, istehkomlar qurish ishida tajribali kishilar bilan soʻzlashardi. Qurama xalqning suron bilan, qoʻlni-qoʻlga tegizmay, ruhlanib ishlashidan zavqlangan kabi, uning tashvishli yuzida, soqollarida, butun vaziyatida mamnunlik jilvalanardi.

Bir hafta ichida shahar qoʻrgʻoni mudofaa uchun butunlay yaroqli, mustahkam holga keldi. Shunda Badiuzzamon qoʻshinlarining yaqinlashgani maʼlum boʻldi.

Bir hafta terlab-pishib ishlagan Arslonqul yuksak, kungurador qoʻrgʻon ustida, goʻyo eski qalʼa begiday, magʻrur, sekin, pishiq odim otib yurar, shahar tashqarisida, uzoqda, yorqin shuʼlalarda choʻmilgan koʻm-koʻk bogʻlar, xiyobonlar, ekinzorlar orasidan koʻzga ilgʻangan yoʻllarga diqqat bilan tikilib qoʻyardi...

Kechga yaqin uzoqda dushman otliqlari siyrak, gʻira-shira koʻrinib qoldi. Qoʻrgʻondagilar oʻq-yoylarini mahkam ushlab, hayajon bilan bir-birlariga koʻrsata boshladilar. Arslonqul bir qoʻli bilan qosh ustini pana qilib, oʻshshayib qaradi. Yupqa chang orasidan dam koʻrinib, dam gʻoyib boʻlgan qandaydir, qoʻgʻirchoqday otliqlarni payqadi. Qoʻrgʻon yoʻllaridan pastga yugurdi. Goʻyo undan boshqa hech kim Navoiyni ogohlantirishi mumkin emas kabi, olaqaroq boʻlib, shoirni qidirdi. Darvozai mulkka yaqin joyda, aftidan, ish koʻrgan bir guruh yigitlar bilan qurshalgan Navoiyni koʻrib, yugurdi. Faqat yaqinlashgach, nima

to'g'risidadir jiddiy gap bo'layotganini sezib, diqqat bilan quloq soldi.

— Astroboddagi qo'shin kelib yetguncha, — hasaga suyalib, sokin gapirardi Navoiy, — biz poytaxtning yolg'iz mudofaa chorasini ko'urmiz, biron yerdan dushmanga yo'l bermaslik kerak.

Alalxusus, darvozalarni yaxshi saqlamoq kerak. Badiuzzamon Mirzoning quvvatlarini yaxshi sinamasdan turib, qo'rg'on tashqarisida ro'y-rost jang qilmoqni man eturmiz. Tunlarda bedor bo'lmoq lozim. Xususan, bu kecha mudofi'lardan hech biri bir daqiqa ko'z yummasligi shart. Astrboddan qo'shin kelgach, Badiuzzamon ikki o't orasida qolib qovurilmaslik uchun, o'zi chekilib ketmoqqa majburiyat sezgay yoki, aks holda, toru mor bo'lur.

Shoir ko'zlarini past tushirdi. Uning yuzida bir zungina chuqur iztirob ko'lkasi jilvalandi. Keyin hazin tovush bilan davom etdi shoir:

— Ota-o'g'il bir-biriga qo'shin tortmog'i, bir xalqni ikki guruhga ayirib, nohaq qon to'kmog'i ulug' gunohdir. Bunday dardisar voqealar, behuda, bema'no harakatlar tezdin bartaraf bo'lib, sulh va salomatlik, ittifoq va muhabbat quyoshi el ko'kida abadiy barqaror bo'lsin!

Qurolli yigitlar chuqur o'ygaga berilib, g'amgin ko'zlarini yerga tikdilar. Arslonqul barmog'ini tishlagan holda, go'yo Navoiyni ilk marta ko'rgandek, tikildi-qoldi. Orqadan tanish ovozlarni eshitgach, hushyorlanib qayrildi: Sultonmurod bilan Zayniddinni ko'rdi. Salom berib, ko'rishdi. Zayniddin qini eski, ko'rimsiz bir qilichni taqib olgan edi. Arslonqul juda sevindi. Birga jang qilmoqni orzu qildi.

— O'zi jangga qanotlanur, — dedi do'stidan norozilanib Sultonmurod, — menga qilich emas, hatto pichoq taqmoqni ham man qilur. Bu qanday jabr?

— Yo'q, taqsir, — kulimsirab murojaat etdi Arslonqul, — siz bahuzur o'tirib yozing, qalin kitobni tezroq bitiring. Manavi dast panjalarning biri, —



qudratli qo‘llarini ko‘rsatib, davom etdi u, — siz janob uchun jang qilur!

Shu vaqtda tulpor otni o‘ynatib, qarchig‘ayday parvozga tayyor Valibek kelib qoldi. Qamchining kumush dastasi bilan otning qora yolini tarab-tarab, yigirmaga yaqin yigitni ayirdi. Ularga shaharning janubiga, Darvozai Feruzobodga ildam yetib borishni, odati bo‘yicha, zarda bilan buyurdi. Bu achchiq so‘zli, serzarda bekni yigitlar sevar edilar. Ular tizzalariga urilgan qilichlarini sharaqlatib yugura qolishdi. Keyin Valibek chaqchaygan o‘tkir ko‘zlarini qolgan yigitlarga, shu jumladan, Arslonqulga qadab, qamchi dastasi bilan yuqoriga, qo‘rg‘onga ishorat qildi.

Arslonqul qal‘a ustidan uzoqliklarga boqib, haligina quyosh nurlarida yuvinib, balqib, sokin, shirin uxlagan go‘zal bog‘larda, ekinzorlarda endi boshvoqsiz qoramollarning diringlab chopganini, tugun, qop, bo‘g‘cha orqalagan erkak, ayol, bola-chaqalarning chang ichida sarosima-sargardon yugurishganini ko‘rdi. Navoiyining so‘zlarini esladi. Xo‘mrayib, yerga qarab o‘ylab qoldi. Bir xalqni, bir yurtni dushman guruhlariga ayirib, jiqqamusht qilgan shahzodalarni la‘natladi: «Na otasini hurmat qilur, na eldan uyalur bu haromzodalar!»

Quyosh daraxtzorlarni tutaqtirib, minoralarning hilollarida, Hirot jomeining yetti azamat toqlarida, gumbazlarda, uzoqda otlarda yugurishgan yigitlarning dubulg‘alarida olov chaqnatib, ufqqa cho‘kdi. Oqshom qorasi asta-asta quyuyqlashdi. Ko‘kda yulduzlar chamani ochila bordi. Shahar ichi ham, qo‘rg‘on tashqarisi ham sokindek edi. Balandlikda shamollar sezilarli salqinlik bilan esardi. Kecha o‘zgan sayin uzoqdan o‘qtin-o‘qtin shovqin ko‘tarila boshladi. Bu yerda, qorong‘ilikda erigan yuzlarcha mudofi‘lar bir muddat jim qotib, quloqlarini kechanning qa‘riga dik-kaytirdilar. Vahimali tovushlar tingach, Arslonqul kulib, o‘zicha shivirlab qo‘yardi.

— Qanotlaring yo‘qki, bu Saddi Iskandardan uchib o‘tsalaring... Ichkari kirishning ilojini topmay, eshik

tagida miyovlagan mushukbachchadek, bu qal'a ostida hali ko'p sarson bo'lasenlar!

Bir ozdan keyin pastda, yaqinroqda qandaydir harakat, shovqin alomatlari sezgandek bo'ldi-da, Arslonqul diqqat bilan pastga quloq soldi. Lekin uning yonidagi mullabachchanamo ikki o'spirin zo'r berib forsiycha g'azallar o'qir, qichqirib talashur edilar.

— Bas, Hirot bulbullari! — o'dag'ayladi Arslonqul.— Jangda ham baytbozlik!

— Kimsiz, xo'sh, g'azal o'qimoq gunohmi? Sizga yoqmasa, qulog'ingizga paxta tiqib oling! — zarda bilan qichqirdi ulardan biri.

— Namoz ham vaqtida farz! — bo'sh kelmadi Arslonqul. Keyin tashqi harakat va shovqin haqidagi gumoni behuda ekaniga ishongach, yumshabroq gapirdi. — O'qimoq, talashmoq, albatta, qaymoqdek foydali narsa. Ammo, o'zimizcha, Navoiycha, turkona shirin-shirin, ma'noli baytlardan o'qinglar. Bu nima, forsiy bozor?!

Har ikki g'azalxon xaxolab kulib yuborishdi. Do'q bilan boshlangan aloqa do'stlikka aylandi... Oy ko'tarildi. Uning yumshoq nurlarida hamma narsa, hamma yoq qandaydir mayin, nozik, mudroq bir tus oldi. Uzoqdagi katta hovuzlar kumush lagandek yaltirab ko'rindi. Ayniqsa Bog'i Jahon oroning shimol tarafidagi juda katta hovuz va to'rt yonidagi to'rt ulug', serhasham imorat oy nurida shunday yaqin, shunday go'zal ko'rindiki, Arslonqul ancha vaqtgacha ko'zini uzmadi...

Yarim kechaga yaqin jilla uzoq bo'lmagan joydan birdan kuchli, vahimali shovqin ko'tarildi.

— Xuddi Darvozai Qipchoqni yov bosdi! — dedi mudofelardan biri.

Arslonqul diqqat bilan quloq solib: «To'g'ri! Yordamga bormoq kerak, bu yer — tinch», dedi. Bu yerga, Darvozai Mulkka eng yaqin, shaharning ayni shimol tarafida bo'lgan darvoza u edi. Hayqiriqlar tinmadi. Yuzboshidan ruxsat olib, Arslonqul o'n choqli yigit bilan qo'rg'on ustidan yordamga yugurdi. Faqat

bir ozdan keyin shovqin sekin-sekin pasayib, ayrim, qisqa, hayajonli qichqiriqlargina yangray boshladi.

G'avg'o qo'zg'algan joy Qipchoq darvozasidan ancha berida ekan. Bu yerga yetgach, Arslonqul qizg'in hayajon bilan hansirab bir-birlariga gap uqti-rayotgan odamlardan birining yelkasini turtib: «Ne voqea bo'ldi», deb so'radi.

— Nima, ma'lum... Bir lahza xunrezlik bo'ldi... — javob berdi qaramasdan u.

Arslonqul odamlarning qizg'in bahsiga quloq solib, birpasda voqeaning tafsilotini bilib oldi. Badiuz-zamonning yigitlaridan bir dastasi shoti qo'yib, balo-qazodek paydo bo'lgan. O'zlariga ilk uchragan bexabar mudofi'lardan bir nechasini qilich bilan chopib tashlaganlar. Shovqin ko'tarilgach, har yoq-dan mudofi'lar yig'ilib, ularning o'zlarini qirib tashla-ganlar...

— Hay, qarab yuringlar! Jasadlar... — kimdir qich-qirib qo'ydi.

Yer qondan sirg'anchiq edi. Nohaq qonni bosib, Arslonqulning ko'ngli buzilib ketdi. Chetlanib, qo'rg'on kungurasiga suyaldi.

Birdan hamma jim bo'lib, qo'rg'on kungurasiga chetlandi. Alisher Navoiy bilan Valibek paydo bo'ldi. Arslonqul shuursiz ravishda shoirga yaqinlashib, far-mon kutgandek, qo'l qovushtirdi. Navoiy hassasini o'zidan bir qadamcha nariga tirab, ikki qo'l bilan uni ushlab, qaddini bir oz oldinga egib, hammani ko'zdan kechirdi...

— Ne ishlar bo'ldi bu yerda?

— Tinchlik, taqsir! — javob berdi Arslonqul Navoiyga.

— Qonli g'avg'odan so'ng tinchlik, deng! — kino-yali ovoz bilan dedi Navoiy.

Ba'zilar beixtiyor kulib qo'yishdi. Arslonqul nima deyishini bilmay, uyalganday, atrofga alangladi. Mudofi'lardan biri voqeani tafsili bilan bayon qildi. Navoiy yigitlarga dalda beruvchi so'zlaridan keyin hushyor bo'lmoq kerakligini uqtirdi.

— Endi yaqinlashsalar, shoti-potisi bilan ag‘daramiz! — dedi mudofi‘lardan biri beparvolik bilan qo‘lini siltab.

— Ogoh bo‘lsangiz, ag‘darursiz, aks holda, bu azim tog‘dan sizni uloqtirurlar! — oy nurida kumushlangan soqollariga yoyilgan tabassum bilan dedi Navoiy.

Keyin jasadlarni ehtiyot bilan yig‘ishga buyurdi ham asta-asta yurib ketdi. Oydinda turli vaziyatda cho‘zilib yotgan qonli gavdalarga ko‘z tashlab, Valibekka qaradi, chuqur afsusni ifoda qilgan bir harakat bilan boshini tebratdi. Valibek keskinlik bilan dedi: «Uvollari shahzodaning bo‘yniga!»

Jasadlarni yig‘ishtira boshladilar. Yigirma qadamcha narida katta sallasining pechini yelkaga tushirgan, uzun to‘ni ustidan qilich taqqan qandaydir bir mullabachcha bir gavda yonida cho‘kkalab, birdan dardli qichqirdi: «Hey, ko‘hna falak, ey g‘addor qismat! Xurosonning bu bebaho gavharini zulm tig‘i bilan sindirib, tuproqqa qorishtirdingmi?!» Arslonqul ichida: «Mullaning saboqdoshi o‘lganga o‘xshaydi. Bu xalq o‘zi so‘zda lofchi bo‘ladi. Ular uchun bizlardan boshqa hamma — Xurosonning bebaho gavhari!» deb o‘yladi, keyin mullabachchaga taskin bermoq uchun bordi. Bir qo‘li bilan mullabachchanning yelkasini qoqib, jasad ustiga engashdi, to‘sindan yuragi yorilib ketganday, butun gavdasini sovuqlik va alam changalladi, ko‘kragiga urib cho‘kkaladi: bu Zayniddin edi! Bo‘ynidan va yelkasidan shikast yeb, qonga bo‘yalgan do‘stini Arslonqul quchoqladi, keng peshonasidan o‘pdi.

— Kimingiz? — so‘radi mullabachcha yig‘ili tovush bilan.

— Do‘stim, og‘am, yuragim... — kuygan, bo‘g‘ilgan ovoz bilan javob berdi Arslonqul.

— Men musiqiyda, shatranjda, xattotlikda bu kishining shogirdimen, — dedi mullabachcha.

— Bu yerga siz yotqizdingizmi? — so‘radi Arslonqul.

— Yo‘q, qaysi bir insofli odamning ishi bu.

Zayniddin chetda, qo‘rg‘on kungurasi ostida yotar, salom bergan kabi qo‘llari ko‘ksida, sallasi esa yostiqa qililib, bosh tagiga qo‘yilgan edi. Arslonqul jasadni pastga olib tushmoqchi bo‘ldi. Darrov choponini yechib, yerga yoydi. Keyin bir qo‘lini ikki oyoq tagidan, ikkinchi qo‘lini yelka ostidan o‘tkazdi. Bo‘yin yarmiga qadar kesilganidan, boshni avaylab tutishni mullabachchaga uqtirdi-da, endi yerdan uzmoqchi bo‘larkan, kimdir uning yoniga cho‘qqayib, hansirab dedi:

— Arslonqul, ozor bermang, juda ehtiyot bo‘ling!

Arslonqul cho‘chib qayrilib qarasa: qalpoqni bostirib kiygan, katta en chakmonli, qilich taqqan yigit.

— Sen? Dildor? Nima qilib yuribsen? — hovliqdi Arslonqul. Bu yigitning naydek mayin, xush-ohang, ayolcha tovushi mullabachchani ham ajablantirgan edi. Uning haqiqatan ayol ekanini bilgach, hayrati yana oshdi.

— Keyin so‘ylasharmiz... — javob berdi Dildor. — Olib tushing pastga. Bechora Zayniddin.

— Jang tomosha emas. Mana, bunday dahshatlari ham bo‘ladi! — dedi Arslonqul xotiniga piching qilib.

— O‘zim ham bilurmen... — o‘pkalanib dedi Dildor.

Uchovlari ehtiyot bilan ko‘tarib, choponga yotqizdilar-da, qo‘rg‘onning qorong‘i zinalaridan pastga olib tushdilar. Arslonqul bir tanishini arava topib kelishga yubordi. Mullabachcha Zayniddinning uyiga ketdi.

— Qani, so‘zlangiz, bahodirim! — dedi Arslonqul Zayniddinning boshida g‘amgin o‘tirgan xotiniga.

— Kecha bir nafas bo‘lsin, uyga kirib chiqmadingiz, — jiddiy gapira boshladi Dildor. — Shahar qurshovda qolibdi, degan xabarni eshitib, sizdan tashvishlandim, ba‘zi vaqtda haddan tashqari o‘zingizga ishonasiz. Xuftondan keyin uzoqdan vahimali tovushlar eshitildi. Yuragim hovliqdi. Sira uyqum kelmadi. Kampirni uxlatdim, rahmatli cholning chakmonini kiydim. Qalpoqni bostirib kiyib, sochimni yashirdim.

Ha, bundan avval Tangriberdi yasovulnikiga chiqib, uning qizidan siz uchun, deb qilich soʻradim. Yaxshi qilich berdi. Koʻrdingizmi, buni qarang, yolgʻiz qini qancha turadi? — qilichni koʻrsatib, davom etdi Dildor. — Qilichni taqib oldim. Toʻgʻri Qipchoq darvozasiga keldim. Bizga yaqin. Siz shu yerda boʻlsangiz kerak, deb oʻyladim. Odam qalin. Har kim oʻzi bilan ovora. Hech kim menga qiyo boqmasdi. Yigit — yigit! Qoʻrgʻonga chiqib, aylanib, har uchraganga zimdan bir qarab, qidirdim. Nihoyat, topolmasligimga ishon-dim. Bir vaqt mendan naq ellik-oltmish qari<sup>1</sup> narida birdan gʻavgʻo qoʻpdi. Men beixtiyor yugurdim. Yov yigitlari shoti qoʻyib chiqqan ekan. Beomon qirgʻin boʻlyapti. Shu vaqtda urushuvchilar orasida biri ta-nishdek koʻrindi. Egilib qarasam, Zayniddin ogʻa... Qilichimni sugʻurib, men ham toʻgʻri kelgan yovni urdim. Ishonmasangiz, mana tigʻimni koʻring: qon. Atrofdan yigitlar yetishib, bizga qalqon boʻlishdi. Boʻlmasa, meni ham, boshqalarni ham oʻldirardilar. Yov qirildi. Esimni yigʻib, u yoq-bu yoqqa qarasam, Zayniddin ogʻa qonga belanib yotibdi. Yuragim qona-di! Soʻzlasam, u kishidan sado chiqmaydi. Asta-asta chetga surib yotqizdim...

Dildor koʻziga yosh olib, jim boʻldi.

— Keyin? — xoʻrsinib soʻradi Arslonqul.

— Pastda, darvozada Navoiy hazratlari bilan Sul-tonmurod domlani ikki marta uzoqdan uchratgan edim, — davom etdi Dildor. — Balki, yana uchrab qolishar, deb yugurdim. Yoʻq, topolmadim... Yana boshqa oʻliklar bilan qoʻshib, biron joyga eltib tashla-masinlar, deb ildam qaytdim.

Qanday qilib Zayniddinning jasadini tepasidan chiqqanligini Arslonqul ham aytib berdi.

Tonga yaqin arava keldi. Mullabachcha koʻrpa keltirdi. Jasadni koʻrpaga oʻrab, avaylab aravaga sol-dilar. Arslonqul bolalardan xabar olmoq uchun Dildorni tezda uyga joʻnashga qistadi, qiyom chogʻida

---

<sup>1</sup> Taxminan, bir quloch qadar uzunlik.

Zayniddinning uyiga kelib, oilasiga ta'ziya bildirishi kerakligini uqtirdi-da, o'zi boshini quyi solib, arava yonida ketdi.

Marhumning qari onasi, singlisi va yaqinda bir ko'p mojarolardan so'ng uylandigi xotini — shoira, qo'shiqchi go'zal ayol — eshikda essiz, hushsiz holda qarshi oldilar.

Kun chiqqan vaqtda Zayniddinning keng hovlisi do'stlar, yaqinlar, aqrabolar bilan to'la edi. Peshinda Navoiy boshliq qalin xalq uning janozasiga qatnashdi. Sultonmurod qayg'udan butunlay majolsizlangan edi. Uni qabristonga Arslonqul suyab-qo'ltiqlab olib bordi. Zayniddinni uning bobosi — mashhur tib olimining sag'anasi yoniga ko'mdilar. Sultonmurod tunamoq uchun do'stining qabri boshida qoldi.

\* \* \*

Badiuzzamonning o'ng qo'li bo'lgan qari bahodir Zulnun Arg'unbek Hirotni zabt etish uchun qattiq kurashardi. Qo'rg'on olishda qo'llanadigan hamma yo'llarni, choralarni qilib ko'rdi. Hamma urinishlari mudofi'larning jasur qarshiliklariga uchrab, natijasiz bitdi. Keyin-keyin mudofi'lar o'z kuchlariga ishonadigan bo'lib qoldilar. Payt poylab, darvozalardan chiqib, xiyla uzoqlashar, dushmanga qisqa, lekin o'tkir zarbalar berib, yana darvoza ichiga qaytar edilar. Bunday chiqishlarda Arslonqul, albatta, ishtirok qilar, aksar vaqt o'zi tashabbuskor bo'lardi.

Bir kun shahar tashqarisida bo'lgan ancha davomli to'qinishda Arslonqul qandaydir bir bekozodaning peshonasi oq qashqa, ajoyib tulpor otini o'lja tushirib oldi. G'urur bilan darvozadan minib kirib, maydonda gijinglab yurarkan, darvoza tomonga asta kelayotgan Navoiyni ko'rdi. Otdan tushib, yetaklab, shoirning qoshiga bordi:

— Salom! — bir qo'lini ko'ksiga qo'ydi Arslonqul.

Navoiy salomga javob qaytardi, keyin egar-jabduqlari bezakli, nasldor otga qarab so'radi.

— Kimning oti?

— Taqsir, sizniki,— javob berdi iljayib Arslonqul.—  
Birinci o'ljamni sizga tuhfa qilmoqchimen...

Navoiy soqolini serkillatib, ko'zlarini qisib kuldi.

— O'ljang o'zingga qulluq bo'lsin, — dedi shoir. —  
Qanday jang qilding, jang qoidasini bilasenmi?

— Birinci navbatda shijoat kerak, — javob berdi  
Arslonqul, — keyin yo'l-yo'rig'ini bilish ham katta  
foyda berarkan. Mana, hozir biz o'ttiz kishi Badiuz-  
zamonning ellik-oltmish yigitini obdan xirpaladik.

— Qanday qilib? — so'radi Navoiy qiziqib.

— Men bir pora yigitlarni olib, yovning orqasiga  
o'ta bildim, biz bir bog'ning devorlarini pana qilib  
o'tdik — ko'rmay qoldilar. Ikki yoqdan o'qni uza-  
verdik, qani, qo'zg'alib ko'rsin-chi! Xiyla nohaq qon  
to'kildi... Achindim...

— Badanga chiqqan yomon yarani tabiblar kesib  
tashlaydilar, — dedi Navoiy. — O'zga ilojimiz yo'q.  
Badanning chirigan joyini kesib, ruhni salomat  
saqlamoq kerak... Og'ir kunlarga qoldik, yigit!

Badiuzzamon lashkari poytaxtni qirq kun qurshab  
yotdi. Shahar mudofi'lari qirq kecha-kunduz sabot va  
g'ayrat, fidokorlik ko'rsatdilar. Arslonqul ham biron  
kun qal'ani tashlamadi... Ba'zan kechalari Dildor  
kelar, ikkovlari qo'rg'on ustida besh darvozali katta  
shaharni asta-asta aylanib chiqardilar. Dushmanning  
kutilmagan hujumini, qayerda bo'lmasin, daf etmoqqa  
tirishardilar. Nihoyat, Astroboddan Husayn Boyqaro  
qo'shin surib kelayotgani ma'lum bo'lgach, Badiuz-  
zamon shahardan uzoqlashib ketdi.

Shahar mudofi'larining bir qismi Husayn Boyqaro  
lashkariga borib qo'shildi. Bular ichida Arslonqul ham  
bor edi. Ota, o'g'il o'rtasida ochiq dalada to'qnashuv-  
lar davom etdi.

Arslonqulni Valibek bir dasta navkar bilan atrofdan  
qo'shin uchun yem-xashak yig'ishga yubordi. Qishloq-  
ma-qishloq kezib, yigitlar bir-birlaridan ayrila bosh-  
ladilar. Ba'zilar u bahona bilan o'z qishloqlariga  
borib, oilalarining holidan xabar olish uchun ketdilar.  
Ba'zilarga tayyorlangan xashakni olib bormoq uchun



qishloqlarda bir kun-yarim kun qolishga to'g'ri keldi. Arslonqul yolg'iz o'zi uzoq tumanlargacha bordi. Bir vaqtlar qishloq bolasi bo'lgan bu yigit dehqonlarning fe'l-huyini yaxshi bilganidan, ular bilan tez topishib ketdi. Har ikki tomon uchun og'ir bo'lmagan shartlar bilan ancha yem-xashak yig'ib yubordi va o'zi ham-maning ko'zini o'ynatadigan tulpor otda dalada kezdi, unda-munda qo'noq bo'ldi. Uch-to'rt kundan keyin qo'shinga qaytmoqchi bo'lib, yo'lga tushdi. Poyonsiz sahroda tanho o'zi otini yeldirib borarkan, o'zidan o'ng yoqda qarshi tomonga tez ketayotgan bir otliqning qorasi ko'rindi. Oldin e'tibor bermadi. Bir ozdan keyin otliq balandlikka ko'tarilgach, tikilib, uni o'zi bilan birga chiqqan yigitlardan biriga juda o'xshatdi; otga qamchi berib, u tomon yugurdi. Ko'p o'tmas-danoq yo'lovchining qarshisidan kesib chiqdi.

— Yo'l bo'lsin, To'g'onbek, qaerga? — qichqirdi Arslonqul.

To'g'onbek xo'mrayib, ko'pirgan otini to'xtatdi-da, yigitga qattiq tikildi. Keyin qayerda ko'rgan ekanman, deganday qalin labini burib qo'ydi.

— Boyqaro Mirzoning yigitimusen yo shahzodalardan birining? — so'radi To'g'onbek to'nglik bilan.

— Navoiyning yigitimen.

— Ne deydi o'zi, — kichik ko'zlarini yigitga qadadi To'g'onbek. Keyin ayyorcha kulib, davom etdi. — Yur, yaxshi yigit, Marvga boramiz. Shahzoda Abulmuhsin Mirzoga bo'ysunib, qiziq ishlar qilamiz. Baxting bo'lsa, ulug' kishi bo'lib ketarsen.

— Sen o'zing nima bo'lding? Podshohning buyrug'idan qo'rqib, sargandonga o'xshaysen. Xo'sh, Muzaffar Mirzo qo'llab-qo'ltiqlamadimi? Marvga borib, yaqinda bosilgan isyonni yana ko'tarmoqchimisen? Ah, badbaxt! — jirkanib dedi Arslonqul.

G'azabdan To'g'onbekning kichik ko'zi yonib ketdi. Qo'lida kumush dasta qamchi titradi.

— Mal'un, sen bu sahroda yirtqichlarga yem bo'lmoqchisen! — dedi titragan ovoz bilan To'g'onbek.

— Ko‘ramiz! — bahodirona qaddini rostlab, dadil gapirdi Arslonqul. — Qilgan zulming uchun men hozir sendan o‘ch olamen!

— Qanday zulm, gapir, it o‘g‘li! — qamchini ko‘tardi To‘g‘onbek. — Kim bilan so‘zlashasen? Had-dingni bil, qulbachcha!

— Dildor degan qizni bir vaqtlar olib qochib, kim-larga tortiq qilding? Ko‘z oldimda dehqonlarni sava-madingmi? Tovoningdan bo‘yninggacha gunoh.

To‘g‘onbek yigitning vaziyatida oviga chang sol-moqchi bo‘lgan burgutni ko‘rdi. Endi uning achchi-g‘ini yumshatishga qaror qildi:

— Bo‘htonlama! Yaxshilikcha xayrlash-da, yo‘linga ket. O‘ch olmoq unday oson narsa emas.

— Gap tamom. Qilichingni sug‘ur, bek. Maydon ko‘rgan odamsen-a!

To‘g‘onbek bir nafas atrofga alangladi. Keyin yomon achchiq tirjaydi. Dakkam-dukkam mo‘ylabla-rini chimtib, Arslonqulning qo‘lida yarqiragan qilich-ga nazar tashladi.

— Rostmi? — qilichiga qo‘l uzatdi To‘g‘onbek.

— Hazilni yomon ko‘ramen, — hansirab javob berdi Arslonqul.

Ikkisida ham qalqon yo‘q edi. To‘g‘onbek char-chagan otini qattiq siltab, keyinga tisladi va chaqqon-lik bilan yigitning chap yoniga sakrab o‘tdi-da, bo‘ynini mo‘ljallab qilich ko‘targan hamon Arslonqul kuchli, charchamagan otni bir siltab, oldinga sakratdi. Bo‘sh ketgan hamlaning zarbidan To‘g‘onbek buk-chayib, ot yolini ushlab qoldi. Yana otni siltab, chaqqonlik bilan yigitning orqasiga o‘tishga tirishdi. Arslonqul otni nariga sakratib, keyin birdan keskin burib, go‘yo dushmanni ot bilan yanchgudek, tik otil-di-da, qattiq zarb bilan To‘g‘onbekning boshiga qilich soldi. U yerga og‘ir qulab tushdi. Oti hurkib, shataloq otib qochdi. Arslonqul yerga sakrab, yana bir necha qilich soldi. Keyin uning qonga belangan gavdasiga enkaydi. Xanjarini sug‘urib, boshini kesib olib ket-moqni ko‘zladi. Ammo, naq, kesish oldida, aynib qol-

di. Qo'lini siltab, xanjarni qiniga tiqdi. To'g'onbekning oltin, kumush va qimmatbaho toshlar bilan bezalgan qilichi, xanjari, kamarini oldi. Otga minib, uzoqda dam o't chimtib, dam chiroyli boshini ko'tarib tevarakka jovdiragan qizil jiyron tomon yurdi. Bevosh ot uni ancha ovora qilib, nihoyat, chizimchasi oyoqlariga o'rashgandan so'ng, taslim bo'ldi.

Arslonqul yo'lda tunab, ertasi choshgoh vaqtida lashkargohga yetib keldi. Yetovdagi otni tanimagan odam oz edi. Darrov Arslonqulni qurshab oldilar. Arslonqul otdan tushmasdanoq mojaroni so'zlab berdi. Yigitlar ko'proq uning o'ljasiga havaslandilar. O'lja otni silab-siypab, har kim o'z bilganicha, uning ta'rifini qila boshladi.

Arslonqul o'z to'dasi turgan chodirga bordi. Zarang tovoqdagi umochni katta qoshiq bilan xo'r-xo'r ichib, goh bir zumgina sheriklariga qarar, mojaroning tafsilotidan biron gap aytib, yana osharkan, birov Navoiyning chaqirayotganini xabar qildi. Arslonqul uch-to'rt qoshiqni ustma-ust ichib, o'rnidan turdi. Ustki lab oroyishi enlikkina tarashlangan mo'ylabini, qop-qora, qisqa, dag'al soqolini qudratli dast panja bilan artirdi-da, yirik, hapqat odimlar bilan jo'nadi.

Atrofdagi harakat va shovqinlarga tamom beparvo kabi, o'z chodirida nimadir yozib o'tirgan chol dildorlik bilan qarshiladi.

— Gapi, sendan qiziq ishlar sodir bo'lmoqda, — dedi Navoiy ulug'vor kulimsirab.

Arslonqul sarguzashtning o'tkir, rangli tomonlarini kamtarlik bilan yashirishga tirishib, oddiy bir voqeani hikoya qilganday aytib berdi.

— Boshi qani? — so'radi Navoiy.

Arslonqul ko'zlarini katta ochdi.

— Ishonmaysizmi? Oti, qilichi, kamari dalil bo'la olmaydimi? Boshi qursin...

— Ishonamiz... — dedi va kulib davom etdi Navoiy. — Ammo senga uning boshi qadar oltin in'om qilmoq kerak edi. Zolimning boshi uchun oltin bermoq g'oyat savobli ish.

— Bu tomoni hech bir xotiramga kelmabdi-da, — chayqalib qo‘ydi Arslonqul.

— Boshqa jihatdan hissasini chiqaramiz, — dedi Navoiy qat‘iyat bilan. — Sen qolgan umringni sipohilikka baxsh et. Biz xoqonga arz etib, seni yuzboshi yoki mingboshi tayin ettirurmiz. Sen xalq o‘g‘lisen. Inshoollo, xalqqa foydali ishlar qilursen, navkarlarni yaxshi parvarish etib, yurtning osoyishtaligiga g‘ayrat va himmatingni aslo ayamassen. Bu fikrimni ma‘qul toparsenmi?

— Otang bolasi bo‘lma, el bolasi bo‘l, deganlar. Elga xizmat qilmoq burchimizdir, — Navoiyning ishonchi va iltifotidan ta‘sirlanib, javob berdi Arslonqul.

— Rahmat, — dedi Navoiy, — Vatan va uning salomatligi uchun har bir jon har lahza o‘zini qurbon etmoqqa hozir turmog‘i kerak.

— Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, taqdir! — dedi ham qulluq qilib tashqari chiqdi Arslonqul.

## II

Ota-bola orasidagi bema‘ni urush, adovat kun sari Navoiyning yuragini chuqurroq ezardi. Har ikki tomon qat‘iy, uzil-kesil janglarga botinmasdi. Goh-goh shiddatli to‘qinishlar ro‘y berar, lekin ular urush taqdirini hal qilishdan ojiz edi. Urush uzoq davom etib, inson hayotini oz-oz qamrab, oxirda «Tomatoma ko‘l bo‘lar», deganday ko‘p qonlar behuda to‘kilishi mumkin edi. Yoki Badiuzzamon mamlakatning bir burchiga chekilib, urush-janjal qidirib yurganlar orasida yangi kuchlar to‘plab, yana harakat boshlab, dahshatli falokatlar keltirishi mumkin edi. Bu andisha Navoiyni qattiq tashvishga soldi, nihoyat, baloning oldini olishga qaror berdi.

Husayn Boyqaro qoshiga kirib, vaziyatni tushuntirdi. Isyonchi valiahdi bilan mustahkam sulh barpo etish kerakligini talab qildi. O‘g‘illarning yuragida muhabbat va sadoqat, insof va nomusdan biron uchqun qolmaganiga qattiq ishongan podshoh dastlab

bu taklifga e'tibor bermagandek qaradi. Oylarcha davom etgan qonli janglardan keyin shikast yeb, sulh taklif etgan, hatto tiz cho'kib, o'z gunohining kechirilishini tilagan o'g'illar, sal o'tmay, uning orqasidan yangi isyon ko'tarar, u poytaxtga yetib, bir kun orom olmasdan, qo'shinni orqaga surar edi. Qari, kasal Husayn Boyqaro bir o'g'ilni bo'ysundirib yengil so'lish olguncha, ikkinchisining ustiga yurish qilishga majbur bo'lardi. Lekin muttasil safarlar bezdirgan, charchatgan edi. Bundan tashqari, Astroboddami, Balxdami, Marvdami, Mashhaddami biron joyda isyonkor o'g'illarning yoki hali xanjarini yeng uchida yashirib turgan boshqa bir o'g'ilning isyonini kutar edi. Navoiy sulh shartlarini ham so'zlab, o'z talabida qat'iy turgach, podshoh ko'nishga majbur bo'ldi.

Qari, bedarmon shoirni qo'ltiqlab otga mindirdilar. Quvonchli, minnatdor ko'zlar bu sulh elchisini, go'yo yangi oynning oltin o'rog'ini ilk ko'rib, baxt va salomatlik orzu qilganlar kabi, uzoq vaqt kuzatib qoldilar. Navoiy haftalarcha jang maydoni bo'lgan dalada ketardi. Onda-sonda o'qlar, uzuq-yuluq ot asboblari yotardi. O'tlarning ustida nohaq to'kilgan qonlar qurigan lola bargiday ko'zga tashlanardi. Shoir qoshlarini chimirdi, peshonadagi chiziqlar yana quyuyqlashdi: «Dushman ikki shohdan bir-biriga yaqin va do'st ikki darvesh yaxshi», deb bir vaqtlar aytgan misralari yodiga tushdi. Ot taqir tepalarga chiqishi bilan pastda Badiuzzamonning qarorgohi — chodirlar, g'ivillagan odamlar, chopishgan otlar ko'zga chalindi. Asta chayqalib, yo'rg'aning boshini tortibroq yuraverdi. Qarorgohga yaqinlasharkan, tanishlar yugurishdi. Badiuzzamonning ulug'lari ham kelishdi. Shahzoda-ning hamsuhbatlaridan shoir mavlono Zamoniyy ham qulluq qildi.

— Mirzoning qoshiga eltinglar meni, — dedi otдан tushib, nafasini rostlab Navoiy.

Odamlar: «Marhamat, marhamat», deb ehtirom bilan yo'l boshladilar. Mana, Badiuzzamon, qari, sodda, so'zi va harakati telbaroq bahodir Zulnun

Arg'unbek ham boshqa yaqinlari bilan chodiridan chiqib, sho'irni qarshi oldi. U, hamma vaqtdagidek, zavq va noziklik bilan kiyingan, avvalgidek chiroyli, xushmuomala edi. Hurmat bilan elchini o'zining juda serhasham xos chodiriga taklif qildi.

Navoiy shahzodaning iltimosi bilan hammadan yuqori o'tirdi. Zulnun Arg'unbek va boshqa yuqori mansabdorlar har qaysilari o'z mavqelariga yarasha joy oldilar. Yaqindagi boshqa bir chodirdan yoqimli musiqiy va ayollarning go'zal qo'shiqlari eshitilardi. Navoiy sehrli sadolarga beixtiyor berildi. Lekin ko'p o'tmasdan, sadolar birdan kesildi.

— Shahzoda, men sulh barpo etmoq kayfiyatida keldim, — Badiuzzamonga murojaat etdi Navoiy.

— Bu kalima hammamiz uchun bebaho edi, — dedi Badiuzzamon jiddiy va sokin, — ammo zoti oliylariga ma'lum bo'lgan ba'zi hodisalar bu kalimani batamom ma'nosiz etib qo'ydi...

— Xato qilasiz, shahzoda, — ishonch bilan dedi Navoiy, — mamlakat, davlat, el-ulus sulh va osoyish-talikka nihoyat tashna ekan, hayot va salomatlik yolg'iz shu kalimaga bog'liq ekan, siz qaysi mantiq bilan aksini isbot qila olursiz?

Navoiy davom etdi:

— Aqli salim sohibi uchun bu imkonsizdir. Men aminmenki, siz jaholat tig'ini sindirmasangiz, birodarlaringiz nomussizlik botqog'iga kun sayin chuqurroq botaversalar, bu muborak yurtda hayot o'chog'i sovri-lur. Maqsadlaringiz nima? Biz sizlardan nima kutgan edik? Alhol, nimalar ko'rmoqdamiz? Xatolarni tuzat-mas ekansiz, yurt sizni aslo kechirmas! Inilaringiz siz-dan namuna olmoqdalar. Siz falokat boshchisi bo'lib qoldingiz!

Badiuzzamonning yuzi oqarib ketdi. Xush mo'y-labi titradi, labini tishlab, yerga qaradi. Qari sardor Zulnun Arg'unbek og'ir so'lish oldi.

— O'g'limning motami dilimga chuqur jo bo'lgan... — dedi qayg'ulanib Badiuzzamon.

— Qo'llarini go'dak qoni bilan bo'yaganlarni, kim-

lar bo'lmasin, hech vaqt oqlamaymen, kechirmaymen. Har vaqt ularga la'nat o'qiymen! — dedi Navoiy hayajonlanib. — Ammo xalq va davlat aybdor emas. Buni yaxshi fahmlamoq kerak, axir...

Badiuzzamon yana otadan ko'rgan haqsizliklar to'g'risida shikoyat qildi. Navoiy yurt, xalq oldida, tarix oldida shaxsiy ginalarning hech qimmatini yo'qligini isbot etmoqqa tirishdi. Haqiqiy insonning fazilati haqida gapirib, dedi:

— Inson uchun toj kiymoq shart emas, balki nomus ham vijdon sohibi bo'lmoq, jamiyat oldida o'z mas'uliyatini sezmoq shart!

Badiuzzamon sukut qildi. Lekin ko'zlari bilan Zulnun Arg'unga nimadir ishorat etdi.

— Mir janoblarning so'zlari ma'qul... — dedi majlisga qarab qari sarkarda, sodda, dag'al tovush bilan. — Ammo ne asosda sulh yasalmog'i kerak — bu jihatni bilsak, yaxshi bo'lur edi.

— Shartlarni ham keltirganmen, — majlisni ko'zlari bilan sinab dedi Navoiy. — Bu shartlar asosida aslo buzilmas, hamisha barqaror bir sulh tuzmog'imiz kerak.

— Bilsak mumkinmi? — so'radi Badiuzzamon.

Navoiy Balx viloyati ham Amudaryodan to Murg'obgacha bo'lgan yerlarni idora etmoq huquqi shahzodaga berilishi mumkinligini so'zladi.

Badiuzzamon maslahatlashmoq uchun Zulnun Arg'un ham bir necha yaqinlarini olib, tashqari chiqib ketdi. Navoiy shahzodaning shoiri bo'lgan mavlono Zamoniylar bilan suhbatlashib o'tirdi. Mavlono Zamoniylar so'z orasida sobiq qozi Shahobiddin haqida gapirdi. O'zini Badiuzzamon tarafdori ko'rsatib, bu yerga qochib kelgan va shahzoda tomonidan katta iltifot ko'rgan qozi, aslida, Muzaffar Mirzoning josusi ekani ham kuni kecha yashirin hujjatlar bilan qo'lga tushgani, bukun erta bilan dorga osilgani haqida gapirdi. Navoiy jinoyatkorlarning taqdiri hamisha razil, sharmanda, mash'um bir ravishda bitajagini katta ishonch bilan bayon qildi.

Badiuzzamon kirib, sulh shartlarini qabul etganini bildirdi. Bu kundan boshlab har qanday dushmanlik harakatlaridan voz kechishini shoirga qat'iy va'da etdi. Ziyofatdan keyin shartnoma tuzilib, imzo chekildi.

Ikkinchi kun erta bilan Badiuzzamon o'z lashkarini ko'chirishga boshlarkan, Navoiy Husayn Boyqaro qarorgohiga sulh olib keldi. Sulh xabari bu yerda hammaning yuragini favqulodda quvonch bilan to'ldirdi.

Kechga yaqin shoir Hirotga kirdi. Yo'l-yo'lakay butun xalq uni tabriklab, o'z muhabbati va minnatdorligini namoyish etdi.

Mana, «Unsiya». She'r va fikr o'chog'i. Olimlar, shoirlar, rassomlar, naqqoshlar, cholg'uchilarning ilhom bulog'i... Hirotning, butun Xurosonning, Movarounnahrning ko'rki, iftixori, qalbi va vijdoni. Yana do'stlar, yaqinlar kelishib, shoirning muhabbati bilan ruhlarini gullatib ketdilar.

Osmonning tiniq zangorisida to'lin oy nur o'tovini tikkan. Sanoqsiz yulduzlarning muazzam, ulug'vor ohangida kecha jimgina pinakka ketgan. Yupqa oy nuriga o'ralgan bog'chalar kuzning salqin nafasidan yengil titraydi. Xonalarda chiroqlar yoqig'liq. Mulozimlar, xizmatkor ahli, har vaqt bo'lib turadigan mehmonlar, yaqinlar biron narsa bilan mashg'ullar. Sohib Doro qalamni siyohdonga botirib, ko'zlarini yumib, qofiya qidiradi. Xizmati va sadoqati bilan bu dargohda soqolini oqartirgan Shayx Bahlul o'z xo'jasining devonini o'qiydi. Bir xonada shatranj havaskorlari qizg'in o'yin bilan band. Bir xonada hisob-kitobga epchil mulozimlar shoirning kundalik xayri ehsonlari uchun sarf bo'lgan mablag'larini daf-targa yozib, hisoblaydilar. Hovlida otboqar sodda xalq qo'shig'ini kuylab, asta kezadi.

Shoir o'z xonasida tanho o'tiradi. Nechundir umr quyoshining shomga kirayotganini u keyingi vaqtlarda, yolg'iz qolarkan, ko'proq o'ylay boshladi. O'lim do'stlarni bir-bir chaqirmoqda. Hasan Ardasher qani? Pir Muammoiy, jonajon Muhammad Said pahlavon qani? Jomiy qani? Bularni o'ylarkan, qalbida dard



mavjlanadi. Bu — o‘limdan qo‘rqqanidan emas, balki hali qilmoqchi bo‘lgan ishlarning, yozilmagan mavzularning ko‘pligidan... So‘nggi yillarning tashvihlari, iztiroblari, mehnat oltmishdan oshgan shoirni oyoqdan chalayozgan edi. U taqdirning rang-barang jilvalarini ko‘rdi. Nash‘asini ham, qayg‘usini ham ayni donishmandona tur va qarash bilan kechirdi:

*Gahi topdim falakdin notavonlig‘,  
Gahi ko‘rdim zamondin komronlig‘.  
Base isig‘, sovuq ko‘rdim zamonda,  
Base achchig‘, chuchuk totdim jahonda.*

Shoir o‘z hayotida yaratgan ilmiy, madaniy muassasalarning yashashini, xayri ehsonlarning o‘zidan keyin ham kattaroq miqyosda davom etishini orzu qildi. Hozir uni «Vaqfnoma» yozish fikri egallab oldi. Madrasalarning, «Shifoia»ning, xonaqohning ta‘mini, talabalarning nafaqasi, mudarrisning maoshi uchun lozim mablag‘lar, muhtojlarga beriladigan kiyim-kechak, bayramlarda xalqqa tortiladigan taomlar, yetim-esir, kambag‘allarga kundalik xayr qozonlari va boshqa in‘omlar, ehsonlar uchun qancha qo‘y, qancha ho‘kiz berish, halimga qancha bug‘doy solish, qancha botmon undan non yopish, qancha pud halvo, qand-nabot va hokazo kerakligini batafsil ko‘rsatgan bir kitobcha — «Vaqfnoma» yozmoqqa qaror qildi.

Lekin oldin «Muhokamat ul-lug‘atayn»ni bitirish kerak. Ona tilida «Xamsa» yaratdi, «Chor devon» yaratdi. Ulug‘ fors shoirlari kabi, she‘rning hamma shakllarida qalamni jasur surdi. She‘rning, turkiy sozning sadolari bilan o‘z tilining qudratini, husnini, boyligini isbot qildi. Endi buni mantiq bilan, ilmiy usulda isbot etish kerak. Butun Sharqqa dong chiqargan fors tili bilan xo‘rlangan ona tilini kurash maydoniga olib kirish kerak. Qani, qaysi pahlavon to‘laqonliroq ekan!

Shoir daricha yonida, shamga yaqin o‘tirib, qalamni qog‘ozlar betida qitirlatdi. Ikki til — o‘zbek va fors tillari — ikki pahlavon. Ular goh mantiqning gurzisini ko‘taradilar, goh husn va salobatlarini na-

moyish qiladilar. Goh qo‘yinlaridan dur va gavharlarni hovuchlab-hovuchlab sohadilar, goh xush sado-likni ishga soladilar.

Bu ajoyib, bemisl kurashni tomosha qilg‘ali Firdavsiydan boshlab mavlono Jomiyga qadar hamma ulug‘ fors shoirlari kelgan edilar. Har qaysilari o‘z obro‘larining yuksak poyasida yarqirab o‘tirardilar. Lekin ular tillarining kurashidan noxushlana boshladilar: fors pahlavoni qay boyligi bilan chiranmasin, o‘zbek botiri uni qizartirib qo‘yadi!

Navoiyning qalam tutgan qo‘li toldi. U pahlavonlarning kurashiga qiziqsinib, uzoq o‘tirib qolganini sezmedi. Keyin kurashning davomini ertaga qoldirib, o‘rnidan turdi. O‘z pahlavonining qudratiga ishongan, uni qat‘iy g‘alaba bilan olqishlab, kurash maydonidan qo‘llarida ko‘tarib, ardoqlagali kelgan ulug‘ azamat fors shoirlari ranglari o‘chgan, allanechuk bo‘shashgan bir holda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldilar. Ularning orasida faqat marhum mavlono Jomiy o‘zbek pahlavoniga ofarin o‘qib, uning yelkasini qoqdi.

Navoiy o‘rnidan turdi. Yuragida shodlik dengizi chayqalardi: ona tilining g‘alabasi uning g‘alabasi, uning suygan xalqining, tarixining g‘alabasi edi. Shoir shamni o‘chirdi. Hassani qo‘lga olib, yotoq uyga kirmoq uchun, uvushgan oyoqlari bilan asta-asta yurib, tashqari chiqdi. Salqin toza havo yuzlariga yoqimli erdi. Cheksizlikda muazzam ohang bilan oqqan yulduzlarning nafasi, bog‘chadagi daraxtlarning shitirlashi, yarim kechada ip yigirgan jafokash kampir charxining «g‘uv-g‘uvi», uzoqda karvon tevalari qo‘ng‘irog‘ining vazmin ohangi — barchasi shoirning ko‘ngliga bir xilda yaqin, tanish, ma‘nodor tuyular, barchasini u chuqur sevar edi...

### ***O‘ttiz yettinchi bob***

Izg‘irinli ochiq kunda ertalab Sul-tonmurod tamom bitgan qalin og‘ir kitobni — «Jome ul-funun»<sup>1</sup>ni shohi ro‘molga o‘rab, qo‘ltiqqa oldi-da, uydan chiqdi.

<sup>1</sup> Fanlar to‘plami.

Tafakkur bilan uyqusiz kechirilgan sanoqsiz tunlarning mashaqqati, turli davrlarda, turli tillarda minglarcha kitoblardagi odamzod fikrining yaratuvchi aql bilan saralangan, mantiqning o'tkir tig'i bilan tarashlangan qiymatdor gavharlari bu qalin kitobda edi. Sultonmurodning avvalgi asarlari uning obro'yiga sabab bo'lgan esa, bu — uning g'ururi edi. Bu xazinani haqiqiy xazinadorga, maslahati, ilhomi, moddiy ta'minoti bilan ko'maklashgan Navoiyga taqdim etmoq uchun olib bormoqda edi. Olim ishonch bilan boshini ko'targan, yuragida, bahor toshqinlariday, kuylab oqqan shodlikning musiqiysi bilan yengillanib, loy qotmagan yo'llarda go'yo uchgandek ketardi.

«Unsiya»ga kirish bilan olim bu dargohning mulozim va xizmatkor ahlining bo'zday oqargan jonsiz yuzlarini, egilgan qadlarini ko'rib, oyoqlari yerga mixlangandek, qotib qoldi. Go'yo kimdir bu odamlarni o'lim jazosiga buyurgan: ular hozir hayotdan ko'z yummoq uchun o'z navbatlarini kutib turadilar!

— Ne bo'ldi? — so'radi Sultonmurod anqayib.

— Mir janoblari xasta yotibdilar, — majolsiz ovoz bilan javob berdi bir xizmatkor.

Tubsiz bir o'pqnlikdan sakragandek, olimning yuragi «shuv» etib ketdi. Navoiyning xonasiga yugurdi. Katta xonada Hirotning tib ilmida nodir odamlaridan bo'lgan o'ndan ortiq tabibni, Darveshalini, vazir Xo'ja Afzalni, yana shoirning ba'zi yaqinlarini ko'rdi. Xasta uyning to'rida to'shakda yotardi. Ustiga xitoyi atlas ko'rpa tashlangan.

Sultonmurod oyoq uchida yurib, kitobni shoirning tepasidagi tokchaga qo'ydi. Keyin xastaning par yostiqa botgan boshiga go'yo sajda qilgan kabi, engashdi. Hayhot! Butun fikr olamining ifodasi bilan boquvchi dono ko'zlar yumuq. Yuzda sezilar-sezilmas iztirob. Sultonmurodning ko'zlaridan qizg'in buloq toshdi. Uzoq tikildi: «Ulug' ustod, men qalamga olgan kitobimni bitirdim!» — ko'proq engashib, dard bilan gapirdi olim. Xastaning ko'zlari bir zungina majolsiz ochildi. Lablari qimirlab, nimadir so'zladi. Sultonmurod eshitmagan bo'lsa ham, ko'zlarining

ma'nosidan, lablarining harakatidan shoirning quvonganini bildi.

Xo'ja Afzal olimga yaqinlashib, unga taskin berishga tirishib, yupantiruvchi so'zlar aytdi. Tabiblar oyoq uchida dam eshikka chiqib, dam qaytib shivirlashib, o'zaro kengashar edilar. Aksari yana qon olishni maslahat berardi. Kasali sakta'ni davolash uchun eski yunon tabiblari va Abu Ali ibn Sinodan tortib bukungi tabiblar qo'llaydigan har bir chorani ko'rishga, har bir doruni tayyorlab, tadbiiq etishga g'ayrat qilishardi.

Sultonmurod tabiblarga kengash tariqida ba'zi mulohazalarini so'zlab, ularning ishiga xalaqit bermaslik uchun tashqari chiqdi; xonalardan biriga kirdi. Bunda Osifiy, Suhayliy, Hofiz Yoriy, Mir Mirtoz, G'iyosiddin Dehdor va hokazo shoir, olim, san'atkorlar namli, qizargan ko'zlarini o'spirin Xondamirga tikkan edilar. Sultonmurod bir chekkaga o'tirdi.

— Hoqon sahibqironning istiqboliga chiqqan odamlar, — hikoya qilardi ko'rganlarini Xondamir, — Foryon rabotida qaror topdilar. Kechani bu yerda o'tkazdik. Tong otganda, Navoiy hazratlari rabot devorlariga, eshiklariga musofirlar yozib ketgan har nav yozuvlarni o'qimoqqa boshladilar. Eng avval shoirning ko'zlari shu qit'aga tushdi:

*Dar in daqiqa bimondand jumlai hukamo,  
Ki odamiy chi kunad boqazoi kun-fayakun,  
Frug'i nabz chi shud munharif zi junbishi asl,  
Baloi ajz furu raft poi Aflotun,  
Salohi tab'i chi sui fasod ro'y nihad,  
Bimonad behuda dar dasti Bu Ali qonun<sup>2</sup>.*

— Alisher janoblari bu qit'ani ma'qulladilar. Men buni shu onda yozib oldim. Bir oz fursatdan so'ng bar-chamiz Malikshoh rabotiga qarab yurdik. Ro'-

---

<sup>1</sup> Birpasda sezgi va harakatning to'xtab qolishi.

<sup>2</sup> M a' n o s i: Bunday nozik ishda, ya'ni qazo yetganda, barcha hukamo ojiz qoldilarkim, odam tangri xohishi bilan bo'lgan qazoga qarshi nima qila oladi? Qachonki, tomir charog'i asl harakatdan o'chib qolsa, Aflotunning ham oyog'i ojizlik botqog'iga botib qoladi. Tabiatning salomatligi buzuv tomonga qarab yuzlangach. Abu Ali ibn Sino qonunlarining hammasi bekorchi bo'lib qoladi.

baro'dan sohibqironning mahofalari<sup>1</sup> ko'rindi. Shu asnoda taqdir iqtizosi bilan Alisher janoblarning hol-larida g'arib tag'ayyur ro'y berdi. Xo'ja Shahobiddin Abdulloni chaqirib: «Holimdan ogoh bo'lingiz, ahvolim og'ir», dedilar. Bir nafasdan so'ng otdan tushdilar, ammo istiqbol uchun ilgari yurmoqdan o'jiz qoldilar. Darhol Xo'ja Shahobiddin bilan mavlono Jaloliddin Qosim qo'ltiqladilar. Bu kasali sakta Mirni takror harakat va so'zlash qobiliyatidan mahrum qildi. Ko'ngillarda qayg'u jo'sh urdi. Aziz xastani mahofaga yotqizib, Hirot sari yurdik, hakimlar yo'lda qon oldilar. Lekin foyda bermadi. Yarim kechada bu mu-borak manzilga yetib keldik... Ey voh, baqosiz falak!

Xondamir ko'z yoshini artib, jim bo'ldi. Hammaning boshi bukik, ko'ngli siniq edi. Xondamir hikoyasidan keyin hech kim og'iz ochmadi. Hamma dardli, og'ir sukutga botdi.

Rangida qon qolmagan odamlar ustma-ust kelardi. Tabiblar benihoyat g'ayrat ko'rsatar, yangi-yangilari kelib, davolashga urinardilar.

*Bu dard ilaki o'larmen maraz chu zohir emas,  
Tabiblar bu baloga ne chora qilg'aylar?*

Shoir o'z kasali haqida to'g'ri aytgan ekan shekilli, kasal soat sayin og'irlashardi. Ertasi, yakshanba kuni, tong chog'ida shoir hayot bilan vidolashdi.

Bukun — hijriy 906-yil, 12-jumodiloxir — tarixda ulug' motam kuni bo'ldi. Butun Hirot hasrat bilan uyg'ondi. Qora xabar yuraklarga singdi, dardning olovida ko'mir bo'lib yondi. Hamma o'z boshida o'lim ko'lkasini sezar, iqror qilar, lekin ulug' shoir uchun buni hatto faraz etishga ham botinmas edi shekilli! Har bir hirotlik yolg'iz o'z yuragida emas, butun shaharda, butun mamlakatda qandaydir ezuvchi bo'shliq sezardi. Go'yo hayotga ruh bag'ishlagan, narsalarga ma'no bergan nimadir g'oyib bo'ldi. Katta bog'lar, xiyobonlar, madrasalar, jomelar, maydonlar, ko'chalar xalq bilan lim-lim. Lekin butun shahar qan-

---

<sup>1</sup> Podshohning aravasi ma'nosida.

daydir bo'sh va o'ksiz... Qarilarning ko'rkam soqollaridan tomchilar yumalaydi. Go'daklar favqulodda jiddiylashgan. Ular sovuq havoda burunlaridan ko'ra, ko'proq yeng uchi bilan ko'zlarini artadilar. O'z tarixida ne-ne ulug' zotlarni ko'mgan Hirot hech vaqt, hech qaysi motamda, bukungi motamdagidek, qayg'u girdobida chirpinmagan.

«Unsiya»ning ichi lim-lim odam. Yuzlab olim, yuzlab shoir, yuzlab san'atkor, shayxlar, sadrlar, mansabdorlar, hunarmandlar, dehqonlar kirib, shoir bilan vidolashar, ho'ngrab-ho'ngrab chiqardilar. Ulardan keyin yana yangi to'lqin oqardi...

Darveshalini dard bukib qo'yan. Qadr don mulozimlar Shayx Bahlul, Sohib Doro, Mahmud Toybo'diy va boshqalar esa hushdan ayrilganlar. Ayriliq, muhabbat, ko'z yoshi to'g'risida sayragan shoirlar bu so'zlarning haqiqiy, ulug' ma'nosiga endi yetganlar.

Mana, Behzod. Shoirning, o'z ustozining boshida uning yig'isi, o'lmas asarlari kabi, chuqur, ma'nodor. Mana, kechagi sodda bahodir, do'lvor yigit — bukun ming navkarning boshlig'i Arslonqul. U bulutday o'kirib yig'laydi. Shoirlar bilan bir qatorda qahrli jangovar beklar yig'laydi...

Erkaklardan bo'shalgan xonaga ayollar kira boshladi. Yuzlab saroy xonimlari yig'lab kelishdi. Bulardan so'ng kelgan yuzlab xalq ayollari — qizlar, kelinlar, kampirlar — tim qora kiyinib, faryod bilan havoni zirrillatdilar.

Sultonmurod sokin, ulug'vor yotgan ulug' o'likni so'ng daf'a quchoqlab chiqarkan, dahlizda xotinlar orasida Dildorga ko'zi tushdi — timqora ko'ylak, nozik qoshlariga qadar tushgan timqora ro'mol. Qora, shahlo ko'zlaridan duv-duv yosh quyuladi. Sultonmurod og'ir xo'rsindi, go'yo ichida bir olov tutaqdi: «Yig'lang, singlim, yig'lang! Bukun butun bir umr uchun to'yib yig'lamagan ko'zlar abadiyan ko'r bo'lur!» dedi Dildorga u. «Oh, taqsirjon, yig'i kuchsiz. Kuymoq, kul bo'lmoq kerak!» dedi Dildor bo'g'ilgan ovoz bilan.

Shoirlar, she'r havaskorlari, olimlar, hatto tabib-larga qadar, qayg'uni, Navoiyga bo'lgan muhabbatla-

rini she'rga quymoqqa boshladilar. Ikki, to'rt, olti, sakkiz misralari ta'rixlar sanoqsiz paydo bo'la boshladi. Parcha-parcha qog'ozlar qo'ldan-qo'lga o'tib, ko'chirilib, yangi ilhomlarni to'liqlantirdi. Har bir so'zidan yig'i, faryod ko'tarilgan, qayg'u barq urgan ajoyib marsiyalar yaratildi. Shoirning motamini she'rgullari bezadi.

Shohilarga o'ralgan tobutni shoir do'stlari, jangovar beklar, Hirotning a'yon va akobirlari ko'tarib chiqdilar. Xalqning faryodi ko'kni titratdi. Ulug' motamga beparvo qolishni istamagandek, osmondan bulutlar ham duv-duv tomchilar quydilar... Tobut xalq dengizi ustida chayqalib, minglarcha qo'llarda uzatilib, «Unsiya»dan birpasda uzoqlashib ketdi. Har kim bu tobutga, jilla bo'lmasa, barmoq uchini tegizib qolishni baxt, insoniy burch deb bilar edi.

O'n minglarcha qo'ldan o'tgan tobut Iydgohda to'xtadi. Motam marosimiga muvofiq, dabdaba bilan Husayn Boyqaro hozir bo'ldi. Bu yerda janoza o'qildi. Tobut yana xalq to'liqini ustida suzdi. Shoirni, o'zi soldirgan go'zal binolardan biri — Jomeda, abadiy qarori uchun ilgari yasab qo'ygan maskaniga yotqizdilar... Ulug' qabrning ustida Hirot yig'ladi. Jomening azamat peshtoqlari, samo kabi gumbazlari iztirobli sadolardan titrardi.

Oqshomdagina ko'chalarda, bog' va maydonlarda odam to'liqini siyraklandi. Sultonmurod va Arslonqul boshlarini quyi solib, xiyobon bo'ylab, asta ketardilar. Quyosh olovlangan bulutlarga botib, ufqqa sho'ng'ir edi. Xiyobon oxirida Sultonmurod xo'shlashmoq uchun to'xtadi. Qizarib shishgan ko'zlari bilan Arslonqulga qaradi.

— Aziz otamizning fikrini, yo'lini himoya qilmoq uchun, — dedi Sultonmurod bo'g'iq va hazin ovoz bilan, — qilichingizni mahkam tuting, bahodir!

— Men tig'im bilan, — qilichining sopini qisib, dedi Arslonqul, — siz o'z ilmingiz bilan xalqqa, yurtga xizmat qilaylik!

Olim bilan botirning qo'llari sevgi-sadoqatning kuchi va samimiyligi bilan mahkam birlashdi.

## OYBEKNING SHOH ASARI

Insoniyat tarixida shunday porloq siymolar borki, ular to'g'risida asar yozish baxti har kimga ham nasib etavermaydi.

Alisher Navoiydan keyin kechgan besh asr ichida buyuk o'zbek shoiri haqida Oybekdek roman yozish huquqini qozongan boshqa birorta yozuvchi bo'lmasa kerak. Ehtimol, parvardigor Navoiyni — bu buyuk dahoni oradan besh yuz yil o'tgach, yangitdan kashf etib, o'zbek xalqiga va umumjahon madaniyatiga barhayot insondek qaytarish uchun Oybekni yaratgandir.

Oybek singari komil insonlar haqida «tug'ildi» so'zini qo'llash — ularni inson va ijodkor sifatida to'la anglamaslik; zero, bunday nurli siymolarni parvardigor o'zining xush soatlarida ijod qiladi, yaratadi.

Navoiy va Oybek... Bu ikki insonni besh asrlik davr daryosi bir-biridan ajratib turibdi. Lekin Oybek umr bo'yi davom etgan ijodiy mehnati tufayli u bilan yonma-yon turish, u sochgan nurlarni o'ziga yig'ib-jamlab, so'ng aks ettirish baxtiga musharraf bo'lgan. Oybek butun umri davomida ana shu besh asrlik daryoni suzib o'tib, Navoiy yashagan sohilga yaqinlashib borgan.

Odatda tog'kezar o'zining mashaqqatli yo'lini yaqin cho'qqilarni zabt etishdan boshlaydi. Xuddi shunga o'xshash yozuvchi ham ijod yo'lini tanish kishilar, qadrdon joylar va o'zi guvoh bo'lgan voqealarni tasvir etish bilan adabiyotga kirib keladi. Oybek adabiyot maydonida tetapoya qilgan kezlarda Navoiy cho'qqisi qalin qor qatlamlari orasidan maftunkor qiralarini bugungidek ko'rsatmas, quyosh ham bu cho'qqining gavhar toshlariga urilib, harir nurlarini o'zgacha bir joziba bilan taratmas edi. Lekin o'sha vaqtdayoq Oybek bu cho'qqi sari sekin-asta, ammo aniq maqsad bilan yaqinlashib bordi; undan turli davrlar va mafkuralar qoldirgan qor qatlamlarini kurab tashlab, uning muazzam bo'y-bastini porlatib yubordi.

Navoiy va uning ijodini o'rganish bugun kimlargadir Oybekka qadar boshlangan yumush bo'lib ko'rinishi mumkin. Darhaqiqat, ustoz Oybekka qadar ham mumtoz shoirlar Navoiy asarlaridan saboq olib, uning ijodiy «sir»lariga oshno bo'lishga intilganlar; navoiyxonlar ulug' shoir asarlariga mehr tuyib, ular mag'zini chaqmoqchi bo'lganlar va shundan bir olam zavq-shavq olganlar. XX asrning 20-yillariga kelib esa, Navoiy yashagan davrni, Navoiy hayoti va ijodini ilmiy asosda o'rganish ishlari boshlandi. Shu davrda kimlardir Navoiy haqida dastlabki maqolalarini yozdilar. Ko'p o'tmay, bu dastlabki, oz sonli navoiyshunoslar safiga Oybek ham kirib keldi va navoiyshunoslik u tufayli o'zbek fani va madaniyatining mo'ttabar bir sohasiga aylandi.

Xullas, Navoiy bugun o'zbek xalqi uchun milliy iftixor manbaiga, adabiy, madaniy va ma'rifiy kamolot timsoliga aylangan, xalqimiz ulug' bobokalonning bebaho merosiga oshno bo'lib, uning nomini sevib e'zozlar ekan, bunda, zamondoshlarimiz orasida, birinchi navbatda, mavlono Oybekning xizmatlari beqiyosdir.



Oybek ilk bor Navoiy nomini «eski maktab»da eshitdi. Shunda Navoiy she'riyati gulshanidan esgan ufor butun umrga uning dimog'ida qoldi. So'ng, ulg'aygani sari, bu sehrli olamning, quyosh galaktikasi singari, turli rangdagi sayyoralaridan iborat ekanligini sezdi va bu har bir «sayyora»ni alohida-alohida kashf etish, shundan keyingina ularni o'zaro aloqada o'rganish kerakligini tushundi. Nihoyat, bu «galaktika»ni yaratgan va idora qilayotgan dahoning hayotini va u yashagan davrni o'rganishga kirishdi.

Hozir Oybek uy-muzeyida «Navoiy haqidagi ilmiy ishlarga tayyorgarlik», «Sharq hayoti va adabiyotiga oid tadqiqotlar ustidagi ish» deb sarlavhalangan bir necha daftar saqlanadi. Agar bu daftarlarni varaqlasangiz, yosh Oybekning «Zafarnoma» (Yazdiy), «Rashahot ayn ul-hayot» (Koshifiy), «Nuzhat ul-qulub» (Qazviniy), «Matlab ut-tolibin» (Muhammad Tolib) singari adabiy-badiiy va esse tarzidagi asarlardan tortib, ibn Batuta, Klavixo, Abdurazzoq Samarqandiy, Vosifiy, Mirxond, Bobur, Xondamir, Bartold kabi olim va sayyohlarning ilmiy-tarixiy asarlari va kundaliklariga qadar bo'lgan ulkan adabiyotni sinchkovlik bilan o'rganiganiga ishonch hosil qilamiz. Ana shu manbalardan misqolab terilgan katta va kichik ma'lumotlar o'zaro birlashib, uning shuurida, xayolida Navoiy siymosini yaratdi, bu siymoni qurshagan tarixiy muhit ham Oybekning ko'z o'ngida haqiqiy va jonli qirralar kasb etdi. Adib shu tarzda tirik Navoiyini yorqin tasavvur qila oladigan, uning Hirot bo'ylab do'stlari qurshovida harakat etayotganini «ko'radigan», goh mayin, goh qahrli, ammo hamisha salobatli ovozi «eshitadigan» bo'ldi.

«Navoiy she'riyati va Navoiy obrazi, hamisha kuchli bir quyosh kabi, ko'nglimni tortar edi, — deb yozgan edi Oybek «Navoiy» romanini qanday yozdim?» degan maqolasida. — O'z asarlarimda shoir Navoiy obrazini yaratishga zo'r mayl, orzu-istagim bor edi.

Taxminan 1936—1937-yillar kichik poema — «Navoiy»ni yozdim. Lekin bu mashq Navoiy obrazini yaratishda chizilgan faqat bir eskiz edi. Keyin 1942-yil buyuk polotnoga o'tib, «Navoiy» romanini yozdim. Buning uchun, albatta, Navoiyning barcha asarlari, Navoiy yashagan davrning tarixi, u davrning sotsial qiyofasi, u davr jamiyatining xarakteri, urf-odati, xulq-atvori bilan tanishishga to'g'ri keldi. Ko'p tarixiy faktlar, materiallarni yig'dim, ularni tahlil etib, mag'zini chaqish uchun chuqur his etishga, o'ylashga boshladim. Bu ishga shu qadar g'arq bo'lgan edimki, romanning ish plani qog'ozda yo'q edi. U mening ko'nglimda, yodimda edi, butun borlig'imni band etgan edi. Yursam-tursam hamisha Navoiyini o'ylar edim. Uning ma'nodor, aqlli ko'zlari, xushfe'l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl, pok, ulug' qalbini his etardim, ko'z o'ngimda ko'rardim...»

Bundan besh yuz yil ilgari yashab o'tgan insonni bunday aniq va yaqqol «ko'rish» uchun uzoq yillar mobaynida tarixiy davrni, Navoiy hayoti va ijodini o'rganishning o'zigina kifoya qilmaydi. Buning uchun yana yozuvchi o'z qalbining «antennalari»ni o'sha davrga, muhitga, o'z xayolini zabt etgan o'sha siymoga sozlay olishi, uning nafasini tuyishi ham lozim. Shundagina olis asrlarda ro'y bergan voqealar g'ayritabiiy bir kuch — san'at yordamida, Oybek singari yozuvchilar tufayli, bizning ko'z oldimizda butun jozibasi bilan gavdalanadi.

Navoiy, Oybek nazdida, asl, pok, ulug' qalbli inson. XV asrdagi Xurosonnigina emas, balki butun o'zbek xalqi tarixini quyosh kabi yoritib turuvchi daho. U o'z zamoni va zamondoshlaridan bir necha asrlarga ilg'orlab ketgan va ularni kelajak sari, adolatli, ma'rifatli, saodatli zamonlar sari yetaklagan siymo. Biz quyoshning bolalik kezlarini bilmaganimiz

va tasavvur etmaganimiz kabi, Oybek ham roman yozilgan vaqtda Navoiyning bolalik va yigitlik fasliga nazar tashlashni o'ziga munosib ko'rmadi. Shuning uchun ham u Navoiy siymosini asar sahifalariga bir oz keyin, kitobxon Sultonmurod va Zayniddinlar bilan birga uni sog'ina boshlagan paytda, tantanali ravishda olib kiradi. Bu, nazariy kitoblarda qayd etilmagan badiiy priyomdir. Yozuvchi shu priyom vositasida Navoiy kitobxon nazarida ko'tarmoqchi va asar boshidanoq shoirning qasddan ideallashtirilgan siymosiga uni ko'niktirmoqchi bo'ladi.

Shubhasiz, bu bejiz emas.

Masala shundaki, o'zbek xalqining qadimgi davrdan shu paytgacha kechgan tarixiga nazar tashlasak, Yassaviy, Beruniy, Forobiy, al-Xorazmiy, at-Termiziy, Naqshband singari o'nlab farzandlari ko'z oldimizdan birmabir o'tadi. Ularning har biri jahon ilm-fani, adabiy-badiiy va diniy madaniyati tarixida bir umrga qolgan siymolardir. Ammo Alisher Navoiy mutlaqo o'zgacha hodisa.

Agar avvalgi siymolar bilan ular yashagan tarixiy sharoitni o'zaro qiyolasak, ular o'rtasidagi dahshatli ziddiyat alangasi hozir ham olisdan, asrlar osha ko'ringandek bo'ladi. Navoiy bilan u yashagan tarixiy davr o'rtasida ham ma'lum ziddiyatni yo'q, deb bo'lmaydi. Ammo uni shu davrda tarix sahnasiga chiqqan temuriylar yaratgan. Agar Navoiy bir asr oldin yo keyin yashaganida, temuriylar davrida oliy nuqtasiga erishgan o'zbek davlatchiligi, ilm-fani va madaniyatining hozirgidek buyuk tajassumi bo'lmasligi mumkin edi. U temuriylar davrining farzandi sifatida tarixiy voqelikka ulkan vazifalar nuqtai nazaridan qaray bildi: Amir Temur va boshqa temuriyzodalari bajarishi mumkin bo'lmagan ishni amalga oshirdi — turkiy tilning adabiy til sifatida shakllanishi va fors tili bilan dahshatli raqobatda omon qolishi va hatto g'olib chiqishida mislsiz darajada katta rol o'ynadi; o'zbek xalqining yangi adabiyotiga asos solib, uning jahondagi yuksak madaniyatli xalqlar qatoridan o'rin olishiga bebaho hissa qo'shdi; donishmand inson va mutafakkir shoir sifatida davlat ishlariga aralashib, mamlakatni obod va farovon qilish, adolatli davlat tuzumini barpo etish uchun kurashdi.

Navoiy shu va boshqa jihatlari bilan Yassaviydan ham, Beruniydan ham, Ulug'bekdan ham keskin ajralib turadi.

Oybek ana shunday buyuk tarixiy shaxs obrazini yaratishni o'ziga maqsad qilib oldi va bunga, shak-shubhasiz erishdi.

Roman ustidagi ish 1940-yilda boshlangan. Bu davrda adib dastlabki yirik nasriy asari — «Qutlug' qon» romanini endigina yozib tugatgan edi. Safsataboz tanqidchilar va ularning homiylari tomonidan «yo'lovchi shoirlar» jumlasiga mansub etilgan Oybek bu asarida ana shu xunuk yorliqdan xalos bo'lish niyatida Yo'lchini — oddiy xalq vakilini bosh qahramon sifatida tasvirlagan edi. Lekin u asar ustida ishlab, Yo'lchi obrazining ich-ichiga kirib borar ekan, uning o'z xalqini nurli manzillar sari yetaklay olmasligiga amin bo'ldi; xalq bunday g'arib va uzoqni ko'ra bilmaydigan rahnamolarga muhtoj emasligini tushundi. Shu davrda O'zbekistonda hukm surgan tarixiy vaziyat ham, qariyb romanda tasvirlanganidek, mujmal va noxush edi: o'lkani Yo'lchi singari katta bilim va tajribaga ega bo'lmagan kishilar — yo'qsil sinf vakillari boshqarmoqda edilar.

Oybek ikkinchi romaniga Yo'lchining har tomonlama aksi bo'lgan shaxsni — donishmand inson, buyuk shoir va zabardast davlat arbobini bosh qahramon qilib tanladi. Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan keyin chinakam dohiylar, sarkardalar, turli sohalarning sardorlariga ehtiyoj kuchaygan bir mahalda Oybek tanlagan yo'lning to'g'riligi ayon bo'ldi.

Shuning uchun — davr «Navoiy» romanining tezroq yozib tugallanishini taqozo etganligi uchun ham adib 1942-yili — urushning eng qizg'in pal-lasida asar ustida ayniqsa katta zavq va ilhom bilan ishladi.

Agar yo'lingiz adib yashagan manzilga — Oybek uy-muzeyiga tushsa, undagi kichik, ammo shinamgina bir xonaga ham kiring. Oybek 1942-yil-ning qahraton qishida, kerosin lampaning xira shu'lasida, qishki liboslarga burkangan holda o'tirib, shu yerda «Navoiy» romanini yozib tugatgan. Adibning maskovlik rus birodari shoir Nikolay Tixonov har safar Toshkentga kelganida, shu «Sharq xonasi»ni ziyorat qilishni sevgan va yor-do'stlariga Oybekning shu xonada, xontaxta atrofida ko'rpachada o'tirib, ijod qilganini zavq-shavq bilan so'ylab bergan.

Oybek 1940-yili Ishchilar shaharchasidagi uyini ovrupe uslubida qura boshlagan esa-da, unda kichik bir hujraning ham bo'lishini istadi. U olis va yaqin ajdodlari singari, shu hujrada o'tirib, mutolaa qildi, asarlar yozdi. Xontaxta ustidagi kerosin lampaning g'ira-shira nurida XV asrda yashab o'tgan qahramonlarini ko'rgandek va ular bilan suhbat qurgandek bo'ldi. Shu uydagi ota-bobolardan qolgan ko'hna asbob va anjomlar orqali ajdod-larining hayot tarzini ko'z oldiga keltirdi. Eski Toshkentning egri-bugri ko'chalaridan o'tib, yor-do'stlarining naqshin eshiklaridagi temir halqalar yo zulfnlarni qoqqanida, Hirotning sershovqin hayotini yanada aniq tasavvur etdi.

Roman yozilgan kezlarda sobiq sovetlar mamlakatining dushman bosib olgan shaharlaridan ko'plab yozuvchilar, san'atkorlar, olimlar O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan edi. Shulardan biri Aleksandr Deych bo'lib, u tez orada Oybek bilan do'stlashib olgan. U TASS muxbiri sifati-da xizmat qilish bilangina kifoyalanmay, shu yillarda o'zbek madaniyati tarixi bilan ham qiziqib, Oybek yordamida bu tarixning munavvar timsoli Alisher Navoiyga hurmat va muhabbat tuygan. Va ular birgalikda Navoiy haqida rus tilida ilmiy-tanqidiy risola yozganlar. Oybek Deychni Navoiy muhitiga olib kirish istagida Eski shahardagi Odam atodan qolgan ko'chalarni aylantirib, ko'rinishi, yurish-turishi, hayot tarzi Navoiy zamon-doshlarini eslatishi mumkin bo'lgan kishilar bilan oshno etgan.

Kunlarning birida bu ikki og'ayni hozir metroning «Hamid Olimjon» bekati joylashgan yerda ketar ekanlar, Oybek olisdan antiqa qiyofali odamni uchratib qoladi; yugura borib, u bilan so'rashadi va suhbatlashib qaytadi. Ma'lum bo'lishicha, bu kishi Oybekning uzoq tanishlaridan biri ekan. Tasodifiy uchrashuvdan mutaassir bo'lgan adib Deychga: «Ana shu kishidan men romanimdagi biror navkar yo hatto bekning siyratini chizishim mumkin», deydi.

Nazarimda, A. Deych orqali bizga yetib kelgan bu xotira ham Oybekning roman ustida olib borgan ko'p qatlamli, murakkab va zavqli-shavqli ishini bir qadar yoritib turadi.

Hozirgina romanni o'qib tugatgan kitobxonga u haqda boshqa biror so'z aytish o'rinsizdir.

Oybek tarixning murakkab davrlaridan birida yashadi. Umuman, ta-rixda nomurakkab davrlar bo'lmaydi. Har bir asr, har bir ijtimoiy tuzum o'ziga yarasha mushkul va chigal davrlardan iborat. Lekin, shunga qara-may, Oybek va uning qalamkash do'stlari yashagan davrni boshqa biror tarixiy muddat bilan aslo qiyoslab bo'lmaydi. Kommunistlar partiyasi bu davrda jamiyatni harakatga keltiruvchi yagona kuchga aylanib, talaygina xayrli ishlarni amalga oshirdi. Sovetlar davrida ro'y bergan yaxshi ishlar-dan biri xalqni yoppasiga ma'rifatlashtirish jarayonidir; maktab va dorilfu-nunlar, gazeta va jurnallar, adabiyot va san'atga shu davrda katta e'tibor

berildi; partiya va hukumat bu borada sarmoyani sira ham ayamadi. Lekin, shu bilan birga, xalqning aql-zakovati, or-nomusi va iftixori bo'lgan kishilarni qirib tashladi; qatag'on degan ajal tegirmonini o'ylab topdi; xalq ustida uzluksiz tajribalar o'tkazdi; tarixni sinfiy va partiyaviy nuqtai nazardan talqin qilish, asosiy e'tiborni sovet voqeligiga qaratishni yozuvchilar oldiga vazifa qilib qo'ydi; sovet voqeligini tasvirlash esa partiya olib borgan har qanday siyosatni, amalga oshirgan barcha tadbirlarni yoqlashni, olqishlashni, sharaflashni anglatar edi. Oybek ham o'zbek adabiyotining yirik arbobi sifatida, jumhuriyat Yozuvchilar uyushmasining rahbari va SSSR Oliy Sovetining deputati sifatida partiya da'vatiga «labbay» deb javob berishi lozim edi. 1937 va 1952-yillarda tikilgan dorlardan arang omon qolgan Oybek o'z ijodiy hayotida sovet jamiyatini idora qilgan qudratli kuchlar bilan hisoblashishga majbur bo'ldi. Shuning uchun ham u, xususan, urushdan keyingi yillarda «qizil» she'rlar yozishga, «Oltin vodiyan shabadalar» va «Nur qidirib» singari badiiy jihatdan pishib yetilmagan asarlar yozishga majbur bo'ldi.

Ana shunday tarixiy-madaniy sharoitda unga chinakam ilhom bergan, uning ijod bulog'ini jo'shtirib yuborgan mavzu Navoiy mavzui edi.

Oybekning ulug' shoirga bag'ishlangan ilk asari — «Navoiy» dostoni 1937-yili Moskvada yozilgan. O'zbek san'ati o'nkunligi sobiq sovetlar mamlakatining poytaxtida «lenincha-stalincha milliy siyosatning tantanasi» sifatida o'tayotgan, boshqa qalamkash birodarlari shu tantanadan sarxush bo'lib, teatr va konsert zallarini, restoranlarni obod qilib yurgan kezlarda Oybek mehmonxonadan chiqmay, shu asarni yozgan.

Keyinchalik «Navoiy» dostoni qo'lingizdagi roman uchun xamirturush bo'lib xizmat qildi.

1941-yilda nishonlanishi mo'ljallangan Navoiyning 500 yillik yubileyi urush tufayli yetti yilga kechiktirildi. 1948-yilda bu qutlug' sana o'zbek xalqining milliy bayrami sifatida tarixda birinchi marta nishonlanganida, yubileyning katta; zalvorli yuki Oybekning zimmasiga tushdi. U ulug' salafiga bo'lgan hurmat va muhabbatini yana bir karra go'zal bir shaklda ifoda qildi.

50-yillarning o'rtalariga kelib, mustabid Stalinning vafotidan keyin sovet jamiyatida yangi hayot shabadalari esa boshladi. Bu hali istiqlool shabadasi emas, balki kommunistlar bunyod etgan jamiyatda turib ham erkin yashash, erkin ijod etish mumkin degan umidning, orzuning muattar shabadalari edi. Shu shabadadan xushnud bo'lgan Oybek yana XV asrga qanot qoqib uchdi. Yana tarixiy asarlarni titishga kirishdi. U o'zidagi ana shu zavq-qabxsh va latif holatni bir ruboiysida tasvirlab, bunday yozdi:

*Tarix so'qmoqlari izimdan cho'tir,  
Har bir xok shivirlar: «Bir lahza o'tir!...»  
«Qushlar tili» piri — yurakda tilak,  
Izlaymen marvarid — qo'limda elak.*

Oybekning 60-yillarda, qo'lda elak bilan, tarix so'qmoqlari bo'ylab qilgan «kezindi»larining samarasi sifatida «Bola Alisher» («Alisherning bolaligi») qissasi hamda «Guli va Navoiy» dostoni maydonga keldi. 30—40-yillarda yozilgan maqolalardan tarkib topgan «Navoiy gulshani» va «Alisher Navoi» (rus tilida, A. I. Deych bilan hamkorlikda) kitoblari chop etildi. Agar 1968-yilda o'limning sovuq qo'llari Oybekni o'z bag'riga tortmaganida, u Amir Temur va Bobur haqidagi ikki dostonini tugatib, yurak qatlarida yotgan azaliy orzusi «Amir Temur» romanini ham yozishga kirishgan bo'lardi.

Afsuslar bo'lsinki, ulug' ijodkorga ajratilgan umr bu xayrli niyatlarining ro'yobga chiqishiga imkon bermadi. Ammo shunga qaramay, Oybekning Alisher Navoiy hazratlarini har bir o'zbekning dil-diliga yaqinlashtirishga qaratilgan ijodiy mehnatni amalga oshirdiki, bu uning buyuk jasoratidir.

Har bir yozuvchi milliydir. Har bir milliy yozuvchi o'z xalqi tarixining yilnomachisidir. Lekin shu bilan birga har bir yozuvchi o'z xalqi hayotiga murojaat qilganida, tabiatiga, qalbining nozik pardalariga yaqin kishini qahramon qilib saylaydi. Don-Juan haqidagi asarni ingliz adabiyotida Bayron, rus adabiyotida Pushkinning yozishi bejiz emas. Karamazovlarning ruhiy iztiroblari va fojiasini Dostoyevskiydan bo'lak biror yozuvchi shu ko'lamda, shunday mahorat bilan ochib bera olmagan. Agar o'zbek adabiyotiga murojaat etadigan bo'lsak, hech kim qori Ishkamba obrazini S. Ayniydek yarata olmasligi aniq. G'afur G'ulomning Shum bola obrazini qoyilmaqom qilib tasvirlaganida ham tasodifiylik yo'q. Xuddi shunday qarashlar bilan yondoshsak, Navoiy Oybekning insoniy tabiati va o'ziga xos porloq iste'dodiga har tomonlama uyg'un siymodir.

«Navoiy» romani o'zbek va rus tillarida bir necha marotaba nashr etilgan. Asar o'z vaqtida qozoq, turkman, ukrain, eston, latish, chex, slovak, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilinib, jahon xalqlari orasida keng tarqalgan. Shu kunlarda asar xitoy tilida ham nashr etildi. Ana shu turli millatlarga mansub kitobxonlar ommasi asarni qizg'in va samimiy kutib oldi. Ulardan biri — arman o'quvchisi esa adibga qalb so'zlari bilan murojaat etib, «Nazarimda, Siz katta muhabbat bilan tasvirlaganingiz Navoiy siymosiga ruhan juda yaqin bo'lsangiz kerak. Aks holda, buyuk o'zbek shoiri siymosini bu qadar yorqin va go'zal yarata olmagan bo'ldingiz», deb yozgan edi. Kitobxonning bu so'zlarida katta haqiqat bor.

Asar tarixiga oid yana bir ajoyib voqeani ham eslagim keladi:

Ma'lumki, Ikkinchi jahon urushi maydonlarida, noilojlik orqasida, dushman qo'lga asir tushgan jangchilar sotqin deb hisoblangan. Ular dushman changalidan ozod qilinishlari bilanoq mamlakat ichkarisidagi lagerlarga jo'natilgan. Peshonasida shunday ko'rgilik yozilgan bir guruh o'zbek jangchilarining baxtiga, ularning birida Oybekning «Navoiy» romani bo'lgan. Shu asar, unda tasvir etilgan voqealar, unda olg'a surilgan hikmatli fikrlar bu baxtsiz jangchilarning it azobida kechgan hayotlarini yorituvchi, ulardan o'n besh kuni yorug' bo'lgan «adolatli erta»ga umid uyg'otuvchi birdan-bir dono maslahatchi, najot yo'lini ko'rsatuvchi qiblanoma bo'lgan.

Bugun mana shu asarning yaratilganiga oltmish yildan oshdi. U shuncha vaqtdan beri yangi va yangi avlodlarni buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy hazratlari bilan tanishtirib, ular qalbiga ezgulik, go'zallik va ma'rifat urug'larini sepib kelmoqda. Umid qilamanki, u o'zining bu xayrli ishini hali uzoq davrlar mobaynida sharaf bilan davom ettiradi.

Sovet davrining mashhur shoiri Mayakovskiy «To'yona» degan she'rida o'zining kelajakda Pushkin bilan yonma-yon turishiga ishonch bildirgan edi. Bugunning o'zidayoq bu ishonch piyolasi kommunizmning xarobalari ostida chil-chil bo'lib sindi. Ammo kamina Oybekning suyak Navoiy bilan hozir va kelajakda inoq yashashlariga astoydil umidvorman.

**Naim KARIMOV,**  
filologiya fanlari doktori, professor.

«Asr oshgan asarlar»

OYBEK

NAVOIY

*Roman*

Toshkent  
«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
2004

Muharrirlar: *M.Sa'diy, D.Ismoilova*  
Musavvir: *M.Samoylov*  
Texnik muharrir: *R.Boboxonova*  
Sahifalovchi: *L.Batseva*  
Musahhihlar: *Yu.Bizaatova, Sh.Xurramova*

Terishga berildi 18.03.2003. Bosishga ruxsat etildi 15.05.2003. Bichimi 84x108 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>. «Tayms» garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 26,8. Nashriyot hisob tabog'i 23,5. Adadi 10.000 nusxa. Buyurtma № 4733. Bahosi shartnoma asosida.

**«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.**